



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«МАКТАБГАЧА ТА'LIM:
XALQARO TAJRIBA
VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
2022 YIL 11 MAY**

**«ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ
И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ»**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
11 МАЯ 2022 ГОД**

**«PRESCHOOL EDUCATION:
INTERNATIONAL EXPERIENCE
AND MODERN APPROACHES»**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
MAY 11, 2022**

Konferensiyaning tashkiliy va dasturiy qo‘mitasi

1. A.K.Qirgizboyev TDPU rektori, tashkiliy qo‘mita raisi
2. B.S.Abdullayeva TDPU ilmiy ishlar va innova tsiyalar bo‘yicha prorektori, rais o‘rinbosari
3. N.X.Rahmonkulova TDPU xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor, rais o‘rinbosari
4. M.T.Xamdamova TDPU Maktabgacha ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo
5. N.N.Djamilova TDPU Maktabgacha ta‘lim metodikasi kafedrası professori, p.f.d, a‘zo
6. D.R.Babayeva TDPU Maktabgacha ta‘lim metodikasi kafedrası professori, p.f.n a‘zo
7. Sh.A.Sodiqova TDPU Maktabgacha ta‘lim metodikasi kafedrası mudiri, dotsent p.f.n a‘zo
8. M.N.Agzamova TDPU Maktabgacha psixologiya va pedagogika kafedrası mudiri p.f.n , a‘zo
9. D.A.Choriyeva TDPU Maktabgacha psixologiya va pedagogika kafedrası, dotsent v.b (PhD)
10. Sh.T.Xasanova TDPU Maktabgacha ta‘lim metodikasi kafedrası dotsent a‘zo

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori, professor B.X.Xodjayev

Pedagogika fanlari doktori, professor v.b. M.B.Urazova

To‘plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma‘lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas‘uldirlar.

BOSH MAQOLA

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI UCHUN RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASH ISTIQBOLLARI

Qirg'izboyev A.K.

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika
universiteti rektori*

O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, bu esa ta'lim-tarbiya tizimi asosiy zamin bo'lib xizmat qilishini anglatadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida, turli shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrleydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish, umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish, maktabgacha ta'lim sohasidagi istiqbol maqsadlarga intellektual salohiyatni safarbar qilish orqali erishish imkonini berdi.

Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi qarori asosida mamlakatda birinchi marotaba «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi» tashkil etildi va yangi tashkil etilgan Vazirlik uchun bir qancha vazifalar belgilab berildi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, umumiy o'rta ta'limga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Zero, inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni angelaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Ta'kidlash joizki, olib borilayotgan islohotlar samarasi o'laroq mamlakatimiz hududida oxirgi besh yilda bog'chalar soni 5 ming 200 tadan 27 ming 100 taga oshdi. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2 barobar ortib, 67 foizga yetdi. Davlat tomonidan berilgan imkoniyat va imtiyozlar natijasida xususiy va oilaviy bog'chalar ham ko'payib, bugungi kunda barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 1 million 700 ming nafar bola tarbiyalanmoqda. Xususan, bugungi kunda respublikada jami 27103 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib,

ularning 6387 tasi davlat va 20716 tasi nodavlat (774 ta xususiy, 18 797 ta oilaviy va DXSh asosidagi 1145 ta nodavlat) maktabgacha ta'lim tashkilotlaridir. O'tgan 2021 yilning o'zida 13 098 quvvatga ega 120 ta DXSh (Davlat xususiy sherikchilik) asosidagi NMTT (Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari) hamda 239 484 quvvatga ega 8 553 ta oilaviy shakldagi NMTTlar tashkil etilishiga erishildi. O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya» qonuni maktabgacha ta'lim va ota-onalarning bolalarini ta'lim-tarbiya sohasidagi munosabatlarini tartibga solishga imkon berdi.

Toshkent davlat pedagogika universiteti Respublikada maktabgacha ta'lim yo'nalishida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining o'quv-metodik ta'minotini amalga oshirish uchun tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

O'zining qariyb 90 yillik tarixi va shonli an'alariga ega bo'lgan universitet bitiruvchilari bugun nafaqat mamlakatimiz balki, ko'plab xorijiy davlatlarda pedagogik faoliyat bilan mashg'ul.

Uzoq yillar davomida universitetda ta'limning zamonaviy texnologiya va metodlarini ishlab chiqish, joriy qilish bo'yicha boy tajriba to'plangan. Davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan 2022/2023 o'quv yilidan boshlab pedagogika sohasida tahsil olayotgan talabalarning 4+2 sxemasi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lishini nazarda tutgan o'quv rejalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish mo'ljallanmoqda.

Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlashda uch yillik ta'lim tizimiga o'tishda Xorijiy mamlakatlardan Janubiy Koreyaning Chunjang, Doksan, Ixva, Koreya Milliy universiteti va Koreya pedagogika universitetlarining «Maktabgacha ta'lim» yo'nalishlari o'quv rejalari va ulardagi pedagogik jarayonni tashkil etilishini o'rganib, tahlil qilindi va tahlillar asosida, 5111800-Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi ishlab chiqildi.

Ushbu tashkiliy ishlarning o'quv-uslubiy jihatdan zamonaviy talablarga javob berishi uchun universitetda pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanmoqda. Bu bosqichda albatta, zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalari o'rganilib ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ruh, yangicha yondashuv, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish esa soha pedagoglaridan puxta tayyorgarlik, mahorat va bilim talab etayotgani jarayonda ma'lum bo'ldi. Shu sababli maktabgacha ta'lim mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar salmog'ini va sifatini oshirish masalasi, Nizomiy nomidagi TDPUda qayta Maktabgacha ta'lim yo'nalishini alohida fakultet sifatida tashkil ettirish vazifasi qo'yildi.

2019-2020 o'quv yilidan qayta yangicha ruh berilgan fakultetning kunduzgi bo'limida 847 nafar, sirtqi bo'limida 647 nafar, 2-OTM (ikkinchi oliy ta'lim (sirtqi) yo'nalishida 33 nafar hamda magistratura yo'nalishida 44 nafar talabalar tahsil olmoqda. Fakultetda hozir 2 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi: 1).Maktabgacha ta'lim. 2).Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi ta'lim yo'nalishi hamda 5A111801-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim)

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ham kadrlar tayyorlanadi. Mazkur o'quv yilida maktabgacha ta'lim yo'nalishini jami 223 nafar bitiruvchi bitiradi.

Nizomiy nomidagi TDPUning Maktabgacha ta'lim fakulteti O'zbekiston Maktabgacha ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bolalar jamg'armasi-YuNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi, M.Tank nomidagi BGPU, Koreyaning Toshkent shahridagi Puchon universiteti, Gersin nomidagi Sankt-Peturburg pedagogika universiteti, M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universitetlari hamda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti bilan-hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Davlatimiz rahbari o'qitish tizimi, jumladan maktabgacha ta'limni takomillashtirish bo'yicha soha xodimlari oldiga qo'yayotgan vazifalar jamoamiz zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek Toshkent davlat pedagogika universiteti aynan maktabgacha ta'lim uchun kadrlarni tayyorlash bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi sanaladi.

Oliyohda talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida qator amaliy ishlarga qo'l urilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimidagi dolzarb vazifalardan biri kadr yetishmasligi muammosini hal qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi ikki oy ichida maktabgacha ta'limning kunduzgi shaklida tahsil olayotgan 847 nafar talabalarning 261 nafari ya'ni 31 foizi ish bilan ta'minlandi. Talabalarning ish bilan bandligi hali tizimli ravishda davom etadi.

Ta'lim tizimidagi islohotlarning joylarga yetib borishi kadrlarning bugungi kun talablarini to'liq anglab yetishi va ularga javob berishiga erishishda ham universitet jamoasidan katta mehnat talab etiladi.

Hozir biz maktabgacha ta'lim tizimi uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishga mas'ulmiz. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda yangi O'zbekiston yangidan- yangi yuksak marralarga erishishi, insoniyat baxt- saodati, farovonligi va ravnaqi uchun o'rnak bo'lishiga shubha yo'q.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017 y.

2. Холикова У.М. (2020). Эмоционально-методические системы обучения математическим концепциям в дошкольном образовании на основе информационных технологий. Academy.

3. Xalikova U.M. (2021). Maktabgacha ta'lim samaradorligida multimedia texnologiyasining o'rnini. Scientific progress.

4. Халикова У.М. (2021). Рақамли технологиялар воситасида мактабгача ёшдаги болаларнинг элементар математик куникмаларини шакллантириш. Scientific progress.

5. Халикова У.М. (2021). Мактабгача ёшдаги болаларнинг ақлий компетенциясини оширишда электрон кулланималарнинг ахамияти. Scientific progress.



TARBIYACHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva B.S

Nizomiy nomidagi TDPU, p.f.d., professor

Inson shaxsining barcha bilimlari rivoji darajasiga qator yangi talablarni ilgari suruvchi jamiyatni axborotlashtirish ta'lim tizimini ham chetlab o'tmadi.

Bugungi kunda axborot oqimining shiddatli o'sishi jamiyatda axborot turlarining keskin o'sishi sababli har bir yangi avlod asosiy bilimlarni talab etuvchi butunlay yangi vaziyatga duch kelmoqda. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini ta'minlash; davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O'zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish; xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish; davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o'zaro aloqada ishlashini ta'minlash; axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish; axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko'maklashish; dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag'batlantirish; tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish; kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Zamonaviy ta'lim muassasalari ijtimoiy faol, ijodiy tafakkurga ega shaxsni, bitiruvchilarda axborot oqimiga yo'naltirilgan malakalarni shakllantirishga, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, mustaqil ta'lim, mavjud bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirishni o'z oldiga qo'ygan.

“Pedagogik ensiklopediya”da madaniyat “jamiyat rivojining, inson ijodiy kuchi va qobiliyatlari, ularning o'zaro munosabatlaridagi, shuningdek, ular tomonidan yaratiladigan moddiy

va ma'naviy qadriyatlardagi tarixiy muayyan darajasi. Madaniyat o'z ichiga ... inson faoliyatida amalga oshiriladigan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, intellektual, axloqiy va estetik rivojlanish, dunyoqarash darajasi, muloqot usullari va shakllarini kiritadi" deb ta'riflanadi [2; b.486].

"Axborot kompetentligi" tushunchasining mazmuniga turli mualliflar nimalarni kiritishlarini ko'rib chiqamiz.

O.G.Smolyaninova shuningdek axborot kompetentligini "axborotni izlash, qabul qilish, qayta ishlash, ifodalash va yetkazishning, axborotni umumlashtirish, tizimlashtirish va bilimga aylantirishning universal usuli" sifatida talqin etadi [4; b. 161].

N.X.Nosirova bo'yicha axborot kompetentligi quyidagilar kabi elementlarga ega bo'ladi:

- texnik, dasturiy vositalar va axborot sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga motivatsiya, ehtiyoj va qiziqish;
- zamonaviy axborot jamiyatining tizimini ifodalovchi ijtimoiy, tabiiy va texnik bilimlarning majmui;
- izlanishlik bilishga oid faoliyatning axborot asosini tashkil etuvchi bilimlar;
- izlanishlik bilishga oid faoliyatning operatsion asosini belgilovchi usullar va amallar;
- dasturiy ta'minot va texnik resurslar sohasida izlanish faoliyati tajribasi;
- "inson-kompyuter" munosabatlari tajribasi [5].

Axborot kompetentligi axborotni izlash, qabul qilish, qayta ishlash, taqdim etish, uzatish uchun yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalar va metodlardan foydalanish ko'nikmasi bilan bog'lanadi. Axborot kompetentligi nafaqat axborot bilan ishlash uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi bilan, balki axborotni tahliliy-sintetik qayta ishlashni amalga oshirish, axborot-izlash tizimi sifatida kutubxonadan foydalanib axborot-izlash vazifalarini hal qilish, ya'ni an'anaviy texnologiyalardan foydalanish bilan axborot faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq.

Zamonaviy sharoitlarda tarbiyachining axborot kompetentligi uning umuman kasbiy pedagogik kompetentligini belgilashi ma'lumdir. Shu tariqa, tarbiyaning axborot kompetentligi uning kasbiy kompetentligining zaruriy tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Turli mualliflar tarbiyaning axborot kompetentligiga informatika asoslari sohasidagi bilimlar va ko'nikmalar; ta'lim sohasidagi hujjatlarning asosiy turlari va nashr ko'rinishlarini bilish; axborotni analitik-sintetik qayta ishlashning formal metodlarini egallaganlik; kasbiy axborot ehtiyojlariga mos ravishda axborot izlash usullarini egallaganlik; axborotni interpretatsiyalar hamda ta'lim va tarbiya vazifalariga moslashtirish ko'nikmalari; o'quv axborotini bayon etish ko'nikmalari; yangi axborot texnologiyalari va Internet tarmog'idan foydalanib axborotni to'plash, qayta ishlash, izlash, saqlash va taqdim etish bilan bog'liq

ko'nikmalar; o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun unda yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari kabi tashkil etuvchilarni kiritadilar.

Kompetentlikning tabiati shundayki, u faqatgina insonning qadriyatlari bilan uyg'un birlikda, ya'ni mazkur faoliyat turidan chuqur shaxsiy manfaatdorlik sharoitida namoyon bo'lishi mumkin. Shuning uchun axborot kompetentligining kognitiv (bilimlar) va operatsional-texnologik (ko'nikmalar, tajriba) komponentlaridan tashqari individda axborot faoliyatini sifatli amalga oshirishga ichki motivatsiyaning mavjudligini, mazkur faoliyatga qadriyat sifatidagi munosabatning mavjudligini ko'zda tutadi.

Tarbiyachi axborot kompetentligining tuzilishi maktabdagi mavjud turli ma'lumotlar bazasi bilan ishlash, ularni qabul qilish va ularni o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga aylantirish qobiliyati va tayyorligi; olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish hamda o'qitishning shaxsiy usullarini tashkil etish qobiliyati va tayyorligi; guruh jamoasi bilan ishlab faoliyatga qo'shilish, hamkorlik qilish; axborot va kommunikatsiyani o'zlashtirishning yangi texnologiyalaridan foydalanish.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish to'g'risidagi qonuni . T.: 2004 y
2. Gershunskiy B.S. Kompyuterizatsiya v sfera obrazovaniya: Problemy i perspektivy / B.S.Gershunskiy. – M.: Pedagogika, 1987. - 264 s.
3. Morozova N.A. Dopolnitelnoe obrazovanie kak odna iz naibolee znachimykh osnov obespecheniya formirovaniya klyuchevykh kompetensiy cheloveka // Problemy kachestva obrazovaniya. Kniga– M.: Ufa: Issled. sentr problem kach-va pod-ki spes-v, 2003. - S. 60-67.
4. Smolyaninova O.G. Razvitie metodicheskoy sistemy formirovaniya informatsionnoy i kommunikativnoy kompetentnosti budущеgo uchitelya na osnove multimedia-texnologiy: Dis. ... d.p.n. / O.G.Smolyaninova. – SPb., 2002. - 504 s.

MAKTABGA TAYYORGARLIK GURUHI BOLALARINING O'QUV FAOLIYATIDA O'ZINI NAZORAT QILISHNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YONDASHISHLARI

Hamdamova M.T.

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti
dekani, (PhD), dotsent v.b.*

O'z-o'zini nazorat qilish — kamchiliklar va xatolarning oldini olish yoki aniqlashga qaratilgan inson faoliyatining har qanday turining asosiy qismidir. Ya'ni, o'zini-o'zi nazorat qilish yordamida,

odam har doim o'yingda, ishda yoki o'qishda nima bo'lishidan qat'i nazar, o'z harakatlarining to'g'riligini anglaydi.

Ta'lim faoliyatini tashkillashtirish bolalarda mustaqil ravishda mustaqil ta'lim vazifalarini belgilash, o'quv faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish uchun o'quv tadbirlarini tanlash, ish jarayonini kuzatish va natijalarni baholash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida, u maktab yoki maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lsin, bola o'zini baholash va nazorat qilish ehtiyojidan ozod qilinadi. Shu munosabat bilan, bolaning ta'lim faoliyati asta-sekin baholovchi va nazorat qiluvchi tarkibiy qismlarni va shu sababli ichki yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi asosni yo'qotmoqda.

Ta'kidlash joizki, amalda, bolaning tashqi nazorati natijaga qarab ustunlik qiladi, bu erda har bir qadamning to'g'riligi va har bir qadamni emas, balki natijani emas, balki individual jarayonlar ketma-ketligi tekshiriladi. Bu bo'lajak o'quvchilarda o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon bermaydi [3, 119-b].

Bu katta yoshdagi maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida, chalg'itmaslik uchun bolalar turli usullarni qo'llashni boshlaydilar. Motor sezgilarining nazorati ostida ular o'zlarining xatti-harakatlarini boshqarishni boshlaydilar. Katta yoshli bola ancha vaqt davomida sobit pozitsiyani saqlab qoladi, bu esa ulardan ko'p harakat talab etmaydi [12, 220-b].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ichki aqliy tekislikda sodir bo'ladigan ruhiy jarayonlar tasodifiylikka aylanadi: tasavvur, idrok va nutq, fikrlash, xotira. Xuddi shu yoshda, kattalar bilan muloqotda tasodifiylik shakllanadi. Voyaga etgan kishining so'rovlari va topshiriqlari bilan bog'liqlik, taklif qilingan qoidalarga muvofiq ularni qabul qilish va bajarish qobiliyati muloqotning tasodifiyligining ko'rsatkichidir. Bu tasodifiylikning asosiy xususiyatlari bo'lgan anglash va xabardor bo'lishdir [12, 221-b].

O'yingda rol o'ynash — bu bolaning xatti-harakatlarini boshqarishga yordam beradigan tashqi ustun. Qoidalar to'g'ridan-to'g'ri bolaga tegishli emas, balki rol orqali amalga oshiriladi. Tarbiyachi bolaning harakatlarini rag'batlantiradi va ularni amalga oshirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qoidali rol o'ynash o'yiniga rioya qilish qiyin emas va bu qoidalar hayotda buzilishi mumkin. Katta maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar o'zlarini, ularning imijlarini o'z vaqtida ko'rishlari mumkin (nima qilaman yoki nima qildim, nima qila olaman).

Bolalarning tasodifiylik bilan xatti-harakatlarining rivojlanishi O'z-o'zini anglash va faoliyatning individual komponentlari bilan bog'liq. 5 yoshga kelib, bola nafaqat maqsadlar va obyektlarni, balki ular bilan ishlash usullarini ham aniqlaydi. Va 6 yoshga kelib, qurilish ishlari tajribasi umumlashtiriladi. Bolaning o'z faolligi va tashabbusi tasodifiy xatti-harakatlarning shakllanishidan dalolat beradi. Bola tarbiyachining ko'rsatmalariga amal qiladi: "Mushukni rasmini chiz", "Bor qo'lingni yuv", "O'yinchoqlarni yig'ishtir" va u o'zing maqsadga erishishda tashabbus

ko'rsat: "Keling xor bo'lib kuylaymiz", "Ketdik, Onalar-qizlarni o'ynaymiz". Tasodifiylikning ko'rsatkichi — bu o'z harakatlarini rejalashtirish va tashkil qilish, maqsadlarni belgilash va o'zini aktyor sifatida tanib olishda bolaning kattalarnikidan nisbiy mustaqilligi. Mustaqil faoliyatda bola tashqi nazorat bo'lmasa, axloqiy me'yorni tez-tetez va osonlikcha buzadi. Bu ularning harakatlarini tartibga solishning ichki mexanizmining shakllanmaganligidan dalolat beradi. Tasodifiylik, shuningdek, o'z harakatlariga ma'nolarni qo'shish qobiliyatini, o'zlarining o'tmish tajribalarini hisobga olishni, bu harakatlar nima uchun amalga oshirilayotganligini tushunishni ham beradi. Masalan, agar bolalar onasi qilgan sovg'asi uchun qanchalik baxtli bo'lishini tushunishlari va tasavvur qilishlari mumkin bo'lsa, unda ularga bu ishni bajarish oson bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish asosida, o'z faoliyatini tartibga solish shakllanadi. O'zlarining xatti-harakatlarini nazorat qilishning dastlabki shartlari yosh maktabgacha tarbiyalanuvchida paydo bo'ladi, bu bolaning mustaqillikka intilishidan kelib chiqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qoidalar, natijalar va harakatlar tartibidan xabardorlik o'zini o'zi nazorat qilishni shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolada o'zini o'zi nazorat qilishni rivojlanishida ikki jihat ajralib turadi:

- O'z-o'zini tekshirish usullarini ishlab chiqish;
- ularning ishini moslashtirish va tekshirish zaruriyatini ishlab chiqish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar katta yoshlilarning talablarini yaxshi bilishadi, lekin har doim ham ular bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtira olmaydilar. Agar o'qituvchi talab qilsa, ular O'z-o'zini tekshirib ko'rishlariga murojaat qilishlari osonroq. Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa va ishning to'g'riligiga shubha tug'dirsa, o'zini o'zi nazorat qilish zaruriyati paydo bo'ladi. Bolani asosan natijaga jalb qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kattalar rahbarligisiz katta yoshdagi bolalarda O'z-o'zini nazorat qilish talab etilmasligi mumkin. Muvaffaqiyatli ravishda o'zini o'zi nazorat qilish maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar tomonidan bir-birlarini o'zaro nazorat qilish natijasida yuzaga keladi.

Bolalar o'zaro nazorat paytida "boshqaruvchi" va "ijrochi" funksiyalarini o'zgartirganlarida, ularning ishlariga bo'lgan talablar ortadi, uni boshqalarning ishi bilan solishtirish istagi paydo bo'ladi, buni yaxshiroq qilish istagi paydo bo'ladi. Ya'ni, o'zaro nazorat bu O'z-o'zini boshqarishning rivojlanishiga turtki bo'lib, faoliyatni qoidaga muvofiqlashtirish qobiliyatini talab qiladi [12, 224-b.].

Maktabgacha katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarda O'z-o'zini nazorat qilishdagi kamchiliklarni tuzatish va bartaraf etishga qaratilgan faoliyat sifatida ishlaydi. Ammo, bolalar o'zlaridan ko'ra tengdoshlarini nazorat qilishi osonroq. Bolalarda o'zini o'zi nazorat qilishning paydo bo'lishi, ya'ni, o'z xatti-harakatlarini (va so'zlarini) o'rgatilgan narsalar bilan taqqoslash qobiliyati ta'lim faoliyati rivojlanishidagi muhim bosqichdir [8, 478-b].

Bolalar o'zlarini, o'zlarini tomosha qilishni va ularga berilgan ko'rsatma va tushuntirishni nazorat qilishni boshlaydilar. Bolalarda ish jarayonini diqqat bilan rivojlantirish uchun asos aynan

shunday o'zini tuta bilishdir. Bu qurishni, chizishni boshlashdan oldin, bolalar pauza qiladilar va keyin ishga kirishadilar. O'z-o'zini nazorat qilish bolalar ruhiyatida, harakatlar rejimida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Bolalar nafaqat ko'rsatmalarni "tinglashadi", balki ularni "eshitishadi", ularni o'z ishlarida ishlatishadi. Bolalarda "tinglash" qobiliyati maktabgacha ta'lim tashkilotida olib borilgan tarbiyaviy ishlarning natijasidir. "Eshitish" qobiliyati katta yoshdagi odamlarning reaksiyalari bilan bog'liq bola biron narsani orqaga surishni so'raydi, savol beradi, tushuntirishni so'raydi va hokazo. [6, 228-b]

Bu shuni ko'rsatadiki, bolalar bajaradigan ishlariga qiziqish bildirishadi va ular buni oddiy itoatkorlik bilan qilmaydi. O'z-o'zini boshqarishning paydo bo'lishi — bu o'rganish ta'siri ostida bolaning xatti-harakati va ongida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rsatadigan eng muhim dalil.

Bolalar ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi, ko'pincha duch keladigan bir-biriga mexanik taqlid yo'q qilinadi. O'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantiradigan bolalar tushuntirishga tayanib, endi boshqa bolaning noto'g'ri harakatlariga e'tibor bermaydilar. Xatti-harakatlarning mustaqilligi, konsentratsiyasi xatti-harakatlaridagi tashqi ko'rinish o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq va mashg'ulot amaliyotiga bog'liq. Umuman olganda, bolalar diqqati, yo'naltirilgan bo'lishi kerakligi haqida eslatmalarga muhtoj emas, chunki o'quv jarayonining o'zi bolalarga va ularning xatti-harakatlariga intizomli ta'sir ko'rsatadi [7, 87-b].

Ko'pincha boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar o'zini tuta bilish darajasining pastligi haddan tashqari faollik, aqliy, axloqiy, hissiy rivojlanishdagi kechikishlar bilan birga keladi. Maktab topshiriqlarini bajarishdagi qiyinchiliklar faolligi yuqori bo'lgan bolalarda yuzaga keladi, chunki ular uchun xotirjam o'tirish va diqqatni jamlash qiyinroq. Ular nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish harakatlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga ega. Bu ta'lim faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir [10, 558-b].

D.B.Elkonin va V.V.Davydovlarning ta'kidlashicha, nazorat qilish harakati maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatining yaxlit tuzilishi doirasida ko'rib chiqiladi. Shunday qilib, D.B.Elkoninning fikriga ko'ra, o'zini-o'zi boshqarish va nazorat qilish, avvalo, o'z harakatlarining bir qismi bo'lgan operatsiyalarning to'g'riligi va to'liqligini nazorat qilishni tushunish kerak [11,254].

Harakatda ijro etuvchi, indikativ va boshqarish funksiyalari bajariladi. N.F.Talizinaning ta'kidlashicha, insonning har qanday harakati "boshqarish organi", ijro etuvchi "ishchi organ", kuzatuv va taqqoslash mexanizmini o'z ichiga olgan nazoratning mikroizimi hisoblanadi [11, 258-b].

P.Ya.Galperin boshchiligidagi bir guruh psixologlar nazorat qilishni ixtiyoriy diqqatning shakli sifatida o'rgangan, diqqat bu nazorat, ammo har bir nazorat diqqat emasligini ta'kidladi. Aynan mana shu qoida tarbiyaviy faoliyatni boshqarish xususiyatlarini tushunishga mos keladi [11, 262-b].

L.V.Bertsauining ta'kidlashicha, agar kishi o'z harakatlarini namuna bilan taqqoslasa, u ixtiyoriy e'tibor shaklida nazoratdan foydalanadi. Talaba etarli darajada harakat qilish usullarini

izlayotgan ta'lim faoliyatida u ixtiyoriy e'tibor shaklida nazoratdan foydalana olmaydi. Shuningdek, u o'quv faoliyati ustidan nazorat qilish kerakligini aytadi, bu obyektiv harakatning uni amalga oshirish shartlari va kutilgan natijalar bilan o'zaro bog'liqligi. Bertsfau faol va samarali nazoratni ta'kidlaydi. Masalan, ma'lum bir ta'lim muammosini hal qilishning zarur usullarini izlayotganda, talabalar taklif etilgan harakat usullarini ichki ravishda o'ynashlari va ularni kutilgan natijalar bilan taqqoslashlari kerak. Bu profilaktik nazorat. Agar talaba harakat usulini o'zgartirib, uni yangidan qursa, u boshqa boshqaruv turidan foydalanadi: u biron bir usulni tanlamaydi, balki uni o'zi (yoki o'qituvchining yordami bilan) quradi. Shunday qilib, refleksiv boshqarish amalga oshiriladi.

D.B.Elkonin ta'lim faoliyatida nazoratning ikki turini ta'kidladi:

- natijani nazorat qilish topshiriq bajarilgan yoki qilinmaganligi, uning qanchalik sifatli ekanligi asosida amalga oshiriladi. Agar talaba xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, nazorat jarayoniga qaytadi degan ma'no bor;

- jarayonni nazorat qilish — bu natijani olish usullari, operatsiyalari va harakatlarini aniqlashtirish. Ushbu nazorat uchun siz talabalarning tartibini, ishlash usulini bilishi kerak [11, 259-b].

M.V.Gamezo nazorat harakati bu harakat, tashqi tomondan o'rnatilgan loyiha bilan xatti-harakatlarning o'zaro bog'liqligi deb hisoblagan. U nazoratning uch turini aniqlaydi:

- natija bo'yicha (yakuniy nazorat),
- tezkor (harakat yo'nalishini kuzatish, faoliyatni to'g'rilash),
- istiqbolli (yaqinlashib kelayotgan tadbirlar va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini taqqoslash, oldinda bir nechta operatsiyalarni bajarish uchun sozlash).

O'z-o'zini nazorat qilish 3 jihatni o'z ichiga oladi:

- haqiqiy harakat va tasvirni taqqoslash jarayoni;
- harakatning kerakli natijasi tasviri;
- harakatni tuzatish va davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilish [2, 358- b.].

Bu subyektning uni amalga oshirish ustidan ichki nazoratining tuzilishi. G.V. Repkina va E.V. Zaykalar o'quv mashg'ulotlarining me'yorida olib borilishining asosiy sharti ularning bajarilishini nazorat qilishning mavjudligi ekanligini isbotladi [1, 208-b].

O'qitishning dastlabki bosqichida o'zini o'zi nazorat qilish namunaga, so'ngra g'oyaga muvofiq amalga oshiriladi va nihoyat namunalarining umumlashtirilgan namoyishiga asoslanadi. Bajarilgan vazifalar natijalarini bajarilgan harakatlar bilan taqqoslash qobiliyati o'quvchining o'quv faoliyatida o'zini o'zi nazorat qilishning boshlang'ich turlari shakllanganligidan dalolat beradi [9, p. 38].

E.V.Zayka va G.V.Repkinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zini o'zi nazorat qilishning quyidagi rivojlanish darajalarini aniqladi:

- nazoratning yo'qligi;

- ixtiyoriy e'tibor darajasida nazorat qilish (ongli va ongsiz);
- ixtiyoriy e'tibor darajasida potensial nazorat (xatolarini tuzatadi, o'z harakatlarini tushuntiradi);
- ixtiyoriy e'tibor darajasida amaldagi nazorat (o'rganilgan umumiy harakatlar sxemasi bilan muammoni hal qilish jarayoni bilan muvaffaqiyatli bog'liq);
- potensial refleksiv nazorat;
- haqiqiy refleksiv nazorat (xatolarni mustaqil ravishda aniqlaydi) [4, 247-b].

Shunday qilib, ta'lim faoliyatida o'zini o'zi nazorat qilish — bu obyektiv harakatning uni amalga oshirish shartlari va kutilgan natijalar bilan bog'liqligi.

Namuna bilan bajarilgan harakatlarni taqqoslash, ularning harakatlarining natijalarini oldindan ko'rish va xatolarning oldini olish imkoniyati mavjud bo'lganda, o'zini o'zi nazorat qilish rivojlangan deb hisoblanadi. Shuni yodda tutish kerakki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosi, bolalarning shaxsiy va kognitiv sohasini rivojlantirishdagi muhim rolga qaramay, juda yaxshi tushunilmaydi [5, 118-b].

Adabiyotlar:

1. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. - СПб.: Питер, 2009. – 400 с.
2. Гамезо М. В., Петрова Е. А., Орлова Л. М. Возрастная и педагогическая психология. - М.: Педагогическое общество России, 2003. – 512 с.
3. Гиппенрейтер Ю. Б. Введение в общую психологию. Курс лекций. М.: «ЧеРо», при участии издательства «Юрайт», 2002. – 336 с.
4. Давыдов В. В. Психологические проблемы учебной деятельности школьника. - М.: Педагогика, 1977. – 308 с.
5. Зак А. З. Развитие умственных способностей младших школьников. - М.: ВЛАДОС, 1994. – 320 с.
6. Зеньковский В. В. Психология детства. -Екатеринбург: Деловая книга, 1995. – 350 с.
7. Зимняя И. А. Педагогическая психология. - М.: Издательская корпорация «Логос», 1999. – 384 с.
8. Немов Р. С. Общие основы психологии. - М.: ВЛАДОС, 2006.– 687 с.
9. Репкина Г. В., Заика Е. В. Оценка уровня сформированности учебной деятельности. - Томск: Пеленг, 1993. – 61 с.
10. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер, 2000. – 712 с.
11. Семенюк Л. М. Хрестоматия по возрастной психологии. - М.: Институт практической психологии, 1996. – 304 с.

MUSIQA SAN'ATNING IFODALI TURLARI

Abdullayeva I.X.

Nizomiy nomidagi TDPU 1-bosqich magistri

Musiqqa san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqqa eshitish vositasida idrok qilinadi. Musiqqada tuyg'ular hayotiy tuyg'ularning aynan o'zi bo'lmay, ular tanlab olingan, tasodifiy lahzalardan tozalangan, muayyan orzular nuqtai nazaridan anglangan bo'ladi. Musiqqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg'ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to'liqlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. Musiqqa san'atning raqs, qo'shib turlari bilan qo'shilganda etakchilik qilsa, sahna, kino, oynayi jahon asarlarida yordamchi vazifani bajaradi. Ifodali san'at tizimida raqs san'ati ham muhim o'rin tutadi. Raqs qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lib, dastavval u maishiy turmush bilan bog'langan ov, jang, e'tiqod timsollari edi. Xalq raqslari bir vaqtning o'zida ham san'at turi, ham faoliyat turi tarzida namoyon bo'ladi. Musiqqa san'atidir. Musiqqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. *Raqs san'ati insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan hissiy taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu san'at dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik mustaqil san'at turiga aylangan. Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo'la borgan. Ijrochining libosi raqs obrazlariga aniqlik bergan.* Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida tarkib topib rivojlangan. O'zbek raqslari mazmunini ifodalashda ijrochilar tepki, qarsak, zangdan ham foydalanganlar. Ayrim raqslar ro'mol, piyola, qadah kabi buyum bilan ijro etilgan, ba'zan ijrochi xalq cholg'u asboblarida (qayroq, doira, nog'ora va h.k.) o'ziga o'zi jo'r bo'lgan. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimiylikidan guvohlik beradi. ¹ Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" davridayoq raqs san'ati shakllanib, xalq va professional raqs – ikki yo'nalishda rivojlanishga kirishgani haqida tarixiy ma'lumotlar bor. Shuningdek, turli taraqqiyot bosqichlarida yurtimizda raqs va o'yinlar bir-biriga ta'sir ko'rsatishi natijasida "Beshqarsak", "Katta o'yin", "Lazgi", "Kema o'yin", "Ashshadaroz" kabi qadimiy o'yinlar vujudga

¹Raqs san'atini rivojlantirish konsepsiyasi

kelgan. XX asrga kelib raqs san'ati Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg'ona raqsi yo'nalishida shakllanib, zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida rivojlandi.

Tomosha – qorishma san'at turlari tizimiga teatr, ochiq sahna (estrada), sirk, kino, televideniye kiradi.

Teatr san'ati fazo va vaqtli belgilarga ega. Undagi buyum – jihozlar muhiti, sahna bezaklari, kiyim – kechak va nihoyat aktyorning o'zi muayyan fazali xususiyatga ega. Aktyor mahorati teatr san'atining tub va nodir xususiyatidir. Aktyor sahnada bir vaqtning o'zida ham ijodkor, ham qiyofa yaratuvchi, ham ijrochi bo'la oladi. "Teatr" so'zi yunoncha "teatrov" so'zidan olingan bo'lib, qadimgi yunonlar ommaviy tomoshalar bo'ladigan joylarni "teatrov" deb ataganlar. Yevropa tadqiqotchilari bu tomoshalarning asoslarini "Dyonis marosim"larida ko'radilar. Teatrning o'ziga xos "tili" xarakdir. Teatr san'ati jamoaviy san'at turi bo'lib, uning yutug'i badiiy yaxlitlikka erishishda namoyon bo'ladi.

Kino san'ati kinematografik texnika namoyon bo'lish shakllaridan biridir. Uning texnik asosini suratga tushirish va kinokamera tashkil etadi. Kino boshqa san'at turlari, xillari, ko'rinishlari ifoda vositalaridan kori shima hosil qiladi. Hozirgi kino san'ati bir qator ifoda vositalari orqali vujudga keladi. Unda rang tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Kino ovoz bilan tirik. Ovozli kino inson bilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kino kinoaktyor oldiga ham o'ziga xos talablar qo'yadi. Televideniyeining ilk badiiy vazifasi san'at turlari, xillari, ko'rinishlari samaralarini namoyish qilishdan iborat bo'lgan. Hozir u estetik faoliyatini alohida sohasi sifatida qaror topdi

San'at turlari va ko'rinishlarining deyarli hammasi birga singib, estetik ta'sir etishining samarali vositasiga aylanmoqda.

Janr tushunchasi san'atning tur va xil tushunchalari bilan uyg'un tarzda in'ikos etiladi va insonning voqelikka estetik munosabati umumlashgan holda namoyon bo'ladi. Janr tushunchasi san'atni turkumlab o'rganish zaruriyatidan kelib chiqadi, ya'ni badiiy hodisalarning biror turiga xos umumiylikni namoyon etadi. Janr nazariy bo'g'in bo'lib, undan badiiy asarlar olami boshlanadi. Janr mazmuni o'z tarkibida tur, xil, ko'rinishning o'ziga xos mazmundorligini ham ifodalaydi. Masalan: fojia janridan hayotning fojiali to'qnashuvlari va tomonlari aks etishi bilan birga, unda hayot to'qnashuvlarining inson irodasi, intilishlari, e'tiqodlarida namoyon bo'lishi ifodalanadi. San'at turlari o'zlarining umumiy janr belgilariga ega. Masalan: musavvirlikda maishiy, tarixiy, manzarali mavzular o'z janr ko'rinishlarini keltirib chiqaradi. Janr ijtimoiy-tarixiy tushuncha bo'lib, uning rivojlanish va o'zgarish, birining yo'qolib ikkinchisining vujudga kelish jarayonlari sof san'at doirasidan tashqaridagi ijtimoiy omillarga bog'liq. SHu bilan birga janrda san'at taraqqiyotining mustaqilligi qonuniyati ham namoyon bo'ladi. Janrlarning yangilanib turishi, yangilarining paydo bo'lishi san'at kuch-qudratining ramziy ifodasi, uning hayotiy va g'oyaviy mazmundorligi garovidir. Bu hol buyuk san'atkorlar ijodida namoyon bo'lib kelgan va hozir ham bu an'ana davom etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Xalikova U.M. (2021). Raqamli texnologiyalar asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'limning integratsiyasini ta'minlash. Scientific progress.
2. Umumiy o`rta ta`limning milliy o`quv dasturi Toshkent “Musika madaniyati” – 2021
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni” Toshkent 2020 y.
4. Akbarova. Musika raqs madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Toshkent 1998 y.
5. R.T.Akbarova. Musika bo‘limi. Toshkent "O‘qituvchi", 1998 yil. Bolalar ta’lim-tarbiya dasturi.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYASIDA JAMOA MUNOSABATLARINING AHAMIYATI

Abdullayeva Sh.M.

Toshkent shahar Shayxontohur tumani 321-sonli KTIMTT tarbiyachisi

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma’lum xatti-harakat qoidalar yig‘indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon buladi. Axloq — kishining ichki olami, e’tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob – shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malakalari markaziy o‘rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning “poydevori” deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a’zosining xulqi-odobiga alohida e’tibor bilan qaraladi.

Jamoa so‘zi lotincha “kollektivus” so‘zining tarjimai bo‘lib, omma, birlashma, yig‘ilma, guruh ma’nolarini anglatadi. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, jamoa bu kishilardan iborat guruh demakdir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi ahamiyati to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridanoq bildirilgan. Kishilarning jamiyatda birga yashashi, o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, ozchilikdan-ko‘pchilikning afzalligi haqida Payg‘ambarimiz S. a.v.ning hadislarida: “Ikki kishi bir kishidan yaxshi, uch kishi ikki kishidan yaxshi, to‘rt kishi uch kishidan yaxshi, ko‘pchilik bilan birga bo‘linglar. Tangri ummatlarini faqat to‘g‘ri yo‘lda borishlikka birlashtiradi”, — deyilgan. Kishilarning boshiga yaxshi kun ham, yomon kun ham tushganda albatta mahalla, qarindosh-urug‘ madadkor bo‘ladi. Buni biz urf-odatlarimizda ko‘rishimiz mumkin. M: hasharlar, to‘yga to‘yona bilan kelish va hakazo. Shaxsni shakllantirishning muhim omillari bo‘lgan jamoa to‘g‘risidagi ta’limot axloq tarbiyasida muhim o‘rinni egallaydi. Buning uchun bolalarni asta-sekin, avval bir necha kichik-kichik guruhlarda uyushtirib, so‘ng birgalikda biron ishni bajarishga tortish

kerak. Bunda qo'yilgan maqsad bolalarga tushunarli bo'lishi kerak. Umumiy ish bola o'zina bo'lsa ham ishtirok etadigan qilib tashkil etilishi lozim. Bunday xususiyatlarni tarbiyalashda san'at, bolalar bayramlari, birgalikdagi mehnat va faoliyatlarning tutgan o'zni kattadir. Bolalar o'yinlari va mehnatining jamoa tusida bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Bular bolalarni birga harakat qilishga, o'z intilishlarini umumiy maqsadga yo'naltirishga, o'z ishini va maqsadini boshqarish ishi va harakatiga bo'ysungan holda boshqarishga o'rgatadi. Bola yoshlidan boshlab, o'zida boshqalar bilan, bolalar jamoasi bilan muloqotda, birgalikda bo'lishga ehtiyoj sezadi. Ammo kichkina bola jamoani o'zi tanlay olmaydi. U biron jamoaga sharoit taqozosi bilan kelib qoladi. Yashab turgan joydagi yoki otanasini ish joyidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnay boshlaydi. Bu muassasalarga bola o'z xohishi bilan bormaydi. Shunga qaramay bola bu jamoaning qonun-qoidalariga bo'ysunishi, uning tartiblariga rioya qilishi shart. Aks holda uni jamoa kechirmaydi. Natijada bola o'zi yashayotgan axloq, odob tajribalarini egallashga majbur bo'ladi. Shuning uchun buyuk mutafakkir A.Navoiy bola yoshligidan oqil va fozil kishilar jamoasida qatnashib, ularning suhbatlaridan bahramand bo'lishlarini tavsiya etadi.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

- Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi.
- O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qiymatini anglash.
- Jamoaning har bir a'zosi bo'lgan do'stona birlik.
- Tartibli, ishchan harakatga yo'llovchi faollik.
- O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi.

Bolalar o'zaro yashayotgan jamoaga bo'lgan munosabatiga qarab bir necha guruhga bo'linadi. Birinchi guruh ijobiy xulqli bolalar bo'lib, ularni jamoa a'zolari hurmat qiladilar. Bu toifadagi bolalar jamoasining faollari bo'lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o'rnatishda ularga suyanadi. Ikkinchi guruhga kiruvchilar faollar tashabbusiga qo'shiladi, ammo barqaror bo'lishadi. Uchinchi guruhdagilar tortinchoq bo'lib, o'yinda qatnashmaydi, mashg'ulotlarida ham sust bo'lishadi, bunday bolalarga alohida e'tibor va yordam berish zarur.

Insonparvarlik hissini tarbiyalash. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo'l deganingiz bilan yaxshi bo'lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to'g'ri tahlil qilish hayotiy tajribasi etishmaydi. Bu yoshdagi bolalarni yaxshi ishlar qilishga o'rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg'azib qo'yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarini

qoqib qo'yish, yupatish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko'rsatish, eng muhimi boshqalarga ko'rsatilgan xizmatdan xursand bo'lishga o'rgatish.

Kamtarlik, to'g'rilik, halollik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash. Bu xususiyatlar sog'lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

Kamtarlik har bir kishining eng muhim va oliyanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo'qotib borish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini boshqa bolalardan ustun qo'yishga urinadilar, ba'zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday holatda bolalarning ota-onalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurligi va muhimligi to'g'risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o'rtog'iga o'rgatish kerakligini, O'z-o'zini maqtash yarashmasligini tushuntiradi.

Sofdillik va rostgo'ylikni tarbiyalash yolg'onchilik va vijdotsizlik paydo bo'lishining oldini olish va unga qarshi kurash bilan uzviy bog'liqdir. Ba'zi bolalar o'zlari to'qigan, kattalardan eshitgan ertaklarini tushlarida ko'rgandek qilib ko'rsatishga urinadilar. Bunday holda ham urishmasdan "Ertak" to'qishni yaxshi bilgani uchun maqtash kerak.

Shunday qilib, bolalardagi xarakterning ijobiy namunalari, ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Vatanparvarlikni tarbiyalash. Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy va axloqiy his-tuyg'ular sifatida odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ladi. Ibtidoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o'z urug'doshlariga, ona eriga, urf-odatlariga bog'liq his bo'lgan bo'lsa, sinflar paydo bo'lishi bilan vatanparvarlik g'oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayotning tobora ko'proq sohalariga chuqurroq kirib bordi. Davrlar o'tishi bilan bu tuyg'u buyuk qudratga aylandi. Vatanga muhabbatni tarbiyalash. Vatanga muhabbat – eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalmilalchilik hissi bilan uyg'unlashib ketgan. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalanib boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat hissini, ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi.

Baynalmilal tarbiya. Bizning respublikamiz o'z mohiyati bilan baynalmilaldir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda baynalmilalchilik, xalqlar do'stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi yotadi. Bunday his-tuyg'ularni rivojlantirish asosan taqlid qilish orqali

mukammallashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga baynalmilalchilik his-tuyg'ulari asosini shakllantirishda qardosh jumhuriyatlarda yashaydigan har bir millat vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish; maxsus mashg'ulotlarda ularning urf-odatlari, madaniyati, san'ati, tabiati to'g'risidagi adabiyotlarni o'qib berish, suhbat o'tkazish, rasmlar ko'rsatish, diafilmlar namoyish etish, millat bolalari hayoti to'g'risidagi hikoyalarni o'qib berish foydali bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" T-2008 yil
2. Khudoykulov K., Khamidov O. (2015). Testing Capital Asset Pricing Model (CAPM) on the Emerging Markets of the Europe. Spanish Journal of Rural Development. Vol. VI (3), pp. 1-8.
3. Augustinova A., Stanco L., Damasek L., Kolmacka T., Khamidov O., Shaydullaev Sh. (2017). Archaeological Survey in the Oases of Maydon and Goz in the Piedmont of the Kugitang Mountains (South Uzbekistan) - Preliminary report for season 2017. Studia Hercynia. No. 2, pp. 139-159.
4. Rossiya Federatsiyasi Ta'lim va fan vazirligining 2013 yil 17 oktyabrdagi 1155-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim bo'yicha federal davlat ta'lim standarti // URL: <http://www.rg.ru/2013/11/25/doshk-standart-doc.html>
5. Xarlamov M. F. Pedagogika. - M.: Gardariki, 2011. - 519 b.



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI ZAMONAVIY KASBLARGA QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISH

Abduqodirova O.A.

Nizomiy nomidagi TDPU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) I-bosqich magistranti

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi qonunda har bir bolaning ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi, har bir bolaning iste'dodi nishonlarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit teng bo'lishi ta'kidlangan.[1] Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish, ularni har tomonlama rivojlantirish maqsadida innovatsion axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.

Shunga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar dunyosi bilan, ayniqsa, zamonaviy kasblar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli zamonaviy kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.

Kasb – bu insonning mehnat faoliyati; doimiy mashgʻulot turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan, bilim, mahorat, tajribani talab etadi. [2] Kasb – inson zarur boʻlgan, boʻsh vaqtda shugʻullanadigan, vatani uchun xizmat qiladigan ishdir. Hayotda kasblar shunchalik koʻpki, olimlarning taʼkidlashicha dunyoda 40 mingdan ortiq kasblar mavjud. [3]

Inson hamma biror kasbni egallashi uchun oʻqishi va taʼlim olishi lozim. Kasbga qiziqishni biz eng avvalo yoshlikdan bolalarda ayniqsa, maktabgacha boʻlgan davrda shakllantirishimiz lozim. Buning uchun biz bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli zamonaviy kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.

Упражнения для развития логического мышления выполняются в коллективе детей или индивидуально. Обучение проходит в игровой форме. Поэтому все взаимодействие построено с использованием настольных и подвижных игр, игрушек, специально подобранных по возрастам, и другого наглядного или раздаточного материала. В младшем дошкольном возрасте перед детьми ставятся простые задачи, которые с возрастом значительно усложняются, то есть обучение проходит от простого к сложному.

Для совершенствования логического мышления у ребенка используют такие упражнения, которые вызовут у него интерес и вовлекут в процесс обучения. Получить нужный результат помогает чередование заданий, направленных на развитие мыслительной деятельности:

1. Устные игры – наиболее доступный вариант развития логики. Устные словесные игры для развития логического мышления увеличивают словарный запас и расширяют кругозор ребенка. Они учат обобщать, выделять аналогии, распределять понятия по признакам и проводить логические связи.

2. Игры с картинками и образами. Образно-логическое мышление развивается при использовании карточек, бумаги, карандашей. Игра на сравнение, группировку, обобщение, а также головоломки, лабиринты и ребусы позволяют развивать логику.

3. Настольные игры. Шахматы, шашки, домино не только развивают логику и логически-пространственное мышление. Они также позволяют провести время в кругу семьи, учат с достоинством принимать поражения и победы.

4. Конструирование. Игры с конструкторами, имеющими самые разные размеры и формы элементов, развивают мелкую моторику, творческое, зрительно-пространственное и логическое мышление у ребенка.

5. Решение задач на логику. Их можно найти в специальных развивающих пособиях и дидактических тетрадах, а также в виде электронных игр.

Метод проб и ошибок – самый простой вариант. При этом ребенок не осознает проблему, не продумывает тактику ее решения. Процесс логического мышления включается в тот момент, когда старший дошкольник должен решить поставленную перед ним задачу или выполнить какую-то работу. Ребенок решает такую задачу разными способами на основе личного опыта. Опыт же, в свою очередь, зависит от уровня развития логических способностей. С возрастом применение логики в мышлении позволяет четко изучать поставленные задачи, выявлять цели и наиболее важные моменты, создавать план, продумывать способы его реализации.

Развитие мышления дошкольника проходит несколько этапов. Сначала происходит формирование наглядно-действенного мышления, т. е. все мыслительные операции у малыша происходят через действие. В конце этого периода происходит закладка элементов наглядно-образного мышления, т. е. малыш начинает мыслить при помощи образов. А к концу старшего дошкольного возраста начинает формироваться словесно-логическое мышление, оно предполагает развитие умения оперировать словами, понимать логику рассуждений. Дети учатся самостоятельно рассуждать, делать выводы, сопоставлять, сравнивать, анализировать, находить частное и общее, устанавливать простые закономерности. Все виды мышления тесно связаны между собой. От уровня развития всех типов мышления зависит успешность обучения в школе, скорость усвоения материала, внимание, успеваемость в принципе.

Развитие логического мышления у детей имеет важное значение для успешности последующего школьного обучения, для правильного формирования личности школьника и в дальнейшем обучении поможет успешно овладеть основами математики и информатики.

Потребность в целенаправленном формировании логических приёмов мышления в процессе обучения и воспитания уже осознаётся психологами и педагогами. Известный детский психолог Л. С. Выготский одним из первых сформулировал мысль о том, что интеллектуальное развитие ребенка заключается не столько в количественном запасе знаний, сколько в уровне интеллектуальных процессов, т. е. в качественных особенностях детского мышления. Он утверждал: «Научные понятия не усваиваются и не заучиваются ребенком, не берутся памятью, а возникают и складываются с помощью напряжения всей активности его собственной мысли».

Игра – это сложное социально-психологическое явление. Являясь ведущей деятельностью дошкольного периода, она обеспечивает существенное новообразование в физической, психической и логической сферах, даёт эффект общего психического развития. В. А. Сухомлинский писал: «Без игры нет и не может быть полноценного умственного развития. Игра – это огромное светлое окно, через которое в духовный мир ребёнка вливается живительный поток представлений, понятий. Игра – это искра, зажигающая огонёк пытливости и любознательности».

Применение дидактических игр повышает эффективность педагогического процесса. Кроме того, они способствуют развитию памяти, логического мышления у детей, оказывая огромное влияние на умственное развитие ребенка. Обучая маленьких детей в процессе игры, стремлюсь к тому, чтобы радость от игр перешла в радость учения. Игры логического содержания помогают воспитывать у детей познавательный интерес, способствовать исследовательскому и творческому поиску, желание и умение учиться. Дидактические игры

как один из наиболее естественных видов деятельности детей и способствует становлению и развитию интеллектуальных и творческих проявлений, самовыражению и самостоятельности.

Поэтапное обучение и правильно подобранные задания и игровой материал, условия, созданные для реализации полученных знаний, способствуют тому, что развитие основ логического мышления происходит более эффективно. Правильный подбор заданий и упражнений помогают детям в формировании познавательных процессов, а именно формированию логического мышления.

Используемый дидактический материал:

– палочки Кюизенера. Набор способствует развитию детского творчества, развития фантазии и воображения, познавательной активности, мелкой моторики, наглядно-действенного мышления, внимания, пространственного ориентирования, восприятия, комбинаторных и конструкторских способностей;

– игра «Логические задачи на поиск недостающих фигур» – развивает логическое мышление, смекалку и сообразительность;

– Занимательная логика. Ребусы. Сделано руками человека;

– геометрический конструктор («Монгольская игра», «Волшебный круг», «Танграм», «Колумбово яйцо») – требуют умственного и волевого напряжения, способствуют развитию пространственных представлений, творческой инициативы, смекалки, сообразительности;

– игра «Найди фигуру» развивает логическое мышление, закрепляет знание геометрических фигур;

– настольная игра «Весёлая логика». Пазловые замки на элементах тренируют у ребенка мелкую моторику, глазомер, развивают образное и аналитическое мышление, формируют умение разделять предмет и соединять части в целое;

– игра «На что похоже?» развивает внимание, зрительное восприятие, воображение;

– математический планшет для детей – игры для развития сенсорных, логико-математических, речевых и творческих способностей;

– развивающая предметно-игровая система «Соты кайе» позволяет поводить занятия в области геометрии, математики и логики, игры с замещением, а также использовать набор в качестве крупной мозаики и домино;

– книга «Графические диктанты» развивает тонкую моторику, стимулирует интеллектуальные способности, графические упражнения помогают ребенку подготовиться в целом к обучению к школе;

– развивающая игра-лото. «Логические таблицы» – закрепление геометрических фигур, цвета и оттенка, а также развивает зрительное восприятие, произвольное внимание, память и логическое мышление.

Картотека дидактических игр:

- Занимательные уроки «Думай, решай, считай».
 - Книжка кроссвордов «Отгадай-ка».
 - Наглядное пособие «Найди отличия».
 - Игра «Где чей домик?» – сравнивать числа, упражняться в умении определять направление движения.
 - Изготовили игры на складывание объёмных фигур «Кубики для всех» – развивает мышление, сообразительность, смекалку, творчество, конструктивные умения.
 - Головоломки на составление геометрических фигур – стимулируют умственную активность ребенка.
- Имея возможность раньше начать стимулировать и развивать логическое мышление, базирующееся на ощущениях и восприятиях ребенка, тем самым повышаем уровень познавательной деятельности ребёнка и тем быстрее осуществляется плавный, естественный переход от конкретного мышления к высшей его фазе — абстрактному мышлению.

Литература:

1. Л.С. Выготский. «Мышление и речь», Астрель, М., 2011.
2. А.Н. Леонтьев. «Лекции по общей психологии», Academia, Смысл, М., 2010.
3. Говард Гарднер. «Структура разума. Теория множественного интеллекта» Вильямс, М.-С.Пб.-Киев, 2007.
4. Эдвард де Боно. «Латеральное мышление». Учебник творческого мышления, Минск, 2005.
5. Лаура Е. Берк. «Развитие ребенка», 6-е издание, СПб., Питер, 2006.
6. Л.С. Выготский. «Психология развития ребенка», М., Смысл; Эксмо, 2003.



MAKTABGACHA TA'LIMDA MUSIQIY MASHG'ULOTNING O'RNI

Allamberganova G.

Toshkent Shahar 591-sonli DMTT

Yurtimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi, ta'lim tizimi ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Ta'lim tizimida olib borilayotgan keng islohotlar, yangilik va innovatsiyalarga bo'lgan talabni bir qadar oshirdi. Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi, ya'ni dastlabki bosqichidir. Bugungi kunda Prezidentimizning "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, ta‘lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, ta‘limning zamonaviy metodologiyasini yaratish kabi izchil harakatlar olib borilmoqda. Davlatimizda uzluksiz ta‘lim tizimi oldiga ma‘naviy etuk va intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ymoqda. Bu muhim vazifani bajarishning dastlabki bosqichi maktabgacha ta‘lim muassasalari (MTM)da amalga oshiriladi va unda ijodkor, ijtimoiy faol ham shaxsni shakllantirishga qaratiladi. Xususan, musiqa rahbarlarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini Davlat talablari asosida shakllantirish, yangilash va ta‘lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta‘lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanish imkonini beradigan zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish hisoblanadi. -“Musiqqa yomg‘ir tomchilari kabi bola yuragiga singib uni jonlantiradi” deb yozgan edi fransuz yozuvchisi Roman Rolland. Haqiqatdan ham musiqa mashg‘ulotlari bolalarga o‘z milliy musiqiy tarixlari, musiqa elementar nazariyasi, jahon musiqa san‘ati namoyondalarining ijodi haqida tushunchalar berish, ularda musiqiy madaniyatni, odobni va nafosatni tarbiyalashda asos soladi. Musiqa mashg‘ulotlari xoh u qo‘shiq kuylash bo‘lsin, xoh tinglash bo‘lsin, xoh nazariy bilimlar bo‘lsin – yosh avlodni axloqiy poklik, ma‘naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan har tomonlama etuk shaxs qilib shakllantirishga asos solishi shubhasiz albatta. Pedagoglar musiqa markazini jihozlashda, undan joy olgan barcha jihozlarning imkon qadar yorqin, tabiiy ranglarda bo‘lishi, bola e‘tiborini tortishi, shuningdek yoshlikdan bolada go‘zallikka intilish va muhabbat uyg‘otishi, badiiy va estetik didni shakllantirib va taraqqiy ettirib borishiga xizmat qilishiga e‘tiborlarini qaratishlari lozim. Bolani o‘rab turgan barcha narsa-xonani jihozidan tortib to musiqa rahbari va tarbiyachining tashqi ko‘rinishigacha bolani tarbiyalashini doimo yodda tutish lozim. Bolalarning umumiy musiqiylikiga nimalar asos bo‘ladi: musiqa bolaning estetik tarbiya omili sifatida unga go‘zallikni qabul qilish, tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Bu masalalarni hal etish uchun umumiy musiqiylikni rivojlantirish zarurdir. Musiqa mashg‘uloti beshta faoliyat turidan tuziladi:

- Qo‘shiq va ashula kuylash.
- Musiqa savodi.
- Musiqa tinglash.
- Musiqaga mos harakatlarni bajarish.
- Bolalar cholg‘u asboblariida jo‘r bo‘lishdan iborat.

Qo‘shiq va ashula kuylash bolaning ovozigacha shikast yetkazmay, asrab avaylab, sekin-asta rivojlantirish, qo‘shiqni zo‘riqmasdan, baqirmasdan, tabiiy, engil, jarangdor va yoqimli ovozda, musiqani his qilgan holda kuylashga o‘rgatishda davom etishdan iborat. Musiqa savodi quyidagi bosqichlar bo‘yicha o‘rgatiladi. Bolalar diqqatini musiqa ifoda vositalari – kuy, registr, temp, ritm, dinamika belgilar orqali o‘rgatish. Ovoz sozlash va qo‘shiq ijro etish qoidalariga doir bilimlar, chapak va cholg‘u asboblari chalish qoidalariga amal qilishga o‘rgatish. Musiqa ijodkorlari: “kompozitor”,

“ijrochi”, “tinglovchi” mavzusining mazmuni va o‘rganiladigan asarning mualliflari haqidagi ma’lumotlar, musiqa savodi orqali amalga oshiriladi. Dutor, rubob, karnay, nay, chang va doira cholg‘ulari bilan tanishtirish, ularda chalish usullari va qaysi guruhga mansub ekanligi haqida tushuncha hosil qilish.

Musiqa tinglash musiqa madaniyati mashg‘ulotlarining asosiy omili hisoblanadi, chunki musiqaning yangrashi ongli ravishda idrok etilib, uning xarakteri, mazmuni ongli ravishda o‘zlashtiriladi.

Musiqa xos ritmik harakatlar bajarish. Mashg‘ulotlarda ritmik harakatlarni bajarish, bolalarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni ovoz apparatlari nozik, diqqat e’tibori serharakat, o‘yinqaroq, xotirasi, nutqi, to‘liq rivojlanmagan bo‘lganligi sababli musiqa mashg‘ulotida faoliyat turlari tez-tez almashib turishi lozim.

Bolalar cholg‘u asboblari jo‘r bo‘lish. Bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg‘ulotdir, chunki bolalar cholg‘u asboblari jonli, tovushli o‘yinchoqlar sifatida har bir tarbiyalanuvchilarni qiziqtiradi. Bolalar cholg‘u asboblari birinchi navbatda bolalarda ijrolik elementlari orqali ijodkorlik, musiqiy kuv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa mashg‘ulotlarida bolalar cholg‘u asboblariidan foydalanishi yaxshi natijalar berish bilan birga bolalarni mashg‘ulotga intiluvchanligini, qiziqishini, musiqiy savodini oshiradi.

Musiqiy omillar. Eng yorqin musiqiy obrazli asarni tinglash, taqqoslash va baho berish. Bunda musiqa ifoda vositalari, musiqiy asboblarning tembrlari, eshitish madaniyati talab etiladi. Masalan, cholg‘u asboblarning yuqori va past tembrlari (skripka – alt, kontrabas – violonchel va boshqa cholg‘u asboblari) . Musiqaning xarakteri, kayfiyatini his etish, musiqa emotsional munosabat bildirish musiqaning ifodaviyligi va tasviriyligi, bolada musiqani tinglaganda uning xarakteriga mos kayfiyatda bo‘lishiga erishish kerak. Musiqaga ijodkorlik munosabatini bildirish. Har bir bola biror musiqiy asarni eshitib o‘zicha badiiy tasavvur qiladi va qo‘shiqda, o‘yinlarda, raqs elementlari bilan hissiy munosabat bildirishi mumkin. Bu bolalarda ijrochilikning ilk namoyishlari, ya’ni ilk urug‘lari bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maktabgacha ta’limda musiqa mashg‘ulotlari orqali musiqa rahbari bolalarda yuksak ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatni, milliy g‘urur, vatanparvarlik tarbiyasini, nafasat va badiiy didni o‘stirishga, tafakkurlarini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy ritmik harakatlar bolalarga turli xarakterdagi musiqa ohangiga mos holda harakatlanishiga, kichik guruhlarga bo‘linib, yakka holda, juft-juft bo‘lib, jamoa bilan hamohang harakat qilgan holda oddiy raqs elementlarini aniq bajarishga o‘rgatadi. Musiqa bolalarda nafislikni, go‘zallikni, ifodali harakatlarni qaror toptirib, ijodiy qobiliyatini tarbiyalaydi. Musiqa mashg‘ulotlari bolalarning umumiy madaniyatiga ham ta’sir qilmay qolmaydi. Har xil faoliyatlar bilan shug‘ullanish (musiqa

tinglash, qo‘shiq aytish, musiqiy – ritmik harakatlar bajarish, bolalar musiqiy cholg‘ularida ijro etish) bolalardan diqqatni, uyushqoqlikni, zukkolikni talab qiladi. Bu faoliyatlar davomida bolalarda ifodaviylik shakllanib, tortinchoqlik yo‘qola boradi. Shu tarzda musiqiy faoliyatlar bolalar shaxsining ma’naviy – madaniy sifatlarini shakllantirish uchun kerakli bo‘lgan shart – sharoitlarni ta’minlaydigan va ularning umumiy madaniy saviyasiga asos soladi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
2. Mirzayeva N.A Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma’ruzalar matni. Toshkent. 2008. 48 b.
3. Nurmatov H.va boshqalar 1-3 sinf “Musiqqa” darsliklari. 2016
4. Kahhorov O.S. (2020). Higher education management features based on innovation. Scientific Reports of Bukhara State University:

TEVARAK - ATROF BILAN TANISHTIRISH ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI SHAKLLARI

Artikbayeva A.A.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi*

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish-bu ularda tabiatga bo‘lgan munosabatni tarbiyalash va tajribaga asoslangan atrof-muhit haqidagi real bilimlarni ta’limiy vositasidir. Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta’lim Tashkilotidagi ta’lim-tarbiya ishlarida undan keng foydalanmasdan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvaffaqiyatli hal etib bo‘lmaydi.

Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat go‘zalligini idrok qilishga tayyordirlar, shuning tarbiyachilar va ota-onalar bolalarda atrof-olamga estetik munosabatini tarbiyalash, tabiatni estetik idrok etishga tayyorlash, tabiatga ekskursiya uyushtirish, tabiatni kuzatish, tinglash ularni anglash, eshita olish, klassik musiqa barcha faoliyatning tasviriy turlariga qiziqtirish jalb qilish kerak. Bularning barchasi bolalarda e’tiborlilikni fantaziyani ijodiy intilishni rivojlantiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan “Ilk qadam“ davlat dasturida tabiat bilan tanishtirish rasm chizish, qurish — yasashga alohida e’tibor berilgan. tevarak-atrof haqidagi bilimlarini boyitish bilan birga, bog‘lanishli nutqni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan, 1-sentyabr mustaqillik kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanar ekan, avval guruhdagi ertaliklar, so‘ng bolalarning ota-onalari bilan Toshkentdagi mustaqillik maydoniga,

shahardagi milliy bog‘ga sayohat uyushtirish natijasida ularning lug‘atida mustaqillik bayrami, mustaqillik maydoni, milliy bog‘, Alisher Navoiy haykali, O‘zbekistonning birinchi Prezidenti – I.A.Karimov, O‘zbekiston Gerbi, O‘zbekiston bayrog‘i, O‘zbekiston madhiyasi, Toshkent – O‘zbekiston poytaxti, metropoliten kabi tushuncha va birikmalar bilan boyiganligining guvohi bo‘ldik. Bolalarning so‘z zaxirasi bevosita ko‘rgan-kuzatganlari asosida orta boradi degan xulosaga keldik. Masalan, Toshkent shahri bo‘ylab sayohat natijasida bolalarning lug‘at boyligiga birdaniga bir necha mavzu bo‘yicha so‘zlar, birikmalar qo‘shiladi. Masalan, Amir Temur maydoni, Amir Temur haykali, Amir Temur – buyuk sarkarda, Toshkent mehmonxonasi, “O‘zbekiston” mehmonxonasi, O‘zbekiston tarixi muzeyi, San’at saroyi, Milliy teatr, Markaziy univermag, Chorsu bozori, Hayvonot bog‘i kabilar shular jumlasidandir. Bular 6-7 yoshli bolalarning kundalik turmushda hali ishlatilmasa-da, ularning xotirasi kuchli bo‘lgani bois so‘z va birikmalarni yaxshi o‘zlashtirib oladilar.

Rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyat butun yil davomida turli badiiy va tabiiy materiallardan foydalanishni ko‘zda tutadi. Bunday markazlardagi faoliyatni tashkil etishdan oldin yasaladigan tabiiy materiallardan qilinadigan narsalarni mazmunini bolalarni ongli ravishda tushunib etishga yo‘naltiruvchi tarbiyaviy xususiyatini hisobga olish kerak. Tarbiyachilar tabiiy materiallarni yig‘ish. Qayta ishlash va saqlashni ko‘zda tutish, yil davomida qanday o‘xshatmalarni yasash mumkinligini rejalashtirib olishi kerak. Materialni butun o‘quv yili uchun taxt qilib qo‘yish lozim, chunki qishda hamma yoqni qor qoplaydi. Kelgusidagi ishlarni mo‘ljallab amalga oshirish g‘oyasini izlash-bolalarda kuzatish, topqirlik, orzu, havas va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi muhim yo‘ldir. Shuning uchun tarbiyachilar bolalar bilan bog‘larga dalalarga xiyobonlarga oldin tashkiliy ishlar bilan birga metodik jihatdan ham tayyorlanishi zarur. Tarbiyachi bolalarga vazifalarni taqsimlaydi savat, yuk xalta, chelaklarga yig‘ib solingan materiallarni saqlash va transportda tashishda javobgar shaxslarni belgilaydi. Tabiiy materiallar bilan ishlash asosan tabiatga ekskursiya uyushtirishdan, tabiatni estetik idrok etishdan boshlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda ekskursiyalarni o‘rni beqiyosdir. Ularni o‘rab turuvchi tabiat go‘zalligi chuqur kechinmalarini chaqirib, estetik tuyg‘ular rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Tabiiy materiallarni yig‘ish faqat zavqli tomosha qilish aylanib kelish emas balki ularni o‘rab turgan tabiatni kuzatadilar va ularga tabiatni asrashga dalaga olib chiqqanda kattalar mehnatini qadrlashga, atrof-olamni ozoda saqlashga o‘rgatilib boradi. Bolalar tabiiy materiallardan narsa ya’ni cho‘chqa yong‘oqlari, barglardan, paxtadan, tuxum po‘chog‘idan, urug‘lardan biror nima yaratsa ular fantaziyasiga tayanib yaratadi bu esa ularni yangilik yaratishga undaydi va o‘z ishidan zavqlanadilar. Tabiat materiallaridan birinchi marta tabiiy materiallardan narsalarni qo‘lda yasashdan oldin bolalarni asbob-uskunalar bilan ishlash usullarini o‘rgatish va xavfsizlik texnik qoidalari bilan tanishtirish lozim. Bolalarga kesuvchi va sanchuvchi asboblardan bilan ishlash biroz xavfliroq shuning, uchun

tarbiyachi pedagoglar yoki ota-onalar ishlashlari ma'qulroqdir. Ular tayyorlab berishsa bolalarga tabiiy materiallarni elimlash uchun kleylar yoki plastilin biriktirish texnologiyalarini o'rgatish lozim.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'limni tubdan takomillshtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori"dan PQ-3261-son
2. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi–T., TDPU, 2017.
3. Mo'minova L.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. –T., 1996.
4. Safarova R. va boshq. Savod o'rgatish darslari. –T.: Ma'naviyat, 2003

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK JARAYONLARNING IJTIMOIIY-KOMMUNIKATIV YO'NALTIRISH MAZMUNI

Artikbayeva A.A.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrası o'qituvchisi,*

Shermahmatova S., Avezberdiyeva N.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari

MTT rahbarining asosiy vazifalaridan biri qulay ma'naviy va psixologik o'zaro hamkorlikni yaratish hisoblanadi. Faqatgina ijodiy ishlaydigan pedagoglar jamoasi bolalar bilan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning yuqori darajasini ta'minlashga, ijodiy shaxsni shakllantirishga qodir bo'la oladi.

Jamoani boshqarishni san'at deb hisoblaydilar, unda tug'ma "tabiatdan" boshqaruvchi bo'lganlar yoki pedagogik menejment va ijtimoiy psixologiya nazariyasini o'rganib, doimiy ravishda boshqaruv faoliyati ustida ishlaydiganlar muvaffaqiyatga erishadilar. Zamonaviy jamiyat shaxs faoliyatining iste'molchilik, madaniyatni o'zlashtirish xususiyatidan yaratuvchilik va ijod xususiyatiga o'tish, foydalilik jihatidan qadr-qimmat jihatiga o'tish bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham zamonaviy rahbarga asosiy maqsadga erishish uchun pedagogik jamoaga ta'sir etishning g'oyalari va usullari — shaxsning rivojlanishi, zamonaviy o'zgarib boruvchi olamda yashash qobiliyatini bilish zarur.

V.A.Suxomlinskiy pedagogning rolini, uning bolalar tarbiyasiga o'z shaxsining, individualligining ta'sirini ta'kidlab, quyidagicha yozgan edi: "Pedagogning yorqin fikr va ishtiyoqdan ilhomlanishi bormasa, tarbiya o'lik sxemaligicha qoladi. Chunki go'dak er yuzidagi ilk qadamidan boshlab, o'zini uni tarbiyalayotgan, unga talablar qo'yayotgan, o'zining ma'naviy kuchini sarf etayotgan, okz idealini ta'kidlashni xohlayotgan inson bilan solishtira boshlaydi".

Pedagog faoliyati — bu pedagogik nazariya va pedagogik ijod — san'atga asoslangan faoliyatdir. Pedagogning shaxsi tarbiyalanuvchilar shaxsining shakllanishi omili bo'lishi uchun, u kasbiy bilimli, pedagogik jamoaning an'analarini saqlovchi va boyituvchi, uning qarashlari va qadriyatlarini e'zozlovchi uning ijodiy a'zosi bo'lishi kerak.

V.A.Kann-Kalik, N.D.Nikandrlar pedagogik ijod faqatgina kasbiy ahamiyatli motivatsiya bo'lgandagina yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Asosiy pedagogik motivlardan biri bolalar ijodini rivojlantirish hisoblanadi. Bu masalani faqatgina ijodiy ishlaydigan pedagoggina hal eta oladi.

V.I.Zagvyazinskiy pedagogik ijodni tahlil qilib, u boshqa ijod turlari bilan ko'pgina umumiyliklarga egaligi, ammo uning pedagogik faoliyat va uning natijalari — bola shaxsining o'sishi va shakllanishi bilan bog'liq o'ziga xosliklari mavjudligini ta'kidlaydi.

Pedagogik ijod mashg'ulot, bayram tadbiri va shu kabilaring davomiyligi bilan belgilanuvchi vaqt bo'yicha chegaralarga ega. Rassom surat rejasi, zarur ifoda vositalari, eng yaxshi yechimlarni uzoq vaqt o'ylashi mumkin.

Shu tariqa, ko'p yillar davomida pedagogik amaliyotda jamoaning shakllanishi to'g'risidagi masala ko'tarilgan, ammo ish tajribalaridan ma'lumki, o'z ijodiy imkoniyatlarini anglash va ularni bolalar bilan ishlashda qo'llay olishni har qanday tarbiyachi ham amalga oshira olmaydi, ularni ro'yobga chiqarishda pedagoglarga ko'maklashish lozim.

Ijtimoiy munosabatlar, jamiyatda shakllangan ta'lim paradigmalari ko'ra, sharoitlarga yondashuvlarda farqli jihatlar mavjud. Ta'limning avtoritar, an'anaviy modelida yondashuv pedagogni va uning ijodiy imkoniyatini, kasbiy mahoratini yaratish, shakllantirish sifatida qaraladi.

Insonparvar, shaxsga yo'naltirilgan modelda e'tibor shaxsga, uning O'z-o'zini rivojlantirishga qaratiladi, rahbar, pedagoglar, boshqaruvchilarning vazifasi esa — rivojlanish, O'z-o'zini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi. Bu qanday sharoitlar bo'lishi mumkin?

Ijodiy faoliyat motivga asoslanadi, ya'ni jarayonga yo'naltiriladi, qobiliyatlarning rivojlanishiga ko'maklashuvchi aynan shunday faoliyatga insonda eng ko'p moyillik bo'ladi. Pedagogik ijod va tanlagan kasbidan qoniqish hissi o'zaro bir-birini rag'batlantiradi. Rahbar uchun turli ko'rsatkichlarni, tashkilotdan qoniqishni, mehnat mazmuni, sharoitlarini, maoshni, taqdirlash va mukofotlarni taqsimlash, rahbarlik uslubi va metodi, jamoadagi psixologik muhit, rahbariyat bilan munosabat, jamoadagi munosabat, jamoa ishiga ta'sir etish imkoni, rivojlanish istiqbollari, rahbaring ishni obyektiv baholashi, ma'muriyatning ishchilar ehtiyojlariga munosabati, moddiy-uslubiy baza, o'quv-uslubiy vositalar va boshqalarni baholash orqali mehnatdan qoniqish darajasi holatini o'rganish muhim hisoblanadi.

F.Xersberg va uning yordamchilari tomonidan ijodiy faoliyat motivatsiyasi tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lib, ijodiy jamoani boshqarishda ularning ko'plarini nazarda tutish lozim, bulardan:

-ko'pgina insonlar, agar ish jarayonida ularning shaxsiy qadr- qimmatlari va shaxsiy ishtiroklari ehtiyojlari qondirilsa, ishdan xursandchilikni his etadilar. Pedagog bilimli hisoblangan masalalardagi qarorlar uning hamkorligida qabul qilinishi muhim;

-har bir insonga uning muhimligini his qilish yoqimli hisoblanadi, shuning uchun boshqarish san'ati — bu yana har bir xodimga umumiy muvaffaqiyatga erishishda uning mehnati muhimligini yetkazish, o'z vakolatlarini ishchilarga topshirish, maqtovlarni qo'llay bilish malakasi hisoblanadi, bu ularning faolliklari va ijodiy yondashuvlarini oshiradi;

-ish jarayonida xursandchilik va muvaffaqiyatni his qilmagan ishchilar, ijobiy his-tuyg'ularni tashkilotdan boshqa joylarda, tashqaridan izlaydilar.

-O'z ish joyida muvaffaqiyatni his qilmagan inson, o'z kuchini boshqa yo'nalishlarda muvaffaqiyatni izlashga yo'naltiradi;

-xodimlar tashkilotdagi ishning holati to'g'risidagi ma'lumotni qanday shaklda va qanday sur'atlarda olishlariga qarab, ma'muriyat uchun ulaning asl qadr-qimmatlari qanday ekanligi to'g'risida hukm chiqaradilar. Agar ma'lumot yashirin saqlansa yoki kechiktirib yetkazilsa, ular o'zlarini ahamiyatsiz his qiladilar va natijada ulaning ijod qilishga tayyorlik darajalari pasayadi;

-har qanday nazorat hayajonli va yoqimsizdir, hatto u obyektiv va yaxshilik sari bo'lsa ham. Uning O'z-o'zini nazorat qilish bilan birgalikdagi qoplanishi ishchining motivini ko'proq rag'batlantiradi;

-har bir xodim o'z ish joyida o'z-o'ziga rahbar bo'lishi kerak. Har qanday faoliyatda rahbar ishchining tashabbusi, uning O'z-o'zini ifodalashi uchun erkin muhitni qoldirishi lozim;

-yaxshi ishning tan olinmasligi umidsizlikka olib keladi. Har bir yaxshi ishlaydigan xodim uning harakatlari moddiy va ma'naviy to'g'ri baholanishiga ishonch hosil qilishi lozim.

Motivatsiya pedagoglarning ijodiy unumdorliklariga bevosita ta'sir etadi. U kasbiy faoliyatning maqsadga yo'naltirilgan, ongli xususiyatini belgilaydi. Motivatsiya shaxsning potensial imkoniyatlari, subyektning pedagogik faoliyatdagi sustkashligi yoki faolligini, namoyon bo'lish shakli va uning ijodiy faolligi me'yorini belgilaydi.

Adabiyotlar

1. M.Fayzullayeva va boshq. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish".T.: 2015.

2. K.Nizomova. "6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish." T.: 2006.

3. O.U.Xasanboyeva. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". T.: «Ilm ziyo» 2006.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

Arslanova M.M.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Yurtimizda Yangi O'zbekistonni – Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonlarida jamiyat hayotining barcha sohalarida innovatsion taraqqiyotga erishish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylandi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlanganlaridek, “Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz” [4].

Mamlakatimizda kechayotgan innovatsion taraqqiyot yo'lidagi keng qamrovli amaliy ishlar bugungi kunda yosh avlod ta'lim-tarbiyasining muhim va hal qiluvchi ijtimoiy instituti sifatida katta e'tibor berilayotgan maktabgacha ta'lim tizimida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'lmoqda. Jumladan, “maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” tizimda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [3].

O'zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonunida [1] “innovatsiya” tushunchasiga fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma” va “innovatsion faoliyat” tushunchasiga esa “yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat” sifatida ta'rif beriladi.

Jamiyatimiz hayotidagi innovatsion taraqqiyotga intilish jarayonlari ilm-fanning barcha sohalarida innovatsion faoliyat masalalariga bag'ishlangan ilmiy va amaliy tadqiqotlarning qizg'in va dolzarb mavzularini tashkil etmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni sifatli va samarali yo'lga qo'yish ham maktabgacha ta'lim pedagogikasida mana shunday yangi ilmiy tadqiqotlarga ehtiyojni vujudga keltirmoqda.

Xorijiy davlatlarda ta'limda, xususan, maktabgacha ta'limda innovatsion faoliyat muammolari V.Zagvyazinskiy, A.Prigojin, O.Xomerika, I.G.Andreeva, A.Arlamov, G.Vorobev, A.Lorensov, P.Borisova, F.Gabysheva, A.Ivanova, A.Kornilova, Ye. Mixaylova, I. Portnyagina, T. Savinova, V.M. Savinova, G. Andreeva hamda yurtimizda J.Yo'ldoshev, U.Inoyatov, Sh.Shodmonova, Sh.Sodiqova, Sh.Safarov, N.Begmatova kabi bir qator olim va tadqiqotchilar tomonidan turli yo'nalishlarda tadqiq qilingan. Umuman olganda, pedagogikada innovatsion faoliyat tushunchasiga yondashuvlar va berilgan ta'riflar ham turlicha bo'lib, bizningcha ta'limda, xususan maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion faoliyat tushunchasiga — “ta'lim tashkilotlarida uning umumiy faoliyati, jumladan, ta'lim xizmatlari hamda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan

yangi yondashuvlar va g'oyalar asosidagi amaliy ishlar majmui" sifatida ta'rif berish mumkin. Xorijiy va milliy tadqiqotlarda bildirilgan fikrlar, g'oyalar, takliflar va tavsiyalarni, shuningdek, ularga nisbatan tadqiqotlarimiz va kuzatishlarimiz asosida olingan natijalardan kelib chiqqan yondashuv va fikrlarimizni umumlashtirilgan holda, bizningcha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatini tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim degan xulosaga keldik:

Birinchi bosqich: maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab olish. Bunda faoliyatga doir normativ-huquqiy hujjatlar, tizimda amalga oshirilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar, loyihalar, shu bilan birga bevosita ta'lim tashkilotining o'zi tomonidan mehnat jamoasi va ta'lim xizmatlari iste'molchilari tomonidan bildirilgan fikrlar, taklif va tashabbuslar ham asos bo'lishi mumkin.

Bizningcha, ta'lim tashkiloti joylashgan hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tashkilotni umumiy rejalashtirishning maqsadli dastur va rejalaridan kelib chiqib, innovatsion faoliyat yo'nalishini belgilash, ko'proq maqsadga muvofiqdir. Bu o'ziga xos yangilik va tajribalarning ko'proq vujudga keltirish va natijaviyligini ta'minlash imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Ikkinchi bosqich: innovatsion faoliyat rejasi bo'lib, bu reja innovatsion faoliyatni olib borishda "yo'l xaritasi" vazifasini bajaradi. Albatta, reja ta'lim tashkilotining mavjud imkoniyatlari, resurslari, pedagogik salohiyati va hamkorlarning aniq ishtirokini ko'zda tutgan holda tuziladi. Uni amalga oshirishning aniq muddatlari va mas'ullarini belgilashda shuni e'tiborga olish kerakki, reja umumiy yo'nalishdan chiqmagan holda o'zgaruvchan va ishtirokchilar tarkibi esa sifat tarkibini yanada yaxshilagan holda kengayishi mumkin.

Uchinchi bosqich: innovatsion g'oya, loyiha va ishlanmalarni yaratish va ularni tajriba sinovdan o'tkazish. Mazkur bosqichda maktabgacha ta'lim tashkiloti ko'proq metodik yordamga ehtiyoj sezadi. Buning uchun hududiy maktabgacha ta'lim boshqaruvi organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, shuningdek, oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan esa malakali maslahat va ilmiy-metodik ko'mak ko'rsatib borish zarur bo'ladi. Tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan innovatsion g'oyalar amaliyotga joriy etiladi.

To'rtinchi bosqich: Innovatsion faoliyatning ma'lum bir bosqichi yoki yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning davriy tahlili (yillik, uch yillik, besh yillik) bosqichda ta'lim tashkiloti tomonidan innovatsion rejada ko'zda tutilgan chora-tadbirlar va loyihalarning amalga oshirilish natijalari va samaradorligi tahlil qilinib, baho beriladi va shu asosda istiqbol vazifalar belgilab olinadi.

Maqolada so'z yuritilgan mavzu yuzasidan quyidagi takliflarni berish mumkin:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- ta'lim tashkilotlari uchun innovatsion g'oyalar va loyihalar uchun kichik grantlar ajratish va maqsadli sarflanishini ta'minlash;

- rahbar xodimlar uchun innovatsion faoliyat bilan bog'liq mavzularda hududiy treninglar, seminarlar va o'quv kurslarini o'tkazib borish;

- innovatsion faoliyat bo'yicha eng yaxshi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini aniqlash va ular tajribasini ommalashtirish.

Bir so'z bilan aytganda maktabgacha ta'lim tizimidagi har bir ta'lim tashkilotining o'z innovatsion faoliyatini samarali va izchil yo'lga qo'yish tizimdagi umumiy innovatsion taraqqiyotning muhim omili va sharti bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion faoliyatning ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy muammolarini tadqiq etish esa maktabgacha ta'lim pedagogikasining ushbu jarayonni yanada sifatli tashkil etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi 630-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 487-son Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

5. [Белая К.Ю.](#) Инновационная деятельность в ДОУ: Методическое пособие. Сфера, 2005 г. 64 с.



MAKTABGACHA TA'LIMDA RIVOJLANUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISH

Asanova G.B.

Nukus Davlat pedagogika instituti 1-kurs magistri

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun muhimdir.

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" va "Ilk qadam" o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining amaliyotida psixologik qulaylik, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, jamoaviy va individual faoliyat motivatsiyasini ta'minlaydigan maktabgacha ta'lim tashkilotining funksional maydoni tizimida tarbiyachilar, ota-onalar, bolalar bilan o'zaro munosabatlarning noan'anaviy usullarini qo'llash orqali empirik darajadagi o'zlarining tashkiliy va pedagogik faoliyatini o'zgartirishga urinishlar mavjud.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish holatini amalda tahlil qilish ushbu boshqaruv funksiyasini amalga oshirishda bir qator muammolarni aniqlashga imkon berdi:

-maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari tomonidan rivojlantiruvchi atrof-muhitni tashkil etishning mazmuni va mohiyati to'g'risida maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish funksiyasi sifatida yetarli darajada xabardorligi, uning tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, rivojlantiruvchi muhitni yaratish natijalariga ta'sir o'tkazish imkoniyati, tashkiliy va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish.

-ta'lim jarayoni mazmunining xilma-xilligi, rivojlantiruvchi muhitning mavjud tashkiloti yaxlit pedagogik jarayon doirasida bolalar va kattalar o'rtasidagi samarali o'zaro munosabat uchun yetarli tashkiliy-pedagogik, moddiy-texnik va ijtimoiy-psixologik sharoitlarni ta'minlanmasligiga olib keladi. Bu maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari oldiga maqsadga erishish uchun rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sirining yangi vositalari va usullarini topish muammosini qo'yadi.

Rivojlantiruvchi muhit — an'anaviy va yangi, g'ayrioddiy tarkibiy qismlarning kombinatsiyasi, bu faoliyatni sodda shakllaridan ancha murakkablariga qadar rivojlanishining uzluksizligini ta'minlaydi. Rivojlantiruvchi muhit — bu maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlovchi shartlardan biridir. Atrof muhitni umuman ilmiy asoslangan tashkil etish maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi, erta va maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyati va faoliyati rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bolaning faoliyati, uning ma'naviy va jismoniy rivojlanish mazmunini funksional ravishda simulyatsiya qiladi. Boyitilgan muhit bolaning turli faoliyatini ta'minlashning ijtimoiy va obyektiv vositalarining birligini nazarda tutadi.

Rivojlantiruvchi muhitning vazifalari: Axborot — har bir obyekt atrofda dunyo haqida ma'lum ma'lumotlarni olib boradi, bolaga ijtimoiy tajribani uzatish vositasidir.^{[1][2]}

² "Maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlanayotgan muhitni tashkil etish". Avtoreferat. Pedagogika fanlari nomzodi Epanchintseva, Natalya Dmitrievna. Rossiya

Ragʻbatlantirish — mobil va dinamik boʻlishi kerak. Uni tashkil etishda tarbiyachi “yaqin rivojlanish zonasi” ni, bolaning yoshini, individual xususiyatlarini, uning ehtiyojlari, intilishlari va qobiliyatlarini hisobga olishi kerak.

Rivojlantiruvchi — anʻanaviy va yangi, gʻayrioddiy tarkibiy qismlarning kombinatsiyasi, bu faoliyatni sodda shakllaridan ancha murakkablariga qadar rivojlanishining uzluksizligini taʼminlaydi.

Zamonaviy maktabgacha taʼlim muassasasida predmet-makonni rivojlantirish muhiti quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Xavfsizlik. Predmet-fazoviy muhitning barcha elementlarining ulardan foydalanishning ishonchliligi va xavfsizligini taʼminlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi. Materiallar va jihozlarni tanlashga qoʻyiladigan talablardan biri bu undan foydalanishda bolalar xavfsizligini taʼminlashdir. Bu barqaror va bardoshli boʻlishi kerak. Oʻyin uskunalari ishlab chiqarilgan materiallar gigiyena talablariga javob berishi kerak.

Atrof muhitning turli koʻrgazmalar bilan boyitilganligi. Bolalarning yosh imkoniyatlariga va maktabgacha taʼlim oʻquv dasturining mazmuniga mos kelishi kerak. Guruhlardagi rivojlantiruvchi muhitning boyitilganligi oʻquv va tarbiya vositalari, oʻyin materiallari, oʻyin va sport anjomlari va inventarlar bilan jihozlashni nazarda tutadi; bolalarning oʻyin, bilim, ijodiy va jismoniy faolligini, ularning hissiy farovonligini taʼminlaydigan turli xil materiallar va jihozlar. Inson hayotining ilk yoshlaridagi atrofidagi predmetli muhitning toʻgʻri tashkil qilinganligi, bolaning turli materiallar bilan munosabatga kirisha olishini, harakat qobiliyatlarini, moʻljallashni, obyekt va oʻyin faoliyatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Koʻp funktsionallik

Materiallarning koʻp funktsionalligi quyidagilarni oʻz ichiga oladi: Mavzu muhitining turli xil tarkibiy qismlaridan, masalan, bolalar mebellari, matlar, yumshoq modullar, ekranlar va boshqalarni har xil ishlatish imkoniyati;

Tashkilotda bolalarning har xil faoliyatiga mos keladigan (shu jumladan, bolalar oʻyinidagi oʻrinbosar narsalar sifatida) koʻp funktsiyali (foydalanishning qatʼiy belgilangan uslubiga ega boʻlmagan) obyektlar, shu jumladan tabiiy materiallar mavjudligi.

Atrof muhitning oʻzgaruvchanligi taʼlim sharoitiga (bolalarning oʻzgaruvchan qiziqishlari va imkoniyatlariga) qarab, predmet-fazoviy muhitda oʻzgarishlarning boʻlishini nazarda tutadi. Kengaytirilgan rolli oʻyinning oʻynash maydoni yangi rolli oʻyining syujetiga muvofiq oʻzgaradi.

Imkoniyatlarning mavjudligi.

Atrof muhitda imkoniyatlarning mavjudligi quyidagilarni nazarda tutadi:

Bolalar, shu jumladan nogiron bolalar, bolalar faoliyatining barcha asosiy turlarini taʼminlaydigan oʻyinlar, oʻyinchoqlar, materiallardan foydalanish uchun mustaqil foydalanish imkoniyatining mavjudligi; materiallar va jihozlarning xizmatga yaroqliligi va xavfsizligi.

Tizimdagi rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bilan bog‘liq muammolar va qiyinchiliklarning sabablari ko‘pincha pedagoglar tomonidan rivojlantiruvchi muhitining bolalar shaxsini rivojlantirishdagi o‘rni, uning universal ta‘lim harakatlarini shakllantirish qobiliyati, dunyoni anglash va o‘zlashtirishni tushunmasliklaridan kelib chiqadi. Maktabgacha pedagogikada “rivojlantiruvchi muhit” atamasi “bolalar va kattalar uchun hayotni tashkil etishni ta‘minlaydigan moddiy-texnik, sanitariya-gigiyena, estetik, psixologik va pedagogik shart-sharoitlar majmuini” anglatadi. Rivojlantiruvchi muhit bolaning shaxsini shakllantirishning ajralmas jarayonida stimulyator, harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi, u shaxsiy rivojlanishni boyitadi. Tarbiyachining vazifasi — mavzuni rivojlantiruvchi muhit va uning vositalaridan foydalangan holda bolada o‘ziga xos narsalarni kashf etish va rivojlantirishga yordam berishdir. Shu sababli, bolalar bog‘chasida maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy faoliyatini o‘rganish va O‘z-o‘zini rivojlantirish amalga oshiriladigan muhitni loyihalashga alohida e‘tibor beriladi. Tarbiyachining maqsadi maktabgacha ta‘lim muassasasida rivojlanishining har bir bosqichida bolaning ijodiy shaxsini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish uchun ko‘p darajali ko‘p funksional rivojlantirish muhitini loyihalashdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – T.: 2018.
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. – T.: 2018.
3. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh). Metodik qo‘llanma. – T.: 2018.



MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORNI RIVOJLANTIRISHNING QUYIDAGI MASALALARI

Ataniyazova M.B.

Toshkent shahar A.I.Gersen nomidagi RDPU Filiali dekan muovini, PhD

O‘zbekistonda 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” natijalari bo‘yicha maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirildi. Sohani tubdan

isloh qilish maqsadida 2019 yil 16 dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida” qonun qabul qilindi. Bularning natijasida, 2016 yilda 7 yoshgacha bo’lgan bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalari bilan qamrab olish darajasi 27 foizni tashkil etgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2021 yil yakunlari bo’yicha 70 foizga yaqinlashib qoldi.

Kelgusida ushbu soha yanada rivoj topadi. Buning sababi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalari bilan to’la qamrab olish vazifasini qo‘ygan. Bu borada 2021 yilgacha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

2016 yilda maktabgacha ta’lim muassasalari soni 5 265 ta bo’lgan bo’lsa, 2020 yilda 18 254 taga etdi, ya’ni 3,5 martaga oshilirdi;

2016 yilda maktabgacha ta’lim muassasalaridagi tarbiyalanuvchilar soni 708 000 nafarni tashkil etgan bo’lsa, 2020 yilda 1 700 000 nafarga etdi, ya’ni 2,43 marta ko’p bo’ldi;

2020 yilda davlat maktabgacha ta’lim muassasalari soni 6 200 taga etdi va 2016 yilga nisbatan 1,9 martaga oshdi;

davlat-xususiy sherikchilik asosidagi va oilaviy maktabgacha ta’lim muassasalari 2016 yilgacha umuman bo’lmagan, 2020 yilga kelib ularning soni mos ravishda 1025 va 10 000 tani tashkil etdi;

maktabgacha ta’lim muassasalari moliyalashtirish hajmi 27 barobar o’sib, 2020 yilda 5,4 trillion so’mni tashkil etdi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim muassasalarini rivojlantirish nafaqat davlat xarajatlari hisobiga, balki nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etayotgan oilaviy tadbirkorlar xarajatlari hisobiga ham rivojlantiriladi.

Bunda, nafaqat davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari soni, ularga ajratiladigan mablag‘lar miqdori o’smoqda, balki ularning mazmuni, sifat ko’rsatkichlari tamoman yangi bosqichga chiqmoqda. Oldin maktabgacha ta’lim muassasalari asosan, bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullangan. Endilikda ular bolalarni boshlang‘ich maktabga tayyorlash, o‘qitish masalasi ham qo‘yilmoqda.

2020 yilda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 8-moddasida:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir;

- maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan etti yoshgacha bo’lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi, deb ko’rsatilgan.

Bu esa oliy ta’lim muassasalari oldida maktabgacha ta’lim muassasalari uchun tamoman boshqacha, hozirgidan farq qiladigan kadrlar tayyorlash vazifasini yuklaydi. Ya’ni, maktabgacha

ta'lim muassasalari uchun tayyorlanadigan kadrlar bolalarni tarbiyalash bilan bir qatorda ularga ta'lim ham bera olishi kerak. Bu esa 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'ziga xosliklarini inobatga olib maktabgacha ta'lim muassasalari uchun, ko'plab tarbiyachilar, pedagoglar, psixologlar, surdopedagoglar va h.k. mutaxassislar tayyorlash, ularning mehnatidan, bilimidan, salohiyatidan unumli foydalanish kabi masalalar turadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassislar tayyorlash, ish bilan ta'minlash, ularning salohiyatidan samarali foydalanish, ya'ni, bularning hammasi sohada yangi mehnat munosabatlari shakllanadi va rivojlanib boradi.

O'zbekiston taraqqiyoti va kelajagi yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilimlarni puxta egallagan, chuqur kasbiy malaka va mahoratga ega bo'lgan mutaxassislarga bog'liq. Bu sifatlarga ega bo'lgan mutaxassislarga eng avvalo, maktabgacha ta'lim muassasalarida tamal toshi qo'yiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirish yo'nalishlari, davlat maktabgacha ta'lim muassasalari bilan bir qatorda davlat-xususiy sherikchilik asosida nodavlat va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Yana bir juda muhim masala. 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning gigiyenik va boshqa o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bolalar bog'chalari va yaslilarida asosan, xotin-qizlar faoliyat yuritib kelgan. Soha oldiga qo'yilgan tamoman yangi vazifalardan kelib chiqib, bolalarni maktabga tayyorlashda erkak mutaxassislarni ham jalb etish masalasi turibdi.

Bunda boshlang'ich maktabga tayyorlanayotgan bolalardagi o'ziga xos xususiyatlar (materialni yodda saqlab qolish qobiliyati, aqlning o'tkirligi, o'ylashning tiniqligi va aniqligi va boshqalar) ni hisobga olgan holda boshlang'ich maktabga tayyorlash kerak bo'ladi. Bunday o'ziga xos mutaxassislarni esa oliy ta'lim muassasalari tayyorlab berishi kerak.

Adabiyotlar:

1. O'zbekistonda 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi natijalari. Factbook. Byulleten. –Toshkent: Baktria press, 2021.

2. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2020 yil 19 mayda qabul qilingan va shu yilning 7 avgustida Senat tomonidan ma'qullangan.

OILADA BOLANI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Abdullayeva D.U.

Nizomiy nomidagi TDPU, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

dilbar3007@inbox.ru

Ertangi kun davomchilari bo'lmish barkamol avlodni tarbiyalash hozirgi kunning muhim vazifalaridan sanaladi. Shu bois ta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim-tarbiyaning rolini oshirish, ayniqsa tarbiyalanuvchi shaxsining psixologik xususiyatlarini bilish muhim hisoblanadi. Chunki berilayotgan bilimlar avvalo shaxsning bilim darajasi, dunyoqarash, intilishi, qiziqishlar doirasi bilan uzviy bog'liqdir.

Har qanday ota-ona ham o'z farzandining maktabda yaxshi o'qishini va keyinchalik hayotda o'z o'rnini topishini xohlaydi. Lekin hamma ota-onalar ham bolani maktabga qanday tayyorlash kerak, buning uchun unga nimalarni o'rgatish kerakligini bilavermaydilar.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. Bog'chadan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarish yuz beradi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi bilan uning ijtimoiy holatida ham o'zgarish ro'y beradi.

Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlash haqida so'z borar ekan, shuni nazarda tutish lozimki, bola hayot faoliyatidagi rivojlanish bosqichlarining barchasi uni maktabga va muvaffaqiyatli o'quv faoliyatiga psixologik tayyorlashga asos bo'ladi. Bundan, bolani maktabga boshqacha qilib aytganda, hayotning keyingi bosqichlariga tayyorlash butun bir maktabgacha bo'lgan yosh davrida amalga oshirilishi lozim, degan xulosa kelib chiqadi.

Bolalar ota-onalariga va kattalarga dastlab «bu nima?» degan savol bersalar, keyinroq ular «nima uchun?» degan savol bilan murojaat qiladilar. Ota-onalarning vazifasi bolaning barcha savollariga erinmasdan javob qaytarish, tushunmagan narsalarini tushuntirishdan iborat. Ota-ona o'zining tashqi ko'rinishi va xulq-atvorlarida bolaning berayotgan savollariga qiziqayotganligini namoyon qilishi kerak..

Biroq shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, agar bolada atrof-muhitning turli sohalari, narsalar, hodisalar haqida taassurot va amaliy hayot tajribasi yetarli bo'lmasa, u holda bolada hech qanday savol tug'ilmaydi. Bu esa, bola maktabgacha yosh davrida ko'p narsani ko'rishi, eshitishi, ko'p yurishi, sayr qilishi, qisqa qilib aytganda, ko'proq taassurot olishi kerakligini anglatadi. Har kuni bir xil vaziyatda, bir xil faoliyatda, bir xil o'yinlarni o'ynash, bir xil odamlar bilan muloqotda bo'lish bolalarda bilish faoliyatini sekinlashtiradi.

Bu davrda bolaning obrazli va emotsional xotirasi rivojlanadi, shaxsining yo'nalishi kattalar hayotiga qaratilgan bo'ladi, bilishga bo'lgan qiziqishlari kuchayadi. Maktabda o'qish istagining sabablaridan biri katta bo'lish xohishidir. Shu sababli ota-onalar bola bilan o'zaro muloqotda bo'lganda undagi kattalik hissini qo'llab-quvvatlashlari kerak, ya'ni bolaga mas'uliyatli vazifalarni yuklash, uni rag'batlantirish, u bilan o'zaro tenglik asosida munosabatda bo'lish kabilarni amalga oshirishlari lozim.

Shu narsa diqqatga sazovorki, hamma maktab yoshiga to'lgan bolalar ham maktabdagi o'qishga birdek tayyor bo'lavermaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydilar. Ularda o'qish uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko'pinadi. Bu o'pinda shunday bir savol tug'iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan maktabdagi o'qishga tayyor deb hisoblash mumkin. Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo'lishi hamda ma'lum darajada aqliy jihatdan o'cgan bo'lishi lozim. Biroq u hayotda shynday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega bo'lgan va hattoki yozish hamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular maktab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo'lmasalar ham, maktabda o'qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagi o'qish jarayoni uchun ma'lum darajada aqliy jihatdan o'cgan bo'lish maktabda dastlab o'qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal qiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham mavjud. Boshqa bir olimlar, bolaning o'qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining yetilganligidir, deyдилar.

Maktabda muvaffaqiyatli o'qishning zarur shartlaridan biri bo'lgan mantiqiy bilish faoliyati maktabgacha yosh davridagi qiziquvchanlik asosida rivojlanishi mumkin.

Bu yoshda bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalarning asosiy vazifasi - turli hayotiy vaziyatlarda narsa-hodisalarning umumiy va xususiy sifatlarini izlashga, ularning belgilarini taqqoslash va umumlashtirishga o'rgatishdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning nytqini o'stirish juda zarur shartlardan biridir. Shuning uchun ota-onalar bolalarini maktabdagi o'qishga tayyorlashda ularni so'z boyligini orttirishga, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, jummalarni to'g'ri va to'liq tuza olishlariga ahamiyat berishlari kerak.

Bu davrda bolani o'qish faoliyatining xususiyatlarini tushunishga yo'naltirish lozim. Buning uchun ota-ona bolalarning faoliyatini sxemalar, modellar tuzishga qaratishlari kerak. Bu bolani obrazli tafakkurdan mantiqiy tafakkurga o'tishiga yaxshi yo'ldir, bu uning muvaffaqiyatli o'qishiga zamin bo'ladi.

Bolada maktab to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi ham turlicha, kimdadir bu tasavvurlar ijobiy xarakterda bo'lsa, boshqalarida salbiy bo'lishi mumkin. Kattalar tomonidan maktab, o'qish faoliyati to'g'risidagi bildirilgan salbiy fikrlar keyinchalik bolalarni maktabga tayyorlashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar imkon qadar bolalarda maktab to'g'risida yaxshi taassurotlarning shakllanishiga harakat qilishlari lozim.

Maktabgacha bo'lgan yosh davrida bola hayot tajribalari bilan birga alohida bilim va ko'nikmalarni - o'qishni, yozishni, sanashni, sodda arifmetik amallarni bajarishni o'zlashtirib olishi

mumkin. Lekin bu o'rinda ota-onalar ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ular bolani o'qish, yozish, hisoblashga bo'lgan qiziqishini to'xtata olmaydilar, o'zlari esa o'qitish metodikasini yetarlicha bilmasliklari oqibatida bolada maktab to'g'risidagi adekvat tasavvurlarning shakllanishiga zarar yetkazishlari mumkin. Bunday bolani maktabda o'qitish qiyin bo'ladi. Shuning uchun ham ota onalar eng avvalo yozish, o'qish va hisoblashga o'rgatuvchi maxsus metodikalar bilan tanishishlari va shundan keyingina bolani maktabga tayyorlash bilan shug'ullanishlari lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bolada o'ziga ishonch bo'lgandagina, u erkin o'sadi. Boladagi o'ziga ishonch esa ota-onasining unga nisbatan bo'lgan muhabbatini his qilishidan kelib chiqadi. Ota-onalarning vazifasi-bolani o'zining imkoniyatlariga, muvaffaqiyatiga, o'zining kerakligiga ishonтира olishdan iborat. Bolaga uning muvaffaqiyatini ko'rsata bilish, bu muvaffaqiyatni uning ongiga singdirish lozim. Bu esa uning maktab ta'limiga tayyorlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. .Абрамова Г.С. Возрастная психология: Учебное пособие для студентов вузов. - М., 2000. - 621 с
2. Абрамова Г.С. Практическая психология: Учебное пособие.- Екатеринбург,1998.-365
3. Возрастная психология: от молодости до старости: Учебное пособие ля студентов и преподавателей учеб. завед /М.В Гамезо, В.С Герасимова, Г.Г Горелова, Л.И Орлова.М.,1999.
4. Детская практическая психология /под ред. Т.Д Марцинковской.-М., 2000. -255 с
5. Рыбалко Е.Ф. Возрастная и дифференциальная психология.- Л.,1990. -252 с.



BOLA TARBIYASIDA MAKTABGACHA TA'LIMNING AHAMIYATI

Achilov O.M.

DTPi Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi,

Rahmonova Z.A.

TerDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi I-bosqich talabasi

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun», «Ta'lim to'g'risidagi qonun»i talablari asosida tashkil etiladi. Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Maktabgacha ta'lim

bolaning sogʻlom, har tomonlama kamol topib shakllanishni taʼminlaydi, unda oʻqishga intilish hissini uygʻotadi, uni muntazam taʼlim olishga tayyorlaydi.

Maktabgacha taʼlim bola 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha taʼlim maqsadi va vazifalarini roʻyobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda Maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida PQ-2707- son qaroriga muvofiq, bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlash ularga taʼlim va tarbiya berish, bolalarni har tomonlama rivojlantirish koʻzda tutilgan.⁴ Maktabgacha taʼlim bolaning har tomonlama intellektual rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir bola tarbiyaning ilk saboqlarini oiladan oladi, keyinchalik 3 yoshdan 7 yoshgacha yaʼni maktab taʼlimi yoshiga yetguniga qadar bola tarbiyasi maktabgacha taʼlim tashkilotlari zimmasiga yuklatiladi. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida faqatgina tarbiya berilibgina qolmay balki, bu tashkilotda bolalarga taʼlim va tarbiya bir maromda berilib boriladi. Maktabgacha taʼlimda bolalar ilk yoshdan boshlab barcha bilish jarayonlari sezgi, idrok, xotira, tafakkur, rivojlanib boradi. Bu bilan bir qatorda bolada estetik, aqliy, axloqiy, jismoniy, va mehnat tarbiyasi ham rivojlanadi.

Hozirgi kunda boshqa chet davlatlarda faqat taʼlimga eʼtibor qaratilgan boʻlsa, bizda Oʻzbekistonda taʼlim va tarbiyaga eʼtibor berilgan. Shu sababli ham Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlimni rivojlantirish boʻyicha koʻplab qarorlar ishlab chiqilmoqda, zero yosh avlod kelajagimiz poydevoridir. Oʻtgan asrlarda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz ham tarbiya haqida koʻplab fikrlarini bayon etishgan. Jumladan Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” deya taʼrif berganlar. Xulosa qilib aytganda bola tarbiyasida maktabgacha taʼlimning oʻrni bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy merosi va maʼnaviy-axloqiy anʼanalari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, oʻqishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda taʼlim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, oʻzining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sogʻligʻini taʼminlashdan iborat.

Adabiyotlar:

1. lex.uz Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021yillarda maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida” gi [PQ-2707-son qarori 2016-yil 29-dekabr](#)

³ Asqarova Dilorom Qurbonovna “Bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlash metodikasi” Toshkent 2020-yil 5-6-bet

⁴ lex.uz Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021yillarda maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida” gi [PQ-2707-son qarori 2016-yil 29-dekabr](#)

2. lex.uz Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son qarori 2020-yil 22-dekabr

3. Asqarova Dilorom Qurbonovna "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi"
Toshkent 2020-yil 5-6-bet

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ ЭКСКУРСИЙ И НАБЛЮДЕНИЙ

Бабаева Д.Р.

*к.п.н., профессор кафедры «Методика дошкольного образования» Ташкентского
государственного педагогического университета им. Низами*

E-mail: d.babaeva1968@gmail.ru

Зарипова М. Ф.

магистрант

В «Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах» в качестве приоритетных определены задачи «повышение качества и эффективности деятельности образовательных учреждений на основе внедрения международных стандартов обучения и оценки качества преподавания, стимулирование научно-исследовательской и инновационной деятельности, создание эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику». В результате, особую актуальность приобретает вопрос изучения развития связной речи детей старшего дошкольного возраста, посредством экскурсий, как фактора качественного уровня подготовки детей в школу.

Если ранее в дошкольном учреждении стремились к формированию у детей большего количества знаний, умений, навыков, то современные требования направлены на развитие интегративных качеств дошкольника за счёт повышения качественного уровня организации воспитательно-образовательного процесса, то есть пересмотра форм организации и методов взаимодействия с дошкольником.

Наверное самым важным качеством речи является - правильность речи - её не единственное, но главное коммуникативное качество, потому что прежде всего правильностью речи обеспечиваются её взаимопонимаемость, её единство. Нет правильности - не могут срабатывать другие коммуникативные качества: точность, логичность, уместность и т.д. Правильность речи всегда ведет к соблюдению норм литературного языка, неправильность - к отступлению от них. Правильность речи - это соответствие её языковой структуры действующим языковым нормам. Усвоение словаря решает задачу накопления и

уточнения представлений, формирования понятий, развития содержательной стороны мышления. Одновременно с этим происходит развитие операциональной стороны мышления, поскольку овладение лексическим значением происходит на основе операций анализа, синтеза, обобщения.

Сегодня остро стоит проблема поворота системы образования в сторону воспитания личности, способной к творческому решению жизненных задач.

Дошкольный возраст – это период наиболее интенсивного формирования мотивационной сферы. Среди разнообразных мотивов дошкольников особое место занимает познавательный мотив, который является одним из наиболее специфичных для старшего дошкольного возраста.

У детей с системным нарушением речи снижена субъективная активность в познавательной и речевой деятельности, что ограничивает круг их общения, способствует возникновению замкнутости, безынициативности.

Создание положительной мотивации в различных видах деятельности, варьирование методов и приемов обучения с учетом индивидуальных особенностей детей с ОНР обеспечивают успешность формирования речевой и познавательной активности на этапе подготовки к школе.

Поэтому, одна из основных целей данной деятельности, является, формирование познавательно – речевой активности у детей старшего дошкольного возраста с общим недоразвитием речи посредством экскурсионной деятельности.

Экскурсия – одна из форм образовательно – воспитательной работы с детьми, преимуществом которой является то, что дети могут в естественной обстановке наблюдать и изучать явления природы, сезонные изменения и т.д. В ходе проведения экскурсий осуществляется сенсорное развитие, на основе которого возникают мыслительные процессы, а это, в свою очередь, способствует развитию познавательного интереса у детей к окружающему миру. Чувственный опыт дошкольника, обогащается яркими, эмоционально насыщенными, запоминающимися образами, гораздо более впечатляющими, чем те, которые можно почерпнуть из книг. Экскурсии эффективно решают следующие задачи: воспитание звуковой культуры речи, обогащение, закрепление и активизация словаря, совершенствования грамматической правильности речи, формирования разговорной (диалогической) речи, развития связной речи, воспитания интереса к художественному слову, подготовки к обучению грамоте. Наряду с расширением представлений об окружающем мире, развитием любознательности и наблюдательности, экскурсии способствуют уточнению и обогащению активного и пассивного словарного запаса детей, развитию связной речи. Действительно, если мы хотим, чтобы в результате нашего педагогического влияния у ребенка появились не только

знания и умения, но и развились личностная и познавательная сферы; если мы хотим, чтобы дети стремились познавать мир и смогли реализовать свои природные задатки и творческий потенциал, нами была поставлена задача создания условий, способствующих развитию. Бедность словаря мешает полноценному общению, а следовательно, и общему развитию ребенка. И напротив, богатство словаря является признаком хорошо развитой речи и показателем высокого уровня умственного развития.

Своевременное развитие словаря - один из важных факторов подготовки к школьному обучению. Дети, не владеющие достаточным лексическим запасом, испытывают большие трудности в обучении, не находя подходящих слов для выражения своих мыслей. Основой модели развивающей среды послужило утверждение: каждый ребенок должен находиться в среде богатой стимулами, побуждающих к действию.

В группе была создана предметно – пространственная среда, обеспечивающая интенсивно развивающий характер педагогического процесса, организацию жизнедеятельности детей на коррекционно – развивающей основе. Всё пространство группы завязано на идеи социализации и представляет собой «город Буквоград» с улицами и переулками (уголками) оформленными в соответствии с названием (ул. Художников, проспект Математиков, площадь Театральная, и т.д.) и имеющими следующие параметры:

- проблемная насыщенность;
- многофункциональность и вариативность модели среды;
- открытость к изменению, своеобразному достраиванию среды детьми;
- психологическая комфортность (способствует мотивации успешности);

Мы стремились через оформление создать содержательно – смысловое «поле», благодаря которому можно решать и образовательные, и развивающие задачи.

По нашему мнению, работа в такой среде обеспечивает более высокий уровень познавательного развития, провоцирует речевую активность детей, является ключом к освоению рабочей лексической темы, а также является подготовительным этапом последующей экскурсионной деятельности.

Экскурсионную деятельность условно можно разделить на 3 блока:

1. Сезонные экскурсии
2. Дoproфориентационные
3. Культурно-исторические

По итогам экскурсионной деятельности дети в составе группы «Юный исследователь» посещают массовые группы детского сада с творческими отчётами (плакаты, коллажи, альбомы). Данная работа находит своё продолжение в самостоятельных семейных экскурсиях,

в рамках проекта «Незнайка в гостях у детей», являющейся эффективной формой взаимодействия родителей и педагогов группы.

Таким образом: целенаправленное и систематическое осуществление процесса стимулирования познавательной - речевой активности детей посредством экскурсионной и наблюдательной деятельности является одним из факторов эффективного речевого развития детей старшего дошкольного возраста и пополнения их словарного запаса новыми словами и терминами.

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 6, ст. 70.
2. Войтенко Т.П. Игра как метод обучения и личностного развития.- Калуга: Изд-во «Адель», 1997.
3. Нифонтова С.Н. , Гаштова О.А., Жук Л.Н. Цикл развивающих целевых и тематических экскурсий для детей 4-7 лет. Учебно-методическое пособие - СПб.: ООО «Издательство «Детство - пресс»», 2010.

TEVARAK - ATROF BILAN TANISHTIRISH ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Babayeva D.R.

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi professori

Jumaniyazova G.J.

Ajiniyoz nomidagi NDPI magistranti

Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi-har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash hamda tashkilotda ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'z milliy qadriyatlarini tiklash yo'lida jamiyat hayotining har bir jabhasida sobitqadamlik bilan ish olib bormoqda. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Maktabgacha davr- bu bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatleri va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha ta'lim tizimini qayta

qurishning asosiy yoʻnalishlaridan biri bolaning xususiyatlari, imkoniyatlari, layoqati va qobiliyatlarini eʼtiborga olgan holda uni shaxs sifatida mukammal rivojlantirishga qaratilgan taʼlimdir. Shuning uchun bizning asosiy vazifamiz maktab yoshigacha boʻlgan bolalarni bilimga undash, faollikka chaqirish, amaliy faoliyatning har bir turida atrof-muhit tushunchalarning muhimligini koʻrsatish, fikrlashga oʻrgatishdan iboratdir. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola oʻzini, oʻzligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi.

“Ilk qadam” davlat dasturining maqsadi. “Maktabgacha bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari”ning bajarilishiga erishishdan, yaʼni maktabga jismonan sogʻlom, aqlan va maʼnan etuk, jamiyatning turli aʼzolari bilan muloqotda boʻla oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, hayotga ijtimoiy jihatdan moslashuvchi, umummilliy qadriyatlarimizni qadrlaydigan, shuningdek, mustaqil va ongli yashaydigan bolani tarbiyalashdan iboratdir. Maktabgacha taʼlim tashkilotida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va maʼnaviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni oʻrab turgan atrof-muhitni oʻrganish, nutq oʻstirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yoʻnalishlar bir-biri bilan uygʻunlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda oʻyin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. Oʻyin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, oʻyin jarayonida oʻrganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan oʻzlashtiradi. Maktabgacha taʼlim tashkilotining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi taʼlim bosqichiga puxta tayyorlashni taʼminlash hamda tashkilotda ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda tabiatshunoslikning roli katta. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishni bogʻcha yoshidan boshlamoq kerak. Shunga koʻra bolalar bogʻchalarida murgʻak qalblarga taʼlim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldilarida eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat goʻzalliklarini koʻra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz beradigan voqea-hodisalar haqida toʻgʻri tushunchaga ega boʻlishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat boʻlmogʻi lozim. Tabiat-bitmas-tuganmas xazinadir. Oʻsimliklar dunyosi, hayvonot muhiti yosh qalbning toʻgʻri oʻsib shakllanishida, tabiatda boʻladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini oʻrganib voyaga etishida katta manba boʻlib xizmat qiladi. Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga er, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa oʻsimliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, oʻsmaydi, koʻpaymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas. Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, oʻsadilar va koʻpayadilar. Jonli tabiat vakillari oʻsimlik, havo, suv, yorugʻlik, issiqlik va ozuqa boʻlmasa yashay olmaydi. Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir.

Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analari hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zbek xalqining yil fasllari almashuvi, hosilni yig'ib-terib olish bilan bog'liq umumxalq bayramlari ham maxsus ekologik mazmun bilan boyitilgan. Ular orasida eng ommaviy bayram "Navro'z"dir. U zardushtiylarning astrologik taqvimlarida alohida ahamiyat kasb etgan. "Navro'z" o'zbek xalqining tabiat, er va uning in'omlariga bo'lgan muhabbatining o'ziga xos jamuljamdir. U O'zbekistonda bahor va mehnat bayrami hisoblanadi. Shunga ko'ra o'zida nihoyatda katta tarbiyaviy imkoniyatni mujassamlashtiradi hamda insonlarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, o'zaro hurmat, muhabbat, ezgulik, adolat, do'stlik va boshqa ijobiy fazilatlarni mustahkamlashga imkon yaratadi. "Navro'z" bayrami bahorning boshlanishida o'tadi. Bu paytda dehqonlar erga dastlabki urug'ni qadashadi, mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini o'tqazishadi, erni "bezash"ga harakat qilishadi, toki u kishilarga ezguliklar keltirsin, ularning qalbiga umid va ishonch tuyg'ularini singdirsin, yaqin qarindoshlar hamda do'st-yorlar bilan munosabatda o'zlarini erkin va baxtli his etishsin. Qadimgi an'analarga ko'ra bu paytda kishi quyidagi shartlarni bajarmog'i kerak: ko'cha va hovlilarni tartibga keltirish, tozalashda ishtirok etishi, daraxtlarni oqlash, ko'chat (kamida uchta) hamda gullar o'tqazish, xushchaqchaq va shodman yurishi, bir-birlariga yaxshi niyatlar tilash, urishgan kishilar bilan yarashish, halol va munosib hayot kechirishga intilish. Shunga ko'ra, ekologik madaniyat tamoyillari, me'yorlari antropogen omillar xarakteriga ega bo'lib faqat insonning bevosita tabiat bilan bo'lgan munosabatlaridagi harakatlarigagina tatbiq etilgan va baholangan. Barcha insonlar ana shu o'lchov me'yoriga amal qilganlar. Shu sababdan ham suvga tuflama, suvga supurindi tashlama, suv oqqan ariqni iflos qilma, havoni ifloslama kabi fikrlar ular uchun dasturi amal bo'lgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki ajdodlarimiz asrlar davomida to'plagan xalq an'analari, urf-odatlari va marosimlarida er, suv, havo, atrofdagi o'simlik hamda hayvonot dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga rioya qilganlar. Ular to'plagan ekologik tajribasining bir avloddan ikkinchi avlodga, bir xalqdan boshqa xalqqa vorisiyligini ta'minlash muhimdir. Tabiat, jamiyat va hayotni inson uchun yaratilgan moddiy-ma'naviy ne'mat sifatida talqin etish, uni asrab-avaylashga da'vat etish qadimgi ma'naviy merosimizning buyuk gumanistik mazmunini tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Qodirova F.R. Bolalar nutq o'stirish metodikasi.-T.: TDPU, 2011y.

2. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T.: 2012 .
3. Bekmatova O.A. va boshqalar «Quvnoq harflar». -T.; "O'qituvchi" 2000.
4. Umarova M. Bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. Metodik tavsiyalar. -T.: Nur-sehri Oshiyoni, 2007. -67 b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INTERAKTIV O'YINLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Babayeva D.R.

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası professori

Zaripova M.G'. magistrant,

Amirova N.E. talaba

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan o'yinda bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy sifatlari rivojlanishi, o'quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi. Bolaning uch o'zaro bog'liq yo'nalishlari — hissiyotlari, tushunchasi va ijodiy-barkamollik bolaning tabiiy muhiti — o'yinga moslashadi, o'yin bola uchun bir vaqtda ham vaqtichog'lik hamda insonlar, predmetlar, tabiat olamini anglash usuli, shuningdek o'z fantaziyasini qo'llash shakli hisoblanadi. O'yinning asosiy afzalligi uning faol va mustaqil faoliyat ekanligi hisoblanadi. Ta'lim va suhbatlarda emas, balki aynan o'yinda bolaning qobiliyatlari rivojlanadi va uning shaxsi shakllanadi! O'yin bolada yaxshi kayfiyatni ta'minlaydi, uning hissiy tajribasini boyitadi, ko'rgazma-obrazli tafakkuri, tasavvuri, nutqini rivojlantiradi. Tasavvuri yaxshi rivojlangan bolalar yuqori intellektga ega bo'ladilar. Nostandart vaziyatlarda tez yo'l topadilar, yaxshi ta'lim oladilar. O'yin — bolaning ijtimoiy rivojlanishining muhim shartidir. Unda bolalar kattalarning turli faoliyatlari bilan tanishadilar, boshqa insonlarning his-tuyg'ulari va holatlarini tushunish, ularga hamdard bo'lishni o'rganadilar, tengdosh va katta bolalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini egallaydilar. O'yin yaxshi psixoterapevtik ta'sirga ega, chunki o'yindagi harakatlar orqali bolalar yig'ilib qolgan salbiy hissiyotlarini anglamagan holda va beixtiyor chiqarib yuboradilar. O'yin bolaga barchasiga qodirlik va erkinlik hissini beradi[1].

O'yinlarning asosiy maqsadi — kichik insonni rivojlantirish, undagi mavjud va namoyon bo'lgan xislatlarini korreksiya, uni ijodiy tadqiqot xulqiga yo'naltirishdir. Bir tomondan, bolaga amal qilish uchun "ozuqa", boshqa tomondan — fantaziya va shaxsiy ijod uchun maydon taklif etiladi. O'yin tufayli bolada barcha psixik jarayonlar, aqliy operatsiyalar, modellashtirish va loyihalash qobiliyatlari rivojlanadi, matematik tushunchalar to'g'risidagi tasavvurlari shakllanadi, maktabga

muvaffaqiyatli tayyorgarlik amalga oshiriladi. O'yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Rang, shakl, o'lcham, hajm va h.k. tushunchalar bilan tanishuv.

2. Fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish.

3. Mantiqiy tafakkurini shakllantirish (taqqoslash, tasniflash, mavhumlashtirish, umumlashtirish operatsiyalarini egallash).

4. Obyektlardagi xususiyatlarni aniqlash, ularning nomini aytish, predmet va buyumlarning o'xshashlik va farqlarini tushuntirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

5. Mustaqillik, qat'iyat, maqsadga erishishga intilishni tarbiyalash.

6. Tashabbus, ijodiy fantaziya, tasavvurini namoyon etish uchun sharoit yaratish, loyihalash va modellash ko'nikmalarini hosil qilish. Zamonaviy, jadal rivojlanuvchi dunyo, universal kompyuterlashtirish jarayoni pedagoglarni bolalarning maktabgacha tayyorgarliklari mazmunini modernizatsiyalashga undamoqda. Bola ertangi maktab hayotiga dadil kirib borishi va unda muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashishi uchun, uni MTTdayoq kompyuter bilan tanishtirish va undan o'yinlar uchun foydalanish imkoniyatini ko'rsatish zarur. Shu bilan birga, yoshga xos qiziqishlari va tarbiyaviy ahamiyatiga ko'ra o'yinlarni to'g'ri tanlash muhim. Faqat shundagina o'yinlar bolalarga donishmandlik, madaniyat va inson tajribasiga yo'lni ochadi. Multimedia dasturlariga kiritilgan o'yin komponentlari bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularning bilish faoliyatlarini faollashtiradi, materialni o'zlashtirish jarayonini yaxshilaydi va obrazli tafakkurining rivojlanishiga ko'maklashadi[2]. Bugungi kunda ta'lim tizimiga, jumladan maktabgacha ta'lim tizimiga ham pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar kirib kelmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo'llarini amaliyotchi tarbiyachi va o'qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim maqsadiga erishish quroli, ya'ni oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta'lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning samaradorligi, qaytuvcha aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanganligi. O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. O'yin strukturasi maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi[3]. O'yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiylikidir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. Nazariy jihatdan o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qarash mumkin. O'yin

faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. O'yinli faoliyatni motivatsiyalar o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini ko'ndirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- haqiqiy narsalarni shartlilarga almashtirish;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun).

Har qanday texnologiyada, jumladan, o'yin texnologiyalarida ham, o'quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologiyaning asosiy negizidir. Maqsad to'g'ri qo'yilishi uchun tarbiyachi bolaga nimani o'rgatmoqchi bo'lganligini bilishi kerak. Bitta mashg'ulotda bitta maqsad qo'yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va h.k.

Adabiyotlar:

1. Mirjalilova S., To'laganova R. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. –T.: 2008.

2. Umarova M. Bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. Metodik tavsiyalar. –T.: Nur-sehri Oshiyoni, 2007. –67 b.

3. Vinogradova N.A., Miklyayeva N.V. "Bolalar bog'chasining interaktiv rivojlanish muhiti" Darslik. qo'llanma M., 2004 yil

INTERFAOL O'YINLAR JARAYONIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH

Babayeva D.R.

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasini professori,

Ochilova X.Sh. magistrant,

Anbarjonova Sh.A. talaba

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik o'yinlarning shakllari va amalga oshirish metodlari. Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi.

Maktabgacha yoshda bolalar o‘yin faoliyatini o‘zlashtira borib ijtimoiy kadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko‘taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o‘zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o‘ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo‘qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
6. Bolalar shaxsi strukturasi ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag‘rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o‘yinlar.

Pedagogik o‘yinlarni quyidagicha taqsimlash mumkin:

Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o‘yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta’lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, mahsuloti, ijodiy, psixotexnik o‘yinlar.

O‘yinlar metodlariga qarab: predmetli, syujetli, badiiy roli, hodisalarni tasavvur etuvchi va dramalashtiruvchi o‘yinlar.

Predmetlar asosidagi o‘yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o‘yinlar. O‘yin vositalari bo‘yicha: o‘yin vositalari (koptok, piramida, kub va boshqa.) bilan amalga oshiriladigan o‘yinlar va o‘yin vositalarisiz amalga oshiriladigan o‘yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o‘ynaladigan o‘yinlar, kompyuter va televizor o‘yinlar, o‘yinning texnik vositalari harakatlanuvchi va statsionar namunalar vositasidagi o‘yinlar[1].

Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlarni o‘quv tarbiya jarayonida qo‘llash quyidagi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g‘isht chalar, kvadratlar, plastilin, karton qog‘ozlar, konstruktor–mexanik majmualarida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta’minlash maqsadida ularni osondan qiyin tomonga, aniq vaqt oralig‘ida sifatli bajarilishini ta’minlash darkor.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol o‘yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o‘yinlar jarayonida bola passiv obyektidan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o‘yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zarur bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarni yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish.
4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.
7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini prognoz qilish[2].

Pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga uni bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak.

O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy ta'limdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. Tayyorgarlik davri, o'yinga kirishish, o'yindagi harakatlarni muhokama qilish, asosiylarini belgilab olish jarayonlariga bo'linadi. Bu jarayonlar o'yin mazmunini to'laroq ifoda eta olishga, o'zaro iliq munosabatlarini o'rnatishda kelishib olishga yordam beradi. O'yinni rivojlantirish uchun o'yinga qo'yiladigan talablar mazmunini o'zgartirish kerak. O'yin vaziyatini tanlash o'yinga rahbarlik qilayotgan pedagogning mahoratiga, qiziqishiga bog'liq.

Interaktiv o'yin. Eng samarali pedagogik texnologiyalardan biri bu interfaol o'yin bo'lib, u o'quvchilarning o'zini o'zi anglashi va rivojlanishi uchun maqbul sharoitlarni yaratadi. Uning maqsadi — pedagogik o'zaro ta'sir subyektlarining faoliyati va xulq-atvori modellarini o'zgartirish va takomillashtirish, ularning ushbu modellarni ongli ravishda o'zlashtirishi. Interaktiv o'yinlar faollik va ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantiradi, har bir kishi uning qonunlari va qoidalarini qabul qiladigan sehrli dunyoni yaratadi. Bolalar o'z his-tuyg'ularini yashirmaydilar, o'yin ishtirokchilari bilan og'zaki va og'zaki bo'lmagan usullar bilan erkin muloqot qilishadi, qarorlar qabul qilishadi, turli rollarni sinab ko'rishadi. O'yin davomida mavjud o'zaro ta'sir, bu shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlaydi, bu sizga o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilim va ko'nikmalarning rivojlanishi va integratsiyasini aniqlash imkonini beradi[3]. O'yinning faol

ishtirokchilari jadalroq o'rganadilar, o'zlarini ko'proq rag'batlantiradilar, lekin yetakchiga e'tibor qaratadiganlar — aksincha. Interfaol o'yinlar bolalarga tezda bir-biri bilan aloqa o'rnatishga yordam beradi, o'yin reaksiya tezligini oshirishga yordam beradi, ularning salbiy va ijobiy his-tuyg'ularini ifoda etishga imkon beradi. Interaktiv o'yinlar uchun mavzular ro'yxati cheksizdir: tanani, fasllarni, ranglarni, kayfiyatni tasvirlash, o'zaro his-tuyg'ular, do'stlar yoki oila, uy yoki maktab, sovg'alarni o'rganish. Shuningdek, o'yinlar janr spektakllari, improvizatsiyalar sifatida o'tkazilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Jalolova G. «Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish».- T.:2004.
- 2.Mirjalilova S., To'laganova R. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. –T.: 2008.
- 3.Nurkeldiyeva D.A. va boshqalar. Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar. –T.: 2007.

LOYIHALASHTIRISH FAOLIYASI VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI BILISHGA QIZIQISHINI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Baqoyeva M.S.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti*

“Ta’lim to’g’risida”gi qonunda e’tirof etilganidek umumta’lim maktablarining 1-sinflariga bolalar 6-7 yoshdan qabul qilinadilar. Jismonan sog’lom, aqlan va ma’nan etuk hamda tibbiy jihatdan mutlaq sog’lom deb topilgan olti yoshli bolalar, psixologik-pedagogik tashxis natijalariga ko’ra umumta’lim maktablarining 1- sinflariga qabul qilinadi. Ma’lumki, maktabgacha yosh davrida bolalar uchun asosiy faoliyat turli o’yinlar hisoblanadi. Kuzatishlardan ma’lumki, maktabga uydin kelgan bolalarga nisbatan maktabgacha ta’lim muassasalaridan kelgan bolalarning o’qish faoliyatiga moslashuvi ancha osonroq kechadi.

Bolaning maktabgacha ta’limiga psixologik moslashuvi birinchidan, bilim olish uchun bolada moyillik va o’quvchining ijtimoiy yo’nalishi shakllangan bo’lishi, ikkinchidan, o’z tengdoshlari bilan muloqot qila bilishi, o’qituvchining talablarini bajarishi, o’z xulqini nazorat qila olish kabi jihatlarining shakllanganligiga bog’liq. Bular bolani o’quv faoliyatiga “silliq” o’tishini ta’minlaydi.

Maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalarni yangi ijtimoiy muhitga moslashtirish maktab psixologi va boshlang’ich sinf o’qituvchisi faoliyatida muhim o’rin tutadi.

Olti yoshli bolalarning maktabga moslashuvi va rivojlanish dinamikasini o‘rganish uchun maktab amaliyotchi psixologlari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan trening mashg‘ulotlari va korreksion rivojlantirish mashg‘ulotlarini o‘tkazilishi muhimdir.

Bolalarning maktab sharoitiga moslashuvini bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganish mumkin, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, organizm funksional tizimining turli zo‘riqqanlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Birinchi bosqich – mo‘ljal oluvchi bo‘lib, bunda tizimli muloqot boshlanishi bilan bog‘liq yangi ta’sirlar majmuasiga organizmning deyarli barcha tizimlari jo‘shqin reaksiyalar bilan javob qaytaradi. Bu “fiziologik o‘zgarishlar” uzoq davom etadi (2-3 hafta).

Ikkinchi bosqich – beqaror moslashuv, organizm bu ta’sirlarga qandaydir maqbul yoki qulayroq bo‘lgan variantlarni izlaydi. Bu bosqichda “noodatiy holatlar” asta-sekin susayadi.

Uchinchi bosqich – nisbatan barqaror moslashuv davri. Bunda organizm bosimga qarshi kamroq zo‘riqish talab etuvchi variantlarni topadi. O‘quvchi qanday ishni bajarmasin, bu xoh yangi bilimlarni o‘zlashtiruvchi faoliyat bo‘lsin, xoh statistik bosim yoki turli jamoalardagi muloqotdagi psixologik bosim bo‘lsin organizm aniqrog‘i, uning har bir tizimi zo‘riqish faoliyati bilan javob beradi. Shuning uchun har bir tizim qanchalik ko‘p zo‘riqsa, organizm shunchalik ko‘p zaxirasini yo‘qotadi. Biz bilamizki bola organizmining imkoniyatlari u darajada ko‘p emas. Uzoq davom etuvchi zo‘riqish, charchoq esa, boladan ko‘p energiyani talab etadi.

Moslashuvni 3-bosqichining davomiyligi taxminan 5-6 hafta davom etadi, o‘quv yilining birinchi oyi eng murakkab moslashuv davri bo‘lib hisoblanadi.

Moslashish jarayoning muvaffaqiyati bolaning sog‘lom holati va o‘qishga psixologik tayyorligi bilan aniqlanadi.

Psixologik tayyorlik bolaning umumiy tavsifnomasi sifatida ko‘riladi, ularda psixologik sifatlarning rivojlanish bosqichlari ochib beriladi. Bu esa o‘z navbatida bolani maktab sharoitiga me‘yorida moslashishi va o‘quv faoliyatini shakllantirish uchun muhim asos hisoblanadi. Bu psixologik sifatlarning ma‘lum tarzda guruhlashtirilgan bo‘lib, maktabga psixologik tayyorlikni tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi. Maktabga psixologik tayyorlikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarni tashkil etadi:

- maktabga aqliy tayyorlik;
- maktabga motivatsion tayyorlik;
- maktabga hissiy-ifodaviy tayyorlik;
- sinfdoshlar va o‘qituvchi muloqotiga tayyorlik;

Bolaning psixik rivojlanishi qanchalar nomuvofiq kechsa, uning yangi mikroijtimoiy sharoitlarga moslashishi shunchalik qiyinroq kechadi.

Maktabga qabul qilingan olti-yetti yoshli bolalar moslashish jarayonining dastlabki oyida ayrim qiyinchiliklarning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar quyidagilardan iborat:

- o'quvchida kompleks moslashuvlarning vujudga kelishi;
- shart-sharoitlarning yaratilmaganligi;
- yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bosh miya yarim sharlari aqliy ishchanlik qobiliyatining dinamika(yuqori va past)si;
- 35 daqiqalik aqliy mehnatga tayyor bo'lishi;
- shaxslar aro munosabatlarning keskin kechishi;
- bola organizmining toliqishi va zo'riqishi;
- psixofiziologik holat (charchoq, mudroq, zerikish)ning kuzatilishi;
- yangi mavzuni o'zlashtirishdagi ko'nikma va malakalarning etishmasligi; notanish odat va muhitga moslashuvi;
- ifodaviy sifatlarning etarli darajada shakllanmaganligi; o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarining e'tiborga olinmaganligi.

Olti yoshli bolaning ijtimoiy rivojlanishi:

olti yoshli bolalar nafaqat tanish balki notanish bo'lgan muhitda ham yaxshi moslashadilar; tengdoshlari, kattalar bilan muloqotga kirisha oladilar, muloqotning asosiy qoidalarini biladilar; o'z xulqlarini boshqara oladilar; birinchilardan, eng yaxshilardan bo'lishga intiladilar, omadsizliklarda juda xafa bo'ladilar;

kattalarning ularga bo'lgan munosabatini o'zgarishiga katta ahamiyat beradilar, kattalarning kayfiyatiga e'tibor qaratadilar.

Olti yoshli bolaning intellektual rivojlanishi, tafakkuri:

har qanday yangi ma'lumotni katta qiziqish bilan qabul qiladilar, kuzatuvchan bo'ladilar, ko'p savol beradilar;

6-7 yoshda ko'ruv-obrazli va harakat-obrazli va mantiqiy tafakkur jarayonlari yaxshi rivojlangan; predmetlar va hodisalarni tizimlashtiradilar, guruhlashtiradilar va sinflarga ajrata oladilar;

oddiy sabab-oqibatli hodisalarni tahlil qila oladilar.

Olti yoshli bola diqqati, idroki va xotirasining rivojlanishi:

- ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat turlari mavjud bo'lib, bu yoshda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi;
- ixtiyoriy diqqatning barqarorligini saqlab qolish muhit va bolaning individual xususiyatlariga bog'liq;

- bu yoshda ixtiyorsiz xotira turi ustun bo'lib. faol idrok jarayonida samaradorligi ortadi;

- bir vaqtning o'zida idrok qilinadigan obyektlar miqdori(1-2)ga diqqatlarini bir faoliyatdan boshqasiga tez ko'chira olmaydilar.

- Olti yoshli bolaning shaxsiy rivojlanishi, o'zini anglashi va o'zini baholashi.
- Kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlarda o'z xatti-harakatlarini anglay oladilar;
- kattalarning talablarini bajarishga intiladilar, bajarayotgan u yoki bu faoliyatlarida omadga erishishga intiladilar;
- barcha faoliyat turlarida o'ziga bo'lgan baho turlicha bo'lishi mumkin;
- o'zini bir xil baholay olmaydi, u ma'lum darajada kattalar tomonidan (bolaga) beriladigan bahoga bog'liq (o'qituvchi, ota-ona).

Harakat motivlari:

- faoliyatning yangi turlariga qiziqadilar;
- kattalar dunyosiga qiziqadilar, ularga o'xshashga intiladilar;
- barcha narsalarni bilishga qiziqadilar;
Второй этап программы – этап развития у студентов коммуникативных и инициативных способностей. Целью этого этапа является включение молодежи в групповую работу, содействие в реализации себя в поведении и деятельности. Занятия включают в себя: лекции, психологические тренинги, деловые игры, круглые столы, дискуссии, диспуты. Проводят занятия педагоги и психологи высшей квалификации, имеющие подготовку в области групповой практико-ориентированной психологической работы. Кроме учебных занятий, ежедневно проводятся творческие или экскурсионные мероприятия. Задачами этого этапа являются: стимулирование процесса саморазвития молодежи посредством различных видов групповой работы, развитие навыков и умений, необходимых для уверенного поведения, формирование мотивации самовоспитания и саморазвития.

Третий этап – психолого-педагогическая поддержка студентов развитие направленности личности на дело. Цель этого этапа: самопознание студентов себя как субъектов профессиональной деятельности, применение приобретенных знаний и умений в реальной трудовой деятельности.

Оценка эффективности программы «Школа инициаторов» проходит по следующим параметрам личности: сформированное системы ценностей; сформированное инициативных и коммуникативных качеств; реалистический уровень притязаний; направленность личности

на дело. Соответственно социально-педагогический механизм по развитию инициативности у студентов должна включать педагогическое воздействие субъектов социальной среды, самостоятельную деятельность студентов и создание благоприятных социально-педагогических условий. [5].

Проведенный анализ позиций к определению понятия «развитие личности» позволил дать рабочее определение понятию «развитие инициативности у студентов» – это процесс, включающий: педагогическое управление; самостоятельную деятельность студентов, обеспечивающую приобретение опыта деятельности, освоение компетенций и ценностей, приобретение позитивного социального опыта, способствующего активности в решении социально значимых задач.

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по повышению эффективности государственной молодежной политики и поддержке деятельности Союза молодежи Узбекистана». 5 июля, 2017 года.
2. Джамилова Н.Н Совершенствование педагогических механизмов развития инициативности у обучаемых. Монография. – Ташкент: Фан ва технология, 2018. - 237 с.
3. Джамилова Н.Н. Интегративная модель развития инициативности у студентов // Педагогика. – Тошкент, 2019. – 1-сон.
4. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. – М.: Мысль, 2010. – 188 с.

MAKTABGACHA TA'LIMDA RIVOJLANUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Djamilova N.N.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrası professori, p.f.d., nargiza.jamilova@yandex.ru*

Asanova G.

NDPI 1-kurs magistrant

Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimini o'zgartirish bilan bog'liq dolzarb ijtimoiy va pedagogik muammolar majmuasida uning boshlang'ich bo'g'ini — maktabgacha ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021- yillarga mo'ljallangan dasturida ushbu ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ulaning tarmog'ini kengaytirish, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy usul va dasturlarni joriy etish bo'yicha amaliy chora- tadbirlar rejasini amalga oshirish ko'zda tutilgan."

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarining muhim vazifasi har bir bolaning ijodiy faoliyatini ta'minlaydigan, bolaga o'z faoliyatini ko'rsatishi va o'zini o'zi to'liq anglashi uchun imkon beradigan rivojlanish muhitini tashkil etish orqali pedagogik jarayonni takomillashtirish va bolalar bilan tarbiyaviy ishlarning rivojlanish samarasini oshirishdir. Shu munosabat bilan, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining oldiga rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini anglash, tarbiyachilar jamoasi, ota-onalar, maktab va boshqa ijtimoiy muassasalar bilan yangi munosabatlarni shakllantirish vazifasi maktabgacha ta'lim muassasasida mavjud bo'lgan resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Shu bilan birga, tashkilotning ichki funksiyalarni tartibga solish va pedagogik jarayon samaradorligini oshirish omili sifatida rivojlantiruvchi muhitni yanada oqilona qurish uchun sharoit yaratishni ta'minlaydigan bunday tashkiliy tuzilmalarni barpo etishga qaratilgan boshqaruv funksiyasi sifatida ahamiyati ortadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining amaliyotida psixologik qulaylik, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, jamoaviy va individual faoliyat motivatsiyasini ta'minlaydigan maktabgacha ta'lim tashkilotining funksional maydoni tizimida tarbiyachilar, ota-onalar, bolalar bilan o'zaro munosabatlarning noan'anaviy usullarini qo'llash orqali empirik darajadagi o'zlarining tashkiliy va pedagogik faoliyatini o'zgartirishga urinishlar mavjud.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish holatini amalda tahlil qilish ushbu boshqaruv funksiyasini amalga oshirishda bir qator muammolarni aniqlashga imkon berdi:

- maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari tomonidan rivojlantiruvchi atrof-muhitni tashkil etishning mazmuni va mohiyati to'g'risida maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish funksiyasi sifatida yetarli darajada xabardorligi, uning tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, rivojlantiruvchi muhitni yaratish natijalariga ta'sir o'tkazish imkoniyati, tashkiliy va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish.

- ta'lim jarayoni mazmunining xilma-xilligi, rivojlantiruvchi muhitning mavjud tashkiloti yaxlit pedagogik jarayon doirasida bolalar va kattalar o'rtasidagi samarali o'zaro munosabat uchun yetarli tashkiliy-pedagogik, moddiy-texnik va ijtimoiy-psixologik sharoitlarni ta'minlanmasligiga olib keladi. Bu maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari oldiga maqsadga erishish uchun rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sirining yangi vositalari va usullarini topish muammosini qo'yadi.

“O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohotlarning muvaffaqiyati, eng avvalo, odamlarning o'z ishlariga mas'uliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamlakat taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladigan ishlarni qila olishlariga bog'liq. Jamiyatda pedagog, birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan, mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va mas'uliyatli vazifalarni bajaradi. Tarbiyachining qadr-qimmatini shu qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo'qki, uning ustozini bo'lmasa. Hukumat rahbarimi, buyuk allomami,

shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo‘li gul kosibmi, qo‘yingki, barcha-barchaning o‘z ustozini va hayot yo‘lini charog‘on etib turuvchi yo‘lboshchisi bo‘ladi. Ustozning eng buyuk burchi xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas‘uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z mas‘uliyatini anglashga, ta‘lim-tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va hamkasblarining ishdagi o‘shiga ko‘maklashishda yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyat qonunlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo‘lishi kerak.”

Shunday qilib, rivojlantiruvchi atrof-muhitning yaxlit qurilishini yetarli darajada ta‘minlamaydigan maktabgacha ta‘lim muassasasida shaxsni shakllantirish omili va uni tashkil etish tizimi sifatida rivojlantiruvchi muhitning ulkan salohiyatlari o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi.

Tadqiqot gipotezasi rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish samaradorligini maktabgacha ta‘lim muassasasini boshqarish funksiyasi sifatida oshirish mumkin degan taxminlarga asoslanadi, agar:

- rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish texnologiyasi, shu jumladan: rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish maqsadini tanlash va shakllantirish; rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish maqsadiga erishish vositalarini tanlash; ijrochilarni tanlash va tayyorlash, ular orasidagi tashkiliy munosabatlarni aniqlash; ijrochilar faoliyati natijalarini baholash.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: «O‘ZBEKISTON», 2017, 32-bet.
2. “Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi” Toshkent - «ILM ZIYO» - 2011 24-bet.
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. 2018-yil, VI bob, 16-bet.

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALARNI TA‘LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA‘MINLASH

Djamilova N.N.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta‘lim metodikasi”
kafedrası professorı, p.f.d., nargiza.jamilova@yandex.ru*

Bekmuratova Z.

NDPI 1-kurs magistri

Mamlakatimizda bolalar to‘g‘risida, onalar haqida g‘amxo‘rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir. “Jamiki yaxshi narsalar – bolalarga” shiori yanada baralla jaranglamoqda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir.

MTT tarbiyachilari oilaning bolani ilk tarbiyachisi sifatidagi ustuvor mavqeyini e'tirof etishlari juda muhim. Zamonaviy MTT tarbiyachisi ijtimoiy psixolog bo'lmagligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Pedagoglar ota-onalar bilan bola haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun bolaning uydagi va MTT dagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug'diradigan barcha jihatlarni mamnuniyat bilan muhokama qilishlari kerak.

Oilada bola tarbiyasida ota va ona birdek mas'ul shaxs hisoblanadi. Bola oilada kattalarga qarab tiklaydi va o'z xulosasini chiqaradi.

Oilalar tarbiyachilar bilan eng shaxsiy ma'lumotlarni o'rtoqlashadilar, binobarin, ularni sir saqlash muhim. Ishlaydigan ota-onalarda ko'pincha bo'sh vaqt juda kam bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachilar oilalar bilan suhbatlashishi mumkin bo'lgan tabiiy norasmiy vaziyatlar bog'cha va uy o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirish uchun juda muhim. Ota-onalarning imkoniyatlardan kelib chiqib, muloqot uchun norasmiy vaqt belgilanganda uchrashuv jadvali o'zgaruvchan qilib tuzilishi hamda kun avvali va oxiridagi erkin suhbatlashish sharoitiga muvofiqlashtirilishi kerak.

Ota-onalarning MTT ostonasini hatlab o'tar-o'tmas bolalarni shosha-pisha taxlab ketishlaridan iborat holatlarni kamaytirish uchun shunday tartib o'rnatish kerakki, unga muvofiq ota-onalar mas'uliyatni yana bir bor his qilishlari lozim.

MTT bilan oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorligini tashkil etish quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

1. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi do'stona muloqot. Ushbu prinsip muloqotga ijobiy munosabatni bildiradi va ilk bolalik ta'limi tarbiyachilarining ota-onalar bilan olib boradigan barcha ishlariga asoslanadi. Tarbiyachilar har kuni ota-onalar bilan muloqot qilishadi va bu butun oilaning maktabgacha ta'limga munosabati qanday bo'lishiga bog'liq.

2. Individual yondashuv. Hamkorlikning ushbu prinsipi nafaqat bolalar bilan ishlashda, balki ota-onalar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bilan muloqotda bo'lgan tarbiyachilar vaziyatni, ota-onalarning kayfiyatini his qilishlari kerak.

3. Murabbiylik emas, hamkorlik. Aksariyat zamonaviy ota-onalar ziyoli, bilimli va albatta, o'z farzandlarini qanday tarbiyalash kerakligini yaxshi bilishadi. Shuning uchun bugungi kunda pedagogik bilimlarni o'rgatish va oddiy targ'ib qilish pozitsiyasi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin emas. Og'ir pedagogik vaziyatlarda oilaga o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish, oilaviy muammolarni tushunish va echimini topishda MTT jamoasining oila muammolarini hal qilishda samimiy yordam bermog'chi ekanligini e'tirof qilishi kerak.

4. Dinamiklik. MTT bugungi kunda oddiy faoliyat ko'rsatish rejimida emas, balki rivojlanish rejimida bo'lishi kerak, mobil tizim bo'lishi, ota-onalarning ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlarga,

ularning ta'lim ehtiyojlariga va ta'limga bo'lgan talablariga tezda javob berishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda MTTning oila bilan ishlash shakli va yo'nalishlari o'zgarishi kerak.

5. Ochiqlik. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila uchun ochiqligi – har bir ota-onaga uning bolasi qanday yashayotganini va rivojlanishini bilish va ko'rish imkoniyatini yara-tib berishdan iboratdir. Bu muammoli vaziyatlarning paydo bo'lishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida shaxsiy aloqalarni o'rnatish, har kuni ota-onalarga bolaning kunni qanday o'tkazganligi, nimani o'rganganligi, qanday yutuqlarga erishganligi haqida ma'lumot berib borish kerak. [4.25].

Umuman olganda oila bu — qudratli kuch, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi asosida kafolatlangan ijtimoiy institut. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak.

Pedagoglar guruhdagi har bir bolaga hurmat ko'rsatsalar, bolalar qolgan barcha bolalarni – sekin yuguruvchilarni ham, a'lo darajada rasm chizuvchilarni ham va hatto kam uchraydigan yoki ziddiyatli fe'l-atvorli bolalarni ham qabul qilishni o'rganadilar. Oilada bola tarbiyasida ota va ona birdek mas'ul shaxs hisoblanadi. Bola oilada kattalarga qarab tiklaydi va o'z xulosasini chiqaradi[5.19].

Ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'zaro hamkorligi kamdan-kam hollarda darhol yuzaga keladi. Bu sabr-toqatni, tanlangan maqsadga qat'iy rioya qilishni va ota-onalar bilan hamkorlik qilishning yangi usullarini doimiy ravishda izlashni talab qiladigan uzoq jarayon, uzoq davom etadigan mashaqqatli mehnatdir.

Oila bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish ota-onalarning maktabgacha tarbiya tashkilotiga joylashishi va ishonchini uyg'otishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018-yil.

2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr O'RQ-637 son.

3. «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-4312- son farmon 2019-yil 8-may.

4. F.R.Qodirova, Sh.K.Tashpulatova “Maktabgacha ta'lim muassasasida metodik ishlar” Toshkent. 2018 yil.

5. “Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik” Metodik qo'llanma (birichi nashr) Toshkent - 2020.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH

Djamilova N.N.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası professori, p.f.d.,
nargiza.jamilova@yandex.ru*

Jumanazarova R.

NDPI 1-kurs magistri

Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi, huquqiy-me'yoriy, metodik ta'minoti bosqichma-bosqich mustahkamlanmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq tarzda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat talablarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini yaratish hamda ularni amaliyotga joriy etishni takomillashtirish kabi yo'nalishlar belgilangan bo'lib, bu, o'z navbatida, mazkur jarayonni tadqiqi va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Mustaqillik davri pedagogik amaliyotida tarbiyachilar bolalarga tayyor bilimlarni imkon qadar ko'proq berishning yangi-yangi yo'llarini topishga intilmoqdalar. Yosh avlodda shakllanayotgan ma'naviy sifatlarning qandayligi, bolaning ko'ngil istaklari, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning milliy an'analarni hisobga olishga harakat qilinayotir. Lekin hamon bir xil fikrlaydigan, hamma masalada yagona, yaxlit xulosaga keladigan ommani tarbiyalash g'oyasi ustuvorlik qilib turibdi. Ta'lim tizimida, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining asosiy ish quroli bo'lgan dasturlar, metodik qo'llanma va tavsiyalar hamda soha metodikasi sodda tuzilgan. Shu bois hali ham bolalar juda ko'p ma'lumotlarni o'zlashtirgani holda biror masalada o'z fikrini aytish yoki mustaqil qaror qabul qilishdan cho'chiydigan, har qanday mustaqil fikr talab qilinadigan savolga aytishi kerak bo'lgan javobni beradigan, tarbiyachisining og'ziga qarab, uning tashabbusini kutib turadigan siniq kishilar sifatida shakllantirilmoqda. Bugun jamiyatda o'quvchi-tarbiyalanuvchining shaxsi, juda sekinlik bilan bo'lsa-da, yetakchi mavqega ko'tarilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'limi konsepsiyasi, standarti, dastur, darslik hamda metodik qo'llanmalar insonparvarlik tamoyiliga yo'naltirildi. Ular faqat mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog'lom ma'naviyatli insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Milliy pedagogika ilmi ham ma'naviy barkamol avlod tarbiyalash yo'llarini tadqiq etmoqda. Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi ulkan ahamiyat kasb etishini asoslash dolzarb ilmiy muammoga aylandi.

Mustaqil fikrlash tushunchasi, uning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va roli yuqorida nomlari sanalgan mutaxassislar tomonidan ochib berishga harakat qilingan. Bu masalaga psixologlar,

pedagoglar o'z maqsadlaridan kelib chiqqan holda, turli daraja va miqyoslarda fikr-mulohazalar bildirishgan. Masalan, ruhshunoslarning ta'kidlashicha, fikrlash, ya'ni tafakkur – odam miyasining faoliyati. Sezgi organlari yetarli bo'lmagan o'rinlarda odam va olamning xususiyatlari uning tafakkuri orqali o'rganiladi. Tafakkur – aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash orqali o'zi o'qigan, ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliigi hamda ularning atrof-muhitga munosabatini aniqlaydi. Aynan mustaqil fikrlash orqali inson dunyo sir-sinoatlarini o'rganishda o'zidan oldin hosil bo'lgan qarashlar, tushunchalar, farazlar, insoniyat tomonidan chiqarilgan xulosa hamda qabul qilingan qarorlarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlaydi. Mulohaza yuritib, narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik, xossa-xususiyatlar, ularni bir-biri bilan bog'lab yoki ajratib turuvchi vositalarning faoliyat mexanizmlarini anglab yetadi.

Bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda yetakchilik qiladigan ilk tadbir ularning erkinligi, ya'ni ta'lim sohasini, u maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'ladimi, umumiy o'rta yoki oliy maktab bo'ladimi, barchasini uzviylashtirgan holda demokratlashtirishdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida mustaqil fikrning shakllanganligi va uning rivojlanishi ko'p jihatdan ularning erkinlik darajasiga bog'liq. Shakllanib kelayotgan shaxsda mustaqil fikrni shakllantirish va uni rivojlantirish uchun bolalar shaxsi va jamoasi erkinligiga erishish zarur.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil., 6-son, 70-modda. // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. Qodirova F.R., Qodirova R.M., Vahobova F.N. – T.: 2008.
3. Vigotskiy L. S. Voobrajenie i tvorcestvo v detskom vozraste. –Moskva: 1991. –293 s.

ZAMONAVIY TARBIYACHINI TARBIYALASHGA “KONPETENSIYAVIY YONDASHUV”

Djamilova N.N.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası professorı, p.f.d.,
nargiza.jamilova@yandex.ru*

Ergasheva B.Z.

Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini

egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan etuk insonlar bo'lib voyaga etishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish kabi ulkan vazifalar qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. [1]

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimiga alohida to'xtalib o'tganlar va bir qancha vazifalar belgilab berganlar Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish Bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish. 2022 — 2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish to'g'risida alohida to'xtalib o'tganlar. [2]

Shu bilan birga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlarda ham demokratik tamoyillar asosidagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida oliy ta'lim tizimida talabalarning mutaxassisligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini yanada takomillashtirish zarurati ta'kidlab o'tilgan. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim kontekstida ko'p bosqichli uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan samarali innovatsion modellarni yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kasb ta'limi pedagoglari faoliyatini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ularning o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni bo'lajak kasbiy faoliyatida izchil qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishini talab etadi. Zamonaviy jamiyatda u yoki boshqa mamlakatlarning rivojlanish darajasini nafaqat uning texnik holati, balki oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislar kasbiy kompetentligini ham belgilaydi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash, kasb ta'limi tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlar ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zaruriyat tug'diradi. Hozirgi vaqtda oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartlari joriy etilib,

bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim mazmuni va texnologiyasida innovatsiyalar keng joriy etilmoqda.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatadi.

"Kompetentlik" tushunchasi noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kompetensiyaviy yondashuv sharoitida kasbiy tayyorgarligi quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- Insonparvarlik tamoyili – tarbiyachida eng yaxshi sifat va qobiliyatlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish; tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish, bo'lajak mutaxassis shaxsini hurmat qilish, iltimoslari, qiziqishlari, qadr-qimmatini tushunish, insonparvar, samimiy, mehribon, mehr-muruvvatli shaxsni tarbiyalash

- Demokratiklashtirish tamoyili — bu huquqbuzarliklarga barham berish bo'lib muloqotda avtoritar uslub hisoblanadi. Bo'lajak tarbiyachi shaxsini eng oliy ijtimoiy qadriyat sifatida idrok etish, uning erkinlik huquqini belgilash, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish

- Kompetensiya tamoyili — bitiruvchining pedagogik kompetensiyasining zarur tarkibiy elementlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

- Muammolilik tamoyili — bo'lajak mutaxassisning haqiqiy pedagogik muammolarni hal qilishga yo'naltirilganligini nazarda tutadi. Shuningdek O'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash uchun ma'naviy-pedagogik ehtiyojlar bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi ana shu yondashuv va tamoyillar majmuasida amalga oshirilsa, yaxlit xususiyatga ega bo'lsa, samarali bo'ladi. Ma'naviy o'zini-o'zi anglashga yordam beradi

- O'quv jarayonining texnologik birligi tamoyili- yangi bilimlardan foydalanish ta'lim texnologiyalari va xolis ma'lumotlar, muloqot ishtirokchilari pozitsiyalaridagi farqlarni aniqlash va suhbatdoshning pozitsiyasini tushunish bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash maqsadi uning ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning maqsadlari:

- bo'lajak mutaxassisning kasbiy madaniyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- bo'lajak tarbiyachilarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirishni faollashtirish;
- o'zlashtirishni ta'minlash.
- tarbiyachilarning kasbiy harakatchanligini shakllantirish;

- talabalarni uslubiy, didaktik ta'minlashni tashkil etish
 - shaxsning shaxsiy fazilatlarini va ijtimoiy ko'nikmalari asosida ijtimoiy faollikni shakllantirish
- Kasbiy ta'lim jarayonining samaradorligi bu-
- bo'lajak tarbiyachilar bosqichli tayyorlash tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuv sharoitida tayyorlash uning barcha tarkibiy qismlarining to'liq amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi.
 - Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy pedagogik kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradigan yangi kurslarni ishlab chiqish va joriy etish;
 - Raqobatbardosh pedagogni shakllantirish maqsadida ta'lim va tarbiyaning yangi usullarini ishlab chiqish va joriy etish;
 - Yeng yaxshi o'qitish tajribasini ta'kidlash uchun ommaviy axborot vositalari;
 - Jahon o'qituvchilarini o'rganish tajriba, kasbiy kompetensiyani shakllantirishning eng yaxshi namunalarini moslashtirish, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatish, qo'shma xalqaro tadbirlar va loyihalarni o'tkazish, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni ixtisoslashtirilgan tayyorgarligi natijasida uning kasbiy darajalarini (asosiy, maxsus) shakllantirish. Faoliyat subyekti kasbiy kompetensiyasining asosiy darajalari tayyorgarlik, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tajriba va kasbiy mahorat natijasidir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi-O'zbekiston Respublikasining Oliy Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847 sonli farmoni.
2. 29.01.2022 dagi PF-60-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
3. Карпенко А.Г. Профессиональная подготовка будущих социальных работников в условиях университетского образования: научно методический и организационно технологический аспекты: монография / под ред. С.Я. Харченко. –Дрогобыч, 2007.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Djamilova N.N.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası professorı, p.f.d.,
nargiza.jamilova@yandex.ru*

Yusupova N.

NDPI 1-kurs magistri

Respublikamizda bugungi kunda juda katta islohotlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli

maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori qabul qilindi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida 2017-yil 19-dekabr kuni o'tkazilgan majlisda belgilangan vazifa topshiriqlardan kelib chiqib, haftaning juma kuni "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish kuni"deb belgilangan holda, shu kuni tuman va shahar maktabgacha ta'lim bo'limlarining hisobotlarini eshitib borish yo'lga qo'yildi. Bu esa soha xodimlarini ishga mas'uliyat bilan yondashishlariga yana bir turtki bo'ldi. Har bir soha singari maktabgacha ta'lim sohasida ham qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va davr ehtiyojiga qarab, o'zgarib-yangilanib turiladi. Respublikada ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Bu borada qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar mohiyatini chuqur anglab etish bilan bog'liq faoliyat turlari muvofiqlashtirildi. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari qatorida maktabgacha ta'limining milliy modelini aks ettiruvchi "Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi" ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratildi, unda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etilmoqda. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilgan: "Yosh avlodni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga asoslangan samarali tashkiliy , pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib,amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi,"-deb alohida ko'rsatib o'tilgan.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham rivojlanishining mohiyati, uning sur'atlari insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liq bo'lgan. Qaysi yerda ma'naviy kamolot yuksak bo'lib ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu jamiyat gullab rivojlangan, taraqqiy etgan.

Biz qurayotgan demokratik-huquqiy jamiyatning uch muhim tomoni bor: iqtisodiyot, siyosat va ma'naviyat. Bu tomonlar qancha mustahkam va baquvvat bo'lsa kelajagimiz ravnaqi ham baquvvat bo'ladi.

O'zbekistonning buyuk davlatlar qatoriga kirishi, kelajagi obod va farovon bo'lishi, huquqiy demokratik davlat adolatli fuqarolik jamiyati maydonga kelishi ko'p jihatdan yoshlar tarbiyasiga bog'liq.

Biz yashayotgan zamin qadim zamonlardan beri madaniyat va ziyo maskani bo'lib, xalqimiz esa dunyoni larzaga keltirgan ulug' zotlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan xalqdir. Bugungi kunda faxrlanib, moddiy meros borasida ham, ma'naviy meros borasida ham dunyoning sanoqli mamlakatlarigina bizning davlatimiz bilan bellasha olishi mumkin deb, baralla ayta olamiz. Asrlar osha qanday yutuq va marralarga erishgan bo'lsak, albatta, buning zamirida xalqimizni kitobga bo'lgan mehr va mutolaaga bo'lgan ishtiyoqi mujassam bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 13- sentyabrdagi PQ -3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori bunga yaqqol misol qilishimiz mumkin. Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora –tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Kitob mahsulotlarini nashr etib va tarqatish tizimi rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi qabul qilindi: unga ko'ra dasturda ko'zda tutilgan quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.,T.: Sharq nashriyoti 1997y 66.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori 29.12.2016 y./ Xalq so'zi 2016-yil 30-dekabr.

3. "O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi" Xalq so'zi 2017-yil 8 fevral.

4. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori PQ -3271 son “Xalq so‘zi” 2017 yil 14 sentabr.

SOG‘LOM AVLODNI AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASH VAZIFASINI AMALGA OSHIRISH VOSITALARI

Djuraeva N.K.
“MTPP” kafedrasi o‘qituvchisi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish, axloqiy tarbiya mazmunini amalga oshirishdan iborat. Bolalarga axloqiy tarbiya berishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda axloqiy tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida mashg‘ulotlarda, kundalik faoliyatlarda kattalar mehnati bilan tanishtiriladi. Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o‘yin materiallari, ommaviy axborot vositalari — televidenie, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni odobnoma mashg‘ulotlarida yaxshi o‘zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o‘zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ularga ongli ravishda tushuntirish dastlab mashg‘ulotlarda, keyinchalik o‘yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari va metodlari

Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- g‘oyaviy va tarbiyaviy ishning ma’lum maqsadga qaratilganligi;
- ta’lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish;
- axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan birga olib borish;
- bolalarning faolligi;
- oila va maktab-internatlar tarbiyaviy ta’sirining birligi;
- bola shaxsidagi ijobiy sifatlarga suyanish;

- bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini koʻzda tutish.

Axloqiy tarbiya tamoyillarini pedagogik shart-sharoit bilan qoʻshib amalga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali taʼsir etadi.

Axloqiy tarbiya metodlari. Bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qoʻllash muhim ahamiyatga egadir. Bu metodlar bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat usulidir. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

1-guruh. Axloqiy ongini, axloqiy tasavvur va bilimlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

2-guruh. Madaniy xulq-atvor, ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

3-guruh. Axloqiy his-tuygʻular va munosabatlarni ragʻbatlantirishga qaratilgan yordamchi metodlar.

Yuqorida keltirilgan hamma metodlar orqali bolalarga axloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari oʻrgatiladi. Ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Birinchi guruh metodlariga asosiy talablar quyidagilar: bolalarning yaxshilik, yomonlik toʻgʻrisidagi tasavvurlarini eʼtiborga olish; axloqiy xulq-atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning oʻzlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuygʻusiga ehtiyotlik bilan munosabatda boʻlish. Bolani nooʻrin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan eʼtiborsizlik qilish qatʼiyan man qilinadi. Hamma metodlardan izchillik bilan kompleks ravishda foydalaniladi.

Tushuntirish koʻpincha bolalarga yangi axloqiy tushuncha, norma, qoida bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli soʻzi va namunasiga asoslanadi. Masalan, roʻparada kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun biroz toʻxtab, u kishining yuziga qarab, kulimsirab «Assalomu alaykum» deyish, keyin yoʻlda davom etish kerak. Tushuntirish va koʻrsatish tabiiy boʻlmogʻi lozim. Axloqiy mavzulardagi suhbatni bolalarning hamma sinflarida qoʻllash mumkin. Hikoyaning mazmuni yorqin, tushunarli boʻlib, bolalarning his-hayajoniga yetarlicha taʼsir etishi kerak.

Bu metodning asosiy vazifasiga quyidagilar kiradi:

- bolalarda ijobiy axloqiy hislarni qoʻzgʻata olish, asar qahramonlariga hamdardlik bildirish — yutugʻidan quvonib, muvaffaqiyatsizligiga birgalashib achinish;
- bolalarga tushunarsiz boʻlgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochib berish;
- axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashgʻulotlarda, sayrlarda, bolalarning oʻz hayoti bilan bogʻliq boʻlgan joylarda ham foydalanish.

Axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar axloq normalari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va normalariga nisbatan talab yuzaga keladi.

Bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar oʻz fikr-mulohazalarini aytishlariga keng imkon beriladi. Shunda ular

har bir xatti-harakatini ongli ravishda, axloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Badiiy adabiyotni o‘qib berish, san’at asarlari va amaliy san’at buyumlarini tomosha qilish, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uyg‘otadi, shu bilan bir qatorda axloq qoidalari va normalarini singdirib boradi.

Ikkinchi guruh metodlariga amaliy va o‘yin metodlari kiradi. Bular: o‘yin-mashqlar, mashqlar, muammoli vaziyatlar, izlanuvchanlik faoliyati, pedagogik masalalarni yechish, didaktik va harakatli, sahnalashtirilgan o‘yinlar, insseniroykalaridir; bolalarning hamma faoliyatiga rahbarlikni ham shu metodlarga kiritish mumkin (o‘yinning hamma turlari, mehnat, tasviriy faoliyat va sh.k.). Hamma metodlar axloqiy tasavvur va tushunchalarni mustahkamlashga, bolalarda axloqiy tajribani to‘plashga, axloq normalari va qoidalarini ongli ravishda egallab olishlariga yordam beradi. Mashq axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta’sirli usulidir. Unga qoidalarini mashq qildirish, foydali odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish — o‘rgatilgan tajribani yangilash, nazorat — o‘rgatilgan odatning to‘g‘ri va samarali ekanligini tekshirishdir. O‘z - o‘zini nazorat qilish, bolani faollashtiruvchi shaxsiy gigiena qoidalarini, ovqatlanish madaniyatini, ko‘chada, maktab-internatlarda xulq madaniyatini egallashni mashq qildirish bunga misol bo‘la oladi.

Axloqiy tarbiya berishda uchinchi guruh metodlari ham muhim rol o‘ynaydi. Bu guruh metodlaridan tarbiyachi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash, bola xulqidagi salbiy tomonlarni yo‘qotish maqsadida foydalanadi. Bunda tushuntirish, ishontirish, suhbat shakllari qulay bo‘ladi. Tushuntirish bolalarni xulq qoidalari bilan tanishtirishda keng qo‘llaniladi va ko‘pincha ko‘rsatish bilan bog‘lab olib boriladi. Ishontirish tarbiyachining faoliyatida katta yordam beradi («Kasal bo‘lmaslik uchun ovqatlanishdan oldin qo‘lni yuvish kerak», «O‘rtog‘ini urish yomon»). Rag‘batlantirish va jazolash axloqiy tarbiyaning qo‘shimcha metodi bo‘lib, u asosiy metodlarga ta’sir etishning o‘ziga xos vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tarbiyachi boladagi ijobiy xulqni qo‘llab - quvvatlash, bunday xatti-harakatni faollashtirish yoki bo‘lmasa bolani yomon qiliqlardan qaytarish uchun rag‘batlantirishdan foydalanadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104
2. O‘zbekiston Respublikasi kadrlar tayorlash milliy dasturi //Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: Sharq nashriyot - maatba konserni, 1997.
3. Davletshin M.T. Ta’limning psixologik asoslari T.: «O‘qituvchi», 1979. – 20 bet.
4. Pedagogicheskaya ensiklopediya. M., 1966. TZ. – 674 b.

TEVARAK - ATROF BILAN TANISHTIRISH ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Jumaniyazova G.J.
NDPI 1-kurs magistr

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz tizimning birinchi bo'g'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat qanday qilib yosh avlodga o'rgatish – ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261 sonli qarorida o'tgan davr mobaynida sog'lom va har tomonlama rivojlangan o'sib kelayotgan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil qilish bo'yicha kompleks tashkiliy huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilishi bilan birga, mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgani keltirib o'tilgan. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni, uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog pedagoglar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonida "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Globalashuv sharoitida o‘ziga xos ijtimoiy institut hisoblanuvchi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yish muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, bolalarni maktabgacha ta’lim yoshidan ijtimoiy munosabatlarga moslashtirish turli salbiy holatlar yuzaga kelishining oldini olishda o‘ziga xos dolzarflik kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta’lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma’naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta’lim berishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o‘zini, o‘zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma’naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o‘rab turgan tevarak-atrof o‘rganish, nutq o‘stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo‘nalishlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o‘yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O‘yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o‘yin jarayonida o‘rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o‘zlashtiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta’lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta’minlash hamda tashkilotda ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z milliy qadriyatlarini tiklash yo‘lida jamiyat hayotining har bir jabhasida sobitqadamlik bilan ish olib bormoqda. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261 sonli qarori.-T.: 2018 yil 9-sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonidan.
3. Umarova M. Bolalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish. Metodik tavsiyalar. –T.: Nur-sehri Oshiyoni, 2007. -67 b.



MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH ASOSLARI

Jumaniyozova Z.R.

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Axloqiy tarbiya-shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga axloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning axloqiy his-tuyg'u va sifatlarini, ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir.

Axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jihatdan kamolga yetadi. Axloqiy tasavvurlarning rivojlanishi jarayonida, eng avvalo, ular o'zlarining boshqalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar; tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlana boradi.

Pedagogika fani bolaning axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta'limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid juda ko'p tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichdir. Xuddi mana shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatleri shakllana boshlaydi, 6-7 yoshga borganda esa ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga kelib, bola tevarak-atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatda ana shu egallab olgan axloq qoida va normalari nuqtai nazaridan ish tutadigan bo'lib qoladi, shuning uchun bolalarga ilk yoshidan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning alohida bir shaklidir. Axloq sinfiy xususiyatga ega, chunki axloq his-tuyg'u, tushuncha va prinsiplar ma'lum ijtimoiy formatsiyaga xos bo'lib, ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan u ham o'zgaradi. Bizning jamiyatimizdagi axloq, eng yaxshi umuminsoniy xulq normalarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Insonning barkamolligi uning ma'naviy dunyosi qandayligi bilan belgilanadi. Yaxshi tarbiya kishining qimmatbaho boyligidir.

O'zbek xalqining ma'naviyati haqiqatgo'y va adolatli bo'lish, jaholat va qabihlik yo'lini to'sish, insoniylik, mehr-shafqat, ma'rifat, do'stlik, mardlik, birodarlik, mexmondo'stlik, poklik, xush xulqlilik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi.

O'zbek xalqining urf-odatleri, turmush tarzi, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi. Hozirgi va kelajak avlodimiz kishilari o'zbek milliy ma'naviyatini yaxshi bilishlari va unga rioya qilishlari lozim. Shundagina jamiyat to'q, farovon, kishilar osoyishta va madaniy hayot kechiradilar. Bu hamisha hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan.

Qadim-qadimdan o‘zbek, sharq klassiklari ijodida axloq-odob masalasi markaziy o‘rinni egallab kelgan. Kaykovusning “Qobusnoma”sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” (“Baxt keltiruvchi bilim”), Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” (“Haqiqat sovg‘alari”), imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-Adab Al-Mufrad” (“Adab durdonalari”) kabi jahonga mashhur asarlarida, Alisher Navoiyning o‘lmas she‘riyatida, Munis Xorazmiyning “Zavodi ta’lim”ida, Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muxsimiy”, “Ravzati shaxodat” (“Shaxodat bog‘i”) kabi asarlarida axloq, odob masalalari yoritilgan. Koshifiyning asarlaridagi ta’lim-tarbiya, axloq masalalari ko‘pchilik uchun andoza, namuna, odob normasi sifatida qisqa, asosli, lo‘nda qilib yozilgan. Koshifiyning fikricha, inson fazilati uning egallagan ta’lim-tarbiyasiga bog‘liq. Shundagina u odobli hisoblanishi mumkin.

“Odob-bu qalbni yomon so‘zlardan va nojo‘ya xulqdan saqlay olish, o‘zini va o‘zgalarni ham hurmat qila bilishdadir”, deydi olim. Uning fikriga yaqin fikrni A. Navoiy ijodida ham ko‘ramiz. “Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimliroq‘idir”,- deydi buyuk shoir. Bu bilan u kishilarning insoniylik belgisi uning odobli, axloqli ekanligi bilan o‘lchanadi, deb ta’kidlaydi va barcha insonlarni yaxshi xulqli bo‘lishga chaqiradi. A. Navoiyning “Mahbub ul qulub” asarida odob, axloqqa oid g‘oya ham ilgari surilgan. Uning birdan-bir orzu-umidi, ideali insonga bo‘lgan mehr-muhabbat, samimiylik edi. Uning quyidagi misralari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Menga na yor-u, na oshiq havasdir,

Garchi men odam o‘lsam-ushbu basdir.

Abu Nasr Farobiy inson o‘zining yaxshi xulqi bilan baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi.

Zamonamizning yirik ma’rifatparvarlaridan bo‘lmish Abdulla Avloniy inson barkamolligi uning aqlida, jismoniy sog‘lomligida hamda odobli xushxulqida, deb biladi.

Abdulla Avloniy til va so‘z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni shunday ta’riflaydi: “...so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadigan tarozidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvati, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar”.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatleri va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy tarbiyaning vazifalari asosan quyidagilardir:

Bolalarda axloqiy his-tuyg‘ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.

Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.

Shaxsda axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash.

Xulqdagi salbiy hislarni barham toptirish.

Bu umumiy vazifalar yosh guruhleri bo'yicha konkretlashtiriladi va o'quv tarbiyaviy jarayonining mazmunida o'z aksini topadi. Axloqiy tarbiyaning vazifasi va mazmuni bog'chadagi axloqiy tarbiya berishning asosiy prinsiplari va pedagogik shart-sharoitlariga rioya qilish asosida bajariladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar axloqiy tarbiyasining vazifasi hamda mazmuniga muvofiq uning prinsiplari ishlab chiqilgan. Ular quyidagilardan iboratdir:

- a) g'oyaviy va tarbiyaviy ishning ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- b) ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish;
- d) axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan bog'lab olib borish;
- e) bolalarning faolligi;
- f) jamoada tarbiyalash;
- g) tarbiyaviy ishning sistemaliligi va izchilligi;
- h) ta'sirchanligi;
- j) oila, bog'cha hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- k) boladagi ijobiy sifatlarga suyanish;
- l) bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiya metodlari-bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishiga, ularda ma'daniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

I-guruh axloqiy ongini, ya'ni axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xohishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

II-guruh madaniy xulq-atvor va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

III-guruh axloqiy his-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlardir.

Hamma guruh metodlari axloqiy his-tuyg'ular va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashni ta'minlaydi.

Bu guruh metodlariga qo'yiladigan asosiy talablar: bolalarni yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish, axloqiy xulq-atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Bolani noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish qat'iyan man etiladi. Hamma metodlarda ma'lum izchillik bilan kompleks ravishda foydalaniladi. Bu metodlarning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bolalarda ijobiy, axloqiy hislarni qo'zg'ata olish, asar qahramonlariga hamdardlik bildirish, yutug'idan quvonib, muvaffaqiyatsizligi birgalashib achinish;

bolalarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarning mazmunini ochib berish;

axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg‘ulotlarda, sayrlarda, bolalarning o‘z hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan joylarda ham foydalanish.

Shunday qilib, bolalarning axloqiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning kattalar rahbarligidagi qizg‘in faoliyati tashkil etilishi lozim. Tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo‘llaydi, chunki u shunday qilingandagina yaxshi xulq namunalarini o‘rgatishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.:”O‘zbekiston”, 2000.
2. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: “O‘zbekiston”, 1999.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 1993.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi.-T.: Qomuslar bosh tahriyati, 1997
5. Alpomish: O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. –T.: “Sharq”, 1998



MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BOLALARIDA VATANGA E’TIQOD ASOSLARINI TARBIYALASH ILMIY MUAMMO SIFATIDA

Uspanova G.

NDPI I-kurs magistri,

Jumasheva G.X.

p.f.d., dotsent NDPI

Keyingi yillarda islohotlarning natijasi tufayli ta’lim–tarbiya sohasida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, milliyligimiz tiklanib, moddiy va ma’naviy qadriyatlarimizning yangi sahifalari ochildi. Shu bilan birga o‘tmish madaniy merosimizni o‘rganish jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglagan hukumatimiz va xalqimiz milliy qadriyatlarning zamonlar sinovidan o‘tgan, insoniyat uchun foydali tomonlarini tiklashga kirishdi. Shulardan ajdodlarimiz qoldirgan madaniy meros va o‘zbek xalq pedagogikasida barcha davrlar uchun kerak bo‘ladigan ajoyib, ilg‘or fikrlar borki, bu fikrlar bugungi taraqqiyotimiz uchun qimmatli qadriyat ekanligi hech birimizga sir emas.

Vatan sha’nini har narsadan ustun qo‘ya bilgan, o‘z tili, dini, tarixi, milliy qadriyatlari bilan faxrlana bilgan shaxsgina O‘zbekistonimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha olishini va bu borada ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning mazmuni, yo‘nalishini belgilab bergan Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Yurtiga, vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon–qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni avaylab asrash va yana takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il–qizlari

etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i kerak" degan edilar.

Xuddi shuning uchun ham, milliy qadriyatlarimizning tarbiyaviy ta'sirini oshirish orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarida vatanga e'tiqod asoslarini tarbiyalashning nazariy asoslarini yaratish yo'lida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borish davr talabidir. Inson ma'naviyatida eng qadrlanadigan tuyg'ulardan biri bu vatanga e'tiqoddir. Vatanga e'tiqod, vatanparvarlik to'g'risida so'z yuritishdan oldin "vatan", "vatanparvarlik" va "e'tiqod" tushunchalarining mazmuni, mohiyati haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lmoq darkor.

Vatan tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy, jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, 1981 yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa, vatan tushunchasiga shunday ta'rif keltiriladi: Vatan — kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui. Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir etuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi.

Bu ta'riflarni mushohada qilib qaralganda, ikkala ta'rif bir-biridan anchagina farq qilishini kuzatish mumkin. Birinchi ta'rifda bir muncha umumiylikka yo'l qo'yilgan; ikkinchi ta'rifda esa, to'laroq, xususiyoq holda yondashiladi, ya'ni tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmuidan iboratligi aytilgan.

Darhaqiqat, vatan bir kishining mulki emas, u o'tib ketgan ajdodlar yurti, o'sib-ulg'ayayotgan farzandlarimiz, kelajakda dunyoga keladigan avlodlarning mulki — vatan shu yurtda yashab turgan har-birimizning mulkimizdir. Demak, yer yuzida millat uchun vatan mavjud ekan, xalqda vatan tuyg'usi doimo, barcha davrlarda mavjud bo'laveradi.

Olim Ulfat Mahkamov "Axloq-odob saboqlari" kitobida vatan tushunchasini quyidagicha ifodalaydi: "Vatan — har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Ona-Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg'uni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi".

Vatan tuyg'usi haqida gapirar ekanmiz, avvalo uning insonda mavjud psixologik his-tuyg'u ekanini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Vatan tushunchasini pedagogik nuqtai-nazardan o'rganganda esa insonda mavjud bo'lgan bilish faoliyatining umumiylikdan xususiylikka tomon boradigan fikr yuritish nuqtai nazaridan yondashmoq lozim: demak, vatanning umumiy tushuncha

ekani — bu insoniyat uchun er kurrasining o‘ziga makon etgani bo‘lsa; millatning paydo bo‘lishi va qaysi millat qayerni vatan deb bilgani esa bilishning xususiylik tomon boradigan yo‘lidir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirib, ularni tahlil va talqin etib, vatan tushunchasi ta’rifini maktabgacha ta’lim tashkilot bolalariga tushunarli tarzda, o‘z fikr va qarashlarimizni ifoda etishga harakat qildik.

Vatan — bu biz tug‘ilib, voyaga yetayotgan zamin; bu biz qadrlaydigan qadriyatlarimiz; bu mehnatkash xalqimiz, mahalla, oila, qo‘ni-qo‘shnilarimiz; bu ajdodlarimizdan meros qolgan jonajon O‘zbekistonimiz.

Vatan, vatanparvarlik, vatanga e’tiqod so‘zlari doimo biri-ikkinchisini to‘ldirishi, ifodalashini inobatga olib, “vatanparvarlik” tushunchasining mazmuni, mohiyatini tushunib olish lozim. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da **vatanparvarlik** - kishilarning ona-yurtiga, o‘z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi.

Vatanga e’tiqod, vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, kerak bo‘lsa vatan uchun jonini fido qilish xalqimizning azaliy e’tiqodlaridan biridir. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarida mustahkam e’tiqodni tarbiyalash pedagogik faoliyatning asosiy vazifasidir. Shu borada e’tiqod tushunchasiga to‘xtalib o‘tish joizki, bu vatanga e’tiqod tushunchasiga aniqlik kiritishga yordam beradi.

E’tiqod inson ma’naviyatining yuksak cho‘qqilaridan biri bo‘lib, uning poydevorini bolalikdan boshlab yaratish, sog‘lom e’tiqodli insonlarni tarbiyalash bilan barobardir. Vatanga e’tiqodli insonlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, e’tiqod tushunchasi haqidagi ilmiy fikrlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Xulosa qilib aytganimizda, Markaziy Osiyoda vatanga e’tiqod g‘oyasi qadimiy va boqiydir. Qadimgi yozma bitiklar, xalq og‘zaki ijodi va adabiyoti, buyuk allomalar asarlari va falsafiy qarashlari fikrimizga yaqqol dalil bo‘ladi.

Vatan tuyg‘usi muqaddas tuyg‘u ekan, xalqimiz asrlar osha bu tuyg‘uni asrab-avaylab kelganlar. Shu tuyg‘u ularni doimo bir maslak sari birlashtirgan, buyuk kurashlar va yengilmas jasorat sari yetaklagan, ularni dushman oldida yengilmas qilib, g‘alaba nashidasini surmoqlikka olib kelgan. Xalqimiz doimo tinchlik va totuvlik tarafdori bo‘lgan.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv sharoitida yoshlarni Vatanga sadoqat, begona, yot g‘oyalarga qarshi kurash ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish dolzarb vazifaga

aylangan va yosh avlodga sport, fan, madaniyat sohasida juda katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu imkoniyatlarni ta'limning barcha sohalarida ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: Sh. Mirziyoyevning 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707 sonli "2017-2021- yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorga imzo chekishlari ham bolalarga berilayotgan imkoniyatlar eshigini yanada keng ochmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida bolalarni tarbiya qilish bilan bir qatorda chet tillarni o'rganishga bo'lgan layoqatlarini oshirishga ham alohida urg'u berilayotgani bejiz emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlariday: "Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliylik va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biridir. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir".

Maktabgacha ta'lim sohasidagi bolalarga til o'rgatishdan asosiy maqsad — har tomonlama barkamol, etuk, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Bolalarga chet tilini o'rgatishga oid nutq ko'nikmalarini hosil qilish uchun olib boriladigan mashg'ulotlar qiziqarli, ko'rgazmali va albatta zamon talablariga mos innovatsion usullarda bo'lishi kerak. Bu yoshdagi bolalar axborotni tez va oson qabul qiladi, qiziquvchan bo'ladi, bilimlarni esda saqlash qobiliyati yuqori bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mas'uliyat talab qiladi, bunda bolalarning zerikib qolmasliklari muhim ahamiyatga ega. Bunda turli multfilmlar, qo'shiqlar, harakatli o'yinlar, rasmlar, rasmiy kitoblar, amaliy mashg'ulotlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bolalarga ingliz tilini o'rgatishning samarali usullaridan biri — o'yinlar orqali o'rgatishdir.

O'yin bola faolligining asosiy shaklidir. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi.

Navbatdagi bosqich roli o‘yin bo‘lib, unda bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o‘yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko‘ra xilma-xildir.

Ijodiy o‘yinlarni bolalar o‘zlari o‘ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo‘lmaydi. O‘yin qoidasini bolalar o‘zlari o‘yin jarayonida belgilashadi.

Qoidali o‘yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o‘yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, musiqaviy o‘yinlar, ermak o‘yinlar.

Bolalarga ta‘lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o‘yinni tanlay bilishi, unga to‘g‘ri rahbarlik qilish “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta‘minlaydi. O‘yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o‘yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O‘yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o‘tishini ta‘minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi.

Bu o‘sib — ulg‘ayayotgan bola organizmining tabiat, atrof-muhit obyektlari haqida ma‘lumot yig‘ishiga, kattalarga taqlid qilishiga, faol harakat qilishiga ehtiyoj, uning muhit bilan o‘zaro aloqasi shakllanadigan faoliyat turidir. O‘yinlarda bola bajara olmaydigan talablar qo‘yilmaydi. **Bundan kelib chiqadiki, o‘yin bola hayoti, madaniyati va faoliyatini tashkil qilish shakli sifatida uning yangi muhitga ko‘nikish shartidir.**

Bola o‘yinlar vositasida tilni o‘zlashtira boshlashini quyida bir necha o‘yinlar misolida ko‘ramiz :

Birinchi mashg‘ulot . Mavzu: Colours — (ranglar)

Mashg‘ulot mavzusi noodatiy usulda “Zanjir” o‘yini yordamida yoritiladi. Buning uchun avvalo, ranglar proyektor yordamida bolalarga ko‘rsatiladi va ingliz tilidagi nomi o‘rgatiladi. Keyin turli rangli narsalarni ko‘rsatib rangi so‘raladi :

What colour is it ? Bolalar tasvirdagi jism rangini aytadilar. It is(yellow, red, green kabi)

Ranglarni yodda olib qolishlari uchun bolalar aylana holatda joylashtiriladi va tarbiyachining ko‘rsatmasiga binoan, o‘ng yoki chap tarafdin birinchi ishtirokchi o‘yinni boshlaydi. Birinchi ishtirokchi bir rang nomini aytadi (masalan yellow — sariq), ikkinchi qatnashchi esa avval aytilgan rangni takrorlaydi va keyin o‘zi bir rangni aytadi (quyidagi ketma — ketlikda yellow-red). Uchinchi ishtirokchi esa dastlab birinchi, so‘ng ikkinchi, oxirida esa o‘zining ranglarini aytadi (yellow-red — black). O‘yin shu tarzda davom etadi. Ranglar ketma-ketligida xatoga yo‘l qo‘ygan yoki biror rangni tushirib qoldirgan ishtirokchilar o‘yinni tark etadilar. O‘yin g‘olib aniqlanmagunga qadar davom etadi. Bolalar o‘yin o‘ynash bilan bir qatorda til o‘rganishadi va xotiralarini mustahkamlab olishadi.

Ikkinchi mashg‘ulot. Mavzu: Fruits — (mevalar)

Bolalarga mevalarning o‘zi yoki ularning rasmi ko‘rsatilib, ingliz tilidagi nomlari aytiladi. Meva nomlari bir necha marta qaytarilgandan so‘ng, bolalarga mevalarning nomi o‘zbek tilida aytiladi. Bolalar mevaning o‘zini topib ko‘rsatishlari va ingliz tilidagi nomini aytishlari kerak bo‘ladi. Bolalarga, shuningdek juftlikda bo‘yash uchun turli meva rasmlari tarqatiladi. Bolalar meva rangini to‘g‘ri topib bo‘yashlari va meva rangini ingliz tilida aytishlari kerak. Bu o‘yin orqali bolalarda muloqotga kirishish, hamkorlikda ishlash, farqlash qobiliyati, og‘zaki nutq rivojlantiriladi.

Uchinchi mashg‘ulot : Kim yo‘q? Who is missing ?

Bolalarga turli hayvonlar (o‘yinchoq) ko‘rsatiladi va nomlarini ingliz tilida aytiladi, bir necha bor qaytariladi. Bolalar barcha o‘yinchoq nomlarini bilishlariga ishonch hosil qilgach, bolalar ko‘zlarini yumib turganda ulardan biri olib qo‘yiladi. Bolalardan qaysi o‘yinchoq yo‘qligini topishlari so‘raladi. Bunda xotira, diqqat, topqirlik rivojlantiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, har bir mamlakatning, yurtning istiqboli, ertangi kun egalari bo‘lgan yosh avlodga ta’lim — tarbiya berishda sharaflari kasb egalari bo‘lmish ustozlar zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Ustozlar bergan bilim kelajagimizning poydevorini qurish uchun zamin yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda interfaol usullardan biri hisoblangan o‘yinlar yordamida mashg‘ulotlarni tashkil etish tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldirishga, bolalarda yangi tilni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirishga katta yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. Tom 7.- T.: O‘zbekiston, 1999.-
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-M.: Rus tili, Tom 1, 1981.- 631 b.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediya.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, Tom 2, 2001.- 703 b.
4. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.- 133 b.

OILADA BOLALARNI XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI ASOSIDA TARBIYALASH

Jumasheva G.X.
NDPI p.f.d., dotsent,

Tenelbaeva A
MTI-kurs magistri

Asrlar davomida do‘stlik va birodarlikda qoraqalpoq xalqi bilan yonma – yon yashab kelgan qoraqalpoq oilalari yagona ijtimoiy – iqtisodiy, ma’naviy umummilliy asosda rivojlanmoqda. Insoniyat tomonidan tuzilgan ilk ittifoqning dastlabki shakllari — “birinchi jamoalari “oila”, ya’ni “ahli bayt” bo‘lgan. Ahli bayt jamoalari asta-sekin rivojlanib, qavm va qabila jamoasiga aylangan”.

Demak, jamiyat hayotining boshlang'ich bosqichi oilaning tuzilishi bilan boshlanadi, inson yirik jamoa bag'rida kichik ittifoq — oilasi bilan birga o'zini baxtli his etadi.

Oila – kishilarning tabiiy-biologik, iqtisodiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi bo'lib, insonning yashashi uchun qulay sharoit yaratib beruvchi, uning turli ehtiyojlarini qondiruvchi makondir. Shuningdek, oila avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarini saqlab, kelgusi avlodlarga yetkazadigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Oila a'zolarining o'zaro tengligi, bir-birlarini anglab yashashlari, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, ularni iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalovchi ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan institutdir. Uning eng muhim ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Oila farzandlar tug'ilishini ta'minlab, jamiyatda avlodlar yangilanishiga munosib hissa qo'shadi;

2. Oila yosh avlodni jismoniy sog'lom, ma'naviy barkamol, axloqiy pok etib tarbiyalash orqali yoshlarni ijtimoiylashtirish, jamiyatning madaniy, ma'naviy, iqtisodiy jihatdan etukligini ta'minlaydi;

3. Oila o'z a'zolarining xulq-atvori, axloqini nazorat qilib, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyati, farzandlarning ota-onalar, ota-onalarning farzandlari oldidagi vazifasini anglab turishini ta'minlaydi;

4. Oila farzandlarning ma'naviyatini yuksaltirish orqali, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashni amalga oshiradi;

5. Bolalarni oila va jamiyatda munosib o'rin egallashga tayyorlaydi;

6. Oila a'zolarining dam olishlarini tashkil etish va bu jarayonda ularni ma'naviy, ma'rifiy, jismoniy, axloqiy-estetik jihatdan rivojlantirishni ta'minlaydi;

7. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida oilada bolalarda ezgu his tuyg'ular va atrofdagilarga nisbatan hissiy munosabatni qaror toptirishga erishiladi. Bunda xalqning urf-odatlarini, og'zaki ijodiyoti namunalari muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun ham Respublikamiz mustaqillikka erishgach, oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bu sohada bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Mamlakatimizda oila, uning manfaatlarini ta'minlash, oilada ma'naviy, axloqiy, tarbiyaviy muhitni tobora yaxshilash to'g'risida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpoq oilalarida bola tarbiyasi azal – azaldan ota – bobolar va momolar o'giti hamda pand-nasihatlarini, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarkib topib kelgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish “Alpamis” (“Alpomish”), “Yedige” (“Yediga”), “Jetim qiz” (“Yetim qiz”) va boshqa ko'plab xalq dostonlari, ertaklar va maqol-matallar oilada bola tarbiyasiga salmoqli ta'sir etuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xalq ijodi xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyatidir. Yaratilishi va ijod jarayonida ko'pchilikning ishtiroki bo'lgan xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqal topib, tobora an'anaviy tus olib, nihoyat mukammal badiiy ijod xususiyatiga ega bo'lgan va jonli ijro shaklida bizgacha etib kelgan. Inson nutqi shakllanishi bilan xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi. Yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining og'zaki ijrosi va unda ko'pchilikning ishtirok etishi xalq badiiy poetikasining asosiy xususiyatidir. Folklor namunalarining og'zaki yaratilishi, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida og'izdan-og'izga tarqalishi hamda ommaviy repertuardan keng o'rin olishi, undagi badiiy shakllarning barqarorligi, matndan-matnga o'tuvchi umumiy o'rinlarning qat'iylashganligi, o'xshash sayyor syujetlarning ko'pligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki badiiy ijodining deyarli barcha janrlari turli-tuman ijrochi va ijodkorlar faoliyati bilan bog'liq. Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolish va keng ommalashtirish bilan birga og'zaki an'analar doirasida uni yanada mukammallashtiradilar, ba'zan yangilarini ham yaratadilar. Biroq bunda barqarorlashgan va qat'iylashgan jamoaviy an'analari yetakchilik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va qoraqalpoq oilalarida san'atga bo'lgan ishtiyoq juda ham kuchli bo'lganligi tufayli baxshichilik, oilaviy ijrochilik o'zining uzoq tarixiga ega. Bugungi kunga kelib, ushbu an'analarni davom ettirish orqali oila tarbiyasini oqilona tashkil etish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Djumashev A., Nurjanov S., Urazova L., Tadjieva R. Qaraqalpaqstan tariyxı (1991-2015-jillar) N. 2018.
2. Inomova M.O. Oilada bolalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi. – T.: Maxpirat nomidagi O'rta Osiyo xalqlari tarixi instituti, 1999.-151 b.
3. Musurmonova O. Oila ma'naviyati –milliy g'urur. O'quv qo'llanma. – T.: 1999. -200 b.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT VA NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING RIVOJLANISH SEKTORLARI

Shukurlayeva V.
NDPI I-kurs magistri,

Jumasheva G.
NDPI p.f.d., dotsent

Ключевые слова. Развитие секторов, работа, государственные, негосударственные, дошкольные образовательные организаций, национальное воспитание, мировоззрение, нравственность, народная педагогика, Республике Узбекистан.

Резюме: Maqolada ishi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish sektorlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Unda rivojlangan davlatlarda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish tarixi, O'zbekiston Respublikasida davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish tarixi shuningdek, ishda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirilishini o'rganish va tahlil qilish, O'zbekiston respublikasi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish sektorlari mazmun va mohiyati shakl haqida fikrlar bayon etilgan.

Резюме: Статья рассматривает вопросу развитие секторов работ государственных и негосударственных дошкольных образовательных организаций, раскрывает сущность историй развития государственных и негосударственных дошкольных образовательных организаций в развитых странах и историй развития государственных и негосударственных дошкольных образовательных организаций в развитых странах в Республике Узбекистан. Статья посвящена проблеме изучению и анализа учебно-воспитательных работ государственных и негосударственных дошкольных образовательных организаций, сущность, содержание и формы работ развитие секторов государственных и негосударственных дошкольных образовательных организаций в республике Узбекистан.

Summary: The stati is devoted to the study of the directions of development of state and non-state preschool education. It examines the history of the development of state and non-state preschool organizations in developed countries, the history of the development of state and non-state preschool organizations in the Republic of Uzbekistan, as well as the implementation of educational work in state and non-state organizations, preschool organizations and analysis content and essence of the development of sectors of state and non-state preschool educational institutions of the Republic of Uzbekistan.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, etuk inson bo'lib voyaga etishida maktabgacha ta'lim tarbiyasi juda — muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni

davlat talablariga muvofiq nutqini o‘stirish, zarur bilim ko‘nikma va malakalarni va mustaqil fikrlashini shakllantirish bo‘yicha ta’lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish texnologiyalari kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish dolzarbligini ko‘rsatmoqda

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘tib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama etuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining ilk bo‘g‘ini sanaladi va butun ta’lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo‘lgan- barkamol avlodni mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o‘rni hamda respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2017- yil 16- avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yilgan edi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qarori imzolangan.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq nutqini o'stirish, zarur bilim ko'nikma va malakalarni va mustaqil fikrlashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan keng ko'lamlilik ishlar olib borilmoqda.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizomga muvofiq bolalarni ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yo'llash bo'yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3305-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga berilgan sharhda ta'kidlanganidek: "... bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda". Mazkur qarorda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda keng ko'lamlilik tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan, shu jumladan, pedagog va rahbar xodimlarning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish, bunda zamonaviy pedagogik va

axborot texnologiyalardan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish, ta'lim muassasalarini yuqori malakali, zamonaviy bilimga ega kadrlar bilan ta'minlash belgilangan.

XXI asr kishisining idealini ta'lim tizimiga kiritish uning barcha bo'g'inlarining, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimining sifat jihatidan yangilanishi bilan bog'liq. Hammaga ma'lumki, inson hayotining dastlabki yetti yilini o'z ichiga qamrab oluvchi maktabgacha ta'lim yosh davri o'z ahamiyatiga ko'ra noyob holat hisoblanadi. Aynan shu yillarda bolada o'z asosiy insoniy qobiliyatlarining shakllanishi yuz beradi, uning shaxsi rivojining asoslari qo'yiladi. Insonning kelajagi, uning xulq-atvori, qobiliyati, dunyoqarashi bolalik qanday bo'lganligiga, ta'lim qanday bo'lganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bularning hammasi bolalikning almashib bo'lmas ahamiyatini, uning barkamol shaxs sifatida shakllanishidagi alohida rolini belgilaydi va maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab ta'lim sifatini ta'minlash muammosini davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantiradi

Yuqorida belgilangan me'yoriy hujjatlarni amaliyotga tatbig'ini o'rganish maqsadida davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish sektorlarida ta'lim-tarbiyani amalga oshirish jarayonini yanada takomillashtirish ham ko'zda tutilgan.

Xulosa tariqasida aytish joizki xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, uning hududiy bo'linmalarining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish belgilanganligini kuzatamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-son farmonida ta'kidlagandek, "Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda".

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik, bu ta'limni boshqarish davlat organlari, ta'lim muassasalari va xususiy biznes vakillarining resurslarni birlashtirish va risklar, daromad hamda xarajatlarning majburiyatiga muvofiq taqsimlanishiga asoslangan ta'lim loyihasini amalga oshirish borasidagi teng huquqli muddatli sheriklik hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent. 2020, 23.09. 40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2019 yil 14 dekabrdaqi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. SQ-556-III-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdaqi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori. 22.12.2020 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Kontsepsiyasi. Tuz.: F.Qodirova, Z.Qodirova, F.Vaxabova. – T., 2010.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH ORQALI MA’NAVIY-AHLOQIY JIHATDAN TARBIYALASH

Jo‘rayeva N.T.

Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi n.jurayeva1978@mail.ru

Maktabgacha yosh bolaning atrof-olamni o‘rganish, uni tahlil qilish, o‘z qiziqishlarini namoyon etish hamda shaxsida ma’naviy-axloqiy jihatlar tarkib topadigan o‘ziga xos davr bo‘lib hisoblanadi. Bu jihatlarning to‘laqonli shakllanishi, rivojlanishida badiiy so‘zning o‘rni beqiyosdir. Bola ongida rivojlanadigan malaka, ko‘nikma hamda tushunchalarni kattalar tomonidan hikoya qilib beriladigan, o‘qib beriladigan va ayniqsa mavzuga mos tasvirlar ko‘rsatish bilan badiiy asarni yetkazish kutilgan samarani beradi.

Maktabgacha yoshda bolalarni badiiy asarlarga qiziqishini o‘stirish uchun qo‘shiqlar, o‘yinlar, aytishsalar, sanamalar, topishmoqlar, she‘rlar, ertaklar, hatto rivoyat, masal, doston kabi asarlar bilan yoshiga mos ravishda tanishtirish lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliyotida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi doirasida turli yosh guruhida turli murakkablikka ega bo‘lgan badiiy asarlar tavsiya etilganki, ularni tegishli mashg‘ulotlar davomida o‘rinli foydalanish bilan bola shaxsida insoniy fazilatlarni tarkib toptirishga imkon yaratiladi.

Kichik yoshda bolalar bilan foydalanishga tavsiya etiladigan kitoblar o‘lchami kattaroq, muqovasi qalinroq, suratlari yirik va yorqin, matni qisqa va qiziqarli bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ularga tavsiya etiladigan asarlar asosan, sanamalar, kichik hajmli she‘rlar, qisqa ertaklar bo‘lishi mumkin. Mazmunan esa, birmuncha sodda, asosan, hayvonlar haqidagi syujetlar orqali bolaga tushunarli bo‘lgan voqea-hodisa aks ettiriladi. Masalan, ayiqcha qo‘lini tozalab yuvyapti, mushukcha uyquga yotyapti, quyoncha oyisiga salom beryapti kabi. Bola 3-4 yoshligida esa kitoblar

o‘lchami birmuncha kattaligicha qolsa-da, asarlar mazmunan ancha kengayadi. Bu yoshda bolalarga qisqaroq ertak o‘qib berish va mavzuga oid rasm-tasvirlar ko‘rsatilishi mumkin. Bolaga asar mazmuni asosida savollar berish, javob berishiga yordamlashish kerak. Bola 4-5 yosh bo‘lgach, beriladigan kitoblar rangli suratlarga boy, kitob ixcham, matn qisqa bo‘lgani ma’qul. Katta maktabgacha yoshga kelib, asarlar ancha katta hajmli, bolalar bilan savol-javob va suhbat o‘tkazishga qulay, mazmunan turli-tuman bo‘lishi kerak. Badiiy adabiyot janrlari jihatidan turicha bo‘lgan asarlarni tushunish, mavzusi bo‘yicha savollarga javob berish, she’r matnlarini yod olish kabi mashg‘ulotlar jarayonida bolalar shaxsida ijobiy insoniy xislatlar tarkib topshiriladi. Bu yoshdagi bolalar nafaqat insoniy fazilatlarini, balki insonlarda uchrashi mumkin bo‘lgan yoqimsiz xususiyat va illatlarni ham nomlashni o‘rganadilar, ularni farqlash, izohlashni biladilar. Badiiy adabiyot mashg‘ulotlarini bolalar faoliyatining turli ko‘rinishlarini bilan uzviy bog‘lash orqali ma’naviy – axloqiy jihatlarni mustahkamlash choralarini ko‘rish lozim. Shundagina bolada shakllangan ma’naviy-axloqiy sifatlarni mustahkamlash mumkin. Tabiat bilan tanishtirish, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, tasviriy faoliyat, jismoniy rivojlantirish, matematik tasavvurlarni kengaytirishga oid mashg‘ulotlar, voqea band — roli o‘yinlar, harakatli o‘yinlar vositasida bolalar badiiy adabiyot mashg‘ulotlarida olgan malakalarini mustahkamlaydilar.

Ma’naviy – axloqiy jihatlarni shakllantirishda, o‘z navbatida, bolalarning kitobga nisbatan ijobiy munosabatini ham tarkib toptirishga e’tibor berish muhim. Kitobni ehtiyotlash, uni avaylash, toza qo‘l bilan ushlab, bukmasdan tutish, har yerga tashlamaslik, uni boshqalarga ham berib turish kabi odatlarni o‘z vaqtida shakllantirish uchun bola bilan bevosita ishlaydigan, uni tarbiyalaydigan katta yoshli kishilarga alohida mas’uliyat yuklanadi. Zero ular bolalarda shu malaka-odatlarining to‘g‘ri shaklanishida namuna bo‘lishlari, o‘z xatti-harakatlariga doimo mas’ul bo‘lishlari talab etiladi. Shunda bola kichik yoshdan kitobni avaylash, uni ehtiyotlab varaqlash, mazmunini qayta-qayta eslash, kattalardan yana takror o‘qib yoki hikoya qilib berishlarini so‘rashni o‘rganadi. O‘zidan kichik yoshdagi bolalarga ham namuna bo‘lishni istashadi. Bolalarning bu intilishlarini vaqtida rag‘batlantirish, yaxshi odatlarini mustahkamlash maqsadida ular bilan kitoblarni ta’mirlash, ezilgan – bukilgan varaqlarini tekislash, yirilgan varaqlarini yelimlash, “qo‘lbola” kitobchalar yasash, boshqalarga turli munosabatlar bilan kitob sovg‘a qilish, bola bilan birgalikda kitob do‘koniga borib o‘ziga yoki boshqa biror kishiga kitob tanlash ishlarini amalga oshirish kerak. Bolaning kitobga, unda bayon etilgan asar mazmuniga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda savol-javob, suhbat, viktorina, topishmoqlar kechasi, she’rlar mushoirasi kabi tadbirlar tashkil etilishi yaxshi natija beradi. Shuningdek, badiiy adabiyot vositasida bola shaxsida tarkib topgan ma’naviy- axloqiy jihatlarni rag‘batlantirib borish uning kitobga nisbatan ijobiy munosabatini mustahkamlaydi.

Bolaning kitob bilan muloqotini maroqli mashg‘ulotga aylantirish – murakkab vazifa. Buning uchun avvalo bu mashg‘ulot uchun to‘g‘ri va qulay vaqtni tanlay bilish kerak. Bolani majburlash

yo‘li bilan kitobga ijobiy munosabat shakllantirilmaydi, aksincha, bola bu mashg‘ulotdan bezib qolishi, bu jarayonni hatto jazo sifatida qabul qilishi ham mumkin. Buning oldini olish maqsadida bolaga kitob bilan muloqotni biror “yaxshi” ishi, ma’qul xulqi evaziga “sovg‘a” sifatida taklif etish to‘g‘ri bo‘ladi.

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ularning o‘rtasida keng tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirishga va bola shaxsini har jihatdan kamol toptirishga yordam beradi. U bolaning kishilar hayoti haqidagi bilimlarini emotsional taassurotlarini boyitadi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirar ekan, u bolalarda quyidagi malakalarni shakllantiradi.

1. Badiiy asarni tinglash va tushunish
2. Asar qahramonlarini xatti-harakatini baholaydi
3. Insonlardagi axloqiy sifatlar va nuqsonlarni ta’riflab beradi

Adabiy asarning mazmuniga doir savollarga javob qaytarish kichik hajmdagi she’rlarni intonatsiyaga rioya qilib yodlab olish va ta’sirchan qilib aytib berish va hokazo. Bola hikoya, she’r, ertak tinglayotganida quvonadi, huzurlanadi. Bu emotsional ta’sirlanish bolada badiiy adabiyotni estetik idrok etish, ya’ni uni san’at asari sifatida his qilish qobiliyatini paydo bo‘lishiga, unda axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asar bilan tanishtirar ekan har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbat tuyg‘ularini shakllantiradi.

Tarbiyachining nutqiga qo‘yiladigan pedagogik talablar.

Tarbiyachi har doim o‘z nutqiga tanqidiy nuqtai nazardan qarashi, agar nutqida biror kamchilikni sezsa, uni darhol bartaraf etishga harakat qilishi lozim. Biroq u har doim ham o‘z nutqidagi kamchilikni aniqlashga muvaffaq bo‘lmaydi. Chunki uning diqqati nutqning shakliga emas, balki mazmuniga qaratilgan bo‘ladi. Bundan tashqari uzoq vaqtgacha o‘z nutqiga ehtiyotsizlik bilan qaraganligi tufayli ayrim kamchiliklar nutqda mustahkam o‘rnashib qolishi va bu nuqson o‘ziga mutlaqo sezilmasligi mumkin. Buning uchun tarbiyachi hamkasblarining ko‘rsatmalariga amal qilishi va o‘z kamchiligini bartaraf etishga harakat qilishi lozim.

Tarbiyachi nutqining samimiy bo‘lishida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi lozim:

- ona tilidagi barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishi, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi;
- Sof, aniq, ravon nutqqa ega bo‘lishi, ya’ni diksiyasi talabga javob berishi;
- bolalar bilan nutqiy muloqotda bo‘lganda yengil, sekin tempdagi o‘rtacha baland ovozda nutqdan foydalanish;
- bolalar bilan so‘zlashganda baland to‘nda gapirmaslik, qo‘pol so‘zlardan, adabiy til normalariga to‘g‘ri kelmaydigan mantiqsiz birikmalardan foydalanmaslik.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy ko‘rinishi o‘yin jarayoni ekanligini unutmagan holda ularning kitobga mehrini, qiziqishini shakllantirishda o‘yin tarkibiga badiiy asarlarni mazmunan uyg‘unlashtirish mumkin. Ertaklar va she’rlar mazmunidan kelib chiqib tashkil

etiladigan harakatli, voqea band – roli, sahnalashtirish ko‘rinishidagi o‘yinlar, topishmoqlar topish musobaqasi, sport o‘yinlari shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsida ijobiy, insoniy ma’naviy–axloqiy jihatlarni tarkib toptirib, rivojlantirishda bolalar kitobxonligiga o‘rinli e’tibor qaratishimiz va badiiy adabiyotdan unumli foydalanishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. 2019 y.
2. F.R.Qodirova «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari» Toshkent. «Istiqlol» 2016 y.
3. D.R.Babaeva «Nutq o‘stirish metodikasi» Toshkent. 2009 y.
4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari 2018 y.
3. Николаева С.Н. Теория и методика экологического образования детей: Учеб. пособие для студентов высших пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2002. – 336 с.
4. Потапова Т.В. Эколого-воспитательная работа в детском саду / Т.В. Потапова // Управление ДОУ. – 2005. – №2. – С. 104-110.
5. Рыжова Н.А. Экологическое образование в детском саду / Н.А. Рыжова; науч. ред. – академик РАО Г.А. Ягодин – М.: Изд. Дом «Карпуз», 2001. – 432 с.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR SHAXSI RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Kurbonova Z.A.

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Bolaning ontogenez davrida 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davri maktabgacha yoshi davri yoki bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda uni 3 davrga bo'lishimiz mumkin:

- (3-4 Yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi),
- (4-5 Yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi) ,
- (6-7 Yosh) katta maktabgacha davr (katta bog'cha yoshi)ga ajratish mumkin.

Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda

o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘tib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi haqida izlanar ekanmiz, psixologiyada eng avvalo “SHAXS” tushunchasi o‘zi nima ekanligi haqida bilib olishimiz muhimdir.

Shaxs deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug‘ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi. Shaxsning individligi uning borligini tashkil qilgan eng asosiy ajralib turuvchi omildir. Individuallik mavjudgi shaxs tushunchasi etilib boradi. Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy (ijtimoiy) omil (faktor)ning, voqelikning ta’siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo‘lganligini tasdiqlovchi nazariya, ya’ni “ichki psixik” (yunon. “endo” — ichki) va “tashqi psixik” (yunon. “ekzo” — tashqi) qismlarga ajratiladi, degan tushuncha o‘zining dolzarbligini hali hanuz saqlab turibdi. “Endopsixika” da shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligi aks ettiriladi. “Ekzopsixika” da esa shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabati, shaxsga qarama-qarshi bo‘lgan barcha jihatlari, shaxslar aro va obyektiv munosabati ifodalanadi. “Endopsixika” shaxsning ta’sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo‘r berish xislatlarini, harakatlari shu kabi fazilatlarini aks ettirsa, “ekzopsixika” esa o‘z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarini, tajribalarini va shu singarilarni qamrab oladi. “Endopsixika” biologik shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lsa, “ekzo aksincha, ijtimoiy voqeliklar ta’siri ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.[1] degan tushunchani fanda ilgari surgan O‘zbekistonda psixologiya fan sifatida rivojlanishi uchun takrorlanmas hissa qo‘shgan olim E.G‘oziyev.

Shaxsning ham psixologik tuzilishi borasida turli tuman argumentlar va faktlar mavjuddir. Quyida biz S.L.Rubinshteynning shaxs tuzilmasi haqidagi fikrlariga murojaat qilamiz.

S.L.Rubinshteyn psixologiyada shaxs tuzilmasini quyidagicha turlarga ajratgan:

- Yo‘nalganlik – ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e‘tiqodlar faoliyat xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarni o‘z ichiga oladi. Bunda inson shaxs sifatida rivojlanishi uchun ta’sir etuvchi omillar sifatida: ehtiyojlar va qiziqishlar muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblangan. Shaxs o‘zining qiziqish va ehtiyojlari natijasida biror bir maqsadni qo‘yadi va shuning amali uchun harakat qiladi va aynan ushbu maqsad uchun yo‘naladi deya fikrlanadi. Inson biror bir faoliyatda biror yutuqqa erishish uchun unda avvalo ushbu maqsad uchun ehtiyoj va qiziqish shakllanishi kerak degan tushunchasini olishimiz mumkin.

- Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar – hayot va faoliyat jarayonida egallanadi. Uning bu fikricha inson dunyoga kelibdiki bilimlar va tushunchalar egallaydi va ular asosida ko'nikma va malakaga ega bo'ladi degan tushunchaga kelinadi. Shaxsning shaxs bo'lib shakllanishi uchun bilim malaka va ko'nikmalar eng muhim omil sifatida rivojlanoladi. U hayoti davomida ongli va ongsiz ravishda bilim va malakalarni egallab boradi va o'zining intellekt va qobiliyatlari asosida shakllanib boradi deya hisoblaydi.

- Individual psixologik xususiyatlar — qobiliyat, xarakter, temperamentlarda ifodalanadi. Bu tushuncha bilan u har qaysi insonning qobiliyati, tafakkuri, xarakteri va temperamentlari mavjuddir. Ular o'zining va ichki va tashqi xususiyatlariga ko'ra ushbu qonuniyatlardan birini ifodalaydi deb hisoblangan. U yana qobiliyatning, xarakterning, temperamentning turlari va tuzilishlari bo'yicha ham muhim yo'nalish va ko'rsatmalar berib o'tgandir.

- Shaxs taraqqiyoti to'g'risida, turli xil va xilma xil konsepsiyalar mavjud hisoblanadi. Ular shaxs tushunchasini o'rganishda turlicha va o'zlarining prinsiplaridan kelib chiqqan holda yondashmoqdalar va u fikrlarni haligacha himoya qilib kelmoqdalar. Ularning u yoki bu fikri to'g'ri yoki noto'g'ri deb ko'rsata bera olmaymiz. Ularga biz biogenetik, sotsiogenetik va psixogenetik nuqtai nazardan fikrlab o'tamiz. Biogenetik konsepsiyaga ko'ra inson shaxsining taraqqiyoti biologik faktor, ya'ni nasliy faktor bilan belgilanadi. Bu konsepsiyaga ko'ra, odam psixik faoliyatining shakllarigina emas, balki bu faoliyat mazmuni ham go'yo tug'ilishidan peshonasiga yozib qo'yilgan, odamning psixik taraqqiyot bosqichlari va ularning yuzaga kelish tartiblari avvaldan belgilangan bo'ladi. Biogenetikalar pedagoglardan bolada taqdir yo'li bilan qanday shaxsiy sifatlar yuzaga kelishini bilib turishni, lekin ularning yuzaga kelishiga qarshilik qilmaslikni, aksincha yordam berishni talab qiladilar. Mazkur konsepsiya namoyondalaridan Zigmund Freyd bo'lib, uning ta'limotiga ko'ra, shaxsning barcha xatti-harakatlari, xulqini tabiiy instinktlar, xususan, jinsiy (seksual) mayliga (libido) bog'liq, deb izohlaydi. Psixoanalitika maktabi asoschisi Z. Freyd ko'p yillik tadqiqotlari natijalariga asoslanib, odam shaxsi va psixikasining bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan 3 ta psixologik tuzilma, yani ID, EGO va SUPER EGO mavjudligini ta'kidlaydi. "Id" — bu instinktlar ya'ni "U" deb nomlanib, ongsizdir. "Ego" — bu "Men" bo'lib, u esa onglidir. "Superego", ya'ni "Oliy-Men" — bu odamni o'rab turgan muhit, jamiyat, dinazorat qilib, "Id" hoxish – istaklari, jinsiy mayllarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. "Id" doimo "Men" va "Super-Men" bilan murosasiz faoliyat ko'rsatadi, chunki ular "Id"ni doimo nazorat qilishga intiladi. "Id" kuchli energiyaga ega bo'lsa-da, "Men" uni ong ostidan suzib chiqishiga yo'l qo'ymaydi. "Id" ning doimo istaklari nazorat ostida bo'lganligi bois, u psixika. Har bir odam tug'ilgan kundan boshlab odamlar qurshovida, ma'lum jamoada -oilada yashaydi. Jamiyatda rivojlanuvchi, til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi odam shaxsiga – voqelikni biluvchi hamda uni o'zgartiruvchi subyektga aylanadi. Odam bolasini individ deyiladi. Biz hamma kishilarni — normal odamlarni, yangi tug'ilgan

chaqaloqni, aqli zaiflarni individ degan tushunchaga kiritamiz. Ammo ularning hammasini shaxs deb atay olmaymiz. Biz jamiyatda biror foydali mehnat bilan shug'ullanuvchi kishini shaxs deymiz. Odamni shaxs sifatida tevarak — atrofdagi kishilar va narsalar bilan bo'lgan aloqalari ularning ishlab chiqarish faoliyatlarida, odamlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Odam boshqa kishilar bilan bo'lgan munosabatlardagina shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Demak, shaxs kishilik jamiyatida yashaydigan, faoliyatni biror turi bilan shug'ullanadigan, til orqali atrofdagilar bilan normal muloqotda bo'la oladigan, ongi yuksak rivojlangan komil insondir. Inson shaxsining eng muhim tomonlaridan biri uning individualligidir. [2] deya ta'kidlab o'tgan Zigmund Freyd o'zining "Psixozanalizga kirish" kitobida.

Psixologiya insoniyatga tanish bo'lgan eng murakkab ilm haqidagi fandır. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetiga qisqacha qilib psixika deb ta'rif berishadi. Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holati-ki u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi. Psixologiyaning vazifalari boshqa fan vazifalaridan ancha murakkabroq, chunki psixologiyada bilishning obyekt va subyekt o'zaro bir-biriga bog'liq bo'ladi. Har qaysi odam atrofdagi narsalarni sezadi hamda idrok qila oladi. Odam osmonning moviyiligini, daraxt barglarining yashilligini ko'radi, ko'cha tomondan quloqa chalinuvchi har xil tovushlarni eshitadi, ba'zi narsalarning sovuqligini, boshqalarining issiqligini sezadi. Odam o'ylaydi va gaplashadi, ya'ni, tafakkur hamda nutqqa egadir. Biz ilgari bo'lib o'tgan narsa va hodisalarni xotira va xayol tufayli esda saqlaymiz va kelajak haqida orzu qilamiz. Bizning sezgilarimiz idrokimiz, xotiramiz, tafakkurimiz, nutqimiz, xayolimiz **psixik jarayonlar** deb ataladi. Ko'pgina voqealar odamni to'lqinlantiradi, quvontiradi yoki uning g'azabini qo'zg'atadi, ya'ni odamda ma'lum his-tuyg'ular uyg'otadi. Odam nimagadir intiladi, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida sabot va matonat ko'rsatadi, irodasini ishga soladi. Ba'zi hollarda psixik jarayonlar ancha murakkab va barqaror ko'rinishga ega bo'ladi, ularning aktivligi kuchaygan yoki susaygan holda namoyon bo'ladi, ma'lum kechinmalarni maydonga keltiradi. Bular psixik holatlar deb ataladi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 14.02.2017-yilda "Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videoselektorda so'zlagan nutqlari.
2. Ergash G'oziyev- "Umumiy psixologiya". Psixologiya mutaxassisliklari uchun darslik: Toshkent-2002
3. Zigmund Freyd-"Psixozanalizga kirish bo'yicha ma'ruzalar"(1910)
4. Выготский Л.С. Психология развития человека / Смысл; Эксмо, 2004. - 1136 с.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ LEGO-ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Кляус Н.М.

*Государственное учреждение образования «Дошкольный центр развития ребенка № 1 г. Могилева» (г. Могилев, Республика Беларусь),
akademya.detstva@yandex.by*

Проблема развития ребёнка всегда была актуальна, но и в наши дни эта проблема приобретает особую значимость: стремительно меняются времена, условия жизни, субкультура и сам человек.

Качественный скачок развития новых технологий повлёл за собой потребность общества в людях, способных нестандартно решать новые проблемы, вносить новое содержание во все сферы жизнедеятельности. В таких условиях человеку требуются не только владение определённым багажом знаний, но и, в первую очередь, умения добывать эти знания самому, оперировать ими, мыслить самостоятельно и творчески, уметь трансформировать и адаптировать имеющийся опыт к быстро меняющимся условиям [1].

Современное развитие общества и уровень технических средств способствует разработке и успешному внедрению в педагогическую практику инновационных конструктивно-игровых технологий, направленных на повышение эффективности обучения, развития и воспитания детей, на создание развивающей среды. Особую популярность получила LEGO -технология, как система обучения с применением конструкторов LEGO.

Использование LEGO- технологии в образовательном процессе позволяет организовать творческую, проектно-конструкторскую и исследовательскую работу воспитанников в ходе которой формируются умения думать, сотрудничать со сверстниками, фантазировать и действовать, не боясь ошибиться, создаётся установка на самостоятельный поиск, а это – главные составляющие успешности их дальнейшего обучения в школе.

Использование «LEGO – технологии» позволяет решать следующие задачи:

- развивать активное познавательное отношение к окружающему миру, интерес к науке, технике;
- стимулировать умение планировать и комментировать процесс и результат собственной деятельности;
- развивать пространственное и алгоритмическое мышление, координацию, глазомер, мелкую моторику рук;
- воспитывать эмоционально – ценностное отношение к результатам конструктивной деятельности.

Подход в обучении основан на принципе 4С, который побуждает воспитанников

экспериментировать и исследовать в процессе приобретения и усвоения знаний. 1С - соединение с реальным миром. На этом этапе ставится практическая задача, тесно связанная с реальным миром воспитанника. 2С - создание идеи. Это время создания модели из кубиков LEGO. Данный этап стимулирует воспитанников экспериментировать с доступными им LEGO-кубиками. Кроме того, создание модели на практике позволяет закрепить учебный материал и развить определенную компетенцию. 3С-совместное обсуждение. Время поделиться полученным опытом и знаниями. 4С-совершенствование готовой модели.

С 2018 года в нашем дошкольном учреждении образования «Дошкольный центр развития ребёнка №1 г. Могилёва» была организован «LEGO -центр», целью которого является развитие у воспитанников от 4 до 7 лет умений и способов конструктивно-технической деятельности.

На первом (подготовительном) этапе, в сентябре 2018 года, была изучена психолого-педагогическая и научно-методическая литература, создана игровая предметно - развивающая среда LEGO – центра. На втором этапе мной была разработана система занятий с детьми среднего и старшего дошкольного возраста с использованием LEGO-конструктора. Реализация данного этапа способствовала включению детей в активный познавательный процесс. Именно он даёт ребёнку возможность самому манипулировать предметами, извлекать заложенную в них информацию, делать выводы и осуществлять свой выбор. Дети рассматривали основные компоненты конструктора; закрепляли представления о величине деталей, цвете, размере и количестве креплений.

Затем был сделан акцент на развитие у воспитанников от 4 до 7 лет умений и способов конструктивно-технической деятельности. Была определена тематика занятий: дома (одноэтажные, многоэтажные); транспорт (наземный, воздушный, водный); человек (мальчик, девочка, сказочный персонаж); растения (цветы, деревья); животные. Наиболее эффективным оказалось освоение детьми каждой темы в разных формах конструирования.

Так, для детей 5-6 лет разработаны темы: «Дома», «Водный транспорт», «Наземный транспорт», «Воздушный транспорт», «Человек», «Животные», «Растения». Каждая представлена несколькими усложняющимися основными образцами и вариантами их усложнения (преобразование образцов с сохранением заданного в них принципа конструирования, задача типа «Построй такой же домик, но высокий»). В обучении старших дошкольников использовала все основные формы конструирования в такой последовательности: конструирование по образцу, по условиям (преобразование образца по условиям и создание конструкции по условиям), конструирование по собственному замыслу. Переход к каждой новой форме не отменял прежние, а основывался на них, способствовал дальнейшему их развитию. В процессе конструирования по образцу у детей формировались

обобщённые способы анализа конструируемых объектов с точки зрения этих условий, что существенно обогащало представления детей об этих объектах; раскрывало не только их структурные, но и функциональные свойства. В результате обучения конструированию по нескольким условиям старшие дошкольники показывали умения строить собственную деятельность достаточно сложной иерархической структуры. Всё это давало им возможность конструировать по собственному замыслу. В конце каждого занятия, опираясь на принцип 4С, я давала задание на совершенствование постройки, что создавало условие для развития воображения и творчества.

Практическое знакомство дошкольников с LEGO-конструктором и обучение способам действия с ними осуществлялось посредством различных методов и приёмов. Дети с интересом слушали истории и рассказы, отгадывали загадки, рассуждали, решали проблемные ситуации. По окончании конструктивной деятельности дети обыгрывали постройки и конструкции, придумывали сюжеты, моделировали ситуации.

В конце учебного года, как итог работы, были организованы проекты: с 4-х лет «Конструирование по мотивам стихов, сказок»; с 5 лет «Такие разные дома», «Общественные постройки», конструирование знакомых сказок, построение собственной истории, где на основе полученного опыта конструировали новые объекты (мальчик-волк, девочка-лиса, многоэтажный дом-теремок, одноэтажный дом-заячья избушка и т.д.).

Конечно, моя работа-это только начало большого и интересного путешествия в мир конструирования. Увлечение конструированием побуждает детей любого возраста к творческому мышлению и производству уникального продукта.

Литература:

1. Паромонова Л.А. Теория и методика творческого конструирования в детском саду. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2002. - 192с.
2. <https://infourok.ru/legotehnologii-v-rabote-s-doshkolnikami-2000538.html>



ERTAKLAR ASOSIDA MAKTABGACHA KATTA YoShDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA TAYYORGARLASH

Kadirova F.R.

MTT direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti professori, xalqaro pedagogik ta'lim fanlar Akademiyasi akademigi, pedagogika fanlari doktori

Maxmudova D.M.

“Profî university” xususiy universiteti, maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri

Annotatsiya

Ushbu maqola maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlash, tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirish uchun samarali metodlarni aniqlash va ularni joriy etishga qaratilgan. Shuningdek mazkur ishni «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturini joriy etishda bolalar badiiy adabiyoti, qiziqarli, kreativ ko‘rgazmali materiallar, turli xil o‘yinlar integratsiyasi asosida yondashishdan iborat.

Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta’lim, kitobxonlik, ertaklar, bolalar, tayyorlash, muloqot, o‘yinlar, ko‘rgazma, innovatsiya.

Эта статья направлена на подготовку детей старшего дошкольного возраста чтению посредством сказок, выявление и внедрение эффективных методов развития их речи. А также для практического применения вышеуказанного, раскрывается интеграционный подход использования детской художественной литературы, интересного, креативного наглядного материала, различных видов игр на основе государственной учебной программы «Илк кадам».

Ключевые слова: дошкольное образование, подготовка, читатель (книг), сказки, дети, общение, игры, наглядность, инновация.

This article is aimed at preparing children of senior preschool age to read through fairy tales, identifying and implementing effective methods for developing their speech. And also for the practical application of the above, an integration approach to the use of children's fiction, interesting, creative visual material, various types of games based on the state curriculum "Ilk kadam" is revealed.

Key words: preschool education, preparation, reader (of books), fairy tales, children, communication, games, visibility, innovation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2020 yil 2 mart kuni PF-5953-son Farmoni bilan yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilishga qaratilgan muhim masala ilgari surildi. Shubhasiz bu yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, yosh avlodning intellektual, axloqiy, estetik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida uzviylik, uzluksizlik masalasi jiddiy qo‘yilmoqda. Shunday ekan kitobxonlikka tayyorgarlikni maktabgacha davrdan boshlash katta ahamiyatga ega.

Ilmiy-metodik manbalar tahlili, jumladan F.R.Qodirova, F.O‘.O‘rinova, Q.Quronboeva, D.Maxmudova, Z.Azizova, I.To‘ychieva S.Chinovalar tomonidan tarbiyalanuvchilarni ma’naviy-axloqiy, muomala madaniyati, mehnatsevarlik va psixologik jihatdan tarbiyalashni, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ularni badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga, tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi hamda tengdoshlarning o‘zaro munosabatlarini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan. Bizning tadqiqotimiz maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimida tatbiq etilgan «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi asosida bolalarni kitobxonlikka tayyorlash ta’lim – tarbiyaning muhim omilidir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ushbu masala dolzarblardan hisoblanadi va o‘z yechimini kutmoqda. Ushbu ishni joriy etishda biz bolalar adabiyoti, aniqrog‘i maktabgacha yoshdagi bolalarga yaqin bo‘lgan - ertaklar mazmuniga ularni qiziqtirib, e’tiborlarini undagi predmetli, syujetli rasmlarga, harflar, bo‘g‘inlar, so‘zlarga qaratib, kitobxonlikka, mutolaaga tayyorlash bo‘yicha izlanishlar olib bordik.

Fikrimizcha, bolalarda badiiy adabiyotlardagi ertaklar matnini ilk o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish uchun kitoblardagi ko‘rgazmalar «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturining mavzuviy rejasiga oid tarbiyalanuvchilar yoshiga, ularning atrof-olam xaqida olgan bilimi, tasavvur, tushunchalariga binoan tashkil etilib, metodik jihatdan to‘g‘ri namoyish qilinishi lozim. Ko‘rgazmali material rangli, yaqqol, tushunarli, yoqimli, jozibali, ertak mazmunini to‘g‘ri aks etadigan va shunga muvofiq uni qabul qilishga istak, xohish uyg‘otadigan, o‘ylashga, fikr yuritishga, jumboqli vaziyat yaratishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shunga binoan «Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka qiziqtirishda ertaklarning o‘rni», «Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantiruvchi o‘yinlar va mashqlar» nomli metodik qo‘llanmalar tayyorlandi, amaliyotda tadqiq qilinib, so‘ng nashrdan chiqarildi. Ushbu qo‘llanmalarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachilari uchun bolalarni har bir ertak mazmuni bilan tanishtirish jarayonida, uning matnini ifodali o‘qish, syujetli, predmetli rasmlarni namoyish qilish, harflar bilan tanishtirish metodikasi yoritilmoqda. So‘ng olingan bilim, sahnalashtirish, syujetli-rol, didaktik o‘yinlarda mustahkamlanib, faollashtiriladi. Bunda asosiy e’tibor bolalar nutqini rivojlantirish, ularni turli xil metodlar orqali bosma harflar bilan tanishtirish, ularni so‘zning boshida, o‘rtasida, oxirida qo‘llashga qaratildi.

Sahnalashtirish tomoshani namoyish etishga, voqeani chuqurroq tushunib, qabul qilishga, nutq izchillikda rivojlanishiga yordam beradi. Syujetli-rol o‘yinlar jarayonida ishtirokchilar ertaklardagi qahramonlar rolini ijro etishda, kitoblarda namoyish qilingan syujetlardagi harakatlarni nutq bilan bog‘lashga o‘rganadilar. Nutq orqali ular ham o‘zining, ham tengdoshlarining xarajatlarini ta’riflaydi, muloqot asosida bir-birini to‘ldiradi va fikr almashadi. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashda, qiziqishni rivojlantirish bilan birgalikda atrofda odamlar va mavjudotlarga mehr uyg‘otish, kutubxonalarning ahamiyatini anglashga qaratilgan. Tadqiqot ishimizda quyidagi usullardan foydalandik: tarbiyachi tomonidan o‘qilgan ertaklardagi matn parchalariga muvofiq ko‘rgazmalar namoyish qilindi. Tinglangan matn bo‘yicha suhbatlashish jarayonida, ertakning nomi hamda qahramonlarining bosh harfi bolalar bilan birgalikda o‘qildi. So‘ng ularga keyingi paydo bo‘lgan harflarni ketma-ketlikda aytish, juft-juft o‘qib berish taklif qilindi.

«Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi integratsiya asosida, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashni «Nutq va til», «Syujetli-rol o‘yinlar va sahnalashtirish» rivojlanish

markazlarida hamda «Nutq o‘stirish» mashg‘ulotlarida bayon etilgan. Integratsiya deganda biz bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazarda tutamiz.

Mazkur rivojlanish markazlar va mashg‘ulotda ertaklar vositasida tarbiyalanuvchilarni kitobxonlikka tayyorlashda ***nutqni tinglash va anglashga, namoyish qilingan syujetli, predmetli ko‘rgazmalarga oid pedagog-tarbiyachi va tengdoshlari bilan muloqot qilishga o‘rganishiga qaratildi.*** Bolalarning qiziqishlari, maqsadlari, xohish-istaklari, niyatlari, kichik hayot tajribasini inobatga olgan holda dasturdagi rejaga oid bilimlar ma’lum izchillikda kattadan bolaga o‘tqazilishiga, fikrlash ko‘nikmasi, tengdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilishiga intildik. Ular yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslasha olish ko‘nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi uchun asosiy faoliyati sifatida turli xil o‘yinlar (didaktik, harakatli, ijodiy) joriy etildi. Masalan, «Zanjir» o‘yinida ishtirokchilar qo‘l ushlab doira tashkil qiladi. Tarbiyachi birorta harfni aytadi. Bolalar ushbu harfga taalluqli so‘zlarni: so‘zning boshida, oxirida va o‘rtasida aytadilar. «A» – ayiq, olma, daraxt. Qiynalayotgan ishtirokchiga o‘ng yoki chap tomonidagi do‘sti zanjir uzilmasligi uchun yordam beradi. To‘g‘ri javobdan so‘ng. Qo‘llar tepaga ko‘tariladi. O‘yin jarayonida o‘tilgan harflar shu tariqada mustahkamlanadi.

«Nutq va til» markazida **bolalarni kitobxonlikka qiziqtirish va kitobga bo‘lgan mehrini uyg‘otish ilgari surildi.** Jumladan: ertak qahramonlariga hamdardlik bildirish; quvonch, qayg‘u kabi hissiy holatni tushunish; o‘z kechinmalari va hissiyotlarini namoyon etish; ertak qahramonlarning hissiyotlarini aniqlash va so‘z bilan ifodalash; o‘z tasavvur va fikrlarini ifodalashga, ularga hamdardlik bildirish; o‘yinlarda ishtirok etish. O‘yindagi harakatlarini so‘zlar bilan sharhlashga; kitoblardagi ertaklarda ko‘rgan rasmlar haqida so‘zlashga; kattalar va tengdoshlarning savollariga javob berishga; ertakni davom etish yoki tugallashga o‘rganib borishdi. Asta-asta ma’lum izchillikda biz ularni barcha bosma harflar shakli va farqi bilan tanishtirib, ulardan bo‘g‘in, so‘z, ibora, jumla tuzishga o‘rgatdik. So‘ng, bolalar harflarga mos keladigan so‘zlarni mavzularga muvofiq tanlashga harakat qildilar. Kitoblarda bo‘g‘inlar ifodalangan kataklar yordamida bo‘g‘inlardan turli xil so‘zlar tuzdilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ko‘rgazmali rasmlar katta ahamiyatga ega. Ko‘rgazmali materiallar pedagog-tarbiyachining mehnat quroli va bolalarning bilish jarayonining asbob uskunasi hisoblanadi.

Didaktik materiallar shartli ravishda qo‘yidagicha bo‘linadi:






- ko‘rgazmali didaktik materiallar majmuasi;
- o‘yinlar uchun jihozlar;
- tarbiyachi uchun qo‘llanmalar (darsliklar, metodik adabiyotlar, konspektlar, didaktik o‘yinlar majmualari);

- bolalar uchun bosma xavfli ko'rgazmali kitoblar.

To'g'ri tayyorlangan jihozlar va savodli tashkillashtirilgan rivojlanish markazlarida va «Nutq o'stirish» mashg'ulotlarida predmetning sifatini, umumiy va xususiy xossalarini ochib berishni ta'minlaydi.

Ko'rgazmalardan foydalanish bilish faoliyatini yo'naltiradi, rivojlanish markazlardagi murakkab materialni qiziqish bilan o'zlashtirishga, tushunarli shaklda yetkazish vazifasini bajaradi.

Bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda turli xil ko'rgazmali materiallardan foydalanildi. Masalan: 1-rasm «Ertak qahramonlarini bosh harf-tovushini toping» ko'rgazmali o'yin

	<p>Q</p>
	<p>T</p> 
	<p>A</p> 

2- rasm Tovush "G" harifidan boshlanadigan rasimni toping




3-rasm “Rasmdagi jixozlarni bosh harflarini qo‘yib chiqing va so‘z xosil qiling”



4-rasm “Bosh harflari bir xil bo‘lgan rasmlarni iplar yordamida birlashtiring”

”

Masalan: BALIQ-BANAN



Ertaklar asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorgarlarga doir ilmiy metodik manbalar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borgan tajriba-sinovlarimiz tahliliga asoslanib, xulosa qilishimiz mumkinki, tanlangan mavzu, tadqiq qilinayotgan masala nihoyat dolzarbdir.

Mazkur o‘quv-uslubiy ta’minot maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ertaklar vositasida harflar, bo‘g‘inlar, so‘zlar, iboralar va gaplar tuzish metodikasini

(ertakni tinglash, uni ifodali aytib berish, sahnalashtirish, o'yinlarda ishtirok aytish) qo'llash, ta'lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Qodirova F.R., Qodirova R.M. «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi» Toshkent, 2006, «Istiqlol» nashriyoti (darslik), 300 bet.

2. Qodirova F.R., Toshpulatova Sh.Q., Kayumova N., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika «Tafakkur» nashriyoti (darslik) Toshkent, 2019, 685 bet.

3. Qodirova F.R., Maxmudova D.M. Til va nutq markazlarida ta'limiy faoliyat QDPU 2022, 230 bet

4. Azizova. Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy–estetik sifatlarini shakllantirish. p.f.f.d.(PhD) Avtoref. – T., 2020. 25 b.

5. Maxmudova D. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi o'yinlar va mashqlar to'plami TSHXTXQTMOI -T; 2019, 45 bet

6. Maxmudova D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ertaklarning o'rni. TSHXTXQTMOI -T; 2019, 105 -110 bet

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ ДЕТСКОГО ДИЗАЙНА

Ленская М.И.

*Государственное учреждение образования «Дошкольный центр
развития ребенка № 1 г. Могилева» (г. Могилев, Республика Беларусь),
akademya.detstva@yandex.by*

Детское творчество определяется учеными как деятельность, в результате которой ребенок создает новое, оригинальное, реализует свой замысел, самостоятельно находя средства его воплощения.

Развитию детского творчества способствуют и занятия дизайном, так как дети имеют возможность экспериментировать с разнообразными художественными техниками и материалами, комбинировать доступные им виды изобразительной деятельности.

Детский дизайн – это художественно-продуктивная деятельность, которая понимается как проектное мышление самого широкого диапазона. Выделяют три типа детского дизайна: плоскостной (аппликативно-графический); объемный (предметно-декоративный); пространственный (архитектурно-декоративный) [2, с.64].

В учебной программе дошкольного образования в образовательной области «Искусство» определено содержание работы по детскому дизайну в среднем и старшем дошкольном

возрасте [1, с.211, 327]. В работе с детьми я решала следующие задачи: знакомила детей со способами плоскостного и объемно-пространственного оформления – моделирования, макетирования; показывала, как следует планировать свою работу по этапам – замысел, эскиз, макет, воплощение; организовывала участие детей в создании композиций к утренникам и развлечениям и в творческих проектах; обучала детей использовать современное оборудование и разные материалы. Для успешной работы организовала развивающую предметно-пространственную среду. Содержание работы планировала в следующей последовательности: от фольклорно-декоративных образцов к сюжетно-изобразительным, от предметно-декоративной деятельности к пространственно-декоративной, от оформления кукольно-игрового пространства к детскому и взрослому интерьеру, а также наблюдение природных объектов, предметной среды, результатов собственной дизайн-деятельности и любование ими.

В процессе дизайнерской деятельности дети знакомились с особенностями, свойствами, возможностями различных художественных материалов и новыми технологиями: разные техники рисования (по мокрой бумаге, через копировальную бумагу, рисование пластилином, пальцевая живопись; рука – трафарет, кляксография, применение приема «набрызг», коллаж, метод тычка); разные техники аппликации (мозаичная, обрывание, салфетопластика), аппликация на целлофане, из засушенных растений; использование яичной скорлупы, семечек, косточек; сыпучих материалов (рисовая, манная, пшенная, гречневая крупы); изготовление поделок на основе упаковочного материала; оригами; создание игрушек с подвижными деталями; нанесение разных тонов на оргстекло и создание отпечатков, использование воска и туши. Дети осваивали способы стилизации различных форм для декорирования изделий, создавая декоративные композиции на полосе бумаги, на квадрате, прямоугольнике, круге, овале, силуэтах одежды, объемных изделиях. В процессе эстетического анализа различных предметов обращала внимание на взаимосвязь формы объекта с его функциональным назначением, материалом, украшением. Большой интерес у детей вызывала работа с отходами галантереи и бижутерии (пряжки, пуговицы, бусы, флаконы). В практике работы с детьми также использовала элементы архитектурно-художественного дизайна.

Данная задача решалась через ознакомление детей с доступными им образцами отечественного и мирового зодчества, как старинного, так и современного. Интересен и полезен был дизайн композиций из природных материалов. На прогулках предлагала детям посмотреть вокруг глазами фотографа. Для этого с помощью рамки «видоискателя» или «подзорной трубы» дети «фотографировали» самые красивые объекты. Рассматривая объекты природы, «кадрировали» разные композиции, приближая к себе или отодвигая от себя

«видоискатель» (один глаз закрыт). Дети обращали внимание на окружающие природные объекты, отмечая их разнообразие. В группе предлагала по памяти воспроизвести то, что было «сфотографировано» на прогулке.

Сюжетно-ролевые игры побуждали детей к поискам и изготовлению одежды для кукол, атрибутов для различных игр. С увлечением дети изготавливали декорации для спектаклей, развлечений и утренников.

На первом этапе вовлечения воспитанников в детский дизайн, когда дети только начинали приобретать необходимые представления и умения, когда их надо учить наблюдать, анализировать и обобщать увиденное, вооружить необходимыми способами и приемами изображения, нетрадиционной техникой создания образов, использовался полный показ изображения или выполнения работы. Для этого отводилось время в нерегламентированной деятельности и некоторых специально организованных занятиях.

На втором этапе, когда дети уже овладели способами изображения, допускался неполный, частичный показ изображения, примерные вариативные образцы, которые убирались при выполнении самостоятельной творческой работы. Ребятам, которые справлялись с работой быстро и без затруднений, давались творческие задания.

На третьем этапе я создавала условия для развития детского творчества: предоставляла выбор различных материалов, способов деятельности, заданий. Экспериментируя с изобразительными, природными, дополнительными материалами, средствами выразительности, дети оказывались в ситуации поиска решения, могли самостоятельно реализовать свой замысел, выразить в изобразительной, художественной, декоративно-прикладной деятельности свои чувства, настроение, проявить интерес к тому или иному ее виду. Не осуществляя прямого руководства деятельностью детей, я способствовала проявлению инициативы, творческой активности.

Полученные результаты работы позволили мне сделать вывод о том, что в процессе овладения навыками детского дизайна, ребенок формируется как творческая личность, так как дети оказываются в различных игровых ситуациях, включаются в разнообразную деятельность, которая им нравится – изобразительную, декоративно-прикладную, конструктивную.

Литература:

1. Учебная программа дошкольного образования. – Минск : НИО, 2019. – 486 с.
2. Анцыпирович, О.Н. Основы методик дошкольного образования. Краткий курс лекций / О.Н. Анцыпирович, Е.В. Горбатова, Д.Н. Дубинина (и др.). – 4-е изд. – Минск : Новое знание М. : ИНФА-М, 2020. – 390 с.

3. Комоед, Н.И. Дизайнерская деятельность дошкольников: пособие для педагогов учреждений, обеспечивающих получение дошкольного образования / Н.И. Комоед. – Мозырь: ОООИД Белый Ветер, 2011. – 72 с.



YOSHLARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGI – SOG‘LOM VA JISMONAN BAQUVVAT AVLODNI YARATILISHINING ASOSIDIR

Lutpullayeva A.M

Akusherlik va ginekologiya respublika

ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy markazi ginekologi

Tibbiy madaniyati yuqori onaning farzandi sog‘lom bo‘ladi. Xotin-qizlar va nikohdan o‘tuvchi yoshlar orasida sog‘lom oila qurish, sog‘lom bolalar tug‘ilishi va tarbiyalash masalalari yuzasidan tizimli asosda tushuntirish ishlarini tashkil qilish maqsadida, joylardagi mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda oylik ish rejalariga asosan ish tashkil etildi va ijrosini nazorat qilish bo‘yicha amaliy tizim yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yildagi “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida” gi Qonunining 3-moddasida “Fuqarolarning reproduktiv salomatligi” yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berilgan. Fuqarolarning reproduktiv salomatligi insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan sog‘lomligi holati bo‘lib, bu holat uning bola tug‘ilishiga qodirligini belgilaydigan reproduktiv tizimi, ushbu tizimning funksiyalari, hayotiy jarayonlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash:

- fuqarolarning reproduktiv salomatligi to‘g‘risida ishonchli va to‘liq axborot olishni;
- homiladorlikni saqlab yurishni va bolaning asoratlarsiz hamda nuqsonlarsiz tug‘ilishini ta‘minlaydigan, homiladorlik, tug‘ish va tug‘ishdan keyingi davrdagi tadbirlar, muolajalar hamda xizmatlarni;
- reproduktiv tizim kasalliklarining oldini olishni va ularni davolashni;
- jinsiy yo‘l bilan o‘tadigan kasalliklarning oldini olishni va ularni davolashni;
- ehtimoldagi asoratlarning va reproduktiv tizim funksiyalari buzilishi oqibatlarining oldini olishga ko‘maklashgan holda homiladorlikni xavfsiz ravishda sun‘iy to‘xtatishni;
- kontratsepsiya usullari va ulardan foydalanish to‘g‘risida axborot olishni nazarda tutadi.

Reproduktiv salomatlik — bu inson hayotining barcha bosqichlarida reproduktiv tizimga taalluqli bo‘lgan jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan osoyishtalik holatidir. Reproduktiv salomatlik umumiy sog‘liqning muhim qismi bo‘lib, hayotning shaxsiy jihatlariga tegishli masala hisoblanadi. Reproduktiv salomatlik insonning qoniqarli va xavfsiz jinsiy hayot olib borishi mumkinligi,

farzandlarni dunyoga keltirish bilan bog'liq holatlarda va nechta farzand ko'rish borasidagi erkin tanlovini anglatadi. Bunda erkak va ayollarning axborot olish huquqlari va oilani o'z xohishlari bo'yicha rejalashtirishda xavfsiz, samarali, qulay va maqbul usullardan foydalanishi, shuningdek, ayollarning homiladorlik va tug'ish davrini xavfsiz o'tkazishda sog'liqni saqlash sohasidagi tegishli xizmatlarga bo'lgan huquqlari nazarda tutiladi.

Ayni ushbu tushunchaga yuqorida zikr etilgan qonunda ham ta'rif berilgan.

Reproduktiv salomatlik haqida qayg'urish mazkur sohadagi muammolarni bartaraf qilish yo'li bilan reproduktiv salomatlikka va osoyishtalikka erishishda yordam beruvchi usullar, vosita, texnologiya va xizmatlar yig'indisi sifatida tavsiflanadi.

Mazkur yo'nalish bilan kompleks ravishda fuqarolarning sog'lig'ini, onalik va bolalikni muhofaza qilish, har tomonlama barkamol yosh avlodni shakllantirish uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratib kelinayotgani ham bejiz emas. Mamlakatimizda xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan reproduktiv salomatlik, onalar va bolalar salomatligi milliy modeli amaliyotga faol tatbiq qilinganligi e'tiborga molikdir

Reproduktiv salomatlik bu nafaqat kasallik va holsizliklarning kuzatilmasligi balki, reproduktiv tizimdagi jismoniy, mentol va ijtimoiy farovonlikdir. Reproductiv (lot. re-tiklanish, takrorlanish ma'nosida, produco – yarataman). Ilk bora reproduktiv salomatlik iborasi 1994 yil Qohirada bo'lib o'tgan aholi va rivojlanish masalalariga bag'ishlangan Xalqaro konferensiyada tilga olingan va quyidagicha izoh berilgan: inson huquqlarini himoya qilish, turmush farovonligini oshirish, aholining asosiy ijtimoiy xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash, qashshoqlik bilan kurashishda harakatlarni birlashtirish, kasalliklar tarqalishini kamaytirish va atrof muhitni himoya qilish masalalari o'z aksini topgan.

Reproduktiv huquqlar hozirgi vaqtda Xalqaro huquq tomonidan rasmiy ravishda tan olingan va Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda ro'yxatga olingan, shuningdek ushbu masala bo'yicha yakdillikka erishilganligi to'g'risida hujjatlashtirilgan guvohtonmalari bo'lgan qator inson huquqlarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi talaba-qizlar bo'lajak onadirlar. Har bir onaning tibbiy madaniyati yuqori bo'lishi kerak. Chunki sog'lom farzandni dunyoga keltirish, sog'lom oilani shakllantirish masalalari reproduktiv salomatlik bilan uzviy bog'liq. Tibbiy madaniyati yuqori bo'lgan onaning farzandi ham har doim sog'lom bo'ladi. Bunday onalar bolasini emlash kalendari bo'yicha oilaviy poliklinikaga olib borib, o'z vaqtida emlatadi va yuqumli kasalliklardan saqlaydi. Bolani yoshligidan shaxsiy gigiyena qoidalariga o'rgatib, gijja kasalliklaridan asraydi. Bolaga tish yuvish madaniyati, ovqatlanish va shaxsiy gigiyenani saqlashni o'rgatib boradi. Bolaga bor e'tiborini qaratib, ertaklar aytib, o'yinchoqlar o'ynatib, kitob o'qib, rasm chizdirib), uni intellektini rivojlantiradi. Ona

kasalmand bo'lgach, bolani boqishga, uni tarbiyalashga kuchi ham, vaqti ham etmaydi. Onalik madaniyatining muhimligi shundaki, bu bola bilan birga onaning O'z-o'zini ham tarbiyalab, uni oilaviy salomatlikning asosiy sababchisiga aylantiradi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston respublikasining qonuni "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida" 2019 yil 28 fevralda qabul qilingan

2. Назарова И. Б, Шембелев Игор Г. Издательство: Лан, 2021 г. Учебники для вузов. Специальная литература

3. Паренкова, И. А Репродуктивное здоровье и качество жизни детей и подростков в условиях демографического кризиса. 2012, Москва



MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA "MUSIQA SAVODXONLIGI" FAOLIYATINI AHAMIYATI

Ibrohimjonova G.A.

*Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqqa nazariyasi va metodikasi" kafedrasida
katta o'qituvchisi*

Keyingi yillarda ta'lim va barcha sohalarni yuqori darajaga ko'tarish borasida ko'pgina qaror va farmoyishlar chiqarilmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini¹⁰ yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" gi qarorida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida: milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish majburiy hisoblanilgan. Buning uchun musiqiy nazariy bilimlari yuqori bo'lgan malakali musiqa o'qituvchilarni tarbiyalab yetishtirish davr talabidir. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun "Musiqqa nazariyasi" fani eng asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Biz bilamizki musiqaning mazmuni hayot taassurotlarini tovushlar orqali ifodalangan fikr va his tuyg'ulardir. Musiqani ifoda etish vositalari- musiqaning elementlari deb atalib, musiqa elementlari va ularning o'zaro bog'lanishlari haqidagi boshlang'ich fan musiqaning elementar nazariyasi fanidir. Bu fan musiqaning elementlari haqida ta'lim berish bilan bir qatorda o'quvchilarning barcha musiqiy fanlar bo'yicha o'tiladigan darslariga yordam berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, bu esa musiqaga oid tekstni ongli o'zlashtirishga imkon beradi. Barcha musiqa fanlari: Sifedjio, xor, dirijyorlik, musiqa asboblari ijrochiligi, qo'shiqchilik va boshqa hamma musiqiy fanlar "Musiqaning elementar nazariyasi" fani bilan chambarchas bog'liqdir. Talabalarning bu fandan olgan nazariy bilim va

¹⁰ Yangi O'zbekiston № 25 2022 yil 4 fevral

ko'nikmalariga asoslanib musiqa asarini tahlil qilishda talabalar oladigan elementar bilim va eshitish ko'nikmalari mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashiga, maktab o'quvchilariga musiqa asarini ijro etayotganlarida uning mazmunini to'g'ri ochib berishga yordam beradi.

Musiqaning elementar nazariyasi fanini o'rganish amaliy jihatdan tegishli yordam berishi uchun undagi asosiy qoidalarni har tomonlama chuqur o'zlashtirish zarurdir. Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari — ritm, metr, registr, o'lchov, lad, temp, nota yo'li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqa ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo'lish bilan birga, o'quvchilarning musiqiy tafakkurlari shakllantiriladi. boradi. Bu o'z navbatida o'quvchilarni musiqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlar shakllantiriladi.

Hozirgi kunda davr talabiga javob beradigan, o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni mujassamlashtirgan ijtimoiy jihatdan faol bo'lib har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish vazifasini hal etishda musiqa madaniyati fanining musiqa savodi faoliyati muhim vositalardan biridir. Bo'lajak musiqa o'qituvchilariga tarbiyachilariga puxta bilim berish va ularni amaliy jihatdan yaxshi tayyorlash nihoyatda muhim ekanligi ko'zda tutilgan holdagina etuk musiqa o'qituvchisi darajasiga yetishish mumkin bo'lib, umuman barcha musiqiy fanlar: Musiqa o'qitish metodikasi, xor, maqom, cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, va boshqa fanlardan olgan bilim va malakalar natijasida yuqori malakali musiqa o'qituvchilari yetishib chiqadi. Milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish, amaliy to'garaklar va fakultativ darslarni sifatli o'tkazilishida boshqa musiqiy fanlar kabi musiqa nazariyasi va solfedjio fanlarining ham ahamiyati nihoyatda katta. Solfedjio fani musiqa nazariyasi fani bilan bog'liq bo'lib, musiqa nazariyasidan olingan bilimlarga tayangan holda amaliy mashg'ulotda olib boriladi. Nota bilan kuylash jarayonida eng avvalo intonatsion aniqlikka va musiqiy tekstni to'g'ri ijro etishga erishish lozim. Solfedjio darslarida nota bilan kuylash usullari xilma-xil, ya'ni o'tilayotgan kuylarni alohida-alohida yoki guruh-guruh bo'lib kuylash, kuyning bir qismini bir kishi kuylasa ikkinchi qismini ikkinchi birlari cholg'usiz kuylash mashqlarida esa o'quvchi mazkur kuyning tonalligini saqlab qolishga, ritm va o'lchovini o'zi mustaqil ravishda to'g'ri olib borishga intiladi va muvaffaq bo'ladi.

Ikki ovozlik asarlarini ijro etishda esa har bir ovoz partiyasini aytayotgan o'quvchi o'zi ijro etayotgan partiyani to'g'ri, tiniq, sof ijro etishga intilishi bilan birga boshqa ovoz partiyasini ham eshitib ulguradi. Kuyni nota bilan aytishga dinamik ko'rsatmalarga amal qilib kuylashida nazariy bilimlarga tayanadi. Solfedjio darsi jarayonidagi barcha mashg'ulot bo'limlari: nota bilan kuylash, melodik va ritmik diktantlar yozish, turli garmonik tuzilmalarni tuzish va tahlil qilish, alohida pog'onalarni kuylash, tanish bo'lmagan nota tekstini tahlil qilib jo'rsiz mustaqil kuylash va boshqa turli ish shakllari jarayoni o'quvchilarning musiqiy idrokini, qobiliyatini shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Nota bilan kuylash jarayoni har bir o'quvchida ichki musiqiy idrokini

ham rivojlantirib boradi, yakka ijro paytida mustaqil, to‘g‘ri, sof kuylashga intilib, kuylash malakasi oshib borar ekan- musiqiy idrok ham shakllanib boraveradi.

Adabiyotlar:

1. Akrashina O.A. Методика музыкального воспитания в школе. Москва, Просвещение, 1983-yil.
2. Qodirov R. Boshlang‘ich maktabda ko‘p ovozli kuylash. – Toshkent, “G‘. G‘ulom.” Nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1997-yil.
3. Rajabova D. Fortepiano mashg‘ulotlari. – Toshkent, O‘qituvchi, 1994-yil.
4. Qoraboyev U. O‘zbek xalq o‘yinlari. – Toshkent, “San‘at” – 2001-yil.
5. Abralova M, Soliyeva D. Musiqa. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008 – yil.



MAKTABGA TAYYORLOV GURUH BOLALARINI ERKIN VA MANTIQUIY FIKRLASHIDA LABORATORIYA HUDUDINING IJOBIY AHAMIYATI

Igamberdiyeva A.A.

*Maktabgacha ta‘lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, maktabgacha ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi
1-bosqich tayanch doktoranti*

Bolalik davri -bu bebaho, sirli, quvonchlarga, hayratlarga, savollarga to‘la davr hisoblanadi. Bolalik davrini go‘yo daraxtning ildizlariga, yosh niholga qiyoslashimiz mumkin. Daraxtning ildizi qanchalar mustahkam bo‘lsagina u ko‘kka bo‘y cho‘zadi, shunchalar baquvvat daraxt bo‘ladi. Biz ota-onalar, pedagoglar, kattalar bu ildizni, yosh niholni to‘g‘ri parvarish qilishimiz, bolalikdanoq ilmga, bilimga, insoniylik e‘tiborni jiddiy qaratishimiz darkor. *Ilm olishning eng chuqur ildizi va pilla poyasi* bu “Maktabgacha yoshdagi davr”ga to‘g‘ri keladi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra 5-7 bo‘lgan bolalarda atrof muhitni anglash, tabiatga qiziqish kuchli bo‘lib, ko‘plab ma‘lumotlarni qabul qilish jarayonida bo‘ladi. Demak, biz farzandlarimizni bolaligidanoq ilm-fanga qiziqitira olishimiz va bilim olishlari uchun sharoit yaratib berishimiz asosiy maqsadlarimizdan bo‘lmog‘i lozim! Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari davlat dasturi asosida olib boriladigan markazlardagi faoliyatlar bolalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi albatta. Turli xil o‘yinlar orqali bolalarni faoliyatga jalb etish metodi ham bisyor va bu albatta o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatmoqda. Hozirgi shiddatli zamonda esa pedagog kadrlardan yana ham bilimli bo‘lishni, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashda tashabbus ko‘rsatishni ularga bilim olishlari uchun ijobiy muhit yaratishni

talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib “Laboratoriya hududi” ayni talablarga javob bera oladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur “Laboratoriya hududida” katta va maktabga tayyorlov guruh bolalari o‘zlarining barcha savollariga qiziqarli va eng asosiysi xavfsiz bo‘lgan tajribalar orqali javob topishadi. Ulardagi doimiy ravishda bo‘ladigan “Nima uchun sodir bo‘ldi?”, “Qanday sodir bo‘ldi?”, “Qachon?”, “Bu nima?” savollar ketma-ketligiga pedagog bilan kommunikativ muloqot yordamida, qiziqarli tajribalar orqali javoblar topishadi. Tajriba jarayonida bolalarning jajji dunyo qarashlari kengayishi, tasavvur olami boyishi, erkin va mantiqiy fikrlashi shakllanishi, rivojlanishi kuzatiladi. Bolalar “Tadqiqotlari” ulardagi xotira va idrok etishda ham o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatadi. “Laboratoriya hududida” doimiy ravishdagi kattalar tomonidan aytiladigan “Tegma”, “Mumkin emas” so‘zlaridan farqli o‘laroq “Bajarib ko‘r”, “Sen uddalaysan”, “Qanday fikr bildirasiz” so‘zlari keng qo‘llaniladi. Bolalar o‘zlarini laboratoriya tajribalari faoliyatida qanchalik qulay, erkin his qilishsa va mustaqil fikrlashga o‘rganishsa, o‘yinlar, do‘stona jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllansa olib borilayotgan tadqiqot mavzusi shunchalar oson va esda qolarli bo‘ladi. Bolalar aniq fanlarga bo‘lgan qiziqishlari oshadi. Atrof muhitni va tabiatni o‘rganishda faoliyatning ko‘pgina turlaridan foydalanishimiz mumkin. Bolajonlar uchun laboratoriya hududini tashkil qilishning asosiy maqsad: Bolajonlar atrof muhitni har xil faoliyat orqali qabul qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun laboratoriya hududi faoliyati ularni ilm fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada faollashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni faoliyat turiga qiziqtirishda laboratoriya hududi ijobiy natijani beradi. Bolalarni tabiat haqidagi bilimlari ongli bo‘lishi uchun DMTTda oddiy tajribalar o‘tkazilishi samarali natijani beradi.

- **Maqsad:** Maktabgacha (6-7) yoshdagi bolalar uchun laboratoriya hududini tashkil etish. Qiziqarli tajribalar yordamida ilm fanga qiziqtirish. Erkin, mantiqiy fikrlashni o‘rgatish. Dunyo qarashlarini kengaytirish, rivojlantirish va maktabga sifatli tayyorlashdan iborat.

- **Vazifalari:**

- Bolalar ilmiy- tadqiqot laboratoriyasida ishlash uchun sharoit yaratish.
- Bolalarni turli xil usullar va o‘yinlar orqali laboratoriya faoliyatiga qiziqtirish.
- Eksperemental o‘yinlarda bolalarning qiziqishi va mustaqilligi, tashabbuskorligini rivojlantirish.

- Ota onalarni e’tiborini maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning yangi shakliga jalb qilish, bolalarning tadqiqot

- Mantiqiy va erkin fikrni shakllantirish;
- faoliyatida ishtirok etishining ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot berish...

Bizning vazifamiz bolajonlarimizni dastlabki ilm olishlari uchun qulay, xavfsiz hududi joriy etib bolalarda “kichik olim” sifatida aniq va tabiiy fanlarga qiziqishlarini oshirish, maktabga sifatli

tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi "laboratoriya hududi" da olib boriladigan tajribalar bolalarda fan bo'yicha ijobiy yutuqlarga erishishida zamin bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». ЗРУ-637 от 23.09.2020.
2. Закон "О дошкольном образовании и воспитании" Республики Узбекистан Принят Законодательной палатой 22 октября 2019 года. Одобрен Сенатом 14 декабря 2019 года. (Национальная база данных законодательства, 17.12.2019 г., № 03/19/595/4160; 27.04.2021 г., № 03/21/685/0373, 12.10.2021 г., № 03/21/721/0952)
3. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах» УП № 4947 от 7 февраля 2017 года // Учитель Узбекистана. – Ташкент, 2017. – № 6 (2453). – 10 февраля. – 70 стр. <http://lex.uz/doss/3107036>
4. "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi" Umarova Malika Xisabidinovna UDK 37.033, 373.2. 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya
5. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari" Begmatova Nodira Hakimovna UDK 681.3: 371.3:372

O'QUV MATERIALINI TAQDIM ETISHNING INNOVATSION USULI HAQIDA

Ikromova M.B.

*Qo`qon davlat pedagogika instituti, "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi
stajyor-o`qituvchi*

Ma'lumki, miya uchun asosiy axborot manbalaridan biri axborotni vizual idrok etishdir. Inson miyasiga axborotning umumiy miqdorining 90 foizi ko'rish, 9 foizi eshitish, qolgan 1 foizi esa hid, ta'm va teginish orqali kiradi [1]. Inson miyasida vizual funksiyalarga bag'ishlangan tasvirlar matndan ko'ra tezroq qayta ishlanadi. Miya rasmlarni birdaniga qayta ishlaydi, lekin matnni chiziqli ravishda qayta ishlaydi, ya'ni matndan ma'lumot olish ancha vaqt talab etadi. Inson miyasi rasm shaklida taqdim etilgan materialni idrok etishi osonroq.

Shunday qilib, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ma'lumotlarni vizuallashtirishning yangi usullaridan foydalanish o'qitishning sifat va samaradorligini oshirishga olib keladi. Shunday

usullardan biri infografikadir [2,3]. *Infografika — axborot va bilimlarni uzatishning grafik usuli, uning vazifasi murakkab ma'lumotlarni qulay va tushunarli taqdim etishdir.*

Infografika vizual, illyustrativ funksiya bilan bir qatorda kognitiv funksiyani ham bajaradi va bilish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarda obyektlar, hodisalarning yaxlit ko'rinishini shakllantirishga imkon beradi. Uning yordami bilan siz o'quv materialini qismlarini yoki turli obyektlarning nisbatlarini sodda va tushunarli tasvirlar orqali ko'rsatishingiz mumkin.

Obyektlar, hodisalar, jarayonlarni turli pozitsiyalardan ko'rib chiqishda infografikadan foydalanish bolalarga asosiy va ikkinchi darajali o'rtasidagi farqni o'rganishga, ularda ijodiy fikrlash uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar bog'chasida infografikadan foydalanish qiyin emas, o'qituvchi uni doskadagi proyektor yordamida osongina ko'rsatishi yoki chop etishi mumkin. U butun guruh bilan ishlashda ham (interfaol doskada, taqdimot ekranida), har bir bola bilan individual shug'ullanganda (bosma ish varaqlari) ham foydalanishi mumkin. Yorqin suratlar tezda maktabgacha yoshdagi bolalarning e'tiborini tortadi. Bolalar bog'chasida infografikadan foydalanishning maqsadi: Axborotni idrok etish jarayonini takomillashtirish, murakkab ma'lumotlarni oddiy tasvirlarda tushuntirish, shuningdek, ma'lumotlarni ixcham va noodatiy tarzda uzatish.

Infografika yordamida hal qilinadigan vazifalar:

1. Muayyan faoliyatni shakllantirish: modellashtirish, tajriba o'tkazish, ishlab chiqarish faoliyati.

2. Barkamol nutqni rivojlantirish, rejalashtirish funksiyalari, bolalarning so'z boyligini kengaytirish va boyitish.

3. Asosiy aqliy jarayonlarning rivojlanishi — xotira, e'tibor, xayoliy fikrlash: ma'lumotlarni qisqa va noodatiy tarzda uzatish qobiliyatini shakllantirish.

4. *Qanday qilib aniq va ma'lumotli rasmlarni yaratish kerak?*

5. Biz bolalarga nimani etkazmoqchi ekanligimizni va qanday maqsadni ko'zlayotganimizni hal qilamiz. Barcha ma'lumotlarda asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish — bu infografika.

6. Biz ma'lumotlarni taqdim etishni imkon qadar osonlashtiramiz. Agar ma'lumotlar miqdori katta bo'lsa, biz uni bo'limlarga ajratamiz, ularning har biri alohida rasm bilan to'ldiriladi.

7. Olingan har bir qism uchun eng yaxshi vizuallashtirish formatini tanlaymiz. Ularning orasidagi farqlar faqat taqdim etilgan ma'lumotlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonida infografikadan o'z o'rnida samarali foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bola axborotni eshitgan va o'qigandan ko'ra, ko'rib tafakkur qilsa ko'proq bilimga ega bo'ladi. Infografika orqali tarbiyachi bolalarga katta hajmdagi axborotni tezlikda qisqagina qilib yetkaza oladi.

Infografikaning afzalliklari quyidagilardan iborat [4]:

- foydalanish qulayligi — infografikani doskada proyektor yordamida ko'rsatish yoki chop etish mumkin;

- boy vizual material — hodisa va jarayonlarning yorqin tasvirlari, fotosuratlar va illyustratsiyalar;

- guruh va individual yondashuv butun guruh bilan ham (interfaol doskada, ko'rgazmali ekranda foydalanish) va har bir alohida bola bilan ham (shaxsiy kompyuterda ishlash yoki bosma nashr bilan ishlash) ishni tashkil qilish imkonini beradi.

O'quv jarayonida infografikadan foydalanish quyidagi afzalliklariga ega:

- bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan materialni tushunish hajmi va chuqurligi ortadi;
- bilim, ko'nikmalarni shakllantirishga kamroq vaqt sarflanadi;
- kognitiv faollik ortadi.

Infografika yordamida o'quv ma'lumotlarini vizuallashtirishda bir qator pedagogik vazifalar hal qilinadi [5]:

- bilim va tasvirlarni o'zlashtirish shakllanadi;
- bilim va o'quv faoliyatining obrazli tasviri ta'minlanadi;
- tanqidiy va vizual fikrlash shakllanadi va rivojlanadi;
- o'quv va kognitiv faoliyat faollashadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga bilim berish jarayonida infografikadan foydalanish murakkab ma'lumotlarni idrok etishni soddalashtiradi, uni ko'rgazmali, bola uchun qiziqarli qiladi. Bunda infografika:

- o'qituvchi tomonidan — materialni yangi va qiziqarli, ma'lumotli shaklda taqdim etish;
- bola tomonidan — o'quv materialini taqdim etishning yangi shakliga, eng tushunarli va oson hazm bo'ladigan o'quv materialiga qiziqish, o'quv jarayoniga jalb qilish va shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. D.T.Kamaltdinova, D.M.Sayfurov. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. "Nashriyot uyi Tasvir". Toshkent – 2020. 14-bet.

2. Nikulova G. A., Podobnykh A. V. Sredstva vizualnoy kommunikatsii — infografika i meta-dizayn // Obrazovatelnye tekhnologii i obshchestvo: nauch.jurnal. 2010. Vyp. 2., str. 369-387.

3. Frolova M. A. Istoriya vozniknoveniya i razvitiya infografiki // Vestnik PGGPU. Informatsionnye kompyuternye tekhnologii v obrazovanii. 2014. Chast 10. str.135-145.

4. <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/369579-infografika-v-dounovyj-trend-v-mnemotexnike> - Infografika v DOU - novyy trend v mnemotexnike.



O‘SPIRINLIK DAVRIDA KASBIY O‘ZINI O‘ZI ANGLASHNING PSIXOLOGIK SHARTLARI

Imamova N.Z.,

*Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası
o‘qituvchisi*

Davronova Z.

Maktabgacha ta’lim metodikasi yo‘nalishi II bosqich talabasi

Tayanch tushunchalar: o‘zini o‘zi anglash, kasbiy o‘zini o‘zi anglash, o‘spirin shaxsi, kasbiy motiv, kasbiy maqsad, kasbiy reja, qaror qabul qilish, kasbiy yo‘lni boshqarish, shaxs xususiyatlari, mutaxassis, kasb, kasblar haqida tasavvurlar.

Shaxs taraqqiyotida o‘zini o‘zi anglash muhim jihatlardan biri sifatida gavdalanadi. Shu nuqtai nazardan olganda, o‘zini o‘zi anglash tushunchasining mazmuni hamda uning kasbiy o‘zini o‘zi anglash bilan bog‘liqlik jihatlarini o‘rganish hozirgi kundagi muhim ustuvor masalalar sirasiga kiradi.

Avvalo o‘zini o‘zi anglash tushunchasining mazmuniga to‘xtalib o‘tsak. Psixologik manbalarda o‘zini o‘zi anglash-insonning o‘zini shaxs sifatida tanishi, o‘zining jismoniy hamda aqliy qobiliyatlarini xatti-harakatlari va ularning motivlarini, atrofdagi borliqqa, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini anglashdan iborat sifati. O‘zini o‘zi anglash ham shaxsning faoliyat jarayonida tarixan tarkib topib, uning jamiyatda, jamoada o‘z mavqeyini bilish va baholash darajasigacha rivojlanib boradi. O‘zini o‘zi anglash bu muammoli vaziyatlarda o‘z pozitsiyasini aniqlash va tasdiqlashni ongli jihati. O‘zini o‘zi anglash jarayonida shaxs bu kasbiy mehnat bozorida o‘zini o‘zi anglagan subyektdir[2, s29]. Shuningdek, adabiyotlarda o‘zini o‘zi anglash tushunchasiga bog‘liq ravishda kasbiy o‘zini o‘zi anglashning izohlash maqsadga muvofiqdir. Kasbiy o‘zini o‘zi anglash-bu ma’lum kasb yoki mehnat faoliyati sohasini o‘z qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ongli ravishda tanlashidir. Kasbiy o‘zlikni anglash deganda hozirgi kunda faqatgina muayyan kasbni tanlash emas, balki tanlangan o‘zlashtirilgan va amalga oshirilayotgan kasbiy faoliyatdan uzluksiz ravishda hayot ma’nosini izlash tushuniladi. Kasbiy o‘zlikni anglashga nisbatan bunday izohni berilishi-bu jarayonning shaxs taraqqiyotidagi muhim o‘rnini belgilab beradi[3, s98].

Kasbiy o‘zini o‘zi anglash borasida V.D.Shadrikov tomonidan taklif etilgan konsepsiyada quyidagi tuzilishli-funksional tarkibiy qismlarni tushuntirish imkonini beradi:

1. Kasbiy motivlar –bu shaxsning ichki kechinmalari bilan bog‘liq.

2. Kasbiy maqsadlari-bu shaxsni kasb tanlash jarayonida nimaga erishish yoki nimani qo‘lga kiritish haqidagi tasavvurlari.

3. Kasbiy rejalari- bu shaxs nimaga va qachon erishishi haqidagi tasavvurlari.

4. Qaror qabul qilish-subyekt psixologik tarkibini yetakchi tarkibiy qismi hisoblanadi.

5. Kasbiy faoliyatda o‘zini o‘zi nazorat qilish-kasbiy shakllanish jarayonida kutilayotgan natijalarni real erishiladiganlari bilan taqqoslash.

7. Kasbiy yo‘lni boshqarish-bu subyekt faoliyatini psixologik tarkibiga o‘zgarishlar kiritish[1, s188].

Kasbiy va shaxsiy anglash muammosi N.S.Pryajnikovning tomonidan olib borilgan izlanishlarning predmeti hisoblanadi. Uning konseptual yondashuvi quyidagilardan iborat[5, s167].

Adabiyotlar tahlili, amalga oshirilgan tajriba – eksperimental tadqiqot N.S.Pryajnikovga kasbiy shakllanishning nazariyasi va amaliyotini boyitish imkonini beradi. Kasbiy anglash shaxsning boshqa muhim sohalarida o‘zini namoyon eta olishi bilan uzilmas aloqasini doimo ta’kidlagan holda, u shunday yozadi. “Kasbiy anglashning mohiyati aniq madaniy-tarixiy vaziyatda bajariladigan ish va butun hayot mazmunini mustaqil va anglangan holda topishdadir”.

Shaxsning kasbiy anglashi bo‘yicha N.S.Pryajnikov tomonidan o‘tkazilgan tajribalar tahlilini umumlashtirib, bu jarayonning asosiy nuqtalarini ajratishimiz mumkin:

1. Kasbiy anglash – individning kasblar olamiga va tanlangan aniq kasblar olamiga nisbatan bo‘lgan tanlovi munosabati.

2. O‘z xususiyatlar va imkoniyatlarini, kasbiy faoliyat talablarini va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda kasbiy anglash yadrosi hisoblanadi.

3. Kasbiy anglash butun kasbiy hayoti davomida amalga oshiriladi, shaxs doim o‘zgaradi, o‘z kasbiy hayotini qayta anglaydi va kasbida o‘zini namoyon etadi.

4. Shaxs kasbiy anglashning dolzarblashuvi, turli voqealar, ya’ni umumta’lim maktabini, o‘quv yurtini tugatish malaka oshirish, yashash joyini almashtirish, attestatsiya, ishdan bo‘shash va hokazolar bilan anglanadi.

5. Kasbiy anglash shaxs muhim ijtimoiy – psixologik etukligini tavsifi hisoblanadi.

Shaxs kasbiy anglashni tadqiq etib, N.S.Pryajnikov uning quyidagi mazmunli – protsessual modelini asoslab beradi:

1. Ijtimoiy foydali mehnat qadr-qimmatini va kasbiy tayyorgarligining zaruriyatini anglashning qadriyati, ma’naviy asosi.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda o‘z yo‘nalishini topish va tanlanadigan faoliyatni kelajakda rivojlantira olish.

3. Kasbiy mehnat olamida umumiy holda o‘z yo‘nalishini aniqlay olish va kasbiy maqsadni ajrata olish.

4. Yaqin oradagi kasbiy maqsadlarni keyingi maqsadga eltuvchi yo'llar va vositalari sifatida aniqlash.

5. Kasbiy o'quv yurtlari va ish o'rinlariga, muvofiq kasblar va mutaxassisliklar haqida ma'lumot berish.

6. Kasbiy maqsadlarga erishishni murakkablashtiruvchi to'siqlar haqida tasavvurga ega bo'lish shuningdek, mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga qo'l keluvchi fazilatlarini bilish.

7. Anglashning asosiy varianti bo'yicha muvaffaqiyatsizlikka uchragan holda, tanlov zaxira variantlarining mavjudligi.

8. Shaxs kasbiy istiqbollarning amaliy yuritilishini boshlanishi va mo'ljallangan rejalarni doimiy ravishda korrektirovka qilish.

Shaxs o'zini o'zi namoyon eta olish imkoniyatlarini tahlil etib, N.S.Pryajnikov kasbiy anglash bo'yicha yettita turini taklif etadi [1, s197]:

1. Ma'lum bir mehnat vazifasida o'zini o'zi anglash. Bu anglash turi bajarilayotgan faoliyat doirasida o'zini o'zi namoyon eta olishini nazarda tutadi. Ishchi o'z faoliyat mazmunini ayrim mehnat vazifalarini sifatli bajarishda ko'radi. Tanlash erkinligi va inson harakatlarining diapazoni minimal darajada aks etishi bilan belgilanadi. Ko'p ishchilarga bu bir xil va bir maromda ishlash yomon ta'sir etadi. Shuning uchun ishlab chiqarish tashkilotlari bunday faoliyatlarni bajariladigan ishlar turini almashtirish hisobiga qo'shimcha vazifalar bilan boyitishga harakat qiladilar. Ammo shuni ham ta'kidlash lozimki, ayrim kishilar bunday mehnatdan rohatlanadilar.

2. Ish o'rnida o'zini o'zi anglash turli xil vazifalar bajarishni nazarda tutadi. Ish o'rni ma'lum huquqlar va topshiriqlar mehnat vositalarini o'z ichiga oluvchi cheklangan ishlab chiqish muhiti bilan belgilanadi. Bajarayotgan faoliyat doirasida o'zini o'zi namoyon qila olish imkoniyati birinchi holatda yuqoriroq bo'lishi mumkin. Aniq ish joyining almashinuvi mehnat sifati va samaradorligiga yomon ta'sir etadi va ishchining qoniqmasligini keltirib chiqaradi.

3. Mutaxassislik bosqichida o'zini o'zi anglash turli ish o'rinlarini sezilarsiz almashinuvini nazarda tutadi va shu ma'noda shaxsning o'zini o'zi namoyon eta olish imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, avtotransport haydovchisi avtomashinalarning turli rusumini boshqara oladi.

4. Kasbda o'zini o'zi anglash turi bo'yicha ishchi mehnat faoliyatida bir – biriga yaqin kasblarni o'zlashtira olishi nazarda tutiladi. Ma'lumki, kasb bir qancha bir – biriga yaqin mutaxassislarni birlashtiradi. Shuning uchun avval anglash turiga nisbatan bunda ishchi nafaqat ish o'rnini, balki mutaxassisliklarni ham tanlaydi.

5. Hayotda o'zini o'zi anglash turi kasbiy faoliyatdan tashqari o'zini hordiq chiqarishi, majburiy ishsizlik va hokozolar. Mazmun jihatdan bunda fikr insonning hayot tarzini tanlashi haqida bormoqda. Ta'kidlash kerakki, ko'p kishilar hayot mazmunini kasbdan tashqaridagi faoliyatda ko'rishadi.

Hayotni anglash nafaqat insonning u yoki bu ijtimoiy rollarini bajarishini balki hayot tarzini tanlashini ham nazarda tutadi. Bunday holda kasb ma'lum hayot tarzini yuritish vositasi bo'lishi mumkin.

6. Murakkabroq tur – shaxs o'zini o'zi anglashi. Bu tur hayotda o'zini o'zi anglashining oliy ko'rinishi bo'lib, bunda inson vaziyat va o'z hayotining egasi bo'ladi. Bunday hollarda shaxs kasb va ijtimoiy rollardan ko'tarilib turadi. Inson ijtimoiy rolni egallabgina qolmay, balki yangi rollarni yaratadi va qaysidir ma'noda hattoki ijtimoiy – psixologik mezon yaratish bilan shug'ullanadi va atrofdagi odamlar u haqida yaxshi muhandis, shifokor, pedagog deb gapirib qolmasdan, balki takrorlanmas shaxs deb ta'riflashadi. Aytish mumkinki, shaxs o'zini o'zi anglashi bu o'ziga xos “Men tarzini” topishidir va doimo shuni rivojlantirib o'rtasida odamlar orasida tasdiqlashdan iboratdir.

7. Nihoyat eng murakkab tur – shaxsning madaniyatda o'zini o'zi anglashi (shaxs o'zini anglashning oliy ko'rinishi sifatida). Bunda qaysidir ma'noda insonning ijtimoiy abadiyligi to'g'risida gapirishga imkon beruvchi “o'zini boshqa odamlarda davom etishi” ga yo'naltirilgan ichki faollik seziladi. O'zini o'zi anglashning oliy turi shaxsning keng ma'noda tushuniladigan madaniyat rivojlanishiga qo'shgan hissasida namoyon bo'ladi.

Yuqorida berilgan o'zini anglashning har bir turida muallif shartli ravishda inson o'zini o'zi namoyon etishining besh bosqichini ajratadi. Bosqichlarni ajratish mezoni sifatida inson tomonidan mazkur faoliyatni ichki qabul qilinishi va unga bo'lgan ijodiy munosabatining darajasi bilan belgilanadi.

1. Bajariladigan faoliyatni agressiv qabul qilmaslik. (destruktiv bosqich).
2. Tinch yo'l bilan mazkur faoliyatni chetlab o'tishga intilish.
3. Mazkur faoliyatni namuna, shablon ko'rsatma asosida bajarish (passiv daraja).
4. Takomillashtirishga bajariladigan ish elementlarini o'zgacha qabul qilishga intilish.
5. Bajarilayotgan faoliyatni takomillashtirish, boyitishga intilish (ijodiy bosqich).

Shu o'rinda, o'spirinlik davriga xos bo'lgan psixologik xususiyatlardan biri kelajakka intilishidir. O'spirinlik davrida shaxs taraqqiyotining muhim omili bo'lib, hayotiy rejalarini tuzish, kelajak rejalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Aynan mazkur jihatlarga kasbiy o'zini o'zi anglash tizimi bilan bog'liq masalalarni kiritish ham dolzarbdir.

Psixolog D.I.Feldshteynning fikricha, o'spirinlik davridagi taraqqiyotni ushbu davridagi yetakchi faoliyat mehnat va o'qish bilan belgilanadi. Boshqa psixologlar ushbu davrdagi yetakchi faoliyat sifatida kasbiy o'zini o'zi anglashni ko'rsatib o'tadilar. Jumladan, I.V.Dubrovinaning fikricha, maktabni tamomlash hali kasbiy o'zini o'zi aniqlashtirish haqida gapirishga imkon bermaydi, bu balki faqatgina kelajak haqidagi rejalarda aks etishi mumkin.

O'spirinlik davrida kasbiy o'zini o'zi anglashga psixologik tayyorgarlik shakllanadi. Bu esa shaxsning muayyan darajada etukligini ko'rsatib beradi.

O'zini o'zi aniqlash, belgilashga psixologik tayyorgarlik mazmuni quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

-shaxs kamolotini ta'minlovchi ehtiyojlarning rivojlanishi;

-o'z qobiliyat va qiziqishlarini anglash va ularga nisbatan tanqidiy yondashish individuallikning negizi sifatida rivojlanishi.

Kasbiy o'zlikni anglashning shaxs taraqqiyotidagi "Stop-kadr" sifatida tahlil qilish kerak emas. Tanlangan kasb imkoniyatlarini cheklab qo'ymaydi, aksincha, shaxs taraqqiyoti uchun yangi yo'llarni ochadi. Ilk o'spirinlik davrida kasbiy o'zlikni anglash shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilab olishida muhim rol o'ynagani bilan uning butun imkoniyatlarini ochib bermaydi. Shaxsning kasbiy tasavvurlari uning jamiyatdagi mavqeyi bilan bog'liq. Kasb tanlash qaysidir ma'noda kelajakni rejalashtirishni anglatadi.

Keyingi yosh davrlarida turli kasblar haqidagi tasavvurlar boyib boradi. Yoshlarning kasbiy o'zlikni anglashiga, kasblar haqidagi bilimlari, yaqinlarining nuqtai nazarlari va shaxsning qobiliyatlari o'z ta'sirini o'tkazadi. O'spirin qanchalik katta bo'lsa, uning tanlovlari ham ortib boradi.

Kasb tanlash bir necha yillar davomida bir qancha bosqichlarda kechadi. Fantastik tanlov bosqichida (11 yoshgacha) bola kelajak haqida o'ylab maqsad va vositalarni bir-biriga bog'lay olmaydi. Ushbu bosqichdagi dastlabki tanlov kasblar haqidagi tasavvurlarning differensiyalashmaganligi va muayyan qiziqish va moyilliklarning mavjud bo'lmasligi bilan kechadi. O'smir yoki o'spirin o'zining intellektual taraqqiyotiga tayangan holda real sharoitlar bilan juda qiziqadi, lekin o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonmaydi bu dastlabki tanlov bosqichidir (16-19 yosh). Sekin-astalik bilan uning diqqat-e'tibori subyektiv omillardan real voqelik sari siljib boradi. Bir necha variantlar orasidan reallikka yaqinroq kasblar turini ajratib ola boshlaydi. Real tanlovlar bosqichida (19 yoshdan yuqori) bola o'z qobiliyatlari, shaxsiy qadriyatlar tizimiga mos, uning imkoniyatlarini to'la ochib beruvchi kasblar to'g'risida mushohada yurita boshlaydi [3, s123].

N.S.Pryajnikov tomonidan kasbiy o'zlikni anglashning psixologik negizi quyidagi omillarga ajratiladi:

- ijtimoiy foydali mehnatning qadrini anglash;

- mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga yo'nalganlik;

- o'zini o'zi anglash va o'z imkoniyatlarini namoyon qilish uchun umumiy va kasbiy tayyorgarlikning muhimligini his qilish;

- kasbiy mehnatga yo'nalganlik;

- kelgusidagi kasbiy maqsadlarni ajratib olish;

- ushbu maqsadlarni boshqa hayotiy muhim maqsadlar bilan muvofiqligi;

- maqsadli bilimlar;

- maqsadga erishishni qiyinlashtiruvchi to'siqlarni bo'lishi va boshqalar.

O'zlikni anglashning muhim jihatlaridan biri zamonaviy o'spirinlarning obro'li kasblarga nisbatan intilishini ortishi bilan belgilanadi. O'smirlar hamda o'spirinlar ko'pincha oson karyera qo'rishga faqat muvaffaqiyatga erishish va tezda boyishga nisbatan o'ch bo'ladi. Psixolog N.S.Pryajnikovning fikricha, san'at, umumiy madaniyat ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy fikrlar bolaning kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi anglashiga ta'sir etadi [4,s 46].

O'spirinlarga jamiyat va kattalar tomonidan yordam juda zarur, lekin bu uning shaxsiga nisbatan tazyiq ko'rinishiga o'tishi va uning mustaqilligini cheklab qo'yishi kerak emas, balki muayyan maslahat va tavsiyalar ko'rinishiga ega bo'lishi lozim.

Adabiyotlar

1. Zeer E.F. Psixologiya professiy. Yekaterinburg,1997.
2. Klimov Ye.A. Psixologiya professionala. Moskva-Voronej,1996.
3. Klimov Ye.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. M.,2004.
4. Pryajnikova Ye.Yu., Pryajnikov N.S. Proforientatsiya. M.,2007.
5. Pryajnikova E.Yu. Texnologii i metodi professionalnoy orientatsii naseleniya. M., 2001.



OILADA BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT ASOSIDA MAKTABGA TAYYORLASH

Irisboyeva Yo.O'

Nizomiy nomidagi TDPU, MTPP katta o'qituvchisi

Aholi o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish etish natijasida millionlab kishilar bolalarini oilada maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalash prinsiplarini ongli ravishda anglab oldilar.

Korxonalarda, xo'jaliklarda, jamoa joylarida, mahallalarda oilada bola tarbiyasi to'g'risida ma'ruzalar bilan chiqish, televideniye va radio eshittirishlar, pedagogik targ'ibot ishining keng vositalaridandir. Shuningdek, bu targ'ibot vaqtli matbuot: "Maktabgacha ta'lim", "Pedagogik ta'lim", jurnallari, ko'p sonli badiiy pedagogik, ilmiy ommabop va metodik adabiyotlarni chiqarish orqali ham amalga oshiriladi.

Bolalar asosan qurilish materiallarini o'ynashni juda yaxshi ko'radilar. Bu o'yinlar ularga rejalashtirish qismlarini, rejalashtirish bilimini, o'z fikrini amalga oshirish, boshlagan ishni oxiriga yetkazishga o'rgatib, tashkilotchilik xulqini tarbiyalashda hamkorlik qiladi.

Bolalar qurilishni rasm bo'yicha, chizma bo'yicha va o'z fikrlari bo'yicha to'zadilar.

Katta maktabgacha yoshdagilar ham garchi ularning hayotida ko'proq turli-tuman mashg'ulotlar va imkoniga qarab mehnat o'rin olgan bo'lsa ham turli o'yinlarni qiziqib o'ynaydilar.

Katta maktabgacha yoshdagilarga turli detallardan tashkil topgan “konstruktor” qiziqarlidir. Detaillarni yig‘ishni o‘rganib, fikrlashni, tirishqoqligini, chidamliligini ko‘rsatib, bolalar namunadagidek qurilma to‘zadilar, bu fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

Ota-ona kichkintoy o‘yiniga ma’lum talablar qo‘yishi kerak.

- Bola kattalarga xalaqit bermay, mustaqil o‘yin bilan mashg‘ul bo‘lishni bilishi kerak;
- Mehmonga kelgan do‘stiga o‘yinchoq taklif etishi, kattalar dam olayotganda yoki yosh bola uxlayotganda tinchgina o‘ynashi, o‘ynab bo‘lgach, o‘yinchoqni joyiga qo‘yish;

Katta maktabgacha yoshdagilardan o‘zining o‘yinchoqlarini toza va tartibli saqlashni talab qilishga xaqlidir. Agar o‘yinchoq sinib qolsa, uni bola bilan darhol tuzatish kerak.

Bola singan va butun, toza va iflos, o‘yinchoqlarni bita qutiga joylashishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Agar ota-ona talabi doimiy bo‘lsa, oila bu talabning zarurligini tushunsa, kichkintoy kattalar talabiga muvofiq harakat qiladi.

Tartibga, tejamkorlikka o‘rgatilgan oilalarda o‘yinchoqlar uzoq saqlanadi. Maktab o‘quvchisi o‘zining o‘yinchoqlarini kichik ukalariga yoki do‘stlariga bergani yaxshi.

Bolalarga yangidan-yangi o‘yinchoqlarni sotib olib berishga intilish kerak emas. Qizchada 10 dan ortiq qo‘g‘irchoq bor, u ularni o‘ynamaydi, balki yana bir “o‘quvchi qiz” qo‘g‘irchoqini so‘raydi. Onasi unga o‘sha qo‘g‘irchoqni olib beradi. Boshqa oilada bir dona qo‘g‘irchoq “vrach”, “qizi”, “o‘qituvchi” bo‘ladi, buvisi nevara bilan qo‘g‘irchoqiga yangi ko‘ylaklar tikadilar.

Ota-onalar bolalar ishtirokida o‘yinchoqlarni o‘zlari yasashlari mumkin, bolalar ularni yaxshi ko‘radilar va ularni do‘kondan olingan o‘yinchoqdan kam bo‘lmagan xohish bilan o‘ynaydilar.

Avval aytilganidek, qo‘lda yasalgan o‘yinchoqlar katta pedagogik ahamiyatga ega. Bolalar ularni o‘z o‘yinlarida ishlatadilar yoki do‘stlariga va yaqinlariga tug‘ilgan kunda, 8-martda sovg‘a qiladilar.

Ota-onalar bola o‘rtoqlari davrasida o‘zini qanday tutayotganiga, o‘yin qoidalariga rioya qilayotganligiga e‘tibor berishlari kerak.

Bolalar o‘yin qoidasi qonunligini, unga rioya qilinishi kerakligini bilishlari kerak. Bolalar o‘yinlarda bajarishni o‘rganishlari kerak bo‘lgan qoidalar tartibi:

- Do‘stlari bilan o‘ynaganda ular ham yutishni xohlashlarini yodda tut.
- o‘yin-qarashlarda o‘zingga teng kuchli sheriklarni tanlab ol.
- o‘ynadingmi-ko‘nglingni cho‘ktirma, keyingi safar yutishga harakat qil.
- yutdingmi, mag‘rurlanma, do‘stingni ham shunday o‘ynashga o‘rgat.

O‘yin qoidalari tashkilotchilikni tarbiyalaydi. Kimki qoidalarni bajarmasa, o‘rtoqlarining noroziligini chaqiradi va o‘yindan chetlatilishi mumkin. Bolalar qoidani bilib olganlaridan keyin va ularni aniq bajarganlarida, o‘yin yanada qiziqarli bo‘ladi. O‘yinlarda bolalar tezlikka, chaqqonlikka, merganlikka musobaqalashadilar va yuqori natijaga erishishga harakat qiladilar. Ko‘pincha 6-7 yoshli

bolalar holidan o‘yin tashkilotchilari bo‘ladilar, rollarni, kim boshlashni belgilaydilar, qoidalarga amal qilinishini kuzatadilar.

O‘yinning har bir ishtirokchisi o‘yin qoidalarini bajaribgina qolmay, nafaqat o‘yin ishtirokchisigina bo‘lmay, balki vaqti-vaqti bilan o‘ziga boshlovchilik rolini ham olishi kerak.

Ota-onalar bolalar o‘yinini kuzatib turishlari, bolalar o‘zaro kelisholmay qolsalar, kelishmovchiliklarni silliqqina bartaraf etishlari, o‘yin ishtirokchilarning o‘zaro xayrixohliklarini rag‘batlantirishlari kerak.

Bolaning xulqi faoliyat davomida shakllanadi: u o‘ynaydi, rasm chizadi, qirqadi, yasaydi, mehnat qiladi. Bolaning chizayotgan rasmni tugatmasligi, kubiklardan qurilmasi yoki qo‘g‘irchoq ko‘ylagi, chizayotgan mashinasi, askarlar uchun qurayotgan qal’asi tamomlanmaganligi, qo‘yilgan maqsadga erishmaganligi kattalar uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin emas.

Muhimi, bola behuda vaqt o‘tkazishga o‘rganmasligi. Bunday bola maktab o‘quvchisi bo‘lganda, o‘zini ishga kirishishga, mustaqil bajarishga majburlashi qiyin kechadi.

Bolalar majburiyatlardan ozod etilgan, mehnatga chaqirilmagan, dars qilishni va o‘ynashni bilmaydiganlar oiladagiga nisbatan, ota-onalar bolalar tarbiyasi masalalari ustida jiddiy o‘ylanadigan, oila hayotini to‘g‘ri tashkillashtiradigan, bolalar o‘yinlari va mashg‘ulotlarini kengayishiga yordam beradigan oilalarda bolalardagi tashkilotchilik xulqi anchagina yuqoridir.

Xulosa qilib aytganda mehnatsevarlikning boshlanishi va tashkilotchilik xulqining tarbiyalashdagi muvaffaqiyatli natijalar ma’lum miqdorda oila jamiyati a’zolarining barchasini kelishilgan harakatlari va bir xil talablari bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. T., «Sharq», 1999.
2. O.U.Xasanboyeva. Oila pedagogikasi. T., 2007 y.
3. Bolalarni maktabga o‘qishga tayyorlash (ilmiy maqolalar to‘plami). T., O‘z PFITI, 1997.
4. «Maktabgacha ta’lim» jurnali 2006 yil 3-soni.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TASHKILOTCHILIK XULQLARINI OILADA TARBIYALASH.

Irisboyeva Yo.O‘.

Nizomiy nomidagi TDPU, MTPP katta o‘qituvchi

Bola Maktabgacha ta’lim tashkilotida egallagan eng yaxshi fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarni esa bolalar Maktabgacha ta’lim tashkilotida qo‘llansa istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Tashkilotchilik tashqi ko‘rinishda shaxsning sifati kabi yig‘inchoqlik, aniqlik, tartibliqlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu sifatlarning ichki ko‘rinishi tirishqoqlik, o‘z xarajatlarini rejalashtirishni o‘rganish, O‘z-o‘zini nazorat qilishni amalga oshirishi bilan belgilanadi.

Bola hayotining yettinchi yilida tashkilotchilikning ichki va tashqi ko‘rinishi kattalar ko‘rsatmasini aniq bajarishda, mehnatni qat’iy tartib bilan va aniq muddatida bajarishda, shuningdek, o‘z ishini to‘g‘ri baholay olishi va kamchiliklarini to‘g‘rilashga intilishida namoyon bo‘ladi.

Tashkilotchilik xulqini tarbiyalash faoliyati davomida amalga oshadi. Kattalar talabi bola xulqini yo‘lga soladi, tashkillashtirishga, tartibga o‘rgatadi.

Doimiy talablar bolani harakat tartibiga, turli xil harakatlarni almashinuviga o‘rgatadi. 3 yoshli bolakay yuvingandan so‘ng nonushta qiladi, so‘ng o‘ynaydi, o‘yindan so‘ng sayrga chiqadi.

Tabiiyki, maktabga tayyorlov yoshidagilarga o‘ziga yarasha talab qo‘yiladi. Kattalarning aniq talabini bola tomonidan bajarilishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki u biron narsani o‘z vaqtida va majburiy bajarish zarurligi bilan chambarchas bog‘liq.

Maktabga tayyorlov yoshi oxirida bola o‘ziga yoki jamoaga baravar qo‘yilgan kattalar talabini bajaruvchi bo‘libgina qolmay, balki o‘ziga va boshqa bolalarga nisbatan talablar qo‘ya boshlaydi.

Bu talablar o‘ziga baho berishda va bolalar qilmishiga baho berishda yanada aniq ko‘rinadi.

Bizning jamiyatimizda insonlar faoliyati jamoa hamkorligiga asoslangan va u bolalikdan boshlanadi. (oilada, bolalar MTMsidagi tengdoshlar jamoasida, maktabda, va hokazo) shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga jamoada yashashni o‘rgatish, birga o‘yin o‘ynash, mehnat qilish, berilgan topshiriqqa javobgarlik bilan qarashni tarbiyalash zarur.

Birgalikdagi faoliyat kelishilgan harakatlarni talab qiladi, umumiy his-hayajon va kuyinchakliklarni chaqiradi va shu bilan tashkilotchilik xulqini shakllantiradi.

Mehnat qilishni xohlash va o‘rganish birinchi mustaqil o‘zi bajaradigan harakatlaridan boshlanadi. Har bir bola hammaga ma‘lum “MEN O‘ZIM” degan so‘zlarni ishlatadi, ularda o‘zi mustaqil nimadir bajarishga birinchi talab aks etgan. Bolani mustaqillikka intilishini har tomonlama rag‘batlantirish kerak. Oyoq kiyimini bolalar qo‘liga bo‘ysunmasa ham mayli, bola uni o‘zi kiysin.

Shunday hol bo‘ladiki, bir vaqtda bolalarda emas, balki ularning ota-onasida bolaning biron ishni tamomlashini kutishga sabrlari chidamaydi. O‘g‘li yoki qizining xohishiga qarshi ular bolaga yordam berishga yoki ular uchun o‘zlari bajarishga shoshiladilar. Natijada ularning mustaqil harakatga birinchi intilishlari so‘nadi. Kelgusida mehnatga intilish odatisiz bolaga qanday bo‘lishi haqida ular o‘ylamaydilar.

Vaholanki, aynan kichik bolaning mustaqilligida ilk mehnatsevarlik tug‘iladi. Ma‘lumki, bolaning mustaqillikka intilishi, o‘z yo‘lida ko‘pgina qiyinchiliklarga uchraydi, qaysiki bu sifatlarni rivojlantirishni qiyinlashtiradi. Qiyinchiliklarni yengish bolada qat’iyat, fe‘l-atvorni shakllantiradi.

Bir tomondan, agar bola mayda-chuydada mustaqil bo'lmay, har narsada boshqalarga ishonsa, hech qanday mehnat yo'llanmasi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. U o'qishni ham o'zining ishi deb qabul qilmaydi, tashqaridan yordam kutadi, uni mustaqil dars tayyorlashga o'rgatish qiyin kechadi. Maktab bo'lsa birinchi kundan boshlab o'zining talablarini qo'yadi, avvalambor mustaqillik talablarini.

Mustaqillik maktabgacha yoshdagilarning turli bosqichlarda turlicha shaklda bo'lib, turli talablari bilan aniqlanadi. Kichkina maktabgacha yoshdagilar endigina birlamchi o'z-o'ziga xizmatga o'rganadi. 3-4 yoshli bola stol atrofida tinch o'tirishni, tartibli yoyishni, salfetkadan to'g'ri foydalanishni o'rgansa yaxshi-ya. Masala birlamchi o'z-o'ziga xizmat ota-ona mehnatini yengillashtirishda emas. Muhimi, bola tartibga o'rganadi. Mana u mustaqil kiyimini, oyoq kiyimini yechadi, joyiga qo'yadi, siz endi o'yinchoqlari va kitoblarini joyiga qo'yishni unga kamroq eslatasiz. U endi o'zi tartibsizlikni sezadi, kecha qoldirgan o'yinchoqni yashikka soladi, siz tushirib qoldirgan narsani ko'taradi.

Kichik maktabgacha yoshdagi bola to'g'ri tarbiyalanganda, biron narsani o'zi bajarishga xohish paydo bo'ladi. U tarelkalarni stolga qo'yadi, uyni tozalashga, kir yuvishga yordam beradi.

Bu oson ishlar, bola o'ynab bajarsa-da, undan jismoniy va aqliy kuch talab qiladi. Ma'lumki, kichik maktabgacha yoshdagilarda natija emas, "bajarish"ga qiziqish ustun keladi. Mehnatga intilishni kichikintoy kattalar harakatiga qiziqish natijasida hosil qiladi. 3-4 yoshda bola ko'pincha xalq o'zining ishini baholay olmaydi, uning natijalarini sezmaydi. Shuning uchun bolaga uning arziyasayam o'z kuchi bilan erishgan natijasini ko'rsatish muhimdir.

Kichikintoy bola faqatgina yaxshi so'zga emas, shuningdek kattalar tarafidan yordamga ham unga o'zi bajarolmagan narsada yordam berishi kerak.

Katta maktabgacha yoshdagilar mustaqilligi o'z-o'ziga xizmat davomida ko'payadi. 6 yoshli bola mustaqil yuvinish, artinish, tish tozalash, kiyinish va yechinish, kiyimlarni tartib bilan taxlashni bilishi shart. Katta maktabgacha yoshdagilar kiyimini toza tutish, tartibsizlikni sezish va yo'qotish, tugmalarini tikish, kiyim va oyoq kiyimini tozalashni o'rganishlari zarur. Ovqatlanish vaqtida fikri chalg'imasligi juda muhim.

Bo'lajak maktab o'quvchisida oiladagi doimiy majburiyati bo'lishi yaxshi. (masalan, pochta qutisidan gazeta olib kelishi, non sotib olishi, baliqlarni ovqatlantirish, va hokazo). Bola hech qachon qanday yumushni bajarishni bilishi va yodda saqlashi kerak.

Mayli, majburiyat ko'p bo'lmasin, muhimi bola ularni zo'rlov bilan emas, xohish bilan bajarsin. Ota-onaning har bir topshirig'ini bola o'z vaqtida, ishtiyoq bilan, tartibli bajarishga erishishi darkor.

Katta maktabgacha yoshdagilar uzoq muddat qo‘llaridan kelgan ishlarni mustaqil bajarishlari mumkin, bunda nafaqat o‘z-o‘ziga xizmat, balki o‘simliklarga qarash, jonivorlarni boqish, uy tozalash ishlari, balki bundan ham murakkablarini bajarishga layoqatlidirilar.

6 yoshli bola kichkintoylarga rasm chizishga, oson o‘yinchoqlar yasash: qog‘ozdan qayiqcha, pirpirak tayyorlab berishi, buvisiga kompot uchun qurigan mevalarni saralashga, yo‘qolgan oynani topib berishga yordam berishi mumkin. Oson mehnat topshirig‘ini ajratib berish bolani uni faol bajarishga undaydi, va u kerakli materiallar tanlab, o‘zining xarajatlarini rejalashtirishni boshlaydi. Bu endi tashkilotchilik xulqini belgilari borligini bildiradi. Sekin-asta maktabgacha yoshdagi bola ish bosqichlarini farqlay boshlaydi.

Bola mustaqilligi shakllanishida O‘z-o‘zini nazorat qilish rivoji o‘ta muhim. Bu sifat fikrlashni erishilgan natija bilan solishtirish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda mehnatsevarlikning boshlanishi va tashkilotchilik mulkining tarbiyalashdagi muvaffaqiyatli natijalar ma’lum miqdorda oila jamiyati a’zolarining barchasini kelishilgan harakatlari va bir xil talablari bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Moreva N.A. Sovremennaya texnologiya uchebnogo zanyatiya. M., 2007
2. Yeroshima V.I. Organizatsiya metodicheskoy slujby v uchrejdeniyax professionalnogo obrazovaniya. «Innovatsii v obrazovanii»– 2010. – №5.



SHARQ MUTAFAKKIRLARINING IQTISODIY QARASHLARINING TA’LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Irisboyeva X.O‘

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” Ona tili va adabiyoti fani, bosh o‘qituvchi

Bugungi kunda jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta’limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog‘liq. Shu bilan birga ta’lim sifat samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Ta’limning globallasuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani, ayni paytda keng ko‘lamli axborotlar oqimi ta’lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish, kadrlar tayyorlashda yagona davlat talablari asosida o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash, pedagoglarga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish vazifasini amalga oshirish muhim vazifalardan biridir.

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotda o'quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirish yangi pedagogik texnologiyalar asosida interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi.

Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda o'quvchilar uchun informatsion savodxonlik ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimining o'rta bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq, mazkur ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, kasb-hunarli, ona Vatanga sadoqatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlaydigan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Shu bilan birga biz tarbiyalayotgan o'quvchilarimizda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirishimiz kerak. Buning uchun o'qituvchining o'zi iqtisodiy bilimga ega bo'lib, iqtisodiy dunyoqarashni to'g'ri talqin eta olishi lozim. Iqtisodiy dunyoqarash nima o'zi? Iqtisodiy dunyoqarash bu-umumiy iqtisodiy bilim, iqtisodiy qadriyatlar, e'tiqodlar, insonning iqtisodiy hayotga bo'lgan munosabatini, iqtisodiy hayotni tartibga soluvchi amaliy munosabatlar. Iqtisodiy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati, birinchi navbatda, muhim hayot muammolari bilan bog'liq iqtisodiy fikrlarning aniq bir yaxlitligi hisoblanadi: iqtisodiyot, iqtisodiy hayotning mohiyati, inson va jamiyatning iqtisodiy hayoti, inson hayotidagi va hokazolarda iqtisodining o'rni. Bu muammolar odamlarning, shaxsning hayotiy tajribasini umumlashtirishga asoslangan, ma'lum ma'naviy yuksaklikdan kelib chiqqan. Insonning iqtisodiy haqiqatga bo'lgan munosabatini O'rta asrlar markaziy Osiyoda yashagan Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy qarashlari misolida ko'rib chiqamiz. O'rta asrlarda iqtisodiy qarashni rivojlantirish yangi iqtisodiy munosabatlar davrida keng mintaqada sodir bo'lgan umumiy madaniy taraqqiyotning ajralmas qismi edi.

O'rta asrlar Markaziy Osiyoda iqtisodiy fikrning rivojlanishi bo'lib, keng miqyosda amalga oshirilgan madaniy taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblangan. Markaziy Osiyoning katta hududida yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish ro'y bergan. Ikki yoki uch asrdagi eng qisqa tarixiy davrda ko'plab xalqlarning qadriyatlarini o'ziga singdirgan noyob madaniyat butun dunyoda mashhur bo'ldi. Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning shakllanishi, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan mustahkamlash aloqalar iqtisodiy tafakkur yanada rivojlantirish uchun katta dalda berdi. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo sharqda ilg'or ijtimoiy fikrlarning asosiy markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xoc Hojib kabi olimlar asarlarida jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi masalalari aks etgan. Ularning falsafiy va ijtimoiy qarashlari katta qiziqish uyg'otgan.

Al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino va Al-Beruniyning ta'limoti insonning ehtiyojlari haqida fikrlardan iborat. Al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino va Al-Beruniyning inson ehtiyojlari ta'limotlari to'g'risidagi fikrlariga to'xtalamiz. Al-Farobiyning (873-950) qarashlariga ko'ra, jamiyatning shakllanishining asosiy sababi inson ehtiyojlariga qaratilgan. Ehtiyojning mavjudligi va unga erishish uchun mehnat qilish zarurligi shunday izohlangan, "Tabiatan har bir odam zarur narsaga muhtoj ekanini sezadi". Jamiyat shakllanishi uchun moddiy talablari ahamiyati haqida, so'z yuritadi. U jamiyat odamlar birlashishidan kelib chiqishini, ularning turli xil qarashlarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Moddiy buyumlarni ishlab chiqarishda mehnat va vositalarning rolini ta'kidlab, turli xil hunarmandchilikning mavjudligi, erkin mehnatni himoyalashga tarafdori ekanligi to'g'risida so'z yuritadi.

Jamiyatni shakllantirish uchun moddiy ehtiyojlarning muhimligi ahamiyatga ega edi. Markaziy Osiyoning taniqli mutafakkirlaridan biri, eng buyuk olim -va insonparvar Abu Ali ibn Sino falsafiy asarlari bilan bir qatorda, tibbiyot, mantiq, psixologiya doir muammolar bilan qiziqdi.

Inson ehtiyojlari uchun mehnatning ahamiyati va moddiy ishlab chiqarishdagi hal qiluvchi rollari haqidagi qiziqarli fikrlari mavjud. Ibn Sinoni iqtisodning ko'pgina masalalari qiziqtirganining alohida e'tiborini jamiyatning mavjudligining negizi deb hisoblagan qo'l san'ati bo'lgan. Uning iqtisodiy qarashlari va uy iqtisodi va psixologiyasi haqidagi risolalarida bayon etilgan.

Uy iqtisodi deb nomlanuvchi risolasida Ibn Sino quyidagi hunar turlarini tariflaydi:

- 1) oqilona hunarmandchilik (siyosatchilar va hukmdorlar);
- 2) oliy san'at asarlari (yozuvchilar, astronomlar, shifokorlar);
- 3) badiiy hunarmandchilik (rassomlar, haykaltaroshlar va boshqalar).

Uning fikriga ko'ra, "... kerak daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi muvozanatni qo'lga kiritish uchun mablag' ajratilishini hisobga olgan holda zaxiralarni shakllantirish lozimligi ta'kidlanadi".

O'z asarlarida Abu Rayhon al-Beruniyning (973-1048) fikricha insonlar turmush tarzining shakllanishida, mehnat hal qiluvchi rol o'ynashi haqida aytiladi. Beruniy Al-Farobiy va Ibn Sino ta'limotini o'rganib chiqib ishlab chiqaruvchi kuchlar jamiyatni shakllanishidagi omil ekanligiga to'xtalgan. Odamlarni birlashtirish zarurati u faqat birgalikda ishlash orqali, ular tabiat kuchlari bardosh mumkin tushunishdan iborat deb qaraladi. Uning qarashlarida mintaqa xalqlarining iqtisodiy tafakkurining rivojlanishi yotadi. Oziq-ovqat ehtiyojlarini ko'payishi bilan Al-Beruniy fikricha, pul vazifasi mahsulot ishlab chiqarilganga sarflanadigan mehnat mahsulotlar. Pulning rolini tushunish (ko'proq ish — ko'proq pul) kabi iboralarni keltiradi. Ayni paytda Al-Beruniy ham davlat funksiyalarini bajarishda davlat xazinasini tejash zarurligiga ahamiyat beradi.

Xulosa qilib, o'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tomonidan ilgari surilgan jamiyatni iqtisodiy rivojlantirish, masalalari, iqtisodiy tafakkur rivojiga munosib hissa qo'shgan ta'kidlash lozim. Bugungi kun talabidan kelib chiqib ta'lim berish jarayonida o'quvchilarimizning har

tomonlarni etuk inson bo'lib shakllanishlari uchun ma'naviy va iqtisodiy dunyoqarashni takomillashtirish zarur. Zero bu yoshlar bizning kelajagimiz va tayanchimizdir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-2016 y
2. В.Ф. Байнев. Мироззрение народа как стратегический экономический ресурс, фактор глобальной конкурентоспособности и устойчивого развития Новая экономика. – 2010. – №1. – С. 4-9.
3. В.Д. Камаева .Основы экономической теории под ред.– М: «Юнити» — 2005г. – 725с



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KASBGA YO'NALTIRISH

Isabekova D.Sh.

Nizomiy nomidagi TDPU 1 kurs magistranti
dilafruz.isabekova.87@mail.ru

Maqola annotatsiyasi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish ularni kasbiy dunyosiga hissiy munosabatini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Katta yoshdagi bolalarda turli faoliyat va kasblarda o'zlarining kuchli qobiliyatlarini ko'rsatish imkonini berishdir. Bunday bilimlarni olgan bola mehnat qobiliyatini rivojlantiradi, turli kasb-hunar egalari kattalar mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo'ladilar. Katta yoshdagi bolalar dunyoqarashi kengayadi, bolaning ma'lum bir kasbga bo'lgan qiziqish va mayllarining erta namoyon bo'lishiga yordam beradi.

Аннотация статьи: В дошкольном образовании важно ориентировать детей старшего возраста на профессию. Важно развивать у них эмоциональное отношение к профессиональному миру. Люди разных профессий с уважением относятся к труду взрослых. Мироззрение детей старшего возраста расширяется, помогая ребенку проявлять ранний интерес и склонность к той или иной профессии.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, munosabat, hissiy, rivojlantirish, mehnat, qobiliyat, kasb-hunar, mayl.

Ключевые слова: профориентация, отношение, эмоциональное развитие, труд, умение, профессия-ремесленное влечение.

Yurtimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish, bu

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-4312 da belgilab berildi.

Konsepsiyada maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarida, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligi, shuningdek, ularning ijtimoiy,shaxsiy,hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi ta’kidlandi.

Bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib rivojlantirish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kasblar bilan tanishtirib borish bolani o‘z vaqtida mustaqil hayotga jasorat bilan kirishi o‘z kasbiy faoliyat yo‘lini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishi ta’lim yo‘nalishining jihatlaridan biri mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadiga erishishga qaratilgan. Neverovich, D.B.Elkonin, V.G.Nechayeva, T.A.Markova, D.V.Sergeeva, A.A. Lyunblinskaya va boshqalar mehnat ta’limining mahalliy nazariyasiga asos solganlar. Uning mohiyati shundan iboratki, Maktabgacha katta yoshdagi bolalik davrida mehnat harakatlarining umumiy tarkibiy qismlarini (rejalashtirish, maqsadga muvofiq harakat qilish, o‘z harakatlarining natijalarini oldindan taqdim etish qobiliyati) shakllantirish mumkin va zarurdir. Leontyevning so‘zlariga ko‘ra, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda boshqa odamning faoliyatini baholash, o‘zini boshqalar bilan solishtirish qobiliyati paydo bo‘ladi. Bu yoshdagi kattalar dunyosiga va ularning faoliyatining turli-tumanlariga bevosita qiziqish mavjud.

Bolalar ko‘p vaqtlarini o‘ynashga sarflashadi. Binobarin, o‘yin katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar kasblari haqida g‘oyalarni asosiy vositasidir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kattalar kasblari bilan tanishtirish bevosita amalga oshiriladigan asosiy o‘yin turi rolli o‘yindir. Aynan maktabgacha ta’lim tashkilotining katta guruhida haqiqiy, mazmunli va boy rolli o‘yin ochiladi. Bu erda ular xayoliy vaziyat yaratadilar, o‘z rollarini o‘z zimmlariga olgan holda atrofidagi kattalar obraziga aylanadilar va uni o‘zlari yaratgan o‘yin muhitida bajaradilar.

Maktabgacha ta’limda katta yoshdagi bolalar kasbga yo‘naltirilgan o‘yinlarda faqatgina mehnat harakatlarini ifoda etmasdan balki kattalar munosabatlarini ham ham takrorlaydilar. Shuning uchun kattalar ishi haqidagi bilimlar bolalar bog‘chasining tarbiyaviy ishlarida yetakchi o‘rinlardan birini egallashi kerak. Bundan tashqari, bolalarni kattalar va individual kasblar ishi bilan tanishtirish alohida vazifa darajasida emas yaxlit organik jarayon sifatida amalga oshirilishi kerak.

Xulosa qilib aytsam, o‘yin orqali bolalarning turli kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini mustahkamlanadi va chuqurlashadi, mehnatga hurmat hissini tarbiyalanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarni kasbga yo‘naltirishda hozirgi zamon talabi bo‘lgan axborot texnologiyasi kommunikatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kasbga yo‘naltirishda tashkilot tarbiyachi pedagoglari ta’lim-tarbiyaviy faoliyatlari davomida, kasblarga oid, audio, video, DVD diskleri, televizor bir so‘z bilan aytganda, multimedia orqali ma’lumotlar berish har bir kasbga

tegishli bo‘lgan asbob-anjomlarni multimedia orqali ko‘rsatib tanishtirib borilsa, ularni kasb tanlashga bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortishiga va mustaqil kasb tanlashga yo‘naltirgan bo‘lamiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Reapublikasi Prezidentining qarori 2019 yil 8-may PQ-4312 “Konsepsiya”.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi.
3. <https://minikar.ru/uz/dengi/plan-po-proforientacii-dlya-doshkolnikov-iz-opyta-raboty>
4. WWW.lex.uz;
5. WWW.pedagog.uz.
6. F.K.Qodirova. “Maktabgacha ta’lim Pedagogikasi” 2008 yil



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI

Ismoilova Z.N.

Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

Mashhur Yunon donishmandi Aflotun baxt haqida zikr etib: “Inson uchun birinchi baxt uning sog‘lig‘i, ikkinchisi — go‘zallikdir” degan ekan. Darhaqiqat, salomatlik barcha boyliklar manbaidir. Nasl-nasabi sog‘lom va ma’naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog‘lom, baquvvat, iymone’tiqodli va sadoqatli bo‘ladiki, bu baxt ona-Vatanning shuhrati va qudratining zo‘r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt saodati uchun sog‘lom avlod kerak.

Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino “Badan tarbiya – sog‘likni saqlashda ulug‘vor usuldir” deydi, bu fikr “Kimki qilsa harakat – sog‘lig‘ida barakat” degan naqlni eslatadi.

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksizligini D.Adisson shunday ta’riflaydi: “Mutolaa aql uchun qancha zarur bo‘lsa, jismoniy mashqlar ham shuncha zarur”. Suqrot hakim esa: “Gimnastika yordami ila men badanimning muvozanatini to‘g‘rilab olaman” degan fikrni aytadi.

Jismoniy tarbiya to‘g‘risidagi ta’limot pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika fanining mazkur sohasiga qarashli turli hodisalarga ta’rif berilganda, “Badantarbiya”, “jismoniy madaniyat”, “jismoniy kamolot”, “jismoniy rivojlanish” degan asosiy tushunchalardan foydalaniladi.

“Jismoniy madaniyat” tushunchasi quyidagilardan iborat: 1) mehnat va turmushdagi ko‘nikmalarni (tartiblilik, kiyimlarning ozodaligi, xonalarning tozaligi) va gigiyenik rejimga doir odatlarni (faoliyat va dam olishning oqilona tartibi, uyqu, ovqatlanish gigiyenasi va hokazolar)ni; 2) tabiatning tabiiy sharoitlarida organizmni chiniqtirish (havo, quyosh va suv)ni; 3) jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o‘zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog‘lig‘ini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to‘la ma’nodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy – gigiyenik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan. Sog‘lom, jismonan baquvvat bolaning ish qobiliyati ham yuqori bo‘ladi, sharoitga oson moslashadi, har xil topshiriqlarni osonlik bilan tez bajaradi.

Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmui o‘rganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov va ular izdoshlarining organizm va muhit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta’limoti tashkil etadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar organizmining o‘ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o‘sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funksiyalari va sistemalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo‘ladi, shunga ko‘ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarga jismoniy tarbiya berishda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi:

Sog‘lomlashtiruvchi vazifalar. Bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash, organizmning shakl va funksiyalarini uyg‘un rivojlantirish, ish qobiliyatini oshirish, har xil tashqi ta’sirlarga chidamliligini kuchaytirish, uzoq umr ko‘rishini ta’minlash.

Ta’limiy vazifalar. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga xos bo‘lgan o‘ta qabul qiluvchanlikni, sharoitning o‘zgarishiga yengil moslashish qobiliyati bir qator ta’limiy vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, chunonchi: kerakli ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko‘z bilan chamalash)ni o‘stirish, to‘g‘ri qaddi – qomat, gigiyena ko‘nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish.

Boladagi harakat ko‘nikmalari (emaklash, yurish, yugurish, velosipedda uchish va h.k)ga nisbatan yengil shakllanadi va ular bolaning muhit bilan aloqasini osonlashtiradi. Bola chandada uchayotib qor, shamolning, suvda suzayotib suvning xossalari bilan tanishadi. Jismoniy mashqlar, gigiyena malakalarini egallash bilan bog‘liq bo‘lgan dastlabki bilimlar shakllantiriladi. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish jarayonida bolada tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot, hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash zarur.

Tarbiyaviy vazifalar. Bolalarda sport mashg‘ulotlariga muhabbatni, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalash lozim. Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushqoqlik, intizomlilik, kamtarlik, ko‘ngilchanlik va hokazo) va axloqiy fazilatlar (halollik, haqqoniylik, o‘rtoqlik hissi, o‘zaro yordam), jamoada shug‘ullanish malakasi, fizkultura asboblarini ehtiyot qilish, topshiriqni mas’uliyat bilan bajarishlarini tarbiyalash, shuningdek, ifodaviy fazilatlar

(botirlik, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yengishda sabotlilik, chidamlilik va boshqalar)ni namoyish qilish uchun juda qulay sharoit yaratiladi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardan iborat:

Rejim (kun tartibi). Bolalar hayotining rejimi– bu bedor yurish, uxlash, ovqatlanish, faoliyat xilma-xil turlarining har kuni muayyan izchillikda takrorlanib, oqilona almashinib turishidir. Muayyan vaqt ichida tartibning asosiy tarkibiy qismlari bir maromda va doimiy bo'lishi uning ajralmas xususiyatlaridir.

Oqilona tartib: 1) bedor yurish va uxlashning eng maqbul nisbati asosida qo'riladi, bu vaqtda boshmi-ya qobig'i uchastkalari o'rtasidagi vazifalar qayta taqsimlanadi, olingan axborot qayta ishlanadi; 2) aqliy va jismoniy ishlarning nisbati, ovqat hazm qilish maromini hisobga olish asosida qo'riladi. Tartibdan chetga chiqish darhol bolaning kayfiyatida, shu bilan birga uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Gigiyenik sharoitlar. Bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishi uchun gigiyenik sharoit (bino, maydoncha, jihozlar, kiyim – bosh, poyabzal) yaratish, bolalar hayotining ilmiy asoslangan rejimini (bo'lar oqilona ovqatlanish, harakatlarni rivojlantirish va organizmni chiniqtirish tadbirlarini o'z ichiga oladi) bajarish zarur. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarining doimiy nazorati, zaruriy profilaktik va davolash ishlarini olib borishi talab etiladi.

Bolalarning ovqatlanishi (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyatda o'tishi kerak. Bolalarda ovqatlanish bilan bog'liq bo'lgan madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash kattalardan ijobiy namuna ko'rsatishni talab etadi.

Uyqu. Bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda uyqu muhim ahamiyatga egadir. Uyqu miya katta yarimsharlarining normal ishlashi uchun zarur bo'lgan kuch-quvvatni tiklaydi. Chuqur va yaxshi, uzoq davom yetadigan uyqu nerv sistemasining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va odatlarni tarbiyalash. Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarga badanni ozoda tutishga, to'g'ri ovqatlanishga, atrof-muhitda tartib saqlashga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o'zaro madaniy munosabatlariga doir ko'nikmalar kiradi.

Bolalar muassasasi kun tartibida xilma-xil o'yinlarga alohida o'rin beriladi. Vaqtdan to'laqonli foydalanish uchun tarbiyachi o'yinchoqlar va qo'llanmalarni oldindan tanlab qo'yishi, bolalarni bajarish ko'nikmalarini tarbiyalashi zarur.

Sayr qilish har tomonlama tarbiyaviy ishlar uchun keng imkoniyatlar beradi. Sayr chog'ida, tabiat va ijtimoiy hodisalar kuzatiladi, bolalarning mehnat va o'yin faoliyati, sport mashqlari uyushtiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyaning quyidagi o'ziga xos vositalaridan foydalaniladi: 1) harakatli o'yinlar o'tkazilib, ularga eng ko'p o'rin beriladi; 2) asosiy gimnastika

(asosiy harakatlar, umum rivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari); 3) sport mashqlari (konkida uchish, changʻida yurish, suzish, velosipedda uchish); 4) bolalar turizmi.

Koʻrsatilgan vositalardan uygʻun birlikda foydalanish har tomonlama jismoniy rivojlanishni taʼminlaydi.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida (xavsizlikka taqlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari).T., "Oʻzbekiston".1997 yil.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi qarori.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi [qarori](#).

4. Oʻzbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qoʻyiladigan "Davlat talablari". 2018-yil 3-iyul, roʻyxat raqami 3032.



MAKTABGACHA TAʼLIM TASHKILOTI PEDAGOGIK KENGASHI BOSHQARUV ORGANI SIFATIDA

Ixtiyorova Oʻ.

Nizomiy nomidagi TDPU "Taʼlim tarbiya nazariyasi va metodikasi" maktabgacha taʼlim magistranti

Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga yoʻllagan murojaatida "Ilm va taʼlimning qadriga etib, davlatimizda ilm va taʼlim oʻrganish bilan muhit yaratilsa, bobolarimizga munosib hayot va kelajakni koʻra olamiz"- deya taʼkidlaganlar. Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek Oʻzbekistonning ertangi kuniga ishonchni mustahkamlash, ajdodlarga munosib boʻlish uchun islohotlarni ilmdan boshlash kerak.Chunki ilmsiz hech bir sohada natija boʻlmaydi. Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda qator farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi kompleks saʼy-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Barchamizga maʼlumki maktabgacha taʼlim taʼlim tizimining ilk boʻgʻini yaʼni asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohaga juda katta eʼtibor berilmoqda.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida 3 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan bolalarga taʼlim- tarbiya berib kelinmoqda. Taʼlim tarbiya jarayonini tashkillashtirish va bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga bilim berish albatta MTT tarbiyachilari zimmasiga yuklatilgan. Bu jarayonni nazorat qilish va tartibga solib turish maqsadida taʼlim tashkilotida pedagogik kengash oʻz faoliyatini olib boradi. Pedagogik kengash MTT ning boshqaruv organi hisoblanib, tashkilotning ish

rejasi va pedagogi yuklamasini belgilaydi, MTTning ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi va ta'lim dasturlarini amalga oshirish natijalarini baholaydi. Bundan tashqari, pedagog xodimlarning malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish, ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish masalalarini muhokama qiladi, tashkilot xodimlarining moddiy va ma'naviy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi, rahbar va pedagoglarning hisobotini tinglaydi.

Pedagogik kengashga rais, uning a'zolari va kotiba saylanadi. Kengash rejasiga kiritilgan masalalar mas'ul ishchi guruh tomonidan bir oy oldin ogohlantirilgan holda o'rganib chiqiladi va o'rganish natijalari yuzasidan tayyorlangan ma'lumotlar, qaror loyihasi pedagogik kengash a'zolariga o'n kun oldin topshiriladi. Ular tomonidan ko'rib chiqilib, taklif va tavsiyalar asosida qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. pedagogik kengash bayonida har bir masaladan so'ng, muddati belgilangan holda qaror chiqariladi, qaror ijrosi bo'yicha mas'ul shaxsga yuklatilib, mazkur qarorlarning ijrosini bajarilishi keyingi pedagogik kengash boshlanishida ijrosini sifatli ta'minlanishiga ko'ra nazoratga olinadi.

O'rganilgan masalalarga oid barcha tahlil natijalari va hujjatlar yig'ma jildi shakllantiriladi. Pedagogik kengash bayonnomalari daftari tikilgan, sahifalangan, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi darkor.

Shu o'rinda MTTning pedagogik kengashlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari qatoriga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Tartibga solish faoliyati. Ta'lim tashkilot ishining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlashda, tashkilotning ta'lim dasturi mazmunini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi va bolalarga ta'lim tarbiya berish jarayonini nazorat qiladi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotining moliyaviy xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish. Tashkilot faoliyatini hamda uning rivojlanishini ta'minlash uchun byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etishga yordam beradi.

3. Ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining shikoyatini ko'rib chiqadi va yuzaga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etadi.

4. MTTda rivojlanish, ta'lim olish uchun sog'lom va xavfsiz sharoitlarni yaratadi.

Darhaqiqat, shuni aytishimiz joizki, pedagogik kengash tarkibiga uslubchi, tarbiyachilar, musiqa rahbari, MTTga xizmat qiladigan shifokor, hamshira, kasaba uyushmasi, ota-onalar qo'mitasi hamda vasiylik kengashi raislari kiradi.

Pedagogik kengashda ishtirok etgan ota-onalar nafaqat ta'lim xizmatlarining mijozlari va iste'molchilari sifatida, balki, tashkilotning kollegial boshqarilishida ishtirok etish imkoniyatiga ham egadirlar.

Adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev Oliy majlisga murojati. Xalq so‘zi gazetasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi 155-sonli buyrug‘i. 30.08. 2019.
3. Sh. Sodiqova Maktabgacha pedagogika. Tafakkur bo‘stoni Toshkent-2013. 248-250-bet
4. www.pedagog.uz.
5. www.istedot.uz



MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING TARBIYAChILARINI KASBIY INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMI

Ibragimova G.N.

Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani

E-mail: ibragimova_gulsanam@mail.ru

Tel:90-117-55-50

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» qarori qabul qilindi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘z-o‘ziga borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali o‘qitishning shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Yangi usullar yoki innovatsiyalar insonni har qanday faoliyatiga xosdir, shuning uchun, tabiiyki o‘rganish, tahlil qilish va tatbiq etish predmetiga aylandi. Innovatsiyalar o‘z-o‘zlaridan paydo bo‘lmaydi, ular ilmiy tadqiqot izlanishlar natijalari, alohida bolalar va butun maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik jamoalarning ilg‘or malaka asosida shakllanadi. Bu jarayon stixiyali bo‘la olmaydi, u boshqaruvga muhtojligi bilan belgiladi. I.Ojegovning lug‘atida yangi so‘ziga quyidagicha talqin beradi: «Yangi-dastlab yaratilgan yoki qilingan, endi avvalgisini o‘rniga vujudga kelgan, qayta ochilgan yaqin o‘tmishga yoki bugungi kunda taalluqli, hali yetarlicha o‘rganilmagan, noma’lum»^[1].

Falsafiy ensiklopedik lug‘ati rivojlanishga yo‘naltirilgan, qonuniyatlarga ega va zarur o‘zgarishlar sifatida ta’riflagan. «Innovatsiya» tushunchasi lotinchadan tarjima qilinganda «yangilanish, yangilik yoki o‘zgarish» ma’nosini beradi. Bu tushuncha dastlab XIX asrning tadqiqotlarida paydo bo‘lib, bir madaniyat elementlarini (tarkibiy qismlarini) ikkinchisiga kiritilishi ma’nosini anglatgan. XX asrning boshlarida yangi bilim sohasi – innovatika, yangiliklar haqidagi fan vujudga keldi, uning doirasida moddiy ishlab chiqarish sohasidagi texnik yangiliklarning

qonuniyatlari o'rganila boshlagan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik innovatsion jarayonlar G'arbda 50 yillarda maxsus tadqiqot predmeti bo'lib qolib, Rossiyada esa so'nggi yigirma yillikda amalga oshirila boshladi.

Ta'kidlash lozimki, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning bir qismi, innovatsion faoliyatni faqatgina eksperimental faoliyat bilan bog'laydilar. Tadqiqotchilarning boshqa qismi esa. (S.F.Bagautdinova va boshqalar) «innovatsion faoliyat» tushunchasini kengroq talqin etib, uning tarkibiga «ilg'or pedagogik tajribani kiritish, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotda qo'llash, eksperimental faoliyat, innovatsilarni tatbiq etish»larni kiritishadi»[2].

Ushbu tushunchalar turli yo'nalishlarda keng foydalanib, eng dolzarb ta'lim jarayoni tashkillashtirish texnologiyalarining mazmunidir. So'nggi yillarda yangi tushunchalar paydo bo'ldi: innovatsion ta'lim muassasasi, innovatsion oliygo'ha va h.k. innovatsion menejment, innovatsion faoliyatni boshqarish, boshqarish innovatsiyalari va boshqalar. Quyidagi turkumlarni batafsil ko'rib chiqamiz: innovatsion ta'lim muassasasi, innovatsion faoliyatni boshqarish, boshqarish innovatsiyalari, innovatsion menejment.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING INNOVATSION FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Bo'lajak tarbiyachilarning yangiliklarni o'zlashtirishga nazariy tayyorligini ta'minlash

Bo'lajak tarbiyachilarning yangiliklarni o'zlashtirishga motivatsion tayyorgarligi

Yangi amaliy g'oyalar yoki tadqiqotlarning paradigmasi va ishlanmalari

Tarbiyachilarning samarali tajribasini o'rgatish va ommalashtirish

Ko'p qirrali ilmiy uslubiy ishlar tuzilishini takomillashtirish

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ma'lumotlar bazasini yaratish

2-sxema. MTT ning asosiy faoliyat yo'nalishining ko'rinishlari

Ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion faoliyat o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bo'lajak tarbiyachi shaxsida innovatsion ko'nikmalarni shakllantirish uchun avvalo sohaga doir yangiliklarni o'zlashtirishga nazariy, motivatsion tayyorgarlik hamda zamonaviy texnologiyalar va ma'lumotlar bazasini shakllantirish lozim. Shuning bilan birga yangi amaliy g'oyalar yoki tadqiqotlarning paradigmasi va ishlanmalarini yaratishga nisbatan kuchli intilish, malakali tarbiyachilarning bilim, ko'nima, tajribalarini ommalashtirish hamda mavjud metodik bazani yangiliklar bilan boyitishdan iborat.

«Maktabgacha innovatsion ta'lim tashkiloti bu – faoliyatida quyidagi xususiyatlar mavjud: ommaviy ta'lim muassasalaridan farqli bola hayotini tashkillashtirish modeli ishlab chiqiladi va tatbiq etiladi, pedagog shaxsini ijodiy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mehnatining o'zgacha tarkibi ustida izlanadi, uning faoliyatining yangi usullari va vositalari sinalladi[1].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi innovatsion faoliyatning barcha tuzilmani qismlari o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq. Muhimligi va zarurati shundaki, ularning barchasi parallel va bir vaqtda amalga oshirilishi, ta'lim muassasasining samarali taraqqiyotiga imkon yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mustaqil organizm sifatida juda murakkab tuzilmaga ega, uning tarkibiga quyidagi komponentlar kiradi: maqsadlarning yig'indisi, ularning amalga oshirilishini ta'minlovchi faoliyat; hamjamiyatni tashkil qiluvchi va unda ishtirok etuvchi kattalar va bolalar hamjamiyati; ularning birlashtiruvchi munosabatlar; ichki va tashqi muhit; barcha komponentlarni yaxlitlikka integratsiyalashuvini ta'minlovchi boshqarish, uning maqsadli funksiyalari va taraqqiyoti. Bu ma'noda yangiliklar barcha komponentlarga taalluqli bo'lishi, shu bilan birga turli tavsifga ega bo'lgan innovatsion jarayonni hayotga uyg'otadi. Aynan shuning uchun olimlar barcha yangiliklarni, turfa xil metodologik asoslarga tayanib ma'lum turlarga ajratadilar.

Har qanday pedagogik yangilik makon va vaqtda taraqqiy etuvchi jarayon bo'lib, o'zida ob'ektiv qonuniyatlarga va tadqiqotlarning amaliy tajribalariga tayangan holda g'oya va texnologiyalarni jamlaydi. Ko'p holatlarda yangiliklar alohida pedagoglar anglangan yoki intuitiv ravishda progressiv tendensiyalarni qo'llab, vujudga kelayotgan to'siqlarni yengishga intilishadi. Biroq, yangilik taraqqiy etishi uchun, uning ilmiy ishlanmasi va asoslarini tatbiq etish uchun rasmiy qo'llab-quvvatlash zarurdir.



IMPROVEMENT OF SPEECH SKILLS IN THE CONTEXT OF SOCIAL CULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE DIRECTION OF NOT PHILOLOGICAL EDUCATION

Ilxamova I.N.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Aniq va tabiiy yo'nalishlarida xorijiy tillar"
kafedrasi mudiri*

Tursunbayeva H.H.

Nizomiy nomidagi TDPU Professional ta'lim fakulteti talabasi

Annotation: In Higher Education, the direction of the not philologist education leads to the organization of the students for the purpose of improving their socio-cultural, professional speech competency and improving the skills of using the knowledge gained by the students in practice. The use of innovative technologies on an integral, integrated basis for the effective organization of the educational process is today's requirement. It is necessary to educate the modern developed society a

mature generation who meets the requirements of scientific, spiritual, sustainable development, cares for the future of our republic. The main purpose of teaching a foreign language at all stages of education in the Republic of Uzbekistan is the formation of communicative competence of learners in a foreign language for daily, scientific and professional activities in a multicultural world. In this article, the not philologist views and comments on the improvement of speech skills in the context of social cultural competence of students in the direction of Education.

Keywords: *not philologist, higher education, educational system, speech skills, culture, social competence, professional speech activity, development, student learning process.*

The communicative competence of the students of the direction of education of the not philologist is the ability to apply the knowledge, skills and skills acquired in the process of communication in the field of the studied foreign language. Linguistic competence refers to the acquisition of knowledge about the material of language (phonetics, lexical, grammatical) and skills in the types of speech activities (listening, speaking, reading and writing). Sociolinguistic competence makes it possible to choose the desired linguistic form, method of expression, depending on the situation of a speech by a speaker, communicative purpose and desire. Sociolinguistic competence includes socio-cultural competence, which implies the ability to present the national characteristics of authentic speech: knowledge of the customs, values, rituals and other national-cultural characteristics of the country in which it is living, as well as comparing the language with the country in which it is studied. In addition, the cultural-social competence of the students of the direction of the education of a not philologist is the acquisition of knowledge and experience in order to conduct effective activities in a certain field of science. Competency (Latin competence - compatible, harmonious, capable, educated) is a quality and views inherent in a person who has a comprehensive knowledge in some field, and therefore is considered significant, authoritative. The composition of the competency includes such qualities as pure professional knowledge, skills and skills as well as Initiative, cooperation, the ability to work in a group, communicative skills, real evaluation, logical thinking, sorting and using information.

Content of the competences are oriented the not philologist is an education aimed at the formation of the competences to apply the knowledge, skills and skills acquired by the students of the direction of education practical in the personal, professional and social activities. In order to become a mature specialist at the moment, it is necessary to improve the competence of professional speech in foreign languages, especially in English. Therefore, in the educational process in higher education, great attention is paid to the professional speech compensation of students. It is of great importance to adequately prepare a foreign language teacher for this specialist in the system of methodical training, to give him knowledge of a particular form of culture, the language of instruction that is an intermediary of thinking and is carried out by a person, the country of the language in which

the sickle is coming, the principles, methods and tools Each of these components is accompanied by certain theoretical knowledge, which bases and regulates a certain variety of professional activities. Sufficient professional qualifications and professional culture are a necessary condition for the implementation of pedagogical activity. In order to improve the professional, cultural and social speech competence of the students of the direction of education, the not philologist must have the maximum knowledge, be able to speak competently about the language, have the appropriate psychological and pedagogical and methodological knowledge, general cultural training. Therefore, the effectiveness of teaching a foreign language is determined by many factors, the most important of which is that the teacher can use the language that is being taught in the process of communicating with the students in the lesson. The teacher's speech plays a very big role in the implementation of communicative and educational function. When students have a communicative culture to the extent that they interact with one another, their skills are demonstrated. However, practice shows that students ' speaking activities in the lesson are still a weak side and cause difficulties in solving communication problems. It turns out that this is the result of insufficient preparation for oral communication.

The main task of the professional activity of the teacher is to give the students certain knowledge. Therefore, the speech of the teacher should be organized and presented so that the information transmitted by him is fully and without difficulty perceived by the students. Undoubtedly, it is necessary to draw the attention of the students to the fact that as a speech of the future professional it is necessary that their speech is distinguished by a certain high and clarity, accuracy and expressiveness. The teacher's speech is aimed at the audience, it is audiovisual. What the teacher is talking about now, students perceive not only by ear, but also by visual channels of perception.

In conclusion, the main essence of English language education, based on the professional speech competency of the students of the direction of education of the not philologist, is to direct the students ' knowledge, skills and skills in the process of training, which is organized from the English language, to the improvement of the competences for the application in personal life, as well as in The objectives of teaching in the competency approach should be self-awareness by the students, understanding the ways of achieving the educational goals in the educational process, increasing the educational and cognitive activity of the students, the adaptation of the students to society and independent life through self-development as a person, the promotion of socialization, etc.

References:

1. Decree of the president of the Republic of Uzbekistan on measures to ensure more effective organization of the process of acquisition of rights over land parcels and other immovable property as part of the South Caucasus pipeline expansion project

2. Jalalov J. Foreign Language Teaching Methodology. Teacher -2012. 79-118 p
3. Irgasheva, U. R. (2021). Formation of Professional Competencies of the Students in the Process of Studying the Educational Program" STEAM-Technologies in Education". International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 7(6), 76-80.p
4. Ботирбекова Г.А. Which method is the best in teaching EFL? - Молодой ученый, 2019 25-27 p
5. Irgasheva, U. R. (2021). Improving students 'professional speech competence based on steam technologies in teaching english at technical universities. Journal of Central Asian Social Studies, 2(02), 81-87.P



NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHIDAGI TALABALARNING IJTIMOIIY MADANIY KOMPETENTLIGINI KONTEKSIDA NUTQ KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ilxamova I.N.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Aniq va tabiiy yo'nalishlarida xorijiy tillar"
kafedrasi mudiri*

Umirova V.S.

Nizomiy nomidagi TDPU Professional ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda nofilolog ta'lim yo'nalishidagi talabalarning takroriy so'rovlar, bahonalar va boshqalar orqali qiyin vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyatini anglatadi, ijtimoiy madaniy kompetensiyani rivojlantirishda o'rganilayotgan chet tilidagi kommunikativ vaziyatda tushunmovchilik paydo bo'lganda. Ushbu standartda diskursiv kompensatsiya pragmatik kompensatsiyaga kiritilgan. Bu vakolat og'zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskursiv kompetensiya og'zaki yoki yozma nutqda izchillikni saqlagan holda lingvistik signallarni tushunish va talqin qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Ushbu maqolada, nofilolog ta'lim yo'nalishidagi talabalarning ijtimoiy madaniy kompetentligini kontekstida nutq ko'nikmalarini takomillashtirish haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Nofilolog ta'lim yo'nalishi talabalari, ijtimoiy kompetensiya, madaniy kompetensiya, nutq ko'nikmalari, ta'lim tizimini rivojlantirish.*

XXI asr boshlarida tadqiqotchilar tomonidan "kasbiy kompetensiya" tushunchasi asosida: bashoratli-faol, ya'ni faoliyat sohasida kasbiy (maxsus) kompetentlik ajratildi; o'quv fani bo'yicha maxsus kompetentlik tayanch kompetentlikni amalga oshirishga xizmat qildi; predmetli — uslubiy kompetentlik o'quv fani doirasida shakllangan o'quv predmetli kompetentlik o'rganildi.

Kompetentlik-fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalardan kundalik hayotda, amaliyotda uchraydigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish.

Ta'lim tizimidagi bugungi ijtimoiy muhitda ta'lim muhim masala hisoblanadi. Nofilolog ta'lim yo'nalishi o'quvchilarga bilim berishda axborotlashtirish jarayonlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Oliy ta'limni zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish, fanlar bo'yicha ta'lim resurslarini takomillash qisqartirish, talabalarining elektron resurslar bilan faol aloqasini ta'minlash, mustaqil ta'limni amalga oshirish, na o'zini baholash, kerakli ma'lumotlarni tezkor izlash va undan kelib chiqadigan muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Shu munosabat bilan ta'lim sifatining ko'rsatkichlaridan biri bu kompetentlikdir. Ingliz tilida "kompetensiya" tushunchasi tom ma'noda "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mohiyatan nazariy bilimlardan faoliyatda samarali foydalanish yuqori darajadagi kasbiy mahorat, mahorat va iste'dodni namoyon eta olish demakdir. "Kompetensiya" so'zi "to complete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "raqobatlashish", "raqobatlashish" degan ma'noni anglatadi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, bu "raqobatlashish qobiliyati" degan ma'noni anglatadi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalar kompetensiya, kompetensiya o'ta murakkab, ko'p partiyali, ko'pgina fanlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalardir. Shuning uchun ham uning talqinlari hajmi va tarkibi jihatidan ham, ma'no jihatidan ham, mantiqiy ma'no jihatidan ham farq qiladi.

Nofilolog ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilarning madaniy kompetentligi nafaqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'lishi, balki o'quvchilar egallagan bilimlarni safarbar etishi va uni muayyan vaziyatlarda amaliyotda qo'llay olishi bilan ham ajralib turadi. Unga o'zi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llash tajribasi sifatida qarash lozim. Bunday ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni hayotiy faoliyati doirasida vazifalarni hal qilishga va turli muammolarni hal qilishga o'rgatishdan iborat. Jahon ta'lim amaliyotida "kompetensiya" tushunchasi ta'limning intellektual va malakaviy mazmunini birlashtirish, ta'lim mazmunini sharhlash g'oyasi bilan birga madaniyat va faoliyat sohalarida keng ko'nikma va malakalarni singdirish xususiyatiga ega.

Madaniy kompetentlik nofilolog ta'lim yo'nalishi talabalarining nutq malakalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. U talabalarining nutq qobiliyatini va o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini shakllantirishda qo'llaniladi. Afsuski, shuni ta'kidlash kerakki, nutqning ranglanishi bilan talaba nutqida tez-tez ishlatiladigan intonatsiya vositalari bir xil. Ma'lumki, "nutqning ta'sirchanligi nafaqat uning ma'nosi va maqsadiga mos kelmaydigan noo'rin lug'at vositalaridan foydalanganda, balki talabaning mimikasi, aytilayotgan narsalar haqidagi imo-ishoralari, umuman, uning xatti-harakatlari mazmunga mos kelmasa ham kamayadi." Shunday qilib, talabalar bilan nutqiy o'zaro munosabatlarning malakali qurilishi o'qituvchiga ta'lim jarayonida pedagogik salohiyatdan iloji boricha samarali foydalanishga yordam beradi.

Talabalarining professional nutq kompetensiyasini takomillashtirish uchun material tanlashga to'xtalib o'tamiz. O'quv vazifalarini uch turga bo'lish mumkin:

1) reseptiv (boshqa shaxsning kommunikativ xulq-atvorining xususiyatlarini diqqat, kuzatish, tahlil qilish va tushunish uchun vazifalar);

2) reproduktiv (transformatsiyasiz ko'payish);

3) samarali (ma'lum muammoli vaziyatda o'z kommunikativ faoliyati).

Yosh mutaxassisning shakllanishida ustoz ibratlari alohida o'rin tutadi. Bu ta'limning oliy bosqichida kasbiy nutqni rivojlantirishda ko'rib chiqilayotgan masala bilan bevosita bog'liqdir. Shunday qilib, dars davomidagi nutqlarda, tinglovchilarga murojaat qilganda, xuddi shu iboralarni takrorlashdan ko'ra, inglizcha nutqning asl namunalaridan foydalanish imkoniyatlari ko'p.

Og'zaki nutqni mashq qilish uchun ingliz tili darslarida talabalarga kasbiy nutq aloqasini o'rgatish o'qituvchining kommunikativ faoliyatining asosiy funktsiyalarini bajarish uchun talabalar o'zlashtirishi kerak bo'lgan haqiqiy nutq materialini o'z ichiga olishi kerak. Talabalarni kasbiy nutq mashg'ulotlariga tayyorlash faqat tavsiya etilgan mashqlarni bajarish bilan cheklanmaydi. O'quvchilarning kasb mahoratini saqlash, mustahkamlash va yanada takomillashtirish tadbirlarini tashkil etish lozim. Kasbiy nutq kompensatsiyasini oshirish bo'yicha doimiy va maqsadli ish zamonaviy o'qituvchining muvaffaqiyatli ishining kalitidir. Nofilolog ta'lim yo'nalishi talabalarining nutqi haqli ravishda ta'lim jarayonida eng samarali hisoblanadi. Ayniqsa, chet tili darslarida o'quvchining mahorati so'zning bilim darajasiga bevosita bog'liq. Buning uchun diksiya va lug'at ustida doimiy va maqsadli ishlash, o'z fikrini aniq ifodalash va ularning to'g'riligini tasdiqlovchi dalillar talab etiladi. Yuqoridagilarning barchasi darsda o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini maqsadga muvofiq o'rgatishda qanday rol o'ynashi lozimligini belgilab beradi. Ko'rinib turibdiki, chet tili o'qituvchisining kommunikativ-pedagogik faoliyati o'ziga xos mazmun bilan to'ldiriladi. Qanday material o'quvchilarni kasbiy nutq muloqotiga o'rgatishi mumkin, murakkab nutq malakalari nimaga undash, javob berish, nazorat qilish va tartibga solish qobiliyatini o'z ichiga oladi? Bizning fikrimizcha, asosiy nuqta nutqiy muloqotni o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan, o'quvchilarga o'quv jarayonini boshqarish, nutq birliklarini tanlash imkonini beradigan material berishdir.

Xulosa qilib aytganda, nofilolog ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy nutqiy muloqotni birinchi kursdan boshlab o'rgatish kerakdek tuyuladi. Og'zaki nutq va fonetika bo'yicha amaliy mashg'ulotlar "pedagogik texnika" ning bunday tarkibiy qismlarini shakllantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, masalan: ovoz, diksiya, intonatsiya va boshqalar. Buning sababi, birinchi yilda taqlid, xor ishiga, she'r o'qishga katta e'tibor beriladi. Bu talaffuzni yaxshilashga yordam beradi, ritm tuyg'usini, aniq diksiyani va ovozning balandligini, ya'ni chet tili o'qituvchisining muvaffaqiyatli ishlashi uchun sharoit yaratadigan texnikani rivojlantiradi. Keyingi kurslarda fonetika, og'zaki nutq,

metodika fanlaridan amaliy mashg'ulotlarda kasbiy nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ishlarning uzluksizligini kuzatish zarur.

Adabiyotlar:

1. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" o'quv- uslubiy majmua. Toshkent-2018.yil
2. Shodiyeva O.Q. Nutq o'stirish uslubiyoti . "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent. 2008-yil.
3. Ro'zboyeva E.M., Ahmedova Q.A. Nutq o'stirish metodikasi. Toshkent. 2004 yil
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. – Toshkent. O'qituvchi, 2004- yil.
5. G'ulomov A., Qobulova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari . Toshkent, "O'qituvchi". 2001 y.



MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Yarova G.F.

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ongida ekologiya to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish va ularga tabiatni asrab-avaylash, uni boyliklaridan oqilona foydalanishga o'rgatish haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, tabiat go'zalligi, tabiat hodisalari, nabotot olami, ekskursiya, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami.

Аннотация: В данной статье рассказывается о том, как сформировать знания об экологии в сознании дошкольников и научить их беречь природу и разумно ее использовать.

Ключевые слова: Экологическое образование, экологическая культура, красота природы, явления природы, растительный мир, экскурсии, растительный мир, животный мир.

Annotation: This article describes how to form knowledge about ecology in the minds of preschool children and teach them to conserve nature and use it wisely.

Keywords: Ecological education, ecological culture, natural beauty, natural phenomena, flora, excursions, flora, fauna.

Bizni o'rab turgan o'simlik va hayvonot dunyosi tiriklik manbaidir. Shu bois insoniyat azal-azaldan o'zini tabiatning ajralmas bir bo'lagi deb hisoblab, uni muhofaza etishni o'zining oliy burchi deb biladi. Bu insoniy burchni his etish ekologik madaniyatni anglatadi. Ekologiya inson yashashi uchun zarur bo'lgan birlamchi manbalar – suv, havo, yer, ya'ni tabiatdir. Darhaqiqat, inson tabiat mahsulidir. Tabiatni asrash esa O'z-o'zini asrash demakdir. Yildan-yilga atrofimizda ekologik

muammolar ko‘payib bormoqda. O‘ylamay qilinayotgan ayrim ishlar tufayli tabiat ozor chekmoqda. Yashab turgan joyimizni, atrof-muhitni toza saqlash, tabiat ne‘matlaridan to‘g‘ri, oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, umuman, tabiatni avaylash masalasi davlatimiz tomonidan eng dolzarb masala sifatida qaralsa-da, xalqda bunga e‘tibor susaygandek. Bunga erishish uchun yosh avlodda kichik yoshdanoq ekologik madaniyatni shakllantirib borish maqsadga muvofiq. O‘simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to‘g‘ri o‘sib shakllanishida, tabiatda bo‘ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o‘rganib voyaga etishida katta manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga “Ona-tabiat” haqidagi umumiy tasavvurlar (yer, suv, osmon, quyosh, o‘simlik va hayvonot dunyosi) berish orqali ulardagi ekologik ongni shakllantiramiz. Ulardagi ekologik madaniyatni shakllantirishda suvni asrash tajribalar, “Toza havo –tanga da‘vo” mashqlari, quyosh nuridan organizmga kerakli vitaminlar olish orqali chiniqtirish mashqlari orqali tabiat ne‘matlarini asrab-avaylashga o‘rgatamiz. Ekologik ta‘lim-tarbiya umumiy ta‘lim-tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida boshqa faoliyatlar bilan birgalikda olib borilishi lozim. Ekologik ta‘lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Ekologik tarbiyada tarbiyalanuvchilar o‘zlarining maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini, yashaydigan muhitlarini, shahar va qishloq ko‘chalarini ko‘kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlarini parvarish qilish kabi ishlarda kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega. Kichik yoshdan bolalarga tabiatga zarar yetkazmaslikka, tabiat go‘zalliklaridan zavqlanishga, atrof-muhitni sevishtirishga o‘rgatish hozirgi kunda juda muhim hisoblanadi. Ekologik mazmundagi mashg‘ulotlarda, joy nomlari, yovvoyi va uy hayvonlari, turli o‘simliklar, meva nomlari ingliz va rus tillarida o‘rgatilsa bu bolalarning chet tilini o‘rganishida juda katta yordam beradi. Chunki, bolalarda ko‘rib esda saqlash qobiliyati yuqori bo‘ladi. Bu bolalarda chet tillarini o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi. Tarbiyachining bolalarga ekologik ta‘lim va tarbiya berishida xalqimizning o‘ziga xos milliy tarbiyasidan o‘rinli foydalanish yaxshi samara beradi.

Shu o‘rinda ota-onalar va pedagog-tarbiyachilar uchun yosh avlodning ekologik tarbiyasini mustahkamlashda zarur bo‘lgan ayrim ko‘rsatmalarni keltirib o‘tamiz:

-farzandlarimizda atrof-muhitga mas‘uliyat hissini uyg‘otish, yer, suv kabi tabiat ne‘matlaridan oqilona foydalanishni anglatish va buni shaxsiy namuna orqali ko‘rsatish;

-suv, havo, tuproqni ifloslantirmaslik, o‘simlik va hayvonot olamiga g‘amxo‘rlik sifatini shakllantirish;

-atrof-muhit tozaligiga, obodonchilik ishlariga o‘rgatish;

-tabiat qo‘yniga sayohatlar uyushtirish, hayvonot va nabotot olamining go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish hissini singdirish;

-ekologik mavzularda suhbatlar uyushtirish, ona tabiat va uning noz-ne‘matlari haqida ma‘lumotlar berish, shuningdek, yana boshqa yo‘l-yo‘riqlar bilan oilada ekologik tarbiyani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish har birimizning oliy burchimizdir.

Xullas, bolalarning tabiat hodisalari, o‘simliklar va hayvonlar, inson mehnati, Ona Zamin va uning ne‘matlari haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish hamda boyitish, shuningdek, o‘simliklar o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko‘nikmalar hosil qilish ta‘lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutqi rivojlanadi, so‘z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar ozodaligini saqlash, atrof-muhitga oqilona ekologik munosabatda bo‘lishni ta‘minlash uchun ta‘lim tashkilotlarida turli tadbirlar:

- Gullar bayrami;
- Hosil bayrami;
- Mehrijon bayrami;
- Shanbaliklar;
- Hasharlarni tashkil etish o‘zining samarali natijalarini beradi.

Bundan tashqari oilada va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarga berilayotgan ta‘lim mazmunini ochib berishda tarbiyachilar amaliy misollarni ekologik bilimlarga bog‘lab tushuntirish maqsadga muvofiq.

Ota – onalar va pedagoglar jamoasining tabiatga bo‘lgan munosabatlari bolalarning tabiatga munosabatini tarbiyalashda shaxsiy namuna bo‘lishlari lozim.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, maktabgacha ta‘lim tizimida tarbiyalanayotgan bolalar ongida ekologiya va tabiat to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirish va uni amaliyotda qo‘llashni joriy etish lozim. Bundan tashqari, bolalarga tabiatni asrab-avaylash, uni boyliklaridan oqilona foydalanishga o‘rgatish maqsadida ularni botanika va hayvonot bog‘lariga ekskursiyalarga olib borish, noyob hayvonlar va o‘simlik turlari bilan tanishtirish lozim.

Adabiyotlar:

1. Otaboyev Sh., Nabiyev M. Inson va biosfera. -Toshkent:“O‘qituvchi”, 1995.
2. Abdulla Avloniy. Tanlagan asarlar. -Toshkent:“Ma‘naviyat”, 1998.
3. Xolliyev I., Ikramov A. Ekologiya. –Toshkent: “Talqin”,2012. 215-bet.
4. F.R. Qodirova, SH.Q. Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur” -T., 2019

MUSIQA MADANIYATI DARSINING FAOLIYAT TURLARI TASNIFLARI, XUSUSIYATI HAMDA TUZILISHI

Yuldoshev U.Y.

Nizomiy nomidagi TDPU, "Musiqqa madaniyati" fakulteti dotsenti v.b., (PhD)

Musiqqa madaniyati darsining asosiy xususiyati shundaki, musiqqa ta'limida faoliyatlar mustaqil jarayon bo'lishi bilan birga, ularni bir-biri bilan uzviy aloqada, o'zaro bog'liq ravishda olib borish kerak. Ushbu jarayonlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, ularni ijodiy shaxs bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Musiqqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

1. U musiqqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal — xor mashg'ulotlari, musiqqa savodi, musiqqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

2. Musiqqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni "tili" bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'zi bilan, tasviriy san'at ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan ifodalansa, musiqqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi.

3. Musiqqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz [2; 33-b.].

4. Musiqqa bolalarga aktiv emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqqa darsidan bolalar hordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar.

5. Musiqqa darsi boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqqa darsini hayot bilan bog'lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham, boshqa fanlardan farq qiladi.

Musiqqa darsining strukturasi asosiy faoliyat turlaridan: musiqqa tinglash, musiqqa savodi va xor bo'lib qo'shiq kuylashdan iborat.

O'rta sinflarda musiqqa darsi 3 ta asosiy faoliyatlardan tuziladi:

1. Xor bo'lib kuylash
2. Musiqqa savodi
3. Musiqqa tinglashdan iborat

Boshlang'ich sinflarda esa dars faoliyatlari 5 ta:

1. Xor bo'lib kuylash.
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish
5. Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lishdan iborat bo'ladi.

Xorda kuylash — musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o'qituvchining bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi nerv hujayralari ham faol ishga tushadi. U qo'shiq kuylash davomida o'quvchilarda ijobiy his tuyg'ularning faolligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi.

O'qituvchi sinf imkoniyatlarini hisobga olgan holda yil davomida o'rgatish uchun 10 — 12 ta qo'shiq tanlaydi va ularning vokal-ijrochilik darajasi va badiiy mazmuni maktab hayotiga mosligini inobatga olib, ularning ma'lum tartibga soladi.

Musiqa savodi – ma'lumki, umumiy ta'lim maktabi musiqi darslari tarkibidagi musiqi savodi o'zining musiqi haqidagi kompleks bilimlar doirasidan iboratligi bilan farq qiladi. Ashula aytish jarayonida o'rganiladigan nota savodi elementlari bilan birga musiqi savodi turkumiga musiqi janrlari, ularning shakl va tuzilishlari, ifoda vositalari, xalq va kompozitorlik musiqasining mohiyati haqidagi tushunchalar, ijrochilik turlari, cholg'u asboblari va ularning tovush temblari va boshqalar kiradi. Bu musiqi madaniyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Musiqa tinglash – o'quvchilarning musiqiy taassurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didini tarbiyalashda darsning musiqi tinglash faoliyati katta rol o'ynaydi. Darsning bu faoliyat turida o'quvchilar musiqi o'qituvchisi ijrosida, eng nodir musiqi asarlarining namunali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakka navozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar, san'atning katta dargohiga ilk bor qadam tashlaydilar. Musiqaning san'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va hayot go'zalligini voqelik va xatti — harakatlardagi qaytarilmas, ko'z ilg'amas qirralarini musiqiy ohangdagi rang — barang bo'yoqlarda idrok qiladilar va chuqurroq his etadilar [6; 98-b.]. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rnatilgan qolishi uchun bu kuylarning ohanglarini o'quvchilar bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. Ayniqsa, asar musiqi asbobi ijrosida tinglanib, so'ng kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida 2 — 3 marta eshittirish, har gal kuylarning yangi — yangi dinamik qirralari bilan o'quvchilarni tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o'quvchilar musiqaning turli janrlari — marsh, qo'shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo'ladilar. Darsning har uch asosiy qismi alohida-alohida ajralib qolmasligi,

aksincha ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda darsning mazmuni bir butun bo‘lishini ta’minlashi lozim [4; 78-b.]..

Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda darsdagi biror bir faoliyat birinchi o‘ringa chiqib qolishi mumkin. Musiqa darsining tuzilishi asosan, musiqiy ijrochilikni tashkil etadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, birgina ashula aytish uchun nota yozuvi, dinamikasi, shtrixlarini bilish zarurdir. Jamoa bo‘lib kuylash jarayonida o‘quvchilarda jamoatchilik, do‘stlik, birdamlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonda butun sinf jamoa bo‘lib, “bir yoqadan bosh chiqarib” faol ishtirok etadilar. Shu tufayli musiqiy qobiliyati sust bo‘lgan o‘quvchilar faol va yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo‘lgan o‘quvchilarga ergashadilar.

O‘tkazilgan dars o‘quvchilarni ham, o‘qituvchilarni ham qanoatlantirishi uchun ma’lum darajada umumiy ba’zi bir talablarga javob berishi kerak. Dars predmet kalendar dasturidagi o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, maqsadi aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Dars o‘tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo‘lgan bilim, iqtidor va ko‘nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko‘nikmalarning erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma’qul bo‘ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo‘lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo‘yiladigan didaktik talablardan yana biri shuki, beriladigan o‘quv materiali sistemali ravishda osondan-qiyinga, oddiydan — murakkabga, o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak [5; 44-b.]..

Mavzuni rejalashtirish asosida dars o‘tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo‘lishi, dars o‘z vaqtida boshlanib, o‘z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o‘quvchilar ongli intizomi ta’minlanmog‘i lozim. Dars tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o‘quv — texnik va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Darslar juda ham turli — tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo‘lib, darslarni bir marta doimiy ravishda mavjud bo‘ladigan ko‘rinish tarzida rejalashtirish va o‘zgarmaydigan qotib qolgan namuna asosida o‘tkazaverish mumkin emas.

Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o‘tilgan omillar qatorida mazkur sinfda ishlashning haqqoniy shart – sharoitlari, shuningdek, o‘qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan hatto ular bitta fan, bitta mavzu yuzasidan teng, yonma — yon sinflarda o‘tkazilganda ham o‘zining o‘ziga xos jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Darsda har doim o‘qituvchining maxsus “Pedagogik yondashuv tarzi”ni ko‘rish mumkin. Masalan: kombinatsiyalangan dars quyidagi ko‘rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish, o‘quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o‘rganilgan material yuzasidan o‘quvchilardan so‘rash, o‘qituvchi tomonidan yangi materialning bayon etilishi, o‘rganilgan materialni mustahkamlash, uyga topshiriqlar, vazifalar berish [1., 3.].

Darsning yutug'i va uning natijalari nafaqat o'qituvchining tayyorligiga, balki o'quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog'liq bo'ladi. Afsuski, ushbu masalaga ko'pgina o'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e'tibor bermaydilar.

O'qituvchi darslarda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni bolalarga hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqe, obro'sini saqlagan holda yondashishini namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan holda olib borishi lozim [3; 7-b.]. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaati shakli ham farqsiz bo'lmasligi kerak. O'quvchilarni o'z ism — shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqroqdir. Pedagog sifatida o'zligini namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o'qituvchi tomonidan o'z hissiyatini aks ettirishni inkor etmaydi: u darslarda faqatgina ziyrak va mehribon, quvnoq, hushyor, ko'nglidan bo'libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilingan qiyofada bo'lishi ham kerak. O'qituvchining pedagogik optimizmi, uning o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'quv faoliyatini tashkil etishning turli — tuman shakllaridagi darsda ularning hamjihatligidagi izlanuvchanligini tashkil etish, o'quvchilarning ishlariga haqqoniy baho berish, ularga doimiy zarur yordam ko'rsatishga tayyor turishlik -bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi, o'quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

O'quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o'zaro uyg'un kuylashini mustahkamlashda ba'zan ularni (sinf sahnasi)ga chiqarib kuylatish samara beradi. Qo'shiq tugal o'rganib bo'lingach, haftada yoki chorak oxirida o'quvchilar "Sinf konserti" beradilar. Sahnaga chiqish, sinfdoshlari orasida o'z o'rnini topib turish, kuylaganda bir — birlarini his qilish va o'z joyiga borib o'tirish kabi sahna madaniyatiga qat'iy amal qila borish o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga va xulqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xullas, musiqa darsi o'zining aktiv psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi va dars jarayonida olib boriladigan faoliyat turlari xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S. Современные тенденции в подготовке педагогических кадров // Академик Siddiq Rajabov o'qishlari: Talabalarning IV an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari / Ped. Fanlari doktori, professor D.I.Ro'ziyeva umumiy tahriri ostida. 2018 yil 18 may. – Toshkent: TDPU, 2018.
2. Vaxromyev V.A. Muzikaning elementar nazariyasi. Тошкент, O'qituvchi, 1980. 268 б.
3. Karimova D. Pedagogik maxorat asoslari. "Musiq", – T.: 2008. – 168 b.
4. Saipova D.Yu. Musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish (boshlang'ich sinflar misolida): Ped fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2007.
5. Sharipova G. Musiq o'qitish metodikasi. – T.: Musiq, 2000. 233 b.
6. Utanov U.Q. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini

NUTQ NUQISONIGA EGA BO‘LGAN BOLALARNI OILADA TARBIYALASH MASALALARI

Yusupova M.S.

Nizomiy nomidagi TDPU, “Logopediya” kafedrasida magistranti

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta‘minlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir.

Bolalik inson hayotidagi go‘zal va baxtli davrdir, uni turlicha so‘zlar bilan ta‘riflash mumkin: baxtli, beg‘am, beg‘ubor va h.k., lekin ba‘zi bolalar uchun u og‘ir. Avvalo ular aybdor bo‘lmagan sabablarga ko‘ra jismoniy va aqliy kamchiliklar, nuqsonlar rivojlanmaslik natijasidir. Bu vaziyat otalarning ruhiy holatiga juda kuchli ta‘sir qiladi. Ba‘zi hollarda oilaviy baxtsizlikka, tushkunlikka tushib qolish holatiga sabab bo‘ladi.

Korreksion – tarbiyaviy jarayonga ota – onalarni maksimal darajada jalb etish va ularga professional yordam berish zarurligi kundan – kunga muxim masala bo‘lib bormoqda.

Rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni tarbiyalovchi ota-onani qo‘llab – quvvatlashni, oila atrofdagi olam ichida hamda u bilan o‘zaro munosabat usullari endi shakllanayotgan davrda amalga oshirish lozimligini to‘g‘ri anglash bir qator masalalarni hal etishni ko‘zda tutadi. Ulardan muhimlari quyidagilardir.

- Bolani rivojlanishidan nuqsonini oila ichidagi o‘zaro munosabatiga ta‘siri;
- ota-onalarni o‘z farzandlari bilan muloqotida kompetentligi,
- tarbiya metodlarida xabardor bo‘lishi va ularni to‘g‘ri qo‘llay olishi,
- muammolarni birgalikda hal etilishida mutaxassislarining o‘rni va roli kattadir.

Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarni korreksion-rivojlantiruvchi ta‘limning individual dasturlariga jalb etishning pedagogik va tashkiliy usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan sanaladi. Ota – onalarni “Biz va bizning farzandimiz” tizimidagi adekvat tarbiyaviy pozitsiyasini shakllantirish maqsadidagi mutaxassis – defektologni oila bilan ishlash jarayonining samarali yo‘nalishlarini modellashtirishga harakat qilinmoqda.

Nutqida nuqsoni mavjud bolani oilada tarbiyalash va rivojlantirishda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning shakli va mazmuni ularni logoped (defektolog) lar bilan hamkorlik darajasi bilan aniqlandi. Ota-onalar bilan ishlashni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga tayanamiz:

- Ota-onalarning defektologik yordam olishga tayyorlik darajasini hisobga oluvchi differensiallashgan yordam;

- Ota-onalar tomonidan qayta aloqaning mavjudligi;

- Korreksion o'qishning turli xil davrida olib boriladigan ishning u yoki bu shakli (ko'rinishi)ning ustuvorligi.

Hamkorlikni tashkil etish rejasini amalga oshirishda eng katta qiyinchilik qiziqishi kam bo'lgan ota-onalarda paydo bo'ladi. Bunday oilalar bilan shug'ullanganda eng samarali ish shakliiy ta'sir etishning individual ko'rinishi bo'lib hisoblanadi, jumladan individual tarzda maslahat (konsultatsiya) berishdir. Individual maslahat berish bir necha bosqichda olib borildi. Har bir bosqichda o'ziga xos va mos masalalar amalga oshirilib, o'ziga xos usullardan foydalanildi.

Birinchi bosqich vazifasi-hamkorlikni rad etgan va unga salbiy qarashda bo'lgan ota-onalar bilan ochiq va ishonchli munosabat o'rnatish. Shu maqsadda individual maslahatning maqbul shakllaridan biri bo'lgan suhbatdan foydalanildi. Suhbat mazmuni shu bosqich vazifasi asosida olib borildi. Boshlang'ich qisqa suhbatda ota-onalarning pedagogik qobiliyati pastligi va ularni noto'g'ri xatti-harakatlarini tanqid qilishdan voz kechiladi. Birinchi uchrashuvda ota-onalar xatoliklarini sezmaganday bo'lishga va ular ishonchini oqlashga harakat qilinadi.

Agar ota-onalarning o'zlarini davolanishlari kerak bo'lsa ular bilan o'zaro va to'liq ishonch hosil qilish jarayoni qanchalik uzoq muddatli va qiyin ekanligi nazarda tutiladi va vaziyatga qarab yondashiladi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan individual ishning ikkinchi bosqichi maslahat-tavsiyanoma ko'rinishida olib boriladi nutq nuqsonini og'irligiga qarab rejalashtiriladi.

Ota-onalarga mavjud qiyinchiliklarni oldini olish va uni yo'qotish nutq kamchiligini va bolaning psixik xususiyatlarini, ehtiyojiga uning yoshi va maxsus qiziqishlari hisobga olgan holda o'z vaqtida yaxshilab tushuntirish juda foydalidir. Aks holda qabul etilgan pedagogik usullarni joriy etishda o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Ota-onalar qo'llashda bolani tashxisi, ijtimoiy muhit va korreksion-rivojlantiruvchi ishning usullarini egallagan bo'lishlari kerak. Oilasi a'zolari ham ta'lim va tarbiya ishlaridan chetda turmaydi va bu ishlarga faol qatnashadilar.

Tavsiyalar maxsus ta'limga ehtiyoj sezgan bolalar bilan korreksion-ta'limiy ishlarni oilada olib borish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, uni rivojlanishda orqada qolgan har qanday yoshdagi (ilk yoshdan maktab yoshtgacha) va har qanday nuqson turiga ega bo'lgan bolalarga nisbatan qo'llash mumkin. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bola rivojining barcha asosiy sohalarini qamrab olishi kerak: nutqiy, kognitiv, ijtimoiy-iqtisodiy, motor va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, shuningdek davolash va tibbiy rehabilitatsiya.

Individual rivojlantiruvchi dastur quyidagi vazifalarni hal etadi:

- tashxisi vazifalar: alohida funksional tizimlarning shakllanib etilish muddatlari turlicha ekanini hisobga olgan holda bolaning psixofizik holatini muttasil va har tomonlama o'rganib borish;

- tibbiy va ijtimoiy xavf-xatarlar omillarining bola rivojlanishiga ta'sirini baholash;

- bolaning individual ta'lim davridagi holatlari istiqbolini avvaldan belgilash;

- korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar: kamchilikni yengish va o'rnini to'ldirish, bolani ijtimoiy atrof muhitda moslashuviga erishish;

- ta'limiy vazifalar: bolalarni ijtimoiy tajribani o'zlashtirish usullariga o'rgatish, ularning bilish faolligini rivojlantirish, har bir yosh davri uchun xos bo'lgan bolalar faoliyatining barcha turlarini shakllantirish;

- tarbiyaviy vazifalar: ijtimoiy muhitga moslashtirish, bolaning oilada mustaqilligini oshirish, maktabgacha yoshdagi bolaning faoliyati va axloqida ma'naviy-ahloqiy mezonlarni tarkib toptirish, shuningdek bolada ijobiy insoniy fazilatlarni tarbiyalash.

- bilish faoliyati bo'limiga tevarak-atrof bilan tanishtirish, matematika hamda o'yin, mehnat, rasm, applikasiya kabi faoliyat turlari bo'yicha mashg'ulotlar kiradi;

- nutqni rivojlantirish bo'limiga nutq nuqsonini bartaraf etish, rivojlantirish, o'stirish va erkin muloqotga o'rgatish;

- motor rivojlantirish bo'limiga ertalabki gimnastika va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, harakatli o'yinlar kiradi;

- ijtimoiy-hissiy bo'limga bayramlar, musiqa mashg'ulotlari va boshqa tadbirlar kiradi;

- o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish bo'limiga ijtimoiy-maishiy xizmatga yo'altirish va mehnat mashg'ulotlari kiradi.

Musiqaviy tarbiya ishlari quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: musiqani tinglash, kuylash, raqsga tushish, musiqa asboblarni chalish.

Demak, mutaxassis yordami bir tomondan bolani korreksion – pedagogik ta'lim olishiga, ikkinchi tomondan ota-onalarni uz farzandlari bilan hamkorligini samarali usullarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan hamkorligini shakllantirish yo'llari quyidagicha.

Mutaxassislarni oila bilan ishlash tizim mazmuni, maqsadi vazifalari tarbiyalovchi ota-onalar bilan samarali ishlash formalari haqida to'xtalamiz.

Oilalar bilan mutaxassislar (logoped, defektolog, tarbiyachi, psixolog, o'qituvchi) individual yoki yalpi majlislarda uchrashadilar. Bola rivojlanishni individual dasturi tuziladi. Bu ikki yo'nalishda olib borildi. Bola ta'limning individual dasturi quyidagilarni ko'zda tutadi. Kattalarga qiziqishni tarbiyalash ijtimoiy tajribaning egallash usullarini shakllantirish; rang, shakl bo'yicha

oriyentirovka qilish malakasini rivojlantirish, o‘yin faoliyatiga qiziqishni tarbiyalash umum va mayda motorikani takomillashtirish hamda rivojlantirish, nutqni tushunish rivojlantirish, nutqni faol egallash malakasini shakllantirish.

Ota-onalarni farzandlari bilan hamkorligini shakllantirish bo‘yicha individual dastur quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Tarbiyaning faol va ishonchli usulini shakllantirish, psixofizik rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni kichik yoshdagi bola bilan predmet-o‘yin faoliyatini tashkil etishga ota- onalarni o‘rgatish. Shundan kelib chiqqan holda pedagog kuzatish malakasini shakllantirish, bolalar tarbiyasida ota-onalar kompetentli darajasini oshirish ota-onalarni farzandi bilan o‘zaro hamkorligini rivojlantirish ota-onalarni bola ta‘limning individual dasturi bilan ishlashga o‘rgatish. Ota – onalar burchagida ular uchun foydali axborot beriladi. Unda tashkiliy tartibdagi ma‘lumotlar: guruh tarkibi, pedagoglarning aniq ism – familiyalari, kun tartibi, mashg‘ulotlar jadvali bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bu kabi ma‘lumot ota – onalarga bolalarning maktabgacha muassasada bolalarning hayoti haqida aniq ma‘lumotga ega bo‘lish imkonini beradi. Odatda, ota – onalar burchagida guruh pedagoglari tayyorlagan yoki gazeta – jurnallardan maqolalar shaklida taqdim etilgan tarbiyaning turli yo‘nalishlariga oid pedagogik tavsiyalar bo‘ladi. Bu yerda ota – onalar uchun foydali bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya va ta‘limiga oid kitoblar, yangi maxsus adabiyotlarni joylashtirish maqsadga muvofiq. Shu yerning o‘zidan bolalarning oiladagi tarbiyasiga oid ota – onalarning qiziqarli qo‘llanmalari, kundaliklari, yozuvlari joy olishi mumkin.

Ota – onalar bilan ishlarni olib borishda izchillik, tizimlilik, ularning imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim. Logoped va ota – onalarning o‘zaro tushunishi, hamkorlikdagi ishtiroki va faolligi rivojlantiruvchi va korreksion ishlarning umumiy natijasini ko‘p jihatdan belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Мо‘minova L.R., Аюпова М.У. Логопедия. Т., 1993 у.
2. Филичѐва Т.Б., Чиркина Г.В. Коррекционного обучение и воспитание детей 5-летнего возраста с общим недоразвитием речи. – М.: 2011.

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА ПЕДАГОГЛАРНИГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA MOHIYATI

Zaripova M.G‘.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrasi magistratura
yo‘nalishi 1- bosqich talabasi*

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hukumati ta‘lim sohasidagi bir qator me‘yoriy hujjatlar orqali o‘zining ustuvor siyosatini amalga oshirmoqda. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida uzluksiz ta‘limning barcha bosqichlari uchun istiqbolga yo‘naltirilgan mazmunini belgilab

olib, o'quv-biluv jarayonini sifatli Davlat ta'lim standartlari, modernizatsiyalashgan o'quv dasturlari hamda darsliklar bilan ta'minlanmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni hayotga tatbiq etish davomida zamon talablariga javob beradigan, barcha jabhalarda mamlakatimizni izchil rivojlanishini ta'minlash shart-sharoitlariga mos keladigan butun dunyoda e'tirof etilgan uzluksiz ta'limning tizimi yaratildi.

Respublikamizning Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim — tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. O'qituvchi o'quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak" — deb ta'kidlagan edi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflangan[2].

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog'liqligini N.V.Kuxarev shunday ta'riflaydi: "Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o'qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to'plami".

A.K.Markova o'qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o'qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentlik o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o'z mehnatida qo'llashni bilishi kerak

Kompetentlik – bu biror bir ishni samarali qila olish va ma'lum bir kasbda qo'llaniladigan standartlar bo'yicha bajara olish qobiliyati.

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni etishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Pedagog tarbiyachining kasbiy–pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta'minlash zarur.

Har qanday pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish shu jumladan, pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida tinimsiz ishlash va O'z-o'zini rivojlantirish, zamonaviy bilimlarni egallashi, o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholashi, yuksak pedagogik mahoratga ega

bo'lishi orqali aniqlanadi. Va ular ikki guruhga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlarini va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida O'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi. Ular:

- ta'lim-tarbiya jarayonida yuz xatti-harakatlarini boshqarishi (mimika, pantomimika);
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) ekanligi;
- nutq mahoratini (nafas olish, ovozni boshqarish. nutq tempi) bilishi va o'z nutqida qo'llay olishi.

Pedagogik mahoratning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishidir

Hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini dastlabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyasi tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni avvalo talaba yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobat bardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash avvalo kelgusida ham ta'lim va tarbiya beradigan dargohidan salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. N.Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Sayfurova, A. Turayev. (2015). Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. – B. 120.
2. Toxtaxodjaeva M.X. (2010). Pedagogika. Darslik. Toshkent. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti.
3. Muslimov N.A. (2004). Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish.

MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI INDIKATORLARINI AMALIYOTGA JORIY ETISH MAZMUNI

Mamatjonova U.O.

Sergeli tumani 599-DMTT tarbiyachisi

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, bu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, malakali pedagog va tarbiyachilar bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari, metod hamda texnologiyalarni tatbiq etish, bu sohada o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish orqali bolalarni har tomonlama intellektual rivojlantirish muhim kasb etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasida "...bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash"¹¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifani

takomillashtirish ijrosi bo'yicha maktabgacha ta'limda bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, uning ilmiy-metodik ta'minotini yaratish masalalari maqsad qilib olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Ta'lim tizimining ilk bosqichi – maktabgacha ta'lim tizimi mazmuni Davlat talablari hamda "Ilk qadam" o'quv dasturi vazifalarini bajarishdan iborat muhim ijtimoiy buyurtmani ijro etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga dastur bo'yicha 3-7 yoshlik davridan boshlab aniq fanlardan ilk tasavvur-tushunchalar beriladi. Ta'lim sifatining risoladagidek bo'lishini ta'minlash pedagogdan bir qator talablarga mos ravishda faoliyat olib borishni talab etadi. Bu jarayonni xolis baholash uchun pedagog faoliyatiga quyidagi mazmundagi talablarni belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Masalan, pedagogning ish hujjatlari mavjudligi –dastur mavzulariga mos ravishda ish rejasi, kuzatuv-tahlillar va tashxis olib borish. Kundalik o'yin va mashg'ulotlarga tayyorgarligi–kun davomida tashkil etiladigan o'yin-mashg'ulotlar ishlanmalari va borishi (tartibi) aks etgan daftar. Ko'rgazmali va tarqatma materiallar mavjudligi – rejalashtirilgan o'yin- mashg'ulotlarning samaradorligini ta'minlovchi vositalar tayyorlash.

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони

• Guruhda bolalar faoliyati uchun zarur muhitning yaratilganligi bolalarning qiziqishlari, intilishlari, individual va yosh xususiyatlari hisobga olingan faoliyat muhiti mazmunan aniq fanlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi. Ta’limning zamonaviy texnologiyalarini keng qo‘llash–ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar: Axborot Kommunikatsiya Texnologiyalari, bolalarning faollashtirishning turli zamonaviy ko‘rinishlari: musobaqa, munozara, testlar, bilish- o‘yinlari va hokazolardan foydalanish. Davlat talablari va dasturni bilish, amalga tatbiq etish–pedagog o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan guruh bolalar yoshi yuzasidan dastur va davlat talablari mazmunini yaxshi egallagan bo‘lishi shart. Turli tanlov va ko‘riklarda ishtirok etish – ta’lim muassasasi va undan tashqarida mavzu yuzasidan tashkil etiladigan tanlov- ko‘riklarda imkon darajasida ishtirok etishi kerak. Ta’lim sifatini ta’minlashga qaratilgan o‘z ustida ishlashning tashkil etilganligi – pedagog ma’lum mavzu va yo‘nalish bo‘yicha muntazam ravishda o‘z ustida ishlashi lozim, buning uchun “Ustoz-shogirdlik” maktablarida saboq olish, mustaqil o‘rganish, muassasa va undan tashqarida o‘zaro tashriflar qilish. Ota-onalar o‘rtasida pedagogik tashviqot olib borish –Guruh ota-onalarining pedagogik va psixologik bilimlaridan kelib chiqib, turli vositalar orqali ularning bilimlarini takomillashtirishga yordam berish. Bolalar shaxsining psixologik jihatlarini hisobga olinishi – bolalarning aniq fanlarga qiziqishini hisobga olib, ularga individual yondashuvni amalga oshirishi kerak. Bolalar bilimni kuzatish, natijalarni belgilash orqali jarayonga pirovard baho berish –har yarim yillik natijalariga ko‘ra bolalarning o‘tilgan mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini kuzatib, tashxis qilingan holda, ular bilan kelgusidagi ish mazmuni belgilab olinadi. Jamoada pedagogik jarayonda ishtirok faolligi– pedagog o‘z jamoasida tashkil etiladigan pedagogik kengashlar, seminar mashg‘ulotlari va tanlovlarda o‘z mulohazalari, ish tajribasi xulosalari bilan muntazam ishtirok etib turishi lozim. Bolalarning ta’limning keyingi bosqichidagi o‘zlashtirish monitoringini o‘rganish – pedagog ta’lim bergan bolalarining keyinchalik boshqa yosh guruhida yoki maktabda ta’lim jarayonida qanday o‘zlashtirayotganidan xabardor bo‘lib tursa, o‘z faoliyatida yo‘l qo‘ygan xatolari va qo‘lga kiritgan yutuqlarini tahlil qila oladi. Iqtidorli bolalarni ajratib, ularni tegishli qo‘shimcha ta’limga rag‘batlantirish — bolalarga aniq fanlardan berilgan ta’lim natijasida aniqlangan iqtidorli bolalarga alohida e’tibor berib, zarur hollarda ularni maxsus yoki chuqurlashtirilgan ta’lim beruvchi muassasalarga yo‘llash lozim.

• Ma’naviy – axloqiy jihatlarni shakllantirishda, o‘z navbatida, bolalarning kitobga nisbatan ijobiy munosabatini ham tarkib toptirishga e’tibor berish muhim. Kitobni ehtiyotlash, uni avaylash, toza qo‘l bilan ushlab, bukmasdan tutish, har yerga tashlamaslik, uni boshqalarga ham berib turish kabi odatlarni o‘z vaqtida shakllantirish uchun bola bilan bevosita ishlaydigan, uni tarbiyalaydigan katta yoshli kishilarga alohida mas’uliyat yuklanadi. Zero ular bolalarda shu malaka-odatlarining to‘g‘ri shaklanishida namuna bo‘lishlari, o‘z xatti–harakatlariga doimo mas’ul bo‘lishlari talab

etiladi. Shunda bola kichik yoshdan kitobni avaylash, uni ehtiyotlab varaqlash, mazmunini qayta-qayta eslash, kattalardan yana takror o‘qib yoki hikoya qilib berishlarini so‘rashni o‘rganadi.

• Ochiq mashg‘ulotlar tashkil etish – pedagog o‘z faoliyatini taqqoslash, tahlil qilish imkoniga ochiq mashg‘ulotlar jarayonida ega bo‘ladi. Fikr almashadi, munozara qiladi, xulosalar belgilaydi. O‘zaro tashriflarda ishtirok etish- tajriba o‘rganish va o‘rgatish imkoniga ega bo‘ladi. Tahlil qiladi va baholaydi. Malaka oshirishga e‘tibor berish – pedagogning asosiy faoliyatlaridan biri bo‘lib, o‘z bilimini boyitish, malakasini takomillashtirish, kelgusidagi ish mazmunini belgilash imkoniga ega bo‘ladi.

Tavsiyalar: Bolalarning ta‘limning keyingi bosqichidagi o‘zlashtirish monitoringini o‘rganish maqsadida maktab pedagogik jamoasi bilan hamkorlik rejasini tuzib chiqish, har yarim yillik natijalarini qiyoslash.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni

2. Sh.M.Mirziyoyev. Yoshlarning ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. 2019 y.

3. Ik va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari 2018 y.

4.«Ilk qadam» Davlat o‘quv dasturi Toshkent. 2018 y.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Марасулова Д.Н.

преподаватель, ТГПУ имени Низами

The article talks about the use of interactive technologies in teaching preschoolers a foreign language. Among the technologies that ensure the effective implementation of the goals of teaching preschoolers, one can single out the use of interactive games that help speed up the learning process, increase the interest of preschoolers in a foreign language, and improve the quality of mastering the material.

В статье говорится об использовании интерактивных технологий при обучении дошкольников иностранному языку. Среди технологий, которые обеспечивают эффективную реализацию целей обучения дошкольников можно выделить применение интерактивных игр, способствующих ускорению процесса обучения, росту интереса дошкольников к иностранному языку, улучшению качества усвоения материала. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘rgatishda interfaol texnologiyalardan foydalanish haqida so‘z boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish maqsadlarini samarali amalga oshirishni ta'minlaydigan texnologiyalar orasida o'quv jarayonini tezlashtirishga, maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tiliga qiziqishini oshirishga va materialni o'zlashtirish sifatini oshirishga yordam beradigan interfaol o'yinlardan foydalanishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Ключевые слова: интерактивное обучение, технологии, методы, приёмы, иностранный язык, дошкольное образование, игра,.

Дошкольное образование на современном этапе требует поиск новых путей для повышения качества образования дошкольников. В настоящее время отмечается значительный подъем интереса к обучению иностранным языкам в дошкольном возрасте, что во многом объясняется инновационными процессами, происходящими в экономической, социальной и внешнеполитической деятельности нашего государства.

Дошкольный возраст особенно благоприятен для начала изучения иностранного языка, дети этого возраста отличаются особой чуткостью к языковым явлениям. Организованная образовательная деятельность по английскому языку с использованием интерактивного обучения отличаются разнообразием, повышенным интересом дошкольников к иностранному языку, эффективностью.

Интерактивное обучение – это специальная форма организации познавательной деятельности. Она подразумевает конкретные и прогнозируемые цели. Одна из таких целей состоит в создании комфортных условий обучения, при которых обучаемый чувствует свою успешность, свою интеллектуальную состоятельность, что делает продуктивным сам процесс обучения. Интерактивное обучение означает взаимодействие педагога и обучающихся. Следует отметить, что роль преподавателя второстепенна при таком общении. Главной функцией педагога становится контроль над процессом обучения.

Выяснив суть термина «интерактивное обучение», необходимо охарактеризовать те методы и приемы, посредством которых интерактивное обучение реализуется на учебных занятиях по иностранному языку.

Интерактивный метод обучения – это длительный способ взаимодействия между преподавателем и обучающимися, в результате которого происходит передача и усвоение знаний, умений и навыков, предусмотренных содержанием обучения с помощью взаимодействия обучаемых друг с другом и преподавателем, находясь в режиме беседы, диалога с одним из объектов процесса обучения. Под интерактивным приемом понимается кратковременное взаимодействие между преподавателем и обучающимися, направленное на передачу и усвоение конкретного знания, умения, навыка [2, стр.125]. Метод включает в себя несколько приемов. Прием – это составная часть метода.

Выделим основные цели обучения иностранному языку дошкольников. С точки зрения И.Л. Шолпо главными целями в обучении дошкольников иностранному языку являются: формирование у детей первичных навыков общения на иностранном языке; умения пользоваться иностранным языком для достижения своих целей, выражения мыслей и чувств в реально возникающих ситуациях общения; создание положительной установки на дальнейшее изучение иностранных языков; пробуждение интереса к жизни и культуре других стран; воспитание активно-творческого и эмоционально-эстетического отношения к слову [5, стр.67]. Таким образом, учитывая выше изложенное в дошкольном возрасте на занятиях по ИЯ необходимо использовать интерактивные методы и приемы обучения для более эффективного и качественного обучения, в частности игры, которые относятся к методам и приемам интерактивных технологий.

В детском саду изучение иностранного языка – это не учеба, а любимая игра. Игра – это главный мотивационный двигатель ребёнка, тот методический инструмент, который обеспечивает готовность к общению на иностранном языке. Обучение языку в игровой форме даёт возможность проявить себя каждому ребёнку, потому что находчивость и сообразительность помогают преодолеть трудности в усвоении нового материала [3, стр.156].

Большую помощь педагогам при обучении дошкольников английскому языку оказывают интерактивные игры. *Интерактивные игры* – отличный помощник в образовательном процессе ребенка, они вызывают у детей: познавательный интерес; способствуют снятию напряжения, утомления; могут служить средствами развития речи; развивают мелкую моторику, память и внимание, понятия формы, цвета и величины, воображение и творческие способности, элементы наглядно-образного мышления, работоспособность дошкольников.

Преимущество интерактивных игр в том, что их можно использовать на любом этапе в организованной образовательной деятельности, как при изучении нового материала, так и при повторении и закреплении материала, расширяя возможности педагога в выборе материалов и форм обучения английскому языку, делая занятия яркими и увлекательными, эмоционально насыщенными. Интерактивные игры при обучении английскому языку помогают:

- формировать правильное произношение, развивать звуковую культуру речи, активный словарь у дошкольников;
- развивать фонетическое восприятие (*звуки, ударение, ритм, интонация*), лексический словарь, грамматический строй речи, связную речь (диалогическую и монологическую), элементарные коммуникативные навыки общения на английском языке.

Существует несколько видов интерактивных игр для дошкольников:

развивающие игры — направлены на развитие познавательных способностей, эмоционального и нравственного развития, развития воображения. В них нет четко

выделенных дидактических задач – они являются инструментами для творчества, самовыражения ребенка;

обучающие игры — ребенку предлагается в игровой форме решить ту или иную дидактическую задачу. Сюда относятся игры по обучению иностранному языку, на формирование у детей элементарных математических представлений;

логические игры — направлены на развитие логического мышления ребенка дошкольника. К таким играм относятся головоломки с одной или несколькими задачами, которые должен решить ребенок.

Применяя интерактивные игры в организованной образовательной деятельности по английскому языку, повышается мотивация у детей к обучению, дети учатся новым формам сотрудничества, формируется рефлексия ребенка, оценка своих достижений [5, стр. 125].

Чтобы интерактивное обучение дошкольников не причинило вреда для здоровья необходимо соблюдать все гигиенические нормы при взаимодействии ребенка с компьютером, телевизором, интерактивной доской, осуществлять содержательный отбор игр и систематично проводить физкультминутки и гимнастику для глаз. Всё это делает занятие на английском языке с дошкольниками ярким, насыщенным, повышает интерес детей к изучению английского языка.

Немаловажную роль приобретает численность сформированности групп дошкольников для участия в играх. Рекомендуется формировать группы не менее чем из пяти и не более чем из десяти человек, так как общая беседа, организованная совместная деятельность возможны в группе, состоящей не более чем из 10 человек. Занятие строится на коммуникации детей друг с другом и с преподавателем. При этом не допускается использование родного языка, общение идет исключительно на английском языке. Занятия проводятся: ежедневно по 15-25 минут – в зависимости от возраста воспитанников, в неделю по 25-45 минут с перерывами для подвижных игр и временем для творческих занятий, связанных тематически с уроком.

Таким образом, применение интерактивных технологий в образовательном процессе дошкольного образования наравне с традиционными методами обучения повышает эффективность образования и воспитания детей, усиливает уровень понимания информации, развивает творческие способности детей.

Литература:

1. Аркин Е. А. Ребенок в дошкольные годы. / Е.А. Аркин. – М., 1968. – 234 с.
2. Борытко Н.М. Теория обучения. / Н.М. Борытко. – Волгоград: ВГПУ, 2006. – 310 с.
3. Воронин А.С. Словарь терминов по общей и социальной педагогике. / А.С. Воронин. – Екатеринбург: ЕГПУ, 2006. – 324 с.

4. Выготский Л.С. Игра и ее роль в психическом развитии ребенка/ Л.С. Выготский // Вопросы психологии. – №6 – СПб. 1966. – 62-76 с.

5. Шолпо И.Л. Как научить дошкольника говорить по-английски // И.Л. Шолпо: Учебное пособие по методике преподавания английского языка для педагогических вузов, колледжей и училищ по специальности «Преподаватель иностранного языка в детском саду». – СПб. 1999. – 235 с.

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ

Марасулова Д.Н.

Преподаватель, ТГПУ имени Низами

Лобачёва Д.Д., Кудинова В.Е.

студенты,

Ребенок с особыми образовательными потребностями (ООП) – относительно новый, но уже достаточно устоявшийся термин, вытеснил из широкого употребления ранее используемые термины «аномальный ребенок», «ребенок с нарушениями в развитии», «ребенок с отклонениями в развитии» и конкретизирующие их специальные термины («аутист», «даун», «спастик», «алалик», «дизартрик» и пр.), которые с конца XX века воспринимаются обществом как слова с отрицательной коннотацией меняющееся отношение к детям с нарушениями в развитии, новое понимание их прав.

В современном понимании ребенок с особыми образовательными потребностями – это ребенок, нуждающийся в специальных условиях обучения и воспитания для его максимально возможного развития, образования, введения в культуру сообщества и семьи.

Термин «ребенок с ООП» используется как в широком социальном, так и в профессиональном и научном контекстах. В профессиональном контексте данный термин важен потому, что ориентирует специалистов на выявление особых образовательных потребностей и определение путей их удовлетворения по отношению ко всем категориям и группам детей с ограниченными возможностями здоровья с учетом диапазона вариантов их развития. В научном контексте данный термин важен и потому, что указывает на «проницаемость» границ между науками о детях с нормативным и отклоняющимся развитием, так как особые образовательные потребности могут быть обусловлены не только ограничениями здоровья, но и социокультурными факторами.

Одна из основных целей инфраструктуры Дошкольной Образовательной Организации (ДОО) является: обеспечение прав детей на приобретение дошкольного образования. В

процессе усовершенствования инфраструктуры ДОО решается задача – реализация без барьерной среды, разрешающей детям с ограниченными возможностями здоровья получить инновационное дошкольное образование, становление сотрудничества ДОО с учреждениями общественной сферы.

Инклюзивная система образования — это оптимальный способ социализации, который имеет положительные последствия для детей с ООП. Большинство детей-инвалидов и детей с ООП всерьёз сталкиваются со своей проблемой на начальном этапе обучения. Этот период может стать критическим с точки зрения осознания своей ситуации и реального самопознания. За пределы семейной системы ребёнок выходит впервые. Он может испытать стресс в случае неудачи. Также при инклюзивном образовании в случае видимой инвалидности у ребёнка могут возникнуть переживания связанные с восприятием его сверстниками. Не способствует общению с ребёнком-инвалидом чувства, которые испытывают к нему: жалость, неловкость, страх, что такое может случиться в их семье. Возникают конфликты между родителями детей инвалидов и здоровых детей, полагающих, что дети-инвалиды должны обучаться отдельно, так как могут навредить их детям. И здесь на помощь должны прийти психологи и социальные педагоги. Проводить специальные занятия со сверстниками ребёнка-инвалида или с ООП и их родителями. [1, с. 351]

Инклюзивное образование дает им возможность учиться и прогрессировать в среде обычных дошкольников. При этом всем детям инклюзивной группы предоставляются равные обстоятельства для того, чтобы включиться в воспитательно-образовательный процесс. Инклюзивное образования осуществляет свою деятельность по следующим принципам: 1- ценность человека не зависит от его способностей и достижений; 2- каждый человек способен чувствовать и думать; 3- каждый человек имеет право на общение и на то, чтобы быть услышанным; 4- все люди нуждаются друг в друге; 5- подлинное образование может осуществляться только в контексте реальных взаимоотношений; 6- все люди нуждаются в поддержке и дружбе ровесников; 7- для всех обучающихся достижение прогресса скорее может быть в том, что они могут делать, чем в том, что не могут; 8-разнообразие усиливает все стороны жизни человека.

Инклюзивное дошкольное образование реализуется в 2-х основных формах. При ДОО могут быть организованы особые группы для детей с специальными надобностями. Незвизрая на то, что особенные дети обучаются отдельно, они остаются включёнными в социальную жизнь ДОО, наравне со здоровыми детьми участвуют в социальных мероприятиях и т.д. Обычно, в особых группах обучаются дети, имеющие отклонения и задержки в психическом и интеллектуальном становлении. В иной форме инклюзивное дошкольное образование реализуется путём непосредственного включения детей с специальными надобностями в

состав группы, где они занимаются на всеобщих основаниях со всеми детьми. Данный вариант чаще используется при условии сохранности разума у детей-инвалидов.

Остановимся на правилах инклюзивного образовательного учреждения:

- все воспитанники равны в детском сообществе, имеют равные возможности для установления и улучшения значимых общественных связей и доступ к процессу обучения;

- программа и процесс обучения и воспитания учитывает индивидуальные потребности каждого дошкольника;

- привлеченные работники настроены только положительно и понимают свои обязанности в процессе воспитания и образования, обучены стратегиям и процедурам, облегчающим процесс включения, т.е. социальную интеграцию воспитанников.

- семьи, «включенных» воспитанников являются участниками образовательного процесса. [6, с. 151]

В настоящее время в мире большое количество детей с ограниченными возможностями здоровья, и количество их постоянно увеличивается. Опыт показывает, что помощь ребёнку с ООП эффективна в том случае, если в её основе положены личные, человеческие отношения, что возможно лишь в условиях взаимодействия семьи и ДОО. Личностные особенности родителей определяют их отношение к дефектам ребенка: часть родителей серьезно озабочены отклонениями в развитии ребенка, другие, выражая тревогу, ничего не предпринимают для того, чтобы помочь своему ребенку; остальные вовсе не обращают внимания на недостатки детей. Своевременное выявление психологами и социальными педагогами образовательных организаций (особенно на ранних этапах воспитания) неправильного воспитания в семьях, имеющих детей с ограниченными возможностями жизнедеятельности, диагностика эмоционального состояния, взаимоотношения родителей, с последующим проведением психологических тренингов, бесед помогут избежать негативных последствий неправильного воспитания и образования или снизить их вероятность.

Таким образом, все проблемы, существующие в семьях детей с ограниченными возможностями, необходимо решать постоянно на всех уровнях системы социальной защиты населения и системы образования.

Литература:

1. Самойлова А. А. Влияние семьи на социализацию детей с ограниченными возможностями /А. А. Самойлова// Молодой ученый. — 2017. — № 4 (138). — С. 351-354.
2. Куфтяк Е. Кризис родителей // Соционмия (социальная работа). —2005. № 2. — С. 29–31.

3. Лебедева С. В. Проблемы и перспективы семей, воспитывающих детей с ОВЗ /С. В. Лебедева// Образование и воспитание. — 2015. — № 4 (4). — С. 75-77.

4. Федосеева О. А. Проблемы родителей, имеющих ребенка с ограниченными возможностями /О.А.Федосеева // Молодой ученый. — 2013. — № 9 (56). — С. 344-346.

5. Кошелева А.Д. Эмоциональное развитие дошкольника: Пособие для воспитателей детского сада. — М.: Просвещение, 1985. - 176 с.

МАКТАБГАЧА КАТТА YOSHLI BOLALARDA KITOBXONLIKKA TAYYORGARLIKNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Maxmudova D.M.

*“Profi university” xususiy universiteti “Maktabgacha ta’lim”
kafedrası mudiri*

Bolalarning ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlash faolligini va ta’limiy jarayon subyektlarining o‘zaro aloqalarini ta’minlash alohida rivojlantiruvchi markazlarda olib boriladi. Shu nuqtai nazardan, bolalar faoliyati va bolalarning kitobxonlikka qiziqishini rivojlantirish, ta’lim muammolarini hal qilish uchun muayyan markazlarni moddiy jihozlar va didaktik materiallar bilan ta’minlash muhim. Aynan shu jihat O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimida tatbiq etilgan “Ilk qadam” o‘quv davlat dasturi asosida, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirish bo‘yicha vazifalarni hal qilish quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi: bolalar “Til va nutq”, “Rolli o‘yinlar va sahnalashtirish” rivojlantiruvchi markazlarda adabiy va badiiy asarlar yozuvchilari haqidagi g‘oyalarni o‘zlashtiradilar, badiiy va folklor bilan tanishish, tinglash, deklamatsiya, takrorlash orqali o‘zlarini namoyon qiladilar. Shu tariqa kognitiv faoliyat jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘zlarining fikrlarini, badiiy asarlarga munosabatlarini aks ettiradilar.

Tadqiqotchilar O.V.Dibina, O.P.Bolotnikova, A.Yu.Kozlova, Ye.A.Sidyakina S.E.Anfisovalarning fikricha, bolalar bilan ishlashning yaxlit shakllarini barqaror va mantiqan to‘liq tuzilma sifatida ko‘rib chiqish, bolalarning integratsiyalashgan faoliyatida ta’lim jarayoni subyektlarining maqsadga muvofiq o‘zaro ta’sirini amalga oshirish lozim [3, s.13]. Mualliflar ichki tarkibiy elementlarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini, tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir bosqichlarini ta’kidlashadi:

- 1) motivatsion-maqsadli bosqich;
- 2) loyihalashtirish va tashkiliy bosqich;
- 3) tarkib-faoliyat bosqichi;
- 4) baholovchi va aks ettirish bosqich.

Ularning har birini batafsil ko‘rib chiqaylik.

Motivatsion-maqсадli bosqichda rejalashtirilgan yaxlit faoliyatni amalga oshirish uchun bolalarni rag‘batlantirishning turli usullari amalga oshiriladi.

Loyihalashtirish va tashkiliy bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun birgalikda tadbirlarni belgilash va ularni o‘tkazish uchun sherik tanlash kerak. Ushbu bosqichda tadbirlar dasturi aniqlanadi, harakatlar va ularning ketma-ketligi tuziladi. Rollar subyektlar o‘rtasida taqsimlanadi. Qabul qilingan tadbirlar dasturini amalga oshirish uchun sharoitlar ishlab chiqiladi va yaratiladi.

Tarkib-faoliyat bosqichi qo‘shma faoliyat jarayonida bolalarning bir-birlari va kattalar bilan o‘zaro aloqalarini o‘z ichiga oladi. Harakatlar bolalar tomonidan tavsiya etilgan reja yoki ko‘rsatmalarga muvofiq amalga oshiriladi. Bolalarning harakatlari ertaklarni sahnalashtirishda amalga oshirish jarayonida muvofiqlashtiriladi.

Baholovchi va aks ettirish bosqichi yakuniy nazoratni amalga oshirishni va birgalikdagi faoliyat natijalarini taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yaxlit shakllarini amalga oshirish muhimdir.

O.I.Solvevaning nuqtai nazari bo‘yicha badiiy adabiyotlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqish badiiy kitoblarning tematik ko‘rgazmalarini tashkil etish orqali shakllanishi kerak. [6, s.48]. Ko‘rgazmaning mavzusi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim va dolzarb bo‘lishi kerak. Bu – yaqinlashib kelayotgan bayramlar, maktabgacha “Ilk qadam” o‘quv dasturining mavzusi rejasi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

N.V.Poltavskaya badiiy adabiyotlarga qiziqishni oshirish uchun kitobning maketini tayyorlashni tavsiya qiladi. Kitob muqovasining o‘zi hamma uchun bir xil sxema bo‘yicha tuzilishi kerak va har bir bola uchun kitobning mazmuni turlicha bo‘lishi mumkin. Har bir bola kitob tayyorlash paytida ijodkorlikni namoyish etadi, sevimli ertak epizodi uchun rasm chizadi yoki yaqinda o‘qilgan ertakdagi ertak qahramonini chizadi [4,s.126].

V.N.Sibgatovanning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini “ertaklar festivali” yordamida shakllantirish mumkin. Bunday festival doirasida bolalarning har bir guruhi teatrlashtirilgan tomoshaga tayyorgarlik ko‘radilar, keyin ota-onalar va bolalarga namoyish etiladi. Teatrlashtirilgan o‘yinda maktabgacha yoshdagi bola o‘qilgan adabiy asardan hissiy tajribalarini ifoda etadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda ota-onalar spektaklni tayyorlashning faol ishtirokchilari bo‘lib, ular atributlar yaratadilar, rolni o‘rganishga yordam berilardi [2, s.36].

S.Yu.Kondrateva qo‘g‘irchoq teatrini tashkil qilishdan oldin o‘qilgan asarga muvofiq bolalarga rasm chizdirish, o‘yin-dramatizatsiyalarda mashq qildirish kerak, deb ta’kidlagan [5,s.73]. O‘yin-dramatizatsiya paytida bolalar o‘qilgan syujetni harakat bilan bog‘lashni o‘rganadilar, ertaklardagi qahramonlar rolini ijro etadilar. Bolalar og‘zaki muloqotni o‘zlashtiradilar. Spektaklni namoyish qilish vaziyatni chuqurroq tushunishga yordam beradi, izchil nutq rivojlanadi. Shuningdek, bolalarda

kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, mehr uyg‘otish uchun adabiy kechalar o‘tkazish va ota-onalar bilan birgalikda oilaviy kutubxona tashkil etish muhimligini ta’kidlab o‘tgan. U quyidagi usullardan foydalanish kerakligini ham ta’kidlaydi: bolalar bilan ertaklarni birgalikda o‘qish, audio ertaklarni tinglash, o‘qishdan keyin suhbatlashish, ota-onalar uchun uyda o‘qishni tashkil etish bo‘yicha maslahatlar berish. Bolalar bilan ishlashning samarali shaklida oilaviy klub yaratish, bu orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish hamda birgalikda tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishni taklif etadi. Bolalar ijodiy ishlarining ko‘rgazmalari, adabiy ko‘ngilochar kechalar va sevimli ertaklarga asoslangan spektakllarni ota-onalar bilan birgalikda tashkil etish haqida fikr bildiradi.

M.M.Nigmatovanning fikricha maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida balki oilada ham olib borilishini, oilada bolalar kitobxonasini yaratilish kerakligini bayon etgan. Z.Azizovanning ilmiy ishida ertaklarni sahnalashtirish orqali bolalarni axloqiy sifatlarini ochib bergan. Bolalar ertaklarga bo‘lgan qiziqishlarini teatr, sahna ko‘rinish orqali yoritib bergan. [1,b.19].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagi bolalik davri kitobxonlikka qiziqishni shakllantirishning muhim bosqichidir. Badiiy adabiyotni o‘qish maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammo xorijiy va mahalliy tadqiqot ishlarida uzoq vaqt davomida o‘rganilgan va bolalarni kitobxonlikka qiziqtirishga doir ko‘plab tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar:

1. Azizova, Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida axloqiy – estetik sifatlarini shakllantirish. ped.fan.nom... Diss. – T.,2010. 25 b.
2. Афанасева, Л.И. Формирование интереса к чтению у детей дошкольного возраста [Текст] / Л.И. Афанасьева. // Дошкольное воспитание.– 2007. – №2. – С.72-78.
3. Дыбина, О.В. Предметно-развивающая среда интегрированной деятельности детей дошкольного возраста: понятие, принципы, компоненты [Текст] / О.В. Дыбина, О.П. Болотникова, А.Ю. Козлова, Е.А. Сидякина // Вектор науки ТГУ. – Толянти, 2014. – № 1.
4. Князева, О.Л. Приобщение детей к истокам детской литературы [текст] \ О.Л. Князева. – М.: «Питер», 2009. – 166 с.
5. Первова, Г.М. Работа с книгой в детском саду [Текст] /Г.М. Первова. – М.: «Владос», 2007. – 345 с.
6. Соловьева О.И. Методика развития речи и обучение родному языку в детском саду. М., «Просвещение», 1966

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA SAHNALASHTIRISH O‘YIN FAOLIYATI YORDAMIDA KOMMUNIKATIV MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.

Maxmudova O.A

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası
dotsenti v.b.,*

Abdullayeva F.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi I-bosqich magistranti

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdan boshlab, o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama etuk, ma’naviy barkamol inson qilib kamol toptirish – jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etildi. Bu borada kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘rni beqiyosdir. Maktabgacha ta’lim muassasalari ishini ko‘p qirrali deb hisoblash mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda qo‘g‘irchoq teatri ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bu o‘yin bo‘lib, asosan bola markazlarda ishlash jarayonida o‘zlari bilib bilmagan holda qandaydir sahna asari yaratadilar va bunda ular ko‘p hollarda oilaviy munosabatlar uyda ota-onasining bolasiga bo‘lgan muomalasi va shunga o‘xshash holatlarni namoyon qilishadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ana shunday ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida teatrlar tashkil etilib, bu esa bolada o‘zgacha fikr va quvonch bag‘ishlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sahnalashtirishning asosiy shakllaridan biri bu-teatr hisoblanib bolalar o‘zlarining qiziqishlarini teatr orqali namoyon etishadi. Masalan: bunga qo‘g‘irchoq teatrini misol qilib keltirishimiz mumkin. Qo‘g‘irchoq teatri bolalar bilan bevosita muloqotda bo‘lish, ularning “tili”da fikr almashish, maxsus ifoda vositalariga egaligi, kichkintoylarni ishontirish, voqea-hodisalarga nisbatan his-tuyg‘ularini bildira olish xususiyatiga ko‘ra pedagogik ahamiyatga ega. Qo‘g‘irchoq teatri haqida fikr yuritilar ekan, shu o‘rinda birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish g‘oyat o‘rinlidir: “Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san’ati xususida so‘z borar ekan, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr – bu ibratxonadir”, deb aytgan fikrini eslash o‘rinlidir. Bizning milliy teatr san’atimiz tarixan juda katta yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lib, uning qadimiy ildizlari xalq o‘yin va tomoshalariga borib bog‘lanadi”. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sahnalashtirishning asosiy shakllaridan biri bu-teatr hisoblanib bolalar o‘zlarining qiziqishlarini teatr orqali namoyon etishadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ faoliyatning namoyon bo‘lishida sahna va teatr faoliyati uchun sharoit yaratilgan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim muassasasida sahnalashtirilgan faoliyatning asosiy vazifalari:

1. Sahnalashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratish.

2. Bolalarni teatr va sahna madaniyatiga oshno qilish.

3. Pedagogik jarayonda va boshqa faoliyat turlari o‘zaro aloqadorligi uchun sharoit yaratish.

4. Bolalar va kattalarning hamkorlikdagi sahnalashtirilgan faoliyati (bolalar, ota-onalar, xodimlar ishtirokida birgalikda spektakllar qo‘yish; katta guruh bolalarning kichik tarbiyalanuvchilar oldida chiqishlarini tashkil qilish va sh.k.).

Sahnalashtirilgan faoliyatda kommunikativ malakalarni rivojlantiribgina qolmay, rivojlantiruvchi predmet-makon muhitini tashkil qilish va bezashda quyidagi prinsiplarga tayaniladi:

- komplekslar va egiluvchan zonalashtirish prinsipi, bolaga qiziqtirgan faoliyat bilan bir-biriga xalaqit bermagan holda shug‘ullanish imkonini beradi;

- faollik prinsipi, bolaning bilish faoliyatini, faolligini rag‘batlandi;

- erkinlik va mustaqillik prinsipi, bolaga muhitga o‘z munosabatini mustaqil belgilash: idrok qilish, taqlid qilish, yaratish; o‘zi istaganini mustaqil tanlash imkonini beradi;

- hayotiy haqiqat illyuziyasi prinsipi, bolalarni yaratilgan aldovga berilish va haqiqiy predmetlar bilan ishlayotganiga ishonch hosil qilish uchun ruhiy va faktik imkoniyat yaratadigan sharoitga qo‘yishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari “rol o‘ynash”, “qo‘shiq aytish” va “raqsga” tushumlarga tabiiy moslashadilar, teatrlashtirilgan va musiqiy sahna ko‘rinishlarini qabul qilish orqali bolada katta qiziqish uyg‘otib, unda ishtirok etishlari xohish-istagini bildiradi. Teatr va musiqa ijodiyoti bolalar ehtiyojlarini qondirish bilan muammolardan ozod qiladi, u quvonchli daqiqalar va katta zavqni his qiladi. Rol ijrosidagi matn va musiqiy qo‘shiq so‘zlari hissiy tizimlar bilan bog‘langanligi tufayli, bola matnlar mazmunini tushuna boshlaydi va ijro jarayonida qo‘shilishi, sahnaga qarshi, hatto “o‘zi”ga ham qarashi tajribasiga uni tuzatishga va uni baholashga o‘rganib boradi. Shunday qilib, Sahnalashtirish faoliyati orqali bolalar ijodiy qobiliyatini, kommunikativ malakalarini shakllantiradi va bolalar shaxsini kompleks rivojlanish bilan bog‘liq qator vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bevosita sahnalashtirish faoliyatida bolalarni teatrlarga borishi, bolalar spektakli va namoyishlarini tomosha qilibgina qolmasdan teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etishi teatrlashtirilgan to‘garaklarga va mashg‘ulotlarga borishida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi xodimlari va teatr rahbarlari boshchilik qilib bolada sahnalashtirish faoliyatidagi ijodiy ko‘nikmalarni yuzaga chiqaradi.

Adabiyotlar:

1. Bolangiz maktabga tayyorga tayyormi». T., Ma’rifat-madadkor.2002.N.P.Sakulina «Bolalar bog‘chasida rasm, applikatsiya va loy bilan M«Prosvesheniye»1993.

2. N.P.Kosterina. «Uchebnoye risovaniye» M. «Prosvesheniye» 1984.



MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Maxmudova O.A.

Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi dosenti v.b.,

Ismoilova Sh.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi I bosqich magistrant

Ta'lim tizimini zamonaviy darajada rivojlantirishda masofaviy ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. O'z navbatida, masofaviy ta'lim tizimi zamonaviy talablarga javob berishi, ya'ni doimiy rivojlanish, takomillashtirish va O'z-o'zini takomillashtirish tendensiyasiga ega bo'lishi kerak. Bu talablar birinchi navbatda masofaviy ta'lim tizimi tizimidagi asosiy jarayon bo'lgan ta'lim jarayoniga taalluqlidir. O'quv jarayonini takomillashtirish bilan bog'liq ko'plab omillardan eng muhimi o'qitishning zamonaviy ilg'or uslublarini to'g'ri tanlash va samarali qo'llashdir.

Masofaviy ta'lim talabalarning mustaqil ishi va unga o'qituvchi tomonidan maqsadli rahbarlik qilishiga asoslanadi. Masofaviy ta'lim - bu ilmiy-texnik inqilobning yuqori texnologiyali mahsuloti bo'lib, talabalarga xizmat ko'rsatishda marketing yondashuvi g'oyasini keng qo'llaydi, bu uning butun dunyo bo'ylab faol tarqalishini tushuntiradi. Darslarga tayyorgarlik ko'rayotgan talabalar zamonaviy o'quv, ilmiy va uslubiy ma'lumotlar oqimida tezda harakat qilishlari, ularni tahlil qilishlari, tanqidiy tushunishlari, asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatishlari, mantiqiy tuzilishlari va shu bilan mustaqil ravishda egallash va o'zlashtirish qobiliyatini namoyish etishlari kerak. Bilimlarini to'ldirish, ta'limning eng yangi texnologiyalaridan, xususan, masofaviy ta'limdan foydalanishga qaratilgan.

Talabalarning o'quv jarayonida V.Buryak, N.Soldatenko, V.Ujik va boshqalar talabalarning masofaviy ta'limini tashkil etish V.Andrushchenko, T.Lisyanskaya, V.Lugovoy, O.Skripchenko va boshqalar mavzusining dolzarbligini ko'rsatadilar. Har qanday faoliyat singari, "Maktabgacha ta'lim yo'nalishi" talabalarining masofaviy ta'lim faoliyati ham o'z tuzilishiga ega bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: motivatsiya, o'quv vazifalari, o'quv harakatlari, O'z-o'zini nazorat qilishga aylanadigan nazorat, O'z-o'zini baholashga aylanadi. Bunday faoliyat muayyan maqsaddan kelib chiqadi, subyektning faoliyat natijalari haqidagi g'oyasini aks ettiradi va O'z-o'zini tarbiyalash shaklini oladi. Masofaviy ta'limning muhim jihati shundan iboratki, u nafaqat ta'lim muammolarini, balki talabaning o'zini-o'zi rivojlantirish va O'z-o'zini takomillashtirish muammolarini ham hal qiladi. Shuningdek, talabalarga taklif qilinadigan mustaqil ish shakllariga quyidagilar kiradi: insho;

birlamchi manbalarni qayd qilish, konspektlar, qayta ishlangan material rejasini tuzish; ko'rib chiqish, izohlash, ko'rib chiqish, treninglar o'tkazish, muammolarni hal qilish; diagrammalar, jadvallar, diagrammalar va boshqalarni tuzish; dizayn, grafik, hisoblash ishlari, testlar, didaktik materiallar ishlab chiqish; mustaqil nazorat ishi, individual ijodiy topshiriqlarni bajarish, "Maktabgacha ta'lim yo'nalishi" fakultetning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan boshqa shakllarni o'z ichiga oladi. Masofaviy shakllar axborot-ta'lim resurslari va xizmatlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va shartlari, masofaviy ta'lim tizimidagi multimedia mustaqil ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv ma'lumotlarini gipermatn shaklida taqdim etish, tovush, grafik, animatsiyaning vizual xususiyatlaridan foydalanish imkonini beradi va materialni yaxshiroq o'zlashtirishga hissa qo'shadigan videoma'lumotlarni qamrab oladi. Bu universitet ta'lim tizimiga masofaviy ta'lim elementlarini joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, o'quv materialining hajmini mavzular yoki haftalar bo'yicha mazmunli bloklarga bo'lish orqali elektron shaklda amalga oshirish oson bo'lgan individual o'quv dasturini tuzishdan boshlash kerak. Bunday o'quv rejalarining mavjudligi talabalarga mustaqil ravishda ishlarni bajarish, o'z o'quv faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tartibga solish, o'zini o'zi nazorat qilish va uning natijalarini va o'z harakatlarini baholash qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. Kompleksdagi hamma narsa o'z faoliyatingizni O'z-o'zini boshqarishni amalga oshirish imkonini beradi. Talaba o'zining ta'lim faoliyatini mustaqil boshqarib, o'zini-o'zi boshqarish tizimi vazifasini bajaradi. O'zini-o'zi boshqarish mexanizmi shunday harakat qiladiki, talaba boshqaruv sub'ekti sifatida o'zini ob'ekt deb hisoblaydi. U o'zining tarbiyaviy harakatlarini tartibga soladi, faoliyatni tashkil qiladi, o'z harakatlariga refleksli murojaat qiladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, an'anaviy va masofaviy ta'limda talabalar bajaradigan mustaqil ishning turidan qat'i nazar, o'qituvchida ma'lum rol qoladi. O'qituvchi talabalarni mustaqil ishlarni bajarish maqsadi, mehnat intensivligi, muddatlari, ishlarni bajarish usullari, nazorat shakllari, bajarilgan mustaqil ish sifatini baholash mezonlari bilan tanishtirishi kerak. Dastlab, o'qituvchi talabalarning tayyorgarlik darajasini, ularning ko'nikma va qobiliyatlarini, universitetda o'qish jarayonida mustaqil ishlash istagi va ehtiyojlarini kuzatishi kerak. Kompyuter ko'nikmalarini, internetdan o'quv maqsadlarida foydalanish qobiliyatini masofaviy kursda nazariy materialni o'rganish qulay navigatsiya tizimiga ega bo'lgan elektron kitob ko'rinishida taqdim etilishi mumkin: kitobning alohida bo'limlari yoki paragraflariga havolalar, atamalar va ularning lug'atdagi talqini, kitob matnida ism-shariflari uchragan olimlarning biografik ma'lumotlari va boshqalar. Bundan tashqari, nazariy materiallar yorqin, ko'zga tashlanadigan internet sahifasi yoki taqdimot ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Ovozli, o'quv animatsiyasi yoki video materiallar namoyishi kabilardir. Zero, har xil turdagi axborotlarni idrok etish va assimilyatsiya qilish nazariyasi va axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'sirining aspektlari bo'yicha zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlar (L.Vigotskiy, A.Leontyev, V.Bespalko,

I.Yakimanskaya va boshq.) multimedia texnologiyalarining ulkan didaktik imkoniyatlarini ochib berishgan, kompyuter o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi hamda, ularning bilimlarni yuqori darajada tushunish va izohlashda o'zlashtirishini ta'minlaydi. Bunday nazariy materialni ishlab chiqishda o'qituvchi talabalar oldiga an'anaviy o'qitishdagi kabi vazifalar qo'yishi, insho yozishi, konspekt yozishi, qayta ishlanadigan materialning konspektlari yoki rejasini tuzishi, izoh yoki taqriz yozishi mumkin. Vazifani shunday shakllantirish bilan uning bajarilishini nazorat qilish kerak. Natijalarni nazorat qilish o'quv faoliyati sub'ektiga erkinlik berishni nazarda tutadi, bu esa o'quv faoliyati natijalarini o'z vaqtida taqdim etish zarurati bilan bog'liq. mustaqil ishlash va shunday qilib, o'qituvchiga hisobot berish. Bunday nazorat mashg'ulot oxirida, uning jarayonida talaba tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilmagan va mustaqil faoliyat kursining o'zi tuzatilmaganda amalga oshiriladi. Bu shunday nazoratning kamchiligidir, garchi ikkinchi tomondan ishning moddiy natijasi: javob, konspekt, konspekt va boshqalar mavjud bo'lsa-da. Shuning uchun topshiriqni qayta ishlash jarayonida talaba o'z ishini bajarishi muhim. o'zini tekshiradi va nazorat qiladi. Bunda masofaviy texnologiyalar ustunlikka ega, chunki nazariy materialning tuzilishi O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar, o'quv rejimida ishlagan O'z-o'zini nazorat qilish testlarini o'z ichiga olishi mumkin, ya'ni ular yana testdan o'tish imkoniyatini beradi, o'z xatolarini tushungan va tuzatgan, shuningdek, o'qituvchiga o'quvchilar tomonidan topshiriqning borishini kuzatish, tipik xatolarni tahlil qilish, bilimlardagi kamchiliklarni aniqlash va h.k. va pirovardida muayyan talabaning faoliyatini xolisona baholash imkonini beradi. yangi bilimlar, o'rganishning navbatdagi bosqichi nazariy materialdan foydalangan holda yangi ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, masofaviy ta'lim vazifalar tizimi orqali ta'lim faoliyatini kelajakdagi kasbga yaqinlashtirishga, ya'ni ta'limni kasbiylashtirishni amalga oshirishga imkon beradi. O'quv fanining materiali, optimal javoblarni, echimlarni izlash qobiliyatini, ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiradi; elektron darsliklar, birlamchi manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, axborot olishning zamonaviy vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi; talabalarga materialni o'rganishning har bir bosqichida o'zini o'zi nazorat qilish, o'qituvchidan maslahat olish yoki kursning boshqa ishtirokchisining fikrini eshitish, faolligi va samaradorligini ko'rish va xolisona baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Balashova E. D. Masofaviy o'qitish bo'xona xodimlarini kasbiy tayyorlash jarayonida pedagogik o'zaro hamkorlik vositasi sifatida. Muallif. diss. ish uchun. uch. pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasi Yaroslavl. 2009 yil.

2. Zaichenko T. P. Masofaviy o'qitish asoslari: Nazariy va amaliy asos: O'quv qo'llanma. SPb.: RGPU nashriyoti im. A. I. Hertsen, 2004 yil.

3. Kuznetsova Z.M., Fisenko G. S. Masofaviy ta'lim sifat menejmenti // Fundamental tadqiqotlar. 2006 yil. № 1.

4. Polat E. S., Moiseeva M. V., Petrov A. E. Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari / Ed. E. S. Polat. M.: "Akademiya", 2006 y.

5. Polat E. S. Masofaviy o'qitish nazariyasi va amaliyoti: O'quv qo'llanma. qadash uchun qo'llanma. yuqori. ped. o'rganish. muassasalari / E. S. Polat, M. Yu.Buxarkin, M. V. Moiseev / Ed. E. S. Polat. M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2004 y.

6. Internetda o'qitish / Ed. V.I.Soldatkina. - 2-nashr. - M.: INFRA-M, 2007.-47

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING NAZARIY JIHATLARI

Maxmudova O.A.

*Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrasi dosenti v.b*

Salixova Z.M.

magistrant

Diagnostik faoliyat o'z maqsadiga ko'ra tashhis (diagnoz) yo'nalishining turli ko'rinishlariga ega bo'ladi. Qo'yilgan tashhis o'rganilayotgan xususiyatlarni shakllantirishga yoki korreksion ishlarni tashkil etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan ifodalanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 80 yillargacha, «Pedagogik diagnostika» atamasi asosan maqolalarda, turli tezislar yoki kam tirajli to'plamlarda uchraydigan, 80 yildan boshlab esa, shu vaqtgacha pedagogika va psixologiya fanlarining hamkorlik sohasi sifatida shakllanib, rivojlanib kelayotgan, ko'pchilik alohida bilim va tajriba sohasi deb qaramayotgan bu soha eng dolzarb sohalardan biriga aylanmoqda. Chet ellarda bu sohada olib borilgan va rus tiliga tarjima qilinib, o'zbek mutaxassisleri ham tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan ishlardan K.Ingenkampning 1991 yilda bosmadan chiqqan «Pedagogik diagnostika» (muallifning yozishicha pedagogik diagnostika atamasi u tomonidan 1968 y. taklif qilingan va kiritilgan) asarida ancha keng yoritilgan. Shunday qilib, diagnostika yorqin namoyon bo'luvchi individual-psixologik, psixofiziologik xususiyatlar asosida olingan ma'lumotlarni taqqoslash bilan alohida kishi yoki ma'lum shaxslar guruhi borasida xulosa chiqarish demakdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarning qobiliyat va layoqatlarini har tamonlama rivojlantirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogika jarayonining mahsuldorligi pedagogning o'z tarbiyachilarini yaxshi bilishga, talim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini

qo‘llashga bog‘liq harakat qiladilar. Bolalarning bunday holatlari chegara holatlari sifatida psixik taraqqiyot kamchiligi sifatida shaxs aksentuatsiyasining turli ko‘rinishi sifatida

Zamonaviy pedagogik diagnostika tarbiyalanuvchilarning atrof-muhitga munosabatini baholash uchun bir qator metodikalardan foydalanishni, shu jumladan, guruhdagi o‘rtoqlariga nisbatan emotsional xayrixohlikni, bolalar jamoasining etukligini va shular asosida mazkur guruhda tarbiya dasturlari tuzishni ko‘zda tutadi. Shunday qilib, tarbiyachi tomonidan mavjud metodikalar asosida tarbiyalanuvchilarni o‘rganish va metodik apparatning keyingi rivoji yagona maqsad emas, balki jamoa rivojlanishining omili hisoblanadi. Hozirgi sharoitda tarbiyalanuvchilar jamoasidagi o‘quv-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishning muhim yo‘li uni pedagogik diagnostika asosiga qurish hisoblanadi. Bu bolalarni yuzaki o‘rganishga, barcha pedagogik ustanovkalarining (mazmun, shakllar, metodlar, o‘zaro ta’sir vositalarining) hozirgi tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlari o‘zib borayotgan bir paytda o‘rtamiyona bo‘lib qolishiga olib kelmoqda. Hozirgi paytda pedagogik diagnostika instrument bo‘lib qolishi kerakki, uning yordamida pedagoglar o‘zlarining pedagogik, psixologik va metodik rejalarini amalga oshirish yo‘llarini aniq belgilab oladi, ta’lim-tarbiya sohasida yangi bilimlarga ega bo‘ladi va fanda hal etilmagan yoki qisman hal etilgan masalalarga duch kelishga tayyor turadi. Diagnostika tarbiyalanuvchilardan guruhdoshlarga nisbatan munosabatlarni aniqlash uchun metodika asosida test olishni ko‘zda tutadi. Bu esa korreksiyaning individual choralarni ishlab chiqish uchun zarur. Jamoani, shaxslararo munosabatlarni, tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish muammosi, guruh tuzilmasida “yulduzlar” va “ajratib qo‘yilganlar”ni aniqlash birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Aynan shaxslararo muloqot xarakteri ko‘p hollarda tarbiyalanuvchilarning o‘z o‘qishiga, baholariga munosabatini belgilaydi. Diagnostika pedagogik jarayonni gumanizatsiyalash dasturiga kiritilgan. Diagnostik faoliyatning maqsadi tarbiyachiga pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va baholash mezonlarini belgilashga, muammolarni oson hal qilish yo‘llarini aniqlashga, tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarishga va o‘zining kasbiy faoliyatini tuzatishga, pedagogik o‘zaro ta’sir samaradorligini baholashga imkon beruvchi yaxlit axborotni aniqlashdan iborat. Pedagogik diagnostika – pedagog shaxsi va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini tahlil qilish va tavsiyalar berish jarayoni. O‘zining ish faoliyatida integral pedagogik diagnostikadan foydalangan tarbiyachi zudlik bilan hal etilishni talab qilayotgan va ayni paytda bir necha muddatga ortga surilgan o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni uddalash imkoniga ega bo‘ladi. O‘zi ishlayotgan guruh jamoasini to‘liq o‘rganish tarbiyachi uchun muhim hisoblanadi.

Bolalar jamoasini o‘rganayotgan tarbiyachi quyidagi vazifalarni hal etadi: jamoaning o‘zib borishi haqida to‘liq ma’lumot olish, jamoaning o‘zish darajasi o‘zgarib borishiga mos holda pedagog tomonidan o‘z ishining mazmuni, shakli, metodi va uslubini pedagogik asoslangan holda tuzatib borish, jamoaning rivojlanish darajasini baholash uchun integral diagnostika metodini egallash zarur.

Har qanday psixologik-pedagogik diagnostika shaxsning kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini, o'quv jarayonining tashkil qilinganlik darajasini ko'rsatib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Diagnostik jarayonida o'rganilayotgan ob'ektning kelajagi, ertangi kuni ham taraqqiyot tendensiyalari, ham ma'lum omillar ta'sirining oqibatlari ochib berilishi kerak. Shu holdagina prognoz mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan xatolar, shaxs taraqqiyotidagi ko'zga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, to'g'ri yo'lga solish imkoniga ega bo'lamiz. Pedagogik diagnostika sohasidagi nazariy-metodik ishlarning yo'nalishlari avvalambor psixologik amaliyot talablari asosida belgilanadi. Ushbu talablarga muvofiq usullarning maxsus kompleksi shakllanadi. Psixologik-pedagogik diagnostikaning rivojlanib kelayotgan fan tarmog'i ekanligi, uning amaliy va dolzarbligi bilan bir vaqtda bu sohani aniq chegaralari, boshqa fanlardan farqi va o'ziga xos xususiyatlari hozircha to'liq tarkib topmaganligini ko'rsatib o'tish lozim.

Pedagogik diagnostikaning asosiy yo'nalishlari pedagogik amaliyotning talab darajasidan kelib chiqqan holda shakllanmoqda. Shu sababli ham uning yo'nalishlarini bu yo'nalishlarning mohiyatini psixologik-pedagogik diagnostika pedagogik amaliyotning qaysi sohalarida qo'llanilishini ko'rsatmasdan turib to'liq ochib berib bo'lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Nurkeldieva D.A Chicherina Ya.Ye Ilk maktabgacha yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodi 2007y
2. Matmuratova.N.B. Psixodiagnostika fanidan ma'ruzalar matni. - T., 2000 y.
3. Nishonova Z.T.Bolalar psixodiagnostikasi. - T.: 1998.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI QURISH-YASASH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maxmutazimova Yu.R.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi*

Qurish-yasash lotin tilidan olingan bo'lib, turli predmetlarni, qism va elementlarni ma'lum bir holatga keltirish, degan ma'noni bildiradi. Bolalarni qurish-yasashida qurilish materiallaridan, qog'ozdan, karton, daraxt va boshqa materiallardan turli xil o'yinchoqlar yasash o'rgatiladi. O'z xarakteriga ko'ra bolalar qurish-yasashi ko'pincha tasviriy va o'yin faoliyati bilan o'xshashdir—bu tevarak atrofda aks etadi. Bolalarning yasagan narsalari asosan amaliyotda ishlatiladi. Masalan: o'yinlar, archani yasatish uchun, onalarga sovg'a uchun.

Qurish-yasash faoliyati – amaliy faoliyat bo‘lib, oldindan belgilangan, biror maqsadga qaratilgan real voqelikdir. Qurish-yasash faoliyatiga o‘rgatish jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi yanada shakllanib boradi, hamda ularda tevarak-atrofdagi predmetlarni tahlil qilish ko‘nikmasi, mustaqil fikrlash, badiiy did, shaxsning ifodaviy sifatlaridan (maqsadga intilish, qat‘iylik va hokazo...) tarkib topa boshlaydi, bularni barchasi bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni qurilish materiallari yordamida o‘yin va mashg‘ulotlar o‘tkazishning ahamiyati katta. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta‘lim tashkilotida qurilish materiallari yordamida o‘tkaziladigan o‘yin va mashg‘ulotlar katta o‘rin egallaydi. Bolalarning qurilish o‘yinlari rollarga bo‘linib, o‘ynaladigan o‘yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qurilish o‘yinlarida ham bolalar tevarak atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar.

Qurilish o‘yinlarining mazmuni bolalarning o‘zlari yaratadilar. Bolalar ko‘pincha kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, “Quruvchi ishchi” rolini bajaradilar. Bolalarning qurilish o‘yinlari qiziqarli ijodiy faoliyatdir. Ular o‘z o‘yinlarida qurilishlarni transport harakati, kattalarning mehnati haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar. Bunday o‘yinlar bolalarda tashabbuskorlikni uyg‘otishga, ularni fikr yuritish va harakat faoliyatlarini faollashtirishga keng imkon yaratadi. Mashg‘ulot va o‘yin vaqtida bolalar bir–birlari bilan turlicha munosabatda bo‘ladilar. Ular rollarni o‘zaro bo‘lishib oladilar, ishlarni bajarishda bir birlariga yordam beradilar va maslahatlashadilar. Qurilish o‘yinlarida harakat elementlari ko‘p bo‘lib, u bolalarning harakat qilishga nisbatan bo‘lgan talablarini qondirishga yordam beradi. Bola biror narsani qo‘ra boshlaganda qurilish materiallarini tegishli joyga olib boradi, ularni stol yoki pol ustiga joylashtiradi, engashadi, bu vaqtda uning qo‘llari faol harakat qiladi, ya’ni ma’lum miqdorda jismoniy kuch sarflaydi.

Mayda qurilish materiallari bilan o‘ynaganda qo‘lning mayda muskullari yaxshi rivojlanadi. Qurilish o‘yinlari o‘ynash natijasida bolalarning kuzatuvchanligi ortadi, texnikaga bo‘lgan qiziqishlari o‘sib boradi. Bundan tashqari ular o‘yin jarayonida oddiy geometrik shakllarning tuzilishi bilan ham tanishadilar. Qurilish o‘yinlarining tarbiyaviy ta’siri bolalar aks ettiradigan hodisa va narsalarning g‘oyaviy mazmuni o‘z aksini topadi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda tafakkurning tahlil va sintez, taqqoslay bilish kabi jarayonlari hali sust rivojlangan bo‘ladi. Qurilish materiallari yordamida o‘tkaziladigan o‘yinlar esa bolalarning tafakkurini, ijodiy qobiliyatini o‘stiradi.

Tarbiyachining ko‘rsatgan narsasini esda saqlab qolish va uni qayta esga solish bolalarni narsalarni bir–biriga solishtirishga, tahlil va sintez qilishga, o‘xshashini topib qo‘yishga va farqini ajrata bilishga majbur qiladi va qurilishdagi vazifalarni pala–partish bajarmaslikka, tasodifiy xulosa bilan qoniqib qolmay, balki maqsadga muvofiq yo‘l tutishga o‘rgatadi. Bolalar bilimini mavzuli ravishda qurilish o‘yinlari faqat tevarak–atrofni bilib olish vositasigina bo‘lib qolmay, balki axloqiy

sifatlarni tarbiyalovchi vosita hamdir. Bolalar bevosita kuzatayotgan qurilishdagi konkret misollar bolalarning o'zbek xalqi o'z mehnatini qanchalik sevishini tushunishlariga yordam beradi. Qurilish o'yinlari orqali tarbiyachi bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, o'z ishiga javobgarlikni hissini tarbiyalab borishga harakat qiladi. Bolalar jamoasini to'g'ri tashkil etishda qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega. Qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar bolalarni maktabga tayyorlash ishini amalga oshirishda ham yordam beradi. Bu o'yin va mashg'ulotlar jarayonida bolalarda diqqatni bir joyga to'plash, oldiga qo'ygan maqsadga chidam va sabot bilan erishish, olgan bilimi va malakasi asosida ijodiy tashabbuskorlik ko'rsatish xususiyatlari shakllanib boradi. Qurilish haqidagi asosiy bilimni bolalar qurish–yasash mashg'ulotida egallaydilar. Ana shu mashg'ulotlarda ular narsalarning elementar ko'rinishlarini, qurilish qismlaridan maqsadga muvofiq foydalana olishni o'rganadilar va qurilishni badiiy jihatdan bezashning oddiy usullarini o'zlashtirib oladilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi kichik bolalar qurish–yasashga bir necha bor urinadilar, ular faqat qurilish to'plamlaridagi materiallarni yapaloq tomoni bilan qo'yib terib chiqadilar yoki bir-birining ustiga qo'yadilar.

Tarbiyachi bolalarni har xil narsalar qo'rishga o'rgatgan bo'lsa, kichik yoshdagi bolalarning qurilish o'yinlarida u o'z aksini topadi. Qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar uchun zaruriy sharoitlar. Bolalar qurish texnikasini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun guruhlarda zarur shart–sharoitlarni yaratish lozim. Buning uchun avvalo guruhda yetarli miqdorda qurilish materiallari bo'lishi, ya'ni hamma bolalar bir vaqtda yoki hech bo'lmaganda yarim guruh bolalar mashg'ul bo'la oladigan darajada material bo'lishi zarur.

Namunaga qarab qurish mashg'ulotida ham bolalarni materialdan cheklab qo'ymay, balki har kimga keragini taqsimlab berish lozim. Material har doim zarur bo'lganini olib ishlata bilishni o'rgansinlar. Bolalar qurish–yasash malakalarini endigina egallay boshlaganlarida, ya'ni ikkinchi kichik guruhdan boshlab qurish mashg'ulotlarini o'tishga ruxsat beriladi. Mashg'ulotlarda qurish–yasashga o'rgatish uchun stol ustida o'ynaladigan qurilish to'plamidan foydalangan ma'qul, chunki bu qurilish materiallari bir vaqtning o'zida ko'pchilik bolalar qo'rib o'ynash uchun yirik qurilish materiallaridan foydalaniladi. Bu materiallar bolalarni ko'pchilik bo'lib qo'rishga, o'ynashga o'rgatadi. Guruhdagi bolalarning hammasi qurish usullarini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun mashg'ulot vaqtida stollarni har xil joylashtirish mumkin. Qurilishni yakka–yakka bajarayotganda stollarni odatdagi tartibda yoki P harfi shaklida terib qo'yish mumkin, agar bolalar bir qurilishni guruh bo'lib bajarsalar, 2-3 stolni birlashtirib qator qilib qo'yish kerak. Mashg'ulot vaqtida bolalarga qurilishning eng zarur usullari ko'rsatiladi, shuning uchun mashg'ulot uzoq cho'zilmasligi (10–12 daqiqadan oshmasligi) kerak. Qurish–yasash mashg'ulotlarini o'quv yilining birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, ikkinchi yarmida esa o'yinlar bilan chegaralansa ham bo'ladi. Bolalarni qurish–yasashning hamma usullarini ko'rsatishdan iborat.

Qurilishni qurishda qurish–yasashning hamma usullari ko‘rsatish va harakat bilan tushuntirish, tayyor qurilgan nusxani ko‘rsatish va unga kirgan elementlarni tahlil qilish. Namuna sifatida qurilish materiallaridan nimalar yasash mumkinligini ko‘rsatuvchi tayyor qurilishdan foydalanish. Bolalar bino, inshootni qo‘rishni bilib olishlari uchun (baland poydevorning ustini qanday bekitish, bir qismni qanday qilib boshqasi bilan almashtirish, tekislikni qanday kengaytirish va shu kabilar) qurilishning ayrim qismlarini ko‘rsatish. Tarbiyachi tomonidan bajarilayotgan qurilishning ayrim qismini davom ettirishni bolalarga taklif qilish. Quriladigan obyekt haqida tushuncha berish, masalan, qurilishning hajmini (katta–kichikligini) aniqlash, bunda qurilishning o‘yinchoqlarga mos bo‘lishini aytish. Bolalarni o‘zlari ijod qilib qo‘rishga o‘rgatish uchun zarur sharoitlar va ashyolar bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod - O‘zbekiston tarakqiyotining poydevori. "O‘zbekistan Oliy Majlisi IX seesiyasida so‘zlagan nutqi" 1997 yil.
2. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017-y.
3. P.A.Yusupova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T., "O‘qituvchi". 1995 yil.
4. K.M.Jabborova. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta‘lim-tarbiya berishning uziga xosligi. T., 2000 yil.



MAKTABGACHA TA‘LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA STEAM TEXNOLOGIYASI INTEGRATSIYASI

Maxmutazimova Yu.R.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta‘lim metodikasi"
kafedrasi o‘qituvchisi*

Zamonaviy ta‘lim tizimini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va yo‘nalishlaridan biri integratsion usullarni hamda innovatsion texnologiyalarni amaliyotda samarali qo‘llashdir. Bu ta‘lim jarayonining sifatini ta‘minlaydi va maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-shaxsiy rivojlanishi uchun jismoniy va aqliy salomatligini, individual-ijodiy rivojlanish trayektoriyasini, kelgusida maktabda sifatli o‘qishga psixologik va pedagogik tayyorgarlikni amalga oshirish va atrof-muhitga faol moslashishni hisobga olgan holda optimal sharoitlarni yaratadi.

1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yoshli) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari:

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-ta’limiy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati;

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalana olish jarayonlari kiradi.¹²

2. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari:

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari: yirik motorika, mayda motorika, sensomotorika va sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik)

- “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari: ijtimoiy rivojlanishda ijtimoiylashuv kattalar va tengdoshlari bilan muloqot, hissiy rivojlanishda hissiyot va ularni boshqarish va “Men” konsepsiyasini anglashi)

- “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari: nutq va til, o‘qish malakalari va qo‘l barmoqlari mayda motorikasi)

- “Bilish jarayonining rivojlanishi”sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari: intellektual bilish malakalari, elementar matematik malakalar, tadqiqi bilish va samarali reflektiv faoliyat)

- “Ijodiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari: dunyoni badiiy tasavvur etish, badiiy-ijodiy qobiliyatlar)

- Quyidagi keltirilgan kompetensiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga individual yondashuv, ularni jamoaviy hamkorlikka undash, bola shaxsini hurmat qilish, uning noyobligi va takrorlanmasligini his etish, ularning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g‘amxo‘rlik qilish, erkin ijodiy O‘z-o‘zini ko‘rsata olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish asosida shakllantirilib boriladi.

Kompetensiyalarni bola maktabgacha yosh davrida egallab borishini tarbiyachi-pedagoglar kuzatib, nazorat qilib boradilar va shu orqali bolaning maktabga tayyorlik darajasi belgilanadi. Ya’ni, bola maktabgacha ta’lim tashkilotida har tomonlama maktabga tayyorlanadi.

Shuningdek, boshlang‘ich muhim tayanch kompetensiyalarni birlashtirib, yaxlit mazmun kasb etishida maktabgacha ta’lim tizimida *KIBO*‘ integratsion usulini amalda qo‘llash, o‘rganib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning maktabga tayyorlov

¹² Ilk qadam o‘quv dasturi T.:2018. bet

guruhida ya'ni 6-7 yosh davrida 4 ta tayanch kompetensiyalarni mustaqil faoliyat jarayonida bir vaqtda ko'ra olish, rivojlantirish mumkin. Masalan, KIBO' –kommunikativ, ijtimoiy, bilish va o'yin kompetensiyalarini "Til va nutq" markazidagi ta'limiy faoliyatida ko'ra olamiz. Bola markazda ijtimoiy muhitda faoliyat olib boradi, tengdoshlari jamoasida o'ynaydi, bevosita kommunikativ muloqot qiladi, ushbu jarayonda bilishga, tushunishga qiziqish shakllanadi hamda barchasini o'yin tarzida amalga oshiradi.

K – kommunikativ kompetensiya

I – ijtimoiy kompetensiya

B – bilish kompetensiya

O' – o'yin kompetensiya

Globalashuv davrida ta'lim-tarbiya olish uchun murakkab vazifalarni qo'yadi: bolani kelajakda mustaqil hayotga tayyorlash, bu birinchi navbatda tez o'zgaruvchan axborot bilan ishlashga qaratilgan maxsus intellektual qobiliyatlarni talab qiladi. Olingan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish STEAM — ta'lim dasturining asosini tashkil etadi.

STEAM — ta'lim texnologiyasi har doim bilim va badiiy izlanishning holatiga asoslangan loyiha uslubiga asoslangan bo'lib, u o'z amaliy tajribasi asosida bilim olishda va keyinchalik olingan bilimlarni bolalar faoliyatining ustuvor yo'nalishlarida qo'llashda: o'yin, dizayn, bilim va tadqiqot faoliyati texnik ijod elementlari bilan juda qiziqarli, maroqli kechadi.

STEAM ta'lim texnologiyasi bolalarga dunyoni tizimli o'rganish, atrofdagi hodisalarning o'zaro munosabatlarini aniqlash va tushunish, yangi, g'ayrioddiy va juda qiziqarli narsalarni kashf qilish imkonini beradi. Yangi narsalar bilan tanishishga qiziqish va kognitiv faoliyatni rivojlantiradi; o'zingiz uchun qiziqarli vazifani aniqlash, usullarni tanlash va uni hal qilish uchun algoritim yaratish, natijalarni tanqidiy baholash qobiliyati — muhandislik fikrlash uslubini ishlab chiqish va jamoaviy faoliyat qobiliyatini rivojlantiradi. Bularning barchasi bolaning rivojlanishini tubdan yangi, yuqori darajasini ta'minlaydi va kelajakda erkin kasb tanlashda yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

Bundan ko'rinadiki, STEAM ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ham ta'lim-tarbiyasiga samarali ta'sir etish mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda bolalarning ilk yosh davridanoq ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor va mas'uliyat bilan yondashish, ularni maktabga tayyorlashda turli zamonaviy innovatsion usullarni amalda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bola shaxsini shakllantirishda eng avvalo uning yoshi va yosh xususiyatlariga mos tarzda ta'lim-tarbiya dasturlarini ishlab chiqish juda muhimdir.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim,

ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ta'limning yangi modelida jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga e'tibor berilar ekan, psixologiya va pedagogika sohasining vazifalari ham malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, ya'ni shaxsiy fazilat, xislatlarini bilgan tarzda ta'lim-tarbiya faoliyatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsata oluvchi shaxslarni tarkib toptirishdir.

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini kommunikatsiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Negaki, ta'lim tizimi poydevori sifatida maktabgacha ta'lim davrida bolalarning o'z fikri, muloqoti, dunyoqarashi, o'z nutqini og'zaki bayon qila olishi uning faol shaxs bo'lib shakllanishini belgilab beradi. Davrning integratsiya va globallashtirish jarayoni yangicha va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, bugungi zamonaviy dunyoning asosini ham barqaror taraqqiyotini ham aynan kommunikatsiyasiz tasavvur etish qiyin bo'lib bormoqda. Biroq bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasida davr talabiga mos innovatsion g'oyalarni kashf etish, yangicha yondashuvlar va kreativ fikrlash jarayonida ishlash muammo bo'lib turibdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, aqliy-ma'naviy kamoloti, saviyasi, qobiliyati, muloqotga kirisha olish ko'nikmasi shu ma'noda o'ta dolzarb masaladir. Davr taraqqiyoti shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yosh davrida bolani muomala madaniyatiga ega, komil va barkamol shaxs etib kamol toptirishda birinchi navbatda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish asosida amalga oshiriladi.

Demak kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda keng ma'noda atrofdagilar bilan muloqotga kirisha oladigan, turli foydali axborotlarni qabul qilib, ularni umumlashtirgan holda mustaqil fikrlarini bayon qila oladigan shaxsni kamol toptirishni maqsad qilib olishimiz darkor. Maktabgacha ta'lim tizimini ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan innovatsiyalar ota-onalardan tortib sohadagi barcha pedagoglarning bola tarbiyasi, uning sifatli ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni 2019 yil 14- dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 802-son 2020 yil 22- dekabr.
3. "Bolalar bog'chasida ta'lim dastur i" - T., 1993. 1999, 2000 yillar.

TARBIYACHINING MA'NAVIY MODELI

Maxmutazimova Yu.R.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi*

Saidmurodova R.

1-kurs talabasi

Tarbiyachi, o'qituvchi, muallim, domla, ustoz, murabbiy, degan so'zlarni xalqimiz samimiy hurmat, minnatdorchilik bilan tilga oladi. Bu albatta bejiz emas. Zero inson aqlini taniganidan boshlab yoshi ulug' kattalardan, bilimli tajribali kishilardan tarbiya, tahsil va odob o'rganadi.

Hayotga endi kirib kelayotgan, kun sayin bo'y cho'zib, to'lishib, balog'atga etib, atrofdagi narsa va hodisalarni, tabiat va jamiyat sirlarini bilib olishga zo'r ishtiyoq bilan intilayotgan "Eng bilimdon", "Eng donishmand" kishi, inson kamolotining oliy namunasidir.

O'qituvchi – avlodlarni bir-biriga bog'lovchi "Tilla halqa", o'qituvchilik esa, boqiy kasbdir.

Tarbiyachi jamiyatda juda muxim mas'uliyatli ish bajaradi. Muallimning mehnati shu bilan qadrlanadiki, u odamni, uning ma'naviyatini, dunyoqarashi, axloqiy e'tiqodini shakllantiradi. OO'qituvchidan, tarbiyachidan ta'lim-tarbiya olayotgan bola hayotda kim bo'lib yetishmasin o'zini sevimli muallimini, ta'lim olgan maktabini minnatdorchilik bilan eslab yuradi.

Darhaqiqat o'qituvchi axloq tarbiyachisidir. U barcha fanlardan dars berish bilan birga yoshlarni imon, e'tiqodli halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibatli, savob, gunoh, halol bilan haromni farqlash kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlarini, axloq-odob qoidalariga singdiradi. U yosh avlodga milliy g'urur, vatanparvarlik, "Mening Vatanim O'zbekiston", xalqim deb yashashga da'vat etadi. Shu jarayonda o'qituvchidan professional kasb odobiga rioya etish talab etiladi. Muallimlik, kasbiy odob-axloq, boshqa kasb axloqi, odobidan farq qilib, bu pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Professional axloqqa doir bir necha asarlarning muallifi Y.G. Yakubsan kasb axloqini shunday ta'riflaydi: "Professional etika malum bir jamiyatda ayrim kasb uchun xarakterli bo'lgan axloqiy normalar, tushunchalar, baho va ideallarning majmuidan iborat" Professional etika nazariyachilari o'z asarlarida kasb axloqining umummilliy axloq bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlab ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar o'z kuzatishlarida yuqoridagi vazifalarni bajaruvchi tarbiyachi-pedagoglar bilan bir qator fanlarni o'zlashtirgan bo'lsalar ham, lekin kasb axloqining mavjud qonun-qoidalar mezonlariga doir bilim, ko'nikma, malakalar juda kamligi har qadamda sezilib turadi. Bu esa pedagogik jarayonda qator chalkashliklar, xatoliklarga olib keladi. Tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligini pasaytiradi.

Yurtboshimiz I.A.Karimovning chop etilgan asarlarida, Oliy Majlis sessiyalarida so'zlagan nutqlarida o'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy-milliy, madaniy qadriyatlarini uning odob axloqini belgilab beruvchi "Qur'oni Karim, Hadisi Shariflarda Imom Al Buxoriy, Termiziy, Bahovuddin

Naqshband, Az-Zamaxshariy kabi mutafakkirlarning bebaho merosini va allomalarning jahon fani va madaniyatini xazinasiga qo'shgan hissalarini yosh avlodga tadqiq etish hamda shu asosda ularni tarbiyalashni ta'kidlagan.

Ma'naviyat – tarbiyaning eng ta'sirchan quroli, undan oqilona foydalanish lozim. Axloq-ma'naviyatning o'zagi, inson axloqi shunchaki salom-alik, yaxshi muomaladagina emas, axloq-bu avvalo insof, odob tuyg'usi, imon, halollik demakdir.

“Qadimgi ajdodlarimiz degan edi I.A.Karimov, komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamon tilida aytsak sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar.Shunga muvofiq ravishda zamon talabi asosida tarbiyachining ma'naviy qiyofasining zamonaviy modelini yaratish g'oyasi tug'ildi. Ya'ni bunga o'qituvchining :

- o'z sohasi bo'yicha etuk va fundamental bilimlarga qay darajada ega ekanligi;
- pedagogik mahorat va qobiliyatlarini o'z o'rnida qo'llay olishi;
- nutqi ravon, dunyoqarashi keng, fikrlash doirasi yuqori darajada bo'lishi;
- kasbiy vijdoni va qadr-qimmatini, obro'si yuksak saviyada bo'lishi;
- o'zini tuta bilish madaniyati, kiyinish, yurish, turish, uzoqni ko'ra bilish san'ati;

Ushbu yuqoridagi yuksak insoniy sifatlar bugungi kun tarbiyachisining ma'naviy qiyofasini namoyon qiladi va pedagogning o'ziga xos modelini yaratishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov “Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch” T-2008 yil
2. O.Xasanboyeva “Barkamol avlod ma'naviyati” T-2010 yil
3. M.Jumaboyev “O'zbek bolalar adabiyoti” T-2009 yil
4. O.Xasanboyeva “Oila pedagogikasi” T-2010 yil

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В ДОО

Миннуллина Р.,

к.п.н., доцент, Елабужский институт «Казанский (Приволжский) федеральный университет», Россия mrozaliya5@yandex.ru

Нуриева А.

старший преподаватель, Елабужский институт «Казанский (Приволжский) федеральный университет», Россия nurieva-alesya@mail.ru

К организационно-педагогическим условиям организации патриотического воспитания с детьми старшего дошкольного возраста можно отнести: повышение профессиональной компетентности педагогов по проблеме патриотического воспитания у детей старшего

дошкольного возраста; вовлечение родителей в процесс патриотического воспитания у детей старшего дошкольного возраста; организация среды для реализации патриотического воспитания у детей старшего дошкольного возраста.

Под профессиональной компетентностью педагога ДОО понимается совокупность общечеловеческих моральных качеств и профессиональных установок, благодаря которым он успешно справляется со своей основной задачей, а также с нестандартными ситуациями, которые возникают в дошкольной организации педагогической работе. Решение их способствует совершенствованию педагога, развитию его общих и специальных способностей [8]. Большинству педагогов, особенно начинающим, всегда необходима помощь – со стороны более опытных коллег, руководителей, старших воспитателей ДОО, со стороны профессионального методического сообщества, в настоящее время прослеживается многократное усиление этой потребности. Для успешного достижения целей в деятельности дошкольного учреждения необходимо стремление педагогов работать эффективно. В результате внедрения в работу воспитателей достижений психолого-педагогической науки и передового педагогического опыта возникло немало новых форм повышения профессионального мастерства педагогов [2]. Поэтому, в ДОО регулярно проводится работа по повышению профессионального мастерства педагогов. Формы работы разные: семинары, консультации, деловые игры, мастер-классы, наставничество, просмотр видеозаписей непосредственной образовательной деятельности коллег из других детских садов, ролевые игры, вовлечение родителей в процесс патриотического воспитания у детей дошкольного возраста [7]. Нами проведено исследование на базе МАДОУ «ДС №6» г. Нижнекамска. В экспериментальной работе приняло участие 40 семей воспитанников старших групп «Незабудка» и «Кораблик», 4 педагога. После реализации предложенных условий, нами повторно был проведен опрос дошкольников, включающий те же самые вопросы, что и на констатирующем этапе. За каждый правильный ответ, дошкольнику присваивался 1 балл, в результате мы оценивали уровень сформированности патриотического воспитания:

Результаты повторного опроса ЭГ детей (Контрольный этап)

Таблица 1

Уровни	Уровень патриотического воспитания ЭГ дошкольников		Уровень патриотического воспитания КГ дошкольников	
	Количество дошкольников	%	Количество дошкольников	%
Высокий	8	40	4	2
Средний	12	60	11	55
Низкий	0	0	5	25

Таким образом, не смотря на то, что преобладающим уровнем патриотического воспитания ЭГ детей так и остался средний уровень (60%), дети на все вопросы ответили правильно, кроме вопроса «Какие достопримечательности ты любишь посещать с родителями?», у детей повысился показатель высокого уровня. Он был выявлен уже у 40 % детей – они правильно ответили на все вопросы, дали полные ответы на вопросы и «За что ты любишь свой город?» и «Какие достопримечательности ты любишь посещать с родителями?», свои ответы обосновали рассуждениями. Низкого уровня не отмечено. В то же время в КГ заметных изменений выявлено не было. По результатам видно, что прослеживается положительная динамика уровня патриотического воспитания в ЭГ детей: высокий уровень по сравнению с уровнем ЭГ детей на констатирующем этапе повысился на 25 %, средний уровень остался без изменений, а низкий уровень уменьшился. Полученные данные доказывают эффективность реализации предложенных условий. В КГ детей заметных изменений выявлено не было.

Обогащение среды пособиями для формирования патриотических чувств, так же способствуют развитию познавательной активности и представлений о патриотическом развитии. Многие дети заинтересованно используют различные дидактические пособия, оборудование и оснащение игровых зон в повседневной жизни детского сада. Глядя на полученные результаты у детей, можно сделать вывод о том, что, они доказывают эффективность выбранных педагогических условий. Затем мы провели повторный опрос педагогов ЭГ и педагогов КГ. Результаты анкетирования педагогов в ЭГ показали: достаточный уровень профессиональной компетентности у 2 педагогов (100%), допустимого уровня профессиональной компетентности нет ни у одного педагога (0%), критического уровня профессиональной компетентности нет ни у одного педагога (0%). Результаты повторного опроса педагогов КГ (группа «Кораблик») показали следующее: достаточный уровень профессиональной компетентности нет ни у одного педагога (0%), допустимый уровень профессиональной компетентности стал у 2 педагогов (100%), критического уровня профессиональной компетентности нет ни у одного педагога (0%). Исходя из результатов повторного опроса педагогов ЭГ, можно сделать вывод, что уровень их профессиональной компетентности в вопросах взаимодействия с семьями воспитанников по патриотическому воспитанию детей повысился. Результаты опроса КГ педагогов показали, что положительная динамика присутствует, но не в значительной степени.

Результаты повторного анкетирования родителей (контрольный этап) Таблица 2

Уровень	Родители ЭГ детей		Родители КГ детей	
	Количество родителей	%	Количество родителей	%

Оптимальный	8	40	6	30
Допустимый	9	45	8	40
Недопустимый	3	15	6	30

По результатам следующие: у большинства опрошенных родителей ЭГ повысился уровень сформированности представлений о важности патриотического воспитания детей, процент семей с недопустимым уровнем значительно снизился. Многие семьи стали более заинтересованы вопросом патриотического воспитания, принимать активное участие в образовательном процессе. В тоже время стоит отметить, что результаты анкетирования КГ родителей существенно не изменились.

Таким образом, можно сделать вывод, что по организации патриотического воспитания детей дошкольного возраста в ДОО дала положительные результаты. По нашему мнению, первоначально педагоги и родители должны: как можно раньше пробудить в детях любовь к родной земле, городу, стране; формировать у них такие черты характера, которые помогут стать достойным человеком и достойным гражданином своей страны, воспитывать любовь и уважение к родному дому, детскому саду, улице, родному посёлку, деревне, селу; формировать чувство гордости за достижения страны, любовь и уважение к армии, гордость за мужество воинов, развивать интерес к доступным ребенку явлениям общественной жизни.

Л и т е р а т у р а :

1. Лесунова В.В. Патриотическое воспитание дошкольников как основа формирования нравственно здоровой личности // Молодой ученый. - 2018. - № 43 (229). - С.73.
2. Носаева И.А. Проблемы патриотического воспитания детей дошкольного возраста // Вопросы науки и образования. - 2018. - № 6 (18). - С. 141-143.
3. Измоденова, Т. Путешествуем по историческим местам Москвы : занятие по патриотическому воспитанию детей старшей группы. Посвящено 200- летию Отечественной войны 1812 года / Т. Измоденова // Дошкольное воспитание. - 2014. - № 7.



INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Mirdadayeva N.I.

Toshkent shahar Sergeli tumani 605-DMTT metodisti

Hozirgi kunda Respublikamizda maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab-internatlar mavjud bo'lib, ushbu ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ammo ko'plab sabablarga ko'ra ayrim imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibda o'qishmoqda yoki ayrimlari esa batamom ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini tashkil etish masalasi eng dolzarb masalalar qatorida qarala boshladi. Natijada, 1990 yilda Tailandda o'ta muhim Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilindi. "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasini dunyoning 155ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasi har bir bolaning to'laqonli va mukammal ta'lim olishini kafolatladi. Ushbu Deklaratsiyada quyidagicha bayonot qilingan: "Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas ish sifati va maktab ta'limiga javob berishi bilan xarakterlanadi.

1994 yilning 7-10 iyun kunlarida Ispaniyaning Salamanka shahrida 2-yirik Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur Konferensiya "Salamanka Deklaratsiyasi va alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limining kelgusida ijrosini ta'minlash Ramkasi" deb atalib, shu yili "Salamanka bayonoti va Ish faoliyat Rejasi" nom bilan uning ish mavzuni nashr etildi. Salamanka bayonoti va Ish faoliyati Rejasining asosiy yetakchi tamoyili shundan iboratki, maktablar barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hissiy, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar o'qishga qabul qilishlari lozim. Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasining ishlab chiqilishi jahon miqyosida "Ta'lim hamma uchun" mazmunidagi ta'lim siyosati ilgari surilib, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimi sharoitida o'qitishning yo'llari belgilab berildi. Ammo bu ta'lim tizimining mazmun-mohiyatini yanada aniqroq va mustahkamroq huquqiy jihatdan asoslash, qat'iy belgilab berish lozim edi. Shuning uchun 2000 yilning 26-28 aprel kunlari Dakarda ta'lim to'g'risida xalqaro Forum qatnashchilari tomonidan "Dakar harakat dasturi" qabul qilindi. Ular 10 yil oldin qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun" Xalqaro Deklaratsiya (Djomten-Tailand-1990 yil) ni qayta tasdiqlab, ratifikatsiya qildilar. Dakar harakat dasturi "2000 yilga qadar jahon miqyosida ta'lim hamma uchun amaliy faoliyatining darajasini baholash" maqsadiga asoslanildi. Bu baholashda har bir davlat o'zining ta'limni barcha bolalar uchun ta'minlanganlik darajasini tahlil qilib chiqish vazifasi topshirildi.

Dakar harakat Ramkasiga kirgan barcha davlatlar 2002 yilga qadar "Ta'lim hamma uchun" rejasini mukammal tuzib, 2015 yilga qadar bu ta'lim tizimini amaliyotga to'liq joriy etishlari lozim deb topildi. Ushbu harakat Ramkasi tarkibiga kiruvchi davlatlarning barchasi "Har bir insonga va har bir jamiyatga" shiori ostida barcha insonlar va bolalar ta'limini to'laqonli ta'minlash majburiyatini oladilar. Bu harakat dasturida "Ta'lim xavfsiz, sifatli, bolaning sog'lig'ini himoya qilib, mustahkamlaydigan, hamma uchun birdek, inklyuziv tarzda va barcha zaruriy resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. O'qituvchilar saviyasi va o'quv rejalar "Ta'lim hamma uchun" maqsadlariga javob berishi kerak"-deb belgilangan ("Dakarskie ramki deystiy"-Fransiya 2000 yil, 20-21 betlar).

Shunday qilib, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyatning to'laqonli va tenghuquqlik a'zosi ekanligi e'tirof etilib, ular ta'limida alohida yangicha yondashuv maydonga keldi. Bu ta'lim tizimlari barcha bolalarning tili, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, jismoniy va ruhiy holatlaridan qat'iy nazar ta'limga jalb etishni ko'zlovchi "inklyuziv" ta'lim nomi bilan ataldi.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlar asosida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni ham umumta'lim muassasalarida teng huquqlilik asosida o'qitish va tarbiyalash masalasi huquqiy jihatdan kafolatlandi. Chunki alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limining samarali tashkil etilishi natijasida imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo'lgan oilalarning moddiy va ma'naviy muammolariga barham beriladi va mahallarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktablar va jamoatchilik orasida kamsitishlarning oldi olinadi, bolalar o'rtasida teng huquqlilik ta'minlanadi, do'stona munosabatlar shakllanadi.

Maxsus ehtiyojli bolaning o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishdek ulkan imkoniyat yaratiladi, jamiyatning yanada inklyuzivlashuviga olib keladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari ta'minlanadi, ya'ni jamiyatda boshqalar ko'magiga qaramlar soni kamayadi.

Xulosa qilib aytganda imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limi asosan umumiy, maxsus ehtiyojli bolalarning yashash joyiga yaqin bo'lgan muassasalarda tashkil etiladi. Bunday muassasalar barcha bolalarning turli jismoniy ehtiyojlari, yakka xususiyatlari, ularning qobiliyatlari, o'qitish usullari va ta'lim bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi hamda ularning imkoniyatlari, o'zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda, tabaqalashtirilgan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Bogdanova T.G. Surdopsixologiya. –M., 2002.
2. L.Mo'minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
3. P.Po'latova, L.Nurmuxamedova, Sh. Amirsaidova Maxsus pedagogika -T.: Fan va texnologiyalar, 2014.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI QURISH-YASASHGA O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mirdadayeva N.I.

Toshkent shahar Sergeli tumani 605-DMTT metodisti

Qurish-yasash lotin tilidan olingan bo'lib, turli predmetlarni, qism va elementlarni ma'lum bir holatga keltirish, degan ma'noni bildiradi. Bolalarni qurish-yasashida qurilish materiallaridan,

qog'ozdan, karton, daraxt va boshqa materiallardan turli xil o'yinchoqlar yasash o'rgatiladi. O'z xarakteriga ko'ra bolalar qurish-yasashi ko'pincha tasviriy va o'yin faoliyati bilan o'xshashdir—bu tevarak atrofda aks etadi. Bolalarning yasagan narsalari asosan amaliyotda ishlatiladi. Masalan: o'yinlar, archani yasatish uchun, onalarga sovg'a uchun.

Qurish-yasash faoliyati – amaliy faoliyat bo'lib, oldindan belgilangan, biror maqsadga qaratilgan real voqealidir. Qurish-yasash faoliyatiga o'rgatish jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi yanada shakllanib boradi, hamda ularda tevarak-atrofdagi predmetlarni tahlil qilish ko'nikmasi, mustaqil fikrlash, badiiy did, shaxsning ifodaviy sifatlaridan (maqsadga intilish, qat'iylik va hokazo...) tarkib topa boshlaydi, bularni barchasi bolalarni maktabda o'qishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni qurilish materiallari yordamida o'yin va mashg'ulotlar o'tkazishning ahamiyati katta. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotida qurilish materiallari yordamida o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta o'rin egallaydi. Bolalarning qurilish o'yinlari rollarga bo'linib, o'ynaladigan o'yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qurilish o'yinlarida ham bolalar tevarak atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar.

Qurilish o'yinlarining mazmuni bolalarning o'zlari yaratadilar. Bolalar ko'pincha kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, "Quruvchi ishchi" rolini bajaradilar. Bolalarning qurilish o'yinlari qiziqarli ijodiy faoliyatdir. Ular o'z o'yinlarida qurilishlarni transport harakati, kattalarning mehnati haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar. Bunday o'yinlar bolalarda tashabbuskorlikni uyg'otishga, ularni fikr yuritish va harakat faoliyatlarini faollashtirishga keng imkon yaratadi. Mashg'ulot va o'yin vaqtida bolalar bir–birlari bilan turlicha munosabatda bo'ladilar. Ular rollarni o'zaro bo'lishib oladilar, ishlarni bajarishda bir birlariga yordam beradilar va maslahatlashadilar. Qurilish o'yinlarida harakat elementlari ko'p bo'lib, u bolalarning harakat qilishga nisbatan bo'lgan talablarini qondirishga yordam beradi. Bola biror narsani qo'ra boshlaganda qurilish materiallarini tegishli joyga olib boradi, ularni stol yoki pol ustiga joylashtiradi, engashadi, bu vaqtda uning qo'llari faol harakat qiladi, ya'ni ma'lum miqdorda jismoniy kuch sarflaydi.

Mayda qurilish materiallari bilan o'ynaganda qo'lning mayda muskullari yaxshi rivojlanadi. Qurilish o'yinlari o'ynash natijasida bolalarning kuzatuvchanligi ortadi, texnikaga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi. Bundan tashqari ular o'yin jarayonida oddiy geometrik shakllarning tuzilishi bilan ham tanishadilar. Qurilish o'yinlarining tarbiyaviy ta'siri bolalar aks ettiradigan hodisa va narsalarning g'oyaviy mazmuni o'z aksini topadi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda tafakkurning tahlil va sintez, taqqoslay bilish kabi jarayonlari hali sust rivojlangan bo'ladi. Qurilish materiallari yordamida o'tkaziladigan o'yinlar esa bolalarning tafakkurini, ijodiy qobiliyatini o'stiradi.

Tarbiyachining ko'rsatgan narsasini esda saqlab qolish va uni qayta esga solish bolalarni narsalarni bir–biriga solishtirishga, tahlil va sintez qilishga, o'xshashini topib qo'yishga va farqini ajrata bilishga majbur qiladi va qurilishdagi vazifalarni pala–partish bajarmaslikka, tasodifiy xulosa bilan qoniqib qolmay, balki maqsadga muvofiq yo'l tutishga o'rgatadi. Bolalar bilimni mavzuli ravishda qurilish o'yinlari faqat tevarak–atrofni bilib olish vositasigina bo'lib qolmay, balki axloqiy sifatlarni tarbiyalovchi vosita hamdir. Bolalar bevosita kuzatayotgan qurilishdagi konkret misollar bolalarning o'zbek xalqi o'z mehnatini qanchalik sevishini tushunishlariga yordam beradi. Qurilish o'yinlari orqali tarbiyachi bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, o'z ishiga javobgarlikni hissini tarbiyalab borishga harakat qiladi. Bolalar jamoasini to'g'ri tashkil etishda qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega. Qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar bolalarni maktabga tayyorlash ishini amalga oshirishda ham yordam beradi. Bu o'yin va mashg'ulotlar jarayonida bolalarda diqqatni bir joyga to'plash, oldiga qo'ygan maqsadga chidam va sabot bilan erishish, olgan bilimi va malakasi asosida ijodiy tashabbuskorlik ko'rsatish xususiyatlari shakllanib boradi. Qurilish haqidagi asosiy bilimni bolalar qurish–yasash mashg'ulotida egallaydilar. Ana shu mashg'ulotlarda ular narsalarning elementar ko'rinishlarini, qurilish qismlaridan maqsadga muvofiq foydalana olishni o'rganadilar va qurilishni badiiy jihatdan bezashning oddiy usullarini o'zlashtirib oladilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi kichik bolalar qurish–yasashga bir necha bor urinadilar, ular faqat qurilish to'plamlaridagi materiallarni yapaloq tomoni bilan qo'yib terib chiqadilar yoki bir-birining ustiga qo'yadilar.

Tarbiyachi bolalarni har xil narsalar qo'rishga o'rgatgan bo'lsa, kichik yoshdagi bolalarning qurilish o'yinlarida u o'z aksini topadi. Qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar uchun zaruriy sharoitlar. Bolalar qurish texnikasini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun guruhlarda zarur shart–sharoitlarni yaratish lozim. Buning uchun avvalo guruhda yetarli miqdorda qurilish materiallari bo'lishi, ya'ni hamma bolalar bir vaqtda yoki hech bo'lmaganda yarim guruh bolalar mashg'ul bo'la oladigan darajada material bo'lishi zarur.

Qurilishni qurishda qurish–yasashning hamma usullari ko'rsatish va harakat bilan tushuntirish, tayyor qurilgan nusxani ko'rsatish va unga kirgan elementlarni tahlil qilish. Namuna sifatida qurilish materiallaridan nimalar yasash mumkinligini ko'rsatuvchi tayyor qurilishdan foydalanish. Bolalar bino, inshootni qo'rishni bilib olishlari uchun (baland poydevorning ustini qanday bekitish, bir qismni qanday qilib boshqasi bilan almashtirish, tekislikni qanday kengaytirish va shu kabilar) qurilishning ayrim qismlarini ko'rsatish. Tarbiyachi tomonidan bajarilayotgan qurilishning ayrim qismini davom ettirishni bolalarga taklif qilish. Quriladigan obyekt haqida tushuncha berish, masalan, qurilishning hajmini (katta–kichikligini) aniqlash, bunda qurilishning o'yinchoqlarga mos bo'lishini aytish. Bolalarni o'zlari ijod qilib qo'rishga o'rgatish uchun zarur sharoitlar va ashyolar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. L.V.Kusakova. «Konstruktirovanie i ruchnoy trud v detskom sadu». M.: «Prosvещenie».1990.
2. O.Jamollidinova. «Katta bog'cha bolalarini xalq hunarmandchiligiga o'rgatish bo'yicha ish dasturi» T.:1996.
3. M.A.Gusakova. Applikatsiya. M., «Prosvещenie» 1977. 15.Sakulina N.P. Risunok, applikatsiya, rabota s glinoy v detskom sadu. M.: Prosvещenie. 1993.
4. M.Nurmatova, Sh.Xasanova. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. «Cho'lpon». T., 2010 y.
5. M.Nurmatova, Sh.Xasanova. Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyat metodikasi. «Musiq». T., 2010
6. Sh.T.Xasanova. Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazaryasi va metodikasi.T.: "TDPU", 2020 y.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA CHET TILINI O'RGATISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Muratova S.U.

Sergeli tuman 46-sonli KTIDMTT uslubchisi.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv sharoitida yoshlarni Vatanga sadoqat, begona, yot g'oyalarga qarshi kurash ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish dolzarb vazifaga aylangan va yosh avlodga sport, fan, madaniyat sohasida juda katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu imkoniyatlarni ta'limning barcha sohalarida ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: Sh. Mirziyoyevning 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707 sonli "2017-2021- yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorga imzo chekishlari ham bolalarga berilayotgan imkoniyatlar eshigini yanada keng ochmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida bolalarni tarbiya qilish bilan bir qatorda chet tillarni o'rganishga bo'lgan layoqatlarini oshirishga ham alohida urg'u berilayotgani bejiz emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlariday: "Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliylik va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biridir. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir".

Maktabgacha ta'lim sohasidagi bolalarga til o'rgatishdan asosiy maqsad — har tomonlama barkamol, etuk, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Bolalarga chet tilini o'rgatishga oid nutq ko'nikmalarini hosil qilish uchun olib boriladigan mashg'ulotlar qiziqarli, ko'rgazmali va albatta zamon talablariga mos innovatsion usullarda bo'lishi kerak. Bu yoshdagi bolalar axborotni tez va oson qabul qiladi, qiziquvchan bo'ladi, bilimlarni esda saqlash qobiliyati yuqori bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mas'uliyat talab qiladi, bunda bolalarning zerikib qolmasliklari muhim ahamiyatga ega. Bunda turli multfilmlar, qo'shiqlar, harakatli o'yinlar, rasmlar, rasmiy kitoblar, amaliy mashg'ulotlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bolalarga ingliz tilini o'rgatishning samarali usullaridan biri — o'yinlar orqali o'rgatishdir.

O'yin bola faolligining asosiy shaklidir. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi.

Navbatdagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir.

Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida etakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

Bu o'sib — ulg'ayayotgan bola organizmining tabiat, atrof-muhit obyektlari haqida ma'lumot yig'ishiga, kattalarga taqlid qilishiga, faol harakat qilishiga ehtiyoj, uning muhit bilan o'zaro aloqasi

shakllanadigan faoliyat turidir. O‘yinlarda bola bajara olmaydigan talablar qo‘yilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, o‘yin bola hayoti, madaniyati va faoliyatini tashkil qilish shakli sifatida uning yangi muhitga ko‘nikish shartidir.

Bola o‘yinlar vositasida tilni o‘zlashtira boshlashini quyida bir necha o‘yinlar misolida ko‘ramiz :

Birinchi mashg‘ulot . Mavzu: Colours — (ranglar)

Mashg‘ulot mavzusi noodatiy usulda “Zanjir” o‘yini yordamida yoritiladi. Buning uchun avvalo, ranglar proyektor yordamida bolalarga ko‘rsatiladi va ingliz tilidagi nomi o‘rgatiladi. Keyin turli rangli narsalarni ko‘rsatib rangi so‘raladi:

What colour is it ? Bolalar tasvirdagi jism rangini aytadilar. It is(yellow, red, green kabi)

Ranglarni yodda olib qolishlari uchun bolalar aylana holatda joylashtiriladi va tarbiyachining ko‘rsatmasiga binoan, o‘ng yoki chap tarafdin birinchi ishtirokchi o‘yinni boshlaydi. Birinchi ishtirokchi bir rang nomini aytadi (masalan yellow — sariq), ikkinchi qatnashchi esa avval aytilgan rangni takrorlaydi va keyin o‘zi bir rangni aytadi (quyidagi ketma — ketlikda yellow-red). Uchinchi ishtirokchi esa dastlab birinchi, so‘ng ikkinchi, oxirida esa o‘zining ranglarini aytadi (yellow-red — black). O‘yin shu tarzda davom etadi. Ranglar ketma-ketligida xatoga yo‘l qo‘ygan yoki biror rangni tushirib qoldirgan ishtirokchilar o‘yinni tark etadilar. O‘yin g‘olib aniqlanmagunga qadar davom etadi. Bolalar o‘yin o‘ynash bilan bir qatorda til o‘rganishadi va xotiralarini mustahkamlab olishadi.

Ikkinchi mashg‘ulot. Mavzu: Fruits — (mevalar)

Bolalarga mevalarning o‘zi yoki ularning rasmi ko‘rsatilib, ingliz tilidagi nomlari aytiladi. Meva nomlari bir necha marta qaytarilgandan so‘ng, bolalarga mevalarning nomi o‘zbek tilida aytiladi. Bolalar mevaning o‘zini topib ko‘rsatishlari va ingliz tilidagi nomini aytishlari kerak bo‘ladi. Bolalarga, shuningdek juftlikda bo‘yash uchun turli meva rasmlari tarqatiladi. Bolalar meva rangini to‘g‘ri topib bo‘yashlari va meva rangini ingliz tilida aytishlari kerak. Bu o‘yin orqali bolalarda muloqotga kirishish, hamkorlikda ishlash, farqlash qobiliyati, og‘zaki nutq rivojlantiriladi.

Uchinchi mashg‘ulot : Kim yo‘q? Who is missing ?

Bolalarga turli hayvonlar (o‘yinchoq) ko‘rsatiladi va nomlarini ingliz tilida aytiladi, bir necha bor qaytariladi. Bolalar barcha o‘yinchoq nomlarini bilishlariga ishonch hosil qilgach, bolalar ko‘zlarini yumib turganda ulardan biri olib qo‘yiladi. Bolalardan qaysi o‘yinchoq yo‘qligini topishlari so‘raladi. Bunda xotira, diqqat, topqirlik rivojlantiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, har bir mamlakatning, yurtning istiqboli, ertangi kun egalari bo‘lgan yosh avlodga ta’lim — tarbiya berishda sharaflari kasb egalari bo‘lmish ustozlar zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Ustozlar bergan bilim kelajagimizning poydevorini qurish uchun zamin yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda interfaol usullardan biri hisoblangan o‘yinlar yordamida mashg‘ulotlarni tashkil etish tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi

bo'shliqni to'ldirishga, bolalarda yangi tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshirishga katta yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Андреева Н.Ф. Планирование работы по патриотическому воспитанию в ДОУ //Управление ДОУ. – 2005. - № 1. – С. 16 – 26.
2. O'zbekistan Respublikasi maktabgacha tarbiya Kontseptsiyasi. T. - 1992 yil.
3. Maktabgacha tarbiya muassasi tugrisidagi Nizom. T. - 1995 yil.
4. "Bolalar bogchasida ta'lim dastur i" - T., 1993. 1999, 2000 yillar.
5. Гутникова Л. Спортивный праздник, посвященный Дню Победы //Дошкольное воспитание. – 2005. - № 4. – С. 49.



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИНИ RIVOJLANTIRISHDA JANUBIY KOREYA TAJRIBALARI

Murodova A.B.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi"
kafedrasi o'qituvchisi*

Bugungi kunda Janubiy Koreya iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish sohalaridagi muhim yutuqlari bilan tanilgan. Juda qisqa tarixiy davrda bu mamlakatning jadal rivojlanishi sabablaridan biri, koreyslar ta'limining yuqori darajasi, ta'lim nufuzining o'sishi, zamon talablariga javob beradigan ta'lim islohatlarining muvaffaqiyati deb ataladi.

Ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim bosqichi alohida ahamiyatga ega, chunki u keyingi ta'limning rivojlanishi uchun asos yaratadi. Shuning uchun Janubiy Koreyada maktabgacha ta'limni rivojlantirishning ijobiy tajribasi va hozirgi tendensiyalarini o'rganish dolzarb bo'lib, muhim nazariy va amaliy qiziqishlarga ega.

Janubiy Koreyadagi maktabgacha ta'lim tizimi haqida gapirganda, uning o'zgaruvchan ekanligini ta'kidlash kerak. Asosiy maktabgacha ta'lim muassasalar bolalar bog'chalari va bolalarni parvarish qilish markazlari. Bolalar bog'chalari (bolalar bog'chalari) 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshiradi. Janubiy Koreyada xususiy va davlat bolalar bog'chalari mavjud. Ularga bolalarning taxminan 40% qamrab olingan. Davlat bolalar bog'chalari odatda boshlang'ich maktablarda joylashgan bo'lib, 1- 2-guruhlardan iborat. Bunday bolalar bog'chasida doimiy ravishda ishlash uchun bolalar bog'chasi tarbiyachisining tegishli litsenziyasiga ega bo'lishi talab etiladi. Biroq, Janubiy Koreyadagi bolalarning atigi to'rt dan bir qismi davlat bolalar bog'chalarida ro'yxatdan o'tgan.

Xususiy sektor 1980 yildan beri bolalar bogʻchalarini rivojlantirishda yetakchi rol oʻynaydi. 2009 yilda bolalarning 76,6% xususiy bolalar bogʻchalariga qatnashdi. Xususiy bolalar bogʻchalarini xususiy korxonalar boshqaradi. Davlat bolalar bogʻchalari koʻproq boʻlishiga qaramay, xususiy tashkilotlar odatda kattaroq va asosan ota-onalar taqdim etilayotgan xizmatlar uchun pul toʻlashga qodir boʻlgan shaharlarda joylashgan. Ushbu bogʻchalarning aksariyati oʻz binolariga ega va qoida tariqasida bir nechta guruhlarni oʻz ichiga oladi: bogʻchalarning 29,6% toʻrt- beshta guruhga, 23% uchta guruhga, 19,4% ikkitaga va 18,3% oltitaga yoki undan koʻprogʻiga ega.

Umumiy sonining 88% bolalar taʼlim tashkilotlari shaharlarda, 43,4% katta, 44,8% kichik va 11,8% qishloq joylarda va baliq ovlash jamoalarida joylashgan.

Davlat bogʻchalarida bola ehtiyojlari uchun davlat xarajatlari xususiy bolalar bogʻchalariga qaraganda yuqori. Jamoat bogʻchalari sifati yuqori. Tarbiyachilarga qatʼiy talablar qoʻyiladi. Ular orasida, 66% bakalavr darajasiga ega. Bundan tashqari, davlat bolalar bogʻchalari tarbiyachilari koʻproq ish tajribasiga ega: tarbiyachilarning 76% oʻn yildan ortiq, xususiy bolalar bogʻchalarida tarbiyachilarning 80% besh yildan kam vaqt davomida ishlamoqda.

Ham davlat, ham xususiy bolalar bogʻchalarini maʼmuriy boshqarish taʼlim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Taʼlim va tarbiya 2012 yilda ishlab chiqilgan va 2013 yilda toʻldirilgan “Nuri” yagona davlat oʻquv rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Dastur 3 yoshdan 5 yoshgacha boʻlgan bolalarning yaxlit rivojlanishini ragʻbatlantirishga qaratilgan yillar va jamiyatning masʼuliyatli fuqarolarini tarbiyalashning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Ushbu oʻquv dasturiga muvofiq oʻqitish davomiyligi kuniga uch soatdan besh soatgacha oʻzgarib turadi. Undan tashqari bolalar bogʻchalarida boshqa taʼlim dasturlaridan ham foydalanish mumkin.

Soʻnggi oʻn yilliklar ichida bolalar bogʻchalarining ochilish soatlari oʻzgardi, jamiyat talablari koʻproq hisobga olindi. Ilgari, bolalar bogʻchalari ishlaydigan ota-onalar uchun qulay boʻlmagan 3 soatlik kunlik dasturni taklif qilishdi. Bunga javoban, 1990-yillardan boshlab hukumat kunduzgi bolalar bogʻchasi dasturlarini joriy etishni ragʻbatlantirmoqda. Koʻpgina bolalar bogʻchalari oʻz dasturlarini 5-8 soat yoki undan koʻproq vaqtga uzaytirdilar. Bunday dasturlar “kengaytirilgan dastur” deb nomlanadi. 8275 ta bolalar bogʻchasining 3099 tasi (37,4%) kengaytirilgan dastur asosida ishlaydi va 5176 ta bolalar bogʻchasi (62,5%) kunduzgi dastur asosida ishlaydi. Faqat qolgan 19% anʼanaviy yarim kunlik dasturni taqdim etadi. Kunduzgi dasturlardan asosan shahar oilalari foydalanadilar, kengaytirilgan dasturlar esa baliq ovlash va qishloq jamoalaridagi oilalarga taklif etiladi.

Janubiy Koreyadagi maktabgacha taʼlim tizimida bolalarni parvarish qilish markazlari ham muhim oʻrin tutadi. Ular Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot vazirligi tomonidan boshqariladi. Ushbu tashkilotlar bolalarni goʻdaklikdan 5 yoshgacha parvarish qiladilar. Markazda kunduzgi

asosda ishlash uchun bolalarni parvarish qilish markazi xodimining litsenziyasiga ega bo'lishi talab etiladi. Xodimlar, qoida tariqasida, yaxshi ma'lumotga ega, ammo o'rtacha malaka darajasi bolalar bog'chasi tarbiyachilarnikidan past.

Markaz kuniga 12 soat, soat 7:30 dan 19:30 gacha ishlaydi. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun, shuningdek bolalar bog'chasida mashg'ulotlar Nuri dasturiga muvofiq kunduzi amalga oshiriladi.

Bolalarni parvarish qilish markazlari har xil: jamoat farovonligi, korporativ, xususiy, bolalarni parvarish qilish uylari, ota-onalar uyushmalari, ish beruvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan markazlaridir. Bolalarni parvarish qilish markazlarining atigi 5% ga yaqini jamoat hisoblanadi, ularda bolalarning taxminan 10% o'qiydi.

1-jadval. Hozirgi davrda Janubiy Koreyaning maktabgacha ta'lim tizimiga kiritilgan asosiy maktabgacha ta'lim muassasalarini namoyish etadi.

Janubiy Koreyadagi asosiy maktabgacha ta'lim muassasalari

Muassasa	Bolalar bog'chasi		Bolalarni parvarish qilish muassasalari			
Boshqaruv	Ta'lim vazirligi		Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot vazirligi			
Qonunchilik	Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi qonun		Bola parvarishi to'g'risidagi qonun			
Litsenziya	Bolalar bog'chasi tarbiyachisi litsenziyasi		Bolalarni parvarish qilish markazi xodimining litsenziyasi			
Ochilish soatlari	Yarim kun (3-4 soat) Kengaytirilgan (6 soat) to'liq kun		12 soat			
Yoshi	3-5 yosh		0-5 yosh			
Turi	davlat	xususiy	xususiy	korporativ	ota-onalar uyushmalari	davlat
Moliyalashtirish	Ta'lim vazirligi	Ota-onalar	Ota-onalar			Gender tengligi vazirligi

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'muriy boshqaruv, Qonunchilik bazasi, tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar va bolalar bog'chalari va bolalarni parvarish qilish markazlarini moliyalashtirish manbalari farq qiladi, ammo ular yagona davlat dasturiga muvofiq ishlaydi. Yagona ta'lim dasturi ushbu ikki tizimning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi, bu o'tmishda inson va moliyaviy resurslarning katta sarflanishi, sog'liqni saqlash xodimlari va ta'lim xizmatlari o'rtasida bir xil maqsadli toifadagi bolalar uchun raqobat kabi jiddiy muammolarga olib keldi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'lim va tarbiya tadbirlarini amalga oshiradigan boshqa ta'lim muassasalari ham mavjud. Ular orasida "hakvonlar" (xakklar) (trans. kor.dan "xususiy akademiyalar") - alohida ehtiyojli bolalarni o'qitadigan o'quv markazlari va ixtisoslashtirilgan maktablar ham mavjud.

"Hakvonlar" deb nomlangan rivojlanish markazlari 3 yoshdan o'rta maktab yoshi oxirigacha bo'lgan bolalar uchun dasturlarni taklif etadi. Xakerlar butun mamlakat bo'ylab keng tarqalgan. Trening sohalarga qarab farq qiladi, ammo to'lov oyiga taxminan 100 dollarni tashkil qiladi .

Qonunlar bolalarga, ayniqsa, xorijiy tillar va matematika, shuningdek, musiqa va san'at sohalarida muayyan ko'nikmalarni o'rgatishga qaratilgan. Pianino chalish, raqs, sport va boshqalar kabi xizmatlar taqdim etiladi. Tarbiyachilar maxsus fan malakalariga ega bo'lishi mumkin. Odatda, bolalar bog'chasidan keyin, tushdan keyin hakvonlarga tashrif buyurishadi. Biroq, bola ushbu muassasada to'liq kun qoladigan holatlar mavjud.

Odatda, ushbu muassasalar statistika yoki ta'lim tuzilmasida rasmiy maqomga ega emaslar. Ular hukumatdan moliyaviy ko'mak olmaydilar. Ta'lim dasturlarining davlat nazorati deyarli amalga oshirilmaydi. Bular ta'lim korxonalari sifatida erkin bozorda faoliyat ko'rsatadigan to'liq xususiylashtirilgan muassasalardir. Ushbu muassasalarga 500 000 ga yaqin maktabgacha yoshdagi bolalar tashrif buyurishadi.

Shuningdek, Janubiy Koreyada uch va undan ortiq yoshdagi alohida ehtiyojli bolalarga xizmat ko'rsatadigan maxsus maktablar mavjud. To'qqizta davlat maxsus maktablari mavjud bo'lib, ularning har biri alohida ehtiyojli bolalarga ixtisoslashtirilgan. Bundan tashqari, jiddiy jismoniy nogiron bolalarga xizmat ko'rsatadigan 136 maxsus maktablari mavjud. Maxsus maktab tarbiyachilari maxsus ta'lim sohasida o'qitilib, tarbiyachilik litsenziyasini olishadi. Ta'lim vazirligi ushbu muassasalarni nazorat qiladi va boshqaradi.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga kelsak, bugungi kunda ommaviy bepul maktabgacha ta'lim eng muhim ustuvor vazifalardan biridir. Xususiylashtirilgan sektor korxonalari, shu jumladan cherkovlar va boshqa nodavlat tashkilotlar ta'lim dasturlarini boshladilar va ko'p yillar davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish uchun ijtimoiy va bozor talabini ta'minladilar. Shunday qilib, rivojlanishning hozirgi bosqichida Janubiy Koreya hukumati hal qilayotgan masalalardan biri bu turli xil ta'lim tashkilotlarining dasturlarini xalq ta'limi tizimiga qanday kiritishdir.

Bugungi kunga kelib, Janubiy Koreya go'daklar o'limi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lgan davlatlardan hisoblanadi. Bolalar bog'chalarida 2005 yildan 2012 yilgacha maktabgacha ta'lim va bitta bolani tarbiyalashga byudjet mablag'larining sarflanishi 3,5 baravar oshdi. Maktabgacha ta'lim va o'qitish xizmatlari sifati ham sezilarli darajada yaxshilandi. Bakalavr darajasiga ega tarbiyachilarning ulushi 50 yilda 2012% dan oshdi, 26,3 yilda 2001% ga nisbatan. 2012 yilda 1-va 2-darajali litsenziyalarga ega pedagoglar ulushi ortib, mos ravishda 45% va 47% ni tashkil etdi. Barcha davlat va xususiylashtirilgan bolalar bog'chalari 2008 yildan beri tekshiruvdan o'tkazilmoqda.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun teng boshlang'ich imkoniyatlarni ta'minlaydigan, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari

uchun majburiy talablarning birligi asosida maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlaydigan har xil turdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida "Nuri" yagona davlat dasturini yuritish amaliy ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan O'zbekiston maktabgacha ta'limi Janubiy Koreyadan ijobiy pedagogik tajribani olishi mumkin, chunki "2030 yilgacha Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" joriy etilishi bilan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari, usullari va texnologiyalari bo'yicha faol izlanishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida (xavsizlikka taqlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari). T., "O'zbekiston". 1997 yil.
2. O.Xasanboeva va boshqalar "Pedagogika tarixi". Qo'llanma. T.. "O'qituvchi" 1997 yil.
3. M.M.Markovskay. Bolalar bogchasida tabiat burchagi. T., "O'qituvchi", 1991 yil.
4. V.A.Dryazgulova "Didakticheskie igri dlya oznakomleniya doshkolnikov rasteniyami". M., "Prosveshenie" 1981 g.
5. N.F.Vinogradova. Umstvennoe vospitanie detey v protsesse oznakomleniya s prirodoy. M. "Prosveshenie". 1982 g.



SHAXSNING ASOSIY AQLIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH

Murodova N.B.

IIV maktab internati psixologi

Insonning ehtiyojlari, qiziqishlari va moyilliklarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga turli yo'llar bilan hissa qo'shadigan, uning tanasi va birinchi navbatda asab tizimining xususiyatlari bilan ajralmas aloqada bo'lgan ushbu makro va mikroorganizm har bir alohida holatda yaratadi. U o'ziga xos, har bir holatda o'ziga xos, tirik, harakat qiluvchi shaxs bo'lib, unga ko'pgina omillar ta'sirlar qiladi.

Insonning voqelikni idrok etishi, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri, diqqati, garchi ular doimo obyektiv olamning xususiyatlarini belgilab qo'ysa ham, lekin uning barcha bu aqliy jarayonlari doimo uning dunyoning turli tomonlariga munosabati muhrini ushlab turadi. Inson yashaydigan va harakat qiladigan dunyo o'zgarimoqda, uning bu dunyodagi roli va mavqeyi o'zgaradi va buning natijasida uning mavjud "dunyo tasviri" va bu dunyoning turli tomonlariga munosabati muqarrar ravishda sezilarli darajada qayta tiklanadi. Tirik insonning doimiy ravishda amalga oshiradigan faoliyatining katta rolini inkor etmasdan, uning o'z sohasining mutaxassisi, mohir hunarmand sifatida shakllanishi

uchun V.N.Myasishchev bir necha bor ta'kidlaganidek, faoliyatning o'zi — o'yin, o'qish, mehnat — shaxsning axloqiy o'zagini tashkil etuvchi asosiy aqliy fazilatlarni shakllantirish uchun ular o'rtasidagi munosabatlar neytral jarayonga aylanishi mumkin. Ishtirokchilar birgalikda yaratishni, hamkorlikni, o'zaro yordamni, agar axloqiy harakatlarga olib keladigan munosabatlarni qo'zg'atuvchi munosabatlarni doimiy ravishda “mustahkamlash” bo'lmasa, talab qilinadigan jamoaviy birlikni tashkil etib bo'lmaydi.

Ushbu ilmiy pozitsiyani tasdiqlash uchun A.S.Makarenko fikriga tayanamiz: “Shaxsni o'chirish, uni ajratib qo'yish, munosabatlardan ajratish mumkin emasligi va shaxs kiritilgan “nuqsonli” munosabatlar uning shakllanishida og'ishlarga olib keladi va aksincha, ijtimoiy-pedagogik normal munosabatlar ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanadi”. Shaxsning tuzilishini asosan psixologik sog'lom fazilatlar tashkil etadi. V.N. Myasishchevning fikricha, shaxsning o'zaro munosabati — uning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilliklari — bu qandaydir mavhum tarixiy sharoitlar mahsuli emas, balki birinchi navbatda inson o'zi uchun mutlaqo o'ziga xos muhit bilan qanday munosabatda bo'lishi va bu muhit unga qanchalik ko'p berayotganining natijasidir. Uning obyektiv faoliyatda ham, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarda ham individualligini namoyon qiladi va rivojlantiradi.

Shunday qilib, shaxs — bu ma'lum bir yoshdan boshlab qandaydir muzlatilgan, bir vaqtlar shakllangan va o'zgarmas ruhiy shakllanish emas, balki ko'plab tashqi va birinchi navbatda, ijtimoiy ta'sirlarga duchor bo'lgan dinamik, o'zgaruvchan shakllanish hisoblanadi. Insonning voqelikka haqiqiy munosabati ma'lum bir nuqtaga qadar uning potensial xususiyatlari va inson o'zi uchun subyektiv jihatdan juda muhim bo'lgan vaziyatlarda harakat qila boshlaganida to'liq namoyon bo'ladi.

Xarakter har bir shaxsda voqelikning turli tomonlariga bo'lgan munosabatlarning barqaror tizimi bo'lib, bu munosabatlarni ularning kundalik xatti-harakatlarida ifodalashning tipik usullarida namoyon bo'lishini ishonchli tarzda ko'rsatdi. Inson xarakteri shakllanishining o'ziga xos tomonlarini psixologik jihatdan nozik va ko'p qirrali tahlil qildi, ulardagi farqlarni doimiy ravishda siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, umumiy madaniy, milliy va boshqa omillarning ta'siri bilan birlashtiradi. Har doim kundalik turmushning o'ziga xos sharoitlariga prognoz qilingan. Insonning kundalik hayoti, uning xarakterining shakllanishini bilvosita belgilab beradi.

Bolalar faoliyati — bu bolaning atrofidagi dunyo bilan faol aloqasi bo'lgan faoliyat shakli bo'lib, uning psixikasi ontogenezida rivojlanadi. Eng mustaqil erta faoliyat obyektiv faoliyatdir. U narsalarni egallash, manipulyatsiya qilish, aslida obyekt bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni o'zlashtirishdan boshlanadi, obyektlarni funksional maqsadiga ko'ra va inson tajribasida ularga berilgan tarzda ishlatishni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, obyektiv harakatlarning intensiv rivojlanishi hayotning ikkinchi yilida sodir bo'ladi, bu yurishning mahorati bilan bog'liq.

O'quv faoliyati — bu boshlang'ich maktab yoshidagi etakchi faoliyat bo'lib, uning doirasida ijtimoiy tajriba asoslarini, birinchi navbatda, intellektual asosiy operatsiyalar va nazariy tushunchalar shaklida nazorat ostida o'zlashtirish amalga oshiriladi.

Rivojlantiruvchi trening orqali talabning aqliy rivojlanishining o'rtacha me'yorlari rivojlanishga naturalistik yondashuvga asoslangan mavjud o'qitish tizimi tomonidan shakllantirilishini ko'rsatdi. Rivojlanayotgan ta'lim nazariyasini mantiqiy va psixologik asoslandi. Insonning xatti-harakatida doimo boshqa shaxsning ongi mavjud, bolaning rivojlanishi u ikki turdagi munosabatlar: bola-obyekt-kattalar kontekstida sodir bo'ladi. Holatda, bola — kattalar munosabatlari obyekt orqali va bola — kattalar — obyekt vositachilik qiladi (bu holda, bola va obyekt o'rtasidagi munosabatlar kattalar tomonidan vositachilik qiladi).

Tafakkurni shakllantirish ko'rsatkichlariga asoslanib, quyidagilar belgilangan:

1. Obyektiv harakatlarning hamkorligi va muvofiqlashtirilishi bola tafakkurining intellektual tuzilmalarining kelib chiqishining asosini tashkil qiladi, faoliyat ishtirokchilari yordamida faoliyatni taqsimlash turi esa bolalar o'rtasidagi munosabatlar tarkibida intellektual tuzilmaning mazmunini o'ziga xos modellashtirish funksiyasini bajaradi.

2. Bolaning intellektual tuzilmaning mazmunini tanlash va keyinchalik o'zlashtirishi uchun asos uning subyekt o'zgarishlarini almashtirish uchun maxsus harakatni amalga oshirishi (faoliyatni qayta taqsimlash); ushbu harakatni amalga oshirib, bola qo'shma faoliyatni tashkil etish asoslariga aylanadi, qo'shma ishning barcha ishtirokchilari uchun umumiy bo'lgan u yoki bu obyektning o'zgartirish xususiyatini ochib beradi; shu bilan birga, ishtirokchilar tomonidan qurilayotgan birgalikdagi harakatlar shakllarini refleksli mazmunli tahlil qilish va obyektning predmet mazmuniga mos keladigan qo'shma faoliyatni tashkil etishning yangi shakllarini keyinchalik rejalashtirish zarur.

3. Birgalikda harakatni tashkil etish shakli madaniyatni efirga uzatish kanalidir, chunki ishtirokchilarning qo'shma vaziyatdagi o'zaro ta'siri kognitiv harakatlarning tarixan o'rnatilgan naqshlariga vositachilik qiladi.

Psixologik tadqiqotlar aqliy faktlarni, ularning mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganar ekan, aqliy faktning asosiy xususiyati shundaki, u inson xatti-harakatlarining ichki mohiyatini tashkil etadi, shuning uchun uni faqat bilvosita o'rganish mumkin. U bolaning aqliy rivojlanishining borishi, shartlari, manbai, shakli, o'ziga xosligi va harakatlantiruvchi kuchlari; bola rivojlanishining davrlari, bosqichlarini, shuningdek, ontogenez jarayonida ular orasidagi o'tishlarni, hamda bola rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini aniqlaydi va shakllantiradi.

Haqiqiy rivojlanish darajasi rivojlanishning muvaffaqiyatini, kechagi kun uchun rivojlanish natijalarini, proksimal rivojlanish zonasi esa ertangi kun uchun aqliy rivojlanishni tavsiflaydi.

Adabiyotlar:

1. Martsinkovskaya T.D. Yoshga bog‘liq psixologiya. O‘quv qo‘llanma / h.k. Martsinkovskaya. - M.: Akademiya (Akademiya), 2016. - 184 b.
2. Muxina V.S. Rivojlanish psixologiyasi. Rivojlanish fenomenologiyasi / V.S.Muxin. - M.: Akademiya, 2017. - 656 b.
3. O‘runtayeva G.A. Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologiyasi bo‘yicha seminar / G.A.O‘runtayeva. - M.: Akademiya, 2016. - 368 b.
4. P.G.Samarukova. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. T., "O‘qituvchi", 1984yil.
5. J.Tulenov. E.Gofurov. Falsafa - T.; "O‘qituvchi". 1997 yil.



TALABALARNI KASBIY, SHAXSIY IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VA RAHBARLIK

Muxamadaliyeva M.X.

*Nizomiy nomli TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası
o‘qituvchisi*

Har bir jamiyatning rivoj topishi va ravnaqida uning kelajak poydevori bo‘lgan o‘sib kelayotgan yosh avlodga yaratayotgan imkoniyatlari, shart-sharoitlari asos bo‘ladi. Bizning mamlakatimizda ham yosh avlodning o‘sib unishi uchun zamonaviy barcha talablarga javob beradigan qiziqish va intilishlarini qondiradigan shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib kelmoqda. Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga va shu orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada oliy ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlarni sanab o‘tish jarayonida, shuni aytib o‘tish joizki yurtboshimiz tomonidan chiqarilayotgan turli farmon, qarorlar bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi o‘n yillikda boshqaruv tizimi, uning prinsiplari, mexanizmlari va rahbar shaxsiga qo‘yilgan talablar tizimining qadriyati asoslarida o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Kuzatishlar jarayonida esa zamonaviy boshqaruv tizimidagi islohotlar alohida shaxs sifatlariga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislariga ehtiyojni yuzaga keltirmoqda.

Boshqaruvning prognostika, preventiv, relevant xarakteri zamonaviy rahbarda strategik, moslashuvchan tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish zaruratini taqozo etadi.

Ta’lim tizimini boshqarishning markazlashtirmaslik, ta’lim muassasalarining mustaqilligi rahbarning mas’uliyati kasbiy muhim shaxs fazilati sifatida yuqori e’tiborni talab etadi. Tashqi muhitning yuqori noaniqligi va boshqaruv qarorini qabul qilishga vaqtning etishmasligi

sharoitlaridagi faoliyat ta'lim muassasasi rahbarining mobillik, stressga bardoshlilik, xatarga tayyorlik singari shaxs sifatlarining shakllanishini talab etadi.

Demak bo'lajak rahbar talabalarning kasbiy va shaxsiy sifatlariga zamonaviy talablar butun jamiyatning ijodiy imkoniyatini kuchaytirishni talab etuvchi uning taraqqiyotining yangi strategiyasi bilan bog'liq.

Agar rahbarlar va pedagoglar optimal qisqa muddatlarda boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, fanning eng yangi yutuqlari mazmunidagi ta'lim sifatini baholashning innovatsion texnologiyalarini o'rganish, qayta anglash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lsalar, ilmiy tadqiqotlar natijalari boshqaruv va pedagogik amaliyotni o'zgartirish omili bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ta'lim strategiyasi ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy-shaxsiy imkoniyatini rivojlantirishga yordam beradigan ijtimoiy-pedagogik va didaktik sharoitlarni izlashni talab etadi. Zamonaviy sharoitlarda boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirok etish nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki mutaxassisning ta'limni boshqarish sohasidagi kasbiy muhim sifatlariga ham bog'liqdir.

Biz yuzlanmoqchi bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimining boshqaruv kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish mavjud tajribani o'rganish, uning uchun quyidagi qator ziddiyatlar xosligini ko'rsatadi:

- ta'limni insonparvarlashtirish sharoitlarida maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarishning yangi sifatiga qo'yilayotgan talablar va MTM rahbarlarining sifatli kasbiy faoliyatga haqiqiy tayyorgarliklari o'rtasida;

- to'plangan ilmiy bilim va kasbiy boshqaruv faoliyati amaliy tajribasi va maktabgacha ta'lim muassasasi ish yuritishi sharoitlarida rahbarlarning kasbiy-shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish yo'llari yetarli ishlab chiqilmaganligi o'rtasida;

- rivojlantirish kasbiy-shaxsiy imkoniyatga ega maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining yangi turdagi kasbiy faoliyati va pedagogik faoliyatning an'anaviy "bilimga oid" paradigmasiga yo'naltirilgan mavjud boshqaruv faoliyati modeli o'rtasida;

- maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy-shaxsiy imkoniyatini rivojlantirishga yangi nazariy yondashuvlarni amalga oshirish zarurati va maktabgacha ta'lim muassasasi tizimida uning mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'rtasida.

Sanab o'tilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati quyidagi ilmiy vazifani belgilab beradi: ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy-shaxsiy imkoniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari va pedagogik sharoitlari qanday. Bu savol esa dissertatsion tadqiqot ishining mavzusini tanlash hamda ushbu muammolarga yechim topish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar:

1. Xudoyqulov.X Baratov R. Madaniyatshunoslik. O‘quv uslubiy majmua. -T.: “O‘zMU”, 2007
2. Egamqulov E. Milliy va madaniy merosning noyob durdonasi. “Jamiyat” 2007 yil, 4 may.
3. T.Saparov. “Malaka oshirish va qayta tayyorlash davlat talabalarinin qayta takomillashtirilgan varianti” 1-qism. O‘quv-uslubiy majmua “A.Avloniy” nashriyoti 2009.
4. T.Saparov. “Malaka oshirish tizimida rahbar va pedagog xodimlarni iqtisodiy salohiyatini oshirish”. O‘quv-uslubiy majmua, -T., “Falsafa va xuquq instituti” nashriyoti 2010.
5. T.Saparov “Ta’lim menejmenti”. O‘quv-uslubiy majmua, T., TDYUI 2011.



BOLALARNING TABIAT, ATROF-OLAM HAQIDAGI BILIMLARINI RIVOJLANISHIDA “ILM-FAN VA TABIAT” MARKAZINING O‘RNI

Muxamadaliyeva M.X.

Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi,

Dehqonova Sh.

TDPU “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim Vazirligi tomonidan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” va “Ilk qadam” o‘quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Albatta maktabgacha ta’limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta’lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish (rivojlanish) markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan “Ilm-fan va tabiat” rivojlanish markazi bolalarda quyidagilarni: o‘zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish; tanqidiy fikrlash; tanlashni amalga oshirish; muammolarni hal eta olish; ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish; odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish kabi sifatarni tarkib toptiradi.

2017-2021 yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida P.Q 27.07 qaror qabul qilindi.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan zamonda bolalarga ta'lim va tarbiya berishning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Ota-onalarning bola bilimiga talabchanligi kabi omillar yangi Davlat talablarining takomillashuviga olib kelgan. Bolalarning rivojlanishida "Ilm-fan va tabiat" markazi alohida ahamiyatga ega. "Ilm-fan va tabiat" markazi orqali bolalarda tabiat haqidagi dastlabki tushunchalar shakllanadi. Bolalar ilk tabiiy-ilmiy tushunchalarni o'rganib boradilar. Ushbu markazda bolalar tabiat hodisalari haqidagi tushunchalari va atrof-olamda sodir bo'layotgan voqealar va ularni tahlil qilish bilan mashg'ul bo'ladilar.

Markazda olib boriladigan faoliyat jarayonida bolalar kichik tajriba o'tkazishlari, laboratoriyalar tashkil etishlari va o'zlarini qiziqtirgan savollarga tajribalar o'tkazish orqali javob topishlari, turli xildagi buyumlar, hodisalarni o'rganib, o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashlari mumkin. Masalan: tabiatning tabiiy unsurlari suv, havo va qum tuproqning xususiyatlarini, jonli tabiatni insonlar hayotida muntazam ravishda foydalanadigan buyumlarini qayerdan olinishi ulardan qanday foydalanish mumkinligini o'rganadilar. Bolalar markazda olgan bilimlari orqali jonli va jonsiz tabiatga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirib boradilar. Bu markazda bolalarga tabiat haqidagi dastlabki tushunchalar beriladi ya'ni:

Tabiat 2 qismdan tashkil topgan.

1. Jonli tabiat;
2. Jonsiz tabiat.

Jonli tabiatga: o'simliklar dunyosi, hayvonot olami, zamburug'lar va bakteriyalar dunyosi kiradi.

Jonsiz tabiatga : suv, quyosh, havo , tuproq kabilar kiradi.

Bolalarga o'simliklar dunyosini hayvonot olamidani, zamburug'lar dunyosini bakteriyalar dunyosidan farqlanishi o'rgatiladi. O'simliklar va hayvonlar oziqlanishi, nafas olishi, rivojlanishi, ko'payishi haqida ham ma'lumotlar beriladi. Bolalarda tabiat haqida tasavvurlar shakllanadi. "Ilk qadam" o'quv dasturining 6-rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bobida

- ko'rgazmali- rivojlantiruvchi;
- madaniy-tarixiy qadriyatlar;
- milliy va mintaqaviy an'analar;
- tabiat-iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi.

Barchamizga ma'lumki, inson umri davomida oladigan bilimlarining 70% qismini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi.

Markazda maktabga tayyorlov guruhi bolalari bilan quyidagi kichik tajribalarni o'tkazish mumkin.

Mavzu: Suvning xususiyatlari (ta'mi yo'qligi)

Maqsad: Bolalarni suvning xususiyatlari ya'ni uning ta'mi yo'qligi bilan tanishtirish.

Kerakli jihoz: Bir stakan suv, bir stakan sharbat.

Tajribaning borishi:

1. Bolalar bir stakan suvni ichib ko'radilar.

Tarbiyachi savoli: Suvning ta'mi bormi?

2. Bolalarga stakandagi sharbatni ichib ko'rishlari taklif qilinadi.

Tarbiyachi savoli: Sharbatning ta'mi qanday?

Xulosa, bolalar o'tkazilgan tajriba asosida suvni ta'mi yo'q deb xulosa chiqaradilar. Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi P rezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillash tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. «Xalq so'zi», 2016 yil 31 dekabr.

2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" (802-son, 22.12.2020 y.)

3. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. «Xalq so'zi», 2019 yil 17 dekabr.

4. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. 03.07.2018 y.

5. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. -T., 2018

6. N. qayumova, M. A'zamova, F. Qodirova "Maktabgacha pedagogika".



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKDA TARBIYACHINING ROLI

Muqumova N.N.

*Toshkent davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Mamlakatimizda bolalar to'g'risida, onalar haqida g'amxo'rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir. "Jamiki yaxshi narsalar – bolalarga" shiori yanada baralla jaranglamoqda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir. MTT tarbiyachilari oilaning bolani ilk tarbiyachisi sifatidagi ustuvor mavqeyini e'tirof etishlari juda muhim. Zamonaviy MTT tarbiyachisi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnay boshlaguniga qadar oila unga elementar harakatlardan tortib, to'p uloqtirishgacha bo'lgan ko'pgina narsalarni o'rgatgan holda ertak eshitishdan zavq olish ko'nikmasini hosil qilgan bo'ladi. Bolaning ilk rivojlanishida oilaning ahamiyatini etarli baholash juda qiyin. Bolalar oilada tarbiyalanadi, unda sodir bo'ladigan voqealar ularga katta ta'sir ko'rsatadi. Oilalar turlicha bo'ladi. Ular kichik, uncha katta bo'lmagan yoki katta, keng bo'lishi mumkin. Ularda ko'plab aka-uka va opa-singillar yoki birgina bola bo'lishi ham mumkin. Ayrim oilalarda bola asrab olingan bo'ladi yoki qarindoshlari bilan yashaydi. [Bola ota-onasidan tashqari](#), amma-xola, amaki-tog'a, bobo va buvi, oilaning yaqin do'stlari kabi ko'plab o'zi uchun hurmatli bo'lgan katta yoshdagi kishilar bilan mustahkam aloqada bo'lishi mumkinligi sababli ota-onalar bilan aloqa o'rnatishni yetarli hisoblamay, bola hayotiga real ta'sir ko'rsatadigan barcha kishilar bilan hamkorlik qilishi kerak. Bola vositasida oila bilan muloqot qilish – murabbiylar jamoasi majburiyatlarining muhim qismi hisoblanadi. Barcha oilalar o'z bolalarining baxt-saodatidan manfaatdor va ularning yaxshi va mamnuniyat bilan o'qishlarini istaydilar. Shuning uchun oila a'zolari uning yutuqlaridan xabardor bo'lishni xohlaydilar. Pedagoglar ota-onalar bilan bola haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun bolaning uydagi va MTMdagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug'diradigan barcha jihatlarni mamnuniyat bilan muhokama qilishlari kerak. Yana shuni ham e'tirof etish kerakki, tarbiyachilar va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotida guruh deb ataluvchi uyushmada hurmat zarur tarkibiy element hisoblanadi. Tarbiyachilar ular bolalardan kutadigan o'zaro bir-birini tushunish, hurmat qilish va bir-biriga g'amxo'rlik ko'rsatishda namuna bo'ladilar. Bolalar boshqa bolalar bilan ijodiy o'zaro munosabatlarning mustahkam poydevorini qo'yadi. Pedagoglar guruhdagi har bir bolaga hurmat ko'rsatsalar, bolalar qolgan barcha bolalarni – sekin yuguruvchilarni ham, a'lo darajada rasm chizuvchilarni ham va hatto kam uchraydigan yoki ziddiyatli fe'l-atvorli bolalarni ham qabul qilishni o'rganadilar. Bolalar boshqalar ularning har birini qabul qilishlari va hurmat qilishlarini ko'rganlarida hamda sezganlarida o'zlarini qulay his qiladilar va erkin tutadilar, shu bilan birga o'zlarining shaxsiy qiziqishlarini amalga oshiradilar.

Tarbiyachilar shuni tushunib etishlari kerakki, bolalar ham kattalardek o'zlariga bildirilgan samimiyatni his etadilar va sezadilar. O'z ustida ishlaydigan va mahoratini uzluksiz oshirib boradigan

tarbiyachi maktub va kundaliklardan foydalanishi ham mumkin. Shuningdek, bola orqali ota-onalarga maktub jo'natish yo'li oilalar va pedagoglar jamoasi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlashga yordam beradi. Bu bolaning yangi muvaffaqiyatlari to'g'risidagi qisqagina xabar yoki rahmatnoma bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari aloqalar rivojida tarbiyachilardan ota-onalarga yuboriladigan, ulardan yana tarbiyachilarga qaytariladigan kundaliklar (yoki aloqa daftari) katta rol o'ynaydi. Xususan, ota-onalarning vaqti juda cheklangan yoki oilada telefon bo'lmaganda bu o'zaro aloqaning juda yaxshi usuli hisoblanadi. Agar bolada qandaydir shikoyat yoki muammolar bo'lsa, kundalik doimiy aloqani ta'minlaydi hamda ota-onalar yoki pedagoglar jamoasini u yoki bu o'zgarishlardan xabardor qiladi. Bu usul ayniqsa, ota-onalar uchun qo'l keladi. Chunki ular o'z fikrlarini yozma shaklda oson ifodalaydilar.

Bolalarni barkamol tarbiyalashga ularning ota-onalari va MTT ning faol ishtirokisiz erishib bo'lmaydi, ota-onalarning MTT ning oila bilan hakorligi borasidagi qarashlari turlicha. Ba'zi oilalarda ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash va shaxsiy rivojlanish masalalarini hal qilishdan voz kechish tendensiyasi kuchaygan. Ba'zi ota-onalar esa faqat bolaning ovqatlanishi bilan qiziqishadi, ular MTT ni faqat bolalarni boqadigan joy deb hisoblashadi. Tarbiyachining maslahatlarini e'tiborsiz qoldiradigan ota-onalar toifasi ham uchraydi. Ba'zi ota-onalar, ularning vazifasi faqat bolaning kiyinishini ta'minlash deb qarashadi. Ota-onalarning pedagogik faoliyat sohasiga jalb etilishi, ularning ta'limiy faoliyat jarayoniga qiziqishi o'z farzandi uchun juda muhimdir. MTTlar uchun o'zaro hamkorlik qilish jarayonining inkor qilib bo'lmaydigan afzalliklari ko'p. Bu tarbiyachilar va ota-onalarning bolalarni tarbiyalashda birgalikda ishlashga bo'lgan ijodiy qarashidadir. Ota-onalar MTTlari har doim pedagogik muammolarni hal qilishda yordam berishga va shu bilan birga ularga hech qanday zarar yetkazmasligiga amin dirlar, chunki ular oila nuqtai nazarini va bola bilan o'zaro munosabat bo'yicha takliflarni hisobga oladilar. Tarbiyachilar, o'z navbatida, pedagogik muammolarni hal qilishda ota-onalarning istaklarini inobatga oladilar. Bu yerda bolalar asosiy manfaatdor taraf hisoblanadi. Bu bolaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishni taqozo etadi, tarbiyachi esa doimiy oila bilan aloqada bo'lib, o'z tarbiyalanuvchisining o'ziga hos xususiyatlari va odatlarini biladi va faoliyatda ularni hisobga oladi, bu esa o'z navbatida pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga omil bo'ladi. Ota-onalar mustaqil ravishda maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish va tarbiyasida zarur deb hisoblagan yo'nalishni tanlaydilar va shakllantiradilar, shuning uchun ota-onalar bolani tarbiyalash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladilar. MTT da bola bilimga ega bo'ladi, boshqa bolalar va kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish, o'z faoliyatini tashkil etish qobiliyatini oladi. Biroq, bola ushbu ko'nikmalarni qanchalik samarali egallashi oilaning maktabgacha ta'lim muassasasiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim jarayonida ularning ota-onalarining faol ishtirokisiz uyg'un rivojlanishi mumkin emas. "Oila bilan o'zaro munosabatlar" tushunchasini "ota-onalar bilan ishlash"

tushunchasi bilan aralashtirmaslik kerak. Garchi ikkinchisi [tarkibiy qism](#) o‘zaro aloqadorlik nafaqat jarayon ishtirokchilari o‘rtasida vazifalarni taqsimlanishini, balki qayta aloqa qilishni ham nazarda tutadi. Interfaol usullardan foydalangan holda ota-onalar bilan ishlashning ma’nosi nafaqat ota-onalar bilan aloqalarni o‘rnatishda, balki shu tarzda yaratilgan qulay hissiy muhit tufayli ota-onalar tarbiyachining maslahatlarini yaxshi qabul qilishlari, yangi ma’lumotlarni idrok etishlari uchun ochiq bo‘lishlari bilan bog‘liq. Shunday qilib, oilaviy munosabatlar va ota-ona bola munosabatlari bolaning pozitsiyasini va boshqa odamlar bilan shaxslar aro munosabatlar strategiyasini shakllantiradi. Ota-onalar barkamol bo‘lishni, bolalarni tarbiyalashni, o‘zlarining ta’lim faoliyatini tahlil qilishni o‘rganishlari, pedagogik xatolarning sabablarini, ishlatilgan usullarning samarasizligini aniqlashlari, bolaga uning xarakteriga va o‘ziga xos vaziyatga mos keladigan ta’sir qilish usullarini tanlashlari kerak. Barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-ona mas’uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish bugunning eng dolzarb masalasidir. O‘zbek milliy qadriyatlari, milliy madaniyati, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo‘yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham maktabgacha ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
2. Hasanboyeva O.U, Tojiyeva M.X, Toshpo‘latova Sh.K, va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma (3-nashr). T.: «ILM ZIYO», 2012.
3. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU. 2013.
4. Otavaliyeva U. Bola-tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi Toshkent «O‘qituvchi» 1994
5. Qodirova F.R., Tashpulatova S.H.K “Maktabgacha ta’lim muassasasida metodik ishlar” Toshkent, 2018 yil.



РОЛЬ ВЗРОСЛОГО В ПРИОБЩЕНИИ ДЕТЕЙ ПЕРВОЙ МЛАДШЕЙ ГРУППЫ К ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мясникова М.В.

*Московский городской педагогический университет, mjasnikovamv@mgpu.ru
Магистрант*

Система раннего развития детей признается самостоятельным элементом современной модели дошкольного образования. В последнее десятилетие современные родители, ориентированные на раннее интеллектуальное развитие своих детей, стремятся "не

пропустить важный период раннего детства", нередко форсируя процесс обучения без учета возрастных и индивидуальных особенностей детей.

Рассматривая вопросы становления педагогики раннего детства и характеризуя психологические особенности детей раннего возраста, А.Н.Ганичева [1] раскрывает механизмы познавательно-исследовательской активности детей раннего возраста, подчеркивает ведущую роль взрослого в создании условий для познания свойств и признаков предметов окружающего мира. Познавательная активность ребенка в первой младшей группе выстраивается на основе врожденной сенсомоторной потребности, желании как можно быстрее войти в мир предметов, его признаков и свойств. Проводником в этот мир для ребенка является мудрый взрослый, понимающий основные принципы воспитания: связь физического и психического, вред частых запретов, блокирующих сенсомоторную потребность младенца, быстроту и прочность установления условных рефлексов.

Действительно, роль взрослого в процессе экспериментирования детей в период раннего возраста бесценна, так как именно он ставит перед ребенком проблему, заинтересовывает, привлекает и удерживает его внимание. Но при этом, стоит отметить, что, учитывая возрастные особенности данного возрастного этапа, экспериментальная деятельность непродолжительна, быстро заканчивается результатом, так как ребенок третьего года не так усидчив, как дети дошкольного возраста.

Важную роль при организации экспериментальной деятельности играет обогащение предметно-пространственной развивающей среды. По мнению О.В.Крежевских [2], среда должна быть направлена на становление познавательных интересов, исследовательских способностей и мыслительных действий, которые служат своеобразным «двигателем» для формирования новых знаний. Это положение является важным, поскольку определяет свойства предметов, входящих в предметную среду: они должны вызывать интерес, стимулировать развитие, формировать способы познания, побуждать к самостоятельности.

В качестве материалов и оборудования для организации экспериментальной деятельности выступают разнообразные дидактические пособия, игры, материалы для экспериментальной деятельности, наглядные пособия, раздаточный материал, схемы, таблицы, отражающие образно-символическую картину мира. В то же время, следует учитывать, что рассмотрение категории «материалы для экспериментальной деятельности» является условным, так как в качестве их могут использоваться любые предметы и объекты.

По мнению многих исследователей организации экспериментальной деятельности в дошкольном возрасте [1, 2, 5] помещение группы детского сада может включать мини-лабораторию, сенсорный центр, мини-музеи, мини-коллекции и др. Это могут быть и отдельные помещения, в которых располагаются комната природы, экологическая

лаборатория и т.д. Для детей третьего года жизни центр экспериментирования, по мнению Л.В.Рыжовой [3], следует оборудовать простыми предметами, с которыми дети уже знакомы: емкости, различные по размеру, лейки, камешки, лодочки, кораблики, лопатки, ведерки; предметы из разных материалов (деревянные катушки, палочки, резиновые мячики, игрушки, металлические предметы и т.д.). Это могут быть и пластиковые стаканчики разной формы, величины, степени прозрачности, плавающие игрушки, воздушные шары, вертушки, султанчики, ленточки.

Экспериментальная деятельность ребенка раннего возраста тесно сопряжена с развитием познавательной активности и любознательности, поэтому основой для подбора материалов и оборудования должен быть возрастной принцип. Как отмечает Л. Н. Павлова [4], в раннем детстве предметы начинают выступать для ребенка не только в качестве объектов, удобных для манипулирования, но и как вещей, имеющих определенное назначение. Данное открытие стимулирует стремление к познанию окружающего мира и развивает познавательную активность ребенка раннего возраста.

Организованная взрослым познавательная активность ребенка 1-3 лет – это его попытка понять предметы и явления окружающего мира, их взаимосвязь, а также воссоздать полученные на практике знания. Ребенок экспериментирует с различными предметами: рассматривать их, разбирать и воздействовать ими на другие предметы, тем самым открывая их новые свойства и качества. Принимая во внимание, что на третьем году жизни на первое место выходит предметно-манипулятивная деятельность, крайне необходимо уделить особое внимание обследовательским действиям детей с предметами различной формы, величины, цвета, веса, характера поверхности и др.

Экспериментирование в младшем возрасте тесно связано с игрой. Постепенно от игровой деятельности ребенок третьего года жизни переходит к деятельности экспериментальной, в ходе которой он сам открывает новые свойства предметов и явлений, их сходства и различия. В игре, под руководством взрослого успешно формируются сенсорные эталоны цвета, формы, величины, ориентировки в пространстве и т.п. – таким образом, игра дает возможность самообучения. Иногда дети не справляются с предложенными им учебными задачами, но стоит перевести это задание в игровую практическую плоскость или забаву, дети выполняют его быстро и с интересом. В связи с этим особый интерес представляет изучение экспериментирования у детей.

В первой младшей группе нужно подумать об организационном моменте экспериментов. Опыт должен увлекать, интересовать детей, быть игровым. В возрасте 2-3 лет ребенок уже приобретает способность формулировать свой познавательный интерес в форме вопросов к взрослому. Он способен делиться своими впечатлениями, побуждая взрослого к диалогу.

Постепенно сфера интересов малыша расширяется: ему интересны не только живые объекты, как постоянно изменяющиеся, но и формируется интерес к другим детям, различным предметам, самому себе. Проводя эксперименты, отмечает автор, ребенок третьего года жизни учится искать и исследовать, творить и создавать новое. Задача взрослых при этом заключается в том, чтобы сопровождать, направлять, поощрять данный процесс, становясь его активным участником.

Таким образом, экспериментальная деятельность – естественная форма реализации познавательной деятельности ребенка третьего года жизни. Учитывая специфику раннего возраста, особое внимание педагогам следует уделить организации основ экспериментальной деятельности. В ходе пропедевтического этапа воспитатель ставит гипотезы, привлекает внимание детей 2-3 лет, побуждает, создает мотивацию, стимулирует их желание понаблюдать за чем-либо, что-то преобразовать. Далее взрослый проговаривает все действия, не спеша выполняет их и делегирует детям самые простые из них. Некоторым детям предлагает повторить действия, дает простейшие поручения. По окончании экспериментальной деятельности педагог формулирует вывод.

Л и т е р а т у р а :

1. Ганичева А.Н. Познавательно-исследовательская активность детей раннего возраста. //Дошкольник. Методика и практика воспитания и обучения. 2013. № 5. С.51-56.
2. Крежевских О.В. Значение предметно-игровой среды в развитии игровой деятельности дошкольников. //Вестник Шадринского государственного педагогического института. 2012. № 3/4 (16). С. 138-142.
3. Рыжова Л. В. Методика детского экспериментирования. СПб.: Детство-Пресс, 2021.
4. Павлова Л. Н. Познание окружающего мира детьми 3-го года жизни. М.: Сфера, 2015.
5. Савенкова А.И. Исследовательские методы обучения в дошкольном образовании. //Дошкольное воспитание. 2006. № 4. С.10-12.

BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH YO'LLARI

Mirdjalalova L.R.

Nizomiy nomidagi TDPU, p.f.n., dotsent

Mirdjalalova@inbox.ru

Bola nutqining rivoji ko'p jihatdan uning ruhiyatiga, sog'lom va tetik o'sishiga, axloqiy sifatlariga, davlat o'quv dasturini o'zlashtirishiga, davlat talablarini bajarilishiga erishish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, bugungi kunda kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni o‘z fikrini mustaqil bayon etishga, bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, o‘zgaralar fikrini to‘g‘ri anglash, fikr ifodalash imkoniyatlariga e‘tibor berish, chet el tajribalaridan o‘rinli foydalanish va qo‘llash, xorijiy tillarni bolalarga o‘rgatish masalalariga alohida urg‘u berildi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish mexanizmlarini shakllantirish ayni paytda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish orqali nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish zarur. Bola har bir so‘zning ma‘nosini tushuna olishi, nutqida erkin ifodalashga muvaffaq bo‘lishi lozim. Tushunchalar tizimiga moslashgan bola o‘z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o‘rganadi.

A.Leontevning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish – bu eng avvalo muloqot usullarini rivojlantirish, ularni o‘zlashtirish hamda til qobiliyatini shakllantirishni talab etadi.

Muloqot – bolada so‘zning paydo bo‘lish fakti, vujudga kelish muddatlari va bola nutqi rivojlanishining sur‘atlarini belgilab beruvchi muhim omildir. Ontogenezda nutq dastlab muloqot vositasi sifatida, keyinchalik esa – fikrlash, o‘z xulqini boshqarish vositasi sifatida rivojlanadi.

Darhaqiqat, bolalar nutqini o‘stirish jarayonida ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishning asosiy qoidalari ishlab chiqilgan:

- ona tilini birlamchi o‘qitishning maqsadlari;
- ularni amalga oshirish mazmuni va shakllari;
- nutqni rivojlantirishda ko‘rgazmalilikning ahamiyati.

Bolalarga xalq ertaklarini aytib berish orqali ularning mustaqil fikrlash jarayoniga samarali ta‘sir etishi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. L.S.Vigotskiyning fikriga ko‘ra, ertak bolalarning kuzatishlari va bilimlariga tayanadi, u bolalar xayolotini, fantaziyasini rivojlantiradi, bolalar nutqining rivojlanishi, so‘z va lug‘at boyligining ortib borishiga ko‘maklashadi, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi, ularga xalq iboralarini, nutqdagi tasavvurlarini oddiy va jonli obrazlarda yodda saqlab qolishga yordam beradi, ma‘naviy jihatdan tarbiyalashda ko‘maklashadi.

MTTlarda tashkil etiladigan frontal nutqiy mashg‘ulotlar – ancha tejamli o‘quv shakli bo‘lib, u didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan. Jumladan, bola nutqidagi salbiy jihatlarni bartaraf etishda samarali bo‘lishi mumkin: agarda u o‘yin, kommunikativ va bilish motivatsiyasi asosiga qurilgan bo‘lsa, hukmronlik sharoitida, bolalarni uyushtirish usullari o‘zgartirilganida (masalan, stol atrofida doira shaklida o‘tirish, gilamda o‘tirish, guruh bo‘yicha harakatlanish va boshqalar), bolalarning bilishga intilgan nutqiy faolligini jadallashtirish metodlaridan foydalanilganda, tarbiyachi bilan bolalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning mavjudligida namoyon bo‘ladi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, salbiy holatlar nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslarini va pedagogik rahbarlik qilishning aniq usullarini biluvchi pedagog mahorati bilan hamda tarbiyachilar bilan hamkorlikda uyushtirilishi, ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda, ayniqsa hozirgi kundagi nomaqbul nutqiy muhit sharoitida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim.

Nutqda bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish asosini kommunikativ yondashuv tashkil qilmog'i lozim, xususan:

- tilni o'zlashtirish nutqiy muloqot faoliyatiga aylantirilishi zarur, ta'lim
- sharti tabiiy muloqot sharoitlariga yaqinlashtirilishi lozim;
- ta'lim berish jarayonida kattalarning bola bilan o'zaro munosabati xususiyati ushbu bola uchun yetakchi bo'lgan muloqot shakli bilan belgilanishi lozim;

- til ustidagi ishlarni nutq faoliyatining barcha komponentlarini, ya'ni undov-motivatsiya, mo'ljal-tadqiqot, ijro komponentlarini hisobga olgan holda uning tuzilmasi doirasida amalga oshirish kerak;

- nutqni takomillashtirish bolalarning tilni o'zlashtirish borasidagi mustaqil faoliyatiga asoslanishi va bola faoliyatining boshqa turlari bilan bog'langan bo'lishi lozim.

Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish natijasida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishi, u orqali mustaqil fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirilishi, ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, nutq tarkibining o'zgarganligidadir.

Bolaning faol nutqini o'zlashtirish bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi:

- emotsional munosabatlar;
- birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar.
- bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi. Nutqda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning keyingi bosqichida-uning materiali (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bola nutqining yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o'zlashtirishiga olib keladi.

Shu bilan birga, bolani mustaqil fikrlashga o'rgatish, ma'naviy va estetik his-tuyg'ulari bilan birgalikda rivojlantirish maktab ta'limiga tayyorlashda muhim o'rin egallaydi.

Adabiyotlar:

1. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi. T.: 2018
2. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. – 1972. -№ 9.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1982. Т. 2.
4. Азимова Д.Х. Воспитание у старших дошкольников эмоционально-положительного отношения к сверстникам: Автореф. дисс. канд. пед. наук. -Т., 1991, -18 с.
5. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. - М.: Просвещение, 1991. С 222.
6. Nurimbekova F. Olti yoshli bolalarda ruhiy jihatlar // Boshlangich ta'lim. - 1999. №3.

CONVERSATION AS A METHOD OF TEACHING DIALOGICAL SPEECH TO PRESCHOOL CHILDREN

Najmiddinova G.O.

Lecturer of the department "Psychology and Pedagogy of Preschool Education",

TSPU named after Nizami

E-mail: n.gulnoza1989@gmail.com

To solve the problem of the development of dialogic speech in senior preschool age, the joint activity of a preschooler with an adult is of great importance. In the process of it, the tasks of instructing, discussing, agreeing, evaluating actions arise. Contact is established and relationships are maintained, opinions and ideas are exchanged, mutual understanding arises, and activity is stimulated. At the same time, the main conditions for the development of dialogic speech are the initiative and activity of the child himself, which should be encouraged and encouraged in every possible way. It has been established that the influence of children's joint activity on dialogical speech increases significantly if they are shown that its success depends on the ability to communicate and negotiate. Joint activity contributes to children's awareness of the need to possess dialogic skills, and, consequently, develops them.

Purposeful teaching of dialogic speech takes place in specially organized speech situations. They are aimed at developing the skills to negotiate during communication, question the interlocutor, engage in someone's conversation, follow the rules of speech etiquette, express sympathy, convince, prove one's point of view.

The technique of using speech situations may include the solution of communicative tasks: 1) on a verbal basis and 2) on the basis of the representation of certain situations by children on the instructions of the educator.

A conversation is a purposeful discussion of something, an organized, prepared dialogue on a pre-selected topic. The conversation is considered in preschool pedagogy as a method of getting acquainted with the environment and at the same time as a method of developing coherent speech. E. I. Radina in her study revealed in detail the importance of conversation for the mental and moral education of children. In some conversations, the ideas received by the child in the course of his daily life, as a result of observations and activities, are systematized and refined.

Proper planning and effective work on the speech development of children in a particular group is possible only when educators know the age-related characteristics of speech development and are able to correlate the individual characteristics of each child with them. In other words, the teacher helps the child to perceive reality more fully and deeper, to pay attention to what he is not sufficiently aware of. As a result, the child's knowledge becomes clearer and more meaningful.

In modern preschool education, the improvement of classes continues in various aspects: the content of education is expanding and becoming more complicated, the search for forms of integration of different types of activities, ways to use the game in the learning process, the search for innovative forms of the educational process, and the creation of conditions for a differentiated approach to learning. Increasingly, there is a transition from frontal classes to classes with subgroups, small groups. This trend ensures the quality of education: an individual approach to children, taking into account the peculiarities of their advancement in the assimilation of knowledge and practical skills. The program for the development of speech activity of preschoolers aged 5-7 years, developed by us, will show the effectiveness of the organization of the educational process on the basis of differentiated learning, in accordance with modern psychological and pedagogical trends.

The value of the conversation lies in the fact that an adult teaches the child to think logically, helps to think, raises from a specific way of thinking to a higher level of simple abstraction. In a conversation, the child must remember, analyze, compare, make judgments and draw conclusions, conclusions. In conversation, along with thinking, speech develops. Dialogic and monologic forms of coherent speech are formed, and above all colloquial speech: the ability to listen and understand the interlocutor, give clear answers to the questions posed, clearly express one's thoughts in a word, speak out in the presence of other children.

The use of classes as the main form of teaching children was substantiated by Ya.A. Comenius in the pedagogical work "The Great Didactics". The purpose of consistent learning: the development of a variety of knowledge about the world around the child, moral development, preparation for school.

K.D. Ushinsky psychologically substantiated and developed the didactic principles of teaching children in the classroom, emphasizing that already at preschool age it is necessary to separate serious learning from the game “you can’t teach children by playing, learning is work.” Therefore, the tasks of preschool education, according to K.D. Ushinsky, is the development of mental strength (development of active attention and conscious memory) and the gift of the word of children, preparation for school. However, at the same time, the scientist put forward the thesis of the dual unity of education and upbringing of preschool children. Thus, the problem of the existence of differences between teaching children in the classroom in kindergarten and in the classroom in elementary school was raised.

Teaching children the ability to conduct a conversation, to participate in a conversation is always combined with the development of a culture of behavior: the child must learn to listen carefully to the one who speaks, not to be distracted, not to interrupt the interlocutor, to restrain his immediate desire to immediately answer the question without waiting for a call. In a conversation, therefore, restraint, politeness and, in general, a culture of verbal communication are brought up.

The purpose of the conversation can be:

- introductory (preliminary), the purpose of which is to create interest in the upcoming activity, to prepare children for the assimilation of new knowledge, skills and abilities. They should be short and emotional;
- accompanying (accompanying), the purpose of which is to maintain interest in observation or examination, to ensure a complete perception of objects and phenomena, to help obtain clear, distinct knowledge.

They are held in the process of children's activities, excursions, walks. The specificity of these conversations is that they activate various analyzers and fix the received impressions in a word;

- final (final, summarizing), the purpose of which is to clarify, consolidate, deepen and systematize the knowledge and ideas of children.

The value of conversation in educational work with children. The conversation teaches children to think logically, helps children to gradually move from a specific way of thinking to the simplest abstraction.

Learning in the classroom, regardless of the form of its organization, differs primarily in the presence of a specific program. The teacher outlines the program content that should be implemented during the lesson. Classes have a certain structure, which is largely dictated by the content of training and the specifics of children's activities. Structurally, any lesson consists of the beginning, the course of the lesson (process) and the end.

At an older age, a large place is occupied by excursions outside the kindergarten and into nature. Their content becomes more complicated, more new words are given. In the process of excursions,

children acquire knowledge about their hometown, about the street where the kindergarten is located, about the post office, school, library, get acquainted with the work of adults and at the same time master and refine a diverse vocabulary: the names of professions, techniques, labor processes. The child's ideas about seasonal changes in nature, about some animals and plants are expanded and clarified, and in connection with this, the natural history dictionary is mastered.

In the course of a conversation, preschoolers learn to perform mental operations (analysis, synthesis, comparison, generalization), express their thoughts, listen and understand the interlocutor, and give answers to questions that are understandable to others. In a conversation, the coherence of speech develops.

In a conversation, the teacher unites children around common interests, arouses their interest in each other, the experience of one child becomes a common property. Each conversation should communicate something new: either give some new knowledge, or show the familiar in a new aspect. The content of the conversation should be phenomena familiar to the child, but requiring additional explanations, raising the child's consciousness to a higher level of knowledge. The topics of conversations are determined by the specific tasks of educational work with children, their age characteristics, the stock of knowledge acquired in the process of excursions and observations, as well as the immediate environment. The topic of the conversation should be close to the children, based on their life experience, knowledge and interests.

In the development of coherent speech of children of 5-7 years of age, the game teaching method increases speech motivation, contributes to the creation of an interested, relaxed atmosphere in the communication of children with each other, activates and speeds up the thinking process, and contributes to the rapid assimilation of new skills and abilities in the child's speech activity.

Didactic games for solving problems of speech development, consolidate and clarify the vocabulary, changes and formation of words, exercise in making coherent statements, develop explanatory speech. Dictionary didactic games help the development of both specific and generic concepts, the development of words in their generalized meanings. In these games, the child finds himself in situations where he is forced to use the acquired speech knowledge and vocabulary in new conditions. They are manifested in the words and actions of the players. In order to competently organize the play activities of children, the teacher must know well both the age and individual characteristics of the children of the group on which he works.

The content of the conversation should be phenomena that are mostly familiar to the child, but require additional explanations, raising his consciousness to a higher level of knowledge. In the middle preschool age, conversations are mainly used that accompany the acquisition of new knowledge and observations. For example, a preschooler knows from conversations that a bear loves honey and lives in the forest. But where exactly the bear lives, namely in what "house" he lives -

before that, it is difficult for the child to guess, this requires explanation. At the senior preschool age, all kinds of conversations are held.

Literature:

1. Mirziyoyev Sh.M. Together we will build a free, democratic and prosperous state of Uzbekistan. Tashkent - "Uzbekistan" -2017 - 54p.
2. Tikheeva, E. I. The development of children's speech [Text] / E. I. Tikheeva - M.: Education, 2002. - 280 p.
3. Kodirova F.R., Kodirova R.M. Bolalar nuthini rivojlantirish nazariyasi va methodology. - T.: "Istiqlol", 2006.
4. Виноградова Н.Ф., Козлова С.А. Наша Родина: Пособие для воспитателя. – М.: Просвещение, 1984. – 304 с.
5. Волчкова В.Н., Степанова Н.В. Конспекты занятий в старшей группе детского сада. Познавательное развитие: Учебно-методическое пособие для воспитателей и методистов ДОУ. – Воронеж: Учитель, 2006. – С.107 – 127.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON RESURLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

*Nazarmatova D.U.
Nizomiy nomidagi TDPU magistranti*

Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo’lg’usi Renessansning to’rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog’cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o’qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg’onish davrining to’rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz”.

Sh.M.Mirziyoyev

So‘nggi yillarda prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev bu tizimga alohida e’tibor qaratmoqda. Respublikamiz ta’lim tizimida bo‘lajak tarbiyachi va pedagog xodimlarni professional darajada tayyorlash ko‘lami kengayib bormoqda. Shu ma’noda bo‘lajak tarbiyachi va pedagog xodimlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hozirgi rivojlanish jarayonining zaruriy ehtiyoji hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta’minlaydigan zamonaviy ta’lim dasturlari, ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta’limni

boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 487 sonli qarori muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy kompyuterlardan foydalanish madaniyati hozirgi kunda Yoshi va kasbidan qat'iy nazar har bir inson uchun zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Shu bilan birga 2017-yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni orqali MTTda yangi tizim yaratilgan bo'lsa, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmonida esa maktabgacha ta'lim tizimida yangicha islohotlarni ko'rishimiz mumkin. Bo'lajak tarbiyachi va pedagog xodimlarni kasbiy kompetentligini shakllantirish, maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini yanada takomillashtirish tizimida quyidagi xususiyatlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi:

-tarbiyachilarda kasbga kompetentlikni shakllantirishda ular bilan individual va jamoaviy ishlash;

-bolalarda odobi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, qiziqishi, faolligini oshirishga maqsadli yondashish,

-samaradorlikka e'tibor berishdan iborat.

Elektron resurslar hozirgi zamonda eng shiddat bilan o'sib kelayotgan tizim hisoblanadi 21 asr yosh avlodlarining Texnika asri yoshlari nomi bilan atalishi ham bejiz emas. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bolajak tarbiyachilar Maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun maxsus kadr hisoblanadi, ularda Elektron resurslar orqali o'z ish jarayonlarini yanada yengillashtirish, ish unumini samaradorligini oshirish maqsadida Elektron baza, elektron kartoteka yaratish imkoniyatini shakllantirishni o'z ichiga maqsad qilib oladi. Elektron kartoteka orqali Tashkilotda ish yurituvchi me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni yanada osonlashtirishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida gi qarori hamda Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi o‘ganlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-sonli farmoni

3. Maktabgacha ta‘lim Vazirining 2019-yil 30-avgustdagi 155-sonli buyrug‘ining ijrosini ta‘minlash.

4. 487 sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Maktabgacha ta‘lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.



MAKTABGACHA TA‘LIM MUHITI SIFATINI BAHOLASHDA HALQARO ECERS O‘LCHOV SHKALASIDAN FOYDALANISH

Namazbayeva L.Z.

T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy – tadqiqot Instituti doktranti
[*namazbaevalola14@gmail.com*](mailto:namazbaevalola14@gmail.com)

Maqolada zamonaviy maktabgacha ta‘lim masalalari, ustuvor vazifalar, ta‘lim muhitining sifati uning baholashdagi qiyinchiliklari ko‘tariladi. Xususan, ta‘lim muhiti sifatini baholashning zamonaviy usuli – ECERS o‘lchov shkalasi haqida so‘z boradi. Muallif ushbu baholash usulidan foydalanishning ba‘zi jihatlarini, baholash prinsipini va ichki, tashqi ekspertizada foydalanish variantlarini ochib beradi. Shunisi e‘tiborga loyiqki, ushbu baholash usulidan foydalanish maktabgacha ta‘lim tashkilotining ma‘lum bir guruhini baholash uchun mo‘ljallangan. Olingan natijalarni batafsil tahlil qilish muayyan guruhning ta‘lim sifatining kuchli va zaif tomonlarini obyektiv ko‘rish va baholash imkonini beradi. So‘ngi bir necha yillar ichida sifatni baholash mavzusi Maktabgacha ta‘lim tizimida xalqaro hamda respublika miqyosda ham, dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda[1].

bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tug'ilgandan boshlab, bola bir qator taassurotlarni oladi, ular orasida musiqiy taassurotlar ham bor. Avvalo, bu sekin yoki jonli intonatsiyalar bilan onaning ovozi, bolalar musiqali o'yinchoqlarining tovushlaridir. Musiqa bolaning faol harakatlarini keltirib chiqarish qobiliyatiga ega. U olgan barcha taassurotlaridan musiqani ajratib turadi, uni shovqindan ajratadi, diqqatini unga qaratadi, jonlantiradi, tinglaydi, quvonadi, ba'zan kattalar bilan birga erta qo'shiq aytishni boshlaydi. Binobarin, agar musiqa bolaga hayotining birinchi yillaridayoq shunday ijobiy ta'sir ko'rsatsa, tabiiyki, undan pedagogik ta'sir vositasi sifatida foydalanish kerak. Bundan tashqari, musiqa kattalar va bola o'rtasidagi muloqot uchun boy imkoniyatlar yaratadi, ular o'rtasidagi hissiy aloqa uchun asos yaratadi. Bolaning ovozi — bu bolaligidanoq ega bo'lgan tabiiy asbob. Shuning uchun qo'shiq bolaning hayotida doimo mavjud bo'lib, uning bo'sh vaqtini to'ldiradi, ijodiy, syujetli o'yinlarni tashkil etishga yordam beradi. Ko'pincha qo'shiq aytish musiqiy faoliyatning boshqa turlari bilan birga keladi: raqs, dumaloq raqs, bolalar musiqa asboblari chalish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy va estetik ta'limi tizimida qo'shiq yetakchi o'rinni egallaydi. Yaxshi bolalar qo'shig'i bolani o'ziga jalb qiladi va tinchlantiradi, uni rivojlantiradi va tarbiyalaydi. V. Suxomlinskiy ta'kidlashicha, qo'shiq kuylash insonning ona yurti go'zalligini ochib beradi. Qo'shiq erta bolalikdan boshlab inson hayotiga hamroh bo'ladi. Bu uning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi, bo'sh vaqtni jonli, xayoliy, ko'ngilochar shaklda, atrofdagi voqelik haqidagi mavjud g'oyalarni chuqurlashtiradi. Instrumental musiqa bilan taqqoslaganda qo'shiq bolalarga ko'proq hissiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u so'zlar va musiqani birlashtiradi. Qo'shiq aytish — bu xalq ijodiyotining eng keng tarqalgan va eng qulay turi. Bolaning musiqiy tarbiyasi, uni qo'shiq aytishga o'rgatish bo'yicha ish mas'uliyatli ishdir. Bolalarga yakkaxon ansambl va xor xalq qo'shiqchiligini o'rgatish, xalq qo'shiqlarini ijro etishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llarini o'rgatish uchun tizim zarur. Musiqa mashg'ulotlarida qo'shiq aytish mahorati bolalarda asta-sekin, ma'lum tamoyilga muvofiq — oddiydan murakkabgacha singdiriladi. Bolalarga o'rgatish repertuarining asosi bolalar musiqa folklorining asarlari bo'lishi kerak, chunki ular bolalarga yaxshi ma'lum. O'yin va raqs qo'shiqlari — majoziy ma'noda yorqin, ohangdor, she'riy. Ushbu qo'shiqlarni bolalar bilan ijro etib, siz, birinchi navbatda, aniq o'ynoqi boshlanishini ta'kidlab, beg'ubor dumaloq raqslar va raqslarni tashkil qilishingiz mumkin. O'yin, aktyorlik istagi bolalarga xosdir. O'yin ularga quvonch baxsh etadi. Shu sababli, o'yinning elementlari u yoki bu tarzda deyarli har qanday qo'shiqqa kiritilishi mumkin. Keyin qo'shiq syujetiga ko'ra harakatni sahnalashtirish orqali kuylash mumkin. Boshqacha aytganda, ko'plab o'yin va raqs qo'shiqlariga singib ketgan xalq dramasi elementlari ijro etiladi. Qo'shiq aytish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa faoliyatining eng qulay turidir. Ular qo'shiq aytishni yaxshi ko'radilar. Ular bajonidil, zavq bilan kuylashadi, bu ularning musiqani faol idrok etishi, his-tuyg'ularini va kechinmalarini samimiy, chuqur ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Qo'shiq bilan uchrashish, u bilan muloqot qilish bolalar uchun yorqin

quvonch bilan ranglanadi, ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bolada musiqaga qiziqish, unga hissiy munosabat shakllanadi. Qo'shiq kuylash bolalarning musiqiy qobiliyatini, musiqa qulog'ini, xotirasini va ritm hissini rivojlantiradi, umumiy musiqiy dunyoqarashni kengaytiradi. Bolalarni qo'shiq aytish jarayonida birgalikdagi harakatlarga o'rgatish, ularni umumiy kayfiyat bilan birlashtirish orqali o'qituvchi bolalarni do'stona munosabatlarga, kollektivizm tuyg'usiga tarbiyalaydi. Qo'shiq bolalarni xalqning milliy an'analari, qo'shiq o'tmishi bilan tanishtiradi. Ularning muntazam bajarilishi bolalarda estetik tarbiya, badiiy didni rivojlantirishga yordam beradi, Vatanga, ona tabiatga muhabbat tuyg'usini uyg'otadi. Qo'shiq bolalar nutqini boyitadi, diksiya va artikulyatsiyani yaxshilashga yordam beradi, nutqning ifodaliligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Ohang qurilishining soddaligi, jonli tasvir, hazil eng uyatchan va harakatsiz bolalarda ham qo'shiq aytish istagini yaratadi. Xalq qo'shiqlari bolada ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi. Ba'zan qo'shiq nomini aytishning o'ziyoq bolalarning yuzlarida tabassum yorishib, zavqlanib kuylaydilar. Ovoz uzunligi ustida ishlashda xalq qo'shig'idan yaxshiroq nima bo'lishi mumkin, chunki keng ohangdorlik barcha qo'shiq janrlariga xosdir — qo'shiqdan tortib raqsgacha. Repertuarni kengaytirish va zamonaviy qo'shiqlar hisobiga musiqa va matnning mavjudligi ohangni tez o'zlashtirishga, musiqiylikni rivojlantirishga yordam beradi. Bolalarni zamonaviy qo'shiq bilan tanishtirish ularning aqliy va axloqiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. I.T.Nurmatova. Bolalarning musiqiy ta'limi. T.:Tafakkur.2021.
2. Yusupova N.Musiqa savodi metodikasi va ritmikaT.: Musiqa. 2010.
3. Гогоберидзе А. Г. Теория и методика музыкального воспитания детей дошкольного возраста: Учебное пособие / А. Г. Гогоберидзе,2005.
4. Радынова О.П.. Практикум по методике музыкального воспитания дошкольников: учебное пособие / О. П. Радынова, И. В. Груздова, Л. Н. Комиссарова,1999.

O'QUVCHI-YOSHLARNI ESTETIK TARBIYALASHDA MUSIQA TA'LIMINING O'RNI VA AHAMIYATI

Olimova F.B.

TerDUPI "Musiqa ta'limi va san'at" magistratura mutaxassisligi

1-kurs magistranti

fotima-0989@mail.ru

Qadimdan Sharq va G'arb madaniyati bir-biriga qarama-qarshi holda kurashib, rivojlanib kelmoqda. Sharqning G'arbdan ustunlik tomoni shundaki, Sharqda ta'lim va tarbiya masalasiga birdek e'tibor qaratib kelinadi.

Estetik tarbiya — jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir [1., 7.].

Estetik tarbiyaning vazifalari:

- kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalari nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

- jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;

- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg'u bilan munosabatda bo'lishga va ularni ravnaq toptirish yo'lida astoydil faoliyat olib borish ko'nikmalarini hosil qilish.

G'arbda asosan barcha diqqat e'tibor ta'limga qaratilgan. "XXI asr vabosi "deb nom olgan va butun dunyoga katta xavf solib turgan ommaviy madaniyat o'zining "girdobi"ga asosan millati, madaniyati, urf-odati, san'ati, milliy estetik tarbiyasidan yiroqroqda bo'lgan tajribasiz, o'quvsiz yoshlarni tortib bormoqda. Dunyoning shiddat bilan rivojlanib, axborot uzatish jadallashishi, uyali telefon orqali internet tarmoqlariga ulanish, yaroqsiz va keraksiz ma'lumotlarni olish va jo'natish o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti [1, 108-b.].

Bugungi zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi jarayonida yoshlarni ommaviy madaniyatga ko'r-ko'rona taqlid qilib borishi, ta'lim va tarbiya masalasiga har qachongidan ham jiddiyroq e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Qulog'iga naushnik taqib, shovqinli tovushlardan iborat bo'lgan ritmlarni "kuy-ohang" sifatida qabul qilayotgan yoshlarimizni ko'rib, ko'rmaslikka olish nohaqlikdir. Bunday yengil, shovqinli ritmik tovushlar yoshlar ongi va tafakkurini sayozlashtirib, kichik qolipga solib qo'yadi. Bu esa ertaga ularni turli xalqimiz madaniyati va ma'naviyatiga xos bo'lmagan oqimlar ta'siriga oson tushib qolishiga olib kelishi mumkin.

Maktabda musiqa o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritayotgan har bir o'qituvchi o'quvchilarni musiqa san'ati orqali tarbiyalash jarayonida milliy musiqaga alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki milliy musiqa san'atimizning mazmunan rang-barangligi: alla-yu qo'shiq, yalla, terma-yu-lapar, yor-yoru o'lan, katta ashula-yu maqom qaysi bir janrni u o'zining dilbar ohangi, sho'x usullari nola-yu serjilo qo'chirmalari bilan o'zbekning tabiatini, o'zgaga o'xshamas udum va urf-odatlarini musiqiy ohanglar orqali tarannum etadi va har bir o'quvchi yosh uni tushunadi, his hayajon bilan idrok etish va undan qalb to'la zavq-shavq olishi tabiiy holdir [3, 112-b.].

O'qituvchi boshlang'ich sinflarda ta'lim va tarbiya birligiga erishmoqchi ekan, shuni alohida nazarda tutmog'i lozimki bu tarbiyaning muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ta'limoti orqali amalga oshirib borishi mumkin. Ular quyidagilardir:

- har bir darsning estetik nuqtai nazardan aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi;

- dars uchun musiqiy materiallarni, o'rgatish metodlarini, uslub va vositalarni to'g'ri tanlay olish;

- o'qituvchi tomonidan har bir sinf, har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini, musiqiy qobiliyatlarini, ijro va idrok imkoniyatlarini hisobga olishi;

- o'quvchilarda musiqiy estetik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan mantiqiy, maqsadga muvofiqlik uzluksizlikning ta'minlangan bo'lishligi;

- musiqiy estetik tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning hissiy, ijodiy va axloqiy faoliyatlarining mutanosibli ta'minlangan bo'lishligi.

Musiqiy tarbiyada ta'lim bilan tarbiyani mushtarak bo'lishligi ta'limning ilmiy ongli, ko'rgazmali, tushunarli, o'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishi kabi tamoyillarga jiddiy amal qilgan holda olib borilishiga erishish lozim [5., 6.].

Musiqqa darslarida o'qituvchi o'z oldiga o'quvchilarni musiqiy estetik madaniyatlarini shakllantirishni maqsad qilib qo'ysa, u holda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar pirovard natija ekanligini yodda tutmog'i lozim:

1. O'quvchilarda musiqqa darslariga nisbatan qiziqish va havas tobora orta borishi.

2. Sinf va sinfdan tashqari musiqqa mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini va tashabbusi orta borishi.

3. Qo'shiqlarni xushohang, musiqani diqqat va ishtiyoq bilan tinglash, asarlardan xush sozlik, xushovozlik va undan go'zallikni anglay olishni, unga o'z munosabatini bildira olish malakalarini shakllantirib borishi.

4. Musiqiy estetik faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirgan bo'lishi.

Gap musiqqa va ta'lim-tarbiya haqida ketar ekan o'quvchi yoshlarda eng avvalo sog'lom didni shakllantirib borish e'tiborda bo'lishi kerak.

Badiiy did tarbiyasini birinchi sinf musiqqa darslaridanoq boshlash har bir musiqqa o'qituvchisining vazifasidir [3, 77-b.]. Birinchi sinfdagi dastlabki darslardanoq o'qituvchi o'quvchilarning har bir o'rganilayotgan asarni diqqat va e'tibor bilan tinglashiga, uning ifoda vositalari va mazmunini to'la idrok etishiga o'rgatishi zarurki, bu shunchalik odat tusiga kirib boradi va badiiy didni o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari o'qituvchi darsni badiiy did tarbiyasining quyidagi asosiy vositalaridan foydalangan holda olib borishi kerak.

- qiziqarli repertuar to'play bilish;

- ijrochilik malakalarini tarbiyalash;

- ashulachilik malakalarini o'stirish;

- musiqqa tinglash va tahlil qila bilish;

- darsdan olgan bilimlarini turli musiqqa to'garaklarida takomillashtirish.

Musiqqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqqa ta'limi va tarbiyasi keng, atroflicha bo'lishiga e'tibor qaratishda asosiy omildir. Bunda inson yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqaviy tajribalar o'z aksini topgan. Darsning barcha o'quv faoliyatlari hamda keyingi darslarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi tizimlilik asosini tashkil etadi [2, 35-b.].

Xulosa qilib aytganda, yuksak badiiy estetik didni tarbiyalashda san'atning hamma turlari muhim va ularning har biri o'z xususiyati va imkoniyatiga ega. Badiiy did tarbiyasining asosi maktabda, dars jarayoni, o'quv mashg'ulotlari vaqtida vujudga keladi. O'quvchilarda estetik didni tarbiyalashda maktabning butun hayoti barobar qatnashsa-da, lekin, musiqqa darsining alohida ahamiyati bor. Ya'ni musiqqa darsi badiiy didni tarbiyalashda ta'sirchan vositadir. Bu borada eng mas'uliyatli vazifa musiqqa o'qituvchilariga topshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Asafev B.V. "Zamonaviy rus musiqashunoslik va uning tarixiy vazifalari". – De Musica, 1-son. L., 1926, 132–bet.
2. Asafev B.V. Музыкальная форма как процесс. L.:Gusud. Muz. izd., 1973g., -211 s.
3. Karimova D. Pedagogik maxorat asoslari. "Musiqqa", – T.: 2008. – 168 b.
4. Sharipova G. Musiqqa o'qitish metodikasi. – T.: Musiqqa, 2000. 233 b.
5. Shimanovskiy K. Tanlangan maqola va xatlar. L., 1963, 120–bet.
6. Umarov E. Estetika T.: "O'zbekiston", 1995y., -210–bet
7. <https://hozir.org/estetik-tarbiya-va-uning-muhim-vazifalari>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING METODIK ISHLARINI BOSHQARISHDA TASHXIS FAOLIYATI

Olimov S.A.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining tayanch doktoranti

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining metodik ishlarini tashkil qilish ularga metodik yordam ko'rsatish ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omillaridan bir hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya jarayoni sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda tarbiyachilar metodik ishlarini tashkil qilish, boshqarish va metodik faoliyatini tashxislar yo'nalishlarida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodik ishlarini boshqarish jarayonida tarbiyachining tashxis faoliyatining tashkil etuvchilarini aniqlash imkoniyati bo'ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- obyektga, predmetga va pedagogik faoliyatga nisbatan axborotni shaxsiy va kasbiy motivlashtirib qayta ishlash, bu yerda obyekt sifatida tarbiyachi va bolaning faoliyatli va shaxsiy xususiyatlari, predmet sifatida esa – o‘zgarish kiritilishi kerak bo‘lgan shaxsiy yoki o‘zaro harakatdagi bilish xususiyatlari ish ko‘radi;

- metodik ishni boshqarishda, tashxisni tashkil qilishda va uning natijalaridan samarali foydalanishda o‘z imkoniyatlariga o‘zining tashxis qo‘yishi;

- umuman faoliyat natijalarini va uning tarkibiy qismlari harakatlarining ketma-ketligini prognozlash;

- tashxisni amalga oshirish;

- joriy nazoratni hamda harakatlar bajarilishining tahrirlanishini va umuman tashxislarni, metodik ish samaradorligining tashxis nazoratini amalga oshirish.

O‘ziga muloqot va predmet faoliyatni birlashtirgan pedagogik tashxislar kabi murakkab faoliyatning borishini nazorat etish, shu jumladan, o‘zini tartibga keltiradigan, bir vaqtda tashxis harakatlarining nazoratini, shaxslar aro munosabatlarning, ruhiy holatning hamda o‘zining shaxsiy va tashxislanadigan xatti-harakatlarining o‘zgarishlarini nazorat qilishni ta’minlaydigan murakkab tizim kabi nazorat etish maqsadga muvofiq.

Tarbiyachining kasbiy faoliyatini o‘rganishga bo‘lgan professiografik, faoliyatli va shaxsiy-faoliyatli yondashishlarning tahlili bizga uning boshlang‘ich o‘rinlarini, tuzilmasini va, asosini pedagogik tashxislar mahorati tashkil qilgan, tashxisi faoliyatning mazmunini aniqlashga yordam berdi.

Ular o‘z ichiga quyidagi mahoratlarni: mazkur aniq bir holda tashxislarning obyektini, maqsadi va vazifalarini aniqlashga imkon beradigan maqsadni belgilashni; mezonlarni, ko‘rsatkichlarni, tashxis darajalarini, o‘z ichiga olgan, uslubiyotlarni tanlashni (qo‘yilgan tashxis masalalarini yechish uchun tashxislar asboblarini) amalga oshiradigan tashxislar faoliyatini rejalashtirishni; faoliyatni amalga oshirishni: to‘liq tashxis axborotlarini yig‘ishni amalga oshiradigan amaliy mahoratni; me‘yoriy, etalon, individual standart modeldan tashxislar natijasida olingan ma’lumotlarni taqqoslash mahoratini; olingan natijalarni miqdor va sifat tomonidan qayta ishlashni, ya’ni ularni tahlil qilishni; tashxislanadigan obyektning holati va bu holatni chaqiruvchi sabablar (sabab-oqibat aloqalari) to‘g‘risidagi xulosa sifatida pedagogik tashxisni shakllantirish mahoratlarini; tashxislar loyihasini: olingan tashxis asosida obyektning optimal ishlash sharoitlarini va obyektning keyingi rivojlanish yo‘llarini aniqlash mahoratlarini; nazorat qilishni amalga oshirish mahoratlarini; butun tashxislarning borishini va natijalarini nazorat qilish mahoratlarini; O‘z-o‘zini tartibga solish mahoratlarini; munosabatlarni, ruhiy holatlarni, tashxis qilinadigan obyektning xatti-harakatlarini nazorat etish mahoratlarini; tahrirlashlar: tuzatish bo‘yicha amaliy harakatlarga pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqish mahoratlarini; tashxis obyektining keyingi rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratish

mahoratlarini; tashxis faoliyatining hamma bosqichlariga xizmat ko'rsatuvchi kommunikativ mahoratlarni; tashxislar jarayonida aaloqani o'rnatish va uni ushlab turish mahoratlarini; o'zaro muomalada ishonch, qiziqish uyg'otish, emotsional kayfiyatni yaratish mahoratlarini oladi.

Shunday qilib, izlanishlarda aniqlanishicha tarbiyachining metodik ishlarni boshqarish jarayonidagi shaxsiy tashxis faoliyati *motivatsion va operatsion* tashkil etuvchilar bilan ifodalanadi.

Motivatsion tomon, keng ma'noda, dunyoqarashni, talablarni, qiziqishni, intilishni, ideallarni, shaxsning tanlab olgan kasbiy faoliyatiga mos keluvchi axloqiy-etik fazilatlarini ifodalovchi yo'nalishni o'z ichiga oladi.

Psixologlar, mutaxassis ishinig unumli bo'lishi uchun to'g'ridan-to'g'ri kasbiy motivatsiya eng ahamiyatli, deb ta'kidla shishadi. Motivatsiyaning mazkur ko'rinishi uchun pedagog faoliyat jarayonining pedagogik jarayon subyektlariga yo'naltirilganligi xos. To'g'ridan-to'g'ri kasbiy motivatsiyaning va o'zini qo'llash motivatsiyasining birikmasi katta tarbiyachi tomonidan metodik faoliyatning ahamiyatini va tarbiyachining shaxsiy istiqbolda rivojlanishi uchun aniq yo'nalishini tushunishga yordam beradi. Aynan mana shu holda pedagogik mehnat mustaqil pedagogik faoliyat sifatida ish ko'radi.

Tarbiyachi pedagogik faoliyatining motivatsion-psixologik tomoni, psixologik fan nuqtai nazaridan ikki yo'nalishda ko'rilishi mumkin. Birinchidan, motivlarning umumiy, tuzilmasida kasbiy motivatsiyaning o'rni nuqtai nazaridan va, ikkinchidan, motivatsiyaning mazmuniy tomonida va uning maqsadlarining individual variantida ifodalangan muayyan mutaxassisning pedagogik e'tiqodlarining uslubiy ishlarini boshqarishga qo'yiladigan aniq talabning bahosi sifatida qaralishi mumkin.

Demak, metodik ishni boshqarish uchun tarbiyachi ongli motivatsiyaga ega bo'lishi, bu bir maqsadga va tizimli ravishda shaxsga yo'naltirilgan, optimal tashkil qilingan bo'lishi kerak.

Pedagogik faoliyatning *operatsion bloki* — murakkab va ko'p tomonli. Tadqiqotchilar fikricha, u zaruriy bilimlar va mahoratni, bu mahoratlarning shakllanish darajasida o'zlashtirish uchun, subyektning psixologik potensialida, kasbiy mukammallashish istiqbollari ifodalangan.

Faoliyatning operatsional tomonlari, faoliyatni amalga oshirish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan keyingi bosqichlarida ayniqsa aniq va nisbatan mustaqil namoyon bo'ladi

Adabiyotlar:

1. Зеленова Н. Г., Осипова Л. Е. Мы живем в России. Гражданскопатриотическое воспитание дошкольников. – М.: «Издательство Скрипторий 2003», 2008.
2. Ильин И. А. Творческие идеи будущего // Медный всадник./ И. А. Ильин - Санкт-Петербург., -2001.-№7.- С.9-22.

3. Измоденова, Т. Путешествуем по историческим местам Москвы : занятие по патриотическому воспитанию детей старшей группы. Посвящено 200- летию Отечественной войны 1812 года / Т. Измоденова // Дошкольное воспитание. - 2014. - № 7. - С. 122-124.

4. Колпачук О. С., Добрицкая И. Г. О патриотическом воспитании детей дошкольного возраста. // Гармонизация психофизического и социального развития детей. — Мн., 2006.

5. Комратова Н.Г., Грибова Л.Ф. Патриотическое воспитание детей 4-6 лет: Методическое пособие. – М.: Сфера, 2007.



O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI PEDAGOG KADRLAR BILAN TA’MINLASH VA ULARNING KOMPETENSIYASINI OSHIRISH JARAYONINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI VA ISTIQBOLLARI

Olimov Q.T.

p.f.d., professor, Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali ijrochi direktori,

Sharipova Sh.S.

p.f.f.d (PhD) dos. A. I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali "Ta'lim sifatini nazorat qilish" bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimini pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning kompetensiyasini oshirish jarayonining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar butun ta'lim tizimida, uning maktabgacha ta'lim tizimida, xususiyl ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu o'zgarishlar maktabgacha ta'limning tashkiliyl va mazmunli jihatlariga ta'sir ko'rsatdi. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, yosh bolalarni kamol toptirish va maktabga sifatli tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston hukumati milliy ta'lim siyosatini takomillashtirish bo'yicha o'z imkoniyatlarini muntazam kengaytirmoqda. Respublikada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning me'yoriyl-huquqiy asoslari yaratilgan.

Kelajak avlodni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muhim o'rin tutadi. Aynan shu yoshda shaxsning shakllanishi va uning salohiyati uchun asoslar yaratiladi. Shu bois, bu davrda bolaga sifatli ta'lim olish imkoniyatini berish juda muhimdir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti nafaqat bolalar bog'chasi bo'lib, u erda bolani parvarish qilish va nazorat qilish ta'minlanadi. Bu ta'lim tashkiloti bo'lajak fuqaroni barkamol etib tarbiyalash yo'lidagi ilk qadamdir. U qayerda yashashidan

qat'i nazar, barcha bolalar uchun ochiq bo'lishi juda muhimdir. Albatta, farzandlarning buguni va kelajagi uchun asosiy mas'uliyat ota-onalar, o'qituvchi va murabbiylardir.

Respublikamizda maktabgacha ta'limni tashkiloti faoliyati tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pedagog kadrlarning ijodiy salohiyati, akmeologik kompetentligi va kreativligini rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Malakali pedagoglar bolalarni maktabgacha ta'limga sifatli ta'minlashda asosiy rol o'ynaganligi sababli, agar kadrlar malakasini oshirishga yetarlicha e'tibor berilmasa, dasturlar sifatini oshirishga qaratilgan ko'plab siyosiy tashabbuslar puchga chiqadi. Pedagoglar o'quv amaliyotida o'z tajribasini kengaytiruvchi, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish va mazmuniy bilimlarini kengaytirish imkonini beruvchi malaka oshirish seminarlarida qatnashishi kerak.

Kasbiy rivojlanish pedagoglarga muhim ko'nikmalarni egallash va qo'llashda yordam berishi kerak, ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pincha bunday emas. Pedagog kadrlarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar qayta-qayta ko'rsatdiki, islohotlar odatda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, chunki o'qituvchilar innovatsiyalarni talab qiladigan sohada yetarlicha qo'llab-quvvatlamaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalari rivojlanish uchun maqbul sharoitlarni yaratishda, bolalarning iste'dodlarini rivojlantirish, ularga yanada muvaffaqiyatli va baxtli bo'lishga yordam berish, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish va qiziqishlar, subyektivlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik va axloqiy fazilatlar, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdir.

Shaxsni rivojlantirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi tomonidan yuqori sifatli yordam ko'rsatmog'i, unga xos bo'lgan kasbiy kompetensiyalar tizimi bugungi kunda bolalikning eng muhim atributi, takomillashtirishning hal qiluvchi omili sifatida qaraladi.

Pedagogik tafakkurning rivojlanish darajasi, qobiliyati va uzluksiz O'z-o'zini tarbiyalash va o'zini o'zi anglash istagi, innovatsiyalarga tayyorlik, ulkan axborot maydonida harakat qilish qobiliyati, pedagogning ijodiy tabiati tadbirlar va boshqalar. zamonaviyning professional portretining zarur tarkibiy qismlarini tashkil qiladi.

Respublikada maktabgacha ta'lim tizimi uchun pedagogik va ilmiy kadrlar tayyorlash va ularning kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

-“Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi bo'yicha pedagog kadrlarni tayyorlashda xorijiy filiallar shu jumladan Toshkent shahridagi Puchon universiteti va A.I.Gersen nomidagi RDPU Toshkent shahridagi filiallari bilan hamkorlikni faollashtirish;

- A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti bilan qo‘shma dasturlar bo‘yicha pedagog kadrlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;

- maktabgacha ta’lim tizimi pedagoglarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikda seminarlar, treninglar va qisqa muddatli o‘quv kurslari va doimiy onlayn kurslar tashkil etish;

-Universitet va xorijiy filiallar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar va ilmiy kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;;

-maktabgacha ta’lim jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalar, innovatsion ta’lim metodlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida hamkorlikda metodik platformasini yaratish.

-Pedagogika kollejlari va universitetning “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlari integratsiyalashtirib 2+2 shaklida ta’limni tashkil qilish.



МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ

Очилова Х

*Магистрант направления Дошкольное образование
ТГПУ им. Низами*

Известно, что основная цель речевого развития в дошкольном образовании - вызвать у детей желание и интерес к самостоятельному мышлению, обучить родному языку, то есть сформировать навыки «четкого, связного, лаконичного выражения идей на родном языке», личностные качества. Развитие и подготовка детей к школьному обучению.

Выполнение этого задания развивает у детей образное, логическое мышление, любопытство, наблюдательность, слух и память, а также зрительную память. Поэтому педагог должен хорошо разбираться в приемах развития речи, применять их на занятиях, выбирать и совершенствовать наиболее подходящие методы.

В педагогической литературе методы речевого развития классифицируются следующим образом;

1. Словесные или вербальные методы.
2. Демонстрационные методы.
3. Практические методы.
4. Игровой метод.

Знания, навыки и умения, передаваемые детям в устной форме, формируются словами педагога, объяснением, рассказом историй, описанием, беседой, чтением и запоминанием. В частности, педагог должен уметь мыслить ясно и лаконично, используя устные методы, ясно и кратко выражать слова и фразы, задавать вопросы ясно и в краткой форме и помогать детям находить ответы.

Метод беседы – является одним из самых распространенных. повествование предполагает также формат вопросов и ответов. Великий ученый и мыслитель Ибн Сина также считал беседу и объяснение наиболее удобными методами. Преимущество разговорного метода в том, что и ребенок, и воспитатель активны на занятии, взаимодействие способно поддерживать друг друга, вместе думать, контролировать знания, корректировать их, дети участвуют в них как субъект и объект.

Демонстрационный метод. В этой методике учебный материал преподается на основе выставок, технических пособий, различных дидактических материалов. Демонстрация - один из самых распространенных методов дошкольного образования. В демонстрационном методе дети думают и рассказывают на основе своих наблюдений за объектами, событиями, изображениями, иллюстрациями и экскурсиями. Таким образом, объекты в групповой комнате, растения в уголках природы, животные, наблюдение за сверстниками, окружающими событиями служат средством демонстрации, дети видят наглядно знания, навыки и способности, они воспринимают и запоминают, развивают память о видении и запоминании.

В демонстрационном методе следует отметить следующее.

1. Убедитесь, что картинки, иллюстрации, предметы, предметы и другие выставки подходят для детского возраста, а цвета яркие.
2. Привлечь внимание детей к тем аспектам, которые составляют основное содержание наглядных пособий.
3. Предоставьте детям возможность ознакомиться с наглядными пособиями и четко определите работу, которая должна быть выполнена таким образом для каждой возрастной группы.

В небольшой группе дошкольного образования речь детей развивается с помощью наглядных методов, с особым упором на сравнение, разделение, обобщение и описание. Обращаем внимание на следующее.

Практический метод. Основная цель практического метода - применить полученные детьми знания на практике, улучшить их разговорные навыки. Практические знания и навыки приобретаются посредством практических занятий, таких как практика, самостоятельное выполнение задания, проведение простых экспериментов, на практике демонстрационный метод, словесный метод используются вместе и участвуют во всех заданиях речевого

развития, дети выполняют задания самостоятельно, находят слова и фразы для речи посредством практических исследований; Дети используют практические методы в уборке комнаты, расстановке книг, ремонте игрушек и работе на природе, где они словами и делами выражают то, что они сделали.

Практически у детей развиваются память, мышление, работоспособность, самостоятельная деятельность, самостоятельное мышление, интерес к жизни вокруг них, взрослый труд, уважение к нашим ценностям, практические навыки в профессии.

Игровые методы. В дошкольном образовании широко используются несколько типов игровых методов, таких как дидактические игры, игры в слова, игры-действия, ролевые игры, содержательные игры и т.д., которые важны для развития речи. Например, дидактические игры, такие как «Кто живет в этом доме», «Что изменилось», «Кому что нужно», «Магазин игрушек», «Кто продолжит рассказ», увеличивают словарный запас детей, связывают речь.

Приемы развития речи делятся на вербальные, демонстрационные и игровые методы. В то время как вербальные методы, такие как образец речи, описание, повторение, инструктирование, указание направлений, такие методы, как показ и перемещение изображения, игрушки, объяснение, инициирование, важны в методе демонстрации. Методы развития речи, как указано выше, выбираются и применяются к детям в соответствии с их возрастом и видом деятельности.

Свободное владение языком важно в жизни каждого человека и выполняет три основные функции.

- индивидуальный;
- внутренний индивидуальный;
- универсальный.

Функция речи отражает актуальные этапы развития в ее онтогенезе, каждая из которых имеет свои особенности:

Задача 1 - межличностная - это средство общения между людьми. В этом случае речь является устной речью - монологом, диалогом, беседой нескольких человек.

Задача 2 - внутрииндивидуальная - где речь поднимает многие психические процессы (мышление, внимание, память, воображение и т. д.) До уровня ясного понимания и позволяет человеку регулировать и контролировать психические процессы, служит средством их реализации.

Задача 3 - универсальная - где речь позволяет человеку получить информацию из сокровищницы универсального социально-исторического опыта. В данном случае - это письменная речь, материализованная графическими символами и знаками.

Развитие связной речи у детей - основная задача дошкольного образования. Миссия дошкольного учреждения - развитие у детей беглой речи (диалогической речи) и монолога. Дошкольники развивают способность слушать и понимать речь, слушать друг друга, отвечать на вопросы и сами задавать вопросы, а также последовательно отвечать на тему разговора.

На основе диалога у дошкольников рождается и формируется новая форма речи - монолог. Это результат желания ребенка поделиться своими мыслями, чувствами и знаниями об окружающей среде. В этом случае речь принимает форму рассказа.

Одним из специальных упражнений на развитие диалогической связности является разговорный метод, который осуществляется следующими способами:

1) приемы подготовительного разговора.

Беседа имеет следующие функции: позволить детям разговаривать напрямую, то есть слушать без слов собеседника, вести себя в ожидании удобного времени, чтобы ответить, дать понять собеседнику.

2) театральные приемы (имитация, пересказ).

- спутник - потренировать произношение и грамматику, определить значение определенных слов;

- в процессе беседы педагог использует различные приемы, такие как вопросы, загадки, риторика.

Дидактические игры и грамматические упражнения - важный способ поощрения детей к языковым играм и их грамматической активности. Педагогу необходимо научить детей придумывать фразу, а затем правильно соединять слова в предложении.

Осознанный выбор языковых средств обеспечивается в определенных коммуникативных ситуациях и в процессе составления связных монологических идей.

Литература:

1. Мирзаева Д.Ш. Методы использования дидактико-игровых образовательных педагогических технологий в начальных классах. // Academy 3 (54), 2020.

2. Мирзаева Д.Ш., Рахматова Д.Х. Методы развития речи в процессе развития речи у детей // Academy, 2020. № 6 (57).

3. Nigmatova M.M. Improving the preschool education system from the perspective of the age values of children // Asian Journal of Multidimensional Research (A Double Blind Refereed & Peer Reviewed International Journal) 2278-4853. Vol. 10, Issue 1. January, 2021.

4. Бурунова Г.Ё., Атаева Г.И. Преимущества использования метода учебного проекта в процессе обучения // Проблемы науки. № 8 (56), 2020. С. 39-41.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА

Пайзиев Т. М.

*Студент 2 курса направления «Практическая психология»
Национального университета Узбекистана имени М. Улугбека*

Ранний возраст является важнейшим периодом жизни человека, когда закладываются наиболее важные способности, определяющие дальнейшее развитие человека. В этот период складываются такие ключевые качества как познавательная активность, речь, доверие к миру, уверенность в себе, доброжелательное отношение к людям, творческие возможности, общая жизненная активность и многое другое. Однако эти качества и способности не возникают автоматически, как результат физиологического созревания. Их становление требует правильных воздействий со стороны взрослых, определенных форм общения и совместной деятельности с ребенком.

Истоки многих проблем, с которыми сталкиваются родители и педагоги у детей дошкольного и школьного возраста (сниженная познавательная активность, неуверенность в себе, нарушения в общении, гиперактивность детей и т.д.), нужно искать именно в раннем детстве. Коррекция и компенсация этих трудностей в более позднем возрасте если и является возможной, то представляет существенные трудности и требует значительно больших затрат, чем их предотвращение.

Для правильной организации педагогической работы с малышами в ДОУ необходимо знать возрастные особенности детей раннего возраста, которые отличают их от детей более старшего возраста и от взрослых [1].

Общение и сотрудничество ребёнка со взрослым

В раннем возрасте содержанием совместной деятельности ребёнка и взрослого становится **усвоение культурных способов употребления предметов**. Взрослый становится для ребёнка не только источником внимания и доброжелательности, не только "поставщиком" самих предметов, но и образцом человеческих действий с предметами. Такое сотрудничество уже не сводится к прямой помощи или к демонстрации предметов.

Теперь необходимо соучастие взрослого, одновременная практическая деятельность вместе с ним, выполнение одного и того же дела.

В ходе такого сотрудничества ребенок одновременно получает и внимание взрослого и его участие в действиях ребенка, и, главное, новые адекватные способы действия с предметами. Взрослый теперь не только даёт ребёнку в руки предметы, но вместе с предметом передаёт **способ действия** с ним.

В совместной деятельности с ребёнком взрослый выполняет сразу несколько функций:

- во-первых, взрослый даёт ребёнку смысл действий с предметом, его общественную функцию;

- во-вторых, он организует действия и движения ребёнка, передаёт ему технические приёмы осуществления действия;

- в-третьих, он через поощрения и порицания контролирует ход выполнения действий ребёнка.

Ранний возраст является периодом наиболее интенсивного усвоения способов действий с предметами. К концу этого периода, благодаря сотрудничеству со взрослым, ребёнок в основном умеет пользоваться бытовыми предметами и играть с игрушками.

Предметная деятельность и её роль в развитии малыша

Новой социальной ситуации развития соответствует и новый тип ведущей деятельности ребёнка – **предметная деятельность**.

Предметная деятельность является ведущей потому, что именно в ней происходит развитие всех сторон психики и личности ребёнка. Прежде всего нужно подчеркнуть, что в предметной деятельности малыша происходит развитие **восприятия**, а поведение и сознание детей этого возраста целиком определяется восприятием. Так, память в раннем возрасте существует в форме узнавания, т.е. восприятия знакомых предметов. Мышление ребёнка до 3 лет носит преимущественно непосредственный характер – ребёнок устанавливает связи между воспринимаемыми предметами. Он может быть внимателен только к тому, что находится в поле его восприятия. Все переживания ребёнка также сосредоточены на воспринимаемых предметах и явлениях.

Поскольку действия с предметами направлены в основном на такие их свойства как **форма и величина**, именно эти признаки являются главными для ребёнка. Цвет в начале раннего детства не имеет особого значения для узнавания предметов. Малыш совершенно одинаково узнаёт окрашенные и неокрашенные изображения, а также изображения, окрашенные в самые необычные цвета (например, зелёная кошка остаётся кошкой). Он ориентируется прежде всего на форму, на общий контур изображений. Это вовсе не значит, что ребёнок не различает цвета. Однако, цвет ещё не стал признаком, характеризующим предмет и не определяет его узнавание [2].

Овладение речью

Одним из главных событий в развитии ребёнка раннего возраста является **овладение речью**.

Ситуация, в которой возникает речь, не сводится к прямому копированию речевых звуков, а должна представлять предметное сотрудничество ребёнка со взрослым. За каждым словом должно стоять то, что оно обозначает, т.е. его значение, какой-либо предмет. Если

такого предмета нет, первые слова могут не появиться, как бы много мать ни разговаривала с ребёнком, и как бы хорошо он ни воспроизводил её слова. Потребность и необходимость говорить предполагает два главных условия: **потребность в общении со взрослым и потребность в предмете, который нужно назвать**. Ни то ни другое в отдельности к слову ещё не ведёт. И только ситуация предметного сотрудничества ребёнка со взрослым создаёт необходимость назвать предмет и значит произнести своё слово.

В таком предметном сотрудничестве взрослый ставит перед ребёнком **речевую задачу**, которая требует перестройки всего его поведения: чтобы быть понятным, он должен произнести совершенно определённое слово. А это значит, что он должен отвернуться от желанного предмета, обратиться к взрослому, выделить произносимое им слово и употребить этот искусственный знак социально-исторической природы (каким всегда является слово) для воздействия на окружающих.

Рождение игры Действия маленького ребёнка с предметами - это ещё не игра. Разделение предметно-практической и игровой деятельности происходит только в конце раннего возраста. Сначала ребёнок играет исключительно с реалистическими игрушками и воспроизводит с ними знакомые ему действия (причёсывает куклу, укладывает её спать, кормит, катает в коляске и пр.) Около 3-х лет, благодаря развитию предметных действий и речи, в игре детей появляются **игровые замещения**, когда новое название знакомых предметов определяет способ их игрового использования (палочка становится ложкой или расчёской, или градусником и пр.). *Кризис 3-х лет*

Серьёзные успехи ребёнка в предметных действиях, в речевом развитии, в игре и в других сферах его жизнедеятельности, достигнутые в период раннего детства, качественно изменяют всё его поведение. К концу раннего детства стремительно нарастает тенденция к самостоятельности, стремление действовать независимо от взрослых и без них. К концу раннего возраста это находит своё выражение в словах "Я сам", которые являются свидетельством **кризиса 3-х лет** [2].

Литература:

1. Смирнова Е.О. Материалы курса «Дети раннего возраста в детском саду»: лекции 1–4. М.: Педагогический университет «Первое сентября» 2010 — 104 с.
2. <http://www.childpsy.ru/rubricator/index.php?rid=20307&detail=Y>
3. Гасанов, З. Т. Цель, задачи и принципы патриотического воспитания граждан / З. Т. Гасанов // Педагогика. — 2005. — № 6. — С. 59–63
4. Герасимова, О. Люби и знай родной свой край / О. Герасимова // Дошкольное воспитание. - 2014. - № 8. - С. 4-14. - (Социально- коммуникативное развитие)

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Primova Sh.

Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistri

Bugungi kunda olib borilayotgan ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati izlanishlarga aylanib bormoqda. Shuning uchun, hozirgi vaqtda o'quv jarayoniga tarbiyalanuvchilarning ilmiy (o'quv) tadqiqot va tajriba -konstruktiv faoliyatini joriy etish alohida ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilarning tadqiqot ko'nikmasi - bu ijodiy, tadqiqot muammosini hal qilish va ilmiy tadqiqotning asosiy bosqichlari mavjudligini taxmin qilish bilan bog'liq o'quv ishlarini tashkil etish shakli. Tadqiqot faoliyatining asosiy ajralib turadigan xususiyati - tanlangan hodisani o'rganishning amaliy metodologiyasi, o'z materiali, o'z ma'lumotlarini tahlil qilish kabi elementlarning mavjudligi, eksperimental ishlarning borishi va undan kelib chiqadigan xulosalar.[1]

A.G.Kovalev va V.N.Myasishchev har qanday faoliyat uchun tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy shartlarini aniqladi. Ularning fikricha, bu qiziqishning rivojlanishi, boyishi va chuqurlashuvi, uning markazida tadqiqot faoliyatiga moyillik va uni o'zlashtirish zarurati; ilmiy tadqiqot faoliyati malakasini oshirish bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarning o'sishi; xarakterni rivojlantirish, birinchi navbatda, barqaror irodani tarbiyalash; tadqiqot faoliyatini jamoatchilik ongining mazmuni va o'sishi bilan boyitish; o'ziga va o'z faoliyatining mahsulotiga tanqidiy munosabatni rivojlantirish.[3]

Tadqiqotchilik ko'nikmalarining rivojlanishi asosida talabalar bilimlarni o'zlashtirishning osonligi va tezligini tushuna oladilar.

Tadqiqot faoliyati keng ma'noda tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga va muayyan bosqichlardan iborat muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatiga yordam beradigan faol o'quv jarayoni sifatida tushuniladi.

Bolalarning tadqiqot faoliyati ko'p hollarda ta'limiydir, chunki uning asosiy maqsadi - obyektiv yangilikka ega bo'lgan yangi natijalarga erishish emas, eng oddiy tadqiqot ko'nikmalari va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish. Ya'ni, o'quv -tadqiqot va ilmiy -tadqiqot ishlarining asosiy maqsadi obyektiv yangilikka ega bo'lgan ilmiy natijalarni olish emas, balki eng oddiy tadqiqot ko'nikmalari va ko'nikmalarini rivojlantirish.[2]

Ilmiy -tadqiqot faoliyatining ma'nosi shundaki, uni amalga oshirish jarayonida tadqiqot qobiliyatlari va ko'nikmalarining ma'lum bir xususiyatlarini o'zlashtiriladi.

Tadqiqot faoliyatini tashkil etishning muhim sharti - bu maktabgacha katta yoshdagi bolalarning uni amalga oshirishga tayyorligining mavjudligi, bu zarur bilimlarni, tadqiqot ko'nikmalarini egallashni, motivatsiyani, mustaqillikni va individual tadqiqot qobiliyatini


rivojlantirishni nazarda tutadi. Shunga asoslanib, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tadqiqot faoliyatiga tayyorligi tadqiqotlarni o'tkazish tajribasini, yangi bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni egallash, motivatsiyani rivojlantirish natijasida shakllangan individual tadqiqot imkoniyatlarining mavjudligini anglatadi.

Tadqiqot davomida muvaffaqiyatli tadqiqot faoliyati uchun zarur bo'lgan bir qator umumiy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi:

birinchidan, ijobiy munosabat, yuqori darajadagi rivojlanish ishtiyoqqa aylanib ketadigan moyillik;

ikkinchidan, mehnatsevarlik, tashkilotchilik, mustaqillik, fidoyilik, qat'iyatlilik, barqaror intellektuallik sezgilar;

uchinchidan, tadqiqot faoliyatini amalga oshirish jarayonida qulay ruhiy holatlarning mavjudligi. to'rtinchidan, tegishli fan sohasidagi ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar jamg'armasi.[3]



Tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin: Doimiy eksperimentlar - bolalar sababiy aloqalarni va munosabatlarni topadilar; buyumlarni tasnifi, masalan, kollegial izatsiya bilan bog'liq bo'lgan kolleksiyalari takomillashtirilgan faoliyat turi - bolalarning turlar munosabati mavjud; xarita yordamida dunyo bo'ylab sayohat qilish - bolalar tekislikda fazoviy joylashuv tushunchani va turli olamlarning, mamlakatlarning munosabatlarini o'rganadilar; vaqt oralig'ida sayohat qilish - bolalar ziyoratgohlar bilan tanishishadi, turli xil tarixiy voqealarni tahlil qilishadi.[2]

Bunday tadbirlarni tashkil qilish qanchalik ko'p bo'lsa, har bir bolada tadqiqotchilik malakalari tezroq shakllanib boradi.

Tajriba davomida, o'z bilimlarini chuqurlashtirish istagida, mustaqil ravishda o'z bilimlarini chuqurlashtirishda, qiziqish uyg'otadigan savollarga javoblarni o'rganishda, qarama-qarshi tomondan taqqoslashni talab qiladi Va tadqiqotchilikning elementlari namoyon bo'lganida, ko'rinadi.

Tadqiqotchilik malakalarini rivojlanishi faoliyati natijasi bu bilimdir. Bu yoshdagi bolalar allaqachon tashqi belgilar va yashash joylarida ham jonli va in tanli xususiyatlari obyektlarini tizimlashtirishga qodir. Obyektlardagi o'zgarishlar, moddaning bir davlatdan boshqasiga o'tishi ushbu yoshdagi bolalarga katta qiziqish uyg'otadi. Bola haqidagi savollar qiziquvchan ong, kuzatuv,

kattalarga bo'lgan ishonchni qiziqarli yangi ma'lumotlar (bilimlar) manbai, tushuntirishlar sifatida kashf eting.

Adabiyotlar:

1. Rajabova N.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tatqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli. Maxsus son Pedagogik mahorat 2021-yil.

2. Рассказова Ж. В. Исследовательская деятельность младших школьников как компонент процесса обучения в условиях общеобразовательной организatsii // Молодой ученый. — 2014. — №4. — С. 1080-1082.

3. Леонтович А. В. Исследовательская деятельность учащихся. Сборник статей. – М.: Издание МГДД(Ю)Т, 2003



AQLI ZAIF BOLALAR OILASIDAGI MUAMMOLARINI BARTARF ETISH

Po'latxodjaeva M.R.

Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchi

Yurtimizda oilani mustahkamlash borasidagi davlat siyosatining afzalligi shundaki, davlat oilaning o'ziga xos suveren tuzilma sifatida qadrlaydi, uning ichki ishlariga aralashmaydi, lekin u yoki bu sabablarga ko'ra, oilada ba'zi qiyinchiliklar paydo bo'lgan bo'lsa, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahalla qo'mitalari, unda faoliyat yuritayotgan jamoatchilik komissiyalariga murojaat qilib orqali fuqarolar o'z manfaatlarini himoya qilishlari va davlatning madadiga erishishlari mumkin. Bularning barchasi aqli zaif bolalarni korreksion tarbiyalashda oilaning hamkorligi yo'llarini tadqiq etish, ta'lim dasturini qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishlariga zamin yaratish, ularning integratsiyasini muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Aqliy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolaning oilasidan olayotgan yordam darajasi, ichki oilaviy munosabatlar xususiyati uni adaptatsiya va reabilitatsiya darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Aqli zaif farzandli oilalardagi qo'llab-quvvatlash muammolarini hal etish aqliy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolani to'liq reabilitatsiya va integratsiyasini ta'minlashi mumkin. Darhaqiqat, agar oila inqirozni, og'ir iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan bo'lsa, u aqliy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolaga samarali yordam bera olmaydi.

Aqliy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bola ona va otasining individual muammolarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Aqliy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolani tarbiyalovchi onani roli juda muhimdir. An'analarimizga ko'ra aynan ayol bolaning ta'lim-tarbiya va davolanishi bilan shug'ullanadi. Ota masalasini ko'rib chiqar ekanmiz, gender roliga muvofiq undan moddiy ta'minot kutiladi, aqliy

rivojlanishda kamchiligi bo‘lgan bolali oilalarda esa ona ishlaymay farzandini parvarish qilishi, kasal bola uchun esa katta mablag‘ talab etilishi sharoitida bu masala ikki baravar og‘irlashadi. Boshqa tomondan onaning emotsional stressi avvalambor, turmush o‘rtog‘i bilan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Doimiy bezovtalik, onaning kasal farzandini g‘amxo‘rlik qilishga kirishib ketishi otada oiladagi “ortiqchalik” hissini paydo bo‘lishiga olib keladi. Onalardan farqli ravishda otalarda bolasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z muhabbati, g‘amxo‘rligi, mehrini ifoda etish (kiyimini almashtirish, ovqatlantirish) imkoniyati kamdir. Munosabatlardagi ziddiyat oshadi, 50% oilalar buzilib ketadi.

Aqliy rivojlanishda kamchiligi bo‘lgan bola oilasiga xos quyidagi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Hayot siklini o‘zgarishi;
- 9 oy mobaynida kutilgan go‘dakni simbolik o‘limi bilan barobar keluvchi kasal bola tug‘ilishida boshdan kechiriluvchi o‘tkir stress;
- Hayot siklining ma’lum davrlarida o‘tkir namoyon bo‘luvchi va oilani dezadaptatsiyalovchi surunkali “uyqudagi” stress;
- Birlamchi nazorat funksiyalarini vaqtinchalik buzilishi;
- Qo‘shimcha moliyaviy yuklama;
- Vaqtinchalik istiqbolni yo‘qotish(kelajakka nisbatan ishonchsizlik);
- Ijtimoiy statusni pasayishi va oila funkcionalligi doirasini qisqarishi;
- Oilaviy munosabatlarni buzilishi;
- Ona va bolani sim biotik qaramliligi vaqtini uzayishi.

Mazkur vaziyatni hal etish uchun oilaning barcha ichki resurslarini mobilizatsiyalash va tashqaridan qo‘llab-quvvatlash zarur.

Aqliy rivojlanishda kamchiligi bo‘lgan bola oilasining quyidagi resurslari qiyinchiliklarni hal etish uchun yordam beradi:

- O‘ziga ishonuvchi, kuchli, turmushdan qoniqqan ona;
- Qo‘llab-quvvatlovchi ota;
- Moliyaviy himoya;
- Ma’lum tizimli qadriyat himoyasi(masalan, kuchli diniy e’tiqod);
- Qarindoshlar, do‘stlar va boshqa aqliy rivojlanishda kamchiligi bo‘lgan bolali ota-onalarni qo‘llab-quvvatlashi.

Aqliy rivojlanishda kamchiligi bo‘lgan bola oilasida giperg‘amxo‘rlik tarbiya turi ko‘p kuzatilib, u ota-onaning haddan ortiq e’tiborida, bemorning xohish-istaklarini oldindan bilishga intilishda(“oila shaxan-shohi”) namoyon bo‘ladi.^[1] Ko‘pincha onaning bolala bilan aloqasi sim biotik xarakterga ega bo‘ladi. Bunday oilalarda ota-ona bola bilan ko‘proq vaqt birga bo‘lish, “maksimal darajada” davolash uchun o‘z mehnat va ijtimoiy faolligini pasaytirishga majbur bo‘ladilar. Bunday

tarbiya usuli oqibatida bola butun e'tiborini faqat o'z nuqsoniga va kasallik belgilariga qaratadi. Kasallikni namoyon bo'lishi ota-ona, ayniqsa onani bolaga g'amxo'rlik qilishni kuchaytirishiga sabab bo'ladi. Oilaning "nevrotik" tuzilishi tashkil topib, uning butun hayoti bola atrofida aylanadi. Mazkur oilaviy vaziyat faqat tashqi tomondan ko'rsatilgan yordam asosida hal etilishi mumkin. Bir qator holatlarda ota-ona farzandini yoqimsiz kechinmalardan xalos etish maqsadida bolaning nutqiy va harakatdagi kamchiliklariga e'tibor berishmaydi va natijada bolada mazkur buzilishlar mustahkamlanib qoladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolalar kasallik bilan bog'liq qiyinchiliklarni sezmasalar-da, kichik maktab yoshidayoq u bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi. Bunday bolalar maktabda turli sohadagi ishlarni bajara olmasliklari aniqlanadi, o'z kamchiliklari sababli ko'pincha behalovatlik, xafagarchilik kabilarni his etishadi. Katta maktab yoshidagi bolalarda ko'pincha derivatsiya yuzaga keladi, qo'rquv, depressiya, disforiya rivojlanadi. Shunday qilib, aqliy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolani ota-ona va farzand munosabatlarini tahlil etish asosida "simbiotik birlik"dan tashqari oilada bolani yaqqol yoki yashirin rad etishda ifodalanuvchi "hissiy izolyatsiya" kabi shaklini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda bola doimo o'zini ota-ona uchun yuk, to'siqdek his etadi. Yashirin hissiy rad etishda ota-ona farzandiga nisbatan negativ munosabatini anglay oladilar va uni haddan ortiq g'amxo'rlik bilan kompensatsiyalarga urinadilar. Ota-onaning farzandi bilan yaqin hissiy aloqasini mavjud emasligi, ba'zida pedagogik va tibbiy personalga yuqori talablar qo'yish bilan birga kuzatiladi. Ko'pincha hissiy rad etish ota-ona farzandini boshqalarga ko'rsatishdan uyalishida namoyon bo'ladi. Ba'zilar uning nuqsonini o'z no barkamolligi belgisi sifatida qabul qilishadi. O'ziga, o'z ota-onalik imkoniyatlariga ishonchsizlik bola bilan muloqot jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha ota-onalar aqli zaif farzandini atrofdagilardan yashirishadi, jismoniy kamchiliklari atrofdagilarda achinish hissini keltirmasligi uchun bola bilan kech payt sayr qilishadi. Bola psixologik derivatsiya bilan og'irlashgan vaziyatga tushib qolishi uning rivojlanishini sekinlashtiradi, hissiy-irodaviy soha va shaxs rivojlanishi orqada qolishi, passiv hayotiy pozitsiyani rivojlanishiga olib keladi. Bolalik davriga xos ochiq ko'ngillik, hissiy jo'shqinlik, faollik yo'qoladi. Buning o'rniga boshqalar nuqtai nazariga asoslangan kattalarga xos fikrlash, uyatchanlik, odamlar bilan muloqot qilish, do'stlik aloqalarini o'rnatish qo'rqish, ishonchsizlik, passivlik namoyon bo'ladi.

Oilaga ijtimoiy- psixologik yordam bir necha yo'nalishlarda ko'rsatilishi lozim. Bularning asosiy lari

1. Aqli zaif farzandlari bo'lgan ota- onalar klublarini tashkil etish. Bu yerda ota- onalar muloqot qilish doirasini kengaytirishlari, o'zlariga o'xshash oilalarning muammolari bilan tanishishlari, achinish emas, balki tushunish, qo'llab quvvatlashni sezishlari mumkin.

2. Aqli zaif farzandi bo'lgan oilalarni ma'lumotlar bilan ta'minlash, ya'ni maxsus jurnallar nashr etish, mavjud tibbiyot yoki ta'limiy jurnallarda maqolalar chop etish, ota- onalarga bolalarni

parvarishlash bo'yicha amaliy ko'rsatmalar, kundalik muammolarni hal etish yuzasidan mutaxassislarni tavsiyalari berib borish.

3. Aqli zaif farzandi bo'lgan oilalarni qo'llab- quvvatlash (moddiy, ijtimoiy, tibbiy, ta'limiy, ma'naviy) yordam berish manbalarini izlash.

4. Oilaning o'zini "kurash" yo'lini topishga, ya'ni ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda yordam berish. Bunda ko'pincha mutaxassislarning yordami kerak bo'ladi (vrachlarning, ijtimoiy ishchilarning, defektologlarning, yuristlarning, psixologlarning).

5. Aqli zaif farzandi bo'lgan oilalar bila nish olib boradigan ijtimoiy ishchi, xodimlarning faoliyatini faollashtirish.

Ota – onalar bilan ishlashda o'ziga xos tamoyillar nazarda tutilishi shart:

- Hamkorlik uchun tayyorgarligi hisobga olgan holda ishlar shaklini tanlashda ota – onalarining qiziqishini inobatga olgan holda yondashish;

- O'z bolalarining psixologik rivojlanishini aks ettirilib, ularni korreksiya (tuzatish) ishlariga faol qatnashtirish;

- Ota – onalarning o'z bolalariga bo'lgan munosabatini, nuqta iy nazardan o'zgartirib, ularni tarbiyaviy usullar bilan qurollantirish;

- Ota – onalar qobiliyatini bolalari tarbiyasiga qaratishga undash maqsadida ularga defektologik amaliyotining oddiy ko'rinishlarini o'rgatish.

Oila va oilada bola tarbiyasi masallari pedagoglar, sotsiologlar, psixologlar, tibbiyotilar, faylasuflar uchun dolzarb muammolardan biridir.

Maxsus pedagogikaning muhim masallaridan biri sifatida aqli zaif bolalarning tarbiyaviy vazifalarini aniqlamoqda. Aqli zaif bolalarni tarbiyalashda oila uchun xos bo'lgan asosiy vazifalar – bolalarning shaxsiy xislatlarini shakllantirish, tarbiya maqsadi, vazifasi va tamoyillari mushtarakligiga amal qilish. Shuningdek, aqli zaif bolalar rivojlanishidagi ruhiy – jismoniy nuqsonlar ular bilan ishlashdagi murakkabliklar hisobga olinishi zarur.

Maxsus pedagogikaning murakkab muammolaridan biri bo'lgan aqli zaif bolani tarbiyalash va uni oiladagi tarbiyaviy vazifalarini aniqlash, aqli zaif bolalarning shaxsiy xislatlarini shakllantirish, ruhiy – jismoniy nuqsonlar, ular bilan ishlashdagi murakkabliklar hisobga olinmog'i zarur.

Aqliy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bor oilalar ota – onalari tibbiy xodimlar bilan bir qatorda defektolog o'qituvchilar bilan uzviy hamkorlik qilishi bolani tarbiyalash va hayotga moslashtirish yo'llarini izlashlari lozim.

Adabiyotlar:

1. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika .- T.,2014
2. Шоумаров Ф.Б., Мамедов К. Ақли заиф болалар психологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1998.
3. Силяева Е. Семья как развивающая среда для ребенка с ограниченными возможностями. – М.:



MAKTABGACHA YOSHDAGI VA BOSHLANG‘ICH SINIF BOLALARDA EKOLOGIK TA‘LIM UZVIYLIGI

Ravshanova N.N.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta‘lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi*

2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, respublika hududlaridagi ekologik muammolar echimiga ta‘lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta‘lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi bir nechta qaror qabul qildi shulardan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi va “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta‘lim tizimida ekologik ta‘limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta‘lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta‘limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish. [1]

Dunyodagi ekologik muammolarning dolzarbligini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashda uzviylikni ta‘minlash tizimini takomillashtirish munosabatlari markazi sifatida shaxsiy madaniyatining asosini anglab etishi sharoit yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha va maktabning boshlang‘ich sinf yosh davri, jamiyatning jismoniy, hissiy, axloqiy, estetik, ma‘naviy shakllanishi bosqichida bo‘lganligi uchun ijtimoiy hayotga moslashmagan bolalik deb nomlangan inson rivojlanishining bir davridir. Ushbu xususiyatlar tufayli jamiyatning bu qatlami tabiatga, jamiyatga va o‘z ichki dunyosiga shaxsni shakllantirishga hissa qo‘shadigan barcha ijtimoiy institutlaridan alohida e‘tibor va munosabatni talab qiladi. Ta‘lim-tarbiya nuqtai nazaridan faqat maktabgacha ta‘lim tashkiloti va maktabning boshlang‘ich sinfi o‘rtasidagi uzviylik asosida bo‘ladigan yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etishni taqozo etadi.

MTT tarbiyalanuvchilari bog‘chada olgan bilimlarini boshlang‘ich sinfga chiqqanlarida uzviylik asosida ekologik bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Bu esa o‘z o‘rnida bolalarni atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo‘yicha optimal echimlar topish to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to‘g‘ri keladi.

- MTT tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilarga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan muhiti va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

- Ekologik madaniyatni shakllantirish.

- MTT, maktab, mahalla, oila hamkorligini yo'lga qo'yish.

MTT tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'lim – tarbiyani shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berishimiz lozim:

- atrofni ifloslantirish inson sog'lig'iga zararliligini;

- yong'in oqibatlarining tabiatga zarari va yong'in chiqmaslik chora-tadbirlarini ko'ra bilishlikka o'rgatish;

- tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, daraxtning shoxini sindirmaslik, uning mevasidan insoniyat foydalanishligi, haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Ekologik savodxonlikni shakllantirish. Bunda MTT tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda hayotiy misollardan foydalangan holda olib borish samarali hisoblanadi.

- dam olishga chiqilganda o't-o'lanlarning payxon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlarining qolishi jamiyat, tabiat va kishilar salomatligiga ta'siri oqibatlari haqida bolalar va o'quvchi ongida tasavvurlarni shakllantirish;

- daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan murosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarining tabiat va jamiyatga zararli ta'sirini bolalar va o'quvchi ongiga singdirish;

- barcha ta'lim faoliyatlarida, tabiatshunoslik fanlarni o'qitishda ekologik ta'lim — tarbiyani olib borish;

- sinfdan tashqari mashg'ulotlarda va ekskursiya hamda sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish;

Uzluksizlik, bolalar ularning rivojlanishi, tarbiyasi va turli ta'lim tashkilotlari bilan turli bosqichlarda ta'lim olish o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish imkonini beradi; bu yillar davomida to'plangan barcha ijobiy holatlarni saqlab qolish asosida bolaning muhim vakolatlarini yaxshilashga yordam beradi; bu butun dunyo bilan birligini his qiladigan to'liq, to'laqonli shaxsning shakllanishini ta'minlaydi. Maktabgacha yoshdagi va boshlang'ich sinf bolalarda ekologik ta'lim uzviyligini jadvalda ko'rib turganimizdek barcha, ta'lim turlarini (masalan, tabiiy geografiya, botanika, zoologiya, fizika va boshqa tabiiy fanlar) orasidagi uzviylik, ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog'langan holda uning keyingi ta'lim turlarida takomillashgan holda davom ettirishimiz lozim. Shuningdek bog'chada tabiatshunoslik fanini ta'lim faoliyatida mavzular aro, fanlararo yoki predmetlar aro uzviy bog'lab o'rgatish bolalarni kelajakda maktabda oladigan bilimlariga zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qarori 3 bob
2. «Ilk qadam» tayanch dasturi. – T., 2018
4. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: www.ziynet.uz.
6. Respublika bolalarkutubxonasi: www.kitob.uz.
8. <https://ru.wikipedia.org>

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI DIZAYN TO'GARAKLARIDA IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Rajapova Z.T.

Nizomiy nomidagi TDPU

“Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrasida dotsent v.b, PhD

Global axborotlashuv va innovatsion ta'lim muhitida o'qitish va tarbiya jarayonini sifatli, samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri pedagogik ta'lim texnologiyalarini kasbiy faoliyatga tatbiq etish ekanligi bugun barchaga ayon. Pedagogik texnologiyalar talabani keng ko'lam va katta hajmga ega axborotlar orasidan o'zi uchun muhim, zarur, foydali ma'lumotlarni ajratib olishga, ularni tizimli tarzda o'zlashtirish orqali bilimga aylanishiga erishishga, ijtimoiy hamda kelgusida kasbiy faoliyatda ulardan maqsadli foydalanishga o'rgatadi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiyalar o'qitish va tarbiyalash maqsadlarida qo'llaniladi. Shu sababli ular ta'lim hamda tarbiya texnologiyalari sifatida shartli guruhlanadi. Bunday deyishimizga sabab har qanday ta'lim texnologiyalari talabani nafaqat nazariy bilimlardan xabardor qiladi, shu bilan birga ularda u yoki bu sifatlar, shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantiradi. Bugungi kunda respublika uzluksiz ta'lim tizimida o'ndan ortiq ta'lim texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Ular:

Modul ta'limi texnologiyalari (ilmiy bilimlarni mantiqiy tugallangan modul birliklari asosida o'zlashtirishga xizmat qiladi).

Muammoli ta'lim texnologiyalari (o'quvchining muammoli vaziyatlar bilan ro'para kelishi uchun sharoit yaratish, echimni topish yo'lida izlanish olib borish, echim variantlarining to'g'ri, oqilona ekanligini tekshirish yo'lida kichik tadqiqotlarni amalga oshirish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishga jalb qiladi).

Dasturiy ta'lim texnologiyalari (maxsus dasturlashtirilgan, xususan, turli model, texnologik sxemalar bo'yicha dasturlashtirilgan vositalar asosida ta'lim jarayonining tashkil etilishini ta'minlaydi; zamonaviy kompyuter dasturlari ham dasturiy ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi; o'z mohiyatiga ko'ra dasturiy ta'lim texnologiyalari o'qitishga yo'naltirilgan (ta'lim beruvchi), amaliy

ko'nikma, malakalar hosil qiluvchi, nazorat, tahlil va baholovchi dasturlar kabi guruhlanadi; misol uchun ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan elektron monitoring talabalar faoliyatini nazorat qiluvchi dastur sanaladi).

Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalari (talabalarning yosh, psixologik xususiyatlari, fiziologik imkoniyatlari, shuningdek, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalashtirilgan – murakkablik darajasi turlicha bo'lgan, bilimlar, o'quv topshiriqlarining oddiydan murakkabga o'sib borishini ta'minlovchi dasturlar bo'yicha turli guruhlarga jalb qilinishini anglatadi).

Individual ta'lim texnologiyalari (talabaning individual xususiyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlashga xizmat qiladi; mazkur ta'lim texnologiyalari o'quvchiga individual yondashishni taqozo qiladi; unga ko'ra o'qituvchi kasbiy faoliyatini talabaning individual xususiyatlari, ichki imkoniyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan dastur bo'yicha tashkil etadi).

Masofaviy ta'lim texnologiyalari (bir nuqtadan turib, tizim, tarmoq yoki lokal axborot tarmoqlari orqali o'quv mashg'ulotini ko'plab nuqталarga uzatilishini ifodalaydi; mazkur ta'lim texnologiyalari yordamida videomuloqot, videokonferensiya, on-layn ta'lim, "Mahorat darsi" tashkil etiladi).

Kompyuter ta'limi texnologiyalari (ta'lim jarayonining

kompyuter texnologiyasining funksional imkoniyatlariga tayangan holda tashkil etilishini anglatadi; unga ko'ra o'quv materialini bo'yicha talabalarga beriladigan topshiriqlarning aksariyati kompyuterda bajariladi; misol uchun taqdimot tayyorlash, eskiz yaratish kabilar).

Interfaol ta'lim texnologiyalari (o'quv materiallarining talabalar tomonidan o'zaro birgalikda o'zlashtirilishini ta'minlaydi; ushbu texnologiyalar o'quv topshirig'i bo'yicha talabalarda bir-birini tinglash, bir-birini tushunish, bildirilgan fikrni to'ldirish yoki inkor etish orqali eng maqbul echimni topish malakalarini shakllantiradi).

Innovatsion ta'lim texnologiyalari (ta'lim jarayoniga yangiliklarni kiritish, o'qitishning tashkiliy shakli, metodi yoki vositalarini takomillashtirishga qaratiladi; o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini mazmunan o'zgartiradi; talabalarning o'quv-bilish faolligini oshiradi, ijodiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi).

Hamkorlik ta'limi texnologiyalari (o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yuzaga keltiradi; misol uchun o'qituvchi va talabaning g'oyalari asosida ijodiy mahsulotlarni yaratish).

Loyiha ta'limi texnologiyalari (loyiha asosida o'quv va ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur sharoitni yaratadi; talabalarda eskizlar tayyorlash, ijodiy ishlardan namunalar olish, bir o'quv

topshirig'i yuzasidan bir necha variantdagi g'oyalarni ilgari surish malakalarining rivojlanishini ta'minlaydi).

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari (talabalarda dizaynerlik faoliyatini olib borish uchun zarur bo'lgan sifatlarni hosil qiladi; shaxsiy sifatlarni rivojlantiradi; ijodiy qobiliyatni yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi).

O'yin texnologiyalari (o'yin vositasida dizaynerlik faoliyatida qo'llaniladigan texnologiya (masalan, turli xil xom ashyolarni tanlash, turlarini ajratish, asboblarni ishlatish, o'lchash, rejalash, asboblarni tuzatish, turli elimlarni tayyorlash, ularni qo'llash, detalarni biriktirish, randalash, o'yish, teshish, arralash ishlarini bajarish, miniatyura, planshet, origami, kompozitsiyalarni yaratish, ranglash va loklashga oid harakatlarni imitatsiyalashga imkon beradi).

Mustaqil ta'lim texnologiyalari (talaba larda mustaqil ishlash, O'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ravishda shaxsiy ijodiy ish (mahsulot)larning sifati, estetik-hissiy ta'siri, amaliy qiymatini baholash ko'nikma, malakalarini hosil qiladi).

Yuqorida qayd etilgan ta'lim texnologiyalarining mohiyati, didaktik imkoniyatlarini o'rganish asosida ular orasidan dizayn to'garagida talabalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadiga erishishda samaradorligi yuqori bo'lgan ta'lim texnologiyalarini tanlashga e'tibor qaratildi.

Adabiyotlar:

1. Sotiboldiyev Z.Sh.. «Dizayn asoslari» T: Iktisod-moliya 2018
2. Tolipov O'.Q., Sh.S.Sharipov, I.N.Islomov. O'quvchilar dizaynerlik ijodkorligi. Toshkent: "Fan" 2006 -96.
3. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M.H. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari / O'quv qo'll. – T.: Fan, 2006. – 264 b.
4. Yaminova.S. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ssenariyli o'qitish usulidan foydalanish. Ped. fan. nomzodi ...diss. –T., 1997.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH

Rashidova M.

*Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta'lim fakulteti
1-kurs talabasi*

Prezidentimizning 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida 2022 yil 1 yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, jumladan, bolalarning o'sishi hamda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi jarayonlarini

monitoring qilish bo'yicha "Bolalar bog'chasi" axborot tizimini ishga tushirish va unga kiritiladigan ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash belgilangan edi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim xizmatlari uchun elektron to'lov tizimlarini joriy etish, sohada axborot tizimini boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish kabi vazifalar ham yuklatilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish yuzasidan samarali islohotlar olib borilmoqda. Bunda bo'lajak maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning ham media savodxonligini muntazam oshirib borish maqsadga muvofiq amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan "Bolalar bog'chasi" axborot tizimi yordamida bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olishni monitoring qilish, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda Davlat xizmatlari agentligi bilan axborot tizimi integratsiyasi orqali bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga navbatga qo'yish va qabul qilish uchun yo'llanma olish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatiladi.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, Maktabgacha ta'lim vazirligi MTT xodimlari va tarbiyalanuvchilarini zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda avtomatik hisobga oladigan "Bolalar bog'chasi" axborot tizimini takomillashtirish loyihasini ishlab chiqib, tajriba-sinov tariqasida poytaxtimizning Bektemir tumanidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy qildi.

Ushbu tashkilotlarda biometrik identifikatsiya qilish, ya'ni Face ID qurilmalari o'rnatildi. Shuningdek, "Bolalar bog'chasi" axborot tizimi yurtimizda mavjud elektron to'lov tizimlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali bilan integratsiya qilinishi natijasida onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan.

"Bolalar bog'chasi" axborot tizimining yana bir afzalligi shundaki, u tashkilotga qamrab olingan tarbiyalanuvchilar hamda xodimlarni yuz qiyofasi orqali avtomatik ravishda ro'yxatga oladi. Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi har bir daqiqasi nazoratda bo'ladi. Xodimlarning ham har bir kuni, soatigacha ko'rsatib boriladi. Agar MTTning biror xodimi ishdan vaqtli ketsa yoki sababsiz ishga kelmasa, ularning ish soati to'laqonli yozilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, davomat masalasida kuzatilishi mumkin bo'lgan ba'zi ko'rinishdagi korrupsion holatlarga ijobiy echim bo'lmoqda.

Shuningdek, tizimda oziq-ovqat xarajatlarini avtomatik hisobga olish, tahlil o'tkazish va lavozimlar bo'yicha kadrlar etishmovchiligini aniqlash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kadrlar salohiyati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish mumkin. Mas'ullarning ta'kidlashicha, ushbu tizimga o'tilganidan so'ng tashkilotdagi anchayin noqulayliklar bartaraf qilingan. Dastlab bu tizimni tushunib olish qiyinchilik tug'dirgan bo'lsa-da, hozir bundan barcha mamnunligi aytilmoqda.

Demak, Face ID tizimi qisqa fursatda samarasini ko'rsatyapti. Bu tizim nafaqat tarbiyalanuvchilar, balki xodimlarni ham tartib-intizomga o'rgatmoqda. Qolaversa, bolalarning

salomatligini asrash, sog'lom ovqatlanishini ta'minlashda ham ahamiyati katta bo'lyapti. Ilgari bolalarning tana haroratini tanometrda o'lchanar edi. Hozirgi qurilma avtomatik ravishda bolaning tana haroratini ko'rsatadi va ota-ona bolasining sog'lomligiga ishonch hosil qilib, ko'ngli xotirjam holda keta oladi. Tana harorati 37 darajadan yuqori bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilinmaydi va ota-onalarga davolanish bo'yicha ko'rsatma beriladi.

Mazkur tizim MTTda oziq-ovqat xarajatlarini nazorat qilishda ham afzalliklarga ega. Oshxonada ovqat tayyorlash plitalari oldida elektron tarozi qo'yilgan. Tarozi ko'rsatkichlarini ko'rish uchun qulay bo'lgan joyda internet tarmog'iga ulangan 3 ta kamera o'rnatilgan. Taomnoma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari bevosita qozonga solishdan avval majburiy tartibda elektron tarozida tortiladi.

Biometrik identifikatsiya qilish, ya'ni Face ID tizimi joriy etilgani MTT xodimlari va tarbiyalanuvchilarining yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, xodimlarning ish vaqti va tarbiyalanuvchilarning davomatini real vaqt rejimida monitoring qilish, MTT larda oziq-ovqat xarajatlarini avtomatik hisobga olishni zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali yuritish imkonini bermoqda.

Maqsad bitta — maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish hisobiga mehnat resurslarini tejash, ish unumini oshirish hamda tizimning ochiq va shaffofligini ta'minlashdir.

Adabiyotlar:

1. K.Hoshimov va boshqalar. "Pedagogika tarixi". Qo'llanma. T., "O'qituvchi" 1996 yil.
2. J.Tulenov. E.Gofurov. Falsafa - T.; "O'qituvchi". 1997 yil.
3. J.Tulenov. Qodriyatlar falsafasi. T., "O'qituvchi". 1996 yil.
4. E.Y.Yusupov. Falsafa. T., "Sharq". 1999 yil.
5. A.K.Munavvarov. "Pedagogika". T., "O'qituvchi". 1996 yil.

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA MALAKAVIY O'QUV AMALIYOTINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Ramozonova B.S.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi*

Bugungi kunda har bir davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rni uning intellektual salohiyati hamda kadrlarni tayyorlash sifati bilan o'lchanadi. Zamonaviy mamlakatlarda ta'lim masalasi muhim vazifalardan biriga aylanib bo'lgan hozirgi davrda ta'lim jarayonida kredit-modul tizimini joriy etish va takomillashtirish dolzarb bo'lib kelmoqda. Bu tizimda ko'pchilik davlatlarda ta'lim tizimida turli yangiliklar joriy etilib, global talablarga javob beruvchi, moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishga

asoslangan kredit-modul tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda mamlakatimiz Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8- oktyabrdagi PF-5847-son farmonida ham 2020-2021-o‘quv yillaridan boshlab barcha oliy ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi ishlab chiqilgan. Shunga asosan barcha oliy ta’lim tashkilotlarining kredit-modul tizimi joriy etilgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejasi va fan dasturlarini takomillashtirish ta’kidlangan.

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida kredit-modul tizimini xorijiy davlatlar tajribalarini hisobga olib, kredit-modul tizimlarini tahlil qilib, zamonaviy yo‘nalishlarini hisobga olgan holda barcha tajribalarni umumlashtirgan holda joriy qilishga e’tibor berilgan. ECTS Kredit-modul tizimi dastlab AQShda paydo bo‘lgan va takomillashtirilgan. So‘ngra, Angliya, Kanada kabi ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda joriy qilingan bo‘lib, bu davrda moduli tizimning konseptual bazasini shakllantirish, modulni taqsimlashda turli yondashuvlar, modul dasturlarini qurish va samaradorligini izlash amalga oshirilgan. ECTS Kredit-modul tizimi Rossiya ta’lim tizimi ham qiziqish bildira boshlagan va taxminan 80-yillarda amaliyotga joriy qilindi. Rossiyada birinchilardan bo‘lib Moskva aviatsiya texnologiyasi, Ivanova energetika instituti, Oltoy davlat universiteti, Kaunas politexnika instituti, Vilnyus universiteti, Moskva tibbiyot instituti va boshqalar.

Kredit-modul tizimiga o‘tish ta’lim sohasining darajalari, bosqichlari, akademik darajalarini aniq baholashga imkon beradi va ularning shaffof tashxislanadigan va tan olinadigan holatga keltiradi. Bu jarayonlarning amalga oshirilishi esa ta’lim tizimini jahon ta’lim tizimiga qo‘shilishiga asos bo‘ladi.

ECTS Kredit-modul tizimini amaliyotga joriy etishning dastlabki davrida modul tushunchasi ma’lum bir o‘quv materiallarini tushunchasini o‘z ichiga olgan. Shunday qilib, moduli o‘qitish tizimi rivojlangan mamlakatlar oliy o‘quv yurtlarida kreditlarni tashkil etish davriligi, ta’limni individuallashtirish va kredit birliklaridan foydalanish tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 03-fevraldagi F-22 son farmoyishi bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi bo‘yicha takliflarida pedagogik ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv reja va amaliyot jadvalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ham pedagogik ta’lim sohasida ta’lim yo‘nalishlari o‘quv reja va amaliyot jadvalariga kredit-modul tizimi talablarini inobatga olgan holda hamda universitet va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 4+2 sxemasi asosida tashkil etilishini inobatga olgan holda qayta ishlab chiqish, takomillashtirish va tasdiqlash jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Bunda asos sifatida ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasiga o‘quv, malakaviy pedagogik amaliyotni kurslar kesimida o‘quv yili davomida dual ta’lim asosida amalga oshirish. Aynan 1-2-3- kurslarda o‘quv amaliyoti, 4- kurslarda malakaviy pedagogik amaliyot soatlari hisobidan 4 kun oliy ta’lim

muassasasining o'zida 2 kun umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliyot o'tishni rejalashtirish[1] ishlari olib borilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, OTMlarda kredit-modul talablaridan kelib chiqib pedgogik yo'nalishlar uchun o'quv reja va amaliyot jadvallariga universitet va umumiy o'rta ta'lim maktablarida 4+2 tartibida tashkil etilmoqda.

Kredit modul tizimida OTMning har bir talabalari yangi o'quv yilini boshlar ekan aynan qaysi fanlarni o'zlashtirishini tanlab olishi va o'qituvchi tomonidan talabalarni o'zlashtirishlari uchun "syllabus" ishchi o'quv dasturlarini taqdim etib borishi ta'lim tizimida yengillik hisoblanadi. Har bir fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan "syllabus" ishchi fan dasturi talabalarga taqdim etiladi.

Talaba uchun bunday ma'lumotlarning tanlov fanlarda muhim ahamiyatga egadir. Tanlov fanni tanlashda talabaga qulay tomoni ham mana shunda ya'ni talaba tanlov fanni tanlashi bo'yicha qarorni qabul qilishida fan haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishi ahamiyatlidir. Kredit-modul tizimida talaba tanlov fanni tanlar ekan quyidagilar haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak:

- fanning nomi
- fanning o'qituvchilari
- fanga ajratilgan kredit miqdori
- kreditlarni to'plami tartib qoidalari
- fan bo'yicha egallaydigan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari
- fanning ishlab chiqarish sanoati va xalq xo'jaligidagi ahamiyati
- bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari, turlari

Talabalar fanini chuqur o'zlashtirishida mustaqil ish topshiriqlarini bajarishi muhim ahamiyatlidir.

Bundan tashqari kredit-modul tizimi ta'lim jarayoniga zamonaviy, hamma uchun tushunarli bo'lgan o'lchov birligini olib kiradi. Har bir OTM ning o'quv dasturlari turli fan va modullarga bo'linadi. Har bir fan va modul esa undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab kreditlar ajratiladi. Talaba esa muayyan miqdordagi kreditlarni har semestr davomida to'plab borishi lozim. Shu asosida har semestrda fan bo'yicha muayyan kreditlarni yig'ib borishi hamda mana shu yig'ilgan kreditlar asosida talabalarga bakalavr va magistr darajasini oladi.

Talaba har bir semestrda 30 kredit yig'ish va o'quv yili davomida esa 60 kreditni yig'ishi lozim bo'ladi. Mana shu kredit soni yig'ilgandan keyin talaba kursdan-kursga o'tgan hisoblanadi. Bakalavr darajasini olish uchun 240 kredit yig'ilsa, magistr darajasini olish uchun esa 120 kredit yig'ish talab etiladi. Kredit-modul tizimi talaba har o'quv yilida o'quv materialini o'zlashtirishi, mustaqil o'rganishi uchun berilgan imkoniyatlari kengligi bilan ajralib turadi va mana shu jarayonida talabaning faolligiga e'tibor beriladi.

O'quv fanini-modul tushunchasi bilan izohlasak, talabalarning o'quv dasturini o'zlashtirish orqali shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalari kredit soni yig'indilarida namoyon bo'ladi ya'ni, talabalarning o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Bugungi zamon talabi ham ta'lim jarayonini kredit-modul tizimiga o'tishni talab qilmoqda, talaba o'zi o'qituvchini, mutaxassisligi, yo'nalishi bo'yicha o'qishi kerak bo'lgan fanlarni hamda tanlov fanlarni ovozi tanlaydi. Yana bir tomoni talaba kredit-modul tizimida kerakli ballni yig'olmagan taqdirda OTMda o'qish jarayoni cho'ziladi ya'ni bakalavriat yoki magistratura darajasini olishiga etadigan kreditni yig'gunicha talab etadi.

Moduli o'qitishda ta'lim oluvchilarning bilim, malaka, ko'nikmasi, qat'iy ravishda nazoratning reyting tizimida baholanadi. Moduli o'qitishda ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkoniyatlari kengayadi.

Akademik qarzdor bo'lgan talabalar qarzlarni topshirishiga fan bo'yicha kerakli bo'lgan kreditlarni yig'ishi uchun yozgi semestr (ta'til vaqti) da oliy ta'lim muassasasi tomonidan qayta o'qish pullik asosida tashkil etiladi. Yozgi semestr uchun ajratilgan vaqt akademik taqvim asosida magistratura mutaxassisligi va bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va kurslari bo'yicha belgilanadi. OTM ning o'quv uslubiy boshqarmasiga yozgi semestr gacha talaba tomonidan o'z istagi ya'ni yozgi semestrda o'qish istagini bildirib qo'ygan bo'lishi kerak. So'ngra OTM tomonida akademik qarzdor talabalarga yozgi semestr uchun dars jadvali tuziladi. Talaba to'lov jarayonini amalga oshirgandan so'ngra darslarga kiritiladi. Yozgi semestr ham amaldagi baholash tizimi asosida talabalar bilimini shaffof baholash tamoyiliga ko'ra tashkil qilinadi. OTM ning yozgi semestrda o'z ish faoliyatini davom ettiradigan professor-o'qituvchilariga esa soatbay haq to'lanishi ta'minlab beriladi.

ECTS Kredit-modul tizimining afzalligi ham barcha OTMlarda talabalar uchun o'quv yuklamasi deyarli bir xilligini ta'minlab beradi

ECTS Kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish bosqichlari quyidagilar:

- namunaviy o'quv rejasi va fanlar katalogini ishlab chiqish
- qo'shimcha ravishda tanlov fanlar katalogini shakllantirish, namunaviy fan dasturlarini ishlab chiqish
- ishchi o'quv rejalarni tuzish
- fanlarni ishchi dasturi (syllabus) ni ishlab chiqish
- talabaning shaxsiy ta'lim muhitini shakllantirish
- o'quv jarayoni jadvalini shakllantirish
- akademik guruhlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari jadvalini tuzish

ECTS kredit-moduli o'qitish tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, klinik o'quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek ta'lim oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat yuklamasi va ta'lim oluvchilarning

faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta'lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so'ng kreditlarni to'plash mumkin.

Shunday qilib, ta'lim jarayonida kredit-modul tizimi joriy qilishda quyidagi afzalliklarga erishish mumkin:

- ta'lim jarayonida talabalar uchun mustaqil ta'lim ulushining ortishi;
- talabalarga akademik erkinlik beradi;
- professor-o'qituvchilarning dars berish faoliyatida rivojlantiruvchi muhitning paydo bo'lishi;
- nazariy ta'limdan ko'ra amaliy ta'lim ulushining ortishi;
- talabalarning mustaqil izlanishiga qaratilgan o'quv faoliyati, har semestrda turli guruhda o'qishga imkon beradi;
- samarali va izlanuvchan o'qitish metodlarining paydo bo'lishi;
- ilmiy izlanishlar asosida ta'lim berish sharoitlarining paydo bo'lishi va boshqalar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08 oktyabr 2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-5847-son Farmoni.

2. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 03-fevraldagi F-22 son farmoyishi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi bo'yicha takliflar

4. Ananyeva E.I Modulli o'qitish pedagogik muammo sifatida (Orenburg davlat universiteti)

5. Usmonov B.Sh, Xabibullayev N.A "Oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini kredit-modul tizimida tashkil etish" Toshkent 2022 y.

ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Рахматходжаева Ф.М.

ТГПУ им. Низами

Вопрос о гендерном воспитании в настоящее время начал приобретать актуальность, и все больше педагогов и психологов стали задумываться о необходимости дифференцированного подхода к воспитанию девочек и мальчиков, начиная уже с дошкольного возраста. Дело в том, что к концу раннего возраста ребенок усваивает свою половую принадлежность, а к семи годам у него формируется гендерная устойчивость, т.е.

осознание того, что принадлежность к полу сохраняется независимо от ситуации и желаний ребенка.

Разница проявляется уже с детства. Мальчики стремятся к независимости, девочки к взаимозависимости. Мальчики чаще играют в игры, в которых чем больше народу, тем лучше. Девочки предпочитают собираться маленькими группами, в их играх меньше агрессивности, больше соучастия, там чаще ведутся доверительные беседы и имитируются взаимоотношения взрослых. Гендерные стереотипы поведения формируются уже в детском возрасте. В зрелом возрасте гендерные различия проявляются еще шире [5].

Игры девочек чаще опираются на ближнее зрение: девочки раскладывают перед собой свои богатства — куклы, тряпочки, бусинки, пуговички — и играют на ограниченном пространстве, им достаточно маленького уголка. Игры мальчиков чаще опираются на дальнее зрение: мальчики бегают друг за другом, бросают предметы и стреляют в цель, используя при этом все окружающее их пространство. Мальчикам для их полноценного психического развития вообще требуется большее пространство, чем девочкам. Рисунки мальчиков и девочек различаются с первых же лет жизни. Девочки заполняют альбомы “принцессами” и автопортретами, а мальчики машинами и военными сражениями, и никогда наоборот [3].

У девочек рисунки ярче и с большим количеством мелких деталей. Все, о чем говорил учитель, присутствует: и фигурные окна, и фонтаны, и деревья, и необычные цветовые решения. У мальчиков почти каждый рисунок — новое, неожиданное принципиальное решение: дом — космический корабль, дом, стоящий на трех слонах, дом, обвитый огромной лианой с огромными прекрасными цветами (и это тоже мальчики!) и так далее [3].

У девочек уже в раннем возрасте проявляется “инстинкт материнства”, выражающийся в интересе к другим малышам, в играх, в заботливом отношении к куклам. Их внимание привлекает прежде всего человек, его взаимоотношения с другими людьми. Чем они становятся старше, тем сильнее возрастает их интерес к внутреннему миру человека, его переживаниям, поведению. Для девочек характерно также проявление преимущественного интереса к тому, что их непосредственно окружает (обстановка, утварь, одежда и т. п.) [5].

Девочки больше общаются с матерью, сильнее привязаны к дому. Они как правило прилежнее и исполнительнее по сравнению с мальчиками, более аккуратны, бережливы, добросовестны. Им в большей мере свойственна склонность проявлять заботу о других, ухаживать, а также поучать, критиковать. Повышенная эмоциональность представительниц женского пола нередко является причиной их недостаточной объективности. Восприимчивость женской психики выше, чем мужской, девочки более обидчивы, самолюбивы, они острее реагируют как на поощрения, так и на порицания [1].

У девочек сильнее развито непроизвольное внимание, их больше привлекает конкретная наглядность. Они легче поддаются внушению, быстрее приспосабливаются к новой обстановке, чувствуют себя увереннее в необычных условиях [3].

Качественно процессы восприятия, мышления, памяти у детей разного пола тоже различаются достаточно сильно. Девочки при решении пространственных задач используют речевые опоры, а при решении речевых, логических – образные и эмоциональные. Мальчикам пространственные задачи легче решать чисто пространственными способами (мысленный поворот, наложение и так далее) [3].

В дошкольном и младшем школьном возрасте девочки в речевом плане “забивают” мальчиков. Их речь развита лучше, но мышление более однотипно. Мальчики мыслят нестандартно и интересно, но так как они молчат, их внутренний мир часто скрыт от нас [4].

У девочек речь более беглая, они быстрее читают и красивее пишут, но та сторона речи, которая связана с поиском: подбор словесных ассоциаций, решение кроссвордов — лучше удается мальчикам. У мальчиков сильнее развито пространственное представление, потому что выполнение пространственно-зрительных задач требует поиска.

Проведя теоретический анализ психолого-педагогической литературы, мы считаем, что очень важно обращать внимание воспитателей на половые различия в воспитании, обучении, восприятии. Для воспитателей проводятся семинары по ознакомлению с гендерными характеристиками детей- дошкольников. Родители и воспитатели всегда должны обращать внимание на гендерные особенности своих воспитанников.

Признайте за ребенком право на индивидуальность, право быть другим.

- Не сравнивайте ребенка с другими, хвалите за его успехи и достижения. Учитесь вместе с ребенком, объединяйтесь с ним против объективных трудностей, станьте союзником, а не противником или сторонним наблюдателем.

- Старайтесь, давая задания мальчикам как в детском саду, в школе, так и в быту, включать в них момент поиска, требующий сообразительности. Не надо заранее рассказывать и подсказывать, что и как делать. Следует подтолкнуть ребенка к тому, чтобы он сам открыл принцип решения, пусть даже наделав ошибок.

- С девочками, если им трудно, надо вместе, до начала работы, разобрать принцип выполнения задания, что и как надо делать. Вместе с тем девочек надо постепенно учить действовать самостоятельно, а не только по заранее известным схемам (работу по дому выполнять точно, как мама, в школе решать типовые задачи, как учили на уроке), подталкивать к поиску собственных решений незнакомых, нетиповых заданий.

- Не забывайте не только рассказывать, но и показывать. Особенно это важно для мальчиков.

• При первых неудачах не нервничайте сами и не нервничайте ребенка. Попробуйте отыскать объективные причины трудностей и смотреть в будущее с оптимизмом. Не забывайте, что ваша оценка поведения или каких-то результатов деятельности ребенка всегда субъективна. И всегда может найтись кто-то другой, кто увидит в этом ребенке то хорошее, что не заметили вы.

• Мы часто любим в ребенке результаты своих трудов. А если результатов нет, виноват не ребенок, а мы, потому что не сумели его научить. Бойтесь списывать свою некомпетентность, свои неудачи на ребенка. Это вы педагог или родитель, а не он. К сожалению, мы любим тех, кого умеем научить.

• Постарайтесь, чтобы главным для вас стало не столько научить чему-то, сколько сделать так, чтобы ребенок захотел научиться, не потерял интереса к учебе, почувствовал вкус к познанию нового, неизвестного, непонятного.

• Помните: для ребенка чего-то не уметь, чего-то не знать – это нормальное положение вещей, на то он и ребенок. Этим нельзя попрекать. Стыдно самодовольно демонстрировать перед ребенком свое превосходство в знаниях.

• Ребенок не должен панически бояться ошибиться. Невозможно научиться чему-то не ошибаясь. Старайтесь не выработать у ребенка страха перед ошибкой. Не обольщайтесь – вы не идеал, а значит, не образец для подражания во всем и всегда. Поэтому не заставляйте ребенка быть похожим на вас.

• Запомните: маленькие дети не бывают ленивыми. “Леность” ребенка – сигнал неблагополучия в вашей педагогической деятельности, в избранной вами методике работы с ним.

• Старайтесь не преподносить детям истину, а учите находить ее. Всячески стимулируйте, поддерживайте, возвращайте самостоятельный поиск ребенка.

• Для гармоничного развития необходимо, чтобы ребенок учился по-разному осмысливать учебный материал (логически, образно, интуитивно).

• Прежде чем ругать ребенка за неумение, попытайтесь понять природу трудностей.

• Никогда не ругайте ребенка обидными словами за неспособность что-то понять или сделать, глядя на него при этом с высоты своего авторитета. Это сейчас он знает и умеет хуже вас. Помните, что мы часто недооцениваем эмоциональную чувствительность и тревожность мальчиков.

• Если вам надо отругать девочку, не спешите выказывать свое отношение к ней – бурная эмоциональная реакция мешает ей понять, за что ее ругают. Сначала разберите, в чем ее ошибка.

• Ругая мальчика, изложите кратко и точно, чем вы недовольны, так как он не может долго удерживать эмоциональное напряжение. Его мозг как бы отключит слуховой канал, и ребенок перестанет вас слушать и слышать.

• Если ваш сын гораздо медленнее осваивает грамоту, чем это делала его старшая сестренка, плохо пересказывает и небрежно пишет буквы, не огорчайтесь, это особенность мужского ума.

Литература

1. Асмолова А.Т. Психология личности. М., 2018.
2. Берн Ш. Гендерная психология. - СПб.: Прайм-Еврознак, 2002. - 320 с.
3. Введение в гендерные исследования. Учебное пособие. МГУ, 2000.
4. Каган В.Е. Половое воспитание детей: медико-психологические аспекты. Л., 2008.
5. Попова Л.В. Гендерные аспекты самореализации личности. М., 2006.



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING BOSHLANG'ICH MUSIQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Raxmonberdiyeva S.M.

Nizomiy nomidagi TDPUi, o`qituvchi

Bugungi kunda Respublikamizda yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaralmoqda, ularga xalqimizning madaniyati, san'ati, tarixi, adabiyoti, tili va milliy qadriyatlariga muhabbatni shakllantirishga, shu bilan birga kelgusida ularni rivojlantirishga o'z hissasini qo'sha oladigan intellektual salohiyatli shaxslar sifatida kamol toptirishga ustuvor ahamiyat berilayotgani bejiz emas. Chunki, ma'naviy etuk, aqliy barkamol, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy – ahloqiy tarbiya va muayyan bilimlarni, ya'ni tanlangan fan asoslarini chuqur egallashi bularning barchasi barkamol avlodni etishtirishning eng muhim omillari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq tarbiyalash va musiqiy ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda tarbiyalanuvchilarning musiqiy savodxonligini shakllantirish texnologiyalarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, musiqaga yoshlikdan

uygʻongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivojida kuchli taʼsir oʻtkazadi, boshqa koʻnikma va didlarning shakllanishini taʼminlaydi, yaxshi musiqali didni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlarini, uning tabiatini ham yorqin aks ettiradi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotida olib boriladigan musiqiy taʼlim, tarbiyaviy ishlar yosh avlodda oliyjanob fazilatlarni bogʻcha yoshidan shakllantirishda nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi boʻlib hisoblanadi, kichkintoylar qalbida nafosatga mehr uygʻotilar ekan, ularni barkamol inson qilib tarbiyalab, voyaga etkazish, bogʻcha yoshidan boshlab bolalarning dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy didni oʻstirib, bolalarga musiqani oʻrgatish jarayonida unda hayot oʻz aksini topishini anglatishdir. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida oʻtiladiga musiqa mashgʻulotlari beshta faoliyat asosida oʻtiladi, bu faoliyatlar turlaridan etakchisi albatta musiqa savodi faoliyatidir, garchi bolalar bogʻchasida musiqa mashgʻulotlari oʻtilishida notagacha boʻlgan den eʼtirof etilsada, lekin umumiy boshlangʻich musiqa savodi haqidagi ilk nazariy tushunchalar bolalar ongigiga tushunarli boʻlgan oddiy atamalar orqali bolalarning musiqiy savodxonligi tarkib topdiriladi. Har bir faoliyatlar oʻtilishida musiqa savodxonligiga tayanib ish koʻrilishi mashgʻulotning samarali oʻtilishiga yordam beradi.

Musiqa mashgʻulotlari oldiga qoʻyilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, bolalarning musiqiy uquvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda oʻstirib borish lozim. Mashgʻulotda belgilangan pedagogik maqsadlar, musiqiy faoliyatlar uzviy yaxlitlikda olib borilganda bolalarda musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni oʻzlashtirish jarayoni samarali kechadi.

Musiqa savodi musiqa mashgʻulotining taʼlimiy vazifasini bajaradi, Musiqa savodi faoliyatining asosiy negizi va pedagogik maqsadi, yangi “Ilk qadam” dasturida rejadagi yillik mavzularda berilgan kuylash va tinglashga doir asariarini musiqa rahbari tomonidan oddiy savodli tablil qilish orqali amalga oshiriladi. Bular asosan bolalarning kundalik hayotidan olinayotgan taassurotlari yuzasidan boʻlishi maqsadga muvofiqdir va musiqiy tajribalari asosida oʻrgatiladi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotida olib boriladigan musiqa mashgʻulotlarida kichik guruhdan boshlab ilk nazariy tushunchalar mashqlar tarzida olib borilsa bolalar uchun ham qiziqarli, hamda ular idrok etishi uchun qiyinchilik tugʻdirmaydi. Masalar: bolalarning musiqiy uquvini yani musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyatini rivojlantirish uchun yugurish, tartibli qadam tashlash, sakrash harakatlarini musiqa ostida bajarilishi kichkintoylarni bir vaqtning oʻzida ham tinglab ham harakat qilishi orqali tovushlarning xilma –xilligini his qilishiga yordam beradi. Musiqa ostidagi bu harakatlar keyingi guruhlarda takomillashib boradi, bu esa oʻz navbatida bolalarning musiqiy uquvini doimiy ravishda rivojlanib borishiga yordam beradi. Bolalarning ritm tuygʻusini oʻstirishda tartibli qadam tashlash bilan bir vaqtda, kichik asarlarga chapak chalish, chertmak chertib joʻr boʻlish orqali rivojlantirish mumkin, bu harakatlar ham keyingi guruhlarda murakkablashib bolalar yoshiga mos tarzda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Registr haqidagi boshlang'ich tushunchalarni ham kichik guruhdan boshlab turli harakatlar orqali farqlashga o'rgatish mumkin. Masalan: musiqa rahbari yuqori registrda ijro etgan asariga bolalar qo'llarini yoygan holatda zal bo'ylab yugurib qushlar kabi harakat qilishlari, ularni yuqori registrni his qilishlariga yordam beradi. Past registrda ijro etilgan asarga esa bolalar zal bo'ylab ayiqpolvon singari salmoqli tebranib yurishlari orqali past registrni farqlashni o'rganadilar. Bu usul orqali bolalarning boshlang'ich registr haqidagi tushunchalari tarkib topdiriladi. Bora-bora bolalar musiqa rahbari tomonidan ijro etilgan asarlarni tinglab ular qaysi registrda ijro etilganini tushunib farqlashga o'rganib boradilar.

Musiqa mashg'ulotlarida bolalarning tembr uquvi ya'ni musiqiy tovushlarni bir-biridan farq qilishga o'rgatib borishda kichik guruhdan boshlab musiqa rahbari tomondan ijro etilgan asarlarga turli shovqinli cholg'u asboblari: qo'ng'iroqcha, shaqildoqlarda jo'r bo'lish orqali erishish mumkin. Keyingi guruhlarda cholg'u asboblarning soni tobora ko'payib boradi. Tayyorlov guruhlarga kelganda bolalar o'zbek xalq milliy cholg'ulari va chet el cholg'u asboblari ijro etilgan asarlarni tinglab bu cholg'ularni farqlashni o'rganish bilan birga, kichik hajmli asarlarini ijro etishni ham o'rganadilar.

Musiqa mashg'ulotlarida bolalarga musiqa rahbari tomonidan turli templardagi asarlarni ijro etish orqali ya'ni sekin ijro etiladigan va tez ijro etiladigan asarlarni tinglash orqali ilk temp haqidagi tushunchalar bilan tanishtirib boriladi. Tayyorlov guruhga kelib bolalar yirik hajmdagi o'zbek va qardosh xalqlar mumtoz musiqalarni tinglab nafaqat asar tempini aniqlashadi, balki bu tinglangan asar yuzasidan o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar, bu esa albatta bolalarning fikrlash doiralari kengayib borayotganligidan dalolat beradi.

Bolalardagi musiqiy savodxonlikni musiqaviy qobiliyatni rivojlantirish asosida ham shakllantirib borish darkor, ya'ni:

➤ Ladni his etish qobiliyati- bu musiqani tinglab, uni kayfiyatini farqlash, ifoda tomonini aniqlash. Ladni his etish qobiliyati bolalarda musiqa tinglash vaqtida yuzaga keladi.

➤ 2) Tovush balandligini his etish qobiliyati- bu ohangni eshitib, so'ng uni tovush bilan kuylab berish va musiqa asbobida kuyni chalish. Bu qobiliyat asosan kuylash vaqtida yuzaga keladi.

➤ 3) Ritmni his etish qobiliyati- bu musiqada ritmni eshita bilishdir. Bu qobiliyat ayniqsa musiqa ostida harakat vaqtida namoyon bo'ladi.

Bolalarning musiqiy qobiliyatlari faqatgina musiqa savodi faoliyatida emas, balki musiqa mashg'ulotlarning barcha elementlarini amalga oshirish jarayonida muntazam ravishda rivojlanib boradi. Musiqa savodi faoliyatida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat bolalarning musiqiy tafakkur va musiqiy dunyoqarashi, musiqiy xotira, musiqiy idrokini shakllanishiga xizmat qiladi. Kichik guruhdan boshlab musiqa savodi mazmuni bolalarni tobora shakllantiradi va ularni fikrlash

doirasini tobora kengaytirib, chuqurlashtirib boradi shu bilan birga bolalarning deyarli musiqiy psixologik xususiyatlarning barchasi shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa rahbari bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda musiqa mashg'ulotlarida boshlang'ich musiqiy nazariy bilimlarni berishida ijodiy yondashishi, bolalarning qiziqish, xoxish-istaklarini hisobga olishi, ko'rgazmali texnik vositalardan unumli foydalanishi, ularning musiqiy nazariy bilimlarining yanada oshishiga va keyingi estetik rivojlanishlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonliginingroli”-T.O`zbekiston, 2017y

2. Sh.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birga barpo etamiz-T-O‘zbekiston. 2016y

3. R.G.Qodirov. Musiqa psixologiyasi. “Musiqa” nashriyoti, T., “2005y.

4. N.Yusupova. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. “Musiqa” nashriyoti,- T., 2010y

5. N.Rejametova. “Maktabgacha ta’limda musiqa o‘qitish metodikasi”. Toshkent. 2020y

6. N.Raxmatova. “Yoshlarning ma’naviy kamolotida musiqiy tarbiyaning roli” Xalq ta’limi. №4 T, 2005 yil

ОЗНАКОМЛЕНИЕ С НАЦИОНАЛЬНЫМИ АРХИТЕКТУРНЫМИ ПАМЯТНИКАМИ– КАК ИННОВАЦИОННЫЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ У ДЕТЕЙ ЛЮБВИ К РОДИНЕ

Рахимова Ф.М.

*преподаватель кафедры «Дошкольное образование»
Кокандского государственного педагогического института*

Сегодня, в процессе глобализации и интеграции в мировую экономику, серьезное внимание уделяется сохранению национальных традиций и ценностей.

Какие бы перемены не происходили в обществе, вопросам любви к Родине и патриотического воспитания уделяется особое внимание и в настоящее время они являются приоритетными на государственном уровне. Так, за последние годы в Республике Узбекистан были предприняты значительные усилия по укреплению и развитию системы патриотического воспитания граждан, особенно детей и молодёжи.

Патриотическое воспитание представляет собой систематическую и целенаправленную деятельность органов государственной власти, институтов гражданского общества и семьи по

формированию у граждан высокого патриотического сознания, чувства верности своему Родному краю и Родной земли, готовности к выполнению гражданского долга и конституционных обязанностей по защите интересов Родины.

Патриотическое воспитание должно начинаться с дошкольного возраста. Именно в этот период активно формируется начальное познавательное и эстетическое отношение к действительности, происходит становление интересов к широкому кругу социальных явлений, выходящих за рамки личного опыта ребенка. Среди разнообразных средств патриотического воспитания особое место отводится ознакомлению с архитектурой города, в котором живет ребенок. Она представляет собой уникальную среду для социокультурного развития и формирования первичных ценностных ориентаций и начального обобщенного представления о культурно-историческом своеобразии родного города. Анализ современной научной литературы показал, что вопросы приобщения дошкольников к архитектуре изучены преимущественно с позиций обучения изобразительной деятельности и конструированию (Т.С. Комарова, Л.А. Парамонова), ознакомления детей с фактами истории и явлениями социальной действительности; художественного развития дошкольников.

Вместе с тем, до настоящего времени технологии приобщения дошкольников к архитектуре родного города в рамках реализации стратегии патриотического воспитания недостаточно разработаны. Таким образом, актуальность вопроса определяется стратегией патриотического воспитания, предполагающей формирование гармоничной личности, воспитание всесторонне развитой личности–зрелого, ответственного человека, в котором сочетается любовь к большой и малой родине, общенациональная и этническая идентичность, уважение к культуре, традициям людей, которые живут рядом.

Целевые ориентиры дошкольного образования определяет сегодня Государственный образовательный стандарт республики Узбекистан. К ним относятся инициативность, самостоятельность в разных видах деятельности, положительное отношение миру, развитое воображение, развитая крупная и мелкая моторика, владение устной речью, любознательность и др. Всё то, что позже определяет успешность ребёнка при обучении, в трудовой деятельности и жизни в целом. А также повышение квалификации и мастерства педагогов позволяет связать содержание и характер методической работы с ходом и результатами реальной образовательной деятельности.

В последние годы значительно возросло участие детей в городских, региональных, республиканских мероприятиях различной направленности. Особенно важно отметить, что каждая пятница недели установлена Днём бесплатного посещения музеев и исторических памятников нашей республики.

Однако, наряду с имеющимися достижениями, существует ряд проблем, в первую очередь связанных с внедрением инновационных технологий формирования у воспитанников идеалов патриотических ценностей. Сегодня становится очевидным, что применяемые формы и методы в воспитательном процессе не в полной мере обеспечивают повышение у воспитанников роли патриотизма как ценностно – смыслового ядра развития личности.

Обозначилась тенденция сокращения в обществе людей, способных воспринимать ценности патриотизма. Система патриотического воспитания в современных условиях нуждается в корректировке целей, задач, форм, методов и технологий, адекватно учитывающих современные социальные реалии и ситуацию в мире. Поэтому реализация современных моделей патриотического воспитания должна происходить в соответствии с требованиями и вызовами XXI века. Создание системы патриотического воспитания, направленной на формирование потребности в ценностях патриотизма предусматривает следующие задачи:

- совершенствование системы патриотического воспитания на основе внедрения инновационных технологий;
- разработка и реализация вариативных программ, направленных на формирование патриотического воспитания воспитанников;
- совершенствование организационно – методического и информационно – технического обеспечения системы патриотического воспитания в дошкольно-образовательных организациях(ДОО);
- приобщение к национальному культурному и историческому наследию и стремление к его сохранению и развитию;
- включенность родителей в тесное сотрудничество по патриотическому воспитанию;
- создание положительного имиджа ДОО и позиционирование его на рынке образовательных услуг города, области и страны.

Таким образом, воспитание детей в духе патриотизма и любви к Родине с помощью ознакомления с национальными архитектурными памятниками является одним из инновационных и современных технологий обучения и воспитания в системе дошкольного образования.

Литература:

1. Рязанцев Г.М. Формирование рынка художественных промыслов в переходной экономике. Автореферат к.э.н. М.: АГС, 1998.
2. Рязанцева И.В. Маркетинговая деятельность в сфере ремесленничества: на примере народных художественных промыслов. Автореферат к.э.н.. М.: АГС, 2007.

3. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства старой Бухари. Бухарские записи. –Т.: Лит-ра.и иск-ва, 1981.

4. Қличев У.А. Ўзбекистонда миллий хунармандчиликнинг ривожланиши (1991-2006 й.) Автореферат т.ф.н. – Т.: -2010.-.17 б.

5. Ғуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. –Т.:Шарқ, 2002.

6. Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. –Т.:Меҳнат, 2000.

7. Абулқосимов Ҳ.П. Хусусий кичик тадбиркорликни ривожлантиришнинг иқтисодий муаммолари.–Т.: ТДТУ, 1998.



“ILM YO‘LI” VARIATIV DASTURI BOLANI MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY BOSQICHI

Raximova S.S.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrasi mudiri

Bugungi islohotlar davrida maktabgacha ta‘lim tizimiga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5198-son Farmoniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi. Shu bois eng yaxshi xalqaro tajribalar asosida tizimdagi dasturiy va o‘quv-metodik ta‘minotni takomillashtirish maqsadida, maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarorini ijro etish doirasida maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinmagan bolalar uchun tayyorlov guruhlarini shakllantirish rejasini ilgari suradi. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta‘lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida, “Ilm yo‘li” dasturini ishlab chiqish hamda uni tasdiqlash zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta‘lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida, “Ilm yo‘li” variativ dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturning asosiy maqsadi, bolaning to‘laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o‘qishini, uning maktabda ta‘lim olishga samarali tayyorlanishini ta‘minlashga qaratilgan. Shuningdek, bolalarni maktabga samarali tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajribalar hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat sanaladi.

Dasturning o‘ziga xosligi, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat kuniga 3 soat davomida amalga oshiriladi, uning majburiy qismi 80 foizni va variativ qismi esa 20 foizni tashkil etadi.

Dastur O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llanilishi mumkin:

- bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlariga ega bo‘lgan umumiy hamda ixtisoslashtirilgan tiplardagi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida;
- maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan o‘rta-maxsus va oliy ta’lim muassasalarida;
- maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimi uchun pedagog-kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchi muassasalarda.

Dastur asosiga ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan bola shaxsining rivojlanishidagi asosiy sohalar “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi”, “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”, “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari”, “Bilish jarayonining rivojlanishi” hamda “Ijodiy rivojlanish sohalarini bo‘yicha integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta’minlaydi.

Dasturning maqsad va vazifalari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun quyidagilarni ta’minlashni ko‘zda tutadi:

- zarur bo‘lgan rivojlanish amaliyoti va maktabga tayyorlash uchun teng imkoniyatlarni vujudga keltirish;
- 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlar bolalarini to‘liq kunli maktabgacha ta’lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoki muayyan sabablarga ko‘ra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehhtiyojlarini qondirishi kerak;
- 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlar maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq, 5 muhim sohada bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashi zarur, har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga mo‘ljallangan;
- maktab ta’limiga umumiy psixologik tayyorgarlik.

Dastur zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda:

- istisnosiz barcha bolalarning ta’lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga;
- amaliyotga bolaga yo‘naltirilgan yondashuvni, inklyuziv ta’lim tamoyillarini joriy etishga;
- oila va jamoalar bilan hamkorlik;
- ta’lim-tarbiyaning madaniy jihatdan maqbul uslublariga tayangan holda milliy qadriyat va ustuvorliklarni e‘tiborga olish;
- qulay, do‘stona va xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Dasturda ko‘zda tutilgan vazifalar nafaqat rivojlanish markazlardagi faoliyat paytida, balki mustaqil, o‘yin jarayonida hamda pedagoglarning ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida ham to‘liq bajarilishi lozim.

Pedagog bolalarning oiladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelayotganini inobatga olgan holda, bolalarga o‘qitish maqsadlariga erishishda yordam ko‘rsatishi zarur:

1. Bolalar odatda yangi ko‘nikmalarni o‘z tashabbuslari bilan, masalan, zinapoyadagi pog‘onalarni sanash kabi, amalda qo‘llyadilar.

2. Yangi ko‘nikma o‘z takomiliga yetkazilishi bilan bolalarga o‘rganishni davom ettirish uchun yangi vazifalar kerak bo‘ladi. Lekin bu vazifalar bolalar uchun tanish bo‘lishi zarur.

Shuningdek, pedagogning har bir bolaga individual yondashuvi muhimdir. Pedagog tarbiyalanuvchining egallashi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlarini belgilayotganida va keyingi qadamlarni rejalashtirayotganida dastur maqsadidan kelib chiqqan holda yondashishi zarur.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, maktabga tayyorlash guruhlarida bolalarning barcha faoliyati o‘yin tarzda o‘tkazilishi muhimdir. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga mos holda ko‘zda tutiladiki, bola maktabgacha tayyorlov guruhidan chiqishda ma‘lum bir natijalarga erisha oladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.
2. “Ilm yo‘li” variativ dasturi. – T.: 2019.
3. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish. T.:2018.
4. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish (maktabga tayyorlov guruh). T.:2018.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ВОСПИТАТЕЛЯ НА ЗАНЯТИЯХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Рузиева М.Д.

*к.п.н., дотсент кафедры теория и методика дошкольного воспитания факультета
Психология и дошкольное образование Государственного Худжанского университета имени
Бабаджана Гафурова. Республика Таджикистан.*

Развитие системы дошкольного образования в настоящее время стало одним из приоритетных направлений развития образования в Республика Таджикистан. Какой воспитатель нужен сегодня дошкольной образовательной организации? Такой, как во все

времена – добрый, приветливый, внимательный, терпеливый, любознательный, интересующийся жизнью, самосовершенствующийся.

Сегодня роль воспитателя в развитии ребенка значительно возросла, поскольку ребенок проводит с воспитателем больше времени, чем с родителями. И это обстоятельство способствует установлению особых эмоциональных связей между воспитателем и ребенком, которые отчасти компенсируют отсутствие родителей, от этого во многом зависит комфорт ребенка, характер его социальной адаптации и овладение коммуникативными навыками.

Воспитателем-профессионалом становится тот, кто в практической работе с детьми стремится проявлять творческую инициативу, использовать новые методы и технологии; кто постоянно занимается самообразованием, саморазвитием и самовоспитанием, совершенствует свои профессиональные навыки, расширяет кругозор и рамки своих интересов. Компонентный воспитатель находится в постоянном поиске путей и средств решения задач всестороннего развития детей, прилагает максимум усилий для их реализации.

Для определения сущности понятия «компетентность» необходимо, прежде всего, развести часто синонимически используемые понятия «компетенция» и «компетентность». А.В. Хуторской считает необходимым отличать просто «компетенции» от «образовательной компетенции» и предлагает следующее определение последней: *образовательная компетенция* есть требование к образовательной подготовке, выраженное совокупностью взаимосвязанных смысловых ориентаций, знаний, умений, навыков и опыта деятельности детей по отношению к определенному кругу объектов реальной действительности, необходимых для осуществления личностно и социально значимой продуктивной деятельности [5, С.113].

Изобразительное искусство – это отражение окружающей действительности художником в художественных образах и выражение своего отношения к жизни средствами формы, цвета, композиции. Подлинный эстетический вкус у дошкольников мы можем воспитывать путем отбора объектов, наиболее близких для детского восприятия.

Для успешного художественного развития ребенка воспитателю необходимо правильно использовать в соответствии с возрастом различные формы и виды художественно-эстетического воспитания. В этой связи особую значимость в развитии художественных способностей приобретает профессионализм воспитателя, качественными характеристиками которого являются компетентность и креативность.

Знание основ изобразительного искусства и методики руководства деятельностью детей в сочетании с культурой и креативностью позволяет воспитателю не только критически перерабатывать и использовать все многообразие накопленного опыта, но и активно вести

поиск эффективных путей развития художественных способностей детей дошкольного возраста

В детском саду дети знакомятся с различными доступными их возрасту видами изобразительного искусства. Используя лучшие образы народного искусства и мастеров, педагог воспитывает интерес и способность эстетически воспринимать картины, скульптуры, предметы народного художественного творчества, иллюстрации в книгах, формирует основы эстетического вкуса детей, умение самостоятельно оценивать произведения искусства.

Творческий процесс в изобразительной деятельности предполагает создание детьми художественно-выразительных образов доступными им выразительными средствами. Т.С.Комарова и Н.П.Сакулина считают, что изобразительная деятельность только тогда может приобрести творческий характер, когда у детей развиваются специальные художественные способности: эстетическое восприятие, образное мышление, воображение и когда они овладевают способами изображения. [4].

Изобразительное искусство – это специфическое образное познание действительности, которое может идти разными путями. На занятиях рисованием дошкольники учатся бережно относиться к художественным материалам, у них формируются навыки трудовой деятельности, планирование будущего рисунка, самоконтроль за своими действиями в процессе работы. Стремление детей достичь качественных результатов говорит об их настойчивости, способности к преодолению трудностей. При выполнении коллективных работ дети обучаются способам сотрудничества, договариваются об этапах работы над общей композицией рисунка.

Изобразительная деятельность дошкольников как вид художественной деятельности должна носить эмоциональный, творческий характер. Ведь в основе образов воображения лежит перекомбинирование материала, хранящегося в памяти. А у дошкольников знаний и представлений еще недостаточно. Видимое богатство воображения связано с низкой критичностью детского мышления, когда дети не знают, как бывает, а как не бывает. Отсутствие такого знания - недостаток и достоинство детского воображения. Дошкольник легко объединяет разные представления и некритически относится к полученным комбинациям, что особенно заметно в младшем дошкольном возрасте [1].

Особо стоит остановиться на так называемых комплексных занятиях, где под одним тематическим содержанием объединяются разные виды художественной деятельности: рисование, лепка, аппликация, музыкальная (пение, танец, слушание), художественно-речевая. Таких занятий не может быть много, это, скорее, праздник, своеобразный спектакль-отчет, устраиваемый вместе с детьми. Очень важно, чтобы у детей рождались эстетические

чувства, радость от того, что они делают. Полезно использовать произведения искусства, вызывающие эти чувства. Пример тем занятий: «Золотая осень», «Навруз», «Весенние цветы», «Красная шапочка» и др. Восприятие искусства и создание собственных образов, по сути, разные виды деятельности со своими довольно сложными задачами.. Нужно, чтобы у детей осталось яркое впечатление от общения с искусством. Затем можно предложить им рисовать (разноцветную осень, зимний пейзаж по настроению...) так, как они хотят, находясь под впечатлением от восприятия искусства. Такое рисование не утомляет детей, оно проводится в оставшееся время, дети как бы «выплескивают» свои чувства. Эти рисунки в то же время дают педагогу информацию об уровне их умений, о чувстве, вызываемом этой темой.

Изобразительная деятельность – это специфическое образное познание действительности. Овладение умением **изображать** невозможно без развития целенаправленного зрительного **восприятия – наблюдения**. Для того чтобы **нарисовать**, вылепить какой – либо предмет, предварительно надо хорошо с ним познакомиться, запомнить его форму, величину, конструкцию, цвет, расположение частей.

На наш взгляд, **рисование** является едва ли не самым интересным видом **деятельности дошкольников**. Оно позволяет ребёнку выразить в своих рисунках своё впечатление об окружающем его мире. Вместе с тем, **рисование** имеет неоценимое значение для всестороннего развития **детей**, раскрытия и обогащения его творческих способностей. Надо всячески поощрять детское творчество, в какой бы форме оно не выразилось. **Изобразительная деятельность** тесно связана с сенсорным **воспитанием**. Дети определяют и называют эти свойства, сравнивают предметы, находят сходства и различия, то есть производят умственные действия.

Л С, Выготский в книге «Воображение и творчество в детском возрасте», рассматривал восприятие как первую опорную точку для будущего творчества, когда происходит накопление материала, из которого впоследствии строится фантазия. Основываясь на данных физиологии, психологи выделяют восприятие как один из основных компонентов творческой деятельности. Они говорят о наличии восприятия внешнего и внутреннего, составляющего основу человеческого опыта, Деятельность человека, связанная с преобразованием полученного прежнего опыта, называется комбинирующей, творческой данные положения важны при рассмотрении специфики эстетического восприятия детьми произведений искусства, [1].

Сначала у **детей** возникает интерес к движению карандаша или кисти, к следам, оставляемым ими на бумаге, постепенно появляются новые мотивы творчества – желание получить результат. Создать определённые **изображения**.

Таким образом, изобразительная деятельность - одно из любимых занятий детей, дающее большой простор для творческой активности. Дети рисуют все, что их интересует: отдельные предметы и сцены из окружающей жизни, литературных героев, декоративные узоры и т.д. Им доступно использование различных выразительных средств (цвет, форма, размер и т.д.). Дети дошкольного возраста в состоянии выразить с помощью цвета своё отношение к предметам. Дети осваивают способы смешения красок, приёмы осветления и затемнения цвета; знакомятся с различными нетрадиционными техниками рисования, способствующими развитию воображения, фантазии. Педагогу необходимо хорошо ориентироваться в основных проблемах детской психологии и дошкольной педагогики, видеть их конкретное проявление в детском творчестве.

Для того чтобы повысить профессиональную компетентность педагогов необходима творчески организованная методическая работа, работа, основанная на достижениях науки, анализе затруднений педагогов, направленная на повышение мастерства каждого педагога, на обобщение и развитие творческого потенциала коллектива, на достижение оптимальных результатов образования, воспитания и развития детей.

Литература:

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте.-М.,1991г.
2. Григорьева Г.Г. Игровые приемы в обучении дошкольников изобразительной деятельности .- М.,1995г.
3. Комарова Т.С. Изобразительная деятельность в детском саду: обучение и творчество. – М., 1990. – 178 с.
4. Сакулина Н.П. ,Комарова Т.С. Изобразительная деятельность в детском саду. – М.,1982г -
5. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. М.: Изд-во МГУ, 2003.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNAT TARBIYASI – UNING MASULIYATLI BO‘LISHIDAGI ASOSIY NEGIZDIR

Rasulxo‘jayeva M.A.

Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası p.f.f.d .

G‘ulomiddinova A.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi I bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada bolalarni kichik yoshdan boshlab o‘z kasbini tanlashda kasbiga nisbatan mas’uliyatlilik hissini shakllantirishda ularni mehnatga o‘rgatishning omillari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit soʻzlar: oila, burch, mehnat, ilk mehnat, mehnat madaniyati, bayramlar, tadbirlar,

Oilalarda bolalarga mehnat tarbiyasi kasblarga boʻlgan qiziqishni, keyinroq esa kasbida masʼuliyatlilikni shakllanishiga asos boʻladi. Asta-sekin bolada malaka paydo boʻla boshlaydi. Bola tarbiyasida bobo, momo, ota va butun jamoa katta oʻrin tutadi. Ota kasbini egallash bolaning axloqiy va diniy muqaddas burchi boʻlib, ham farz, ham qarz hisoblangan. Bola ilk mehnat malakasini oilada oʻz-oʻziga xizmat qilish, uy ishlarida kattalarga yordam berish, qoʻlidan keladigan ishlarni bajarish jarayonida egallagan ota-ona, qarindosh-urugʻ va boshqalar mehnatini qadrlash va hurmat qilish koʻnikmasi oilada tarkib topgan. Bola 5-6 yoshdan boshlab uy ishlarini bajarishga kirishgan. Oʻgʻil bolalar ot minish, xoʻjalik ishlarini bajarish, qizlarga esa tikish va boshqa uy roʻzgʻor yumushlarini oʻrgatishgan. Oilada ota soʻzi qonun kabi bajarilgan va bajarilishi shart boʻlgan. Bolalar kattalarning hurmati uchun oʻrnidan turib salom berishi, qoʻliga suv qoʻyishi, ovqatni oldin ulugʻlarga uzatish, umuman kattalarga izzat-hurmat ruhida tarbiyalagan. Roʻzgʻorda ularni “Bir koʻylak ortiq kiyganni hurmat qil” degan naql doimo uqtirilgan. Keyinchalik uylanganda ham otasidan ruxsatsiz ayrim ishlarni oʻzi bajara olmagan ham.

Mehnat tarbiyasi oilada juda erta boshlangan. Chunki roʻzgʻorda bolaning mehnati doimo kerak boʻlgan. Kattalar bolalar qilgan xatolarni doimo tuzatib, mehnat jarayoni turli bajarilishini kuzatib borishgan.

Oilaning qut-barakasi, hamjihatligi, hamkorligi aʼzolarning kasb-hunar malakalarini egallaganliklari va mehnat taqsimotini adolatli yoʻlga qoʻyishiga bogʻliqdir.

Oilada roʻzgʻor yumushlari oila aʼzolari jinsi, yoshi, qobiliyati, mehnatga munosabatlariga qarab toʻgʻri taqsimlanmogʻi zarur. Oilada boshliqlarning roʻzgʻor yumushlarini faqat oʻzlari bajarishlari bolani ishyoqmas, yalqov, takabbur, ota-ona mehnatini qadrlamaydigan boʻlib oʻsishlari uchun sabab boʻladi. Shuning uchun ham roʻzgʻor va xoʻjalik ishlarida ota-ona bilan bir qatorda oʻgʻil- qizning ham oʻz burch va vazifalari mavjud. Ularni toʻliq ado etish har biridan oʻz burchlariga masʼuliyat bilan yondashishni talab etiladi. Jumladan oʻgʻil otaga bozordan oziq-ovqat, xoʻjalik mahsulotlarini xarid qilishga, yer chopish, ekin ekish, chorvachilik, dehqonchilik, polizchilik, qurilish ishlarida, toʻy-tantanalari va motam marosimlarini oʻtkazishda, xotin-qizlar uchun ogʻirlik qiladigan ishlarda yordam beradi. Qiz bola esa onaga hovli va xonalarni supurib-sidirish, taom tayyorlash, qish mavsumi uchun quritilgan mevalar, turli tuzlamalar, murabbolar tayyorlash, mehmon kutish kabi yumushlarda koʻmaklashadi va shu jarayonda oʻzi ham mustaqil hayotga tayyor boʻlib boradi.

Oiladagi mehnatning bajarilish vaqti, mazmuniga koʻra turli tarzda amalga oshiriladi. Yaʼni, kundalik yumushlar, qish, bahor, yoz, koʻzda bajariladigan mavsumiy ishlar, oilaviy marosimlar mehmon kutish, toʻy va bayram tantanalari, motam va xotirlash marosimlariga tayyorgarlik koʻrish va ularni nishonlash bilan bogʻliq yumushlar, mahalla, jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan ommaviy tadbirlar (hashar, obodonlashtirish ishlari, umumxalq bayramlariga

tayyorgarlik) bilan bog‘liq yumushlarda ishtirok etish. Ushbu mehnat turlari oila a‘zolari ichida teng va adolatli ravishda taqsimlanishi zarur. Ba‘zan ota-ona topshiriqni so‘zsiz toza, vijdonan bajaradigan farzandga oilaning aksariyat yumushini topshiradi. Erinchoq topshirilgan vazifani qo‘l uchida “Mendan ketguncha, egasiga yetguncha” qabilida bajaruvchi loqayd, ishyoqmas farzand esa chetda qoladi. Yoki, ota-ona shu o‘g‘lim yoki qizimga buyurgunimcha o‘zim bajarganim ma’quldir, farzand qilishi zarur bo‘lgan yumushlarni ham o‘zlari bajaradilar. Natijada bunday farzandlar ota-onani qadrlamaydigan, ishyoqmas, hayot qiyinchiliklariga bardoshsiz, oila yuritishga tayyor emas, og‘irning ustidan, yengilning ostidan yuradigan mehnatni sevmaydigan bo‘lib o‘sadilar. Natijada uddaburon farzand bilan hech narsa qo‘lidan kelmaydigan farzand, ota-ona, farzandlar, qaynona-qaynola, qayin uka-singil, opa, aka va kelin o‘rtasida nizo paydo bo‘ladi. Darhaqiqat mehnat taqsimotida ham o‘zgarishlar bo‘ladi.

Oilada mehnat madaniyatiga rioya etish uning samaradorligini ta‘minlovchi muhim omildir. Bolaga yoshligidanoq mehnat madaniyatini o‘rgatib borish ishida tartib bo‘lishini talab qilish muhimdir. Ota-ona quyidagi oddiy, lekin zaruriy narsalarni boladan talab etmog‘i zarur: ishlayotgan joyini yelim bilan iflos qilmaslik uchun qog‘oz to‘sha, yaxshisi maxsus taxtacha ishlat, ishing tamom bo‘lganidan keyin cho‘p-xatlaringni yig‘ishtir, yelimni barmog‘ing bilan emas, maxsus cho‘p yoki mo‘yqalam bilan surka. Tikish ishlariga kirishishdan oldin qo‘lingni yaxshilab yuv. Ovqat pishirishga yordam qilganingda yoki idish-tovoq, pol yuvganda beliga fartuk tut, soching xalaqit bermasligi uchun boshiga maxsus qalpoqcha kiy yoki ro‘mol o‘ra; ishni tamom qilganingdan so‘ng mehnat qurollaringni tartib bilan yig‘ishtirish, o‘rni o‘rniga qo‘y (chelak, bolg‘a, zarrachalarni ma‘lum bir joyga qo‘y); ip igna qaychi, pichoq, qog‘oz lattalarni bir qutichaga solib qo‘y; ish kiyimlaringni ma‘lum bir joyga osib qo‘y. Ishdan keyin yuz qo‘llaringni yuvib, art, bironta ish qilishga kirishar ekansan, albatta ish davomida kerak bo‘ladigan narsalarni oldindan tayyorlab qo‘y. Bu talablarni bajarishda ota-onaning o‘zi ham bolaga namuna ko‘rsatishi kerak.

Mehnat madaniyatini egallash, ish qurollarini ma‘lum joyda ma‘lum tartibda saqlash, saranjom bo‘lish, vaqtni tejash, ishni tez, sifatli va ozoda bajarish uchun katta ahamiyat ekanini bolaga tushuntirish zarur.

Xalq maqollarida aytilganidek: “Mehnat rohatning poydevoridir”, “Rohatning onasi- mehnat”, “Halol mehnat- huzur- halovat” , “Suvsiz hayot bo‘lmas, mehnatsiz rohat”, “Mehnatsiz rohat bo‘lmas, tashvishsiz ne‘mat”, “Halol mehnat– yaxshi odat, berur senga saodat”. Oilaning har bir a‘zosi zimmasidagi vazifa umumiy maqsadni ko‘zlab tashkil etilgan va uning natijalaridan barcha oila a‘zolari bahramand bo‘lgan taqdirdagina unday mehnat foydali hisoblanadi.



OG'IR NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI MODELLESH TIRISH

Sabirova Z.I.

Nizomiy nomidagi TDPU, "Logopediya" kafedrasida o'qituvchisi

Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitni modellashtirish maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim tizimida yangi ishlash texnologiyalari, usullari va shakllari ularning psixofizik rivojlanish xususiyatlari, o'ziga xos imkoniyatlari va sog'lig'i holatidan kelib chiqqan holda ish usullarini yaratish yo'llarini izlashga faol kirishildi. Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga maxsus ta'lim va davlat yordamining ichki tizimini rivojlantirishdagi o'tish davrining strategiyasi va taktikasi ta'limning yangi mazmunini loyihalashga qaratilgan.

Hozirgi kunda rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoya qilish — hayot faoliyatiga doir cheklovlarni yengib o'tish, ularning o'rnini qoplash (kompensatsiya qilish) uchun shart-sharoitlarni yaratish va ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kerakligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning ta'lim sharoitlarini rivojlantirish uchun mutaxassislarni maqsadli ravishda belgilab beradi. Ushbu toifadagi bolalarni o'rganish va o'qitish masalalari R.E.Levin, L.N.Efimenkova, T.A.Tkachev tomonidan amalga oshirildi. Nutqni shakllantirish masalalari E.I.Tikacheva, A.A.Leontyev, L.S.Vigotskiy tomonidan o'rganildi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni rivojlantirish muammosi V.Glukhov, T.Filicheva, L.Efimenkova, T.Tkachenko, N.Jukova kabi mamlakatlarning xorijiy olimlari tomonidan tadqiqotlarda o'rganib kelinmoqda.[2]

Muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili bir qator hal etilmagan masalalarni aniqlash imkonini berdi:

- rivojlanishning mujassam buzilishi mohiyatini yetarli darajada tushunmaslik mujassam nuqsonning tuzilishini tushunishga mazmunli yondashishni talab etadiki, bu, o'z navbatida, bolaning umumiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tarkibiy qismlar o'zaro ta'sirining intensivligi darajasini aniqlab beradi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida aniqlangan masalalar ular:

- turli birlamchi buzilish birikmalari mavjud bolalarga nisbatan "murakkab buzilish", "mujassam buzilish", "bir necha buzilish", "murakkab tuzilishdagi buzilish" tushunchalar

talqinining foydalanishga nomuvofiqligi, zamonaviy kasbga oid lugʻatda bu tushunchalar taʼrifiga oydinlik kiritish uchun bu bolalar xarakterologik xususiyatlarini oshkor etish, psixologik va pedagogik yordam vazifalariga oydinlik kiritish;

- ogʻir nutq nuqsoniga ega boʻlgan bolalar ruhiy rivojlanishining individual darajasini toʻlaqonli aks ettiradigan asosiy koʻrsatkichlarning yetarli ishlab chiqilmaganligi va oʻrganilayotgan toifadagi bolalarning buzilish va aqliy rivojlanish darajalarining oʻziga xosliklarini hisobga olgan holda rivojlantirish, taʼlim va tarbiya berish muammolarini hal qilish uchun tashkiliy-uslubiy yondashuvlar yaratishga talab ortib borish zarurati;

- amaliyotda yuzaga keladigan ogʻir nutq nuqsoniga ega boʻlgan bolalarning oʻquv ehtiyojlari va bu ehtiyojlarni qondirishning oʻziga xos amaliy imkoniyatlari, oʻz navbatida, korreksion-rivojlantiruvchi jarayonni taʼminlashda dasturiy, mazmuniy va metodik qoʻllab-quvvatlash masalalarini hal qilishda juda seziladi;

— korreksion-rivojlantiruvchi taʼsirning mavjud ilmiy-metodik ishlanmalari va bilish faoliyatini rivojlantirishga, ijtimoiy muhim koʻnikma va malakalarni shakllantirishga, rivojlanishda jismoniy yoki psixik nuqsonlari boʻlgan bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan taʼlim jarayoniga sharoit yaratuvchi psixologik-pedagogik yordamning integratsiyalashgan (yaxlit) tizimi mavjud emasligi.

Bizning fikrimizcha jismoniy yoki psixik nuqsonlariga ega boʻlgan bolalarga psixologik-pedagogik yordam koʻrsatish tizimini nazariy-uslubiy ishlab chiqish va asoslash, ushbu toifadagi bolalar rivojlanishining oʻzgaruvchan xususiyatlariga yetarlicha va uni turli maktabgacha taʼlim tashkilotlarida sinab koʻrish zarur deb hisoblaymiz. Alohida ehtiyojga ega boʻlgan bolalar ruhiy rivojlanishining individual darajasini aniqlash zarurati muhim deb hisoblab, taʼlim muhitida rivojlanishda jismoniy yoki psixik nuqsonlariga ega boʻlgan bolalarga korreksion yordam koʻrsatish samaradorligini taʼminlovchi psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratish zarurdir.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlarga ega boʻlgan bolalarning ruhiy rivojlanish darajasini yaxshilashga qaratilgan korreksion-rivojlantirish ishlari va bunday bolalarning jamiyatda hayot uchun zarur koʻnikmalarini shakllantirishda quyidagilarga asoslangan boʻlsagina yaxshi samara beradi:

- uslubiy, nazariy va amaliy boshlangʻich nuqtalarga asoslangan psixologik-pedagogik yordamning yaxlit, ilmiy asoslangan tizimi tushunchasi hamda rivojlanishida alohida ehtiyojga ega boʻlgan bolalar ruhiy rivojlanishining oʻziga xosligi haqidagi zamonaviy ilmiy gʻoyalar;

- sensor, nutqiy, harakat va ruhiy kamchiliklar imkoniyatini hisobga olgan holda rivojlanishida alohida ehtiyojga ega boʻlgan bolalarni psixologik oʻrganish uchun maxsus ishlab chiqilgan texnologiya;

- psixologik va pedagogik yordam tizimida psixologik-pedagogik texnologiyalarning birligi, zero, bu yerda psixokorreksiyaviy ishlar dolzarb bo‘lib, uning maqsadi rivojlanishning psixologik mexanizmlarini shakllantirishni faollashtirishdan iborat, rivojlanishida alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarning imkoniyatlariga mos bilim va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan pedagogik jarayon;

- ta‘lim jarayonini modellashtirish va tashkil etishda alohida yondashilgan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni amalga oshirish;

- rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlariga ega bo‘lgan bolalarda turli xil kasalliklar birikmasining o‘zgaruvchanligi, ularning og‘irlik darajasi va ruhiy dizontogenezning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda ruhiy rivojlanishiga korreksion va rivojlantiruvchi ta‘sirning uzluksizligini ta‘minlovchi shart-sharoitlarni yaratish;[1]

- rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlariga ega bo‘lgan bolalar ruhiy rivojlanishining ko‘p darajaliligini hisobga olgan holda individual korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni ta‘lim jarayoniga joriy etish, ta‘lim va tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalanish zarur.

Hozirgi kunda rivojlanishida alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar ishlab chiqilgan:

- L.S.Vigotskiyning nuqsonli rivojlanishning murakkab tuzilishi haqidagi ta‘limotiga ko‘ra, bitta analizator buzilishi yoki intellektual buzilishning mavjudligi bir funksiyani yo‘qotishga emas, aksincha, bir-biriga bog‘liq bo‘ladigan bir qator kamchiliklarga olib keladi, shuning uchun tipik, o‘ziga xos rivojlanish haqida to‘liq tasavvur hosil bo‘ladi;[4]

- L.S.Vigotskiyning bolaning bevosita rivojlanishining haqiqiy dolzarb darajasi va sohasi haqidagi g‘oyalari bolaning salohiyatini amalga oshirish uchun muhit hisoblanib, rivojlanishning eng to‘g‘ri yo‘nalishini tanlash va bolalarning rivojlanishi, ularning ta‘lim olish imkoniyatlari o‘rtasidagi to‘g‘ri nisbatni belgilab beradi;

- korreksion va rivojlantiruvchi ta‘sirning strategik chizig‘ini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan me‘yoriy va buzilgan rivojlanishi mavjud (L. S. Vigotskiy, V. I. Lubovskiy) bolalar ruhiy rivojlanishining umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlari haqida nazariy ta‘limot;

- T. A. Basilova, T. A. Vlasova, L.A.Golovchis, Ye.L.Goncharova, T.V.Rozanova, V.N.Chulkova va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan rivojlanishda murakkab buzilishlar haqidagi zamonaviy tavsiflar;[2]

— rivojlanishda buzilishlar jiddiyligini baholashning darajaviy yondashuvi (R. E. Levina, I. Yu. Levchenko, U. V. Ulenkova);

— umumiy ta‘limning maxsus federal davlat standarti (N.N.Malofeev, Ye.L.Goncharova, O.I.Kukushkina, O.S.Nikolskaya) tamoyillarida aks etgan imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishni tashkillashtirish va mazmunini belgilashning darajaviy yondashuvi;[3]

- bola ruhiy rivojlanishining uning tarbiyasi va ta'lim olishi bilan uzluksizligi nazariyasi (L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, A.V.Zaporozhes, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn. D.B.Elkonin va boshqalar);[4]

- rivojlanishda kompleks buzilishi bo'lgan bolani tarbiyalovchi oilaga psixologik yordam ko'rsatishning nazariy asoslari (S.D.Zabramnaya, I.Yu.Levchenko, E.I.Leongard, V.V.Tkacheva va boshqalar).

Adabiyotlar:

1. Abidova N. Z. Forming the System of Reader's Abilities in Primary-School Pupils with Visual Impairment at Reading Lessons //www. auris-verlag. de. – 2017.

2. Басилова Т.А., Н.А. Александрова Как помочь малышу со сложным нарушением развития: Пособие для родителей / Т.А.Басилова, Н.А. Александрова. - М., 2008. -112с

3. Малофеев Н.Н., Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И., Никольская О.С. Специальный федеральный государственный стандарт общего образования детей с ограниченными возможностями здоровья: Основные положения концепции. - М., 2002. — 13 с

4. Выготский Л.С. Основные проблемы современной дефектологии // Психология детей с отклонениями и нарушениями психического развития / Сост. и общ. Ред. В.М. Астапова, И.В. Микадзе. - СПб., 2002. С. 10 - 47.



МОДЕЛЬ РАЗВИВАЮЩЕЙ ПРЕДМЕТНО-ПРОСТРАНСТВЕННОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МЕЛКОЙ МОТОРИКИ В ПРОЦЕССЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА

Савельева Т.А.

*Московский городской педагогический университет институт педагогики и психологии образования, Магистрант 2 курса, группы «Раннее детство»
tanya.ermilina18@mail.ru*

Аннотация: Автор статьи, ссылаясь на важность развития мелкой моторики у детей раннего возраста, предлагает описание проекта по созданию модели развивающей предметно-пространственной среды в группах дошкольных образовательных организаций. Данная статья предназначена для студентов педагогических вузов, педагогического персонала дошкольных образовательных организаций, также будет полезна родителям детей раннего возраста.

Ключевые слова: мелкая моторика, ранний возраст, модель РППС, игры, дидактическое оборудование. В процессе реализации эмпирических задач исследования одним из направлений нашей работы стала разработка модели развивающей предметно-пространственной среды (РППС) для развития мелкой моторики у детей раннего возраста.

Мелкая моторика — совокупность скоординированных действий нервной, мышечной и костной систем, часто в сочетании со зрительной системой в выполнении мелких и точных движений кистями и пальцами рук. В раннем возрасте по уровню развития мелкой моторики можно определить общий уровень развития ребенка и развитие его умственных способностей. Автор доказывает, ранний возраст является наиболее эффективным для усвоения способов действия с предметами. Развитие мелкой моторики оказывает положительное влияние на развитие речи ребенка, которое зависит от сформированности тонких движений пальцев рук.

Модель РППС нужна для того, чтобы определить эффективность образовательного процесса в учреждении дошкольного образования, создать благоприятные условия для развития личности и деятельности детей раннего возраста.

Цель проекта по созданию модели развивающей предметно- пространственной среды является разработка модели организации по развитию мелкой моторики у детей раннего возраста.

Для разработки проекта необходимо выполнить ряд задач, такие как:

- Выделение структурных компонентов модели по развитию мелкой моторики у детей раннего возраста.
- Выявление связей между структурными элементами модели РППС по развитию мелкой моторики у детей раннего возраста.
- Разработка модели РППС по развитию мелкой моторики у детей раннего возраста.

Нами были определены методы педагогического проекта, в которые входят анализ, синтез и моделирование.

Разработка модели развивающей предметно- пространственной среды для развития мелкой моторики у детей раннего возраста проходила в 3 этапа:

- подготовительный;
- основной;
- заключительный.

На подготовительном этапе был составлен перечень игрушек и дидактического оборудования. К такому оборудованию относятся: деревянные кубики, деревянные пирамидки, домино, матрешки, сюжетно-ролевые игрушки, конструктор из крупных деталей, тесто для лепки, деревянные пазлы, волчки, игры-шнуровки, сенсорная книжка. Мы определили, что в группе дошкольной образовательной организации необходимо иметь по два-три набора игрового оборудования каждого вида. Однако, есть предметы, которые должны рассчитываться на количество детей в группе, такие как тесто для лепки, пластилин, цветные карандаши.

Ссылаясь на Федеральный государственный стандарт дошкольного образования нами были подобраны принципы, обеспечивающие взаимосвязь элементов и целостность модели, которые представлены на рисунке 1.



Рис. 1 Принципы взаимосвязи элементов модели РППС для развития мелкой моторики у детей раннего возраста

На схеме представлено определение понятия «РППС» в соответствии с ФГОС ДО, цели, задачи и характеристики (принципы) РППС для развития мелкой моторики.

На 2 этапе был осуществлен процесс проектирования. В основу модели была положена метафора механизма (шестеренки). Каждая шестеренка обозначала отдельный самостоятельный структурный компонент модели: время, место, игрушки. Зубцы шестеренок представляют собой частные структурные компоненты каждого из основных элементов.

Первый (основной) элемент «игрушки» представлен частными элементами: сенсорные, дидактические игры, настольные игры, технические игрушки, иллюстративные материалы.

Второй элемент «время» представлен следующими частными элементами: время реализации проекта (1 учебный год), продолжительность занятий (10-15 мин.), форма работы (групповая, фронтальная), периодичность занятий (1р./нед.), регулярность использования игрушек (постоянные, временные)

Третий элемент «место» представлен такими частными элементами: мебель и предметы для хранения в групповом помещении (стеллаж, контейнер, шкаф, корзина, комод), улица (веранда, песочница).

Таким образом, можно сделать вывод, что для развития мелкой моторики у детей раннего возраста, необходимо создать необходимые условия, которые позволят ребенку развивать способности и удовлетворять потребности творческого развития. Правильно организованное пространство является одним из главных условий работы современных дошкольных организаций.

Литература:

1. Захарова Т. Н. Управленческие аспекты проектирования среды детского сада для работы с детьми раннего возраста / Т. Н. Захарова // Дошкольное и начальное образование: многообразие подходов – Ярославль: Ярославский государственный педагогический университет им. К.Д. Ушинского, 2020. – С. 98-103
2. Федеральный Государственный образовательный стандарт дошкольного образования [Текст]: утвержден приказом Министерства образования и науки Российской Федерации от 17 октября 2013г., №1155 / Министерство образования и науки Российской Федерации. – Москва: 2013г
3. Мохначевская Л. А. Мониторинг качества образовательной среды в группах раннего возраста / Л. А. Мохначевская, А. В. Николаева // Проблемы современного педагогического образования. – 2021. – № 70-4. – С. 255-258



INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Sadikova D.X.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi*

egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etadi, maktabda o'rganiladigan tabiiy fanlarni o'zlashtirib olishni osonlashtiradi. Tabiat to'g'risidagi bilimlardan bexabar bo'lish ko'pincha o'simlik va hayvonlarga nisbatan noto'g'ri, ba'zi hollarda esa berahm va shafqatsiz munosabatda bo'lishga olib keladi. Ekskursiya bolalarni tabiatni o'ziga xos hodisa va voqealari bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu bilan qatorda insonlarni tevarak-atrofdagi o'zgartiruvchi faoliyatining natijalari bilan ham tanishtirib boriladi. Bu esa kishilarning yaratuvchanlik faoliyatiga hurmatini tarbiyalaydi va unda qatnashish xohishini uyg'otadi, o'z o'lka tabiatidan, unda yashovchi mehnat ahlidan g'ururlanish hissini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi tilga olingan barcha metodlar va usullar bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ularni yanada sinchkovlik bilan kuzatishga, kuzatayotgan narsa ustida chuqurroq o'ylashga, fikr, bilim doirasini kengaytirishga, har xil tabiiy voqea, hodisalarni so'z bilan chiroyli qilib to'g'ri ifodalab berishga o'rgatadi.

Adabiyotlar:

1. Chechurin, L., & Borgianni, Y. Understanding TRIZ through the review of top cited publications // Computers in Industry. — 2016. — № 82. — С. 119–134. — doi: 10.1016/j.compind.2016.06.002.

2. Fiorineschi, L., Frillici, F. S., & Rotini, F. Enhancing functional decomposition and morphology with TRIZ: Literature review // Computers in Industry. — 2018. — № 94. — С. 1–15. — doi:10.1016/j.compind.2017.09.004 .

3. Соболев, П. А. Как научиться изобретать. — Ужгород : Карпати, 1973. — 128 с. — 25 000 экз. — ББК С54. — УДК 601^(G).

4. Половинкин, А. И. Основы инженерного творчества: Учеб. пособие для студентов вузов / Приложение 2. Межотраслевой фонд эвристических приёмов преобразования объекта. — Москва : Машиностроение, 1988. — 368 с. —



MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDA O'YINNING TUTGAN O'RNI

Usmonov Sh.T.

NavDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedirasi katta o'qituvchisi

Yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit

va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda. Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va, ayniqsa, internet tizimi bizdan ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur^[20].

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarni kelgusi zamonga mos qilib tarbiyalashda o'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi mavjud. O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni "bolalikning hamrohi" deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilardi.

Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. "Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega— deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, — insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan".

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o'yin – bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. YA.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi.

P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

SHunday qilib o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim.

1. O'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish

²⁰ Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.: O'zbekiston, 2017 y. 47-bet

2. O'yinda bolalarning bo'lajak mehnat ahliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv [faoliyati rivojlanadi](#), bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Shunday qilib MTTning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi.

Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir. Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "MTT ta'lim va tarbiya dasturi"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTTning ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash [jarayoni yuzaga keladi](#), bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi.

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, taffakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib bolaning umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat, so'zlab berish va hakoza.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona [munosabatlarni tarbiyalashda](#), jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqlarini javobgarligini sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iborat.

O'yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o'z o'yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar. Bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga mehnatiga bo'lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O'yin bolada ko'pincha mehnat qilish xohishini uyg'otadi, o'yin uchun kerakli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. O'yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo'lgan texnikaga qiziqish paydo bo'ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o'yinchoqlar bilan o'ynaydilar.

Xulosa shuki, bu vazifalarni hal etishda o'yin bolalar bog'chasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. O'yinda bolalarning mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o'rgatiladi. Ikkinchi tomondan, o'yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko'chiriladi.

O'yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o'yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O'yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg'ulotlardan so'ng, sayrlardan so'ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o'ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o'yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko'proq didaktik o'yinchoqlar, stol ustida o'ynaladigan stol-bosma o'yinlari, syujetli-rolli o'yinlarni o'ynagan ma'qul.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2012 yil 28 dekabrda "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № 365 sonli Qarori.
4. Shavqiddin Toshmatovich Usmonov "Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish" "Uzliksiz ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnal Toshkent 2021 yil
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom. Ushbu Nizomga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son va 2013 yil 13 dekabrda 470-sonli buyrug'lari bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1981-2 - son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan. (O'R QHT, 2013 y., 50-son, 659-modda).
6. Shavqiddin Toshmatovich Usmonov " Matematik tasavvurlarni shakllantirish " amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda didaktik o'yinlardan foydalanish. Navoiy 2021-yil

ZAMONAVIY INFORMATSION VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI

Usmonova D.A.

*Navoiy davlat pedagogika instituti, “Pedagogika va psixologiya” yo‘nalishi
4 kurs talabasi*

Bugungi kun kadrlari rivojlangan demokratik davlat talablari darajasida bo‘lishi, mamlakatimizda mutaxassislarining malakaviy darajasi jahon tajribasida qabul qilingan talablarga to‘la javob berishi lozim. Ta‘lim tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi pedagoglarni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini zamonaviy informatsion vositalardan foydalanish va o‘z bilimlarini har qanday muammoni yechishga qo‘llay olishlariga o‘rgatishdan iborat.

Fan va texnikaning rivojlanishi yangi pedagogik texnologiyaning maqsadi o‘zgarishiga olib keladi. Ta‘lim-tarbiya sohasida ham yangi uslublar ishlab chiqishini talab etadigan va ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga mutaxassis xodimlari shaxsini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy multimedia tasvirli, axborotli, audiovizual, masofaviy o‘qitish vositalari kirib kelganki, ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantiradi.

Yangi pedagogik texnologiya inson ongini shakllantirish, talabalarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish jarayonida murakkab tarzda pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan boshqa texnologiyalardan farqlanadi.

Hozirgi pedagog-tarbiyachi ishlab chiqarish taraqqiyotining kelajagi, yo‘l- yo‘riqlari va xususiyatlarini bilishi, shu bilan birgalikda o‘zi yashab turgan xalqning an‘analari va urf-odatlaridan xabardor bo‘lishi lozim. Aholining ruhiyatini, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy, huquqiy, maishiy, oilaviy odatlari haqida yangi axborot olib turishi va buni o‘z ta‘lim tarbiyaviy ishlarida foydalanishi axborot texnologiyasini vazifalaridan biridir. Bu yangicha mazmun — axborotlarni o‘quvchilarga ma‘lum vaqt chegarasida yetkazish jarayonini tezlashtiruvchi omillaridan biridir. Asosiy e‘tibor hozirgi zamon talablari asosida ishlay oladigan maktablar, bolalar bog‘chalarida ijodkorlik, izlanuvchanlik bilan mehnat qilish, tajriba va sinovlar o‘tkazishdan cho‘chimaydigan, ta‘lim sohasidagi islohotlar yo‘nalishi va mohiyatini chuqur anglaydigan, o‘z kasbiga sadoqatli o‘qituvchi va tarbiyachilarni tarbiyalab berishga qaratilmokda.[1]

Har qanday kadrlar rivojlangan demokratik davlat talablari darajasida bo‘lishi, mamlakatimizda mutaxassislarining malakaviy darajasi jahon tajribasida qabul qilingan talablarga to‘la javob berishi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta‘lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta‘minlash rivojlanadi. Axborot texnologiyasining yana bir maqsadi insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish bilan birga umumiy emas, aniq bir shaxs tarbiyasiga qaratilgandir. Ya‘ni hozirgi har bir o‘quvchining va talabaning boshqa zarur sifatlardan tashqari

mustaqil, erkin, hur fikrli bo‘lib voyaga etishga butun diqqat e’tibor qaratilgan. Hozirgi yangi pedagogik texnologiya, ta’lim standartlari, ular asosida tayyorlanayotgan darsliklar va qo‘llanmalar o‘zining mazmun-mohiyati bilan yoshlarning ana shunday mustaqil fikrli qilib tarbiyalashga qaratilgan.[2] Axborotlarni qabul qilib qayta ishlash va yangi axborotni yaratish bilan shug‘ullanuvchi texnologiyalarni kompyuter asosida joriy etish yangi axborot texnologiyalarini vujudga keltiradi.

Yangi axborot texnologiyalari o‘quvchilarga axborotni noan’anaviy manbalariga murojaat qilish imkoniyatini ochib beradi. Mustaqil ishlari samaradorligini oshiradi va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun keng imkoniyat beradi. axborot texnologiyalariga qo‘yilgan didaktik maqsadlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarga o‘qitishning turli shakllaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Zamonaviy yangi axborot texnologiyalaridan foydalanar ekan, o‘qituvchi kompyuterlashtirilgan o‘qitish va nazorat qilish dasturlarini o‘z talabiga ko‘ra o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yangi axborot texnologiyalari o‘qituvchi va o‘quvchilarni bilim olish yo‘lidagi asosiy omillardan hamda axborot bilan ta’minlanganlik darajalarini oshiribgina qolmay, balki deyarli butun dunyodagi hamkasblar bilan muloqot qilishdek ajoyib imkoniyatga ega bo‘lib bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Xudoyqulov X.J. Pedagogik texnologiya ta’lim samaradorligining asosidir. – T.: Navro‘z, 2012 y.
2. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 y
3. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000.
4. Xasanboyev J, To‘rakulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.



DUDUQLANISH NUTQ NUQSONLI BOLALAR BILAN LOGOPEDIK ISHNI TASHKIL QILISH

Utbasarova U.M.

*Toshkent viloyati, Qibray tumani 5-umumta’lim maktabi
logopedi*

Hozirgi kunda maktab yoshidagi bolalar orasida duduqlanish nutq nuqsonli bolalar ko‘p uchramoqda va bu ko‘rsatkich yildan yilga ortib bormoqda. Duduqlanish nafaqat yakka balki boshqa nutq kamchiliklari duduqlanish va nutqning to‘liq rivojlanmasligi bilan birgalikda kuzatilmoqda. Bu

nutq nuqsoni bosh miyaning yaqqol sezilmagan mikro organik jarohatlanishi natijasida nutqning fonetik va prosodik komponentlarini buzilishi bilan namoyon bo'ladi. hozirgi kunda duduqlanish murakkab nutq nuqsoni bo'lib dunyoning turli ilmiy amaliyotchilari tomonidan nazariy va amaliy jihatdan o'rganib kelinmoqda.

Logopediyada duduqlanish bilan ishlash usublari N. Pravdina-Vinarskaya, YE.M. Mastjukova, L.M. Shipitsina, I.I. Mamaychuk, I.I. Panchenko, L.V. Lopatina, I.Y. Levchenko, O.G. Prixodko, T.G. Vizelning mehnatlarida ko'rsatib o'tilgan. hozirgi kunga kelib duduqlanishni o'rganishda uni nevrologik, logopedik va psixologik aspektlarni qamrab olgan holda izlanishni talab qiladi. Bu nuqsonning ko'p tarqanligi duduqlanishga defferensial tashxis qo'yish va logopedik ishni to'g'ri tashkil etishdagi muammolarni keltirib chiqardi [2]. G.G.Gutsman, O.V.Pravdina, L.V.Melexova, O.A. Tokarevaning qilgan ishlarida duduqlanish simptomatikasida artikulyatsiyadagi "smitost", "stertost" kuzatilishi yoritib o'tilgan. Mualliflar duduqlanish dislaliyaga o'xshab ketganligi sababli ko'pincha noto'g'ri tashxis va logopedik ishni sistemali olib borishdagi xatoliklarga olib kelishi aytilgan. L.V.Lopatina, N.V.Serebryakova, E.Y.Sizova, E.K.Makarova va YE.F.Sobotovichni qilgan mehnatlarida duduqlanishga to'g'ri tashxis qo'yish va logopedik ishni olib borish ishlari keng yoritilgan.[3]

Duduqlanuvchi bola bilan logopedik korreksion ishni olib borishdan oldin uni psixolog pedagogik va logopedik tekshiruvdan o'tkazish olib borilishi kerak bo'lgan korreksion ishni to'g'ri tashkillashtirish va nuqsonni bartaraf etish samaradorligini oshiradi.

Klinik pedagogik klassifikatsiya boladagi nutq nuqsonini turi va har bir bolaga individual yondashuvni va logopedik ishni to'g'ri tashkil qilishda katta yordam beradi. Psixolog pedagogik tizim mutaxassisni birinchi navbatda muomala vositalarining buzilishiga yoki uni qo'llashdagi buzilishlarga ahamiyat berishni keyinchalik, logopedik ishni yakka yoki guruhli tarzda olib borishni to'g'ri tashkillashtirishni talab etadi.[1]

Sistemashtirolgan va to'g'ri olib borilgan kuzatuv natijasida mutaxassis tomonidan bu nutq komponentlaridan qaysi birida buzilish borligi va tashxisni tug'ri qo'yilishini ta'minlaydi.

Duduqlanish namoyon bo'lishiga qarab logoped o'z ishini tashkillashtiradi. Logoped ish davomida bir guruhga kiruvchi tovushlar talaffuzidagi buzilishlar kuzatilganda bolaga tovushni qo'yish va tovushni spontan nutqda mustahkamlash, zarurat tug'ilganda akustik va artikulyatsion jihatdan o'xshash tovushdan farqlash maqsad qilib qo'yyadi. Duduqlanish nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda esa logoped nafaqat tovush qo'yish va mustahkamlash balki fonematik idrok, tovush bo'g'inni to'laqonli analiz va sintez qilish malakalarini egallaydi. Shu bilan birgalikda bola yoshiga qarab nutqning leksik, grammatik va bog'langan nutqi rivojlantiriladi.[5]

Ilmiy izlanishlarni tahlil qiladigan bo'lsak duduqlanishda bolalarda tovushdan tovushga, bo'g'indan bo'g'inga o'tishda qiyinchiliklar nutqni leksik va grammatik buzilishlari bilan birgalikda

kuzatiladi. Nutqni tovush talaffuzi tomonidan buzilishi katta qiyinchiliklar bilan tovushni nutqiga qo'yishni talab etadi. Bu bolalarda nutqni leksik va grammatik qurilishidagi buzilishlar bolada suz yasash malakalarining yaxshi shakllanmaganligi maktab dasturini o'zlashtirish va ikkilamchi nutq kamchiliklari disleksiya va dizgrafiyaning keltirib chiqaradi.

Maktabda logopedlik ishni to'g'ri tashkil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Tekshirish
- ✓ Oldini olish
- ✓ Korreksion pedagogik
- ✓ Tashkiliy uslubiy
- ✓ Maslahat
- ✓ Nazorat, baholash

Bu keltirilgan ko'rsatmalarni bittasini bajarmaslik xam oldimizga qo'yilgan maqsadni to'laqonli amalga oshirishga xalaqit beradi. Bu keltirilgan vazifalarni hammasi umumiy tamoyillarni bazasi hisoblanadi.

- ✓ Yakkalik
- ✓ Ko'pqirralilik
- ✓ Komplekslilik
- ✓ Korreksion pedagogik ishda tizimlilik

Yakkalik logoped ishida har bir bolaga alohida yondashgan holda nutq kamchiligini to'laqonli o'rganish va nutqda kuzatilayotgan o'zgarishlarni tahlil qilishga yordam beradi. (G.A.Volkova, B.M. Grinshpun, G.A.Kashe, S.A.Mironova, V.I.Seliverstov, T.B.Filicheva, M.F.Fomicheva, N.A.Cheveleva, G.V.Chirkina va boshq.).[4]

Ko'pqirralilik logopedlik ishda nafaqat nutqni korreksiyalar balki har bir bolani individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda uni shaxs sifatida har tomonlama shakllantirishni maqsad qilib oladi.

Komplekslilik logopedlik ishida faqatgina logoped emas psixolog, o'qituvchi va ota onaning hamkorlikda olib borgan hamjihatlikdagi turli o'yin ko'rinishidagi ta'siri natijasidir.

Tizimlilik logoped ishida eng asosiy tamoyil bo'lib bunda rejalashtirilgan ketma ketlik asosida har kuni olib borilgan logopedlik korreksion ishdir.

Duduqlanish nuqsonli bolalarda nutqiga qo'yilgan tovushni mustahkamlashda tovushdan tovushga va bo'g'indan bo'g'inga o'tishdagi muammolarni yuzaga keltiradi. Bu muammolar o'z navbatida ikkilamchi nuqsonlar o'qish va yozuvdagi kamchiliklarni yuzaga keltiradi. hozirgi kunga kelib ko'p yillik ish tajribamga tayangan holda bolardagi muammolarni bartaraf qilishda nutqni davolovchi fonetik ritmlash orqali qayta qurish uslubini qo'llash yordamida ko'plab bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bunda bola tovushni mustahkamlash uchun berilgan materialni o'zlashtirishda har

bir bo'g'inni tugashida ochiq bo'g'inda bo'lishiga ahamiyat beradi. Bu uslub yordamida bola barcha fonemalarni artikulyatsiyasini, so'zdagi o'rnini, ketma ketligini va ohangini idrok qilib oladi. Bu o'z navbatida bolada xotiraning, idrokning, analiz va sintez qilish qobiliyatini oshiradi. Bola har bir so'zni to'liqligicha oxirigacha tovushlarni yutib yubormasdan talaffuz qilishga o'rganadi. Bolaga uyga berilayotgan vazifa xuddi shu tartibda ochiq bo'g'inlarda yozib berilsa, bola mustaqil ravishda o'qish orqali o'qish tezligi va chiroyli o'qish malakalari shakllanib boradi. Bolada o'qish va yozuvdagi qiyinchiliklar asta sekin yo'qolib ketadi. Bunda bolaga berilayotgan material quyidagicha yoziladi.

Bi-r pi-yo-la cho-y ka-bi

Bu-lu-t o-y-ni xo'-p-la-di

To-vu-q be-ka ka-ta-k-ka

Jo'-ja-la-r-ni to'-p-la-di

Bu uslub yordamida qisqa muddatlarda nutqqa qo'yilgan tovushni mustahkamlashga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Abidova N.Z., Utbasarova U.M. Maktab yoshidagi dizartriya nutq nuqsonli o'quvchilar bilan logopedik ishni tashkil qilish va nutqini davolovchi fonetik ritmlash orqali qayta qurish //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 5. – №. 1. – С. 78-84.
2. Абидова Н.З., Утбасарова У.М. Организация логопедической помощи для детей с заиканием //Pedagogs jurnali. – 2022. – Т. 5. – №. 1. – С. 85-91.
3. Архипова, Е.Ф. Коррекционно-логопедическая работа по преодолению стертой дизартрии у детей. -М.: АСТ: Астрель, 2008. –128-134с.
4. Ауурова М.У. Logopediya. –Т.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2007
5. Лопатина, Л. В. К вопросу о стертых формах дизартрии / Со-вершенствование методов диагностики и преодоления нарушений речи. -Л., 1989-С.93-97.

ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Файзуллаева З.А.

Узбекистан. НавГПИ 1 курс магистратура

В нашей стране брать осуществляется широкий всесторонний реформы выше образование также ограничение системы не прошел. Точно это в системе внимание внимание больше, чем когда - либо важный. Потому что образование качественный увеличить , выше повышение квалификации земли материально-техническое основание укрепить,высокий в

образовании покрытие тобора увеличивать Такие как дела нашей земли в мире передовой состояния в ряд на выходе важный важность профессия достигает.

Последние 3 года в течение в нашей стране образование управление а также разработка механизмы улучшение проблемы системно-инновационный подход с участием состояние достигать сосредоточенный нормативно-правовой документы делается. Вот и все из документов один - 20 апреля 2017 г. «Высокий образование система более разработка меры Постановление № 2909 от [1] наша страна социально-экономический разработка о подходящие функции подходящие без международного стандарты уровень выше квалифицирующий эксперты подготовка для необходимо условия создавать а также университеты материал техник основание увеличивать оказание услуг делает. Также наше государство Президента от 5 июня 2018 года, «Высокое образование в учреждениях образование качественный увеличивать а также их в стране вместо увеличение широкий всесторонний в реформах активный участие предоставлять на дополнительный меры на [2] образование система новый сцена брать вышел, так сказать преувеличение не произойдет. Персонал в процессе подготовки важный шаг перечислены это документ выше образование система разработка для достаточно условия быть созданным основа в частности, в решении выше образование в учреждениях образование качественный увеличивать задавать стали подходящий а ряд проблемы сегодня столкнулся болезненный точки ликвидировать достигать меры параметр был дан.

Кроме того, «Действия Стратегия» подготовка смысловое содержание радикально обновление, международный стандарты уровень выше квалифицирующий эксперты подготовка для необходимо условия создавать дверь важный вопросы также инструкции по параметр приведен [3].

Анализ литература и методология:

Сегодня выше образование в системе образование обработать инновационный технология с участием сформированный достигать время спрос это-текущий образование получение будущее педагоги профессиональный компетенции имеет который был без время требования знание с участием вооруженный быть должен.

Высоко образование в системе есть требования история искусства в направлении стипендия получение студенты для сформированный существование живописный изобразительное искусство повышение квалификации обработать модернизация делать, будущее художники-педагоги, специалисты подготовка качественный увеличивать а также их профессиональный компетенции:

- Специализационные знание с участием вооружение;
- научно-технический знание имеет быть;

- Информация коммуникация технологии;
- от инноваций независимый, творческий подошел без использовать;
- настроен на цель движение делать;
- Перспективный планы, задачи сможет сделать получать навыки и умения образование важный.

У студентов профессиональный знание образование все виды деятельности с участием взаимный в зависимости от образовательный виды деятельности органический не принимая преемственность обеспечение также важно.

Обсуждение:

Высоко образование в учреждениях живописный изобразительное искусство в классах повышение квалификации обработать сформированный добраться:

- Передовой педагогический технология приложение;
- их дидактический с точки зрения предоставить;
- учебно-методическая гости качество, пригодность аспект увеличить;
- образование от ИКТ и глобальной сети в процессе разумный использовать;
- Информация ресурсы новый книги поколение с участием обогащение а также повышение квалификации из литературы использовать обработать более развитие;
- в поле иностранный опыт а также новости с участием постоянный введение превратить студенты следующий педагогический деятельность инновационное с точки зрения подготовка критерии определяет.

Над утверждение сообщил от мыслей по-видимому высокий образование система, в частности, изобразительная изобразительное искусство направление модернизация - современный, продвинутый, обновленный, быстрый рост значения с указанием объекта новый требования а также стандарты, технические инструкция, качество индикаторы так как обновить перечислены. Повышение квалификации к процессу относительно инновационный подход требовать делает. Следовательно для живописный из искусства знание дать в процессе инновационный подход идея образование содержание а также Результаты человеку ориентация, образование содержание, форма, метод а также инструменты вентилятор и техника прошлой достижения, продвинутый эксперименты современный образование методы с участием гармонизировать ориентация с участием традиционный подход разница делает.

Образование в процессе применяемый как инновации информация а также методичный поставка при условии в зависимости. В процессе передовой опыт исследование, анализ сделать а также обобщать а также на практике приложение, современный информация а также

педагогический технология использовать через повышение квалификации обработать улучшать требовать достигает.

Высоко образование в учреждениях живописный изобразительное искусство уроки сформированный из эффективный формы один отчет выглядит следующим образом в выступлениях сформированный быть сделано вы можете:

- Проблемный отчет;
- Лекция- семинар;
- Виртуальные технологии отчет;
- Виртуальная речь;
- Бинарный отчет;
- Введение отчет;
- Лекция - конференция;
- Познавательный отчет;
- Спорный отчет;
- Комментатор отчет;
- Online лекция.

Теоретический в обучении пот, видео обучение, вебинары, интернет конференции, инновации обучение методы так как ЭСА проблемный обучение методы, инертные методы, практические игры, обучение проекты, портфолио, графика оргазмеры из ИКТ использовать нужно вместо увеличивается.

Результат:

Визуальные искусства практичные повышение квалификации сформированные достигать в процессе интерактивные методики, презентации, практические из образцов, со скамеек использовать рекомендуемые даны.

Теоретический а также практичный повышение квалификации интерактивный образование формы использовал даже достигать возможно. Слово интерактивный английский от слова полученный а «интер» взаимно а «действовать» - это действие сделать установлено [4], такие взаимный движение виды «ученик-преподаватель», «ученик-ученик», «ученик-ученик» и.др. индивидуально, в парах, в группах а также коллектив целевой вместе представление разновидность показывать возможно.

Вместе, взаимно активный обучение в процессе образование передатчик повышение квалификации виды деятельности активный участник образование получатель это деятельность тема так как показывать будет. Обучения это тип знать виды деятельности базовый формы образование получатель от объекта взаимный сотрудничество к теме повороты а также повышение квалификации в процессе активный участие достигает.

Интерактивный в обучении жизненно важной ситуации модель, роль игры в виде сформированной проблемы в сотрудничестве видеть будет отображаться. Это процесс у студентов активность, творчество, самостоятельность формирование не только образование цели полный вместо также помогает увеличить дает.

Заключение:

На этом студенты, будущее педагоги следующий компетенции имеет фундаментальная основа их существования будет:

Быть активным участником учебного процесса;

- достижение основных результатов образовательной деятельности;

- изучение самостоятельного мышления;

- творческое решение практических задач;

- действовать самостоятельно;

- выполнять учебные задания самостоятельно и совместно;

- выражать независимое мнение;

- подготавливает основу для формирования личностных познавательных навыков.

Литература:

1. Мирзиёев Ш.М. Высоко образование система более разработка меры 20 апреля 2017
2. Мирзиёев Ш.М. Высоко образование в учреждениях образование качественный увеличивать а также их в стране вместо увеличение широкий всесторонний в реформах активный участие предоставлять на дополнительный меры на PQ-3775 от 5 июня 2018 г.
3. *В 2017-2021 гг. Узбекистан Республики разработка пять устувор направление стратегия действий .*
4. Ханбобоев Х.О. Описательный Изобразительное искусство в обучении интерактивный методы ус.Т.: Молодой ученый. - 2016. - №3.1. - С. 22-23.
5. Толипова Ю.О. Педагогический квалиметрия.Т.: 2015.
6. Мирсолиева М.Ибрагимова Г. Образование технологии а также педагогический мастерство Т.: 2015г.
7. Э.Г. Пиримовна Инновационные образцовые возможности Амира Темура в организационных способностях формирования молодежи. европейский научный журнал 1 (4), 12-14.
8. Мавлюда Борисовна Кубаева. Внедрение наглядно-дидактических игр в экологическое воспитание студентов дошкольных образовательных организаций. // текущий научный журнал филологических наук, 2022-01-12.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHIDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH USLUBIYOTI

Fayzullayeva M.Z.
MTTDMQTMOI "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrasi, katta o'qituvchisi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun badiiy adabiyotining o'rni juda muhimdir. Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha maktabga tayyorlov guruhiga mos kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlarini belgilab ko'rsatilgan. Mazkur kutilayotgan natijalarni bolalarda rivojlantirish uchun turli shakllarda ta'limiy faoliyatlar tashkil etiladi.

Maktabga tayyorlov guruhida ta'limiy faoliyatlarda kutilayotgan natijalar asosida tashkil etilgan ta'limiy faoliyatlarda tarbiyachi badiiy asarlarni tahlil qilishdan keng foydalanadi. Bolalar asarni tahlil qilish orqali adabiy janrlarni, ularning xususiyatlarini tushunishga, ertak va hikoyalarni, she'rlarning ifodali tilini his etishga, bolalar adabiyoti janri nomini farqlashni(ertak, she'r, hikoya), badiiy asarlar qahramonlari hissiyoti haqida gapirishni o'rganadilar.

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatlarda tarbiyalanuvchilarning yozuvchi va shoirlar nomini bilishlariga, tanish asarlarni mustaqil s'zlab berishlariga, ertak, hikoyalarni sahnalashtirishda ishtirok etishlariga undab boradi.

Tarbiyachi bu guruhda mashg'ulotni boshlashdan avval bolalarni adabiy asarni idrok etishga tayyorlaydi: asar mazmuniga yaqinroq mavzuda kichik suhbat o'tkazadi, bunda bolalarning shaxsiy tajribasiga murojaat etadi. Masalan, tarbiyachi bolalarga Qayum Tangriqulov (Turkmaniston) «Non» hikoya qilib berishda, avval shunday savollar beradi: Bolalar, non dasturxonimizga qo'yilguncha qanchadan-qancha odamlar mehnat qilishlarini bilasizmi? Dehqonlar yerni qanday tayyorlaydilar? Bug'doy yerga qanday ekiladi? Urug' unib chiqishi uchun quyosh qanday yordam beradi? Yomg'irchi? Yoz faslida bug'doyni qanday yig'ib olinadi? Daladan don qaerga olib boriladi? Unlar qaerga yuboriladi? Non mahsulotlari qaerga sotish uchun yuboriladi? va h.k.

Bunday tarzda o'tkazilgan kirish suhbatlari asar mazmunini chuqur anglab olishga yordam beradi. Shundan so'ng tarbiyachi hikoya o'qib beriladi, asardagi notanish so'zlar ma'nosi tushuntiriladi, rasmlari ko'rsatiladi va asar mazmuni bo'yicha savollar beriladi, ya'ni o'qib berilgan asar yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Bolalarga hikoya qilib berilgan asar mazmuni yuzasidan savollar beriladi. Bu bolalarni hikoya qilib berishga va matnni esda saqlab qolishiga yordam beradi. Tarbiyachi bunday suhbat uchun oldindan savollar tuzib qo'yishi lozim.

Quyida maktabga tayyorlov guruhida badiiy asarni hikoya qilib berish bo'yicha mashg'ulot namunasini keltiramiz.

Mavzu: Qayum Tangriqulov (Turkmaniston) «Non» hikoya qilib berish

Maqsad:

«Nutq va til»:

Bolalarni hikoyani diqqat bilan tinglash, ma'nosiga tushunish, qahramonlar xatti-harakatlarini kuzatish, asar voqealarini so'zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so'roq, his-hayajon, hayratlanish, iltimos) turini qo'llay bilish, turli janrdagi badiiy asarlarni hikoya qilishga o'rgatish. Bolalarda gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish. «Non turlari» mavzusida nutqini boyitish va faolligini oshirish. Bolalarni suhbatlarda faol ishtirok etishga undash, mavzu bo'yicha berilgan savollarga tushunib, aniq va to'liq javob berish, o'rtoqlarining berayotgan javoblarini e'tibor bilan tinglash malakasini takomillashtirish.

Intellektual-bilish malakalari

Bolalarga bug'doydan non yetishtirilishi, nonni bizning dasturxonimizga kelishi uchun turli kasbdagi kishilar mehnati sarf qilinishi haqida berish hamda ularni nonni tayyorlash jarayonlariga qiziqishlarini rag'batlantirish.

Dunyoni badiiy tasavvur etish

Eshitgan hikoya mazmunini so'zlab berish, hikoya mazmuniga nisbatan o'z munosabatini bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bolada kitobga nisbatan qiziqish, mehr hislarini kuchaytirish.

Hissiyotlar va ularni boshqarish

Bolalarni nonni qadrlashga, uvol qilmaslikka odatlantirish.

Kerakli jihozlar:

«Non turlari» mavzusida rasmlar

Ta'limiy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga non dasturxonimizga qo'yilguncha qanchadan-qancha odamlar mehnat qilishlari haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

Asosiy qism:

1. "Non turlari" mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.
2. "Non" hikoyasini so'zlab berish
3. Hikoya bo'yicha savol-javob o'tkazish:
 - Maysaga onasi nima berdi?
 - Maysa nonni kimga berdi?

- Bayram nima uchun yig‘lab yubordi?
- Ato amaki bolalarni qaerga olib bordi?
- Bayram kimdan kechirim so‘radi? Nima uchun kechirim so‘radi?
- Maysa Ato amakiga nima dedi?
- Maysa Ato amakiga, Bayramga uyidan nima olib chiqib berdi?

4. Ixtiyoriy ravishda bolalarning hikoyalarini tinglash.

5. Jismoniy daqiqa

6. “Non” mavzusida she’rlar aytish

7. Bolalarning aytgan hikoyalari, aytilgan she’rlarni muhokama qilish va rag‘batlantirish

Qo‘shimcha qism: «Non bizning dasturxonimizga qanday kelib qoldi?» mavzusida rolik ko‘rsatish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: Bolalarni hikoya voqealarini so‘zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so‘roq, his-hayajon, hayratlanish, iltimos) turini qo‘llay bilishga e‘tibor qaratish.

O‘qilgan asarni mustahkamlash usullari

Tarbiyachi bolalarga o‘qilgan asarni chuqurroq o‘zlashtirib olish, uni eslab qolishlariga yordam berish uchun turli metodik usullardan: takroriy o‘qib berish, hikoya qilib berish, sahnalashtirish va roliklarni qo‘yib berishdan foydalanadi.

Takroriy o‘qib berish. Bolalarda qiziqish uyg‘otgan kichik asarni o‘qib yoki hikoya qilib bergach, yana 1-2 marta takror hikoya qilib berish yoki o‘qib berish yaxshi natija beradi. Agar hikoya qilib beriladigan asar hajmi yirik bo‘lsa, u vaqtda eng qiziqarli yoki bolalarga yoqqan joyi takror o‘qib beriladi. Tarbiyachi takror o‘qib berishni 2-3 hafta o‘tgach o‘tkazgani ma’qul.

Maktabga tayyorlov guruhlarida tanlab o‘qish (asarning eng, qiziqarli joylarini, boshlanishini, xotima qismini, bolalarga yoqqan joyini) usuli ham qo‘llaniladi. Bunday o‘qish o‘yin usulida, topishmoq aytish, viktorina tarzida berilishi mumkin. (Bu parcha qaysi asardan? Bu ertak yoki hikoya nima bilan tugadi? Bu asarning qaysi joyi sizlarga juda yoqdi? Bu parcha hikoyadanmi yoki ertakdanmi va hokazo.)

Sahnalashtirish va inssenirovka bolalarni badiiy asar bilan ikkinchi marta tanishtirish vositasidir. Eshirilgan asar mavzusi bo‘yicha dramalashtirilgan o‘yinni hamma yosh guruhlarida o‘tkazish mumkin. Tarbiyachi badiiy asarni o‘qib yoki hikoya qilib bergandan so‘ng, bolalar bu asar mazmuniga taalluqli rasmlarni ko‘radilar. So‘ngra tarbiyachi kim qaysi qahramon rolini o‘ynashini so‘rab, bolalarni rollarga bo‘lib chiqadi. Dastlab o‘zi boshqaruvchi bo‘ladi. Bolalar matnni yaxshi o‘zlashtirib olgach, takror o‘ynashda hamma rollarni o‘zlari o‘ynaydilar. Ertak yoki hikoyani dramalashtirish uchun tarbiyachi oldindan qahramonlarning (obrazlarning) kostyum elementlarini tayyorlab qo‘yadi.

Roliklarni qo'yib berish asar bilan uchinchi marta tanishtirish vositasidir.

Eshitilgan asar mavzusi bo'yicha roliklarni qo'yish hamma yosh guruhlarida o'tkazish mumkin. Tarbiyachi badiiy asarni o'qib yoki hikoya qilib bergandan so'ng, bolalar bu asar mazmuniga taalluqli roliklarni ko'radilar. So'ngra ko'rilgan rolik asosida savol-javob o'tkaziladi. Masalan, Qayum Tangriqulov (Turkmaniston) «Non» hikoya qilib berilgach, «Non qaerdan olinadi?» nomli rolik qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Bu rolik orqali bolalar yerga bug'doy ekish uchun traktor yerni ag'darib yumshatishi, seyalka yordamida don tezda ekib chiqilishi, quyosh chiqib yerni qizdirishi, yomg'ir yog'ib urug'ni unib chiqishi, yetilgan bug'doy boshhoqlarini kombayn yordamida yig'ib olinishi, don yuk mashinasida elevatorga yetkazilishi, elevatorda don saralanib quritilishi, don un zavodlariga yuborilishi, so'ngra un non zavodiga, pishiriq sexlariga yuborilishi, non zavodidan non mahsulotlari do'konlarga yuborilishi, do'konlardan non sotib olinib non dasturxonga qo'yilishini rolik orqali aniq ko'rib bilib oladilar.

Adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi.–T.:2018
3. Qodirova F.R., M.Fayzullaeva, M.Rustamova, S.Raximova, N.Abdullaeva “Nutq o'stirish metodikasi” T.:2019.
4. Qodirova F.R. Nutq o'stirish metodikasi«Sano-Standart» 2004.
5. Q.Shodieva “Nutq o'stirish uslubiyoti” T.:2009.



KO'ZI OJIZLAR MAKTABI MUSIQA MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING MUSIQIY-NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH METODIKASI

Xadjabekov A.A.

*Nizomiy nomidagi, TDPU “Musiqqa ta'limi va san'at”
magistratura mutaxassisligi 1-kurs magistranti
azixadjabekov@gmail.com*

Ko'zi ojizlar maktabi musiqa mashg'ulotlarida o'quvchilarning musiqa ifoda vositalari, musiqiy-nazariy bilimlari, ularda notalar obertonlarini aniq his etib kuylash malakalarini shakllantirish, shuningdek, o'quvchining musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini puxta o'zlashtirganliklari muhim ahamiyatga ega. Musiqa o'qituvchisi qayerda ish olib bormasin, u avvalo yaxshi musiqa targ'ibotchisi, sozanda, xonanda bo'lishi va shu bilan birgalikda musiqiy-nazariy savodxonligi yuksak darajada bo'lishi talab qilinadi. Dunyoning rivojlangan davlatlari hamjamiyatidagi etalon ya'ni qolip sifatida tan olingan musiqiy-nazariy

bilimlar qonun-qoidalarini kasbiy san'atimiz an'analarini e'tiborga olgan holda bekamu-ko'st o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ko'zi ojizlar maktabi musiqa ustozlari imkoniyati cheklangan o'quvchilarning qo'shiq kuylash va cholg'u asboblari jo'r bo'lish kabi faoliyatlarini musiqiy-nazariy bilimlarni egallaganlik darajasi bilan belgilash va baholashlari, shu asosida darslarni tashkil qilish hamda musiqiy qobiliyatlarini shakllantirib borishlari talab etiladi [3., 5]. Nazariy bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilar uchun murakkab jarayondek tuyuladi. Ammo bu jarayonni soddalashtirish holatlari faqatgina yaxshi nazariy tayyorgarlikga ega bo'lgan o'qituvchi bo'lgandagina bir muncha yengil kechadi. Buning uchun, musiqa ustozining o'zi ham notalar, intervallar, kalitlar, dinamik belgilar, tonalliklar, ladlar, akkordlar kabi bir qancha musiqaning ifoda vositalari haqida kerakli ilmiy-nazariy ma'lumotlarga ega bo'lishlari talab qilinadi. Chunki, ko'zi ojiz bolalarga musiqiy bilimlarni berish birmuncha qiyin psixologik, fiziologik va pedagogik jarayon hisoblanadi. [1; 35-b]

Umuman olganda, musiqiy ta'lim jarayonida umum didaktik va maxsus musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillarini, ularning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga singdirilish talab qilinadi [2., 3.]. Bular:

1. Ta'limda tadrijiylik va muntazamlik. O'qitish (sol'fedjio)da soddadan-murakkabga, o'quvchilar sol'fedjio uchun nota asarlari ijro diapazonini kengaytirishda, mashqlarni murakkablashtirishda, repertuar tanlashda, lirik asarlardan dramatik asarlarga o'tishda tadrijiylik zarur [6; 86-b]. Mashg'ulotlarda ovozning ijro xususiyatlari, sifati, toblanishi, tebranishi, jarangdorligi nazarda tutiladi. Ovoz sofligiga erishishda muntazamlilik ham muhimdir. Ammo bu jarayonda ovozning zo'riqishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Aks holda o'quvchilarning o'sib, rivojlanish jarayonini kechayotgan ovoz paychalariga shikast etishi mumkin.

2. Musiqiy-badiiy va nazariy bilimlarni texnik rivojlanish prinsiplari. Ovozini boshqara olmaydigan o'quvchi asar g'oyasini yoritib bera olmaydi. Ijrochini qoida bo'yicha tarbiyalash uchun bir vaqtning o'zida ikki muammoni hal qilish talab qilinadi. Ijro etish apparatini qurish va kuylash malakasini shakllantirish lozim. Ijro etilayotgan asar oson bo'lmasa ham o'quvchiga texnik vazifalarni berish bilan birga, albatta uning oldiga ijrochilik maqsadlarini qo'yish lozim.

3. Har bir o'quvchiga alohida yondashuv prinsipi. Har bir o'quvchining ijrochilik darajasi o'ziga xos bo'ladi. Uning ovoz kuchi, tembri, diapazoni, shaxsiy xarakteri va jismoniy tuzilishiga ahamiyat berish kerak. Shu sababli mashg'ulotlarni yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda o'tkazish zarur.

4. O'z-o'zini muntazam ravishda mukammallashtirish tamoyili. O'quvchining mustaqil ravishda ishlashi nihoyatda muhim. U ijodiy jarayonlarda izlanishi, yangilikka intilishi, muntazam fidokorona mehnat qilishi bilan birga mahorat cho'qqisiga ko'tarilishi mumkin. Ta'limning so'ngi jarayonlarida o'quvchining mustaqil tayyorlanishiga katta ahamiyat beriladi.

Mazkur maqolada, musiqiy-nazariy bilim va malakalarni quyidagi uslublarda shakllantirilishini taklif sifatida berib o'tmoqchimiz:

- Ovozni aniq eshitish qobiliyati – bu murakkab musiqiy sezgi, u vibratsiyali, mushakli, eshitish va boshqa hissiyotlarning o'zaro ta'siriga asoslanadi. Rus olimi V.P.Morozov quyidagi tajribani o'tkazgan. Xonandalardan katta guruh tuzib, ularning xar birining qulog'iga quloqchin taqib, u orqali shovqinli tovushlar yubordi va har bir xonandadan birorta asarni aytib berishlarini iltimos qildi [2; 78-b.]. Amaliyot natijasida xonandalar ikkita guruhga bo'lindilar. Birinchi guruhdagilar ohangni bemalol, adashmasdan kuylab berishdi. Boshqalari esa o'zini yo'qotib, kuyni aytib bera olmadi. Shunga qarab Morozov mushakli sezgilarga asoslanganlarni “mushaklilar” turi deb nomladi, ikkinchi guruhdagi eshitish sezgisiga tayangan xonandalarni esa “eshitish” turi deb atadi. “Mushakli” turga kiruvchi xonandalar har qanday akustik holatlarda ikkilanmay qo'shiq ayta oladilar, chunki ular ijro vaqtida faqat eshitish qobiliyati orqaligina emas, balki mushak to'qimalari orqali sezish bilan ovoz apparati harakatini boshqaradi. Shunday qilib, eshitish va mushak to'qimalari orqali sezish qobiliyati rivojlangan o'quvchilarni a'lo toifali ovozni eshitish qobiliyatiga ega deb hisoblaymiz.

- Ritmni aniq sezish qobiliyati – bu ham o'z navbatida murakkab musiqiy sezgi bo'lib, ritmik diktantlar yozish jarayonida shakllanadi. Ushbu jarayon musiqa o'qituvchisi tomonidan nota cho'zimlariga oid bilimlarni berish barobarida amalga oshirib borilishini ko'zda tutmoq maqsadga muvofiqdir. Bu ham eshitish va boshqa hissiyotlarning o'zaro ta'siriga asoslanadi. Dunyoda mazkur faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ko'plab tadqiqot-ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Ko'zi ojizlar maktabi musiqa mashg'ulotlarida o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarini mustahkamlash, ovoz apparati ishini boshqarishda eshitish va mushak sezgilaridan tashqari vibratsiyali va nisbatan ko'rish imkoniyatiga ega bolgan o'quvchilarning ko'rish sezgilari ham yordam beradi. Ushbu bilimlar natijasi o'laroq brayl yozuvi vositasida nota cho'zimi va balandliklarini his etish orqali nota misollarini kuylash paytida ko'krakda va boshning yuz qismida rezonatsiya paydo bo'lishi har bir o'quvchiga ma'lum qilinmoq'i lozim. Ko'krakda paydo bo'layotgan rezonatsiyani qo'lni ko'krakka qo'yib sezish mumkin. Ovoz bosh rezonator, “maska”ga tushganida boshning yuz qismida tebranish paydo bo'ladi, shu paytda ovozni boshqarish harakatlari anchagina yengillashadi. Bularning hammasi keyinchalik vokal-texnik ko'nikmalar shakllanishiga katta yordam beradi. [5; 108-b]

Mashg'ulotlar davomida, ayniqsa dastlabki darslarda ko'rish qobiliyatini butunlay yo'qotmagan o'quvchilar uchun ko'zgu yordamida o'z harakatlarini kuzatishning foydasi katta. Ko'zguna qaraganda og'izning ochilishi, lablar, til, jag', yumshoq tanglay harakatlari oydin ko'rinadi. Turli ko'rinishdagi mashg'ulotlar jarayonida inson faoliyatida kasbiy zehn va murakkab sezgilar rivojlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mazkur maqolada keltirib o‘tilgan metodik tavsiyalarga amal qilinsa, ko‘zi ojizlar maktabi musiqa mashg‘ulotlarida o‘qituvchilar o‘quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarini mustahkamlay olishlari va bu orqali ko‘plab musiqiy faoliyatlarga keng yo‘l ochib bermog‘i hamda ularda musiqiy tasavvurlarni rivojlantira olishlari tabiiy. Zero, qo‘shiq kuylash va cholg‘u asboblari ijro etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish kabi bir qancha malakalar, nazariy bilimlar asosiga qurilishi o‘zining yaxshi natijalarini beradi deb hisoblaymiz. Buning uchun, albatta, ta’lim jarayonida umum didaktik va maxsus musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillari va ularning mazmun-mohiyatini o‘quvchilarga singdirish uslublari har bir “Musiqi madaniyati” fani o‘qituvchisi oldida turgan dolzarb vazifa bo‘lib qolishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Вахромеев В.А. Мюзиканг элементар назарияси. Тошкент, О‘қитувчи, 1980. 268 б.
2. Дейша-Сионитская М. Пение в ощущениях. Москва, 1926. 205 с.
3. Земцова М.И. Учителю о детях с нарушениями зрения. Москва, 1978. 195 с.
4. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (darslik). Тошкент, Fan va texnologiya, 2008. 288 bet
5. Литвак.А.Г. Тифлопсихология. Москва, 1985. 263 с.
6. Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi (solfedjio, garmoniya, musiqiy asarlar tahlili) 1-qism. Darslik. - Тошкент, Музиқа, 2018. 208 б.



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG‘ULOTLARIDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Xazratkulova G.T.

*Guliston davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: gulyoraxazratkulova@mail.ru*

Dunyoda ta’limning axborotlashuvi davrida raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlash, bo‘lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini ta’minlashning maqsadli modellari, dars mashg‘ulotlarining pedagogik ssenariylari hamda multimediali elektron resurslari ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Bo‘lajak tarbiyachilari tasviriy faoliyat mashg‘ulotini o‘tish jarayonida fan, texnika va texnologiya, muhandislik, dizayn elementlarini amaliyot bilan bog‘lab o‘rganishning “STEAM – ta’lim” (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art –

san'at, Mathematics – matematika) yondashuvi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.²¹

Jahonda bo'lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini o'tishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, **texnologiya fani mazmunida kasblarga yo'naltirish**, dars va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodkorligini tarbiyalash, ularning yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda texnologiya fanini o'qitish metodikasini ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish orqali takomillashtirish, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligi samaradorligini oshirishning me'yoriy asoslari yaratildi hamda moddiy texnika bazasi shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berish, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish"²² ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini texnologiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, shuningdek, ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

ASOSIY QISM: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun bo'lajak tarbiyachilardan bu sohadagi barcha amaliy hamda nazariy bilimlar ta'lim sifatida zarur. Bular, asosan, qalam tasvir, rangtasvir, kompozitsiya, amaliy bezak san'ati, haykaltaroshlik, san'at tarixi va eng asosiysi, bu bilimlarini o'rgatishning metodik asoslarini egallash hisoblanadi. Ta'lim mazmunidagi bu bilimlarni egallash vositasida bo'lajak o'qituvchi o'z sohasining ustasi bo'libgina qolmasdan, balki ana shu san'at sirlarini o'quvchi va yoshlarga ulasha olish malakasiga ega bo'ladi: STEAM bu — S — science, T — technology, E -engineering, A — art va M — math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda.

²¹ STEAM is an innovative method of teaching and should be implemented across Europe. More and more institutions should work together to share ideas and develop further projects. Participant at steam education Conference, Porto 2019 (<https://steameducation.eu/bookinginformation.html>).

²²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 майдаги "Ўзбекистон Республикаси Мактабгacha таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПҚ-4312-сонли Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.05.2019 й., 07/19/4312/3106-сон.

STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi?

Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar.

STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir.

STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas.

STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni, bu butun ta'lim tizimi nimaga intilishini belgilaydi.

Ta'limga ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu yerda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.

So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'ylashlari kerak. O'zingizning g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash hamda ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi — Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori “Mens et Manus” (Aql va qo‘l).

Massachusetts Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o‘rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba’zi ta’lim muassasalarida STEAM o‘quv markazlarini yaratdi. Tasviriy, amaliy san’at ta’limi va tarbiyasi mazmunida milliy san’at merosimiz bilan birgalikda umum badiiy ta’limshunosligi va uslubiyatiga tayanish lozim. Yosh pedagog tayyorlashda ta’lim mazmunining muhim yo‘nalishlari, umum badiiy va milliy an’analarning ustuvorligiga amal qilishi darkor. O‘qitishning asosiy talablari uchun zaruriy shartlar esa tasviriy va amaliy san’at sirlarini o‘zlashtirish bilan birga o‘quvchi va yoshlarga har jihatdan o‘rgata olish usullarini egallashdir.

Metodika ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlash usullarining, mazmunining xususiyatlarini qarab chiqadi. Ma’lumki, o‘qitish jarayonida xilma-xil metodlar qo‘llaniladi. “Metodika” so‘zining ma’nosi, avvalo, ta’lim va tarbiyadagi samarali usullarining majmui hisoblanadi.

Tasviriy san’at metodikasi oldida pedagogika fanining tarmog‘i sifatida quyidagi vazifalar turadi: 1. Tasviriy san’at metodikasining aniq maqsadlari va uning fan sifatida bilim berish hamda tarbiyaviy ahamiyatini aniqlash.

2. Tasviriy san’at metodikasining mazmuni va tuzilishini aniqlash.

3. O‘quvchilarning chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashda eng samarali uslub, vosita va shakllarini ishlab chiqishi.

4. O‘quvchilarning bilim olish jarayonini kuzatish va tadqiqot ishlarini olib borish.

Tasviriy san’at metodlari deganda, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlash usullari natijasida o‘quv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishish va o‘zlashtirish darajasining oshirilishi nazarda tutiladi. Har bir o‘qitish metodlari o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilimlar mazmuni (hajmi)ga monand tarzda ta’lim maqsadiga, o‘quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga bog‘liq.

O‘qitish usuli — bu ta’lim-tarbiyaning alohida qismlari hisoblanib, ularning yig‘indisi o‘qitish metodlariga kiradi.

XULOSA: Bolalarga o‘rgatish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish amaliy mashg‘ulotlar mobaynida uzoq ijodiy mehnat orqali egallanadi. Demak, tasviriy san’at metodikasi — pedagogika ilmida o‘quvchilarni tasviriy san’atga o‘rgatish mazmuni, vazifa va metodlarini aniqlovchi, ijodiy ishlaridagi oqilona usullarni o‘rganuvchi, ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali o‘quv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yo‘llarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Adabiyotlar:

1. STEAM is an innovative method of teaching and should be implemented across Europe. More and more institutions should work together to share ideas and develop further projects. Participant at steam education Conference, Porto 2019.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 майдаги “Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПҚ-4312-сонли Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.05.2019 й., 07/19/4312/3106-сон

3. N. Abdullayev. San’at tarixi. 2 jildli, 1-jild, T ., 1986.

4. G‘.I. Muxamedov, U.N. Xodjamqulov. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ta’rif, tavsif, tasnif. Chirchiq «Universitet», 2019.

5. X.E. Sultanov, S.T. Sobirov. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. Toshkent «Ishonchli hamkor» 2021



MAKTABCHA TA’LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARUV KOMPONENTLARINI TAHLIL QILISH

Xakimova D.N.
605-DMTT direktori

Maktabgacha ta’lim tashkilotga bevosita rahbarlik qilish direktor tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilot direktori ishga qabul qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’limi vazirligi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilot mudiri bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilot direktori lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilot direktori:

- maktabgacha ta’lim tashkilot nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko‘rsatadi, barcha tashkilot va tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

- maktabgacha ta’lim tashkilot mol-mulkini o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi;

- ishonchnomalar beradi;

- bank tashkilotlarida hisob raqamlari ochadi;

- maktabgacha ta’lim tashkilot xodimlarini ishga qabul qilish va joy-joyiga qo‘yishni amalga oshiradi, rag‘batlantiradi, intizomiy jazo choralari ko‘radi va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari (kontraktlari)ni to‘xtatadi;

- o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar (farmoyishlar) chiqaradi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotning ishlarini takomillashtirish, moddiy bazasini mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun xalq ta'limini boshqarish yuqori organiga kiritadi;

- bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishning samarali tashkil etilishi, o'quv-tarbiya jarayoni, moliya-xo'jalik faoliyati ahvoli, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi va moddiy boyliklarning saqlanishi uchun javob beradi.

maktabgacha ta'lim tashkilot – murakkab tarmoq bo'lib, direktorning undagi roli, faoliyati ko'p qirralidir. Direktor – maktabgacha ta'lim tashkilotning tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagogi bo'lib, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Direktor o'z ishida davlatimiz va Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy etuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik – direktorga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Jamoadagi to'g'ri, o'zaro munosabatlar har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomligiga rioya qilishni ta'minlaydi.

Rahbarlik mavqe direktor o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, huquqiy saviyasini va mintaqaviylik mahoratini doimo ongli ravishda pedagogik bilimlarni bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan amaliy faoliyatiga foydalanishga majbur etadi. U programma, metodik instruktiv, me'yoriy hujjatlarni yaxshi bilishi va unga amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilib, etuk va kamchiliklarini darhol bartaraf qilish choralarini ko'rish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilot ma'muriyati jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda O'z-o'zini boshqaruv asosida bolalarni tarbiyalashda yuksak natijalarga erishishga qodir bo'lgan turg'un mehnat jamoasini shakllantiradi; kadrlarni o'zini muntazam takomillashtirib borish, pedagogik va xizmat ko'rsatish, mehnat samaradorligini oshirish ruhida tarbiyalaydi, o'z jamoasi, tanlagan kasbi uchun faxrlanish hissini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilot rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishga g'amxo'rlik qiladi; xodimlar malakasini hisobga olgan holda va Maktabgacha ta'lim tashkilot manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi. Bu maqsadlar uchun ma'muriyat ruhiy-pedagogik bolaning huquqiy va iqtisodiy o'quv bilan organik

uyg'unlanishini ta'minlaydi; xodimlar malakasini bevosita maktabgacha ta'lim tashkilotda oshirish uchun shart-sharoit yaratadi, murabbiylik harakatini rivojlantiradi; mamlakatda va chet ellarda pedagogik va boshqa aralash fanlardan erishgan yutuqlar haqida axborot beradi.

Ma'muriyat jamoat tashkilotlari bilan birgalikda maktabgacha ta'lim tashkilot xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlaydi, ularga o'z vaqtida zarur metodik yordam ko'rsatadi.

Direktor *ma'naviy, siyosiy, axloqiy etuklik, ega, ong ma'rifatli, madaniyatli, halol, vijdonli, tanqidga chidamli bo'lish, mehnatsevarlik* kabi xususiyatlar hamda huquqiy madaniyatga ega bo'lishi kerak.

Rejalashtirish – maktabgacha ta'lim tashkilotni samarali boshqarish, faoliyatning barcha bo'g'inlarida rejali, muntazam, oqilona va samarali ishlashni ta'minlovchi faoliyat jarayoni. Mohiyatiga ko'ra rejalashtirish – murakkab analitik jarayon sanaladi. Binobarin, u o'ziga xos ishlab chiqish bosqichlariga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotda pedagogik jarayonni rejalashtirish quyidagi **bosqichlarda** amalga oshiriladi:

1-bosqich – tahliliy. Mazkur bosqichda maktabgacha ta'lim tashkilotdagi o'quv-tarbiya jarayonining mavjud holati tahlil etiladi; rejani amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Bu rejalashtirishning muhim bosqichi hisoblanib, maktabgacha ta'lim tashkilot faoliyatining samaradorligini rejalashtirish jarayonining qanchalik to'g'ri bashorat qilinganligiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilot avvalgi yildagi faoliyatini tahlil etish chuqur va haqqoniy amalga oshirilishi zarur.

2-bosqich – maqsadli. U o'z ichiga ijtimoiy buyurtma bilan bog'liqlikda rejalashtirilgan bosqichdagi maktabgacha ta'lim tashkilotning umumiy maqsad va vazifalarini belgilash, natijalarni tahlil etish, rejalashtirilgan topshiriqlarni bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni aniqlash; maktabgacha ta'lim tashkilot faoliyati turli ish rejalarining mazmunan bir-biriga mosligi;

3-bosqich – mazmunli: davlat hujjatlari va qo'yilgan maqsadlarga muvofiq o'quv-tarbiya jarayoniga yo'nalganlikni ajratib ko'rsatish; maktabgacha ta'lim tashkilot faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha rejalashtirilgan topshiriqlarni bajarish ketma-ketligini aniqlash.

4-bosqich – me'yoriy. Mazkur bosqichda ajratilgan yo'nalishlar uchun mas'ul kadrlar taqsimlanadi, qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun vositalar ajratib olinadi, ishni amalga oshirish muddatlari belgilanadi.

5-bosqich – nazorat: reja bo'limlarining bajarilishi yuzasidan o'tkaziladigan nazorat turlari va mazmunini aniqlash.

Rejalashtirish boshqarishga bevosita rahbarlik qilish yoki uni amalga oshirish yo'lidir. Boshqarishda belgilangan maqsad, tadbirlarni hayotga tatbiq etish uchun rejalashtirish kerak. So'ng

uni ijrochilar hukmiga havola qilish lozim. Rejalashtirishda qaror qabul qilish va ijrosini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonning mohiyati shundan iboratki, unda boshqarishning maqsad va vazifalari aniqlanadi, har bir tadbirni bajarish muddati, mas'ul shaxs, uning ijrosini tekshirish va nazorat usuli aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda yuridik shaxs sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotni samarali boshqarishda direktor menejment asoslari hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlarda qayd etilgan talablardan xabardor bo'lishi, amalda ularga rioya etishi zarur. Direktor, shuningdek, tashkilot faoliyatini tashkil etish va boshqarishda tarbiyachilar bilan faol muloqotni tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 – yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.–279b.

2. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008. 68 b.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Xalilova D.F.

Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish – bolalarda tevarak-atrofdagi narsalarga ijodiy munosabatni tarbiyalashda, faollikni va mustaqil fikrlashni taqozo etadi. Bu bilan bolalarimizda aql-idrokni, o'tkir zehnni, ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalab boramiz.

Ijodkorlik insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning obyektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir.

Ijodiy faoliyat – bu barcha ruh va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq, bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiy holati – ilhomlanishi, shuningdek, ruh kechinmasi, muammoni jon-jahdi bilan hal etish istaklari majmuasi.

Ijodiy qobiliyatlar – bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oyani ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda topish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari, tavsifnoma) qobiliyatlaridir.

Ijodkorlik – bu ko‘pchilikka noma’lum va murakkab xususiyatlarni o‘rganishga imkon beruvchi inson tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko‘rsatishi bilan bog‘liq, o‘ziga xos fikrlash modeli.

Ijodkorlik – bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur.

Ijodkorlik – bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni uddalay olish maqsad sari intiluvchanlik, g‘alaba uchun kurash, O‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘zlikni anglashdir.

Ijodkorlik – bu insoniyatni bir necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida alohida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne‘mati bo‘lib, bugungi kunda insoniyat yaratayotgan barcha moddiy hamda ma‘naviy boyliklar esa ana shu oliy ne‘matning u yoki bu ko‘rinishidir, ya‘ni mahsulidir.

“Maktabgacha ta‘lim konsepsiyasi”ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste‘dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan.

Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o‘yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko‘rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalarni badiiy ijodiy qobiliyatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi.

Ta‘lim jarayonida, ertaklar eshitish, har-xil rasmlarni ko‘rish tufayli bola o‘yinchoq yasashdan oldin o‘zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta-sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og‘zaki ta‘siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo‘lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llarini o‘rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin.

Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo‘nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: tarbiyachining (o‘zing yasa, bir narsa o‘yla, qidirib top, o‘zgartir kabi) ko‘rsatmalari bo‘yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar.

Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da‘vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarni kombinatsiyalash va o‘zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi.

Nihoyat, uchinchi bosqich – bolani turli faoliyatda fikrlash bo‘yicha mustaqil harakat qilishga, o‘z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rgatadigan topshiriqlardan iboratdir.

Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o‘yin elementlaridan, goho o‘yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular birgalikda tomosha qo‘yishni so‘raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni suyuntirib

yuboradi. O'yinchoqlarning harakatlarini ko'rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo'ladi. Agar tarbiyachi mashg'ulotda o'yin usulini qo'llayotgan bo'lsa, u mashg'ulot davomida o'yinda qatnashadigan personaj to'g'risida oldindan o'ylab qo'yadi. Masalan, qo'g'irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotganligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko'rishi mumkin. Keyin u bolalarning hatti-harakatlarini ma'qullaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga o'xshagan ishlarni bajaradi. Mashg'ulotda har doim ham bir xildagi o'yin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashg'ulot oldidan bolalarning ruhini ko'taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga she'r o'qib berishimiz, qo'shiq aytib berishimiz, topshiriqlar bo'yicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim.

Tasviriy faoliyatning har bir turi bolalarda aqliy faollikni, ijodkorlikni, badiiy didni va boshqa fazilatlarni tarbiyalash imkonini beradi. Bunday fazilatlarsiz ijtimoiy faol shaxsning dastlabki asoslarini shakllantirib bo'lmaydi. Faoliyatning barcha turlari bolada tasviriy ifodaning yangi usullarini izlashga mustaqil yondashishni shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lpon" T.:2010y.
3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh.T, D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. "Musiqqa" T.:2010y.
4. Sh.T.Xasanova. Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi. T.: Tafakkur. 2020.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MO'LJAL OLIISH QOBILYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xalilova D.F.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabcha ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi,*

Alixanova G.S.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Tevarak-atrof tushunchasi — keng ma'nodagi, murakkab, serqirra tushunchadir. Biz tevarak-atrof haqidagi bilim va malakalarni egallash uchun, shuningdek uning shakli, belgilari haqida, ularning tuzilishi, balandligi, uzunligi, kengligi haqida, predmetlarning joylashuvi, ularning orasidagi masofani aniqlashdagi va belgilay olishni o'rganish uchun, tevarak-atrof haqidagi tushunchalarini yanada mustahkamlash uchun turli tevarak-atrof kategoriyalariga murojaat qilamiz.

Tevarak-atrofni chamalash, oriyentirovka qilish tushunchasi, masalasi murakkab masaladir. Tevarak-atrofdan mo'ljal olishni maktabgacha yoshdanoq shakllantirib borish zarurdir. Bolalarda mo'ljal olish malakalarini shakllantirish uchun quyidagilarni bolalikdanoq tarbiyalab borish zarur.

a) kishi tevarak — atrofni yaxshilab kuzatib “O‘zi turgan nuqta” haqida ma'lumot bera olish; yon atrofidagi obyektning tushuntirish kerak:

b) o‘zi qo‘yib ketgan predmet yoki insonni qayta tevarak-atrofni chamalash orqali topib kelishi yoki aniq ma'lumot bera olishi kerak;

v) bola tevarak — atrofni obyekticha tushuntirayotganda, chalkashtirmay, predmetlarning bir xil yoki har xilligini tushuntirish olishi, shuningdek qaysi predmet qayninishining ortida, oldida, orasida, uzoq, yaqinligi, xullas orasidagi masofa haqida to'la ma'lumot bera olishi kerak.

Tevarak-atrof haqidagi aniq mo'ljal olishga har bir inson ega bo'lishi kerak. Bu bilimlar esa ularga yoshlikdan beriladi. Inson aktiv harakatini davom ettirishi uchun koordinatsiyani va uni mo'ljal olishni yaxshi bilishi kerak. Ko'pchilik bu usuldan faqat bir joydan ikkinchi bir joyga adashmasdan borib kelishi uchunгина foydalanadi.

Mo'ljal olishni aniq belgilay olish, joylarni yaxshi o'zlashtirish uchun, shu odamning eslab qolish qobiliyati, xotirasi, diqqat — e'tibori, o'ylash, esga tushirish, ko'z oldiga keltirish kabi qobiliyatlari ancha mustahkam bo'lishi kerak. Aks holda, bu qobiliyatlari zaif odamlar oriyentirovkani yaxshi belgilay olmaydilar. Ba'zi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hali tevarak atrofni kuzatishni, uni oriyentirovka qilishni yaxshi o'zlashtirish olmagan bo'lishlari ham mumkin.

Masalan: o'z uylariga borishni bilmaydi. Lekin, aksincha bog'da bolalar bilan u o'ynaladigan o'yinlarning kamchiligi, mashg'ulotlar va boshqa ko'pgina bolalar ijodi tevarak-atrof bilan bog'liq. Tevarak — atrofni anglashda psixofiziologik mexanizmga ham bog'liqdir, u inson ongidagi ko'rish, eshitish, so'zlash, eslab qolish, xotira kabi qobiliyatlar (analizatorlar) yordamida dinamik sistemadek saqlanib qoladi. Ayniqsa bunda harakatlanuvchi analizatorlar va ichki his-tuyg'ularining roli ahamiyatlidir. Tevarak atrofni idrok qilish biror bir mo'ljal asosida foydalana bilishni talab qiladi, bolalik yoshidan boshlab o'zining sezgilari orqali idrok qiladi, ya'ni tanasining tomonlari bilan mo'ljal qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshida bola tevarak-atrof tushunchalarini so'zlarda ifodalashini egallaydi: oldinda-orqada, yuqoriga- pastga, chapga-o'ngga. Yosh bolada tevarak atrofni idrok qilishda bolaning shaxsiy tanasi asosiy markaz bo'lib hisoblanadi va u o'zining tanasiga nisbatan sezgi organlari orqali mo'ljalga oladi. Keyinroq borib unga yana bir sistema qo'shiladi. Bu nutqda ifodalashdir, ya'ni so'zlar bilan. Bu narsa bolalarda tomonlarni o'ziga tegishlilarni sezgi, farqlash, aniqlash xususiyatlarini mustahkamlash natijasida bo'ladi, qaysiki bu tomonlar: yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o'ngga, chapga. Bola tomonlarining juft, qarama- qarshi tomonlarini guruhini o'zlashtirsa ham, hali u uning aniqligida yanglishadi. Bolalar uchun asosiy qiyinchiliklar o'ng va chapni ajratishdir. Bolalar tevarak-atrofni oriyentirovka qilishga o'rganayotganlardayoq

oddiy terminlardan murakkabroqda, tevarak-atrof terminlariga o'ta boshlaydilar. Ularning nutqlaridagi "shu yerda", "u yerda", "mana" kabi so'zlari (biror predmetni ko'rsatib, aytib) "yonida", "yaqinda", "yonma-yon" kabi yangi terminlar bilan, almashinishi buning yaqqol guvohi bo'la oladi.

Bola oriyentirovka qilishga o'rganayotganida "yonma-yon" so'zining ma'nosiga keyinroq tushunadi, yoki "o'rtada", "orasida" kabilarni o'rganib bo'lgach, keyinroq "atrofida", "chetida", yoki "yonidan", yana keyinroq borib bola bu so'zlarni atroflicha tushuna boshlaydi va chap tarafdami? Yoki o'ng tarafdami? farqlay boshlaydi. Lekin bolalarga tevarak atrofni oriyentirovka qilishga o'rgatish ishini turli yo'llar va yo'llanmalar bilan tushuntirish kerakligini unutmaslik kerak. Oldinda, orqada, chapda, o'ngda jadallashganligini aniqlay olish o'rganishi kerak. Fazoviy yo'nalishlarni farq qilishda taqqoslash, aniqlash asos bo'lib xizmat qiladi. O'quv yili boshida bolalar atrof-muhitga munosabati qay darajada ekanligi tekshirib ko'rib bu ko'nikma mustahkamlanadi. O'ng va chap qo'lni farq qilish mashqlariga katta beriladi, chunki chap hamda o'ng nima ekanini bilish maktab yoshdagi bolalar uchun ancha qiyinlik qiladi: qo'l bilan tomonni, orqa tomonni, yuqorini, pastni, chapni, o'ngni ko'rsatish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Narsalarning fazoviy joylashuvini belgilash. Bolalarni turgan joylariga nisbatan, oldinga, orqaga va shu kabi yo'nalishlarni ko'rsatishga o'rgatib bo'lgach, ularga narsalar o'zlarining qaysi tomonlarida turganligini (oldinda, oldi tomonda, orqa tomonda, chapda, o'ngda, yuqorida, pastda) aniqlashni mashq qildirishga o'tish mumkin. Avval bolalarga ularning qarama-qarshi tomonlarida, oldinda—orqada, o'ngda—chapda turgan faqat ikkita o'yinchoq yoki buyumning joylashish o'rnini aniqlash taklif qilinadi. Keyinchalik bu narsalarning soni 4 tanacha ko'paytiriladi. Narsalar oldin boladan unchalik uzoq bo'lmagan masofada (yonida) joylashtiriladi. Asta-sekin bu masofa orttirib boriladi.

Bola narsalarning turgan joyini aniqlab bo'lgandan so'ng unga chap va o'ngga (90°), keyin esa orqaga (80°) aylanish taklif qilinadi. Keyinchalik bu narsa bolalarga narsalar o'zlarining qaysi tomonlarida joylashganini aniqlashda nisbiylik borligini tushunib olish imkonini beradi. Bola chapga burilsa, stol endi uning chap tomonida emas, balki o'ng tomonida bo'ladi. Bolalarning harakatlari va joydan joyga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan mashqlar eng samarali mashqlardir.

Narsalarning mashqlari mashg'ulotlarda ham, kundalik hayotda ham amalga oshiriladi. „Nima qayerda turibdi, top?“, „Kim ketdi va u qayerda turgan edi?“ kabi didaktik o'yinlar o'tkazishga ahamiyat beriladi. Bolalar asosiy fazoviy yo'nalishlarni farq qilish va aytishni bilib olganlaridan keyin ularni ko'rsatilgan yo'nalish harakat qilishga o'rgatiladi. Buning uchun avval „Qayerga borayapsan?“ o'yinidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi bolalarga topshiriqni tushuntirib: „Bugun sizlar yashirib qo'yilgan o'yinchoqlarni topishni o'rganasizlar“, — deydi va bir bolani chaqirib: „Oldinga yursang ayiqchani topasan, orqaga yursang qalamni topasan. Sen qayoqqa borishni istaysan va u yerdan nima topasan?“, — deydi. Bola yo'nalishni tanlab olishi, uning nomini aytishi va shu yo'nalishda borishi kerak. U o'yinchoqni topgach, qaysi o'yinchoqni va qayerdan

topganini aytadi. („Men orqaga yurdim va tokchadan qalamni topdim“). „Uzoqroq“, „yaqin“, „uzoq“ soʻzlari haqida tasavvur hosil qilish. Bolalar „yaqinroq“, „uzoqroq“, „yaqin“, „uzoq“ soʻzlari haqidagi, tasavvurlarga oʻyinchoqlar va narsalar bilan u yoki bu ishlarni bajarish davomida ega boʻladilar. „Kimning koʻptogi uzoqroqqa yumaladi?, Qani, kim uzoqqa otdi?“ — kabi savollar bolalar eʼtiborini masofaga jalb etadi. Ular yaqinroq, uzoqroq, yaqin, uzoq kabi soʻzlarning maʼnosini asta-sekin oʻzlashtira boradilar. Qogʻoz varagʻida va stol yuzasida tasavvur qila bilishga oʻrgatish.

Oʻrta guruhdagi matematika mashgʻulotlarida bolalarda qogʻoz varagʻida va stol yuzasi ustida tasavvur qilishni oʻstirishga katta eʼtibor beriladi. Birinchi mashgʻulotlardan boshlab ularga sanoq kartochkasining yuqorigi va pastki doskasini topish, maʼlum miqdordagi predmetlarni yuqoriga hamda pastga yoki chap va oʻngga terib qoʻyish topshiriladi. Stol ustida geometrik figuralarning fazoviy joylanishini aniq belgilashga, joylanishni eslab qayta tiklashga bolalarni oʻrgatish maqsadida maxsus mashgʻulotlar oʻtkaziladi.

Adabiyotlar:

1. Djanpeisova G.E., Xodjimuratova B.N. . Matematik tasavvurlarini shakllantirish. T.: „Innovatsiya-Ziyo“, 2020.
2. Xasanboyeva.O.U va boshqalar. «Maktabgacha taʼlim pedagogikasi».T., «Ilm ziyo», 2006.
3. Bikbaeva N.U, Ibragimova Z.I , Kosimova X.I, «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish» T. «Oʻqituvchi» ,1995.
4. Oʻzbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari. T .: BMT Bolalar jamgʻarmasi (YuNISEF), 2018.
5. Ilk qadam” Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. T.: BMT Bolalar jamgʻarmasi (YuNISEF), 2018metodikasi. T.: Tafakkur. 2020.

HOZIRGI ZAMON ANʼANAVIY TAʼLIMIGA INNOVATSION YONDASHUV

Xalilova D.F.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabcha taʼlim metodikasi”
kafedrasi oʻqituvchisi,*

Nabixoʻjayeva M.S.

TDPU “Maktabgacha taʼlim” yoʻnalishi 2-bosqich talabasi

Mustaqillik sharoitida talaba yoshlarga zamon talablariga mos tarzda bilim berish va taʼlimning noanʼanaviy usullaridan dars jarayonida kengroq qoʻllashga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki noanʼanaviy taʼlim usullari hozirgi yangi zamonaviy taʼlim usullaridan tortib pedagogik texnologiya usullari, taʼlimning samarali metod va vositalaridan foydalanish orqali oʻquvchilarga bilim berishga

keng imkon beradi. Hozirgi kunda o'qitish jarayonining asosiy vazifasi ta'lim mazmunini yangilashning uzluksiz tizimini ro'yobga chiqarishdan iborat. Bunday asosiy maqsad har jihatdan rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga va mehnatga o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lib u o'qituvchi asabiy jarayonlarining kuchiga va mazmundorligi va harakatchanligiga nisbatan muayyan talablar qo'yadi. Ta'lim oluvchilar faoliyati ularda o'quv motivlarining shakllanganligi darajasiga bog'lik. Ta'lim oluvchilar o'z navbatida o'qituvchi tomonidan berilgan yoki mustaqil, ijodiy izlanish orqali o'quv materialini o'zlashtiradilar. O'qituvchi ta'lim oluvchilar tomonidan ta'lim mazmunining o'zlashtirilishi jarayonini boshqaradi. Ta'lim oluvchilar bunga javoban o'zlarining faoliyatlari haqida o'qituvchiga axborot beradi. Shu tariqa ta'lim jarayoni yaxlit tizimni tashkil etadi.

Noan'anaviy ta'lim usullari o'quvchilarni faqat bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirishni ko'zda tutmasdan, balki darsda vujudga keltiriladigan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda, ijodiy qo'llashlari orqali ijodkorlik, mustaqil fikr yuritish faoliyat yuritish orqali o'zaro munosabatlarni tarkib toptirishga qaratilgan, o'quvchilarning mustaqilligi, o'quv-bilish motivlari, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, mustaqil bilim olish va ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, bilimlarni egallash yo'lini o'zlashtirishga imkon beradigan murakkab jarayondir.

O'qitishning noan'anaviy usullaridan foydalanishning asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga chorlash, fanlar orasidagi o'zaro integratsiyani ta'minlash, o'quvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga solish, vaqtdan unumli foydalanish, o'quvchilarda faollik, tashabbuskorlik xususiyatini, mustaqil fikrlashga mayl va rag'batni uyg'otish kabi maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Demak, o'quvchilarda, tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, bilimlarni chuqur saviyada o'zlashtirish, ularda kuzatuvchanlik va hissiylikni, tafakkur va ravon nutqni xotira va ijodkorlik tasavvurlari asosida tarbiyalashga imkon beruvchi tamoyil — bu oliy ta'limdagi faollik hisoblanadi. Asosan faollik oliy ta'lim muassasalari talabalariga ta'lim berishda o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi kerak bo'lgan harakatdir. Shundagina o'qituvchi o'quvchilar orasida faollikni ta'minlay oladi.

Demak, o'qituvchining dars jarayonini muvaffaqiyatli tugatishi osonlikcha qo'lga kiritiladigan natija emas buning uchun yuqorida ta'kidlangan ta'limning noan'anaviy shakllari ta'lim jarayoni uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Noan'anaviy ta'lim usullari ham dars jarayoniga o'z-o'zidan kirib kelmaydi. Bu o'qituvchining pedagogik mahoratiga va kasbiy faoliyatni egallaganlik darajasi va uning motivatsiyasiga bevosita bog'likdir. Pedagog qancha ijodkor bo'lsa, o'z ustida ko'p mehnat qilsa va tinimsiz izlansa, shuningdek ta'limning noan'anaviy usullari haqida kengroq manba to'plasa dars jarayoni shuncha qiziqarli va samarali natijani qo'lga kiritish imkonini beradi. Hozirgi zamon ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil qilish ta'lim tarbiyaning usul, vosita va shakllarini

tanlash faqat bilim, ko'nikma, malakalarga yo'naltirishdan tashqari ularni bilish jarayoni, hissiy kechinmalarini o'zlashtirishga alohida e'tibor berish zarur .

Dars tuzilishini aniqlash uchun o'quv materiallaridagi ta'lim mazmunini uning mazmundagi tarkibiy qismlar, mazkur tarkibiy qismlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usuli ya'ni ta'lim jarayonining borishini hisobga olish zarur. Bu qonunga ko'ra tabiatdagi hamma narsa hodisa va jarayonlarda ichki ziddiyatlar o'zaro aloqadorlik bir- birini inkor etish holatida bo'lgan qarama – qarshi tomonlar mavjud. Qarama – qarshiliklar birligi va kurashi taraqqiyotga ichdan turtki beradi, ziddiyatlarning o'sib ma'lum bosqichda ziddiyatlarga barham berishga yangi, ziddiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Umuman noan'anaviy usullarni dars jarayoniga tatbiq etish murakkab jarayon bo'lib bir qator to'siqlarga duch kelishi tabiiy. Birinchidan; ma'lumki uzoq yillik mustabid tuzum davrida bir qolipga tushib, faqat ma'lum doiradagi buyruqlar asosida ish yuritilar edi. Ana shu tizimdagi oddiygina bir dars jarayonini oladigan bo'lsak, dars jarayonidagi asosiy kuch boshqaruvchalik hisoblanadi. Ya'ni buyruq beruvchi shaxs o'qituvchi, buyruqni bajaruvchi ta'lim oluvchidir. Agar ta'lim oluvchi o'qituvchining buyrug'ini bajarmasa, u ta'lim oluvchi "darsni o'zlashtirmagan, intizomsiz o'quvchi" bo'lar edi. Yaxshi o'quvchi o'qituvchini topshirig'ini bajargan o'quvchi edi. Uning tashabbuskorligi, ijodiy fikri inobatga olinmas edi. Ana shunday buyruqbozlik muhitida ta'lim olgan o'quvchilarda qat'iyatsizlik, o'ziga ishonchsizlik, o'zining fikriga ega bo'lmagan shaxs sifatidagi ong darajasi shakllanmagan. Natijada o'quvchilarda o'zganing qaramlik hissi kuchaygan. Ammo, yuqoridagi ta'kidlangan illatlardan hanuzgacha qutilganimiz yo'q. Noan'anaviy ta'lim usullari shaxsni ongli fikrlashga va mustaqil faoliyat yuritishga o'rgatadi.

Kadrlar masalasi hozirgi kunda eng muhim masala sanaladi. Shuning uchun hozirgi kunda kadrlar masalasiga talab kuchayib bormoqda. Barkamol avlod orzusi kitobida "O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak".

Haqiqatdan hozirgi kunda o'qituvchilardan izlanuvchanlik, o'quvchilar bilan ishlashda buyruqbozlik emas, balki ularning dunyoqarashini keng tarzda shakllantira oladigan chuqur bilim talab qilinadi. O'quvchilarda erkin izlanish qobiliyatini uyg'otishni talab qiladi. Bu esa o'qituvchidan mahoratni va o'ziga xos metodik tayyorgarlikni talab etadi. Masalan ta'lim metodlariga to'xtaladigan bo'lsak, bu ham o'ziga xos jarayon bo'lib, yangicha yondashuv, yangicha mazmun kasb etadi. Hozirgi davrda bir xil qolipdagi ta'lim metodlari talabga javob bermayapti. Bu o'rinda ham ta'lim tajribasiga murojaat qilishimiz maqsadga muvofiq. Masalan o'tmishda madrasalarda mashg'ulotlar davomida muammolar qo'yish va ularni munozaralar asosida hal etish, tajriba-sinov, kuzatish, sharhlab o'rganish, mustaqil mutolaa, bilimlarni uzoq esda saqlab qolish uchun ifodali, qiroat bilan o'qish, yod olish, husnixat yozish kabi metod va usullar qo'llanilgan. Yirik madrasalarda o'tadigan

mashg'ulotlarga nufuzli olim-u ulamolar taklif etilgan. Ular ma'lum muammolarni talabalar bilan birgalikda ilmiy munozaralar, savol-javoblar, suhbatlar asosida hal etganlar. Demak, ana shunday ta'lim usullaridan dars jarayonlarida qo'llash ijobiy natijalarni olib kelishiga shak-shubha yo'q.

Adabiyotlar:

1. R.Ishmuxamedov. Ta'limda innovatsion texnologiya T.: TYI 2004 o'quv qo'llanma
2. J.Yo'ldoshova. Ta'lim yangilanish yo'lida. T.2000 metodik qo'llanma
3. U.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariyasi va amaliyoti T. 2005 o'quvqo'llanma
4. SH.A.Sodiqova. Maktabgacha pedagogika T.2013. Darslik
5. SH.S.Shodmonova. Pedagogik texnologiyalar fan va texnologi. Y.2011. o'quv qo'llanma

KO'P TARMOQLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR OILASI BILAN HAMKORLIGI

Xamidova M.U.

Nizomiy nomidagi TDPU, dotsent

Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda defektolog va surdopedagoglarni hamkorlikda ota – onalar bilan ishlashi – maxsus maktabgacha ta'lim tashkiloti muassasa ma'muriyati va surdopedagoglarning muhim vazifalaridan sanaladi. Bu kabi ishlarni amalga oshirishda nafaqat kasbiy savodxonlik, balki delikatlik, takt va hamdardlik, shuningdek izchillik va qat'iyat namoyon qilish talab etiladi. Shubhasiz, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalashda defektolog va surdopedagogni o'zaro hamkorligi ota – onalar bilan ishlashi natijasida ota – onalarning farzand tarbiyasi bilan sistemali shug'ullanish, uning ta'limida qatnashish istagi, ko'p jihatdan defektologlarning ota – onalar bilan shaxsiy va ish tartibida aloqalarni yo'lga qo'ya olishi, o'zining bolalar bilan ishlashi namunasi bilan qiziqтира olishi, turli yo'nalishlardagi ish metod va usullarini qulay shaklda tushuntirishi va namoyish etib berishi bilan bog'liq eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalashda defektolog va surdopedagoglarni ota-onalar bilan o'zaro hamkorligidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning korreksion xususiyatlari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani o'z-o'ziga xizmat, mehnat malakalarni va og'zaki nutqini rivojlantirishni ko'zda tutishi dalillandi.

Maxsus ta'lim tizimidagi o'quv jarayonini defektolog va surdopedagoglarni ota-onalar bilan o'zaro hamkorligi asosida tahlil etish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qulay shart-sharoit yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida ota – onalar bilan ishlashning jamoaviy shakllaridan ham foydalaniladi. Bularga umumiy va guruh ota – onalar majlislari, lektoriylar, “davra suhbatlari”, ota – onalar konferensiyalari, bolalar bilan ishlashda tajriba almashish bo‘yicha seminarlar, guruhda konsultatsiyalar, ochiq eshiklar kuni, bolalar ishlari ko‘rgazmalari, bayram va ertaliklar, muassasa va guruh tadbirlarida ota – onalarning ishtiroki va sh.k. ni kiritish mumkin.

Ota – onalar majlisi keng tarqalgan ish shakllaridan biri sanaladi. Majlis umumiy — butun MTT yoki tarbiyachilar ota – onalari uchun bo‘lishi mumkin. Umumiy ota – onalar majlislari yiliga 2 – 3 marta, ma'muriyatning ma'lum vaqt oralig'idagi faoliyat to'g'risidagi hisoboti, ota – onalar qo'mitasining hisoboti tinglanadi. Ota – onalar uchun qiziqarli mavzularda, ma'ruzalar qilinadi.

Guruh ota – onalar yig'ilishlarida shu guruh ota – onalari uchun dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Tarbiyachi va defektolog hamkorlikda ota – onalarni bolalar tarbiyasi va ta'limining turli yo'nalishlariga oid ishlar mazmuni bilan qulay va tushunarli tarzda tanishtiradi. Bolalarning oiladagi tarbiyasi haqidagi axborotlar, masalan, Maxsus MTTda bolalar uchun kun tartibini tashkil qilish”, “Bolalarda madaniy – gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash” va sh.k. bilan chiqadigan tarbiyachilarning ishtiroki muhim sanaladi. Ota – onalar majlisida pedagoglar ta'limning natijaliligi, turli yo'nalishlardagi ish natijalari haqida ota – onalarga ma'lum qiladi. Bolalar bilan ish samaradorligini tavsiflayotib, e'tiborni qiyinchiliklarga, bola rivojlanishidagi salbiy tomonlarga qaratmasdan, balki bolaning imkoniyatlari, uning, uning ta'limda ilgarilab borishini ko'rsatib berish muhim. Bola bilan ishdagi qiyinchiliklarni ota – onalar bilan yakka tartibdagi suhbatlarda ochib bergan, muhimi ota – onalar bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun nima qila olishlarini ko'rsatib bergan ma'qul. Shuningdek pedagoglar muhokama mavzusiga oid ota – onalar uchun qulay, tushunarli adabiyotlarni tavsiya qilishlari, uni o'qiganda nimalarga e'tiborni qaratish lozimligini tushuntirishlari zarur. Ota – onalar majlislariga ota – onalar ishtirokida tayyorlangan bolalarning ishlari, rasmlari ko'rgazmasini tayyorlash maqsadga muvofiq.

Maxsus MTTda xodimlarining eng muhim vazifasi bolalar, defektolog, pedagoglar va ota – onalarning yagona jamoasini shakllantirish sanaladi. Ishonch, bola taqdiri haqida umumiy g'amxo'rlikni ko'p tarmoqli MTTda umumiy bayramlarni o'tkazish, bolalarning tug'ilgan kunlarini uyda yoki ko'p tarmoqli MTTda nishonlash, ishlari ko'rgazmalarini tashkil qilish, birgalikdagi sayr va sayohatlar kabi norasmiy voqealarni tashkil qilish hisobiga shakllantirish mumkin. Ota – onalar bilan ishlarning yana bir muhim va qiziqarli shakli bog'chada o'tkaziladigan ertaliklar, bayramlarga ota – onalarni taklif qilish sanaladi. Ota – onalar o'z farzandini bayramona sharoitda ko'rishlari, musiqiy tarbiya, nutq o'stirish bo'yicha ishlarning natijalarini ko'rishi, ijobiy taassurotlar olishi muhim. Bolalar uchun ota – onalari bilan birga kuylagan, raqsga tushgan bayramlar yanada qiziqarli. Bayramlarda ishtirokdan tashqari, ota – onalarni sayr va sayohatlarni tashkil qilishga, bolalarning foto va videotasvirga olishni tashkil qilishga jalb etish mumkin. Ota – onalar pedagoglarga didaktik

materiallarni (tablichkalar, qo‘lbola kitobchalar, didaktik o‘yinlar) tayyorlashda, metodik materiallarni ko‘paytirishda ko‘maklashishlari mumkin.

Ota – onalar bilan ish shakllaridan biri turli ko‘rgazmali materiallar: bolalar ishlari ko‘rgazmalari, axborot stendlarini – ota – onalar burchagini jihozlash sanaladi. Bolalar faoliyat mahsuli – rasmlar, panno va applikatsiyalar bilan tanishish ota – onalarda ijobiy taassurot uyg‘otadi. Pedagog va defektologning boli ishini namoyish va muhokama qilish vaqtidagi maslahatlari bu yo‘nalishdagi ishni uyda ham tashkil qilish imkonini beradi. Bola ishlarini tarbiyachining sharhisiz namoyish qilish ko‘p ham samara bermaydi, chunki ota –onalar ishning vazifasi, bolaning shu ishni bajarish davomida mustaqillik darajasini hamma vaqt ham tushunib eetmaydi. Bola ishi muhokamasi chog‘ida bolaning rivojlanganini ko‘rsatish, uni bolaning, sinfda saqlanayotgan, oldingi ishlari bilan taqqoslash muhim.

Defektolog va surdopedagogni eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ota – onalar bilan ishlarni olib borishda izchillik, sistemalilik, ularning real imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim. Defektolog va surdopedagogni ota – onalarning o‘zaro tushunishi, hamkorlikdagi ishtiroki va faolligi rivojlantiruvchi va korreksion ishlarning umumiy natijasini ko‘p jihatdan belgilaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash dasturda ko‘rsatilgan mashg‘ulotlarda, bolalarni nutqini rivojlantirish, sensorikasini rivojlantirish, bilish jarayonlarini rivojlantirishda, ota-onalar bilan hamkorlik ishlari muntazam olib borilsa, samarali natijalarga erishiladi.

Maktabgacha guruhlar dasturi umumiy didaktik va va maxsus tamoyillar asosida tuzilgan bo‘lib, kar bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyasini ta’minlovchi tasavvur, bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Dastur quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi:

- Jismoniy tarbiya
- O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish va madaniy-gigiyenik malakalarni shakllantirish
- O‘yin
- Tevarak atrof bilan tanishtirish va mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatish.
- Predmet amaliy ta’lim va tasviriy faoliyat.
- So‘zli nutqni shakllantirish
- Eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuz .
- Matematik tasavvurlarni shakllantirish.

Dastur bo‘limlarining o‘rtasida uzviylik o‘rnatilib, o‘rganilayotgan material ko‘p takrorlanib boradi. Maktabgacha guruhlarda predmet amaliy ta’lim va tasviriy faoliyat Yetakchi bo‘lim hisoblanib, bolalarning har tomonlama rivojlanishi va nutqining muloqot vositasida shakllanishiga xizmat qiladi. Dasturda bolalar nutqini o‘stirishga amaliy yondashuv tatbiq etiladi, ya’ni, bolalarning

nutqi turli faoliyatlari jarayonida hamda nutqiy faoliyatning har xil turlari: gapirish, yozuv, daktillar, eshitish, eshitib ko‘rishdan keng foydalangan holda rivojlantiriladi.

Adabiyotlar:

1. Е.Г.Голович. Дошкольная сурдопедогогика.Москва :Владос 2005
2. Боскис Р.М Глухие и слабослышащие дети. М., 2003 г.
3. Власова. Т.А. О влиянии нарушения слуха на развитие ребенка. М., 2004.
4. Бондаревская, Е.В. Становление теории личностно-ориентированного воспитания /Е.В. Боидаревская // Актуальные проблемы современного воспитания: целостный подход: сб. науч. тр. и материалов по итогам науч. конф. - Волгоград, 2005.
5. Бунаков Н.Ф. Избранные педагогические сочинения / Н.Ф.Бунаков. – М.: Педагогика, 1991.
6. Быков А. К. Проблемы патриотического воспитания //Педагогика, 2006.- № 2,.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING MUXIM MASALALARI

Xasanova Sh.T.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim texnologiyalari”
kafedrası v.b.dotsenti*

Kasb — hunar inson uchun zarur faoliyat, kasb-hunarning umri uzoq, u o‘lmas mo‘jiza, tugalmas boylik — javohirdir. Chunki u avloddan avlodga o‘tadi. Kasb — hunar tufayli barcha orzu umidlarga erishish mumkin. O‘z kasb-hunarini yaxshi bilgan kishining ishi unumli bo‘ladi. Kasb-hunarni egallagan, mehnatdan bo‘yin egmaydigan odam jamiyatda qadr-qiyamat topadi. Xalq ichida obro‘ — e‘tibor topish, mansab pillapoyalaridan ko‘tarilish ham halol mehnat, hunar sirlarini mukammal egallash natijasidir. Shuning uchun ham xalqimiz “mehnat qilgan-elda aziz” deb bejizga aytmagan. O‘zbek xalqi azal-azaldan kasb-hunari, mehnati, halol va pokligi bilan dunyoga tanilib kelmoqda.

Alisher Navoiy aytadi:

Hunarni asrabon netgumdir, oxir,

Olib tuproqqamu ketgumdir oxir.

Buyuk allomalar hunarning inson hayotidagi ahamiyatini alohida ta’rif-tavsif etganlar. Xalqimiz “Hunar—hunardan unar” deganda, odamning rizq-nasibasi hunardan, mehnatidan paydo bo‘lishini nazarda tutgan. Bizning ota-bobolarimiz azal-azaldan hunarmand, ijodkoru mirishkor bo‘lishgan. Ularning hunarlari oradan necha yuz yillar o‘tsa-da, hali-hanuz o‘z qadr-qimmatini

yo‘qotmay, ko‘rki-tarovatini namoyish etib turibdi. Duradgorlik deysizmi, naqqoshlik deysizmi, zargarlik deysizmi, bog‘bonlig-u sohibkorlik, ustachilik deysizmi — hammani lolu hayron qoldiradigan ezgu ishlar ajdodlarimiz, ularning davomchilari bo‘lmish bobokalonlarimizdan bizlargacha etib kelgan. Abduqodir Bedil aytadi:

Insonning qimmatini emas simu zar,

Insonning qimmatini ilm ham hunar.

O‘zbek xalq hunarmandchiligini sanab, sanog‘iga etish qiyin. Beshiksozlik, sandiqsozlik, jaydari arava, qo‘qon arava, yassi va baland zinali aravalari, jilosi-yu naqshi, ko‘z qamash tiradigan pichoqlari, o‘ymakor kursi-kursichalar, chorpoyalar, guldonlari shamchiroqlar, obdasta, jomoshov, jom dashshalar... Ularning ko‘pini endi asosan muzeylarda ko‘rib, shunday zabardastu mohir san’atkorlar naslidan ekanimizdan ko‘nglimiz olam-olam quvonchga to‘ladi, nechog‘lik boy milliy madaniyatga ega ekanligimizdan faxr-u g‘urur hissiga to‘lamiz.

Avlod-ajdodlarimiz o‘z hunarlarini, san’atlarini kelgusi avlodlarga to‘la-to‘kis etkazish, ularni o‘tmishimiz madaniyati-yu, san’ati bilan oshno qilish uchun nechog‘li mehr-ixlos, katta g‘ayrat-shijoat bilan, ko‘z nurini, qalb qo‘rini sarflab, tinimsiz mehnat qilganliklarining guvohi bo‘lamiz. Ayni paytda bilamizki, bizlar ko‘rgan-bilgan san’atkorlik, bunyodkorlik mahsullari o‘z zamonasida yaratilgan asarlarning daryodan bir tomchisi, xolos. Chunki bizning davrimizga kelib, hunarmandchilikning qadru qimmatini keskin pasayib ketganidan bobolardan qolgan boyliklar ham talon-toroj qilib yuborildi, ne-ne ajoyib kasblar — jumladan kosibchilik, kasanachilik, hunarmandchilik san’ati ishlab chiqarish ro‘yxatidan deyarli o‘chirib tashlandi. Chinakam san’at asarlari o‘rnini o‘yinchoq sifat buyumlar egallab oldi.

“Haq joyida qaror topadi” deb bejiz aytmagan dono xalqimiz. Mana, vaqti kelib, yana o‘sha ota-bobolarimizdan qolgan hunarmandchilik san’atiga keng yo‘l ochildi. Haq haqligini isbot qildi. Lekin bu ishlar eng mohir va zabardast ustalarimiz olamdan o‘tib ketgandan keyingina yo‘lga qo‘yildi. Endigi gap yoshlar katta qiziqish, zo‘r ishtiyoq bilan ajdodlar ishini davom ettirishlariga hunarmandchilik kasbini egallash yo‘liga qunt bilan intilishlarida qoldi. Qo‘lida hunari bor o‘lmaydiyam, o‘chmaydiyam, birovga xor-zor bo‘lmaydiyam. Shoir Badriddin Hiloliy shunday deydi:

Tirishib topmasang bir hunar, yuz ayb,

Bir hunar yopadi, bo‘lsa yuz ayb,

Bor esa hunaru aql ham tamiz,

El nazdida doim ul kishi aziz.

Hunar umri boqiy, o‘lmas-yitmas mo‘jizakordir. Hayot davom etar ekan, avlodlar ketidan avlodlar dunyoga kelar ekan, yuqorida zikr etganimiz — noyob buyumlar turmush ehtiyoji uchun doimo kerak bo‘lishi tabiiydir. Zero, inson tirik ekan, uy-joy qurishi kerak, farzand ko‘rar ekan,

bashik, g'altakarava kerak, qiz uzatish, o'g'il uylantirishga sandiq-quti, bog'-rog' bunyod qilish uchun esa avvalo bog'bon, so'ng uning ham o'ziga kerakli asbob-uskunalar kerak bo'ladi. Bu narsalarni bunyodga keltirish uchun ustalarning mehnati, ishbilarmonligi zarurdir.

Hech kim onadan hunarmand bo'lib tug'ilgan emas. O'smir esini tanib, qo'li ishga kelgach, ota-onasi ziyraklik bilan uning qobiliyatini kuzatib, o'zi qiziqqan hunari sohibiga shogirdlikka topshirganlar. Shogirdning mehnatga munosabati, kasb-korga muhabbatiga qarab ustozlar o'z hunarlarni o'rgatganlar, mustaqil ishlashi uchun baholi-qudrat shart-sharoit ham yaratib berganlar.

Bolalarga estetik tarbiya berish vositalaridan biri bolalarni xalq amaliy san'ati, uning har xil turlari, shu jumladan, xalq ustalarining mayda dekorativ plastikasi bilan tanishtirishdir. Qo'g'irchoq, hayvon, qushlarni ifodalaydigan chiroyli umumlashgan shakllar bolalarni quvontiradi va ularning badiiy didi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, tasavvur va fantaziyasini kengaytiradi. O'zbek kulollari yaratgan chiroyli idishlar bolalarga juda yoqadi. Bolalar oddiy, ba'zan g'alati shakldagi piyolalarni, tuzdonlarni, gultuvak vazalarini maroq bilan tomosha qiladilar.

Katta guruhdagi bolalar xalq ustalarining mayda dekorativ plastikalarini ko'rib o'yinlar, xonani bezatish va sovg'a uchun qiziqarli buyumlar yasashlari mumkin. Ular qo'g'irchoqlar uchun munchoq va taqinchoqlarni juda yaxshilab va maroq bilan yasaydilar, dekorativ idishlar: tuzdonlar, tuxumlar uchun tagliklar va bahorgi gullar uchun kichkina vazalar, stakanlar va qalamlar uchun patnislar yasashni bajaradilar. Bu buyumlar barg, gul, hayvonlar shaklida bo'lishi va ularni angob yoki guash bilan bezash mumkin. Qanotlari va dumi chiroyli bezalgan dekorativ qushlarni ham haykalcha yasashning mana shu turiga kiritish kerak.

Dekorativ o'yinchoq yasash bolalarga avval mavzuni o'ylashni, eskizlarni rasm holida tayyorlab olishni, predmetning shakli va bezaklarini shartli hal qilishni o'rgatish imkonini beradi. Masalan, tuzdon gul shaklida, qush yoki qo'ng'iz qanotlari turli dekorativ elementlarni: geometrik shakllar (doira, kvadrat, romb, uchburchak va hokazolar)ni, o'simlik shakllari (ho'l meva, barg, o't, gul va boshqalar)ni o'z ichiga olgan ornament qilib bezatilishi mumkin.

Bolalarga dekorativ plastinka va boshqa devor bezaklarini ornament bilan chiroyli qilishni tavsiya etish foydalidir.

Dekorativ plastinkani ishlash orqali bolalar asboblardan foydalanishni, o'yinchoq yasashning har xil usullarini, eng muhimi bo'shliqni chiroyli dekoratsiyalar bilan to'ldirishni o'rganadilar. Ba'zi elementlarni naycha, kvadrat, uchburchak va boshqa shakldagi maxsus qalam bilan bajarish mumkin.

Odatda bolalar bog'chasida o'yinchoqlar uchun loy va plastilindan foydalaniladi. Odamlar qadim zamonlardan kulolchilik bilan shug'ullangan. Kulolchilik inson turmushiga singib ketgan. Loydan idishlar yasaladi, loydan yasab pishirilgan plitkalar bilan uylarning tomi, devorlari va poli yopiladi. Loy tuproq massasi bo'lib, suvga aralashtirilgach plastik materialga aylanadi. Loy qurigach, o'ziga berilgan shaklini saqlab qoladi, pishirilsa, qattiq bo'ladi. Loyning bu xususiyatlari odamlarga

undan binokorlikda, keramika, sopol buyumlari yasashda foydalanish imkonini beradi. Bolalar yasaydigan buyumlarning mazmuni ham o'ziga xos bo'ladi. Agar kulollar ishining mazmuni asosan uy-ro'zg'or anjomlarni yasashdan iborat bo'lsa, bolalar o'z atroflaridagi predmetlarning deyarli barchasini yasashga urinaveradilar. Buning sababi shuki, bog'cha bolalari uchun ko'pincha predmetni plastik tarzda ifodalashning mazmuni unchalik tushunarli bo'lmaydi, ular hali plastik shakllar go'zalligini his qila olmaydilar. Ular loydan yoki plastilindan biror narsa yasayotgan vaqtlarida ko'pincha bitta maqsadni biror predmetni yasab, keyin uni o'ynab o'tirish mumkin bo'lishini o'ylaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachining o'rgatish va rahbarligi bilan yog'och qalamdan foydalanadilar, shaklning xususiyatlarini ifodalash uchun ham qo'llaydilar.

Bolalar bilan ishlashda loy va plastilindan uch xil:

- *predmetli*
- *syujetli*
- *dekorativ o'yinchoqlar yasaladi.*

Bularning har biri o'z xususiyatlari hamda vazifalariga ega va ular topshiriq bo'yicha ham, bolalar topgan mavzular bo'yicha ham yasalishi mumkin.

Predmetli o'yinchoq va buyumlar yasashda ayrim predmetlarni tasvirlash bola uchun, masalan, rasm chizishga nisbatan ancha oson tuyuladi, chunki biror bir buyum yasayotgan bola real hajm bilan ishlaydi va shartli ifoda vositalarini qo'llamaydi. Bolalar uy-ro'zg'or anjomlarini qiziqib yasaydilar. Shuningdek, ular plastik shakldan ko'ra konstruktiv predmetlarni ifodalashni tezroq o'zlashtiradilar.

Tadqiqotlar ta'lim natijasida bolalarga uy-ro'zg'or anjomlarini dastlab konstruktiv, keyin plastik usulda ifodalash usulini nisbatan to'g'ri ifodalashni o'rgatish mumkinligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun bog'chada kichkintoylarga predmetlarning asosiy shakli va eng yaqqol belgilarini ifodalashni o'rgatish vazifasi turadi. Syujetli o'yinchoqlar yasash ham rasm chizish bilan qiyoslanadigan rasm chizishga nisbatan o'z spetsifikasiga ega. Rasmda syujetli kompozitsiya ko'pincha tasvirlashning shartli usullaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, loy va plastilin o'yinchoqlar yasash shakllarni shartli ravishda o'zgartirishni va fazo to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun nisbatlarni qisqartirishni taqozo etmaydi. Bolalar odatda keng syujetli tasvirlashga intilmaydilar — buni bog'chadagi kichik va o'rta guruhda ham, ba'zan katta guruhda ham kuzatish mumkin. Bola, masalan uy-ro'zg'or anjomlarni yasayda va o'sha zahoti ularni o'ynay boshlaydi. Odatda syujetli o'yinchoqlar yasash mana shunday o'yindan boshlanadi. Bolalar o'yinchoqning mazkur turiga qiziqishi, tasvirlash usullarini o'rganishi tufayli keng syujetli o'yinchoqlarni ham yasaydilar. Syujetli o'yinchoq yasash boladan ko'p ishlashni talab qiladi, chunki u kompozitsiyaga kiruvchi har bir predmetni yasashi, uni taglikka yoki tagliksiz kerakli holatda o'rnatishi, detallar bilan to'ldirishi lozim.

O'sib kelayotgan avlodni mehnatsevarlik, bunyodkorlik ruhida tarbiyalash xalqimizning tug'ma fazilatlaridandir. Buning uchun esa, avvalo, ularda mehnatga, kasb-korga qiziqish uyg'otiladi. Ma'lum kasb-hunar, uni egallagan mutaxassis to'g'risida dastlabki tasavvur va tushuncha hosil qilganidayoq, kichkintoy ko'nglida iliq hislar paydo bo'ladi, hayot uchun kerakli turli narsalarni yasayotgan kishilarni hurmat qilishga o'rganadi.

Zero, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat tarbiyasi bolalarni uyushqoqlik, mehnat jarayoniga shaxsiy tashabbus bilan qo'shilish, mehnat faoliyatida o'zini o'zi nazorat etish, o'ziga o'zi baho berish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, mehnatga mas'uliyat bilan yondashish kabi sifatlar bilan birga, o'zgalarning mehnat natijasiga hurmat, ularning kasbiga qiziqishni tarbiyalaydi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kulolchilik san'ati bilan tanishtirish, ularning ishi inson uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratish zarur. Bola o'sa borgan sari kundalik hayotda kulollar yaratgan uy-ro'zg'or buyumlariga bo'lgan ehtiyoj, kulolchilik kasbining zaruriy kasblardan ekanligi bilan tanishib boradi. Tarbiyachi kulolchilik kasbining ahamiyatini bolaga uning yoshiga mos tarzda anglatishi, davlatimiz tomonidan har bir kasb egalariga berilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilgan imtiyoz va shart-sharoitlar haqida ham esda qolarli qilib so'zlab berishi zarur. Ana shunda, aytish mumkinki,

- Bolalarda kulolchilik kasbiga xayrxohlik, qiziqishni uyg'otish.
- Kulolchilik kasbining amaliy ahamiyatini bolaning ehtiyojiga bog'lab tushuntirish.
- Kulolchilik kasbi bilan tanishtirishda dastlab bolalar e'tiborini mehnat natijasi,

mahsuliga, so'ngra esa mehnat jarayoni va unda qo'llaniladigan vositalarga qaratish imkoni hosil bo'ladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda loy mashg'ulotlarida kulolchilik kasbiga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish kabi katta masalaning ayrim qirralarini ko'rib chiqib shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Bolalarda kulolchilik kasbiga bo'lgan qiziqishlarini loy mashg'ulotlarida o'stirish kerak. Buni amalga oshirishda loy mashg'ulotlarining ahamiyati g'oyat kattadir. Bolalar bilan ishlashda hamisha oddiydan murakkabga sari prinsipiga amal qilish kerak. Ularga beriladigan topshiriqlarga asta-sekin murakkablik elementlarini kirita borish darkor. Biroq bunda bolalarning yoshi va shaxsiy qobiliyati hamisha inobatga olinishi kerak.

Bolalarda diqqat, fikrni bir Yerga jamlay bilishlik, kuzatuvchanlik, xotira, iroda va uquvni tarbiyalash tarbiyaning asosini tashkil etadi. Bunga erishilgan taqdirdagina ko'zlangan maqsad sari dadil odimlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.

3. Sh.T.Xasanova. Tasviriy faoliyatga o'rgatish. T.: Tafakkur. 2020
4. Kim bo'lsam ekan. T.: «Voriz nashriyot».

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MEHNAT TARBIYASINI TASHKIL QILISH SHART-SHAROITLARI

Xasanova Sh.T.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim texnologiyalari"
kafedrası dotsenti,*

Aliqulova M.

*Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha
ta'lim 301-guruh talabasi*

Mehnat tarbiyasi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim tomonlaridan biridir. Bolalar bog'chasidagi mehnat tarbiyasi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish, bolalarni o'zlarining qo'llaridan keladigan mehnat faoliyatiga jalb qilishdan iboratdir. Bolalarni kattalar mehnati tanishtirish jarayonida tarbiyachi ularda mehnatga ijobiy munosabat, uning natijalariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hissini tarbiyalaydi.

MTTdagi mehnatning asosiy turlari-bu maishiy –xo'jalik mehnati, tabiatdagi mehnat, qo'l mehnati — uni tashkil etish shakllari: topshiriq, navbatchilik, bolalarning jamoa mehnati hisoblanadi. Topshiriqlarda bolalar bog'chasida barcha yosh guruhlarda keng foydalanadilar. Kichkintoylar bilan mehnat tarbiyasi bo'yicha ish olib borayotganda nima uchun ishni bola tarbiyasi bilan birgalikda bajaradigan individual topshiriqlardan boshlash va bir oz muddatdan keyingina boshqa shakllarga o'tish lozimligini tarbiyachi yaxshi bilishi kerak. Ular taqlidga juda moyil bo'ladilar, o'zlarining xatti-harakatlarini o'rtoqlariniki bilan muvofiqlashtira olmaydilar hamda jamoa uchun zarur bo'lgan tezlikda ishlolmaydilar, ular ko'p chalg'iydilar, boshlagan ishini oxiriga eotkazmaydilar. Chunki bu yoshda bolalarni natija unchalik qiziqitirmaydi, ularni harakat jarayonining o'zigina jalb qiladi. Shuning uchun faqat yilning ikkinchi yarmida boshlab, bolalar ayrim mehnat tajribasiga ega bo'lganlaridan keyin, tarbiyachilar guruhiy topshiriqlardan foydalanadilar. Bu yoshdagi bolalarni mehnatga birlashtirishning asosiy shakli "yonma-yon" mehnat bo'lib, unda bir bola mustaqil ishlaydi va tarbiyachi oldida o'z ishi uchun javob beradi, bu ishda bola jamoa ish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni mashq qiladi. Yil oxirida mustaqillikning ma'lum darajasini talab qiluvchi muntazam mehnat-navbatchilik kiritiladi.

Bolalar mehnatini tashkil qilishning eng murakkab shakli jamoa mehnatdir. U bolalar bog'chasining malakalar nisbatan barqaror bo'la boshlagan, mehnat natijalari esa amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan katta va tayyorlov guruhlarida keng qo'llaniladi. Bu vaqtda bolalar

navbatchilikning har xil turlarida qatnashishda va xilma-xil topshiriqlarni bajarishda yetarlicha tajribaga ega bo'ladilar. Yetilgan imkoniyatlar esa pedagogga mehnat tarbiyasining murakkabroq vazifalarini hal etish sharoitini yaratadi: u bolalarga bo'lajak ish haqida kelishib olishni, zarur bo'lgan tezlikda ishlashni, topshiriqni ma'lum muddatda bajarishni o'rgatadi. Tarbiyachi katta guruhda bolalarni birlashtirishning eng asosiy usullaridan bo'lgan – umumiy mehnat shaklidan keng foydalaniladi, chunki bu shaklda bolalar hamma uchun umumiy topshiriq olishadi va ish oxirida bajarilgan ishga umumiy yakun chiqariladi.

Bolalar ish jarayonida bir-birlariga bog'liq bo'lib bajaradigan birgalikdagi mehnat alohida ahamiyat kasb etadi. Birgalikdagi mehnat pedagogga bolalar o'rtasidagi muomalaning ijobiy shakllarini: bir – birlariga xush muomalalik bilan iltimos qilib murojaat qilish, birgalikda harakat qilish, bir-birlariga yordam berish haqidagi kelishish ko'nikmasini tarbiyalash imkonini beradi.

Bolalarning qo'l mehnatini tashkil qilish jiddiy e'tiborni talab qiladi. Kuzatishlar tarbiyachilar bu mehnatning barcha turlaridan qanday foydalanayotganliklarini, mehnatning qaysi turlari bolalar hayotidan barqaror o'rin olganligi va qaysilari endi kiritilayotganliklaring, bolalar qaysi malakalarni egallab olganliklari va egallayotganliklarini aniqlashga imkon beradi. Qo'l mehnatini bajarish orqali bola natijaga erishadi — narsa, buyum vujudga keladi. Bolalar yopishtirish, bo'yash, qir-qish, arralash, mix qoqishni, tikish va shunga o'xshash oddiy mehnat malaka va ko'nikmalarini egallab oladilar.

Katta va tayyorlov guruhlarida — vazifalarni mustaqil taqsimlash, borcha zaruriy harakatlarning izchil bajarish, ishda gigiyena qoidalarining barcha talablariga rioya qilishga e'tibor berish lozim. Mehnat tarbiyasi bo'yicha ishlarni nazorat qilishda guruhlar o'rtasidagi ketma-ketlilikning qaror topganligiga hamda tarbiyachi va boshqa xodimlarning talablaridagi birlikka e'tibor berish kerak.

Maktabgacha ta'lim millatning avvalidir, millatning sarchashmasidir. Zero tarbiya ishi qanchalik erta boshlansa, hosil ham shuncha erta ko'zga tashlanadi. Shuning uchun, biz tarbiyachi pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan etuk, jismonan sog'lom, axloqan pok, mehnatsevar va estetik barkamol inson qilib tarbiyalashdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani kuzatish va ekskursiya jarayonida so'z boyliklari, lug'atlarini boyitish, kattalar mehnati bilan tanishtirish ham muhim. Masalan: "Oshpaz xolaning mehnati", "Duradgorning ishi", "Kir yuvuvchi xolaning mehnati" va turli sohalar bilan tanishtirish davomida bolalar ularni kuzatadilar va barcha kasbdagi kishilarning mehnatini qadrlash, hurmat qilishni o'rganadilar. Yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim masaladir.

Mehnat inson hayotini go'zallashtiradi, ruhini pokiza, aqlini teran qiladi. Mehnat orqali inson komillikka erishadi. Shuning uchun bolalarni tarbiyalashni hozirgi zamon talablariga mos ravishda olib borish lozim, binobarin, har taraflama mukammal tarzda singdirilgan bilim, tarbiya yosh go'dak

qalbida, ongida muhrlanib qoladi, ezgu samaralar beradi. Buning uchun tarbiyachilar barkamol – ma’nan etuk, uddaburon, har tomonlama hozirjavob, mehribon bo‘lishlari kerak. Yoshlarni tarbiyalash sohasida sabr-matonat, chidam va qunt bilan ish olib borishlari lozim. Shundagina vatanparvar, mehnatsevar, mehribon insonlarni, etuk shaxslarni tarbiyalay olamiz.

Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi davrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir kishi kamolotida va umuman jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bog‘cha yoshidagi bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tomondan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi muhim ahamiyatga egadir. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olib tashkil etiladi, unga to‘g‘ri rahbarlik qilgandagina yetarli natijaga erishish mumkin. Bola kubiklarni bir joydan ikkinchi joyga: mashinadan stolga, stoldan mashinaga ko‘chiradi va hokazo. Tarbiyachi boshqa stol ustidagi kubiklarni ko‘rsatib, uni mashinada shkafga olib borish kerakligini aytadi. Bola kubiklarni mashinasida shkafga tashiy boshlaydi va joyiga tartibli qilib joylab qo‘ya boshlaydi. “Qatnov” bir necha marta takrorlanib, barcha kubiklar joyiga yig‘ishtirilib qo‘yiladi. Bolalar faoliyatida maqsad paydo bo‘ladi. Keyingi galda bolaning o‘zi o‘ynayotgan o‘rtoqlariga o‘ynab bo‘lgandan keyin o‘yinchoqlarni mashinada joyiga olib borish qo‘yishni aytadi.

Katta guruh bolalarida mustaqil maqsad qo‘yish qobiliyati moddiy samara beradigan mehnat turlarida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Gulzorda, ekinzorda ishlash, o‘yinchoqlar yasash va boshqalar. Faoliyatni rejalashtirish mehnat tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarni o‘z faoliyatlarini taxminiy rejalashtirib olishlariga o‘rgatish va ular faoliyatiga rahbarlik qilishi lozim. Bog‘cha yoshi davrida mehnat va o‘yin o‘zaro bog‘liq holda kechadi, biroq har qanday holda ham bolalar mehnatini o‘yinga aylantirish, ularning farqini yo‘qqa chiqarish noto‘g‘ri bo‘lur edi. Tarbiyachilar va ota-onalar ta’sirida asta-sekin bolalar mehnati o‘z vazifasi, mazmuni, metodi va tashkil etilishi bilan mustaqil faoliyat sifatida ajratib boriladi. Bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishda mehnat natijasiga bolalarda mehnatga havas hissini tarbiyalash uchun yordam beradigan pedagogik omil deb qarash kerak.

Mehnatda natijaga erishish, mehnat malakalarini shakllantirishda va pedagogning va bolalar o‘rtoqlarining bahosi va o‘ziga-o‘zi baho berish katta ahamiyatga ega. Bolalar yasagan buyumlar o‘yin va mashg‘ulotlarda qo‘llanilsa, ular o‘zlari yasayotgan buyumlar yanada sifatli bo‘lishiga intiladilar. Ular biron ishni mustaqil bajarganlaridagina o‘z mehnatlari boshqalar uchun foydali ekanligini ongli ravishda bilib oladilar. Masalan, onalar va buvilar uchun 8-mart bayramiga sovg‘a tayyorlash, kichik guruh bolalari maydonchasini yig‘ishtirishdagi yordamlashishlari, yirtilgan kitoblarni yamab berish, konsert va teatr qo‘yib berish va boshqalar bolalarda mehnatining muayyan natijasiga intilish uyg‘otadi, faoliyatning ijtimoiy sabablarini anglatib, mehnatga havasini, ishni bajarishda bolalarning o‘z oldilariga qo‘yadigan talablarini oshiradi.

Pedagog rahbarligida mehnatning ijtimoiy sabablarini hamma muhim tomonlari shakllanadi. Kattalar mehnati va uning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi bilimlari o'zlashtirib olinadi.

Maktabgacha tarbiya yoshi davrining o'ziga xos tomonlaridan yana biri bolalar mehnatining o'yin bilan bog'liqligidir. O'yin jarayonidagi biror harakat doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkinchi tomondan, mehnat jarayonini bajarishda uni o'yin shakliga aylantirishadi, masalan, barglarni zambillarda tashishadi, mashinalarda yurishadi. Shu bilan birga o'zining xususiyati, mazmuni, yuzaga kelish sababiga ko'ra mehnat va o'yin bir-biridan farq qiladi. Mehnatda maqsad qo'yiladi, uni amalga oshirish, natijaga erishish uchun shart-sharoit yaratiladi, vositalar izlab topiladi. O'yinda esa bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladi. O'yinda mehnat singari biror aniq natijaga erishilmaydi, ammo u mehnat singari bolalarga quvonch bag'ishlaydi, ular o'zlarida qoniqish hissini sezadilar. O'yinda bola o'z o'yiganini rivojlantirishi yetakchi rolni o'ynaydi, mehnatda esa natijaga erishish yo'lidagi mehnat harakatlari, o'yin o'zining rivojlanishdagi har qanday bosqichda to'xtalishi mumkin, mehnatda esa albatta ko'zlangan natijaga erishiladi. Bolalarning mehnat faoliyati qachon va qanday qilib o'yindan ajratiladi? Kichik bog'cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o'z-o'ziga xizmatdir. Bu kichik bolalar uchun ancha mashaqqatli ish. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni mehnatning bu turiga o'rgatishda ko'pincha o'yin vaziyatlaridan foydalaniladi. ("Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz", "Qo'g'irchoqni uxlatamiz" va shularga o'xshashlar). Avvaliga bolalar o'yin obrazi orqali mehnatga o'rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan harakat qilishni o'rganadilar. Sekin asta o'z-o'ziga xizmat qilish malaka, ko'nikmalari shakllana boradi. Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ahloqli qilib tarbiyalash, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, mehnat qilish xohishini singdirib borishdir.

Mehnat tarbiyasining vazifalari xilma-xildir, uning uchun ularni guruhlar bo'yicha quyidagicha turkumlarga ajratiladi:

Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil faoliyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan belgiladi:

- Bolalarni maqsad qo'yishga, mehnat malakalari, ko'nikmalari, mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollari tanlab olishga o'rgatish.

- Bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jarayonlarini mehnatda qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.

- Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakatlarga qiziqish uyg'otish orqali mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijimoiy ahamiyatli ekanligini tushunib etish.

Ikkinchi guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan:

- Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish.
- Bolalarda mehnat ahliga hurmatni, ularga qo‘lidan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash.

- Kattalarni mehnat natijalarini asrab avaylashga o‘rgatish.

Uchinchi guruh vazifalari mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan:

- Bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatda qatnashish, boshlagan ishini oxiriga etkazish uchun bor kuchini ayamalik, o‘z shaxsiy mehnatiga nisbatan to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash.

- Javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlik, qat‘iylik, tashabbuskorlik va faollik, sabrmatonatlik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

- Madaniy xulq va o‘z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o‘zaro kelishilgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o‘z mehnati bilan qatnashish, o‘zi va o‘rtoqlarining mehnatini xolisona baholash, yordam berish.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida mehnat tarbiyasi ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

- Bolalarning o‘zini mehnatga o‘rgatish.
- Kattalar mehnati bilan tanishtirish.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar quyidagi mehnat turlariga jalb qilinadi: o‘z-o‘ziga mehnat qilish, xo‘jalik-maishiy mehnat, tabiat quchog‘idagi mehnat va qo‘l mehnati.

Mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallab olish – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnat jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar bola mehnat harakatlarini bilmasa, u hech qachon mehnat natijasiga erisha olmaydi. Bolalar mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallab olganlaridagina mehnat jarayonini bajonidil bajaradilar. Masalan: tikishda ipni o‘lchab kesib olish, ninaga o‘tkazish, uchini tugish, tikish, o‘yinchoqni yasash uchun egish, bukish, taxlash, burchaklarini bukish, qirqish, tikish kabi mehnat harakatlarini egallab olishlari kerak bo‘ladi. Bu ish harakatlarini ma’lum tartib bilan bajarish uchun har bir bola o‘z mehnat faoliyatini rejalashtirib o‘l bilishi kerak.

Mehnat jarayonini rejalashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maqsad qo‘yish, mehnat faoliyati uchun kerakli ish qurollarini tayyorlab olish, qaysi harakatlarini qaysi izchillikda bajarish kerakligini va undan kutilgan natijani aniqlab olish, ish joyini yig‘ishtirib qo‘yish.

Mehnat faoliyatini rejalashtirib olishga o‘rgatish mehnatni sifatli bajarishga va mehnat madaniyatiga o‘rgatadi.

Natija – mehnat faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni bolalar ongli ravishda anglab etishlari kerak. Natijaga erishish bolalarda mehnat qilish odatini, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi, mehnat harakatlarini sifatli bajarishga o‘rgatadi.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
3. Sh.T.Xasanova. Tasviriy faoliyatga o‘rgatish. T.: Tafakkur. 2020
4. Бездухов В.П. Теория и практика приобщения учащихся к ценностям.- Самара,2002.
5. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте./ Л.И. Божович - Москва.: Просвещение, 1968. - 464 с.

O‘ZBEKISTONDA BUNYOD ETILGAN INSHOOTLAR BILAN TANISHTIRISH ORQALI BOLALARDA BUNYODKORLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISH

Xasanova Sh.T.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim texnologiyalari”
kafedrasi dotsenti*

Imomova N.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim texnologiyalari”
kafedrasi o‘qituvchisi*

Vatanimizdagi bunyodkorlikka oid ishlar namunasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda bunyodkorlik tuyg‘usini shakllantirish masalasiga bolalarning maktabgacha yosh davridanoq ahamiyat berilishi O‘zbekistonning chinakam fidoyi fuqarosini, bunyodkor insonni tarbiyalash muammosining asosiy negizini tashkil etadi. Dastlabki bunyodkor tuyg‘ularini shakllantirishning muhim vositalari madaniy-tarixiy merosi bo‘lgan me’moriy obidalaridir.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: “Asrlar davomida aql zakovati ila bunyod etgan boy ma’naviyati tufayli xalqimiz mag‘rur yashadi. Mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Ana shu milliy g‘urur bugungi istiqlolimizning oltin poydevoridir”.

Bunyodkor kishi – “Ezgu o‘y – ezgu fikr – ezgu amal” tamoyiliga amal qiluvchi va shu yo‘lda samarali faoliyat ko‘rsatuvchi inson (“Avesto) kitobidagi ta’rif.

Bunyodkor kishi – xalqparvarlik, tinchlik-ozodlik uchun kurashuvchi, xur fikrli va bag‘rikeng, do‘stlik va birodarlikni ulug‘lovchi hamda taraqqiyotni sevuvchi kishi.

Bunyodkorlik – kishida barpo etuvchilik xislatlarining majmui bo‘lib, taraqqiyot yo‘lidagi g‘ayrat-shijoat namunasini ko‘rsata oladigan xalq baxt saodati yo‘lidagi harakatlar jarayoni. Bunyodkorlik kishilarning ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi faoliyati.

Bunyodkorlik ilm va hunarni egallagan, jismoniy jihatdan chiniqqan mehnatsevar, kamtarin mazlumlarga g‘amxo‘r sofdil, mard va jasur, oliyjanob inson faoliyati jarayoni.

Bunyodkor g'oya insonni ulug'laydigan uning kuch g'ayrati va salohiyatini oshirib, xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida mehnat taraqqiyot, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g'oyaga aytiladi.

Bunyodkor g'oyalar tizimida ma'no-mohiyatiga ko'ra o'zaro mushtarak bo'lgan ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari xalqlar, davlatlar tarixida, insoniyat hayotida hamisha muhim o'rin tutib keladi. Chunki inson ozod bo'lmasa, xalq mustaqil bo'lmasa, jamiyatda adolat barqaror bo'lmaydi. Bunyodkor g'oyalar eng oliy insoniy qadriyatlarga asoslanuvchi, doimiy taraqqiyotni yoqlovchi, shaxsni, yaratuvchanlikka undovchi insoniyat istiqboli va jamiyat ravnaqini ta'minlovchi g'oyalardir.

Bunyodkor g'oyalarning yetakchi asoslari: tinchlikni saqlash, urushning oldini olish, millat va elatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik va hamkorlikni qaror toptirish, turli dinlarga e'tibor qiluvchilarning tolerantlikka ega bo'lishlarini yoqlovchi, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlik va demokratik tamoyillariga asoslanishini targ'ib etish.

1992 yilning avgustida Mustaqillik maydonida ulkan Yer shari tasviri va unda O'zbekiston xaritasi o'zining yaqqol ifodasini topgan Mustaqillik monumenti qad rostladi. Va u ozodligimiz timsoliga aylandi. Bosh maydonimizda tillodek tovlangan Yer shari timsolida yurtimizning balqib-jilolanib turishi mana shunday mazmun-mohiyatga ega. Bu teran falsafiy ma'no tarixiy adolatning tiklanishini ifodalab, har qanday ko'ngilda surur uyg'otadi.

"Turkiston" saroyi ham bizning ko'z oldimizda, odamning havasini keltiradigan ko'rkam san'at koshonasiga aylandi. 1993 yilning 4 sentyabrida "Turkiston" madaniyat saroyining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Bu erda bo'lgan odam ulug'likni his etadi, ko'rkli-mahobatli saroydan boshqacha bir kayfiyat bilan qaytadi. Milliy va zamonaviy me'morchilikning mumtoz namunalarini o'zida mujassam etgan bu mo'tabar koshona nainki Bosh maydonga, balki azim shahar ko'rkiga ko'rk, chiroyiga chiroy bag'ishlab turibdi. "Turkiston" saroyi xalqaro anjumanlar, yirik san'at bayramlari o'tadigan, ulug' ayyomlar nishonlanadigan nufuzli va mo'tabar ma'rifiy koshonaga aylandi. Demak, u xalqimizga xizmat qilmoqda, demak, u yosh avlodni, farzandlarimizni ona Vataniga muhabbatli etib tarbiyalamoqda.

Bolalarda bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish va kasbga yo'naltirish masalasiga maktabgacha yosh davridanoq ahamiyat berilishi O'zbekistonning chinakam fidoyi fuqarosini, vatanparvar insonni tarbiyalash muammosining asosiy negizini tashkil etadi. Bolalarda bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirishning muhim vositalari avlod ajdodlarimiz yaratgan tarixiy obidalar, vatandoshlarimiz bunyod etayotgan buyuk inshootlar, shaxar va keng ko'chalar, qayta ta'mirlanayotgan muzey va teatr binolari, ko'priklar, maktablar, bog'cha kabilardir. Bola Vatanimizdagi bunyodkorlikka oid ishlar bilan tanishar ekan, bunyodkor-kishilarning hayoti va faoliyati bilan ilk bor chinakamiga to'qnash keladi. Ular ushlagan, yaratgan narsalarni qo'li bilan

ushlaydi, milliy koloritni his etadi. O'zini ulkan madaniyatga daxldorligidan quvonadi, go'zalligidan hayratlanadi va ular bilan faxrlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda dastlabki bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirishni qurish-yasash mashg'ulotlarida amalga oshirish samarali natija beradi. Qurish-yasash lotin tilidan olingan bo'lib, turli predmetlarni, qism va elementlarni ma'lum bir holatga keltirish, degan ma'noni bildiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni qurilish materiallari yordamida o'yin va mashg'ulotlar o'tkazishning ahamiyati katta. Qurilish o'yinlarining mazmuni bolalarning o'zlari yaratadilar. Bolalar ko'pincha kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, "Quruvchi ishchi" rolini bajaradilar. Bolalar doimo atrofda qurilayotgan yangi turar joylarni, maktablar, bolalar bog'chalari, magazinlarni kuzatib boradilar va tarbiyachidan hukumatimizning xalqlarga qilayotgan g'amxo'rlikini eshitadilar. Tarbiyachi bolalarda dastlabki bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish uchun istiqloq yillarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishtirib boradi.

Yurtimizda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qarshi, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon kabi mashhur shaharlar borki, ular o'z chiroyi, jozibasi va salobati bilan asrlar osha butun dunyo ahlini maftun etib kelyapti. Ota-bobolarimiz mehnati, aql-zakovati ila bunyod etilgan bu shaharlar buyuk me'morchilik san'ati namunasi sifatida dovrug'i taratgan. Ajdodlarimiz meros qoldirgan me'morchilik an'analari bugungi kunda ham davom ettirilayapti. Mustaqilligimiz sharofati bilan yangi-yangi inshootlar birin-ketin bunyod etilmoqda. Bunday ulkan bunyodkorlik o'zgarishlarini farzandlarimiz ota-onalari, bog'cha opalari bilan sayrga, hordiq olgani hamda sayohatga chiqqanlarida, o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Ularning diqqat-e'tiborlarini yanada jalb etishda, vatanga bo'lgan mehrlarini oshirishda bu qurilishlar mohiyati haqida aniq tushuncha berish lozim. MTTda mashg'ulotlar ketma-ketligiga ahamiyat bergan holda ularni bir-biriga bog'lab, turli faoliyat turlarida, mashg'ulotlarda kichkintoylar ongiga singdirib borilishi ularning dunyoqarashlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga bolalarning kattalar mehnatiga hamda me'morchilik, quruvchilik kasblariga qiziqishlari ortadi. Nutq o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotlarida mustaqillik yillarida qanday binolar, inshootlar, yo'llar, ko'priklar qurilgani yoki ta'mirlanganligi haqida, ularning ahamiyati, nima maqsadda foydalanishimiz haqida suhbatlar o'tkazishimiz mumkin. "Me'mor kim?", "Quruvchi kim?", "Ta'mirlovchi kim?" kabi savollar berib, bolalar fikrini umumlashtirgan holda, bilimlarini yanada boyitib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning turli burchaklarida bunyodkorlik ishlari olib borilayapti. Masalan, Amir Temur muzeyining barpo etilishi ajdodlar ruhini shod etadi, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini oshirishga xizmat qiladi, kelajak avlodlarni ota-bobolarimizning ma'naviyat va ma'rifatga qo'shgan hissalari, bunyodkorlik ishlari bilan tanishtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish va kasbga yo'naltirish maqsadida ishlab chiqilgan mazmun, uslub, pedagogik shart-sharoitlarning samaradorlik darajasini aniqlash natijalari tajriba-sinov ishlarining asosiy yo'nalishini belgilab berdi. Shunga muvofiq, tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun tayyorlangan ayrim ishlanmalar, uslubiy ko'rsatmalar, bolalar uchun mashg'ulotlar ularning faoliyat tizimlari tavsiya etildi. Unga ko'ra tajriba-sinov ishlarining:

a) birinchi navbatdagi vazifalari sifatida bevosita tarbiyachilarning pedagogik, psixologik bilimlari, uslubiy malakalarini tarkib toptirish;

b) tarbiyachilarni bolalarda shakllantirish lozim bo'lgan estetik tasavvurning tarkibiy tamoyillari, ularning mazmuni haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishlari;

v) Vatanimizdagi bunyodkorlikka oid ishlar namunasida katta yoshdagi bolalarda bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish va kasbga yo'naltirish jarayonini pedagogik jihatidan boshqarish, lozim bo'lgan hollarda bu jarayonga muayyan tuzatish, o'zgartirishlar kiritish;

g) har bir bola bir dunyo, ayni paytda, o'zicha o'zgacha dunyo ekanligini bilish va shunga monand faoliyat ko'rsatish

d) olinayotgan natijalardan to'g'ri xulosa chiqara olish masalalari kuzatildi. Kuzatishlarning natijalari tarbiyachilarda kerakli yetarli uslub bilan ta'minlanganda pedagogik bilim va malaka bosqichma-bosqich takomillashib borganini ko'rsatadi.

MTTda bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish, va shu orqali kasbga yo'naltirish jarayoni ilmiy-nazariy va metodik jihatdan asosli tarzda tashkil etish va bu orqali bolalarda bunyodkorlik tuyg'usi shakllantirish va kasbga qiziqish samaradorligini oshirish mumkin.

Bundan tashqari Vatanimizdagi bunyodkorlikka oid ishlarni tasvirlash orqali bolalarda dastlabki bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish va kasbga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratildi. Mashg'ulotlar jarayonida Vatanimizdagi bunyodkorlikka oid ishlar namunasida katta yoshdagi bolalarda bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish va kasbga yo'naltirish ishlari olib borildi. Ularni rivojlantirish, takomillashtirish bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilarning pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.; "O'zbekiston", 1996.
2. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008.90-bet.
3. O. Musurmonova. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. T, "O'qituvchi" 1991.94-bet.
4. P. Sh. Zoxidov. Me'mor olami. Qomuslar bosh tahririyati. T., 1996.

KASBIY MA'LUMOT KASBGA YO'NALTIRISHNING BIR BO'G'INI SIFATIDA

Xasanova Sh.T.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim texnologiyalari"
kafedrasi dotsenti*

Imomova N.Z.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim texnologiyalari"
kafedrasi o'qituvchisi*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan etuk o'z vatanining tarixi, buguni va kelajak uchun qayg'uradigan, shuningdek, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talablariga mos keladi. Lekin ushbu tushunchaga tahliliy yondashsa, uning naqadar serqirra va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa etuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muhtoj bo'lib boraveradi.

Ma'lumki, har qanday shaxs kasb tanlash jarayonida mazkur sohaga taalluqli ma'lumotlar zaxirasiga ega bo'lishi talab qilinadi. Bu jarayon albatta, kasbga yo'naltirish ishlari negizida tashkil qilinadi va amalga oshiriladi. Ayniqsa yoshlarni kasbiy bilim, tasavvurlarini boyitishda ongli kasb tanlashlarida kasbiy ma'lumotning o'rni beqiyosdir.

Shu o'rnida psixologik adabiyotlarda kasbiy ma'lumot tushunchasiga berilgan ta'riflarga to'xtalib o'tamiz. Kasbiy ma'lumot- kasblar va kasbiy tanlov haqidagi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan jarayondir. Kasbiy ma'lumot kasbga xos ahamiyatli qiziqish va motivlarni shakllantirishga imkoniyat beradi. U shuningdek, faoliyatning turli ko'rinishlariga bo'lgan moyilliklari va qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi [2,s 86]. Kasbiy ma'lumot-fuqarolarning mehnat bozoridagi holatini rivojlanishi, kasblarning xususiyatlari, shaxsga qo'yiladigan talablar, mehnat sharoitlari hamda rejimi shuningdek, ma'lum korxonalar haqidagi ma'lumotlar bilan ommaviy va individual ta'minlanganligi bilan belgilanadi [4,s 105]. Kasbiy ma'lumot-bu yoshlarda turli xil kasblarning mazmuni haqida umumiy tasavvurlarni, kadrlarni tayyorlash shakllari va sharoitlari, turli xil kasb yoki mutaxassislik tomonidan insonga qo'yiladigan talablar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish jarayoni. Kasbiy ma'lumot-o'quvchilarni kasblar dunyosi bilan to'liq va har tomonlama tanishishini ta'minlaydi. O'quvchilarning kasb tanlash jarayonida uning tanlovini talablari, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, tibbiy fiziologik tomonlarini

biladilar, bu esa o'z navbatida kasbiy tanlovga tayyorgarlikni belgilab beradi. Kasbiy ma'lumotning asosiy vazifasi barcha mehnat faoliyati turlariga nisbatan mehr-muhabbatni tarbiyalash hamda mamlakatning xalq xo'jaligi ehtiyojlari bilan tanishish. Kasbiy ma'lumot-yoshlarga kasbiy jihatdan o'zini o'zi anglash jarayoni bilan bog'liq bilimlarni berish lozim, shu bilan birga shaxs xususiyatlari hamda kasbiy faoliyatning insonga qo'yadigan talablari o'rtasidagi o'zaro aloqasidir. Kasbiy ma'lumot bilan ta'minlash jarayonida o'quvchilarga kasblar va mutaxassisliklar dunyosi, kasbiy mehnat mazmuni, moddiy va ijtimoiy muhit shart-sharoitlari, ish haqi, mehnat va dam olish rejimi, ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha o'qish muddati va shakli haqida bilimlar beriladi [3,s 134].

Kasblar haqidagi ma'lumot berishni ikki bosqichi ajratib ko'rsatiladi ya'ni mikro ma'lumot va makro ma'lumot. Birinchi bosqichga aniq hayotiy vaziyatlarga bog'liq bo'lmagan umumiy xarakterdagi ma'lumotlar jamlamasini qamrab olsa, ikkinchisiga aniqlashtirilgan bilimlar zaxirasi kiradi.

Shu tariqa kasbiy ma'lumotlilik shaxs tomonidan katta doiradagi bilimlarni o'zlashtirishni taqozo etadi. Bu bilimlarning manbai real insonlar ommaviy axborot vositalari, o'zining hayotiy tajribasi va boshqa shaxslarning kasbiy faoliyatlari namuna bo'lishi mumkin. Shuningdek, kasbiy doiradagi maslahatchi nafaqat kerakli ma'lumotlarni tayyor holda taqdim etishi yoki mijozga ma'lumotlarni o'zi topishiga undashi mumkin. U mavjud bilimlarni tizimlashtirishga hamda bir-biriga qarama-qarshi ma'lumotlarni tushunishga yordam berishi mumkin.

Ma'lumot –kasbga yo'naltirish faoliyatining asosiy jihati sifatida kasbiy tarbiya, kasbiy ma'lumot, kasbiy targ'ibot va kasbiy tashviqot kabi tizimlarni qamrab oladi.

Kasbiy tarbiya-bu psixologik-pedagogik tadbirlar jamlamasi bo'lib, o'quvchilardagi kasbga yaroqlilik asosida yotuvchi shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Masalan, kasbiy yo'nalganlik, ma'lumotlilik, intizomlilik, mehnatga ijobiy munosabat va boshqalar.

Kasbiy ma'lumotlilik-bu yoshlar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va ongli kasb tanlash shartlari bilan uyg'unlashgan tadbirlar tizimi. Kasbiy ma'lumotlilik-mehnat faoliyatining ma'lum bir sohasi uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, amaliy ko'nikma, malaka va odatlar tizimidir.

Kasbiy targ'ibot-bu kasbiy ma'lumotga asoslangan tadqiqotlar tizimi bo'lib, kasbga munosabatni shakllantirish yoki korreksiya qilishiga mo'ljallangan.

Kasbiy tashviqot-bu g'oyaviy psixologik-pedagogik ta'sirlar vositasidir. Yoshlar ularning ota-onalari va boshqa guruhlarda kasbiy, axloqiy va boshqa sifatlarini shakllantirish maqsadida ular ongi va kayfiyatiga ta'sir etishdir.

Agar kasbiy ma'lumot alohida o'quv muassasasi doirasida amalga oshirilsa va shaxsiy yo'naltiruvchi xarakterda bo'lsa, unda mazkur jarayonni oldingi kasbiy diagnostikadan avval o'tkazish maqsadga muvofiq [6,s 96].

Ta'kidlash joizki, kasbiy ma'lumotlilikda kasbiy muloqot ham muhim o'rin egallaydi. Aynan o'quvchi shaxsi kasblar haqidagi bilim, ko'nikma, malakalarni muloqot jarayonida amalga oshiradilar. Buning uchun esa kasbga yo'naltirish jarayonida kasbiy muloqotdan samarali va unumli foydalanishni taqozo etadi. Shu bois, kasbiy muloqot doirasida amalga oshiriladigan faoliyat yo'nalishlariga to'xtalib o'tamiz.

Kasbiy ma'lumotli dars. Tashkil etilishi va tarkibiga bog'liq holda ishning bu shakli turli xildagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Xususan, o'quvchilarni tanlagan kasblarini o'rganish va tanlashga nisbatan qiziqishni faollashtirish, ongli kasb tanlashga mas'uliyatlilik va faol munosabatlarni tarbiyalash, kasbiy faoliyat motivatsiyasi tarkibini aniqlash va shakllantirish va boshqalar.

Kasbiy ma'lumotli suhbat. Suhbat darsdan farqli ravishda kamroq tuzilishi jihatidan muammoli yo'nalishining kamroq xarakterga egaligi bilan belgilanadi. U ham guruh va individual tartibda o'tkazilishi mumkin.

Kasbga yo'naltiruvchi stendlar kasbiy ma'lumot berishning an'anaviy usullaridan biri. Kasbiy axborotli ekskursiyalar u o'quvchilarda ishlab chiqarish korxonalarini, tashkilotlardagi mahsulotni yaratish bilan bog'liq bilimlarni shakllantiradi hamda mustaqil ishlashni o'rgatadi.

Professografik uchrashuv. Yoshlarni turli kasblarning namoyondalari bilan davra suhbatlari, uchrashuvlari o'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini oshirish yo'llaridan biri sanaladi.

Shuningdek, kasblar ta'rifini tuzish bo'yicha tadqiqot ishini tashkil qilish va "kasblar yarmarkasini" uyushtirish kabilar kasbiy muloqot mezonlaridan sanaladi. Bu esa o'quvchilarning kasbiy ma'lumotlilik darajasini oshiradi va boyitadi[5,s 101].

Shu o'rinda aytish joizki, kasbiy ma'lumotni o'quvchi shaxsiga qay tarzda berish hamda aynan necha yoshdan boshlab mazkur faoliyatni amalga oshirish barcha uchun qiziqarlidir. Xususan, bu borada kasbiy ma'lumotlilikni turli yosh bosqichlarida qay tartibda berilishiga qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Uning dastlabki bo'g'ini sifatida maktabgacha tarbiya yoshidan boshlanib, o'spirinlik davri oralig'igacha davom etadi.

Maktabgacha tarbiya yoshi. Barchamizga ma'lumki, katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda kasblar dunyosi bilan tanishish sodir bo'la boshlaydi va ularni bolalar rolli o'yinlar jarayonida o'ynab ko'radilar.

Kichik maktab yoshi. Maktabda kasblar haqida ma'lumot olishning an'anaviy usuli mehnat darsidir.

O'smirlik davri mazkur yosh bosqichida kasb tanlash ilk bora dolzarb muammoga aylanadi.

O'smirlar va o'spirinlarning ota-onalari. Bolalar va o'smirlar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda shuni inobatga olish kerakki, ularning tanlovlariga ota-onalari asosiy ta'sir ko'rsatadi.

Aytish joizki, o'quvchilar bo'lajak kasblari doirasida ma'lumot olishning o'ziga xos jihatlari bilan tanishadilar. Shuning asnosida bir jihat borki, u ham bo'lsa kasbiy ma'lumot bilan ta'minlanganlik shakllaridir.

Kasbiy ma'lumot bilan ta'minlanganlik shakllari –kasbiy axborotga egalik qilish shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, bunda o'quvchilar kasb haqida kerakli bilimlarga ega bo'lsinlar hamda keyinchalik shu bilimlar kasbiy jihatdan o'zini o'zi aniqlash chog'ida asos bo'lib xizmat qilsin. O'quvchilar tomonidan istalgan axborotga xususan, kasbiy yo'nalgan xarakteridagi axborotga egalik ma'lum bir shartlarga rioya qilingandagina samarali bo'ladi. Birinchidan o'quvchilarda kasbiy axborotli materialni idrok qilishga ijobiy munosabatni shakllantirish lozim. O'quvchilar uchun taklif etilayotgan ma'lumotlar ular uchun tushunarli bo'lishi lozim. Ma'lumotli material ham mazmunan ham shaklan o'quvchilarning yosh va ta'lim olish xususiyatlarini hisobga olgan holda berilishi kerak. Ma'lumotni berishda maxsus terminologiya yoki texnologik ma'lumotlar haddan ziyod ko'p bo'lmasligi ma'qul, chunki u tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. Ikkinchidan o'quvchilarda kasbga nisbatan ongli adekvat munosabatni shakllantirish uchun axborotni to'g'ri yetkazish lozim. U nafaqat tushunarli balki obyektiv bo'lmog'i lozim.

Kasbiy ma'lumotni samarali amalga oshirish uchun kasbga yo'naltiruvchi psixolog quyidagilarga amal qilishi kerak:

- hududning kadrlarga bo'lgan hamda ishlab chiqarishning kelajakdagi va hozirgi kun talablarini bilish;
- ma'lumotli materiallarni zamonaviy tarzda tayyorlash ya'ni o'quv qo'llanmalar, kasbga yo'naltirish varaqlari va boshqalar.
- kasbiy yo'nalganlik bo'yicha tavsiya etiladigan Adabiyotlar:ga ega bo'lish.

Kasbiy ma'lumotga ega bo'lish doirasida o'quvchilar bilan quyidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir:

- mehnat bozoridagi talab va takliflar munosabati;
- faoliyat turlarining kelajakda rivojlanishi;
- asosiy kasb va mutaxassisliklar bo'yicha ishlash xarakteri;
- mehnat sharoitlari va ish haqi;
- mutaxassis tayyorlovchi muassasalari va xodimlarni tayyorlash markazlari[6,s 147].

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, hozirgi kunda yoshlarni ongli kasb tanlashga yo'naltirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu bois, nafaqat o'quvchi yoshlarimizni balki ularga samarali ta'sir etuvchi pedagoglar, ota-onalarni ham ma'lumotlar zaxirasidan xabardor qilish lozim.

Adabiyotlar:

1. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. М.,2004.

2. Методологические и теоретические проблемы всеобщей профессиональной подготовки молодёжи. -- М., 1991.

3. Пряжникова Е.Ю., Пряжников Н.С. Профориентация. М., 2007.

4. Пряжникова Е.Ю. Технологии и методы профессиональной ориентации населения. М., 2001.

5. Чернявская А.П. Психологическое консультирование по профессиональной ориентации. М., 2001.



ОРГАНИЗАЦИЯ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА КАК ФАКТОР ГОТОВНОСТИ РЕБЕНКА К ШКОЛЕ

Хасанова Ш.М.

Основным условием усиления политической и экономической роли Узбекистан, повышения благосостояния её населения является обеспечение роста конкурентоспособности страны. Главное конкурентное преимущество высокоразвитой страны связано с возможностью развития её человеческого потенциала, который во многом определяется состоянием системы образования, где находится источник обеспечения устойчивого экономического роста страны.

Начальной ступенью формирования человеческого потенциала выступает дошкольное образование, поскольку известно, что наиболее высокие темпы развития, проявление индивидуальности происходит именно в дошкольном возрасте. Здесь закладывается фундамент личности, интенсивно формируются базовые социальные установки, основы мировоззрения, привычки, развиваются познавательные способности, эмоционально-волевая сфера, складываются многообразные отношения с окружающим миром (Л.С. Выготский, Л.А. Венгер, В.С. Мухина и др.).

В Законе Республики Узбекистан «Об образовании» (23.09.2020 г. № ЗРУ.) зафиксирована квалификация дошкольного образования как базисной, необходимой ступени единой образовательной системы.

В Законе Республики Узбекистан «О Дошкольном образовании и воспитании» (16.12.2019 г. ЗРУ №-595), Постановление Президента республики Узбекистан «Об утверждении концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года» (ПП-4312 от 08.05.2019г.) и Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении государственного стандарта дошкольного образования и

воспитания» (22.12.2020г. № 802), который ориентирован на решение острой проблемы, состоящей в нарастающем расслоении детей в плане их готовности к школе.

Современный этап развития дошкольного образования характеризуется рядом особенностей, определяющих основные тенденции, которые лежат в основе создания вариативных моделей образования. Одна из тенденций обусловлена усилением направленности образовательного процесса на личностное развитие, на самоопределение и самоактуализацию (воспитание человеческого достоинства, социального партнёрства, ответственности за свои поступки, использование мировых культурных ценностей в процессе образования) с целью обеспечения экономического развития общества.

Другая тенденция связана с объективной потребностью сохранения в Узбекистане единого образовательного пространства, определения общих сроков обучения и статуса образовательных организаций, единообразия документов по уровням образования. Для детей старшего дошкольного возраста это необходимость в обеспечении безболезненного перехода со ступени дошкольного образования на ступень образования в начальной школе. При этом преемственность дошкольного и школьного этапов образования не должна пониматься как преемственность учебных предметов и формирование специфических школьных умений и навыков уже в дошкольном возрасте, поскольку дошкольный возраст — это не подготовка «удобного» абитуриента для начальной школы. Корректнее говорить о преемственности в плане общего развития ребёнка и его психологической и физической готовности к начальной ступени школьного образования. Эти две тенденции могут быть реализованы путём организации развивающего образовательного пространства дошкольного образовательного учреждения как фактора, обеспечивающего эффективную готовность ребёнка к школе.

Таким образом, в условиях модернизации образования потребность в развитии сети дошкольных учреждений, заинтересованных в разработке мероприятий, моделей, обеспечивающих готовность ребёнка к школе, а значит пересмотр сложившейся организации образовательной работы в дошкольных учреждениях объективно возрастает.

Актуальность проблемы исследования на научно-теоретическом уровне исходит из недостаточной разработанности теоретических и практических подходов в организации развивающего образовательного пространства дошкольной образовательной организации, реализующем образовательную деятельность в рамках «предшкольного образования» и необходимости поиска и создания необходимых условий для самореализации, развития каждого ребёнка и обеспечения готовности детей к школе.

Результаты психолого-педагогических исследований внесли определённый вклад в разработку идей образования детей старшего дошкольного возраста, однако за рамками этих работ остались не менее актуальные вопросы:

- реализация индивидуального и дифференцированного подходов к исследованию процесса подготовки ребёнка к школе; применение теории личностно-ориентированного, развивающего образования детей старшего дошкольного возраста в организации развивающего образовательного пространства дошкольного образовательного учреждения;
- чёткое разграничение целей дошкольной подготовки и начального школьного образования;
- моделирование развивающего образовательного пространства дошкольного образовательного учреждения;
- создание организационно-педагогических условий, обеспечивающих готовность ребёнка к школе;
- необходимость создания единой системы критериев готовности ребёнка к школе и понимания содержания «равных стартовых возможностей» дошкольников с позиций компетентностного подхода при поступлении ребёнка в школу.

Характеризуя *состояние изученности проблемы на научно- методическом уровне*, необходимо отметить, что актуальность исследования связана с целесообразным методическим обеспечением развивающего образовательного пространства дошкольной образовательной организации, реализующего образовательный процесс дошкольников, формирующий ключевые компетенции дошкольников, обеспечивающих их готовность к школе.

Литература:

1. Афанасьев В.Г. Моделирование как метод исследования социальных систем//Системные исследования: Методологические проблемы,-М.,1985
2. Алексеева О. Задания для маленьких патриотов / О. Алексеева, Л. Петропавловская // Ребенок в детском саду. – 2010. – № 2.
3. Алешина, Н. В. Знакомим дошкольников с родным городом : конспекты занятий / Н. В. Алешина. - Москва : Сфера, 1999. - 111 с.
4. Баранникова О.Н. Уроки гражданственности и патриотизма в детском саду: Практическое пособие. - М.: АРКТИ, 2007.
5. Белая К.Ю. От сентября до сентября: Рекомендации заведующим и старшим воспитателям детских садов к планированию учебно-воспитательной, методической работы на год. – М, 1998.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI

Xaydarova Sh.N.

*Navoiy davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi
hshahlo@inbox.ru*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash orqali ularda idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlantirish, vaqt, fazoviy tushunchalarni va ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllantirish xususida bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: Moslashuv davri, vaqt va fazoviy tushunchalar, idrok, kuzatish, xotira, tafakkur, seminar-trening, obrazli tafakkur, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие познания, наблюдения, памяти, мышления, времени, пространственных представлений и восприятия социальных явлений при подготовке дошкольников к школьному обучению.

Ключевые слова: Адаптационный период, представления о времени и пространстве, познание, наблюдение, память, мышление, семинар-тренинг, образное мышление, анализ, сравнение, обобщение.

Annotation: This article discusses the development of cognition, observation, memory, thinking, time, spatial concepts and perceptions of social events by preparing preschool children for school education.

Keywords: Adaptation period, time and space concepts, cognition, observation, memory, thinking, seminar-training, figurative thinking, analysis, comparison, generalization.

*Yosh avlodni tarbiyalash, kelajak hayotga tayyorlash o'z istiqboli,
taraqqiyoti, ertangi kuni xususida qayg'uradigan har qanday
mamlakat uchun eng ustuvor vazifalardan biri sanaladi.*

Sh.M.Mirziyoyev

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktab ta'limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi va shuning uchun tashkilotlarda pedagog-tarbiyachilar tomonidan, oilada ota-onalardan bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi lozimligini anglatish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi bolani maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarda mustaqillikni, muvaffaqiyatli o'quv faoliyatini tashkil eta oladigan irodaviy shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Maktabga tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari, ya'ni 6-7 yoshdagi bolalar maktab o'quvchisi rolini bajarishga tayyor bo'ladi, unda yangi o'quv faoliyati va bilimlarini o'zlashtirishga moyillik paydo bo'ladi. Shuningdek, bolalarda shaxsiy sifatlar va psixologik tomondan tayyorlik shakllana boshlaydi. Bolaning psixik rivojlanishidagi bunday o'zgarishlar o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki maqsadga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir natijasida paydo bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar oilada ta'lim olish uchun zaruriy sharoitlar yaratilmasa, bola tengdoshlari orasida rivojlanishdan ortda qoladi. Psixolog olimlarning fikricha bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ularga ortiqcha yuklama va topshiriqlar berilsa, o'zini boshqarish va tahlil qilishga qiynala boshlaydi. Shuning uchun bolani yosh individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yuklama qo'yish lozim. Biroq har qanday yoshda shaxs o'zining baholash va yuqori darajada turishga harakat qiladi.

Psixik rivojlanish jarayonida bolalar ma'lumotlarni esda saqlash, tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirishga harakat qiladi. Ya'ni bunda optimal darajada rivojlanish imkoniyati paydo bo'ladi va yosh davriga xos o'zgarishlar ro'y beradi. Maktabga tayyorgarlik davrida bunday holatlar shakllanmasa, bola rivojlanishida salbiy burilish hosil bo'lishi mumkin. Maktabgacha yosh davrida bolalarni har tomonlama etuk qilib tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalardan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat talab etiladi. Ota-onalar va pedagoglar bolalar tarbiyasida ularning psixik rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglashlari, keyingi yosh bosqichining o'ziga xos tomonlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari lozim. Bolaning kelgusi rivojlanishida qanday o'zgarish va yangiliklar bo'lishini oldindan bilishlari lozim. Bolalarda talab etiladigan maktabga tayyorlik darajasi ota-onalarning faol ta'sirisiz namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun ota-onalar katta va maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishlari kerak. Bolalarni maktabga tayyorlashni samarali tashkil etishda albatta suratli qo'llanmalardan to'g'ri foydalanishni bilishlari, jarayonda uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf eta olishlari lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarda bolalarga tarbiya berishda paydo bo'ladigan muammolarni yechish uchun davra suhbatlari, seminar-treninglar, o'yin faoliyati orqali maslahatlar berib boriladi. Bolalarni maktabga tayyorlash davriy ravishda davom ettiriladi. Bolalar atrof-olam haqidagi bilim va tasavvurlarni turli xil usullar asosida o'zlashtirib boradilar. Masalan: buyumlarni o'rganish, tasviriy faoliyat, o'yin va x.k.larni kattalar bilan muloqot orqali o'rganadilar.

Bolada o'qitish shakli va o'quv faoliyati to'g'ri tanlansa, u o'zlashtirayotgan bilimlar maqsadga yo'naltirilgan, faollikka undaydigan bo'lsagina, samarali kechadi. Shunda bola biron bir xatti-harakatni bajarish natijasida yangiliklarni o'rganadi, tushunadi va o'zlashtiradi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarda o'quv faoliyat ko'nikmalari va xulq-atvor me'yorlarini, maktabda dars jarayonida

40 daqiqa mobaynida sabr-toqatlilik bilan o'tirish va partada to'g'ri o'tirishni bilish, pedagog savollariga qo'l ko'tarib to'g'ri javob berish ko'nikmalarini asta-sekin shakllantirish zarur. Yuqoridagi holatlar o'quv faoliyatiga tayyorlikning asosiy shakli emas, asosiysi shundaki, bolalar o'quv vazifalari va topshiriqlarini bajarishga diqqatini qarata olishlari lozim. Buning uchun bolalar guruhda partada yoki gilamda o'tirib yakka o'zi yoki tengdoshlari bilan tarbiyachi bergan topshiriqni bajarishi kerak. Tarbiyachi 1-sinfidagi o'qitish mazmuni katta va tayyorlov guruhlarda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarga o'xshash ekanligiga diqqatni qaratish talab etiladi.

Masalan: katta va tayyorlov guruhi bolalari so'zlarni to'g'ri talaffuz qila oladi, harflarni taniydi, raqamlarni va sanashni biladi hamda asosiy geometrik shakllarni ajrata oladi. O'quvchilar birinchi yarim yillikda asosan maktabgacha davrida o'zlashtirgan, ularga tanish bo'lgan bilimlarni oladilar. Bolalarni maktab ta'limiga moslashuv jarayoni ham aynan birinchi yarim yillikda qiyinchilik bilan o'tadi. Maktabda bilim va ko'nikmalarni samarali o'zlashtirish o'quvchilarda aniq maqsad asosida o'quv faoliyatini tashkil etishni talab etadi. Maktabgacha yoshda bolalar bilimlarni ko'p qismini ixtiyorsiz o'zlashtiradilar, mashg'ulotlar qiziqarli shaklda turfa xil tashkil etiladi. Bolalar xohish-istaklariga ko'ra turli faoliyat orqali bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin. Bolani maktabga tayyorlashda faqatgina ularning xotirasi, diqqati va tafakkurini rivojlantirish yetarli emas. Bolaning maktabga tayyorlik darajasi maktabda olish lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini ta'minlash bilan amalga oshiriladi. Ya'ni o'quv faoliyati va o'qitish mazmuni bolaning bilish jarayonlari, obrazli tafakkurining yuqori darajada rivojlanishiga turtki berishi lozim. Maktab ta'limiga tayyorlikni ko'rsatkichi sifatida bolada geometrik shakllarni tahlil qila olish, ulardan turli xil obrazlar yaratish, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish, ifodali, ravon gapirish malakalariga egaligini misol qilishimiz mumkin.

Bolaning bilish faoliyatini yuqori darajadali o'quv motivatsiyasini yetarli ekanligiga kafolat bermaydi, balki bolaning bilishga qiziqishini oshirish maktab ta'limining mazmun va shartlariga uzviy ravishda bog'liq bo'lishi kerak.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachisi bolani maktab ta'limiga tayyorlashda mashg'ulotlarni zamonaviy usulda tashkil etishi, ota-onalar bilan muntazam ravishda hamkorlik qilishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, izlanishi, umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, jismoniy, psixologik, aqliy, axloqiy tayyor bolalargina maktab ta'limiga tayyor hisoblanadi. Bu jarayonda esa maktabgacha ta'lim tashkilotining va ota-onaning roli muhim ahamiyatga ega, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-xodimlari tomonidan berib kelinayotgan ta'lim-tarbiyani oilada ota-onalar o'z nazoratlariga olsalar; oilada bolaning ichki imkoniyatlarini, ehtiyojini va qiziqishlarini, yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olib aqliy

zo‘riqishga yo‘l qo‘ymaslik, bolaga individual yondashish va eng asosiysi — o‘yin faoliyatidan foydalanib, bolada ta‘lim faoliyatiga oid ko‘nikmalarni shakllantirish va uni maktab ta‘limiga samarali tayyorlashdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Rasulova M.SH. Bolalarni maktabga tayyorlash va tayyorligini aniqlash mezonlari. – T.: O‘zPFITI, 1994. – 24 b.
2. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo‘llanma.
3. F.R. Qodirova, SH.Q. Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur” -T., 2019
4. “Ilm yo‘li” variativ dasturi. Toshkent. O‘zRMTV 2019 yil.



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISHDA VIRTUAL SAYOHATLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Xodjayeva N.S.

*Nizomiy nomidagi TDPU, Ta‘lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta‘lim)
mutaxassisligi 1 bosqich magistri*

Keyingi vaqtlarda virtual dunyo, virtual olam, virtual do‘st kabi so‘zlar paydo bo‘ldi. Virtual so‘zining ma‘nosi bu tasavvur qilishdir. Virtual kutubxona bu odatdagi kutubxonaning abstrakt ko‘rinishidir. Bu kutubxonaning kitoblari, jurnallari va ro‘znomalari kitob javonlarida emas, balki kompyuter xotirasida joylashgan bo‘ladi. Bu kompyuterda yoki kompyuter maxsus qurilmalarida raqamli formatda saqlanadigan ma‘lumotlar to‘plamidir. Bu: bosma audio, video va multimedia ma‘lumotlaridir. Ma‘lumotlar hajmiga qarab, serverlar bitta yoki tarmoq bilan bog‘langan bir necha kompyuterlardan iborat bo‘ladi.

“Virtual ekskursiyalar” – real muzey ekskursiyalaridan farq qilib, o‘quvchilarga muzey fondlariga virtual sayohat qilish imkoniyatini beradi. Bunda u real hayotda ko‘ra olmaydigan muzeylarga ham sayohat qila oladi. O‘quvchilar virtual muzeylarga sayohat qilish orqali ma‘naviy merosning tarixiy ildizlarini anglaydilar, tarixiy, adabiy, san‘at namunalarini bir butun, yaxlit ma‘naviy meros sifatida tushunishga erishiladi. Demak, virtual muzeylar bilan o‘quvchilarning mustaqil ishini tashkil qilish o‘qituvchining yordami va ko‘rsatmasi orqali amalga oshirilishi umumta‘lim dasturlariga muzey pedagogikasini keng targ‘ib etishni talab etadi. Bu esa o‘quv

dasturlariga muayyan o'zgartirishlar kiritilishiga olib keladi. Bunday tarzda o'quv ishlarini tashkil etish samarali hisoblanadi.

Virtual muzey yaratish va uni amaliyotda qo'llashga doir izlanish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Maktabgacha ta'limda katta yoshli bolalarga muzey eksponatlari bilan keng tanishishlariga imkon beradi.

2. Mashg'ulotlar jarayonida yuqori darajada ko'rgazmalilik va interfaollikni ta'minlaydi.

3. Maktabgacha ta'limda katta yoshli bolalarni muzey materiallari asosida vizual, analitik, mustaqil fikrlashini shakllantirish samaradorligi ortadi.

4. Maktabgacha ta'limda katta yoshli bolalarda tarixiy voqelikka qadriyati yondashuv qaror topadi.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Shu asosda yurtimizdagi asosiy madaniyat hamda san'at obyektlari bo'ylab 3D-turlar ishlab chiqish belgilab qo'yildi.

Tarixga sayohat qilishning imkoni bor. XXI asr – axborot texnologiyalari asri, demak zamonaviy texnologiyalar har bir inson farovonligi uchun xizmat qilishi darkor. Biz yaratayotgan "Tarixga virtual sayohat" platformasi orqali bugungi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, tarixga sayohatni amalga oshirmoqchimiz.

Maktabgacha ta'limda, ayniqsa katta yoshli bolalarga O'zbekiston tarixini, uning qadimgi obidalari va manzilgohlari to'g'risida o'quvchi hamda, qiziquvchilarni ongiga innovatsion usulda ma'lumotlar yetkazish, ularni dunyoqarashini yuksaltirish, tarixga bo'lgan qiziqishi, tasavvuri va muhabbatini boyitish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda tarixchi-tadqiqotchilarimiz tomonidan yurtimizda joylashgan arxeologik va tarixiy obidalarimizni aksari qismi o'rganilib, xulosalar bayon qilingan. Ular taqdim etgan dalillar asosida qadimgi obida va shaharlarning 5D o'lchamli virtual platformasi tayyorlanadi. Ishlanmada o'sha davr muhiti – shahar mudofaa devorlari, qal'a, ark, shahriston qismi, yo'llar, turarjoylar, bozorlar hamda, eng ahamiyatlisi o'sha davr odamlarining texnik tomondan 5D o'lchamli virtual ko'rinishi gavdalantiriladi.

Siz dastlab, ilova yordamida sayohat qilmoqchi bo'lgan obida yoki qadimiy manzilgohni berilgan ro'yxatdan tanlaysiz hamda, 5D o'lchamli platforma virtual muhitda sayohat qilish uchun maxsus moslama(ko'zoynakli shlem) yordamida harakatga keltiriladi. Qo'l boshqaruv pulti orqali siz o'sha davrdagi obida yoki manzilgohni virtual ko'chalarida yurishingiz, o'sha davr odamlarini va ular nima yumush bilan shug'ullanayotganini o'z ko'zingiz bilan ko'rishingiz, hatto ularning ishlarini yaqindan kuzatishingiz mumkin bo'ladi. Platforma ishga tushishi bilan siz o'sha zamon odamiga

aylanasiz. Siz obida yoki manzilgohga kirishingiz bilan sizga o'sha davr odami qiyofasida yo'lboshlovchi hamrohlik qiladi va o'zini tanishtirib, sizga ushbu obida tarixi, geografiyasi, etnografiyasi bo'yicha siz tanlagan xorijiy tilda ma'lumotlar beradi. Siz yo'lboshlovchini jinsini va beriluvchi ma'lumot tilini maxsus ilova yordamida tanlaysiz.

Platformadagi voqealarni film shaklida ham gavdalanirish mumkin. Filmni turli chet tillarda variantlar tayyorlanib, internetga joylangan filmni ko'rgan xorijiy davlatlardagi qiziquvchilar va sayyohlarni yurtimiz tarixi qiziqtirishi aniq. Bu esa yurtimizga keluvchi sayyohlarni sonini oshirishga xizmat qiladi.

Jahonda sayyohlar uchun 3D o'lchamli ishlanmalar yaratilgan bo'lib, lekin faqat uni faqat film shaklida ko'rish mumkin bo'lardi. 5D o'lchamli formatidagi virtual platforma bu ilmiy yangilikdir. Platforma uzoq yillik ishlanma hisoblanib, uni bazaviy holatini o'zgartirish va qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirish mumkin.

Birinchidan, ishlanma o'sha obida yoki qadimgi arxeologik manzilgohni ko'rish uchun sayyoh va ziyoratchilar oqimini ko'paytiradi. Bu esa davlatimiz va o'sha hudud aholisi uchun ham katta moddiy foyda olib keladi.

Ikkinchidan, platformani disk va boshqa ma'lumot tashuvchi qurilmalar orqali bozor savdosini yo'lga qo'yish mumkin. Shu orqali kichik biznes bozor vujudga keladi.

Uchinchidan, texnik ishlanma internet savdosi va xizmatlari uchun qulay bo'lib, beqiyos iqtisodiy foyda keltiradi. Natijada yurtimiz tarixiga qiziqish orqali ichki va tashqi turizm sohasini rivojlanadi.

Tariximiz buyuk, uni yuzaga chiqarib, zamonaviy aytganda reklama qilish uchun ushbu platforma ta'limda ham ulkan yutuqlar keltiradi.

- Tariximiz virtual shakli tiklanadi va u haqida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasavvur boyiydi;
- Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun darslarda platformadan foydalanilsa, yosh avlodni tariximizga bo'lgan tasavvurini va milliy g'ururni oshirishda bu ishlanma ulkan yordamchi bo'ladi.
- Bu ishlanma sabab, innovatsiya yutuqlarini maktabgacha katta yoshdagi bolalar darslariga kirishi orqali darsni yanada mazmunini oshiradi va qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi.
- Film formatidagi platformani shahar va tumanlardagi kinoteatrlarda namoyish etilishi, o'sha hudud xalqini tariximizga bo'lgan munosabati hamda, qiziqishini ortishiga xizmat qiladi.
- Tarixiy obyektlar joylashgan hudud aholisi sayyohlar va ziyoratchilar uchun maishiy xizmat turlarni yo'lga qo'yishlari hamda qo'shimcha yangi ish o'rinlarini yaratilishi eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tariximizni xolis va to‘liq yoritilishi Davlat siyosati darajasida e‘tibor berilgan. Tariximizni o‘rganish va uni tasavvur qilish uchun ko‘plab asarlar, dissertatsiyalar hamda, tadqiqotlar qilish uchun hukumatimiz tomonidan chora-tadbirlar belgilangan. O‘zbekistonda ilmiy ishlanma va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab quvvatlash maqsadida 2017-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi” tashkil etildi. Yosh olimlar qo‘llab quvvatlanmoqda va ularning moddiy-texnik bazalari boyitilmoqda. Biz kabi yosh tadqiqotchilar bundan unumli foydalangan holda, ushbu yaratilayotgan texnik ishlanmamiz orqali tariximizni tiklash va tasavvur qilish uchun xizmati katta.

Adabiyotlar:

1. Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston,
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshtaustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.uz>
4. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
5. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
6. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASH

Xolsaidova N.Q

Nizomiy nomidagi TDPU 208-guruh talabasi

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama etuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Aynan shuni e‘tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasida, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, Prezidentimiz tomonidan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2707-sonli Qaror (2016-yil, 29-dekabr) [1], "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmon (2017-yil 30-sentabr)[3], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 528-sonli Qarori (2017- yil, 19-iyol) [2], "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" kabi rasmiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida o'rin egallamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida, "Ilm yo'li" variativ dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur", maktabgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi asosida ishlab chiqildi.

Hozirgi bosqichda maktabga psixologik-pedagogik muammodan tayyorgarlik katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoga aylandi, chunki bolani maktabga tayyorlash vazifasi. Ushbu murakkab va mas'uliyatli vazifani hal etishda bolalar bog'chalari xodimlari, shuningdek, ota-onalar katta rol o'ynaydi. Axir, bola maktabga kirganida, uning hayotida yangi bosqich boshlanadi, bu erda o'yin faoliyati ta'lim faoliyati bilan almashtiriladi. Yangi sharoitlarga moslashish jarayoni bolaning sezilarli ma'naviy va jismoniy kuchini talab qiladi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchi keyingi bosqichlarda, bolalar bog'chasida va maktabning birinchi sinfida ishlashga qanday psixologik va axloqiy-irodaviy tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq bo'ladi.

Maktabga tayyorgarlik — bu maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy rivojlanishining ma'lum darajasini va bolalarni maktab fanlarini o'zlashtirishga maxsus tayyorgarlikni ta'minlaydigan maktabgacha ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy ishini tashkil etish, bu o'quvchining ijtimoiy rolini bajarish va o'zlashtirishni o'zlashtirish uchun. faoliyatning yangi turi hisoblanadi.

Bolalar bog'chasida bo'lish davrida bolalarni maktabga tayyorlash muammosi murakkab. Unda uchta jihatni ajratib ko'rsatish mumkin: anatomik-fiziologik, psixologik-pedagogik, tarbiyaviy va tashkiliy. Bolani maktabga tayyorlash muammosining psixologik-pedagogik tomonini hisobga olgan holda, bolalar bog'chasi ishida uchta yo'nalishni ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish bolalar bog'chasida bolani maktabga umumiy tayyorlashga qaratilgan barcha tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan bog'liq. Bu bolalar bog'chasining barcha yosh guruhlarida tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etish orqali bolaning haqiqiy har tomonlama va barkamol rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Zero, zamonaviy maktab birinchi sinfga qadam qo'yayotgan bolalardan maxsus bilim, ko'nikmaga ega

bo‘lishni emas, balki aqliy analitik va sintetik faoliyatning murakkab shakllarini, axloqiy va irodaviy fazilatlarining yuqori darajada rivojlanishini, mehnatsevarlik va ish samaradorligini talab qiladi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim dasturi maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarida bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy, axloqiy, kuchli iroda, motivatsion va jismoniy tayyorgarlik kabi asosiy fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltiradi.

Ko‘pchilik bolalar uchun maktab ish joyi bo‘lsa, ular o‘rganishni xohlasa va o‘rganishga tayyor bo‘lsa, demak, ba’zi bolalar bunga tayyor emas va maktab muvaffaqiyati bilan bog‘liq quvonch ular uchun mavjud emas. Shuning uchun ular muvaffaqiyatli o‘rganish uchun hech qanday rag‘batlanmaydilar [5]. Bunday bolalar o‘quv vazifalarini faqat o‘qituvchining, ota-onalarning talablarining bevosita nazorati yoki ta’siri ostida bajaradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi uchun o‘yin o‘rganish bilan bir qatorda, faoliyatning yyetakchi shakli bo‘lib, uning jarayonida bilimlar boyitiladi, muhim shaxsiy xususiyatlar shakllanadi. Didaktik o‘yin ayniqsa muhim rol o‘ynaydi, uning yordamida bolalar tomonidan olingan bilimlar mustahkamlanadi va e’tiqodga aylanadi. Didaktik o‘yinlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlash rivojlanadi. Shuni esda tutish kerakki, bunday o‘yinlarda bolalar ko‘pincha g‘oyalar bilan harakat qilishlari kerak, chunki ular ilgari ko‘rgan va o‘rgangan narsalarning o‘zi, hodisalar faqat ularning tasavvurida namoyon bo‘ladi. Obyektlar va hodisalar haqidagi g‘oyalar bilan o‘yinlarda ishlaydigan bolalar mavhum fikrlashga yaqinlashadilar.

Didaktik o‘yinlar tufayli maktabgacha yoshdagi bolalar kelajakdagi maktabda o‘qish uchun zarur bo‘lgan aqliy faoliyatning dastlabki ko‘nikmalari va qobiliyatlarini egallaydilar. Mavzu rasmlarini tasniflash jarayonini o‘rganish bolalarda umumlashtirish bilan bog‘liq xatolar mavjudligini ko‘rsatdi. Shunday qilib, maktabgacha ta’limdan maktabgacha yoshdagi bolalikka o‘tish yetakchi faoliyat — o‘yin va maktabgacha ta’lim shakllari (nutqni rivojlantirish, chizish, modellashtirish, qurish) jarayonida tayyorlanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim muassasalarini boshqarishning yangi zamonaviy usullaridan unumli foydalanib, topshiriqlar ijrosining muntazam nazorati natijasida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning sifat va samaradorligi oshib boradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2707-sonli Qarori. 2016 yil, 29 dekabr

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 528-sonli Qarori. 2017 yil, 19 iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5198-sonli Farmoni. 2017 yil 30 sentyabr

4. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo,

5. Выготский Л. С. Мышление и речь // Собр. соч. Т. 2. — М.: Педагогика, 1982.—С.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA MATEMATIK BILIM BERISH ORQALI FAZOVIIY TASAVVURLAINI SHAKKLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Xolto‘rayeva S.X.

Nizomiy nomidagi TDPU, o‘qituvchisi,

Hamroyeva D.Y.

TerDU pedagogika instituti magistranti 5-sho‘ba

2019 yilning 8 mayida davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori tasdiqlandi va bu qarorlarning tub zamirida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish, maktab ta’limiga sifatli tayyorlash ko‘zda tutilgan.

Maktab ta’limiga bolalarni sifatli tayyorlashda har bir faoliyatning ahamiyatli ekanligini va matematik bilimlarning alohida ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma’lum. Bola maktabga chiqqanidan so‘ng unga qiyinchilik tug‘diradigan fanlardan bir matematika hisoblanadi. Bola maktabgacha ta’lim muassasasidan maktabga chiqadigan vaqtga qadar uni bu sohaga bosqichma-bosqich tayyorlab borish, mantiqiy fikrlashini o‘stirish, fazoviy tasavvurlari rivojlantirish, ilk matematik tasavvurlarini shakllantirish orqali uni maktabda matematika darslarini qiyinchiliklarsiz o‘zlashtirishida muhim asos bo‘ladi.

Bolalarni maktabda o‘qitishning samaradorligini ko‘p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog‘liq bo‘ladi. Maktabda o‘qishga tayyorgarlik – maktabgacha ta’lim muassasasi va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo‘yadigan ma’lum bir talablar orqali aniqlanadi. Bu talabalarning o‘ziga xos tomoni bo‘lajak o‘quvchining yangi ijtimoiy psixologik sharoitga moslashuvi topshiriqlarni bajarishga tayyorlangan bo‘lishi lozim.

Bolalarning maktabdagi ko‘pgina faoliyatlari tevarak atrofda o‘rnini aniqlash (oriyentatsiya qila olish) bilan bog‘liqdir. Shuning uchun bolalar maktabga chiqqunga qadar harakat yo‘nalishlari (o‘ngda, chapda to‘g‘ri, burchakdan burchakka va hokazo)ni bilishlari, tevarak atrofdagi narsalarning o‘zlariga nisbatan (o‘ng tomonda, chap tomonda, yuqorida pastda, orqada, oldinda) joylashishini bilishlari, bir- biriga nisbati, joylashishini (stolning oldida stul) xonada, hovlida, Maktabgacha ta’lim

muassasidan uyga qaytishni, ko‘chadan o‘tish qoidasini bilishlari lozim. Bolaning o‘ziga nisbatan mo‘ljall olishi uning mantiqiy tafakkurini rivojlantirib uning–boshqa odamga, buyumlarga nisbatan mo‘ljall olishga o‘rganishida muhim asos bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha vazifalar, qoida tariqasida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim faoliyati davrida mashqlar yoki didaktik o‘yinlar shaklida amalga oshiriladi. Maxsus vazifalar dastur talablarini bajarish, bolalar tushunchalarini aniqroq ifodalash, tartibga solish va kengaytirish imkoniyatini beradi. Bu borada tarbiyachi tomonidan olib boriladigan amaliy ishlarning to‘g‘ri tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Misol tariqasida quyidagi faoliyatni keltirib o‘tishimiz mumkin. Tarbiyachi bolalarga o‘ng qo‘llarini yuqoriga ko‘tarishlarini aytadi. Bolalar o‘ng qo‘llarini ko‘targanlaridan so‘ng havoda qo‘llarini chapdan o‘ngga qarab xuddi chiziq chizganday harakat qilishlarini aytadi. So‘ngra oldilariga qo‘yilgan yo‘lli kartochkaning birinchi qatoriga chapdan o‘ngga qarab 5 ta doira shakli terishlarini aytadi. Bolalar ishi kuzatiladi va ulardan “qaysi qo‘l bilan qanday ish bajardingiz”, deb so‘rab chiqiladi. Tarbiyachi bolalarga yana ikkinchi qatorga ham uchburchak shakllarini terib chiqishlarini aytadi. Bolalar yonidagi bolalarning ishini to‘g‘ri bajargan yoki bajarmaganligini tahlil qilib beradilar. Tahlil qilish davomida ko‘proq “o‘ng”, “chap” so‘zlarini talaffuz qilishlariga e‘tibor beriladi.



Hozirgi zamon psixologik va pedagogik tadqiqotlar hamda maktabgacha tarbiya muassasalarining ilg‘or ish tajribalari shuni ko‘rsatmoqda-ki bolalar maktabgacha ta‘lim muassasasidan maktabga o‘tish paytiga kelib, ular atrofidagi buyumlar, fazo haqida yetarli darajada ma‘lumotga ega bo‘ladilar. Ularning bilimlarini maqsadga yo‘naltirish va o‘rgatish natijasida o‘zidan va atrofdagi obyektlarga nisbatan joylashuvni aniqlay olishi uchun zarur bilimlarni egallashiga muhim asos bola oladi.

Matematikaga doir bajariladigan ishlar bolalarni boshqa oladigan bilimlariga qaraganda ko‘proq chidamga, tirishqoqlikka, puxtalikka, aniqlikka o‘z fikr va xulosalarini [nazorat qila olishga](#), ayniqsa kuzatish, tajriba va fahmlash asosida aytiladigan fikrlarining ravon bo‘lishiga yordam beradi. Bolalarda matematik bilimlarga bo‘lgan qiziqish, matematik mantiqiy masalalarni sabr — toqat va tirishqoqlik bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiriladi. Induktiv va deduktiv tafakkurning boshlang‘ich ko‘nikmalarini analiz-sinez, umumlashtirish mantiqiy tafakkur yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga idroklilik va ziyraklikni, fazoviy tasavvurlarni va hayotni o‘stirishga bolaga

maktabgacha yoshdanoq matematik ta'lim berish natijasida shakllantiriladi. Maktabgacha yosh davri-bolalarning rivojlanishidagi muhim bosqich bo'lib hisoblanadi, bu davrda ularning fiziologik, psixologik, jismoniy, ruhiy, ma'naviy, axloqiy, aqliy jihatdan rivojlanadi va shu bilan birgalikda insonlarga mehr oqibatli bo'lish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat qilish kabi bir qator insoniy fazilatlarni tarbiyalashga zamin yaratiladi. Shu boisdan maktabgacha tarbiya muassasalarida mazkur maqsadlarga ko'ra qator ishlarni olib borish, shu jumladan, turli didaktik o'yinlar texnologiyalaridan foydalanish va boshqa vositalar orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish, ularni har tomonlama barkamol, jismonan sog'lom, aqlan etuk, ruhan tetik qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ni bola hayotiga joriy etish keng ko'lamlı ish bo'lib, u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Talablarda belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun davlatimiz tomonidan zaruriy shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib kelinmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlab borish ularning maktabda namunali o'qishi uchun zamin yaratishda ularga dastlabki matematik bilimlarni berish juda muhimdir. Bolalarni maktabga tayyorlashning eng muhim va shoshilinch vazifasi ularning boshlang'ich maktabda muvaffaqiyatli o'qishi bo'lib, bu bolaning rivojlanish darajasiga, ko'nikmalariga bog'liq. Umumlashtirilgan va o'z bilimlarini tizimlashtirish, turli muammolarni ijodiy hal etish asosida ishlab chiqilgan matematik fikrlash nafaqat bolani tafakkurining rivojlanishiga va uning atrofıdagi o'zgarishlarga nisbatan ishonch his qilishiga yordam beribgina qolmay, uning umumiy aqliy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shuning uchun, asosiy talab maktabgacha ta'lim muassasalarida boshlang'ich matematik tasavvurlarning shakllanishi har bir yosh bosqichida bola u o'rganishi zarur bo'lgan maksimal bilimlarni o'zlashtirishi va intellektual rivojlanishini rag'batlantirishning muhimligidir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.- Toshkent shahri, 2018-yil 18 iyul. // 1-ilova
2. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi PQ-4312-sonli qaror// -Toshkent shahri, 2019-yil
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.- Toshkent shahri, 2018-yil 18 iyul. // 1-ilova
4. Abdullayeva S. 6-7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlashda test usulidan foydalanish. // «Maktabgacha ta'lim», 2002, 1-son
5. M.Nigmatova "Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish" Samarqand-2016 yil.

6. Jumayev M. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. / O'quv qo'llanma. – T.: «Ilm ziyo», 2005. –42-b.

MAKTABGACHA YOSHDAgi BOLALARNI ATROF OLAM BILAN TANISH TIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Xurvaliyeva T.L.

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
Pedagogika fanlari doktori, dotsent tarmiza.latipovna@gmail.com*

Xudoyberganova Sh.B.

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Ma'lumki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida ilg'or xorijiy tajribalarga tayanilgan islohotlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash, ularda ijtimoiy ko'nikma, malaka va soha kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga innovatsion texnologiyalar hamda samarali usul hamda vositalarni joriy etish masalasi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da vazifa sifatida belgilangan [1]. Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim samaradorligiga erishishni ta'minlashga xizmat qiluvchi tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim pog'ona hisoblanadi, uning ijtimoiylashuvi va o'zgaruvchan olamga moslashishiga zamin yaratadi. "Maktabgacha ta'lim" bolaga har tomonlama ta'lim-tarbiya berishning maqsadga yo'naltirilgan jarayoni bo'lib, individual, yosh xususiyatidan kelib chiqib, jismoniy va psixik rivojlanishi ta'minlanadi, keyingi ta'lim tizimiga to'laqonli va o'z vaqtida tayyorlashdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda integratsion yondashuvlar va bolalarning rivojlanish xususiyatlariga moslashuvchan variativ dasturlardan foydalanish metodikalarini takomillashtirish, ekologik ta'lim shakllarini optimallashtirish, maktabgacha ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir.

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof olam haqidagi tasavvurlarini intensiv shakllantirishda ta'lim mazmuni, shakl va vositalarini optimallashtirish hamda pedagogik jarayonni tashkil etish metodikalarini takomillashtirishga e'tibor berilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof olam bilan tanishtirishga oid jahonning rivojlangan Fransiya, Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Xitoy, Rossiya kabi mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish orqali ta'lim sifatiga erishiladi. Xususan mazkur

yoʻnalishda bolalarni har tomonlama kompleks rivojlantirish jarayonlarini insonparvarlik tamoyillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish tendensiyalari kuzatilmoqda

Fransiyada taniqli pedagog Polina Kergomar tomonidan maktabgacha taʼlim tizimi dunyo boʻyicha mamlakatning tarixiy anʼanalari va milliy xususiyatidan kelib chiqib shakllantirilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish boʻyicha batafsil tavsiyalar berilgan. Ular: “kun tartibi, ovqatlanish, binoning jihozlanishi, kerakli jihozlardan foydalanish. Taʼlim-tarbiya nutq oʻstirish, oʻqish, yozish, musiqa, qoʻl mehnati, atrof-olam bilan tanishtirish mashgʻulotlari jarayonida amalga oshirilishi lozim”- deydi [4;89-97-b].

Germaniyada bolalar bogʻchasi bolalarni oʻzini namoyon etishga, atrof olamni tushunish va boshqalar bilan muloqot qilishga oʻrgatadi. Pedagogik jarayon turli rivojlantiruvchi markazlar asosida tashkil etiladi. Asosan bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga eʼtibor qaratiladi. Maktabgacha taʼlim jarayonida bolalarni atrof olam bilan tanishtirishda rivojlanish markazlarida (Til va nutq, Syujetli-rolli oʻyinlar va dramalashtirish)gi faoliyatni tashkil etish natijasida muloqot qilish koʻnikmalari shakllanishiga erishiladi.

Angliyada maktabgacha taʼlim muassasasida taʼlim-tarbiya jarayoni bir qancha sohalarda tashkil etiladi. Jumladan, **“Atrof bilan tanishtirish” sohasida bolalar tabiat va atrof olam, tabiiy-ilmii fanlar**, geografiya va tarix, dizayn va informatika, milliy va dunyo madaniyati bilan tanishtiriladilar. Bu boʻlimda qurish yasash ham amalga oshiriladi. Mamlakatda maktabgacha taʼlim muassasalarida informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni oʻrgatishga alohida eʼtibor qaratiladi. Bolalarga fan va texnikaning oxirgi yutuqlaridan foydalanish oʻrgatiladi. Masalan, kompyuter, masofadan boshqariladigan oʻyinchoqlar va boshqaruv dasturlari, priborlar, mikroskoplar.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida Atrofdagi olam bilan tanishtirish mashgʻulotlarida **“NBIC” texnologiyasi qoʻllanilganda tarbiyalanuvchilarda nano, bio, axborot va kognitiv** bilim sohasi “Ilm-fan va tabiat” markazida kichik tajriba oʻtkazish natijasida rivojlanadi. Ushbu texnologiya bolalarning intellektual rivojlanishini taʼminlaydi.

Janubiy Koreyada maktabgacha taʼlim quyidagi yoʻnalishlarda olib boriladi: jismoniy tarbiya, musiqa va raqs darslari, anʼanalarni oʻrganish, jonli tabiatda mashgʻulot, turli xil fanlardan darslar. Bolalarga dunyoda har bir joy va narsaning oʻziga xos belgilari borligi soʻzlab beriladi. Yana bir yoʻnalish bu texnika xavfsizligi asoslari hisoblanadi. Koreyalik bolalar zarur boʻlganda tez yordamga qoʻngʻiroq qilishi va yongʻin boʻlganda nima qilish kerakligini bilishi talab sifatida belgilangan.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya oiladan boshlanadi, ota-onalar bolalarga xulq-atvor meʼyorlarini oʻzlarining hatti-harakatlari bilan oʻrgatadilar, bolalarda mustaqillik, ezgulik va yaxshilik kabi sifatlar shakllantiriladi. Yaponiyada maktabgacha taʼlim quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshiriladi: ijtimoiy munosabatlar; sogʻlik va xavfsizilik; til oʻrganish; atrof muhit; hissiyotlarni ifodalash.

Xitoyda hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari yagona "Ta'limiy-tarbiyaviy ishlar" dasturi bo'yicha faoliyat ko'rsatadi. Bugungi kunda "Maktabgacha ta'limda direktiv dastur (eksperiment variant)" tajribadan o'tkazilyapti. Bu dastur L.S. Vigotskiy, J. Pijae, G. Gardner va xitoylik pedagog Dao Sichji g'oyalariga asoslanadi. Dastur beshta bo'limdan iborat: sog'lik (sog'likni mustahkamlash, sog'lom turmush tarziga odatlantirish (qoida va odatlar); nutq (kommunikativ faollikni oshirish, nutqiy qobiliyatlarni rivojlantirish); ijtimoiy ko'nikmalar (o'zini rivojlantirish, o'ziga ishonchni oshirish, boshqalarga mehribonlik qilish va ular bilan do'stona munosabat o'rnatish hamkorlik qilish); ilmiy qiziqishlar (qiziquvchanlikka turtki berish va bilimlarni o'zlashtirishga harakat qilish, anglash qobiliyatini rivojlantirish); san'at (estetik hislarni shakllantirish, hissiy hozirjavoblik va istaklarni amalga oshirish).

AQShda "International Preschool Curriculum" dasturi amalda bo'lib, turli yo'nalishlarni qamrab olgan hamda qadriyatlarni mujassam etgan. Ular: tolerantlik, ochiqlik, liderlik qobiliyati va sifatlarini rivojlantirish. Amerikada maktabgacha ta'lim muassasalarida bir nechta markazlar tashkil etilgan: syujetli-rolli o'yin; qo'g'irchoq teatri; san'at; pazandalik; qum va suv o'yinlari; ilmiy-matematik. "Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhit ta'limi xalqaro notijorat tashkiloti" (North American Association for Environmental Education) tashkil etilgan bo'lib, tashkilotning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari uchun atrof-muhit ta'limi doirasida seminar-treninglar, malaka oshirish kurslari tashkil etishdan iborat.

Italiyada maktabgacha ta'lim dasturlari quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: atrof olam bilan tanishtirish; ritorika va so'z boyligini oshirish; jismoniy rivojlantirish; xorijiy tillar bo'yicha elementar bilimlar olish; mustaqillik va individuallikni rivojlantirish.

Shvesiyada maktabgacha ta'lim bola tarbiyasida tabiiy va zaruriy bosqich hisoblanadi. Bola erishgan muvaffaqiyatlari muayyan mezon yoki o'lchov bilan baholanmaydi. Bolalar muloqot va jamoada o'ynash, sabrlilik va atrofdagi odamlarga hurmatda bo'lishga o'rgatiladi. Ta'lim muassasasida bolaga hurmat va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ustuvorlik qiladi.

J.O.Decroles maktabgacha ta'lim jarayonida pedagogik faoliyat bolaning maqsadlari va istaklarini ro'yobga chiqarishi hamda atrof-muhitni bilishga yo'naltirilishi lozim deb hisoblaydi. "Pedagogik jarayonning markazida bola, uning ichki dunyosi, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari turadi. Bola uchun eng muhimi, o'zini bilish, atrof-muhitdagi narsa va hodisalar qanday tartibga solinganligi, inson tanasi organlari qanday ishlashi va ularning maqsadi nima ekanligini bilishga intilishida namoyon bo'lishini" tasdiqlaydi[5].

M.Falkiewicz-Szultning tadqiqot ishi maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhit haqida ta'lim berishdagi muammolar va istiqbolni o'rganishga qaratilgan. U ilmiy ishida maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ekologik tarbiyaning zarurligini asoslab bergan[6].

1992 yilda Rio-de-Janeyroda “Barqaror rivojlanish konsepsiyasi” tasdiqlangan (“Earth Summit 1992”) bo‘lib, maktabgacha ta’lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturlariga ekologik ta’lim yo‘nalishi joriy etilgan. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ekologik ta’lim nazariyasi hamda maktabgacha yosh davridan boshlab, ekologik tarbiya berishning muhimligi asoslab berilgan.

Portugaliyalik M.E.Ferreira “Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitga do‘stona munosabat asosida bosqichma-bosqich ekologik ta’lim berish” mavzusidagi ilmiy ishida amaliy mashqlar orqali ekologik ta’lim-tarbiya berish, atrof-muhit ta’limini singdirish muhim.

Tarixiy va xorijiy tajribalar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof olamni samarali o‘rgatish bo‘yicha pedagogik jarayonni tashkil etishning mazmuni, shakli va usullarini tizimlashtirishni taqozo etadi. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilaridan katta mas’uliyat talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 8.05.2019 y., PQ-4312. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. 8.12. 2020 y. 802- son qaror.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Maktabgacha ta’lim vazirligi MH-1-son buyrug‘i. T.: 2018.

4. Galustova O. V. Shpargalka po istorii psixologii: ucheb. posobie. -M.: TK Velbi, 2005.

5. Davis J. Revealing the research ‘hole’ of early childhood education for sustainability: a preliminary survey of the literature. USA.- 2009-35 r

6. Falkiewicz-Szult M. Nature and environment education in preschool children. Poland.:- 2005.-145 r.



MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA TARBIYALANUVCHILARGA XORIJIY TILNI O’RGATISHDA O’YIN FAOLIYATIDAN FOYDALANISHNING OZIGA XOS MUAMMO VA YECHIMLARI

Xakimova D.A.
MTTDMQTMOI doktoranti
durdona85@yahoo.com

Chet tilini bilish inson uchun keng imkoniyatlar ochadi: u ham odamlar bilan tanishish va turli mamlakatlarga tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zamonaviy insonlarning chet tillarini bilmasdan biror ish qila olmasligi deyarli hamma uchun ayon bo‘ldi. Tilni bilishga qo‘yiladigan

talablar sezilarli darajada oshdi, chunki maktab darajasida eng keng tarqalgan chet tillarini bilish ko'pchilikning ulushiga aylandi .

So'nggi 5-6 yil ichida ingliz tilini o'rganuvchilar soni keskin oshdi. Talabalarning yoshi ham o'zgardi. Agar shu paytgacha metodika birinchi navbatda maktab o'quvchilariga qaratilgan bo'lsa, endi ota-onalar farzandlariga chet tilini imkon qadar ertaroq o'rgatishga intilmoqda. Bundan tashqari, maktabgacha yosh psixologlar tomonidan ushbu faoliyat turi uchun eng qulay davr sifatida tan olingan.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ham bugungi kunda til o'rganish ko'nikmasini singdirib borilmoqda. 3 yoshli bolalar ona tilining hamma tomonlarini egallab oladilar va bundan o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan muloqotda vosita sifatida foydalanadilar. Bu yoshdagi o'yin faoliyati tasviriy va konstruktorlik faoliyati, buyumlar bilan bo'ladigan harakat faoliyatlarining asosiy usullari shakllana boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar o'z o'ziga xizmat qilish bo'yicha oddiy malaka ko'nikmalarni egallab oladilar, birgalikdagi o'yinlarda bir-birlari bilan muomala shakllariga, qabul qilingan umumiy qoidaga rioya qiladigan bo'lib qoladilar. O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachi va pedagogning vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqlarini javobgarligini sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iborat.

O'yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Bolalar tevarakatdagi hayotni, voqelikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O'yinda bolalarning avval olgan taassurotlari orqali obraz yaratishlari- hayot juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko'p o'yinlarda avval o'rgangan ashula, she'r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi va pedagog bolalarda estetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

S.A. Shmakovning ta'kidlashicha, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni, bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;

- ijodiy xarakter, ya'ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;

- emotsional ta'sir – bola o'yinda markaziy o'rin egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;

- asosiy va qo'shimcha qoidalar hamda o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

Shubhasiz, bolalarni o'rganishga qiziqishi kattalarga qaraganda ancha qiyin. Ular uchun darslar dinamik, faol o'tkazilishi kerak, shunda ularning e'tibori doimo ochilib, vazifalarga yo'naltiriladi. Ushbu tamoyillar asosida o'yin texnikasi yaratilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. O'yin yosh o'rganuvchilar uchun eng qiziqarli va sevimli mashg'ulotdir. Ushbu uslub tilning barcha darajalariga, har qanday yoshga va bolalarning xususiyatlariga moslashtirilishi mumkin. Ular o'yinchoqlar va tanish buyuklarlar orasida bo'ladilar, hamda o'qituvchi bilan do'stona muloqotga kirishadilar. Ingliz tilida gapirish va tushunish o'yin va audio shaklda, multfilmlar, qo'shiqlar, ertaklar, o'yinlar va boshqa mashg'ulotlar yordamida o'rgatiladi.

Bugungi kundagi vaziyat jamiyatda malakali o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini keltirib chiqarmoqda. Sir emaski, ularning yo'qligi juda achinarli oqibatlarga olib keladi. Til asoslarini deyarli bilmaydigan odamlar o'zlarini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatishga qodir deb hisoblashadi, chunki bu bilimlar go'yoki kichik bolalar uchun yetarli. Natijada vaqt nafaqat behuda ketmoqda, balki bolalarning bu sohadagi rivojlanishiga ham putur yetkazadi: har doim o'rgatishdan ko'ra qayta o'rganish qiyinroq va tovushlarni qo'yishdan ko'ra yomon talaffuzni tuzatish qiyinroq. Ammo tilni mukammal biladigan odamlar bolalarning oldiga kelganlarida ham, ular har doim ham kerakli natijaga erisha olmaydi: bolalarga ta'lim berish maktab o'quvchilari va kattalarni o'qitishdan butunlay boshqacha yondashuvni talab qiladigan juda qiyin ishdur. Uslubiy jihatdan nochor harakatlarga duch kelgan bolalar uzoq vaqt davomida chet tilini yoqtirmasliklari, o'z qobiliyatlariga ishonchlarini yo'qotishlari mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o'yindir. Bolaga bilim berish jarayoni esa aynan shu o'yinlar orqali amalga oshirilsa ayni muddao bo'ladi. Chunki bu yoshdagi bolalar hali katta yoshdagi bolalar singari ma'lumotni to'g'ridan to'g'ri qabul qilish imkoniyatiga ega emaslar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bu yoshdagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazzmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Adabiyotlar:

1. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika, Toshkent, 2019, - B.312-313.
2. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi, Toshkent, 2012, - B.54.
3. Early childhood education in English for speakers of other languages by Vi Adam, Bob and Morris Paul, 1997, - B.41.
4. <https://www.moluch.ru/archive/316/72186/>

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA INNOVATSION SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH

Xalikova G.T

Nizomiy nomidagi TDPU 1-bosqich magistranti

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar - bu jamoa bo‘lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;

- talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagog va talaba o‘rtasidagi muloqot namunasining o‘zgarishi innovatsion faoliyat shartidan biridir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

n kasbiy faoliyatining ongli tahlili,

n me’yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv,

n kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik,

n o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta’lim taraqqiyoti sharoitida pedagog innovatsion faoliyatga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta’lim tizimi, metodologiya va o‘quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi, yangi yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va foydalanishlardan iborat bo‘ladi;

2. Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o‘qitishning yangi tanqidiy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

3. Pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining xarakteri va o'zgarishi.

Pedagog innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan shartlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik - maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi.

Pedagogning innovatsion faoliyati - o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish. Ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari pedagogning innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastinin).

Innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;

Ijodiy faoliyatga talab qilinishiga tayyorgarlik;

Shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;

Innovatsion faoliyatni ijro etish texnologiyasiga tayyorgarlik darajasi.

Innovatsion jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Demak, o'qituvchi, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalar muallifi, tadqiqotchi, foydalanuvchi va targ'ibotchi sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning samarasini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga yangilik, optimallik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsion ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida, o'zida taklif qilinadigan yangilik, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagogik olimlar yangilikni qo'llash mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabning natijaga erishishi uchun sarflangan kuch va vositalarni bildiradi. Natijalilik o'qituvchi vositasidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi. Pedagogik yangilik esa o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim.

V.A. Slastinin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatiga ijobiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va aniqlik darajasini aniqlash;
- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

Bunda o'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi, unda innovatsion faoliyatining samarasi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. []

Pedagogning innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari:

- shaxsning ijodiy motivatsiyani qo'llaganligi.
- kreativlik, bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o'z kamolotiga intilish;
- kasbiy faoliyatni baholash, bu - ijodiy faoliyat metodologiyasi va pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi va ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyatlari; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati;
- o'qituvchining individual qobiliyati, bu - ijodiy faoliyat sur'ati va ish qobiliyati; qat'iyatlik, mas'uliyatlik va halollik, o'zini tuta bilish;

Innovatsion faoliyatni eng muhim masalalardan biri - o'qituvchi shaxsi: u novator, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o'ch bo'lishi lozim.

Innovatsiya jarayonlari, funksiyalari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari va boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida tashkil etish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Bozиеv R.S Innovatsii v obrazovanie. Ucheb. posobie dlya stud. vьssh. ucheb. zavedeniy. M.:2001 .
2. Zabarovskiy N.Innovatsionnye protsessы v obrazovanie Ucheb. posobie dlya stud. vьssh. ucheb. zavedeniy. M., 2010G
3. Slastenin v.a. Kashirin v.p. pedagogika i psixologiya Ucheb. posobie dlya stud. vьssh. ucheb. zavedeniy. — M.: Akademiya, 2001. — 480 s.



DIAGNOSTICS OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Choriyeva D.A.

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizami Pre-School Education Faculty
Department of preschool education psychology and
pedagogy v.b.associate professor (Phd)*

It includes obtaining feedback on the activities carried out by pre - school education for the improvement of the educational process, diagnosing the state and effectiveness of the educational

process, analyzing the conditions for the development of the child's personality, determining the educational potential of the environment, the methods and Means for its implementation.

Therefore, in modern conditions, the acquisition of pedagogical diagnostic skills is becoming not only a means of improving the skills of educators, but also an important factor in the development of the entire educational system. Diagnostics allows the educator to objectively assess the state and effectiveness of the educational process, determine the strategic strengths and weaknesses of the institution, identify the main shortcomings and problems of pedagogical support for the development of the personality of children. Based on this data, the problem is referred to as the place where the problems are located depending on the extent of their impact on the effectiveness of the education sector. This will help to make a more rational choice of methods and means of improving and updating the educational work.

The purpose of conducting pedagogical Diagnostics is to identify and solve your professional problems:

where we do not work as educators, administration, Methodists;

what should be done to solve the identified problems?

how to help a child, parents, educators? Diagnostics should not compare the child (children's team) with the standard that is common to everyone, but should monitor (what happened) the dynamics of change.

The main objectives of diagnosing the learning process:

- to determine the interests and inclination of children;
- determination of curiosity and its level;
- to determine the level of responsibility for the assigned work and the results of its activities;
- determination of motivation for learning;
- to determine the level of preparation for the choice of profession;
- to determine the level of social adaptation;
- to determine the educational potential of the family and so on.

The process of understanding pedagogical phenomena is aimed at knowing about various aspects of the child's personality development process, which is achieved through various pedagogical or other methods, means and forms of influence.

The principle of equity requires:

Examination of each Fakt with several ways of learning the child:

verification, clarification of faktik materials obtained during the whole experiment or experimental work;

it is important not only those who talk about the positive results of the experiment, but also the correction of all manifestations of sexuality (for science it is important that this is confirmed and the result does not work);

comparing the data of their own research with the data of other researchers, to identify similarities and differences in the characteristics of the studied qualities and phenomena;

obtaining obyektiv data by comparing the views of the educator, parents, comrades and the child himself (comparative description of the phenomenon, process, quality under study);

the fact that the researcher is always able to behave over his experience, feelings, likes and dislikes, often subjectively records Fakt (it is known that everyone has the same story, spontaneous perception of events).

The researcher should put himself in a situation where he is equally interested in identifying the pros and cons of the process under study.

Principle of preschool education in the study and education of children.

Since pedagogical Diagnostics has an educational function, it must be skillfully and organically aligned with the composition of the pedagogical process. Therefore, the most important task of the educator in the development of diagnostic research methods is skillfully changing the methods of teaching diagnostic methods. There are grounds for this, the person is most obyektivly manifested in activity and it is formed in activity; conversation is used for reading and teaching children. However, in each case sincerely invent new ways of studying the individual, this is not a way out. The general direction of improving the research methods is to create a unique approach in the study of similar problems and to make maximum use of the learning process for the study of the individual. Here it is necessary to come up with methods for learning children.

The principle of simultaneous study of teamwork and sexuality. One of the common mistakes of young researchers is that the study of sexuality is separated from the study of the collarbone, and the method of individual study of the child is being developed. At the same time, the essence of heredity is its connection with the outside world; understanding a person, assessing him only in the process of studying his collective activity, collective relations. Therefore, the study of sexuality should begin with the study of the community in which this person forms, lives, acts. We have identified the following link: each manifestation and has two sides of its own characteristic: one to the team, the other to its own spiritual life. Thus, conscience is nothing more than a subjective reflection of this sense of Duty, communication and communicativity are two sides to the manifestation of collusion, self - education is self-discipline, etc. As we learn the child separately from the team, we will have information that characterizes the one-sided manifestation of the quality under study.

In order to learn the personality, it is necessary to learn the team, it is necessary to learn the team, to learn the personality and its relationship with the surrounding world.

3. Change, the principle of studying the phenomenon in development: the researcher seeks to determine the essence of the quality under study and to observe how it appears, forms, develops and manifests itself in a particular person in different circumstances. But any quality is associated with others. Therefore, pedagogy rejects, the study of phenomena and processes of a private order, if not all studied before. In addition, we need a link between the elements of the entire educational system, as well as internal communication between the elements of the process, phenomenon. Today, it is clear and reliable that the dynamics of quality change over time and manifests itself in the interaction of a person with his spiritual world in different types of activities, in different situations, is considered to be accurate and reliable. Against the background of the general development of the individual, it is possible to determine certain changes. Pedagogy is based on the well - known principle of dialectics here: the essence of the phenomenon, process, quality can be studied, understood, measured only in relation to other phenomena, qualities, processes, development and dependence.

Pedagogical Diagnostics is based on the following stages:

The initial stage of diagnosis

Objective:

In Group 1-to determine the educational opportunities of the child, the opportunities to master the requirements of the program, the willingness to study in preschool education. (Jurova"diagnostics of the readiness of children of preschool age to study in preschool education").

Comparing the results of the last academic ear in the 2-4-4 groups with the results obtained at the beginning of the next academic ear with the results reflected by the educator on the generalized technological maps and identifying problems in children's knowledge, as well as setting out measures to eliminate them.

Step 2-Intermediate diagnosis

Purpose: to provide him with focused assistance, determine the dynamics of the degree of acquisition of individual components of educational activity on a particular subject of the course studied for a certain period of time and determine ways to increase the success of individual children.

Form of conduct: independent work, Control Department, oral survey, tests whose results are recorded on technological maps.

Stage 3-final diagnosis

Purpose: to determine the level of formation of general academic skills at the end of the academic ear (taking into account the specific characteristics of the subject), to obtain information on the status and problems of the educational process in each group; to determine the appropriateness of the objectives and results at the end of the academic ear.

Forms: tests. The results are recorded on the "map of personal achievements".

Thus, pedagogical diagnostics allows you to determine:

Which components of educational activity are formed and which require additional work;

Level of self-management (planning, step-by-step, final);

The causes of permanent errors and the nature of the difficulties encountered;

are there any changes in mathematics and tilni development;

Does reading contribute to the overall development of children? (The role and role of pedagogical diagnostics, in the educational process). Examples of pedagogical diagnostics.

Pedagogical diagnostics allows you to determine the skill level of educational activity. Diagnostic work allows you to determine which components of educational activity are formed and what additional work is required. Diagnostic work allows you to determine the level of self-control (planning, step-by-step, final) and self-assessment. Pedagogical diagnostics allows you to assess the changes that occur in the development of children. The execution of pedagogical diagnostic tasks allows us to evaluate the flexible thinking of children. The objectives, the study tilni will enable us to determine whether changes in development will contribute to the development of the overall development.

Literature:

1. Pedagogical-psychological diagnostics / Ed. I.No, it's not.Levchenko, S.D.Zebramnoy. - M., 2003, ch. 6.
- 2.Semago N.Eat it., Semago M.M. The theory and practice of assessing mental development is the child's consciousness. Pre-school education and primary school age. - M., 2005y.
- 3.Voronav V.V. Preschool pedagogy: a new standard. M.: Russian program, 2012 ear.
- 4.Lizinsky V.M. Admission and forms of educational activity. M., 2002 ear.
- 5.Maksimov V.G. Pedagogical diagnostics in preschool education. M., 2002 ear.



AQLIY JARAYONLARNING RIVOJLANISHIDA VA BOLANING SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDA NUTQNING ROLI

Choriyeva D.A.

Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasi v.b.dotsenti

Aqliy jarayonlarning rivojlanishida va bolaning shaxsiyatini shakllantirishda nutqning ko'p qirrali roli uni shakllantirish muammosini erta bolalik ta'limi markazlaridan biriga qo'yadi. Bu yillar nutqni rivojlantirish uchun sezgir davr. Hayotning birinchi yilida bola nutqni rivojlantirishning

tayyorgarlik bosqichi deb ataladi, ikkinchi yil esa — nutqni rivojlantirish bosqichi o‘zi, passiv (tushunish) va faol nutq o‘zining asosiy funksiyalarini bajarishni boshlaydigan nutq aloqasi uchun paydo bo‘lgan ehtiyoj asosida shakllanganda: kommunikativ, mazmunli, umumlashtiruvchi.

Nutqni shakllantirish uchun shart — bu artikulyatsiya va og‘zaki eshitishning rivojlanishi, artikulyatsiyaning fonetik idrokning rivojlanishiga ta’siri. Ona tili fonemalarining artikulyatsiyasi ularning eshitish farqlanishini zaruriy shart sifatida taklif qiladi. Shu bilan birga, tovushlarni artikulyatsiyasi o‘zi ularni akustik oqimda ajratishga yordam beradi va shuning uchun nutqni tushunishda muhimdir.

Nutq kattalarning muloqotga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadi va bu ehtiyojni qondiradi. Hayotning ikkinchi yilidagi bolaning nutqini rivojlantirishda ikki sifat jihatidan farq qiladi: 1 yoshdan 1 yoshgacha 6 oy va 1 yil 6 oydan 2 yilgacha. Bolalar hayotining ikkinchi yilining birinchi yarmida nutqni tushunishning jadal rivojlanishi va faol so‘z birikmalarining asta-sekin to‘planishi sodir bo‘ladi. Nutqni tushunishni rivojlantirishning asosiy usullari kattalar tomonidan bolani kundalik hayotda duch keladigan hodisalar, harakatlar, narsalarning nomlanishi va takrorlanishi, so‘zlarni turli xil kombinatsiyalar va skrining-dramalar kabi rasmlar vaziyatlarda qo‘llaniladi.

Bu davrda faol nutq sekin rivojlanadi. Bir yarim yilga kelib, bolalar 30-40 so‘zdan foydalanadilar. Ular ko‘p qoqishadi, ayniqsa yil boshida imo-ishoralarni ishlatadilar. Kattalarning vazifasi ularning og‘zaki muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantirish, bayonotlarni rag‘batlantirish va og‘zaki javoblarga erishishdir.

Bolalarning hayotining ikkinchi yilida artikulyatsiya fonetik eshitishning rivojlanishidan orqada qolmoqda, bu esa notekis nutq tufayli yuzaga keladi. Ba’zida bolalarda avtonom nutq deb ataladigan narsalar mavjud — nomaqbul belgilar qo‘llaniladi.

3 yoshdan 4 yoshgacha va 4 oylik bo‘lgan 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun, osonlikcha takrorlanadigan so‘zlarni taklif qilish tavsiya etiladi, bu mavzu yoki harakat nomi bilan bir qatorda. Keyin ular asta-sekin tark etiladi. Aks holda, nafaqat lug‘at, balki nutqning grammatik tuzilishi mahorat bilan kechiktiriladi va bolaning boshqalar bilan aloqasi to‘sqinlik qiladi.

Nutqni taqlid qilishni rivojlantirish muhimdir. Aynan u orqali bola yangi so‘zlarni va oddiy jummalarni o‘rganadi. Bir yarim yilgacha u asosan bitta jumlaning jumlar shaklida bajargan. Ammo bu davrning oxiriga kelib, nutqni taqlid qilish asosida bola ikkita jummalarni ishlatishni boshlaydi, unda so‘zlarni muvofiqlashtirish hali ham yo‘q.

Bola hayotining ikkinchi yilining ikkinchi yarmi faol nutqning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ikki yil davomida uning faol lug‘atida 300 yoki undan ortiq so‘z. Bolalar nutqini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar uning hayotining ikkinchi yarmi oxirida bolaning faol nutqini rivojlantirishda keskin siljish borligini ta’kidlashadi. Nemis tadqiqotchisi V.Sternning so‘zlariga ko‘ra, bola har bir narsaning o‘z nomi borligini kashf qilganga o‘xshaydi. Biroq, S.L.Rubinshteyn bu

yoshdagi bola hali bu kabi nazariy xulosaga qodir emas deb to'g'ri hisoblaydi va uning atrofidagi narsalarning nomlarini bilishni istashi kattalar ko'magi bilan sotib olingan obyektlarni qayta ishlashning yangi usulining ifodasidir. Ular og'zaki javoblarga erishib, bolaning gaplarini rag'batlantiradilar. Uning imo-ishorasi bilan cheklangan bo'lsa, uning iltimosini qondirishga shoshilmang; kimgadir qo'ng'iroq qilish, boshqasini aytib berish va hokazolar bo'yicha ko'rsatmalar berish lozim. Ko'pincha bolalarda obyektlar va ularda rivojlanayotgan boshlang'ich hikoyalar o'yinlari paytida (hayotining ikkinchi yarmida) bolalarda kuzatiladi. Bola o'z harakatlariga sharh beradi, natijaga e'tiborni jalb qilish uchun boshqalarga murojaat qiladi. Voyaga yetganlarning tashabbus ko'rsatmalarini qo'llab-quvvatlash uning nutqini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Grammatik tizimni o'zlashtirishda og'zaki jumlar va nutqdan foydalanishga o'tish. Hayotning ikkinchi yilining oxirida bola jumladagi so'zlarni yarashtiradi.

Bolalar hayotining ikkinchi yilining ikkinchi yarmida ularning nutqni tushunishi ham rivojlanadi. Dastlab, nutq vizual holat bilan bevosita bog'liq, ammo asta-sekin undan ajralib chiqadi. Bolaga eng sodda hikoyalar, she'rlar, ertaklarni tinglashga o'rgatiladi, ularga vizual tasvirlar qo'shilmaydi. Kattalar unga vizual vaziyatdan tashqarida izchil nutqni tushunishga o'rgatadilar, ko'p marotaba taniqli, ko'rgan narsalar haqida gapirishadi.

Hayotning ikkinchi yilining oxiriga kelib, bolaning o'zi (kattalar yordamida) yurganida ko'rganlarini aytib berishi mumkin va hokazo. Shu kabi vazifalar foydalidir — bolalarni savol berishga, ilgari olgan taassurotlarini so'z bilan aytishga o'rgatiladi.

Tushunish va faol nutqni rivojlantirish tufayli, u asta-sekin bolaning xatti-harakatlarini tartibga soluvchisi, bolalar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirish vositasi, ta'lim vositasi bo'lib qoladi.

Tashxis qilingan sifatning tavsifi (bizning holatlarimizda rivojlanishning taxminiy tavsifi) ilmiy va uslubiy adabiyotlardan, o'quv dasturidan olinishi kerak. Bundan tashqari, xarakteristikada bola allaqachon nimaga erishishi mumkinligi aks ettirilishi kerak. Shunday qilib, agar keksa yoshdagi bolalarning rivojlanishida tashxis qo'yilgan bo'lsa, unda asosiy boshlang'ich tashxis uchun o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlari tavsifi olinadi.

Bunday tavsif ideal model sifatida xizmat qiladi, ideal norma bo'lib, u bilan muayyan bolaning haqiqiy xususiyatlari solishtiriladi. Esingizda bo'lsin, ideal me'yor faqat tarbiyaviy ishda qo'llanma hisoblanadi. Bu bolaning rivojlanish yo'nalishini aniqlashga, uning yutuqlarini yoki mumkin bo'lgan muammolarini ko'rsatishga yordam beradi. Bolalarni rivojlanish darajasi past yoki yuqori darajadagi guruhlarga ajratish uchun foydalanilmaydi.

Dastlabki tashxis sentyabr oyida, bolalar bog'chasiga moslashish davrida amalga oshiriladi. Bu davrda bolaning rivojlanishidagi muammolar ham, ijobiy tomonlar ham namoyon bo'ladi, shuning uchun qanday ko'rinish, fazilatlar qo'llab-quvvatlashni talab qilishini, guruhdagi har bir bola uchun qanday ta'lim vazifalari muhimligini tushunish osonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, turli xil bolalar faoliyatidagi bolalarning xatti-harakatlarini kuzatib borish (o‘ynash, kattalar va tengdoshlari bilan suhbatlashish, bolalar mehnati va O‘z-o‘zini parvarish qilish, vizual va konstruktiv faoliyat va boshqalar) guruhdagi hissiy va psixologik iqlimning umumiy manzarasini ko‘rishga, rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini va xususiyatlarini, bolaning tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarini aniqlashga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
2. G.N.Ibragimova, D.A.Choriyeva “Maktabgacha ta’limda pedagogic diagnostika”.Oquv qo`llanma.2021 y.
3. Великая Победа //Дошкольное воспитание. – 2000. - № 5. – С. 2.
4. Гамаль Е. В. Герб, флаг и гимн России: методические рекомендации по изучению государственной символики / Е. В. Гамаль. – СПб.: Полиграфуслуги,2006. – 64 с.

MAKTABGACHA YOSHDAgi BOLALARDA INTELLEKTUAL ANGLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Choriyeva D.A.

Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta’lim fakulteti “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrasi v.b. dotsent (PhD),

Ahmadova S.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi”
yo‘nalishi talabasi*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy rivojlanishida ularni o‘rab turgan atrof-olam va voqea-hodisalarni ta’siri juda katta ahamiyatga ega. Bolalar asta-sekinlik bilan olamni anglash, tasavvur qilish, undagi yashirin sir-sinoatlarni tushunish, odamlar va narsa-buyumlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgana boshlaydilar. Bunda intellektning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Intellekt bu tafakkur qilish qobiliyati deyish mumkin. Intellekt tabiat tomonidan in’om etilmaydi, inson uni butun hayoti mobaynida rivojlantirib boradi. Intellektual rivojlanish insoning har qanday faoliyatida muhim komponent hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot, o‘qish, mehnatga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun butun olamni anglashi, faoliyatning turli komponentlariga murojaat qilishi, eslab qolish, o‘ylash va bajarish lozim bo‘lganlarini tasavvur qilishlari lozim. Shuning uchun insonning intellektual qobiliyati faoliyatda rivojlanadi. Intellekt bolalarni turli faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi. Intellektual rivojlanish o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama etuk

bo'lishida muhim hisoblanadi. Bunda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni yetakchilik qiladi. Bolalarni kompleks rivojlanishida intellektual anglash malakalarini shakllantirish ayni paytda maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldidagi dolzarb vazifalardan sanaladi. Bolalarning bilish faoliyatini tizimli tashkil etish orqali ularni bilim olishga qiziqtirish, o'zlashtirish darajasini oshirish mumkin. Bolalarni mustaqil ravishda bilim olishga tayyorligi ularning intellektual anglash malakalariga bog'liq. O'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishdan avval, bolalarning imkoniyatlari, ularga tabiat tomonidan nima in'om etilgani va atrof muhit ta'sirida nimalarni o'zlashtirayotganliklarning tashxis qilish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual anglash malakalarini shakllanganligi mashg'ulot va tarbiyaviy jarayonlarda namoyon bo'ladi. Bolalarning ichki imkoniyatlarini namoyon etishlariga yordam berish, ta'lim-tarbiyaning eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Sifatli ta'lim bolalarda intellektni shakllantirish omilidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual jihatdan rivojlantirishda o'quv-tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etish va ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondirilishiga e'tibor qaratish talab etiladi. Bolalarni intellektual qobiliyat, mustaqillik, ijodiylik, izlanuvchanlik, tadqiqotchilik ko'nikmasi va tafakkurini rivojlantirish maktab ta'limining asosiy vazifasidir. Maktabgacha ta'lim bolalarda intellektual rivojlanish bazasini yaratadi. Bolalar qachonki ijodiy va mustaqil fikrlasa, o'z hatti-harakatlarini tanqidiy baholay olsa, taqqoslash, solishtirish kompetensiyasini egallasagina ularda intellektual anglash malakasini shakllanishiga erishish mumkin. Muammoning bir nechta echimlarini topish, umumiy xulosa chiqarish, o'z bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llay olish tarbiyalanuvchilarni intellektual darajasiga bog'liq.

Intellektual qobiliyat bu nafaqat bir faoliyat balki, bir qancha faoliyat turlarini bajara olishdir. Intellektual qobiliyat tarkibi xotira, idrok, tasavvur, tafakkur, nutq va diqqatdan iborat. Bularning barchasini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarining vazifasi hisoblanadi. Intellektual qobiliyatni rivojlantirish turli muammoli vazifalarni yechish bilan yuz beradi. O'quv vazifalarini bajarish orqali bilish, izlanuvchanlik va ijodiy jarayon amalga oshadi, aynan shular asosida fikrlash faoliyati paydo bo'ladi. Maktabgacha ta'lim amaliyotidan ma'lumki, bolalarga beriladigan savollar yoki muammoli topshiriqlar muhokama qilinayotganda ularda mustaqil fikrlash jarayoni amalga oshadi. Buyum, narsa va hodisalarning belgi xususiyatlari, vazifalarini o'rganishning afzalligi shundaki bolalar ularga turlicha tomondan yondashadilar. Ular buyum va narsalarning shakli, rangi, tuzilishi, voqea-hodisalarning mohiyatini o'rganadilar. Tabiiyki, maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual anglash malakalari qanday rivojlantiriladi? degan savol tug'ilishi mumkin. Tarbiyachi-pedagoglar tomonidan mashg'ulotlar, didaktik va intellektual o'yinlar, to'garak va turli xil tanlovlar (rasm chizish, tashlandiq va tabiiy materiallardan narsa-buyumlar yasash) o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual anglash malakalarini shakllantirish muvaffaqiyati mashg'ulot davrida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning individual yondashuvi, tarbiyachining pedagogik mahorati va uddaburonligiga bog'liq.

Tarbiyachining bolalarda bilim uchqunlarini hosil qilish, bilish faoliyatini tizimli tashkil etish orqali ularni o'quv jarayoniga qiziqtirish, bilim darajasini oshirish imkonini beradi. Bolalarni mustaqil ravishda bilim olishga intilishlari ularda intellektual anglash malakalarini shakllanganligiga bog'liq. Har bir bolada o'ziga xos qobiliyat va talant mavjud. Bolalar tabiatan qiziquvchan bo'ladilar. Ularga tabiiy va ichki imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun kattalar tomonidan zaruriy sharoit va vaziyat yaratilishi kerak. Bunda tarbiyachi-pedagoglar turli xil samarali metodlardan foydalanishlari, bolalarning faolligini oshirishga qaratilgan o'yin texnologiyalar, tafakkurni rivojlantirishga mo'ljallangan o'quv topshiriqlarini qo'llashlari lozim. Bolalarni fikrlashlariga turtki berish, izlanuvchanlik, muhokama qilish, muammolarga turlicha tomondan qarash, ma'lumotlarni yod olish emas, balki fikrlash orqali o'zlashtirishga o'rgatib borish kerak. Mavzu bo'yicha bolalarning mustaqil xulosa chiqarishlari, noyob echimlar topib, ijodiy yondashishlari ta'limdan qoniqish hissini paydo qiladi. Aksariyat olimlar tomonidan muammoli ta'limsiz, intellektual ko'nikmalar shakllanmasligi asoslangan. Muammoli ta'lim metodi maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarga beriladigan o'quv topshiriqlari muammoli xarakterda bo'lishi va o'yin shaklida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarbiyachi-pedagog mashg'ulotni rejalashtirganda, bolalar yangi ma'lumotlar asosida shunga o'xshash intellektual harakatlarni bajarish imkoniga ega bo'lishlarini ko'zda tutishi zarur. Muammoli topshiriqlarni muntazam ravishda bajarish yangi bilimlar uchun ma'lumotlar bazasini kengaytiradi. Mana shunday tarzda tashkil etilgan mashg'ulotlarda intellektual anglash malakalari shakllana boshlaydi. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining didaktik tamoyili talablaridan biri, mashg'ulot maqsadi rivojlantiruvchi topshiriqlar shaklida belgilanadi, unda intellektual ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish natijasida bolalarda muvaffaqiyat va o'z-o'zidan qoniqish hissi paydo bo'ladi. Yoki ushbu tushunchani "aqliy quvnoqlik" hislari deb atash mumkin. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasidan o'quv-tarbiyaviy faoliyatning turli jarayonlarida foydalanish mumkin. Biroq topshiriqlar tarbiyalanuvchilarni mavzuga oid ma'lumotlarni tushunish hamda ularni amalda bajarishga yo'nalgan bo'lishi lozim. Ushbu texnologiya nafaqat intellektual potentsiali yuqori, balki intellekti o'rta daraja bo'lgan bolalarda hamda samara beradi. Ijodiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar ijodiy tasavvur qilishga yordam beradi. Buning uchun mashg'ulotlarda tarbiyachi-pedagoglar turli xil o'yin usullarini qo'llashi zarur. O'yinlar rivojlantiruvchi yoki bilish faoliyatiga oid bo'lishi kerak. O'yin maqsadi bolalarning fikrlash doirasini kengaytirishi hamda dunyoqarashlarini shakllantirishi, bilim olishga qiziqishlarini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu o'rinda avvalo o'yinlar intellektual xarakterga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'quv-tarbiyaviy jarayon va mashg'ulotlarda topshiriqlarni bajarishda tarbiyachi-pedagoglar bolalarga "o'ylab ko'r", "nima o'zgardi?", "shakllarni yasa", "nimaligini top", "rebusni top" kabi topshiriqlarni berishi ularda fikrlash faoliyatini rivojlanishiga

turtki beradi. **Bolalar** faolligini oshirishga qaratilgan intellektual o'yinlar sirasiga zakovat o'yinlari, boshqotirma, topishmoq, mozaika, lego va dominolarni kiritish mumkin. Topishmoqlarni topish orqali bolalarda ijodiy tafakkur rivojlanadi. Tabiatga oid hikoya topishmoqlarni topish jarayonida bolalar tabiat qoidalarining o'zaro bog'liqligi hamda qonuniyatlarini anglaydilar. Kuzatish ham o'qitishning samarali usuli sanalib, kuzatish jarayonida bolalarda ko'rish, sezish va anglash rivojlanadi, tabiat hodisalarini tushunadilar. 5-7 yosh bolalar bilan tabiatni kuzatishda kuzatilayotgan obyekt ilmiy, qiziqarli va yosh xususiyatiga mos bo'lishini e'tiborga olish muhim. Tabiat bilan tanishish bolalarda fikrlashni kengaytiradi, kuzatuvchanlik diqqat, tafakkur va estetik hislar rivojlanadi. Maktabgacha ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish ham o'qitishning faol shakli hisoblanadi. Bolalar ma'lumotlarni ko'rib eslab qoladilar va oson o'zlashtiradilar. Bolalar ekranda ko'rgan videotasvir mashg'ulot oxiriga qadar ular diqqatini barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Mashg'ulotlarda multimedia vositalarini qo'llash mashg'ulotni yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Bolalarda ko'rish, eshitish, idrok qilish, tasavvur jarayoni rivojlanadi. Multimedia bolalarga o'rganilayotgan o'quv materialini puxta o'zlashtirish, ta'lim jarayonida charchamaslik va zo'riqmaslikka yordam beradi. Taqdimotlar vaqtan unumli foydalanish, mashg'ulotni sifatli bo'lishini kafolatlaydi. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarga differensial yondashuv orqali voqea-hodisalar, buyum-narsalarga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual anglash malakalarini shakllantirishda **didaktik** o'yinlar ham eng samarali shakl hisoblanadi. O'yinning afzalligi shundaki, undan nafaqat mashg'ulotlarda balki, boshqa vaqtda (sayr, kuning ikkinchi yarmi, kechki sayrda) ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lib, bolalarda tafakkur, xotira, diqqat va ijodiy xayol rivojlanadi. O'yinlar tahlil va sintez qilish qobiliyati, fazoviy tasavvurlar, konstruktiv ko'nikma, ijodkorlik, kuzatuvchanlik, xulosa va hukm chiqarish, O'z-o'zini tahlil qilish, berilgan topshiriqlarni bajarayotganda hatti-harakatlarini boshqara olish, boshlagan ishni yakuniga yetkazish kabi ko'nikma va malakalarni shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Chexiyalik olim Yan Amos Komenskiy fikricha, "bolalarning har qanday mehnat faoliyati aqliy rivojlanish va ruhan xursand bo'lish manbaidir"[1]. Mashg'ulot jarayonida tarbiyachi-pedagog shunday vaziyat yaratishi lozimki, bolalar zavqlanishi va dam olishlari, ishtiyoq bilan bilim olishlari lozim. Shuning uchun mashg'ulotlar va kun davomidagi faoliyat qulay va komfort muhit yaratilishini talab etadi. Tarbiyachi-pedagog o'quv-tarbiyaviy jarayonda tizimli ravishda qiziqarli topshiriqlar, boshqotirma, rebus, mozaika, o'yin mashqlaridan foydalanishi zarur.

Yuqorida keltirilgan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonlarning barchasi bolalarda xotira, diqqat va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli kechishida muhim shart hisoblanib, ma'lumotlarni oson va tez o'zlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha

yoshdagi bolalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish negizida fikrlash operatsiyalarining eng yuqori darajasi yuz beradi.

Adabiyotlar:

1. Пережовская А. Н. Вклад Я. А. Коменского в развитие педагогической науки.//Иновационные педагогические технологии: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Казан, май 2015 г.)- Казан: Бук, 2015- С. 27-30.
2. Usmonova Sh. Intellekt psixodiagnostikasi masalalari.O'quv qo'llanma.T.:Fan, 2015-70
3. G'oziev E.G'. Tafakkur psixologiyasi.- T.: 1990-57b
4. Дьяченко В.В. Теория и практика патриотического воспитания в современной России:Дис.-М.,200385
5. Алешина Н.В. Патриотическое воспитание дошкольников. Конспекты занятий. - М.: УЦ «Перспектива», 2008.



PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA ORQALI BOLALARNING O'ZLASHTIRISH SIFATINI ANIQLASH

Choriyeva D.A.

Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasida v.b. dotsent (PhD),

Ahmedova N.

Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" yo'nalishi talabasi

Pedagogik diagnostika o'quv materiallarini bolalar tomonidan o'zlashtirilishi sifatini aniqlashga imkon beradi. Sifatli assimilyatsiya reproduktiv daraja (eslash — ko'paytirish) emas, balki bolaning olgan bilimlarini yangi (shu jumladan nostandart) vaziyatlarda qo'llash qobiliyati sifatida olingan bilimlardan mustaqil va ijodiy foydalaning; o'quv vazifasiga muvofiq qo'shimcha ma'lumot qidirish tushuniladi.

Tashxis tarbiyachiga bolaning qiyinchiliklarining tabiatini aniqlashga va ularning sabablarini aniqlashga imkon beradi. Bu bola va tarbiyachi faoliyatini tartibga solishni ta'minlaydigan o'quv jarayonining rivojlanishini ta'minlaydi. Didaktik jarayon ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, bola tomonidan ham, o'quvchi tomonidan ham muvaffaqiyatli o'rganishga imkon beradi. Topshiriqlarni bajarishda duch kelgan qiyinchiliklarning xususiyatini aniqlab, bolalarning doimiy xatolarining sabablarini aniqlash aniqlangan sabablarni bartaraf etish usullarini aniqlashga yordam beradi. Tarbiyachining pedagogik diagnostika o'tkazgandan so'ng olgan ma'lumotlari juda aniq va har bir bolaning o'qishdagi doimiy muvaffaqiyatsizliklarning haqiqiy manbalarini aniqlashga yordam

beradi. O'quv fanlari mazmuniga asoslangan pedagogik diagnostika vazifalari har bir bolaning o'quv faoliyatini o'zlashtirishdagi yutuqlarini tavsiflashga imkon beradi. Pedagogik diagnostika amalga oshirilgan diagnostika ishlarining tahlili o'quv faoliyatining qaysi tarkibiy qismlari shakllantirilganligini va qo'shimcha ishlarni talab qiladigan narsalarni aniqlash imkonini beradi. Shakllangan o'quv faoliyati eng samarali o'quv faoliyatidan foydalanishda, topshiriqni bajarish jarayonida savollarni berish, qarorning har bir bosqichini tekshirish va asoslash, harakatni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tanlash, bu yoki boshqa qaysi asosda amalga oshirilishini tushuntirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Harakatlar va faoliyatlar diagnostika ishi O'z-o'zini nazorat qilish va O'z-o'zini anglash darajasini aniqlashga imkon beradi. Masalan, bola ish boshlashdan oldin o'z harakatlarini qanday rejalashtirishni biladi (O'z-o'zini monitoring qilishni rejalashtirish), u ish paytida o'zini tekshiradimi (qadam-baqadam o'zini o'zi nazorat qiladimi) yoki ish oxirida o'zini tekshiradimi (O'z-o'zini nazorat qilish).

Tarbiyachi pedagogik diagnostika usulidan foydalanib, o'zi olib boradigan o'quv jarayonining rivojlanish samarasini aniqlay oladi. Diagnostik vazifalar bolalarga nostandart topshiriqning ma'nosini tushunish, mustaqil ravishda yangi harakat usulini topish, tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi shakllantirilishi kerak. Bunday vazifalarning bajarilishini tahlil qilish, ta'lim umumiy rivojlanishning rivojlanishiga hissa qo'shadimi yoki yo'qmi, bolalarning intellektual rivojlanishida, shu jumladan mavzuda o'zgarishlar bo'ladimi — yo'qligini aniqlashga imkon beradi.

Diagnostika, nazorat qilish, tekshirish va bolalarning o'rganilayotgan mantiqiy ketma-ketlikda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni aniqlashdir.

Tekshirish tizimidagi birinchi havola bolalarning bilim darajasini oldindan aniqlash sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Qoida tariqasida, u o'quv yilining boshida bolalarning oldingi o'quv yilidagi eng muhim elementlar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Dastlabki sinov bilim va ko'nikmalardagi bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan kompensatsion trening deb nomlanadi. Bunday tekshirish nafaqat o'quv yilining boshida, balki o'rtada, yangi bo'limni o'rganish boshlanganda ham mumkin va mosdir.

Bilimni tekshirishning ikkinchi bo'g'ini — o'rganilayotgan har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonida ularning joriy tasdiqlanishi. Garchi bu darsdan darsga o'tilsa ham, bolalar tomonidan o'quv dasturining faqat ayrim elementlarining assilyatsiyasini tashxislar imkoniyati mavjud. Joriy testning asosiy vazifasi — bu o'qitish. Bunday tekshirish usullari va shakllari har xil bo'lishi mumkin, ular o'quv materialining tarkibi, uning murakkabligi, bolaning yoshi va darajasi, o'qitish darajasi va maqsadlari, o'ziga xos sharoitlar kabi omillarga bog'liq.

Bilimlar va ko'nikmalarni sinashning uchinchi bo'g'ini — bu hozirgi singari tematik bo'lishi kerak bo'lgan qayta testlar. Yangi materialni o'rganish bilan bir qatorda bolalar ilgari o'rganilgan

narsalarni takrorlaydilar. Takroran tasdiqlash bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ammo akademik ish dinamikasini tavsiflashga, assimilyatsiya kuchi darajasini aniqlashga imkon bermaydi. Bunday tekshiruv faqat tashxisning boshqa turlari va usullari bilan birlashganda kerakli samara beradi.

Tizimdagi to‘rtinchi aloqa bu butun bo‘lim bolalarning bilim, ko‘nikmalarini davriy tekshirish. Ushbu testning maqsadi — kursning turli qismlarida o‘rganilgan o‘quv materialining tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganayotgan bolalarning sifatini aniqlash.

Tizimning beshinchi bo‘g‘ini — bu didaktik jarayonning barcha bosqichlarida bolalar tomonidan olingan bilim, ko‘nikmalarning yakuniy sinovi va hisobi. Bu, birinchi navbatda, haqiqiy tayyorgarlik darajasi (sifati) va uning ushbu bosqichda qo‘yilgan maqsadlarga muvofiqligi diagnostikasi.

Maxsus ko‘rinish — bu keng qamrovli tekshirish. Uning yordami bilan tinglovchilar turli xil ilmiy mavzularni o‘rganishda olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llash qobiliyati aniqlanadi. Keng qamrovli auditning asosiy vazifasi obyektlararo aloqalarni amalga oshirish sifatini aniqlashdir. Keng qamrovli tekshirishning amaliy mezoni bu ko‘pincha o‘rganilayotgan barcha fanlardan to‘plangan ma’lumotlarga tayanib, hodisalarni, jarayonlarni, voqealarni tushuntirish qobiliyatidir.

Diagnostika faoliyatining usul va usullari:

- kuzatish;
- suhbat
- so‘roq qilish;
- sinov;
- martabali;
- ekspert bahosi;
- guruh va individual o‘zini o‘zi qadrlash;
- sotsiometriya;
- rol o‘ynash
- tarkibi va boshqalar

Barcha diagnostika usullaridan sinov eng istiqbolli hisoblanadi. Diagnostika tarbiyachining qo‘lida samarali vositaga aylanishi uchun diagnostika ishlari muntazam ravishda o‘quv yilining boshida va oxirida olib borilishi kerak. Tizimli ravishda olib boriladigan pedagogik diagnostika, uning natijalariga doimiy murojaat qilish tarbiyachiga ko‘r — ko‘rona ishlashga imkon bermaydi, lekin har safar har bir bola bilan qaysi yo‘nalishda va qaysi yo‘nalishda ishlash kerakligini aniq bilib olishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Levchenko I.Yu. Patopsixologiya: nazariya va amaliyot. 2-nashr. - M., 2004 yil.
2. Pedagogik-psixologik diagnostika / Ed. I.Yu.Levchenko, S.D.Zabramnoy. - M., 2006 yil.
3. Bolani psixologik, tibbiy va pedagogik tekshirish. / Ed. M.M.Semago. - M., 1999 yil.
4. Yoidoshev J., Hasanov S., Shirinov M. Magistrلامي kasbiy pedagogik faoliyatga tayvorlash. - T. "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2011-y.
5. Денякина ЛИ. Педагогическая диагностика - движущая сила педагогического коллектива. - М. "Университет". 2000 г.



BOLALARNING YOSH DAVRIDAGI MUAMMOLARINI OLDINI OLISH VA ULARNING TARBIYASI BILAN SHUG'ILLANISH

Choriyeva D.A.

Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasida v.b. dotsent (PhD),

Qodirova Sh.S.

*"Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" yo'nalishining
2 kurs talabasi*

***Insonning bolaga haqiqiy muhabbati- aqlu idrokka asoslangan
g'amxo'rlik bilan, to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya bilan o'lchanadi.***

Qori Niyoziy

Qadim zamonlarda odamlar bolalarning tarbiyasini qanday usullarda tarbiyalash kerakligini bilishgan. U zamonlarda ham bolalarni tarbiyasini yanada mustahkamlovchi o'yinlar yoki shunga o'xshash axloqiy jarayonlar bolalarga o'rgatilgan. Shunday jarayonlar orqali bolalarni qanday tarbiyalash kerak qanday usullarni qo'llash kerakligini ham bilib olishgan. Hozirgi kunda yosh onalar o'z farzandlarini yangicha usulda tarbiyalab kelmoqdalar. Ya'ni zamon rivojlangan sari bolalarni tarbiyalash usullari va metodlari ko'payib bormoqda. Onalar faqat shu zamonaviy tarbiya usullaridan foydalanmoqdalar. Bunday tarbiya jarayoni bolalarning an'anaviy tarbiyalash jarayonidan cheklab qo'yishi mumkin. Masalan, imkon boricha bolalarga audio ertaklarni o'rniga bir necha daqiqa bolaga ota-ona vaqt ajratishi, ertak kitoblardan ertaklarni aytib berishi afzalroq sanaladi. Shunda uning ota yoki ona bilan o'zaro muloqotni o'rnatishga yordam beradi. Chunki ba'zi ota-onalar ishlari bilan band bo'lib bolaga vaqt ajratmay qo'yishlari ham mumkin. Shuning uchun eng yaxshi vaqt bu ertak aytib berish jarayonidir. Shundagina bola o'zini ota- onasi uchun kerakli shaxs sifatida o'zini his qiladi. Shuni unutish kerakmaski, bola qachonki o'ziga ishonsa, shundagina u tashabbuskor, aqlli va irodali shaxs bo'lib etishadi.

Hozirda biz ta'limning keskin o'sishini kuzatmoqdamiz, chunki ota-onalar ta'lim g'oyasi va tarbiyani noto'g'ri tushunadilar, oilada bola rivojlanishi uchun eng muhim bo'lgan " tayyorlov maktabi" ni yaratish uchun hech nima qilmaydilar.[1]

Masaru Ibuka tayyorlov maktabi haqida ko'plab g'oyalar va o'z qarashlarini bayon qilganlar. Tayyorlov maktabi haqida gap ketganida albatta bolalarni yaxshi o'qitish ularga boshlang'ich bilimlarni berish nazarda tutilgan. Har qanday boshlang'ich maktab bu albatta gina oilada namoyon bo'ladi. Ya'ni har qanday bilim va tarbiyani ham oila muhitida paydo bo'lishi va eng avvalo bola oila muhitida shu ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun ham tayyorlov maktabi deganda albatta gina oila tushunilishi kerak. Hozirgi kunda aynan shu masala nazarga olinyapti. Sababi oilada bolalar ilk tarbiya kurtaklarini ochishlari zarur. So'ngra maktabgacha tayyorlov muassasalarida shu olgan ko'nikmalarini yanada mustahkamlab boraveradi. Tayyorlov maktabi uchun bolalarni rivojlantiruvchi barcha vositalardan foydalanish kerak. Shunda bolada individual rivojlanish darajasidagi samaradorligi o'sib boraveradi.

Urishish yoki majburlash zarur bo'ladigan vaziyatlar ham bor, ammo qiyin vaziyatda bolaga tanlash imkoniyatini berish yoki uni ishontirishga harakat qilish afzalroq. Agar bolaga boshqa muqobil(alternativ) variantni taklif eta olmasangiz, hech bo'lmasa nima uchun shu ishni qilish mumkin emasligini tushuntirish kerak. Sizning tushuntirishlaringizni anglay olmasligi mumkin ammo, tovushingizdagi ishontirish bolaga ijobiy ta'sir o'tkazadi.[2]

Bolalar yoshligida ayniqsa go'daklik davrida ko'p narsalarni anglay olmaydi. Shuning uchun ba'zida shu narsalarni ushlab ko'rishga berishimiz kerak. Shundagina u anglay olishi mumkin. Agar ba'zi hollarda esa bolalarga intonatsion vosita orqali ularga tushuntirishimiz kerak. Albatta bunday yoshda, yosh bolalar kattalarning gaplariga tushunmaydilar. Lekin albatta biz shunga harakat qilishimiz kerak. Jazolashdan ko'ra bolalarga tushuntirishimiz kerak. "Bolani urishgandan ko'ra maqtagan afzalroq"- deydi Masaru Ibuka. Biz bolaga "Sen yaxshi bolasan bunday yomon ishlar sening qo'lingdan kelmaydi, sen odobli bolasan"- deb aytsak bola shu xislatlarga qarab rivojlanib boradi. Bolani qancha ko'p urishaversak yoki ruhiy jihatdan qo'rqqoq yoki o'sha urishgan insonga nisbatan salbiy xulq-atvori uyg'onishi mumkin. Shuning uchun bolalar tarbiyasi borasida o'ta ehtiyotkorlik bilan tarbiyalash kerak.

Bolasini yaxshi ko'rgan ota-ona uning darajasiga tushishi kerak. Chunki bolaning kichik dunyosiga kiriladigan eshik ham kichkinadir. Boladek kichik bo'lgan bu eshikdan kirish uchun egilish lozim. Balki surilish, yumalash, bolaning ichki dunyosiga sig'adigan darajada kichrayishi kerak.[3]

Bolalar tarbiyasining muhim shartlari ko'p bo'lib, ularga amal qilsak, bolalar yanada mehribon va ota-onasiga nisbatan hurmati cheksiz bo'ladi. Yosh bolalar juda qiziquvchan bo'ladi. Qiziquvchan bolalar har doim savollar beraveradi. Bu savollarga ba'zida ota-onalar javob topa olmaydi. Shunday

vaziyatlarda shu savolga javobni birgalikda qidirsa, bola ilm olishni qanday ekanligini anglab yetadi. Bilmagan ma'lumotlarni bilib olganidan xursand bo'ladi. Shu paytda ota-ona bola bilan birgalikda xursandchilikni baham ko'rmoqlik, bolada unutilmas jarayon bo'lib qoladi. Eng asosiysi bolalar hayotidagi har bitta jarayonga ota-ona mas'uliyat bilan yondashishi lozim. Shundagina bola baxtli bo'lib voyaga yetadi. Albatta baxtli bola kelajakda juda yam yaxshi inson bo'lib yetishishi shubhasiz.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Ma'naviyat yuksalish yo'li. - T. "O'zbekiston. 1998-y.
2. M.G. Davletshin, Sh.Do'stmuhammedova, M.Mavlanov, S.To'ychiyeva. Yosh davrlar psixologiyasi. - T.: 2004-yil. TDPU.
3. Masaru Ibuka "Uchgacha ayni vaqti" 2021 yil, III-qism. Agar go'daklikda oliy darajali ong singdrilsa, "oliy darajadagi ongli shaxs" ulg'ayadi. 142-bet.
4. Masaru Ibuka "Uchdan keyin kech" 2021 yil, 4-nashr, IV-qism. Bolani urishgandan ko'ra maqtagan afzalroq. 135-bet.
5. Sanohat Bozorova, Muna Xolmurodova "Oilada sevgi suhbatlari" 2021 yil, Bola tarbiyasining muhim shartlari 28-bet.

ОСНОВНЫЕ УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ КУЛЬТУРЫ

Шавкатов Ш.И.

Магистр Ташкентский химии технологического института 2 курса

В современной [научной литературе](#) часто используется в качестве основополагающего принципа структурирования базовые положения, развиваемые основными подходами и школами в науки управления (М.Альберт, М.Мескон, Ф.Хедоури, и др.). Как правило, это три основные направления: рациональное, психологическое, информационное. Каждое из них распадается еще на определенное количество структурных компонентов, подлежащих дальнейшему делению.

Первым в истории возникло рациональное направление в науке управления, то есть стремление организовать производство наиболее рациональным способом. Иными словами, перенести эмпирические знания в область теоретического исследования. Это направление характеризуется началом разработки основ научной организации труда (Ф.Тейлор, Ф.Гилбрет, Г.Форд и др.). Родоначальником этого движения явился. Во-первых, он выделил сам вид управленческой деятельности, как определенную профессиональную область, требующую специальной, целенаправленной подготовки. Во-вторых, выделил два ведущих принципа управления:

- разделение труда на труд исполнительский и труд распорядительский;
- соответствие работников видам выполняемых ими работ.

Второй принцип выделял такое соотношение как вид работы и внутренние склонности и способности исполнителя. Конечно, научной психологической базы под этим положением не было, так как психология как наука только начинала развиваться, но такую потребность научной организации труда Тейлор уже осознал.

По поводу первого принципа следует отметить, что Тейлор не просто выделил распорядительский труд, то есть труд управленца. Он разработал подробный перечень обязанностей, которые ему (управленцу) следует выполнять. Кратко их суть можно свести к следующему: администратор должен знать оптимальную методику выполнения профессиональных действий рабочего, подобрать исполнителя по психологическому складу подходящего к этой работе и научить его грамотно с ней справляться. В этом и заключается суть научного управления с целью организовать труд на базе четко выверенных научных данных. Другое течение, в рамках рационального направления в менеджменте, получило название административного или функционального. Наличие двух названий, не равнозначных по смыслу, объясняется тем, что представители этой школы вели исследования в двух взаимозависимых направлениях: изучали функции, принципы, правила, составляющие суть управленческой деятельности, а также роль административного аппарата, обязанного заниматься их выполнением (А.Файоль, М.Вебер, Л.Урвик и др.).

Эти структурные базовые компоненты рационального подхода в управлении легли в основу научного управления любой сферой деятельности, в том числе и образовательной.

Функциональный подход в управлении школой породил много дискуссий и тщательно разработан в отечественной научной литературе (и др.). Спорным моментом, в большей степени, стал вопрос об определении функций, входящих в процесс управления школой. Точки зрения по этому вопросу весьма расходятся. Например, выделяет пять функций: [педагогический анализ](#), планирование, организация, внутришкольный контроль, регулирование, считает, что процесс управления школой включает функции прогнозирования, планирования, организации, регулирования и корректировки, учета и контроля. Придерживаются мнения, что планирование, организация и руководство (включающее мотивацию и контроль) составляют полный управленческий цикл.

Такая активная проработка вопроса привела к тому, что функциональный подход подвергся [факторизации](#) еще на целый ряд компонентов. Это произошло вследствие того, что отдельным функциям процесса управления стало придаваться ведущее, системообразующее значение, и они стали более глубоко анализироваться, изучаться, образуя новые течения в науке. Ярким тому примером является разработка функции педагогического анализа. У.Кинг

и Д.Клиланд разработали принципы и методы [стратегического планирования](#). Функция прогнозирования и ее значимость рассматривается в исследованиях П.Друкера. Функции и методы контроля в педагогическом процессе были рассмотрены в ряде работ (и др.).

Следующее направление, возникшее в 30-е гг. XX века, как реакция на недостатки рационального, развивалось параллельно и оспаривало право на абсолютную истину - это психологическое направление. Это течение включает в себя два этапа: первый, характеризуется как движение за человеческие отношения, то есть против деперсонализации производства и управление сотрудничества между администрацией и коллективом (М.Фоллетт, Э.Мэйо, и др.). Второй этап усложняет положение первого и ставит предметом своего исследования поиск средств, направленных на управление поведением людей, так называемый поведенческий подход (Д.Мак-Грегор, Г.Саймон, Д.Карнеги и др.).

Психологический подход в управлении школой в настоящий момент, в связи со сменой парадигмы образования, пришел в состояние интенсивного развития и напрямую связан с человекоцентристским подходом в управлении (и др.).

Современный психологический подход распадается на целый ряд структурных компонентов, представляющих собой отдельные научные течения: мотивационное, когнитивное, рефлексивное, управление конфликтами, имиджелогия в управлении, [бихевиористический](#) подход и т. д.

Третье, более позднее направление развития науки управления, связано с использованием достижений точных наук в управлении, а также компьютеров, как средств [обработки информации](#) и разработки соответствующих технологий; оно получило название информационное или кибернетическое (С.Бир, Н.Винер, А.Ершов, К.Шеннон, У.Эшби и др.).

В современной иностранной научной литературе весьма распространенным является структурирование науки управления по национальному принципу (К.Паркинсон, М.Растомджи, С.Сапре, У.Оучи, Р.Шонберг и др.). Выделяют, как правило, три большие группы: американский, японский и западноевропейский менеджмент, причем последний может быть разделен еще на целый ряд компонентов, характеризующихся наличием общих, объединяющих признаков. Если рассматривать науку управления, используя [данный структурообразующий](#) принцип, то важно заметить следующий момент. В экономике есть так называемый "эффект позднего развития". Он нашел свое выражение в японской модели управления. Японцы позаимствовали основные методы и положения из американского менеджмента и творчески переработав, адаптировали их к национальной специфике. В результате в настоящее время американские исследователи работают над проблемой возможного использования японских методов управления в условиях своей страны. Таким

образом, наметилась тенденция интеграции достижений американского и японского менеджмента.

В современной науке управления сейчас стали ярко проявляться тенденции к интеграции. Процесс интеграции осуществляется в двух основных направлениях:

1. Интеграция достижений национальных моделей управления, характеризующихся универсальностью использования (японский и американский менеджмент);

2. Интеграция достижений рационального и психологического подходов в управлении на базе научных разработок информационного направления.

В образовательном менеджменте, так же как в любом, в том числе предпринимательском менеджменте, действуют общие законы, принципы, методы и средства управления; однако главной целью образовательного менеджмента в большинстве учебных учреждений, как правило, является не извлечение прибыли, а самообразование.

Образование – вероятно, самый древний социальный институт в системе общественного разделения труда, задачей которого была передача из поколения в поколение накопленного людьми опыта и формирование у детей и юношества способности использовать этот опыт и обогащать его собственным вкладом.

Литература:

1. Менеджмент в управлении школой/ Под ред. . М., 1992.
2. Лазарева образованием на пороге новой эпохи/ Педагогика, 1995, № 5.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi/ M.X.Tohtaxodjayeva va boshqalar. Prof. M.X.Tohtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. -Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 1996y.
4. Валеева Г.Х. Патриотическое воспитание дошкольников и младших 61 школьников на основе народных традиций/ Г. Х. Валеева, И.И. Варламова

SAN'ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Shavkatova O.I.

*Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti
3 kurs talabasi*

San'at-ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli hisoblanadi. San'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulidir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. “San'at” keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod

qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. "San'at" so'zi jonli tilimizda nechog'li keng ma'noda qo'llanmasin, tabiiyki, bizni uning emas, balki istiloxiy ma'nosi qiziqtiradi. San'atning quyidagi ikki turi farqlanadi: amaliy va badiiy (nafis). Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san'at turlari farqlanadi. Ba'zi san'at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Aytaylik, musiqa-ifoda san'at kompozitor ohanglar orqali kechinmalarni ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi. Rassomlik bilan haykaltaroshlik tasviriy san'at turlari bo'lib, unda biror manzara, holat musavvir qalbini junbishga keltirib, qalbida muayyan kechinmalarni kuzatadi va musavvir o'sha manzarani rang-tasvirga muhrlaydi. Shu tariqa san'at asarlari ruhiyatimizga oziq beradi. San'atning turli ko'rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'ziga xos usullar yordamida aks ettiradi. Masalan, musiqada tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi orqali; badiiy adabiyot so'z, obrazlar orqali; tasviriy san'atda bo'yoqlar yordamida muayyan hissiy obraz gavdalanir; teatrdan qahramonlarining siyosiy aktyorlar orqali namoyon bo'ladi. Mavjud san'at turlari orasida badiiy adabiyot yetakchi o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyot universal bilish va ifoda vositasi bo'lmish so'z bilan ish ko'radi. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi bo'lib, jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning hamma shakllari bilan aloqaga kirishadi. San'at voqelikni badiiy vositalar orqali yanada to'laqonli, jozibali anglashga yordam beradi. San'at uchun inson bosh mavzu bo'lib xizmat qiladi. San'atda inson hamma vaqt ham bevosita ifodalanmaydi. San'at narsalardan, tabiat hodisalaridan inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'noni izlaydi, inson qalbini poklaydi, uning har tomonlama kamol topishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni, shuningdek, kishilar ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan.

Arastu, Aflotun kabi o'sha davrning yirik faylasuflari Yunonistonda san'atning tarixi bilan ham shug'ullangani to'g'risida ma'lumotlar saqlangan. Qadimgi Rimda yunon san'atiga katta e'tibor bilan qaralgan. Miloddan dastlabki asrlarda O'rta Osiyo mamlakatlarida me'morchilik va san'atga oid risolalar yaratilgan. O'rta asrlarda Yevropada san'at ilohiyotning (teologiya) bir qismi bo'lib qoladi. O'rta asr san'atshunoslari san'atni narigi dunyoning bu dunyodagi moddiy obrazi deb baholagan. Uyg'unlik davri san'at rivojida muhim davr bo'lib tarixga kirdi. XIV-XVI asrlarda insonparvarlik va realizm g'oyalari bilan bir qatorda san'atni cherkov ta'siridan ajratishga intilish kuchaydi va uni ilmiy tavsiflash yo'lida muhim qadam quyildi. Bu davrda san'at uning nazariyasi va tarixi bo'yicha qimmatli asarlar vujudga keldi. Leonardo da Vinchining rassomlikning ilmiy asoslari va imkoniyatlari, tasviriy san'atda inson ma'naviy hayotining aks ettirilishi kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan fikrlari, san'at odamlarining estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli

davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg'u, manfaat, ideallarini ifoda etgan. San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o'zining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shundayligicha aks ettirish va hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi. San'atning tarbiyaviy kuchi unda ifoda etilgan kechinma va obrazlarning har bir o'quvchi, tomoshabinning qalbiga kirib borishi, ularda estetik zavq uyg'onishidadir.

San'at barcha ijtimoiy ong shakllari singari o'z taraqqiyot qonunlariga ega. Bu qonuniyatlar san'atning o'z ichki xususiyatlaridan kelib chiqsa-da, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan xalq, millat, elat, mamlakat va jahon sivilizatsiyasi darajasi bu qonuniyatlarini o'z ifodasini topadi. San'at qonuniyatlarini estetika, san'atshunoslik fani o'rganadi. San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan. Masalan, ba'zi san'atkor va san'atshunoslar uni "tabiatning taqlidi" yoki "voqelikning aks ettirilishi" deb hisoblasa, boshqalari "San'atkorning sof shaxsiy ijodiy mahsulini", "o'z-o'zini izhor etish" sifatida talqin etadi. Bu san'at predmetining murakkabligi, uning xususiyatlari va shakllari, mujassamlashtirishning usullarining xilma-xilligi hamda turli davrlarda san'at nazariyotchilarining sinfiy va g'oyaviy fikrlari o'rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi. San'atda go'zallik kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetika fani-go'zallik san'atning zarur sharti ekanligini, go'zalliksiz san'atning yo'qligi va bo'lishi mumkin ham emasligini uqtiradi. San'atda mazmun va shaklni birbiridan ajratib bo'lmaydi. San'atning o'ziga xos xususiyati uning voqelikni ilg'or g'oyaviy nazardan badiiy obrazlar orqali aks ettirishdir. Milliy istiqloq mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida san'at alohida o'rin tutadi. Chunki san'at yuksak ijtimoiy g'oyalarni targ'ib etuvchi, inson ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovchi vositalardan zarur bo'lgan o'zaro muloqotlar vositasi sifatida turli qit'alar va davlatlarni o'zaro bog'laydi. Zotan, inson san'atdan estetik zavq, bitmas-tuganmas ijodiy kuch-qudrat oladi va shu ma'noda san'at ma'naviy yuksalishning eng ta'sirchan quroliga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. Kayumov I.F. Psixologicheskiye istoki muziki // Academy. 62:11 (2020). C. 5658.

2. Atamurodov R.E. «Proyavleniye sotsialno-psixologicheskix mexanizmov motivatsii muzikalnoy deyatel'nosti» Scientific progress 2021/2/2 str. 433-437.
3. Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyev R.A. Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya. -T . Iqtisod-Moliya. 2010-y.
4. Yoidoshev J. Ta'lim yangilanish yo'lida. - T. "O'qituvchi". 2000-y.
5. Алешина Н.В. Патриотическое воспитание дошкольников. Конспекты занятий. - М.: УЦ «Перспектива», 2008.



**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING METODIK
TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK
ShART-ShAROITLAR**

Shamsiddinova A.M.
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Respublikamizning pedagogika oliy ta'lim muassasalari oldiga o'quv jarayonini tubdan isloh qilish, jumladan, o'qituvchi kadrlarni zamon talabalariga mos ravishda tayyorlash muammosini qo'ydi. Maktabda o'quvchilarning kognitiv faoliyatini tashkil etish va boshqarishning samarali modellarini izlashni amalga oshiraqoladigan o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar alohida ahamiyatga ega. Pedagogika yo'nalishlari bitiruvchilarining raqobatbardoshligi va kasbiy kompetentligi asosiy talab sanaladi. Oliy pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammosi keskin ravishda oshib ketgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga e'tiborning ortishi ta'limni rivojlantirish texnologiyalari va usullarini maktab amaliyotiga ommaviy joriy etishni taqozo etadi.

Ayni paytda esa, pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi zamonaviy ta'limning obyektiv tendensiyalarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi tayyorlash "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi, oliy kasbiy ta'lim standartlariga va tegishli vazirliklarning tavsiyalariga muvofiq o'quv rejalari ishlab chiqilgan, asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishning muammolari ma'lum bir o'lchov birliklarida aniqlangan, bitiruvchining majburiy umumiy madaniy va kasbiy malakalari ro'yxati tuzilgan. Biroq, o'qituvchilarni tayyorlashning yangi maqsadlari ham, o'quv jarayonini tashkil etishdagi o'zgarishlar ham universitet o'qituvchilarini tayyorlashda mavjud bo'lgan tushunmovchiliklarni hal qilmagan:

pedagogik amaliyotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limini va kasbiy faoliyatining yangi turini hamda oliy pedagogik ta'limning belgilangan modelini ishlab chiqishda, asosan, "bilim" paradigmasiga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim yo'nalishlari, ta'lim darajasini oshirish shakllari, ta'lim mazmunini varinatlarini tanlash cheklanganligini bilan tavsiflanadi;

oliy pedagogik ta'limning yangi fanlar bilan boyitish va boshlang'ich ta'lim mazmunining o'zgaruvchanligi sharoitida o'qituvchilarni tayyorlashni ana'naviy axborot bilan boyitish orqali ta'minlay olmasligi;

boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsiga jamiyatning ortib borayotgan talablari va uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun dasturlarning etishmasligi;

talabning bo'lajak kasbga yo'naltirilishi va OTMdagi o'quv jarayonining ijtimoiy tajribaga murojaat qilishi va boshqalar. Ushbu holatning sababi o'qituvchi tayyorlash tizimining yangi maqsadlari va eski shakllari hamda talabalar bilan ishlash usullarni o'rtasidagi aloqalarning yo'qligi deb hisoblanadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimi uchun yangi texnologiyalar zarur, ular esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchini tayyorlash uchun yangi g'oyalar, yangiliklar va tadqiqotlarni talab etadi

Hozirgi kunga qadar oliy ta'lim jarayonida ma'ruza mashg'ulotlar usuli ustunlik qilib kelmoqda. Test va imtihonlar orqali mustaqil ishlarni nazorat qilish bilimlarni oshirishga qaratilgan, davlat imtihoni kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish darajasini emas odatda, xotira va eslab qolgan ma'lumotlarni "qaytarish" qobiliyati tekshiriladi.

Bunday sharoitda bo'lajak o'qituvchiga zamonaviy maktabda faoliyat olib borish uchun kerak bo'ladigan sifatli ta'lim berish mumkin emasligi aniq.

Zamon talablarini hisobga olgan holda mamlakatimizdagi mavjud pedagogik tadqiqot institutlari innovatsion faoliyatiga yo'naltirilgan kasbiy ta'limiga paradigmasiga o'tishmoqda.

Innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan kasbiy ta'lim kompetensiyaga asoslangan yondashuvi, ilmiy bilimlar va amaliy ko'nikmalar hamkorligini ta'minlashga qaratilgan; ta'lim dasturlarining variativligini (o'zgaruvchanligini) rivojlantirish va boshqalar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash jarayonida, bizning fikrimizcha, quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

– interfaol muammoli ma'ruzalarni o'tkazish, ya'ni ma'ruza davomida "savol-javob" usulidan faol foydalanish;

– amaliy mashg'ulotlar davomida "davra suhbat", "seminar" kabi ta'lim shakllarini joriy etish, unda talabalar muhokama davomida o'z mustaqil ishlanmalari asosida mutaxassislikning muhim jihatlari o'rganadilar;

– debatlar, bahs-munozaralar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, darslarning video lavhalar orqali o'tkazish;

– o'qituvchining faoliyati, ijodkorligi, kreativligi rivojlantirishga yordam beruvchi rolli va ishbilarmonlik o'yinlari, keys-metodlarini, "aqliy hujumi" ni oliy maktab ta'lim jarayonida qo'llash;

– bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishga ko'maklashuvchi seminarlar, mahorat darslari, o'quv mashg'ulotlari o'tkazish;

– ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish jarayonida elektron ta’lim resurslari, Internet-qidiruv tarmog‘i, multimedia vositalaridan keng foydalanish;

– individual amaliy mashg‘ulotlar jarayonida imitatsiya, refleksiya, relaksatsiya elementlaridan foydalanish;

Innovatsion o‘qitish metodlari ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan ishlashning guruhli shakllaridan foydalanish imkoniyatlariga e’tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5748 son Qarori.

2. Морева Н.А. Современная технология учебного занятия. М., 2007

3. Ерошима В.И. Организация методической службы в учреждениях профессионального образования. «Иноватсии в образовании»– 2010. – №5.

4. Yoidoshev J., Poiatov Sh., Ta’limda metodik xizmatni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish. - T. “Zamonaviy ta’lim” 2011-y.

5. 10. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi/ M.X.Toxtaxodjaye va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjeyevaning umumiy tahriri ostida. -Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 1996-y.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY VA KOMMUNIKATIV RIVOJLANISH

Sharipova N.R.

Navoiy davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi,

Nabiyeva N.D.

*Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
1-kurs magistranti*

Maktabgacha yosh davrni inson shaxsini shakllantirishda eng murakkab davr desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Shunga ko‘ra katta yoshdagi odamlar, ota-onalar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari shu davrda bolaga undagi o‘zgarishlarni, murakkab ichki kechinmalarning mohiyatini, psixologik inqirozni inobatga olgan holda yondashishlari lozim.

“Ijtimoiylik” — bu shaxsning ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanish ko‘rsatkichini tavsiflovchi va jamiyatda to‘plangan bilim, ko‘nikma va ijtimoiy tajribaning boshqa elementlarini egallash

darajasida namoyon boʻladigan shaxsiy xususiyat, atrofdagilar bilan ishlash jarayonida uning maʼnaviy va madaniy salohiyatini anglash qobiliyati orqali namoyon boʻladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan ijtimoiy normalar maktabgacha yoshdagi bolaning atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan oʻzaro munosabatlarini tartibga soluvchi etika va xatti-harakatlarning elementar qoidalari hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlangʻich ijtimoiy meʼyorlar (shu jumladan odob-axloq qoidalari) turli xil vositalar va usullardan foydalangan holda bolalar faoliyatining muayyan turlarida amalga oshiriladi.

“Ijtimoiylashtirish” — bu assimilyatsiya jarayoni va keyingi rivojlanish uni ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritish uchun zarur boʻlgan ijtimoiy-madaniy tajribaning shaxsidir.

“Ijtimoiy-madaniy tajriba” — bu boshqa odamlarning jamiyatida qulay va samarali yashashga imkon [beradigan mehnat qobiliyatlari](#), meʼyorlar, qadriyatlar, urf-odatlar, qoidalar, shaxsning ijtimoiy fazilatlarini.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ijtimoiy madaniy tushunchalarni oilada, MTTlari taʼlimiy mashgʻulotlarida, maʼnaviy maʼrifiy tadbirlarda, tarixiy obidalar va muzeylarga ekskursiya jarayonlarida shakllantiriladi.

“Ijtimoiy rol” — bu jamiyatda yoki ijtimoiy guruhda maʼlum bir mavqeni egallagan kishidan kutiladigan xatti-harakatlar normalari va qoidalari (R S Nemov). Ijtimoiy rolni egallash ijtimoiy tajribani shakllantirish jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.[3]

Ijtimoiy rol maktabgacha yoshdagi davrda ertak qahramonlariga yaqin insonlariga oʻxshash yoki ideali sifatida shakllanadi. Masalan: onasi shifokor boʻlsa, bola oʻyinlarida shifokor rolini ijro etishi yoki hayotda bemorlarga mehribonlik koʻrsatishi kuzatiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy rivojlanishi bolaning jamiyat qadriyatlari, urf-odatlarini va madaniyatini, shuningdek, jamiyatda qulay hayot kechirishiga yordam beradigan shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini oʻzlashtiradi.

Ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish bu bolaning oʻziga, boshqa odamlarga, atrofdagi dunyoga va bolalarning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyasiga ijobiy munosabatini rivojlantirishdir. Hozirgi vaqtda bolaning toʻlaqonli ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishining eng muhim asosi uning ijobiy oʻzini oʻzi anglashidir.

Katta maktabgacha yoshda oʻziga xos yaxlit gʻoyani shakllantirishga katta eʼtibor beriladi. Pedagog bolalarni oʻz his-tuygʻularini tinglashga, his-tuygʻulari va tajribalari haqida gapirishga undaydi. Pedagog va bolalarning uyushgan birgalikdagi faoliyati bolani oʻz tengdoshlari jamiyatidagi oʻrnini topishga, oʻzini boshqalarga qarshi qoʻyishga, turli xil ijtimoiy munosabatlarda faol pozitsiyani egallashga qaratilgan. Bu bolani Oʻz-oʻzini anglashning yangi darajasini rivojlantirishni taʼminlaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-axloqiy rivojlantirish va tarbiyalash muammolarini hal qiladi. Bola boshqalar munosabatini qabul qilinishga tushunishni oʻrganadi. Oʻz-

o'zini bilish, o'ziga nisbatan yetarli munosabat atrofdagi odamlarga nisbatan qadrli munosabat zarurligini tug'diradi. Maktabgacha yoshda, axloqiy vaziyatda yashash va axloqiy tanlov qilish natijasida bola olgan hissiy tajribalarning roli juda muhimdir. Pedagog maktabgacha yoshdagi bolada axloqiy faoliyat tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

O'ziga bo'lgan munosabatni belgilaydigan o'zini o'zi qadrlash, bu bola nafaqat obyekt, balki baholovchi faoliyat subyekti bo'lgan taqdirdagina shakllanadigan bola kontseptsiyasining muhim bo'g'inidir. Shaxsning o'zini o'zi baholash jarayonida, o'z bahosi jamoatchilik bilan va jamoat a'zolarining bahosi bilan bog'liq bo'lib, ularning fikri odam uchun aniqlangan sabablarga ko'ra muhimdir.

O'z-o'zini anglash — bu o'z rivojlanishida insonning iste'dodlari, qobiliyatlari va boshqalarni to'liq namoyon etish va ulardan foydalanishga intilishi. O'z-o'zini aktuallashtirish asosiy ehtiyojlar qatorida shaxs ehtiyojlari tarkibida eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. O'ziga bo'lgan munosabat bolaning o'yinida, muloqotida va boshqa faoliyatida shakllanadi. [2]

O'yin — bu bolaning “istiqboli” obrazining syujeti va rolga asoslangan timsoli, shuning uchun uning o'z qadr-qimmatini o'yinda namoyon bo'ladi, deyishimiz mumkin. Shu bilan birga, o'yin bolaning o'zini o'zi boshqarishga tayyorligini, ya'ni o'z-o'zini hurmat qilishning tartibga solish funksiyasi rivojlanadi. Umuman olganda, ijobiy o'zini o'zi qadrlashning shakllanishi bola uchun ahamiyatli bo'lgan faoliyatlarda, ya'ni natijaga aniq yo'nalish bilan bog'liq bo'lgan va bu natija bolaning mustaqil baholashi mumkin bo'lgan shaklda paydo bo'ladigan bunday faoliyat turlari O'zining qiyofasi bolada va uning individual tajribasi va boshqa odamlar bilan muloqotining o'zaro ta'siri sharoitida shakllanadi. Bolada tasvirni shakllantirish maktabgacha yoshdan ancha oldin boshlanadi, chunki uch yoshga kelib, ko'plab bolalar o'zlarining qobiliyatlari to'g'risida aniq g'oyalarga ega bo'lishdi. Bolada faqat uning individual tajribasi asosida paydo bo'lgan g'oyalar beqarorlik va xiralashganlik bilan ajralib turadi va kattalar tomonidan baholanadigan ta'sirlar ta'sirida bola tomonidan hisobga olinmasligi mumkin.

Kattalarning bolaga baholovchi ta'sirida ham hissiy, ham kognitiv elementlar mavjud, shuning uchun ular uning e'tiborini nafaqat o'zlarining xulq-atvorining yaxshi va yomon tomonlariga yo'naltiradi, balki o'zlari haqida g'oyalarni shakllantirish uchun namuna bo'ladilar. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolaning o'z qobiliyatlari haqidagi g'oyalarni shakllantirish jarayonida kattalarning baholash ta'sirining tabiati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolada individual tajribada to'planadigan uning qobiliyatlari haqidagi ma'lumotlar, boshqalar bilan muloqot qilish tajribasida tasdiqlangan.

Shu sababli, bolaning o'zi haqida obyektiv g'oyalarni shakllantirishda kattalarning aniq baholovchi ta'sirining o'rni shunchalik katta. Kattalar bilan muloqot qilish tajribasi bola uchun baholash ta'sirining asosiy manbai bo'lib, uning ta'siri ostida u haqiqiy dunyoga, o'ziga va boshqa

odamlarga munosabatni shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning xatti-harakatlarining kattalarning ta'sirchan ta'siriga bog'liqligi bolalarning yoshiga teskari proporsionaldir: bola qanchalik yosh bo'lsa, u kattalarning fikrlarini shunchalik tanqidiy qabul qilmaydi va uning qobiliyatlari haqidagi g'oyalari shunchaki faoliyatning aniq natijalariga asoslanadi.

Bolaning o'zi haqida aniq tasavvurlarini shakllantirish, uning shaxsiy tajribasi va bola boshqa odamlar bilan muloqot qilish orqali to'playdigan o'zi haqidagi bilimlar va bilimlarning uyg'un kombinatsiyasini nazarda tutadi. Agar bu uyg'unlik individual tajribaning kamligi yoki bolaning atrofdagilar bilan muloqoti uchun qulay sharoitlar tufayli buzilgan bo'lsa, u holda uning o'zi haqidagi g'oyalari asta-sekin yuqori yoki quyi darajalarga qarab buzila boshlaydi. Boshqalarga nisbatan munosabat, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar bola atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanadi. Erta bolalik va maktabgacha yoshda bola asosan kattalar bilan samarali muloqot qiladi. 3-4 yoshdan boshlab bolaning boshqa bolalar bilan aloqalarining nisbati va ahamiyati asta-sekin o'sishni boshlaydi va maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bu aloqalar bolaning xatti-harakatlarini tashkil etishda yetakchi rol o'ynay boshlaydi.

Bolaning shaxsiy xususiyatlari bolalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim omil sifatida ishlay boshlaydi va baholash uchun eng muhim obyektlardan biri bu shaxsning harakatidir.[1] 3-7 yoshdan boshlab shaxsni shakllantirishning boshlang'ich davri bo'lib, bu davrda "birinchi marta guruhdagi bolaning holatini belgilaydigan asosiy xususiyatlar to'plami yaratiladi". Bolaning shaxsiy fazilatlarini baholash shu yoshdan boshlab muhim ahamiyat kasb etadi va ijobiy shaxsiy fazilatlar bolalar uchun birgalikdagi faoliyat va muloqot uchun bir-birini tanlash motivlaridan biriga aylanadi. Bolalar o'z dunyosini, o'z submulturasini yaratadilar, unda ular, albatta, kattalar o'rtasidagi odatiy rollarni va munosabatlarni ko'paytiradilar.

Maktabgacha yoshda ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishi ularning keyingi hayotida ijobiy shaxsiy fazilatlar shakllanishi uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova, SH.Q. Toshpo'latova, N.M.Qayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur" -T., 2019

2. Jalilova S.X. Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Faylasufnar nashriyoti, 2017 yil

3. Djurayeva D.R. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo'llanma.

4. Nodira Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika. Darslik-Toshkent 2009. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI MA'NAVIY AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Sharipova N.R.

Navoiy davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi

G'iyasova N.Y.

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

I-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada bola shaxsini ma'naviy jihatdan shakllanishida ota-onalar, pedagoglarning o'rni va ulardagi ijobiy, salbiy sifatlarni shakllanishi borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: maktabgacha yosh, shaxs, axloq, odob, ijobiy sifat, salbiy sifat, odat

Maktabgacha yosh davrni inson shaxsini shakllantirishda eng murakkab davr desak, xato qilmagan bo'lamiz. Shunga ko'ra katta yoshdagi odamlar, ota-onalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari shu davrda bolaga undagi o'zgarishlarni, murakkab ichki kechinmalarning mohiyatini, psixologik inqirozni inobatga olgan holda yondashishlari lozim.

Bu xususida davlatimiz rahbari ham, bola tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi, degan fikrlarni bildirib, mamlakatimizda maktabgacha ta'limga e'tibor davlat ahamiyatiga molik asosiy masalalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

Darhaqiqat, bola shaxsining ma'naviy rivojlanishi quyidagilardan tashkil topgan: axloq me'yorlarini bilish, axloqiy odatlar, axloq me'yorlariga bo'lgan emotsional munosabat va bolaning o'zining ichki holati bilan bog'liqdir.[2]

Bola shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun, birinchi navbatda, axloqiy me'yorlarni bilishi katta ahamiyat kasb etadi. Ilk va maktabgacha yosh davrida bola atrofidagi insonlar (kattalar, tengdoshlar va boshqa yoshdagi bolalar) bilan muloqot orqali axloqning ijtimoiy me'yorlarini egallaydi.

Bu jarayon quyidagi 3 mezon asosida egallaydi:

Birinchi, bola uni tushuna boshlashi hamda mohiyatiga yeta boshlashini nazarda tutadi.

Ikkinchi, bolaning keyinchalik boshqa insonlar bilan muloqoti davomida axloqiy odatlari paydo bo'la boshlaydi. Bola emotsional his qilinadigan odatiy qilmishlarini buzgan holda harakat qilsa, bu unda noqulaylikni keltirib chiqaradi.

Uchinchi, bolaning ushbu me'yorlarga bo'lgan ma'lum bir psixik munosabatga kirishishini ifodalaydi. Axloqiy me'yorlar va ularni bajarishga bo'lgan aqliy va axloqiy munosabat bolalarda kattalar bilan muloqot davomida rivojlanadi. Katta odamlar bolalarga ma'lum bir axloqiy xatti-

harakatning to'g'riligi yoki kerakligi haqida fikrlashga yordam beradilar, katta odamlar bolaning ma'lum bir xatti-harakatiga nisbatan o'z munosabati bilan ko'rsatma beradi[4].

Bolalardagi ma'naviy-axloqiy sifatlar oila davrasida, o'zaro munosabatlarda, milliy urf-odatlarda, marosimlarda, o'yinlarda shakllana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'limiy mashg'ulotlar jarayonida ta'lim berish bilan birga tarbiya ham rivojlantirib boriladi.

Oilada bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda munosabat o'rnatish olish, bola kechadigan injiqliklarni uning qiziqishi va intilishi deb qabul qilish lozim. Uch yoshdagi bolada kechadigan inqiroz uning injiqligiga sabab bo'ladi. Bu injiqliklar ko'p hollarda ota-onaning bola hayotidagi tabiiy holat ekanligini tushunmaslik natijasida sodir bo'ladi. Bola xohishining rad etilishi keyingi xohishi va qiziqishini chegaralaydi.

Odatda, effektiv holatga berilishni yoki effektiv ta'sirlanishni bola kattalar bilan muloqotda psixik jihatdan qoniqmaslikni hosil qiladi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, 3 yoshli inqiroz vaqtida "portlash", "lov etish" xususiyatiga ega bo'lgan affekt quyidagi sabablar bilan vujudga keladi:

- kattalar bolaning xohish-istaklarini tushunmasligi, imo-ishorasi va yuz-chehra harakatlariga, pantomimikasiga (yuz bilan tana harakatlari qo'shilishi) e'tiborsizligi;
- bolaning ixtiyorsiz xatti-harakatiga batamom qarshilik ko'rsatish, uning talabini bajarmasligi, qoniqtirmasligi;
- bolaning o'zgarishlarga oid bilimlardan bexabarligi, bu o'zgarishlarni oldindan seza olmasligi va boshqalar [7].

Bolalarda vujudga keladigan illatlar – o'jarlik, qaysarlik, injiqlik va hokazolarning sababini u kamol topayotgan muhitdan, unga ko'rsatilayotgan tarbiyaviy ta'sirdan, sharoitdan, shaxsni shakllantirish jarayonidagi kamchiliklardan qidirish lozim. Eng muhimi, ota-onalar ham, tarbiyachilar ham boladagi salbiy psixik holat o'tkinchi ekanini bilishlari, uning sabablarini haqqoniy aniqlashlari, bola bilan umumiy til topishishlari, unga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishlari zarur. Hayot va faoliyatda kattalar bolaning shaxsini hurmat qilishlari, uning ehtiyojlari bilan hisoblashishlari, his-tuyg'usini boshqarish imkoniyatlarini aniqlashlari kerak. Bolani sevish, uning yosh xususiyatlarini hisobga olish, qiziqishlariga e'tibor berish o'jarlikning oldini olishning muhim shartidir.

Bola o'zining kelgusi harakatlariga nisbatan boshqalarning munosabatini tasavvur qiladi va bunda u insonlar undan minnatdor bo'lishlari, uning yaxshi ishlarini tan olishlarini xohlaydi. Tan olinishga bo'lgan intilishni amalga oshirishga ehtiyoj bolalarning o'z faoliyatlari natijalarini hamda shaxsiy yutuqlarini baholash maqsadida kattalarga yanada ko'proq murojaat qilishlarida ko'rinadi. Bunday holatda bolani qo'llab-quvvatlash juda muhim. Bolaga hech qachon: "Sen buni qila olmasan", "Sen buni bilmaysan", "Qo'lingdan kelmaydi", "Bekorchi savollar bilan boshimni

qotirma” va hokazo qabilidagi iboralarni qo‘llamaslik kerak. Kattalarning bunday hurmatsiz iboralari bolada o‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bolada nomukammallik kompleksi, o‘zining ojizligi hissi paydo bo‘ladi. Nomukammallik kompleksi – insonning eng murakkab axloqiy kamchiliklaridan biri bo‘lib u boshqa insonlar bilan muloqotga kirishishni murakkablashtiradi hamda og‘ir ichki hissiyotni keltirib chiqaradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasi balog‘atga etmaganlik bilan tavsiflanadi, shuning uchun har xil vaziyatlarda ular O‘z-o‘zini hurmat qilish, norozilik, xavotirlik darajasining pasayishi natijasida yuzaga keladigan yetarlicha emotsional reaksiyalarni, xulq-atvor buzilishlarini boshdan kechirishlari mumkin. Garchi g‘azab va g‘azablanish hissiyotlari odamning oddiy reaksiyasi bo‘lsa-da, bolalar uchun salbiy his-tuyg‘ularni to‘g‘ri ifoda etishni o‘rganish qiyin. Uzoq vaqt davomida norozilik, g‘azab, tushkunlik holatida bo‘lgan bola hissiy noqulaylik, stressni boshdan kechiradi va bu aqliy va jismoniy salomatlikka juda zararlidir. Ijobiy harakatlar orqali bolalarni salbiy holatini kamaytirish (taqillatish, binolarni kublardan qurish, vayron qilish, “o‘tinni kesish”), chizish, qum va suv bilan o‘ynash, asosiy hissiyotlarni o‘ynaydigan psixo-gimnastika eskizlari orqali: quvonch, ajablanib, g‘azab, qayg‘u, qo‘rquv kabi hislarni anglash va yoqimsiz holatlardan chiqarish mumkin.

Har qanday rivojlanish jarayonida bo‘lganidek axloqiy rivojlanishda ham ziddiyatlar kurashi bo‘lib o‘tadi. Bizning hayotiy tajribamizdan bevosita insoniy qadriyatlar shaxsiy ijobiy yutuqlarni belgilashi, ziddiyatli kurashlar qanday kechishi, hamda shaxsda salbiy xususiyatlar paydo bo‘lishini kuzatish imkoniyati chetda qoladi. Salbiy tuzilmalar xatti-harakatning sotsial ko‘rinishi hamda shaxsning muayyan xislatlari mohiyatiga ko‘ra rivojlanish mahsuli bo‘lib ular maxsus o‘rganishni talab qiladi.

Bola shaxs sifatida shakllanishida jinsga mansublik alohida e‘tiborga olinadi va har bir oilada individual ravishda olib boriladi. Har bir xalqni o‘z ijtimoiy kelib chiqishini hisobga oladigan bo‘lsak, o‘zbeklarda jins tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Bolaga juda yoshligidanoq milliylikka xos kiyinish, qiz bolalar uchun o‘g‘il bolaga xos kiyimlarini kiymaslik, yoqimsiz xatti-harakatlarni qilmaslik, orastalik, muloyimlik va boshqa xarakter xislatlari singdirib boriladi. Bola ota-onasiga va tarbiyachiga jinslar farqi haqida, shuningdek, “bola paydo bo‘lishi” va hokazo haqida savollar berishi mumkin. Ko‘p bolalar o‘zaro bu savollarni muhokama qilishadi. Bunday savollarga bo‘lgan tabiiy qiziquvchanlik kattalar tomonidan to‘g‘ri tushuntirilishi kerak. Shuning uchun bolalar berishi mumkin bo‘lgan savollarga oldindan javob tayyorlash foydalidir. Kattalar bunday vaziyatlarga shaxsni rivojlantiruvchi va uning axloqiy tarbiyasi ta’siri borligini his qilgan holda jiddiy munosabat bildirishi lozim. U bola bilan suhbatlasha turib, zaruriy odob saqlashi va har bir bolaning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olishi kerak.

Shu o'rinda, pedagoglar ham ota-onalar bolalarini axloqiy tarbiyalashga bo'lgan fikrini bilishi lozim, ular bilan ayniqsa bu muammoga nisbatan noto'g'ri fikrga ega bo'lgan ota-onalar bilan tushuntirish ishlarni olib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat- 2006 y.
2. Nishanova Z.T., Alimbayeva Sh.T., Sulaymonov V. Psixologik xizmat – 2014 y.
3. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2010 y.
4. Nishonova Z.T., Qarshiyeva D.S., Atabayeva N.B. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. - Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2014. - 412 b.
5. Шарипова Н.Р ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ.// [ТРАДИЦИИ И НОВАТСИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА](#) сборник научных трудов Международной научно-практической конференции. Тверь, 2020.
6. Шарипова Нилуфар Рауфовна ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНО НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ НАРОДНУЮ ПЕДАГОГИКУ «Интернаука»: научный журнал Москва 2022 ISSN 2687-0142.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O'zbekiston Toshkent: «Faylasuf lar» nashriyoti, 2017. – 496 b.



ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ МОДЕЛИРОВАНИЯ

Шарафиён М.

Проблема речевой недостаточности дошкольников заключается в том, что в настоящее время ребенок мало времени проводит в обществе взрослых (все больше за компьютером, у телевизора или со своими игрушками), редко слушает рассказы и сказки из уст мамы с папой.

Необходимо научить детей связно, последовательно, грамматически правильно излагать свои мысли, рассказывать о различных событиях из окружающей жизни. Успешно помогают в этом наглядные модели, обозначающие явления и объекты. Эффективность наглядного материала, схемы позволяют использовать их в работе по обучению связной речи детей.

Одним из наиболее перспективных методов реализации умственного воспитания является моделирование, поскольку мышление дошкольника отличается предметной образностью и наглядной конкретностью. Моделирование – наглядно-практический метод

обучения. Модель представляет собой обобщенный образ существенных свойств моделируемого объекта (план комнаты, географическая карта, глобус и т.д.)

Считается, что метод моделирования открывает перед педагогом ряд дополнительных возможностей в умственном воспитании дошкольников.

В разных видах деятельности дошкольника есть одна общая сторона, которая представляется исключительно важной с точки зрения развития детского мышления. Ее суть: все основные виды деятельности, которыми овладевает ребенок в дошкольном возрасте, носят моделирующий характер.

Метод моделирования разработанный Д.Б.Элькониным, Л.А.Венгером, Н.А.Ветлугиной заключается в том, что мышление ребёнка развивают с помощью специальных схем, моделей, которые в наглядной и доступной для него форме воспроизводят скрытые свойства и связи того или иного объекта. В основе метода лежит принцип замещения.

Задача воспитателя – познакомить дошкольников с простыми приёмами запоминания, научить их фантазировать, придумывать и пересказывать сказки и рассказы. Обучение пересказу играет важную роль в формировании связной речи дошкольников.

Метод эффективен тем, что опора на модели развивает у детей умения точно, последовательно, грамматически связно пересказывать рассказы, сказки, также способствует формированию связной речи у детей, как способа формирования социальных навыков и привычек, необходимых для взаимодействия с окружающими людьми; развивает умения детей с помощью заместителей выделять самые главные события, последовательность изложения;

Моделирование основано на принципе замещения реальных объектов предметами, схематическими изображениями, знаками.

Воспитатель может провести работу по технологии моделирования от простого к сложному: при составлении описательного рассказа знакомить детей с приёмом мнемотехники, с постепенным усложнением; знакомить их со значением символов; уметь составлять отдельные предложения по каждому символу; составить целый связной рассказ.

Также при составлении повествовательного рассказа можно проводить беседу по прочитанному произведению, выбирать предметные пиктограммы и составлять предложения, а в конце можно использовать итоговое рассказывание по мнемотаблице.

Известно что, демонстрация моделей помогает более успешно осуществлять обобщение и систематизацию знаний детей об окружающем мире и природе. Использование моделей успешно помогает детям обогащать опыт познания окружающего мира, побуждает желание больше узнать о нем. Метод моделирования можно с успехом применять во всех видах деятельности детей.

Схемы и модели служат воспитателю дидактическим материалом в работе по развитию связной речи детей. Их можно использовать для обогащения словарного запаса, при обучении составлению рассказов, в пересказах художественного произведения, при отгадывании и составлении загадок, при заучивании стихов и т.д.

В ходе использования приема наглядного моделирования оно может стать результативным методом, если знакомить детей с графическим способом предоставления информации – моделью. В качестве условных заместителей (элементов модели) здесь выступают символы разнообразного характера: геометрические фигуры, символические изображения предметов (условные обозначения, силуэты, контуры, пиктограммы), планы и условные обозначения, используемые в них.

Мнемотаблица – это схема, в которую заложена определенная информация.

Овладение приемами работы с мнемотаблицами значительно сокращает время обучения и одновременно решает задачи, направленные на развитие основных психических процессов – памяти, внимания, образного мышления, перекодирование информации, т.е. преобразования из абстрактных символов в образы, развитие мелкой моторики рук при частичном или полном графическом воспроизведении.

Мнемотаблицы я использую в совместной деятельности с детьми для: заучивания стихов, загадок, пословиц, пересказа текстов, составления описательных рассказов, составления рассказов по сюжетной и пейзажной картине, в речевых играх, в словесно-дидактических играх, в упражнениях со схемами и моделями, составления их вместе с детьми, для чтения художественных произведений, в беседах.

Последовательность такой работы по формированию навыка составления связного творческого высказывания следующая: ребенку предлагается придумать ситуацию, которая могла бы произойти с конкретными персонажами в определенном месте, модель рассказа (или сказки) задается воспитателем; конкретные персонажи заменяются их силуэтными изображениями, что позволяет ребенку проявить творчество в оформлении героев рассказа; ребенку предлагается составить рассказ или сказку по модели, элементами которой являются неопределенные заместители персонажей рассказа – геометрические фигуры, воспитателем задается тема; ребенок самостоятельно выбирает тему и героев своего рассказа.

Для наиболее эффективного результата также можно проводить родительские собрания; консультации.

В непосредственно - образовательной деятельности воспитатель может использовать рассказывание сказки «Репка»; пересказ сказок «Нахутак», «Цветик – семицветик», «Три медведя»; придумывание сказки «Путешествие цыпленка»; составление рассказа из личного опыта «Как Дед Мороз мне подарок принес».

Использование приемов наглядного моделирования помогает задействовать все виды памяти (зрительную, слуховую, двигательную при использовании приема зарисовки таблицы с детьми), совершенствует мышление и речь детей, делает высказывания детей более логичными и последовательными, поддерживает интерес дошкольников к активной речевой деятельности.

Литература:

1. Арушанова А.Г. Речь и речевое общение детей: Книга для воспитателей детского сада. / А.Г. Арушанова. М.: Мозаика-Синтез, 2004. 272 с.
2. Программа воспитания, обучение и развития детей дошкольного возраста «Рангинкамон». – Душанбе, 2013. 125 с.
3. Бизикова О.С. Теории и технологии развития речи детей дошкольного возраста в определениях, таблицах и схемах. Учебное пособие./ О.С. Бизикова Нижневартовск. 2014 – 92
4. Репина Т.А. Роль иллюстрации в понимании художественного текста детьми дошкольного возраста / Т.А.Репина. Вопросы психологии. - 1959. - № 1.
5. Государственный стандарт дошкольного образования в Республике Таджикистан: Решение Правительство Республики Таджикистан от 2.07.2009 №388 Душанбе
6. Т.А.Лира Речевое развития дошкольников с использованием моделей./ Учебное пособие для воспитателей / Лира Т.А., Мельник Е.И. 3-е издание Мозырь: Содействие: 2008.



MAKTABGACHA TA`LIM KECCHA VA BUGUN

Shaymardanova Sh.

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Maktabgacha ta`lim” kafedrası
Pedagogika va psixologiya fani o`qituvchisi*

Farmonova M., Gadoyeva F., Mamadiyeva G.
Maktabgacha ta`limy o`nalishi I-kurs talabalari

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha

ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. [1]

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi. [2]

Kecha: Maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni bugun har bir yurtoshimiz sezib, kuzatib turibdi. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga davlat tomonidan bu qadar tizimli va bir-birini to'ldiruvchi e'tibor hamda amaliy yordam kuzatilmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish va 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'laqonli ta'lim-tarbiya olishini ta'minlash masalasi davlatimiz rahbari tomonidan kechiktirib bo'lmas vazifa sifatida ilgari surildi. Sababi bog'chalar ta'lim muassasasi vazifasini bajarish o'rniga ota-ona ishda bo'lgan vaqtda bolaga qarab turadigan muassasaga aylanib qolgani, qamrovning pastligi, binolarning ta'mir talabligi, boshqa maqsadlarda ishlatilgani, metodik jihatdan to'liq ta'minlanmagani, pedagoglar ijtimoiy himoyasi va maoshining pastligi kabi kompleks muammolarni hal etish kechiktirib bo'lmas masala edi. Keyingi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizga kamaygani, 2,45 million boladan 818 ming nafarigina bog'chalarga qamrab olingani bu fikrlar isboti bo'la oladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasining yaroqsiz holati bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermasdi. 2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilish maktabgacha ta'lim tizimi tarixida qoladigan yig'ilish bo'ldi. Shu kuni mamlakatimiz Prezidenti davlat milliy genofondini mustahkamlash borasida gapirib, ta'limning ilk bosqichini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlarini belgilab berdi. Xususan, maktabgacha ta'lim

tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi.

— Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta‘lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ta‘lim-tarbiya

— biz uchun hayot-mamot masalasidir,

— dedi Prezident.

— Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy etuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biror-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz.

Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlanadi. Bog‘cha tarbiyasini olgan bola bilan bog‘chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o‘rtasida er bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha ta‘lim tizimini qayta ko‘rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o‘ylab amalga oshirmasak, butun ta‘lim tizimida sifat o‘zgarishiga erishishimiz, ta‘limning uzluksizligini ta‘minlashimiz qiyin bo‘ladi, — deya ta‘kidladi **Shavkat Mirziyoyev**.

Bugun: Yuqoridagi ayrimlarinigina sanaganimiz boshi bor-u oxiri ko‘rinmay qolgan muammolarni bartaraf etish uchun birinchi qadam sifatida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi. Maktabgacha ta‘lim tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qabul qilingan Prezident qarorida keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutildi. Maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, tizimni tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish choralari belgilandi. “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. — Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta‘lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta‘lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta‘lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni intellektual, ma‘naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi, — deydi Maktabgacha ta‘lim vaziri Agrepina Shin. Metodik ko‘mak qanchalik zarur? Har qanday ta‘limning asosi — metodika, jumladan, maktabgacha ta‘limniki ham. Maktabgacha ta‘limni sifat bosqichiga ko‘tarishda yangi ta‘lim metodlari, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Sababi MTTning moddiy-texnik bazasi yuqori bo‘lsa-yu, tarbiyachi bola bilan ishlamasa, unga har kuni yangi ma‘lumotlarni o‘rgatmasa, hamma qilingan harakatlar natijasi nolga tenglashib qoladi. Sohadagi mutaxassislar mahoratini oshirish, ularga zaruriy metodik ko‘mak berish maqsadida Maktabgacha

ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi. Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Qabul qilinayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadigan yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifa edi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi qabul qilindi.[2] Endilikda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachilari bolalarni erkin qo'ygan holda faollik markazlarida o'yin mashg'ulotlari orqali yangi ma'lumotlarni o'rgatmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida oliy ma'lumotli mutaxassislarga ehtiyoj esa pedagogika universitetlarida maktabgacha ta'lim yo'nalishiga qabul kvotalarining oshirilishi va nomutahassis kadrlarni qayta tayyorlovdan o'tkazish evaziga to'ldirilmoqda. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv-reja va dasturlarni takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari maxsus sirtqi bo'limlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha 2018—2023-yillar uchun kvotalar ajratish masalasiga e'tibor qaratildi.

— Hozirgi zamon tarbiyachisi kasbiy mahoratini doimiy tarzda oshirib borishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'liq anglashi va ulardan mashg'ulotlarida mohirona foydalanishi zarur. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Tarbiyalanuvchilarning ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni mashg'ulotlarda erkin fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. Tarbiyachi mashg'ulotda boshqaruvchi, bolalar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Maktabgacha ta'limda ko'proq bolalarning yoshi, fiziologik holatini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Oddiy, oson va kam vaqt sarflanadigan o'yin mashqlaridan foydalanib, faollik markazlarida ish olib borish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongi, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatlarini, mustaqil ishlash ko'nikmasini, ya'ni hayotiy kompetensiyasini rivojlantiradi.[4]

Adabiyotlar:

1. Davlat ta'lim standartlari.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – Toshkent, 2018.
3. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
4. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.

BOLANING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGI TAHLILI

Shaymardanova Sh.

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrası
Pedagogika va psixologiya fani o'qituvchisi*

Almanova M., Safaraliyeva M.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2 kurs talabalari

Tayanch so'zlar: psixologik tayyorgarlik, intellektual (aqliy) tayyorgarlik, ma'naviy xususiyatlar, ifodaviy xususiyatlar, tayyorgarlik, rivojlanganlik darajasi, ommaviy axborot vositalari, sangvinik, temperament, ta'sirchan, kamgap, sust bolalar, melankolik, flegmatik, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar, xolerik.

Maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning eng muhim, mas'uliyatli, bola tarbiyasi va ta'lim olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy merosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi.

Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi. Maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyining o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va ifodaviy tayyorgarlikdan iboratdir. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so'z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beriladi. Ota-ona, hatto ayrim o'qituvchilar ham bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar. [2] Bu esa ulardagi so'z boyliklarining keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanyapti, degan gap emas.

Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi-psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostika vositalar, testlar, so'rovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan metodikalardan iboratdir. [4] 5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliy) tayyorligining yana muhim ko'rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagi narsa hodisalar o'rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda bolalar chizmasi tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo'ladilar. Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo'la borsa-da, predmetlar va ularning (tafakkuri) o'rnini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazlilikicha qolaveradi. [1] Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo'ladigan o'quv faoliyatiga tayyorlangan bo'lishi lozim. Bunda bolada ma'lum bir tegishli malakalarning shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o'quv topshirig'ini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o'quvchilaridan topshiriqda o'zi belgilagan o'zgarish, yangilik alomatlarini qidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki o'yin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o'zlashtiradi. Yuqorida to'xtalib o'tganimiz intellektual tayyorlik bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun yagona zamin emas. Agar bola zarur malaka va ko'nikmalar zaxirasiga ega bo'lsa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo'lsa-yu o'quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo'lmasa, maktabda o'qib ketishi qiyin kechadi. Agar o'qituvchi yoki ota-ona uni o'qishga qiziqтира olmasalar, o'quv vazifalarini zo'rma-zo'raki, sifatsiz, qo'l uchida bajaradilar. Bundaylarda zarur natijalarga erishish qiyin bo'ladi. Eng yomoni, bu yoshda maktabga borishni xohlamaydigan bolalar ham uchrab turadi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoning oqibati hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo'rqitish hollari ham kuzatiladi. "Ikkita gapni eplab gapira olmasang, maktabda qanday o'qiysan?", "Sanashni bilmaysan-u, maktabga qanday borasan?", "Maktabga borsang, o'rtoqlaring bu qilig'ingdan kulishadi!" "Hech narsani bilmaysan, maktabga borsang bizni uyaltirasan!" kabi ta'na-dashnomlar bolada maktabdan qo'rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Shunday qo'rquv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularda o'ziga nisbatan ishonch uyg'otish uchun haddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e'tibor zarur bo'ladi. Bu esa bolada oldindan maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaraganda, shubhasiz, murakkab

jarayondir. Bolani birinchi sinfda o'qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sababi kattalarning bola bilan bo'ladigan muloqotlari shakli u yoki bu vaziyatga bog'liq bo'lmagan holda, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. [3] Bunday muloqot bolaning kattalar e'tiboriga va hamdardligiga bo'lgan ehtiyoj va ehtiyojlarning kattalar tomonidan qondirilishi bilan xarakterlanadi. Muloqotning bu shakliga erishgan bolalar uchun kattalarga e'tibor, ular murojaatini tinglash va tushunishga intilish va kattalar tomonidan ham ularga nisbatan shunday e'tibor ko'rsatilishiga bo'lgan ishonch xosdir. Bunday bolalar kattalarning turli vaziyatlarda (ko'chada, uyda, mehmonda, ishxonada) o'zlarini qanday tutishlarini farqlay oladilar. Kattalarning bunday xulqni anglash evaziga bolalar ham kattalarga, o'qituvchilarga, shu vaziyatga mos ravishda munosabatlarni namoyon qiladi. Agar bolada kattalarga nisbatan bunday munosabatlar shakllanmagan bo'lsa, unga mos ravishda kattalarga nisbatan ham tegishli munosabat yuzaga kelmaydi, bu esa, albatta, bola bilan olib boriladigan ta'lim jarayonini murakkablashtiradi. Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo'lishini yodda tutishlari lozim. Ba'zi bolalar endigina birinchi so'zlarni o'zlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon ma'lum bir iboralar bilan gaplasha oladigan bo'ladilar. Ta'lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo'lishi ma'lum darajada nasliy omillar bilan ham bog'liq dir. Bolalar o'z temperament xususiyatlariga ko'ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar: Xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar – sangvinik temperamentga mansub bo'ladilar. Ko'pincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, kamgap, sust bolalar – melanxolik temperamentga kiradilar. Xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar – flegmatiklardir. Jahldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar – xolerik hisoblanadilar. Bolalar kattalarning yordamiga muhtoj bo'lishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. [4] Ba'zi bolalar biror xatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko'rsatish, tushuntirish, ketidan ergashtirish kerak. Boshqa bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba ko'rsatilsa yetarli bo'ladi. Shunday bolalar ham borki, ular berilgan vazifani mustaqil bajaradilar. Bolalar o'zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba'zi bolalar ko'p savol beradilar va harakatchan bo'ladilar, ba'zi bolalarni esa hech narsa qiziqitirmaydi. Ota-onalar bolalaridagi o'ziga xosliklarni qanchalik chuqur bilsalar, ularga o'rgatishni muvaffaqiyatli tashkil qila oladilar. Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo'lib rivojlangan bo'lishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, o'ylaymanki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, etuk inson bo'lib etishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo'llasa, yaxshi xulq namunalarini o'rgatish ancha oson kechadi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda salomatlik va jismoniy rivojlanganlikning ahamiyati.

O'qish uchun bolalar anchagina jismoniy va aqliy kuch sarflashlari kerak. Shuning uchun ota-ona

bola maktabga borguniga qadar uning to'g'ri jismoniy rivojlanishi va sog'lom bo'lib o'sishi g'amxo'rlik qilishi juda muhimdir. Bola hayotining rejimi. Odatda, sog'lom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan maktab rejimiga va butun dars davomida o'zida jo'sh urib turgan g'ayratlarini tiyib jim o'tirishga tezroq ko'nikadi. Har bir bola aniq kun tartibiga ongli ravishda rioya qilishiga bog'liq. Bolani maktab rejimiga tayyorlashda, uning sog'lig'ini mustahkamlashda ertalab ma'lum vaqtda o'rindan turish, ovqatlanish va uyquga yotishga aniq rioya qilinishi kerak. Har bir oila mehnat faoliyatining xarakteri, maishiy sharoiti, bolalarning soni va shu kabilarga o'z yashash tartibini o'rnatadi. Biroq siz bir narsani, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolaning nonushtasi va tushligi o'rtasidagi oraliq 4 soatdan oshmasligini, tushlik va kechki ovqat o'rtasidagi oraliq – bir oz kattaroq (6-7 soat), buning orasida yengil ovqatlanish kechki choy bo'lishi kerakligini unutmasligingiz kerak. Bolaning bir sutkadagi uyqusi taxminan 11 soatni tashkil qilishi kerak. Bola tushlikdan so'ng 1-1,5 soat dam olishga odatlansin. Kechqurun u doimo bir vaqtda, ya'ni 9 dan kechikmay uxlagani yotsin. Bola miriqib uxlasin desangiz, quyidagi qoidalarga rioya qiling: — bola uxlaydigan xonani yaxshilab shamollating; — bolani uxlashga yotishdan oldin tishini tozalashga, yuz-qo'li, bo'yni, oyog'ini yuvishga odatlantiring; — bolaga o'rinda nonushta qilishga aslo yo'l qo'ymang; — bolaning me'yoriy rivojlanishi uchun u toza havoda ko'p harakat qilishi kerak.[1]

Adabiyotlar:

1. “Илк қадам” давлат ўқув дастури. Тузувчилар: Грошева И.В., Евстафева Л.Г., Маҳмудова Д.Т., ва бошқалар. – Тошкент, 2018 йил.
2. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
3. Mavrulov A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
4. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
5. Қодирова Ф., Тошпўлатова Ш., Аъзамова М. Мактабгача педагогика. – Тошкент: “Маънавият”, 2013.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ В УЧРЕЖДЕНИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Швецова Т.Ю.

Государственное учреждение образования «Дошкольный центр развития ребенка № 1 г. Могилева» (г. Могилев, Республика Беларусь)
akademya.detstva@yandex.by

Обновление содержания образования в Республике Беларусь во многом обусловлено инновационными процессами, которые протекают в соответствии с социокультурными тенденциями инновационных изменений, охватывающих различные сферы человеческой деятельности. Инновационная деятельность является одним из существенных компонентов совершенствования образовательного процесса, повышения профессиональной компетентности педагогических работников [1].

Каждый педагогический коллектив имеет право на инновационную деятельность, но в этом случае он должен взять на себя определенные обязательства по подготовке и организации нововведения, так как объектом любой педагогической инициативы становятся дети. Руководитель несет ответственность за ход и результаты реализации инновационного проекта, поэтому каждый инновационный процесс в учреждении подлежит управлению.

Учреждения дошкольного образования, организующие инновационную деятельность, работают в режиме развития. Развитие учреждения в ходе реализации инновационного проекта – системные изменения в образовательном процессе посредством формирования инновационного педагогического опыта возможно только при совместной целенаправленной деятельности педагогов. Это предполагает создание эффективной системы управления, обеспечивающей конструктивное взаимодействие всех субъектов инновационной деятельности, направленное на достижение цели.

В государственном учреждении образования «Дошкольный центр развития ребенка № 1 г. Могилева» управление инновационной деятельностью было направлено на создание инновационной среды, предполагающей наличие системы условий и факторов, обеспечивающих процессы саморазвития, самосовершенствования, самообразования субъектов образовательного процесса. Создание системы управления реализацией инновационного проекта предполагало:

- определение цели, подходов и принципов управленческой деятельности, которые составлял концептуальный компонент управленческой практики;
- формирование управленческой команды и создание коллективного субъекта управления, которые составляют организационный компонент;
- разработку и применение управленческих механизмов, обеспечивающих эффективное планирование, организацию и контроль инновационной деятельности, которые составляют технологический компонент.

Управленческий цикл состоит из функций анализа, планирования, мотивации, организации, регулирования и контроля. На первой стадии зарождения и разработки инновации одним из первых управленческих действий руководителя является грамотный выбор темы инновационной деятельности, с одной стороны, актуальной для учреждения, с

другой стороны, интересной и реально выполнимой для педагогического коллектива. Этому способствует проблемный анализ деятельности учреждения, анализ ресурсного обеспечения.

Отличительным признаком планирования в области инновационной деятельности является четко заданный формат мероприятий, который определен инновационным проектом как документом, предусматривающим стратегию развития учреждения. Цель планирования – в определении механизма согласования действий субъектов управления, содержания и сроков их деятельности, обеспечивающих реализацию организационных задач и получение образовательных продуктов. Участие всех членов инновационной команды в планировании способствует: повышению у педагогов личной заинтересованности в реализации планов; получению более широкого представления о содержании инновационной деятельности, согласованию индивидуальных целей сотрудников, выработки индивидуального инновационного маршрута. Участие педагогов в планировании позволяет на практике реализовать принцип делегирования управленческих полномочий.

“Tolerantlik” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “masalaga keng qo‘llashda, ochiq ko‘ngillik bilan yondashishlik” tarzida izohlangan.[\[1\]](#) Ma‘lumki, shaxslar aro munosabatlarda tolerantlik, ya‘ni o‘zgarlar fikriga nisbatan toqatlilik kommunikativ xatti-harakatlarning turli shakllari sifatida namoyon bo‘ladi; shuningdek, empatiya, moslashuvchanlik hamda tanqidiy fikrlash va xulq-atvorda keskinlikning yo‘qligi bilan ajralib turadi, bu esa kognitivlik, hissiy emotsionallik, xulq-atvorni tolerantlikning asosiy komponentlari sifatida belgilab olish imkonini beradi.[\[2\]](#)

Pedagogika oid manbalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarida **yosh davriga nisbatan tolerantlik**- insonning yoshi bilan bog‘lik bo‘lgan “kamchilik” larga beg‘araz munosabatda bo‘lishni, bolaning yosh davri xususiyatlari, uning sabablari va oqibatlarini to‘g‘ri tushunib etish, bolalarga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishni talab etadi. Bu esa tolerantlikning hissiy emotsional komponenti, birinchi navbatda tarbiyachining hamdardlik qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Tolerantlikning hissiy-emotsional komponenti muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tarbiyachining bolalar jamoasida ishlashida insoniy aloqalardagi bo‘shliqni to‘ldirish imkonini beradi. Shu o‘rinda N.V.Kruglova tomonidan aniqlangan tolerant shaxs insoniy munosabatlarning psixologik va axloqiy yo‘nalishlarini aks ettiruvchi eng muhim xususiyatlarini keltirib o‘tamiz:

- **shaxslar aro munosabatlarning insoniyligini**, shaxsning asl ichki dunyosiga e‘tibor berishni, majburlash va inson qadr-qiyamatini bostirish usullarini rad etish:

- **reflektivlik**- shaxsiy fazilatlar, afzalliklar va kamchiliklarni bilish, ularning tolerant dunyoqarashga muvofiqligini aniqlash:

• **xavfsizlik**- qo'llab-quvvatlash va tushunish kafolati, xavfsizlik va jamiyatning zararli ta'siriga qarshi turish uchun boshqa odamlar bilan birlashish imkoniyati:

• **moslashuvchanlik**- vaziyatga muvofiq qaror qabul qilish, to'liq ma'lumotga ega bo'lish asosida munosabatlar tizimini yaratish qobiliyati:

• **o'ziga ishonch**- o'z kuch va qobiliyatini yetarli darajada baholash, to'siqlarni yengib o'tish qobiliyatiga ishonch:

• **o'zini-o'zi boshqarish**- o'zini-o'zi boshqarish, hissiyotlarni boshqarish, o'z harakatlarini boshqarish:

• **o'zgaruvchanlik**- mavjud vaziyatga mos keladigan qarorlar qabul qilish, atrofdagi hayotni baholashga ko'p o'lchovli yondashuv:

• **idrok**- odamlarning turli xususiyatlarini sezish va farqlash, ularning ichki dunyosiga kirish qobiliyati:

• **empatiya**- boshqa odamlarning muammolariga nisbatan xayrixohlik, voqealarni hissiy baholash:

• **yumor hissi**- o'zini qulgu orqali tanqid qilishlarini adabiy hol sifatida qabul qilish, vaziyatga hazil bilan munosabatda bo'lish:[\[3\]](#)

Bo'lajak tarbiyachilarda yoshga doir tolerantlik bolalarni o'z holicha qabul qilishga va rozilik asosida ular bilan munosabatda bo'lishga tayyorlikni anglatadi. Tolerantlik tarbiyachiga o'z qarashlarini va amaliy hayotda bolalarning haqiqiy tengligini erkin ifoda etish huquqini beradi. Bu esa tarbiyachining o'z e'tiqodlaridan voz kechmasdan, shu bilan birga bolalarning fikrlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda tarbiyachining hissiy ochiqligi, tarbiyalanuvchilarga ishonch bilan munosabatda bo'lishligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak tarbiyachilarda yoshga nisbatan tolerantlik fazilatlarini shakllantirishda quyidagi tamoyillarning ustuvorligini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. **Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili.**

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida yoshga nisbatan tolerantlikni rivojlantirish tarbiyachidan pedagogik ta'sirlarning maqsadga muvofiqligini aniq tushunishni va tarbiyachining maqsadini aniq belgilashni talab qiladi. Shu bilan birga, faol ijtimoiy mavqe va psixologik tayyorgarlikka asoslangan ushbu fazilatni tarbiyalash faqat motivatsiya mavjud bo'lsa va tarbiyachi nima uchun bu xususiyatga (shaxsiy maqsad) va anglab etgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchining maqsadlari birligi tolerantlik ta'limi muvaffaqiyatining omillaridan biridir.

2. **Aksiologik tamoyil.**

Ushbu tamoyilning asosi- hurmat, g'amxo'rlik, hamkorlik, o'zgalarga yordam berishga tayyorlik, odamda do'stni ko'rish, hayotdan qoniqish, atrofdagilarning farovonligi uchun yashash, erkinlik, baxt erishish uchun harakat qilish. Ushbu tamoyilga yo'naltirilganlik bolalarning turli xil qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, ichki dunyosining o'ziga xos xususiyatlari bilan eng yuqori

qadriyat sifatida ko‘rishga undaydi, bu tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat jarayonida har bir inson o‘zini o‘zi qadrlidi deb qabul qilishi bilan namoyon beradi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda yosh davriga nisbatan tolerantlikni shakllantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga e‘tibor berish zarur:

- tarbiyachining etnopedagogik kompetentligiga va pedagogik tolerantligining yuqori bo‘lishligi.
- ta‘lim-tarbiya jarayonida shaxslar aro muloqotda yosh davriga nisbatan tolerantlikni namoyon etish uchun qulay vaziyatlarni yaratish:
- bo‘lajak tarbiyachilarda yosh davriga nisbatan tolerantlikni rivojlantirish jarayonida izchillik va uzluksizlikni ta‘minlash.

Adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. T.Mirzaev va boshqalar.- Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.-680 b.
2. (Перепелисына М.А. Особенности подготовки толерантного педагога./ М.А.Перепелисына // ЭКО: Экология. Культура. Образование.- Ставрополь, 2002,-№6-с.
3. Круглова Н.В. Толерантность: генезис и типология. (Н.В.Круглова. СПб: СПбГУ, 1998,-19с).



BOLALARDA SOTSIAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHDA BOLALAR QO‘SHIQLARINING AHAMIYATI

Ermatova G.P.

Navoiy davlat pedagogika instituti

Bolalarni har tomonlama barkamol inson bo‘lib voyaga etishi uchun tarbiya vositalarining eng ta‘sirchan shakllaridan biri bu xalq og‘zaki ijodidir. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bu bolalar qo‘shiqlaridir[1]. Bolalar qo‘shiqlari orqali bola sotsial intellektini shakllantirish juda yaxshi samara beradi. Biz bilamizki sotsial intellekt bu ijtimoiy hayotda insonlarning bir-birlari bilan o‘zaro ta‘sirning muvaffaqiyatini belgilaydigan qobiliyatlar to‘plami. U boshqa odamning xatti-harakatlari orqali o‘z xatti-harakatlarini tushunish qobiliyatini, shuningdek, vaziyatga qarab harakat qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi[2]. Bu jarayonda birgalikda harakat qilish bilan birga muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, ijtimoiy ustanovkalar, ijtimoiy bilish, ijodiy qobiliyatlar hamda shaxs sifatida shakllanish jarayonida ham namoyon bo‘ladi.

Bolalar qo‘shiqlari kattalar tomonidan yaratiladi. Asosan unda turmush va tabiat hodisalari aks etadi. Kattalarning bolalarga aytib beradigan, keyinchalik bolalarga meros bo‘lib qoladigan

qo‘shiq turkumi Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida ham aks etgan bo‘lib, hozirgi kunga bizgacha etib kelgan. Ularning ba’zilari jonli va jonsiz tabiat haqidadir.

Masalan:

Oq sholi, ko‘k sholi,
Oq sholini oqlaylik,
Ko‘k sholini ko‘klaylik,
Niyozbekka saqlaylik.

Bu misralarda aynan sholi haqida ma’lumotlar bayon etilgan bo‘lib, bu yerda yerga urug‘ qadash, urug‘ni ko‘kartirish, uni parvarishlash va hosilini terib olish hamda uni tejamkorlik bilan ishlatib, yana yerga qadaguncha saqlash haqida fikrlar bayon etilgan.

Xalq og‘zaki ijodida tabiat hodisalaridan suv haqida juda ko‘plab afsonalar, qo‘shiq, ertaklar yaratilganligi ma’lum. Xalqimizning Ona yerimizga muhabbati juda kuchli bo‘lgan va unga suv chiqarish, urug‘ qadash ko‘kartirish azal-azaldan orzusi bo‘lgan. Yerga urug‘ qadagandan boshlab unga suv qo‘yib ko‘kartirish jarayoni bolalar folklorida ham asosiy o‘rin tutadi.

Masalan:

Yomg‘ir yog‘aloq,
Yam-yashil o‘tloq,
Endi ekinlar,
Chiqarar quloq.

Bu qo‘shiq bolalarning sevimli qo‘shiqlaridan biridir. Bu qo‘shiqni jamoa bo‘lib ijro etishadi. Yomg‘ir yog‘ishi, ungan maysalar yam-yashil bo‘lishi, ekinlarning quloq chiqarishi umuman olganda bahorning kelganligi, tabiatning uyg‘onganligi yomg‘ir orqali ifoda etiladi. Bu qo‘shiq bolalarga juda katta zavq berishi bilan birga bolalarni tabiat hodisalari haqidagi bilimlari, tasavvurlarini kengaytiradi. Yana bir tomoni ularda jamoa bo‘lib harakat qilish ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Ijtimoiy borliqni anglashga ham yordam beradi.

Yurtimizda bahor faslining kelishi bolalar uchun katta shodiyonani olib keladi. Bolalar bir qancha qish faslida o‘ynay olmagan o‘yinlarini boshlab yuboradilar. O‘g‘il bolalar osmonga varrak uchirish, quvlashma choq, kim o‘zar o‘yinlarini, qiz bolalar esa gul terib, sochlariga guldun, tol barglaridan bargak, gulchambarlar taqadilar. Kichkintoylar esa daraxtlarning shoxlaridan novdalaridan o‘zlariga “Toy” yasab minishadi. Bu jarayonda bahorning ilk elchisi bo‘lgan boychechak bolalarning qo‘shiqlarida aks etadi. Ular bu qo‘shiqni baland ovoz bilan birgalikda jo‘r bo‘lib aytadilar.

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayrondir,
Ayroningdan bermasang,

Qozonlaring vayronidir.
Qattiq yerdan qazarb chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.
Boychechakni tutdilar,
Tut yog‘ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar.
Qattiq yerdan qizarib chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.

Bu qo‘shiqda boychechakning chiqishi bilan bahor kelganligi, qozonlar sumalaklarga to‘lishi, uni hammaga bir yalamdan bo‘lsa-da tarqatilishi haqida fikrlar bayon qilinadi.

O‘zbek va tojik xalqlarida “boychechakni tutdilar, tut yog‘ochga osdilar” jumlasini qadim-qadimdan tut daraxti muqaddas daraxtlardan biri deb sanalgan. Bizning xalqimiz e‘tiqodiga ko‘ra daraxtning “egasi bor” deyilgan va ehtiyot qilingan. Juda yaxshi parvarish qilinib, uning tanasidan bolalar uchun beshiklar yasalgan.

Boychechak bolalar uchun ijodiy timsol bo‘lib, u yoshlik, jo‘shqinlik ramzi hisoblanadi. Uning o‘zbek bolalari og‘zidan yozib olingan bir necha variantlari mavjud. Ba’zi bir variantida boychechakni “isyonkor”ligi ham aks etadi. O‘zbek xalqida biror kishi o‘z kuchi bilan qiynalib hayotda o‘z o‘rnini topgan bo‘lsa, “axir, u qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechakning o‘zi-da!” degan ibora ham mavjudligi buni tasdiqlaydi. Bularning barchasi boychechak mehnatkash inson timsoli ekanidan darak beradi. Toshkent viloyatida:

Boychechagim, boychechak,
Etagim to‘la boychechak.
Yoki:
Boychechagim bolasi,
Qulog‘ida donasi,
Donasini olay desam,
Yugurib chiqdi onasi.

Bahor faslida aytiladigan qo‘shiqlardan yana bir “Chiti gul”dir. Bu qo‘shiq bilan bolalar qo‘shiqqa mos harakatlar bilan o‘ynaydilar. Qo‘shiq ohangi o‘yinga o‘lchov mezon bo‘lib uni yetaklaydi. O‘yin esa qo‘shiqning mazmunini to‘ldiradi. Unga harakat bag‘ishlaydi. Bolalar bir vaqtning o‘zida o‘yindan ham ma’naviy, ham jismoniy jihatdan zavq oladilar.

Chiti gul-o, chiti gul,
Xay-yu chiti gul,
Chiti gulga gul bosay,

Bir yonini yonbosay,
Hay-yu chiti gul,
Hay-yu chiti gul,
Qo‘ling qo‘lbog‘dan bo‘lsin,
Beling belbog‘dan bo‘lsin
Hay-yu chiti gul,
Hay-yu chiti gul.

Bu qo‘shiqda bolalar jamoa bo‘lib harakatlarni birgalikda bajarishlari bilan qo‘shiqni ham ijro etishadi. Chiti gul aynan bolalar kichikligidan boshlab tez harakat qila olishlari, “qo‘ling qo‘lbog‘da, beling belbog‘da” jumlasini qo‘l-oyoqlarning sog‘lom, beli belbog‘ bog‘laydigan bo‘lishi uchun har kuni badan tarbiya bilan shug‘ullanishlari lozimligini uqtiradi. Qo‘shiq bolalarni tezkorlikka, ziyraklikka, chaqqonlikka, yon atrofdagilarni harakatlarini tushunib, anglab, birgalikda harakatlanishga undaydi.

Boshqa bir bolalarga bag‘ishlangan qo‘shiq esa “Oftob chiqdi olamga” deb nomlanadi. Aslida qo‘shiq bulutli kunlardan keyin oftobning chiqishi, charaqlab turishi bilan bolalar quvonchi tasvirlangan bo‘lsa, yana bir tomoni bog‘-rog‘lardagi pishiqchilik, arpa, bug‘doy donlarining etilishi, pishishi, yantoqlarning qurishi, tandirlarga yoqilishi va nonlarning pishishi bilan izohlanadi. Bu jarayonda bolalar tandirdan chiqqan issiqqina nonlarni mazza qilib yeyishlari tasvirlangan.

Masalan:

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga,
Hol, hol kulcha ber!
Xolam dedi:- O‘tin ter!
O‘tin terdim bir quchoq,
Kulcha yopdi bir o‘choq.

Bu qo‘shiqda quyoshning chiqishi va butun olamni yoritishi, bu holatni katta xursandchilik bo‘lishi, o‘tin terilishi, non, kulchalar yopilishi jarayonlari bayon etilgan bo‘lib, bolalarni mehnatsevarlikka undaydi.

Qo‘shiq deyarli hamma viloyat, tumanlarda aytiladi. Uning elementlari ham mahalliy til, sharoit, odatlarga qarab o‘zgaraveradi[2].

Bolalar hayotida qo‘shiq, o‘yin, mashg‘ulotlarining belgilangan vaqti aniq chegarasi mavjud emas. Har bir yoshda bolalar uchun qo‘shiq o‘yin singari asosiy faoliyat va ehtiyoj shartidir.

Yuqorida keltirib o‘tilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari sanalgan bolalar uchun mo‘ljallangan qo‘shiqlar ularda faollik, harakatchanlik, izlanuvchanlik, chidamlilik bilan birga Ona tabiatimizni avaylab, ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish singari yaxshi sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Jamiyatimizda qabul qilingan me‘yorlarni har tomonlama tushuna olish qobiliyatini

ham rivojlantiradi. Insonlar, jamoadoshlari xatti-harakatlari haqida tez va to'g'ri xulosa chiqarish, tahlil qilish, vaziyat bilan bog'liq holda hamda ular haqida oldindan bashorat qila olish qobiliyatlarini rivojlantiribgina qolmay, balki, ularda kognitiv jarayonlar (bilish, diqqat, sezgi, idrok, fikrlash, muloqot, axborotni qabul qilish, motivatsiya) ni ham shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Masharipova Z.O'zbek xalq og'zaki ijodi.T.: 2007 yil 10-bet
2. Ушаков Д. В.Социальный интеллект как вид интеллекта
3. Murodova M. Folklyor va etnografiya T.: 2006 yil, 87-91-bet.
4. Madayev O.O'zbek xalq og'zaki ijodi T.: 2010 yil,212-bet.
5. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A.O'zbek folklori T.: 2020 yil, 96-bet.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGI

Ermatova G.P.

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrası
katta o'qituvchisi,*

Bobojonova N.

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim"
yo'nalishi talabasi*

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolasi tashkilotga qatnaydigan oilalarning tarkibini, shart-sharoitlarini o'rganib, oila bilan hamkorlikni mustahkam yo'lga qo'yilgan. Bu me'yoriy- huquqiy hujjatlarda ham qayd etilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik jarayonida ota-onalarga tegishli tavsiya va maslahatlar berish, tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borish rejalashtiriladi. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotini qoshida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlariga jalb etish, qo'shimcha ta'lim bilan qamrash, oilada ta'lim berish orqali ularni maktab ta'limiga tayyorlash borasida tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ijobiy fikrlar uyg'otish, tashkilotida tashkil etiladigan ta'limiy jarayonga mahalla va maktab hamkorligida uyushtiriladigan tadbirlarga ota-onalarni jalb etish ham bu borada juda yaxshi samara beradi. Ota-onalar ongida bolaning maktab ta'limiga tayyorligini ularning shaxsan mas'ulligi bilan amalga oshirilishi haqida tushuncha hosil qilish zarur hisoblanadi. Ota-onalar o'z farzandlarini, albatta maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishiga sharoit yaratishlari lozimligini tushunishlari lozimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat tomonidan belgilangan vazifalarni izchil bajarib, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, bolaning aqliy va

ruhiy jihatdan rivojini ta'minlab beradi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik talabi uzoq tarixga ega. XVII asrda Kamenskiy, 18-asrda Pestalotsi, undan keyin Dyuvi va Petersen (Shleyxerning fikricha, 1989) bolani tarbiyalash va tarbiyalashda ota-onalarning ta'siri ajralmas ekanligini e'tirof etishgan. Tarix davomida ota-onalar bilan hamkorlik haqida uch xil qarash mavjud (o'sha erda). Birinchidan, ota-onalarning o'z farzandlari uchun ta'limni tanlash huquqi (xususiy maktab, uyda ta'lim) birinchi o'rinda turadi; ikkinchidan, ota-onalarning faol ishtiroki (taxminan 1960-yil, demokratik islohotlar davri); uchinchidan, hamkorlik ayniqsa an'anaviy maktab usullari ta'lim talablariga javob bermasa (progressiv pedagogika davri) alohida ta'kidlanadi. Ota-onalar bilan hamkorlik qilishning huquqiy asoslari va hamkorlikning tashkiliy tuzilmasida ham farqlar mavjud edi. Ushbu maqola maktabgacha ta'limning turli modellarida ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning roli va usullarining ahamiyatini tahlil qilish va hamkorlik Sloveniya davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'limni amalga oshirishga qanday ta'sir qilishini aniqlashga qaratilgan. Valdorf, Montessori va Reggio Emiliya singari, biz maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati va rolini boshqacha qabul qiladi va shuning uchun hamkorlikning turli modellari mavjud deb taxmin qilamiz. Biz yuqorida aytib o'tilgan muqobil ta'lim yondashuvlarini nazariy tahlil qilish va bolalar bog'chalari uchun o'quv dasturi bo'yicha faoliyat yurituvchi Sloveniya davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sohasida o'tkazilgan ba'zi tadqiqotlar natijalari orqali hamkorlik shakllari va modellarini taqdim etamiz. Maktabgacha ta'lim modellari jamiyatning demokratlashuvi va butun dunyoda ilmiy kashfiyotlar maktabgacha ta'lim sohasida yangi yondashuvlarni keltirib chiqardi, uyushgan maktabgacha ta'lim o'z izini qoldirgan ikkitasini aytib o'tamiz. 1960-yillarning boshlarida bolalarning rivojlanishi bilan bog'liq holda guruhlarda erta ta'lim va ijtimoiylashuvni tan olish kuchga kirdi.

Ota-onalar bilan hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilot ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilish mumkin:

- Ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalari haqida ota-onalarga bilim berish berish;
- ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi
- tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash [1].

Bolalarga g'amxo'rlik va ta'lim uchun kim mas'ul degan savolga: ota-onalar (xususiy soha) yoki jamiyat (mamlakat bolalarga g'amxo'rlik qilishni davlat muammosi sifatida tan oladi). Bolalarga g'amxo'rlik qilish muammosi ishlaydigan ota-onalarning shaxsiy muammosi sifatida qabul qilinadigan mamlakatlarda institutsional parvarish siyosati kam rivojlangan va faqat ijtimoiy-

iqtisodiy ahvoli past bo'lgan oilalar farzandlari guruhlariga qaratilgan. Alohida ehtiyojli bolalar va boshqalar. Aksincha, bolalarga g'amxo'rlik qilishni davlat muammosi sifatida tan olingan mamlakatlar maktabgacha ta'limning yuqori sifatli dasturlariga ega bo'lish huquqini universal huquq sifatida tushunadigan siyosat ishlab chiqdilar. Yevropa Ittifoqidagi oila siyosati va maktabgacha ta'lim siyosati har bir a'zo davlat tomonidan tartibga solinadigan ikkita sohadir; biroq, hozirgi vaqtda ma'lum ijtimoiy muammolar alohida a'zo davlatning chegaralaridan oshib ketadi va ma'lum qarorlar yoki ko'rsatmalar, shuningdek, Yevropa Ittifoqi doirasida milliy darajada qabul qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik masalalari uchta bosqichda tavsiflaydi.

Birinchisi, eng muhimi va maktabgacha ta'limning mutlaq ko'pchiligiga taalluqlidir: bolani birinchi o'ringa qo'yadigan kasbiy va tashkilot tomonidan tashkil etilgan maktabgacha ta'lim. Maktabgacha ta'limning ushbu modeli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni parvarish qilish, aralashuv dasturlari va maktabga tayyorlash an'alariga muvofiq tashkilot parvarishini ta'minlaydi. Ushbu modeldagi dasturlar vaqt shkalasi, intensivligi, davomiyligi, o'qitish usullari, o'quv rejasi, o'qituvchilarning malakasi, maktabgacha yoshdagi o'qituvchilar va bolalar soni o'rtasidagi nisbatiga ko'ra farqlanadi. Ushbu institutsional modelni ota-onalar, oilalar va jamoalar bilan hamkorlikda modelga olib keladi.

Ikkinchi asosiy model bolalarga yo'naltirilgan, uyda parvarishlash va ta'lim dasturlari bo'lib, ular asosan ota-onalar yoki paraprofessionallar kabi nisbatan o'qimagan shaxslar tomonidan boshqariladi.

Uchinchi model- bu oilalarning bir nechta ehtiyojlariga moslashtirilgan turli xizmatlar va tadbirlarni taklif qiluvchi ota- onalar yoki oilaga yo'naltirilgan yordam dasturlari to'plami. Eng muvaffaqiyatli dasturlar professional nazorat asosida ishlaydigan bir nechta modellardan iborat bo'lib, yetarli mablag'ga ega kichik guruhlarda amalga oshiriladi, kattalarga to'g'ri keladigan bolalar soni va xodimlar uchun yetarli daromad o'rtasidagi yaxshi nisbat. Bu dasturlar jadal ishtiroki va ota-onalarning ta'limi bilan birga intensiv, bolalarga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim, dasturlashtirilgan ta'lim uy tadbirlari va oilani qo'llab- quvvatlash chora-tadbirlaridan iborat. Taqdim etilgan uchta modelga biz 19-20-asrlar bo'yida pedagogika islohoti bilan ishlab chiqilgan ba'zi muqobil ta'lim yondashuvlarini qo'shamiz.

Bugungi kunda ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi hozirgi kunda quyidagi texnologiyalardan unumli foydalanyapti:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lib o'tadigan faoliyatni va bolalarni qanday darajada bilim ko'nikmaga ega ekanligi ota-onalar kuzatib borishlari uchun har bir yosh guruhida Telegram guruhlarini tashkil qilingan;

- ota- onalar uydan chiqmagan holda farzandlarini ovqatlanish tartibi, faoliyat jarayoni, uyqu rejimi va boshqa jarayonlari kuzatuv kameralari orqali jonli ko'rib, o'z fikrlarini bildirib boriladi;

- tarbiyachilar You Tube orqali kunlik ish jarayonini o'z hamkasblariga ham ulashish imkoniyatiga muvofiq bo'lishadi;

- ota-onalar farzandlari bilan ishlash jarayonini (she'r yodlash, rasm chizish, mentol arifmetika, til o'rganish, suhbatni) tarbiyachilariga video goloslar orqali hamkorlikda ishlashlari mumkin;

Bularning barchasi farzandni har tomonlama etuk, barkamol inson bo'lib shakllanishi uchun ustun bo'lib xizmat qiladi. Har doim talab kuchli bo'lgan joyda o'sish, rivojlanish bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda farzand va uning tarbiyasiga, uning kelajak avlodga kim bo'lib kirib borishi va bugungi Axborot asri deya atalayotgan XXI asrda o'z o'rniga ega bo'lish vazifasi turganda tarbiya, ma'naviyat masalasi har qachongidan ham muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda faqatgina ota va ona bilan birgalikda oilaning boshqa a'zolari ham masalan:bobosi va buvisi, aka,opalari jalb qilingan holda ta'lim ishlari olib borilsa, bolalar o'qishga, ta'lim tashkilotchisiga bo'lgan qiziqishlari yanada ortib boradi. Ota –onalarning va keng jamoatchilikning o'quv-tarbiya jarayoniga jalb etilishi maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqaruv mexanizmi shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi".

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qaroriga asosan tasdiqlangan "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizom.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" 802-sonli Qarori.

5. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013

6. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013

7. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. fan va texnologiya. -T., 2008.

8. F.R. Qodirova, SH.Q. Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur" -T., 2019.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IQTIDORINI ANIQLASHNING BA'ZI JIHATLARI

Ermatova G.P.

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim"
kafedrası katta o'qituvchisi,*

Sherbekova N.Sh.

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tarixan juda qisqa, ammo mazmunan asrlarga teng bu yillar davomida Vatanimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz yoshlarini zamon talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun har bir sohada innovatsion yangilanishlar jadal sur'atlarda o'smoqda. Biz buni barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar miqyosida ko'rish mumkin. Bu imkoniyatlarning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama ta'lim-tarbiya olishlari uchun yaratilayotgandir. Mustaqil vatanimiz kelajagi biz yoshlar qo'lida. Zeroki, buni Prezidentimizning "Biz O'zbekistonimiz kelajagini barkamol yoshlar bilan birga quramiz",-degan fikrlaridan ham bilishimiz mumkin.

Darhaqiqat, o'tkazilayotgan islohotlarning aynan maktabgacha ta'lim sohasida ham olib borilayotganligi bizning ertangi kunimiz, yurtimizning porloq kelajagi yosh avlod ekanligini yana bir bor e'tirof etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi har bir tarbiyalanuvchi o'zining layoqati, qiziqishi va qobiliyatiga ega. Bu xususiyatlarni rivojlantirish, to'g'ri yo'naltirish biz bugun erishayotgan yutuqlarimiz davomiyligi hamda ertangi kunimizdagi yangi marralar va zafarlar uchun xizmat qilishi mumkin. Qobiliyat haqida gapirar ekanmiz aslida qobiliyat nima? U qanday yuzaga keladi? Uni qanday rivojlantirish mumkin? kabi savollar paydo bo'lishi shubhasiz. Kishilarda turli sohalardagi faoliyatlarida-mehnat, o'yin, o'qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Biz ana shu haqida sir oz to'xtalmoqchimiz.

Qobiliyat- bu odamning ma'lum bir ish yoki harakatlarni boshqa odamlarga nisbatan osonlik va chaqqonlik bilan bajara olish layoqatidir. Har bir inson bir qancha layoqatlar bilan tug'iladi. Lekin tug'ma layoqatlar hali kamolotga yetgan qobiliyat emas, balki qobiliyatning o'sishi uchun tabiiy zamindir. Buning uchun qulay sharoit bo'lishiga alohida e'tibor berish lozim. Chunki qulay muhit kishidagi "mudrab yotgan" layoqatlarni uyg'otadi. Bolalarda kattalarga taqlid qilish jarayonida layoqat uyg'ona boshlaydi. Musiqachilar, rassom yoki shoirlar, texnik xodimlar muhitida o'sgan bolalarni ko'pchiligidagi layoqatning juda barvaqt uyg'onishi sababi ko'proq mana shundadir. Bolalarda ayniqsa, musiqiy qobiliyatlar juda erta shakllana boshlaydi. Ular avvalambor, o'z tarkibiga

chapakni his qilish, musiqaga emotsional javob qaytarish qobiliyati va musiqani nozik did bilan farqlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Musiqa bilan birga bolalarda tasviriy faoliyat ham erta rivojlanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, pedagog xodimlar va ota-onalar bolalardagi bu layoqatni to'g'ri va muntazam rivojlantirishlari natijasida qobiliyat yuzaga keladi. Qobiliyat xilma-xil bo'lib, qiziqish va mehnat tufayli o'z ustida ishlash natijasida rivoj topib boraveradi. Qobiliyat har bir kishining individual imkoniyatlarini ifodalaydi. Bir xil sharoitda va aynan shu sohada qobiliyatli kishilar o'z faoliyatlarida boshqa bir yo'nalishga qobiliyati bor shaxslarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar. Qobiliyatning asosiy 2 turi mavjud bo'lib bu umumiy va maxsusdir. Inson umumiy qobiliyatga ega bo'lganda faoliyatning har xil turlari bilan deyarli qiynalmay shug'ullana oladi. Maxsus qobiliyatga ega bo'lganda esa faqat aniq bitta faoliyat bilan shug'ullana oladi. Yuqorida keltirilgan misolda fikrimizni yoritadigan bo'lsak, bola she'r o'qishda ham, rasm chizish yoki musiqada ham boshqalarga nisbatan ko'proq yutuqlarga erishayotgan bo'lsa bu bola umumiy qobiliyatga ega hisoblanadi. Aksincha, ulardan faqat bittasi bilan shug'ullana olsa uni maxsus qobiliyatli bola deyish mumkin. Buni o'z vaqtida aniqlash esa tarbiyachi va psixolog zimmasidagi kechiktirib bo'lmas vazifadir. Ularning bolalarda qobiliyatni shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir:

- Bolalarning qobiliyatini aniqlash;
- Bilimdonlikni aniq yo'naltirilganligi, aqliy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan bolalarni tarbiyalash, tayyorlash va o'qitish uchun sharoit yaratish.
- Bolaning sog'lig'ini himoya qilish va mustahkamlash, uning sog'lig'iga bo'lgan ongli munosabati va bolalarni jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish;
- Har bir turdagi faoliyat uchun boy, tobora rivojlanayotgan obyekt-makonlik muhitni yaratish;
- Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish va ular bilan hamkorlik aloqalarini mustahkam o'rnatish;
- Bolani hurmat qilish, bolada O'z-o'zini qadrlash tuyg'usini tug'diradigan muhit yaratib, uning o'ziga xosligini namoyon qilishini rag'batlantirish.
- Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan qobiliyatli bolalarni aniqlash va rivojlantirish bilan nimaga erishishimiz mumkin? Biz bu bilan bolalardagi yashirin iqtidorni aniqlab, ularning yuzaga chiqishi va bola hayotidagi ahamiyatini oshirishga harakat qilamiz. Bu esa bolaning maktabga tayyorgarlik davriga ham, maktab davriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zeroki, har bir bola iqtidorli. Ammo ayrim holatlarda e'tiborsizlik yoki to'liq yaratilmagan imkoniyatlar tufayli bolalarda qobiliyatning so'nishi yoki ahamiyatsiz qolib ketishi mumkin bo'lgan holatlar ham uchrab turadi. Shuning uchun ham bolalardagi qobiliyatni ertaroq aniqlashimiz, uni o'z qiziqishlari bo'yicha yo'naltirishimiz va bu borada ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirishimiz kerak. Qiziqishlarni to'g'ri yo'naltirish uchun

bugungi kunda har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida barcha imkoniyatlar mavjud. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarning 5 ta asosiy rivojlantirish markazlari orqali tashkil etilayotganligi buning yorqin misoli. Bu maqsadga erishish uchun esa tarbiyachi pedagoglardan yuqori malaka, tajriba, bilim va mehnat talab etiladi hamda ularning zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytganimizdek mudrab yotgan qobiliyatlarni uyg'otish bugun davr talabiga aylangan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹. Mana shunday fikrlar bizni doimo shijoatli bo'lishga, oldimizga qo'ygan maqsadimiz sari tezroq odimlashga undaydi. Zero, har bir bola beqiyos qobiliyatlar egasidir, biz ana shu qobiliyatlarni juda erta aniqlab, to'g'ri yo'naltira olsak kelajagi buyuk Vatanimiz taraqqiyoti uchun barkamol avlodni tarbiyalashga o'z hissamizni qo'shgan bo'lar edik.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent-"O'zbekiston"-2016. 14-bet.
2. Nishonova Z., Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006. 99-100-bet.
3. Ivanov I.P., Zufarov E.M. "Umumiy psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2008. 389-bet.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ADAPTATSION JARAYONLAR

Ermatova G.P.

*Navoiy davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi
katta o'qituvchisi,*

Ergasheva M.

*Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Maktabgacha yoshdagi har bir bolani yangi sharoitga moslashish jarayoni o'ziga xosdir. Adaptatsiya (moslashish) har bir bolaga turlicha kechadi. Agar bola onasiga bog'lanib qolgan bo'lib, atrofdagi o'zgarishlarni qiyinchilik bilan qabul qilsa, yangi sharoitga moslashishi ham qiyin kechadi. Oilada turli yoshdagi insonlar bilan muloqotda bo'lgan, erka o'smagan bolalar esa tez moslashadilar. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha tez moslashadigan bolalar xulqi bir oy ichida, ishtahasi birinchi hafta oxirida, uyqusi esa ikki hafta davomida o'z holiga qaytadi. Adaptatsiya qiyin kechadigan

bolalarda xulqi bir oyda, ishtaha va uyqusi 20-40 kun davomida avvalgi holiga qaytadi. Moslashish murakkab kechadigan bolalarning ishtahasi umuman yo‘qoladi, uyqusi va kayfiyati qattiq buziladi va yomon tushlar ham ko‘rib uyda onasi bila qolish istagi juda kuchli bo‘lib, kasal ham bo‘lib qolishi mumkin. Maktabgacha ta‘lim muassasasiga endi qatnay boshlagan bolaning ota-onasi va tarbiyachi o‘rtasida juda yaqin muloqot bo‘lishi lozim. Ota yoki onasi bola haqidagi kerakli ma‘lumotlarni tarbiyachiga aytib berishi kerak. Imkoniyati bo‘lsa bir necha bog‘chaga keladigan bolalarni bir kunda olib kelish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, dastlab bolalarni birgalikda maktabgacha ta‘lim muassasasi ko‘rish uchun olib kelinadi. Ikkinchi kun esa muassasa bilan tanishtiriladi. Uchinchi kun esa, guruh bilan tanishtirilib 1-1,5 soatlar qoldiriladi. To‘rtinchi kun bir necha soatga uzaytirilib, ota yoki onasi tarbiyachi bilan kelishilgan holda guruhga qolishi mumkin.

Agar bola guruhga qolmayman deb xarxasha qilsa zinhor “Agar shunday qilsang, bog‘chadan olib ketmayman” deyish mumkin emas. Bola ota-onasi uchun qimmatli ekanligini his qilishi kerak va uni olib ketishga kelgan ota-ona uni sog‘inganini kun bo‘yi uni o‘ylaganini bola bilishi kerak va uni hech qachon bu yerda qoldirib ketmasliklariga ishonishi lozim. Ketayotgan ota-ona bolani aldab qoldirib ketmasliklari va aksincha ketishlari haqida ogohlantirishlari, xayrlashishlari lozim.

Muassasaga dastlab qatnaydigan bolalarga talablarni biroz kamaytirish lozim. Bola uchun uyda tinch sharoit yaratish va o‘zi yoqtirgan mashg‘uloti bilan shug‘ullanishga imkon berish zarur. Bundan tashqari u qatnaydigan muassasa haqida hikoya qilib beriladi. U erda yaratilgan shart-sharoitlar haqida, turli o‘yinlar, yangi do‘stlar orttirishi, uyda yo‘q o‘yinchoqlar, turli raqslar, rasm chizish, loydan buyum yasashlari haqida ma‘lumot berish kerak. Hikoya haqiqatga yaqin bo‘lsin.

Maktabgacha ta‘lim muassasasiga osonroq moslashishlari uchun o‘yin tashkil etilib, unda asosiysi tarbiyachi, guruh bolalari haqida rollar bo‘lsa yaxshiroq. Chunki bola bog‘cha hayotiga yaqinlashadi. Bundan tashqari bola bilan kun davomida bog‘chada nima ishlar qilgani haqida suhbatlashish va u hikoya qilib berishni istasa qiziqish bilan tinglash, lozim bo‘lsa savollar bilan unga yordamlashiladi. Ota-onalar bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasasidan olib ketgani kelishganda tarbiyachi va enaga bilan bola kun davomida o‘zini qanday tutgani va u erishgan yutuqlar bilan qiziqishlari lozimdir. Tarbiyachilar moslashuv jarayoni qiyin kechadigan bolalar bo‘lsa uni tibbiy ma‘lumotlari bilan yaqindan tanishishlari, ota-onalari bilan suhbatlashib, bolani surunkali kasalliklar bilan og‘rigani yoki bo‘lmasa tez-tez shamollashi, asabiylashishi, uning qiziqishlari, qaysi o‘yinchoqni sevib o‘ynashi, qaysi o‘yinni, ertak yoki hikoyani sevib tinglashi haqida hamda bola uyda sevib o‘ynaydigan o‘yinchog‘ini, uyini eslatadigan biror narsani olib qolishi mumkinligini haqida ota-onasi bilan suhbatlashishlari lozim.

Bola bilan esa individual suhbat uyushtirib, uni qiziqishlari, qaysi o‘rtog‘i bilan o‘ynashni istashi, qaysi o‘yin unga yoqishi, qaysi mashg‘ulotga qiziqishi, shovqinli o‘yinlardan uning roziligi bilan ozod etishi kerak.

Biz yuqoridagi bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib ota-onalarga quyidagilarni tavsiya etishimiz mumkin:

- Tarbiyachiga bolangizni o‘ziga xos xususiyatlari haqida ayting;
- shovqinli o‘yinlardan tashqari, o‘zi o‘ynab, dam olishi uchun imkoniyat yarating;
- bolani majburan ovqatlantirmang;
- imkon boricha bolani guruhdan ertaroq olib ketishga harakat qiling;
- uyda esa asabiy zo‘riqishdan saqlash uchun ochiq havoda o‘ynashiga yordam bering;
- kechki vaqt yaxshi ertaklar o‘qib bering;
- tarbiyachi bilan har kuni bolangizni yutuqlari, xulq-atvori haqida suhbatlashing.

Bayon etilgan fikrlar va tavsiyalarga amal qilinsa davomchilarini ruhiy zo‘riqishlardan, tanglik holatlaridan asrab qolishimiz va sog‘lom, barkamol avlod bo‘lib yetishishlariga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lar edik.

Adabiyotlar:

1. Доронова Т. Н. Дошкольное учреждение и семья – единое пространство детского развития. - М. ЛИНКА-ПРЕСС, 2001, - 240 с.
2. Дубнякова А.И. «К проблеме игровой деятельности современных дошкольников // Вестник Псковского государственного университета. Вып. № 7 от 2009 года. Стр. 178-179.
3. Дыбина О.В. Образовательная среда и самостоятельной деятельности детей старшего дошкольного возраста. - М., 2008 – 220 с.

“ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURI ASOSIDA OTA ONALAR BILAN HAMKORLIKNING ZAMONAVIY YONDASHUVI

Esonova M.A.

Qo‘qon DPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘zbek oilasining o‘ziga xosligi sharqona odob-axloq, rasm-rusum, urf-odat, milliy qadriyat hamda an’analar, ta’lim-tarbiya, ma’naviy etuklikka intilish kabilarning barhayotligidadir. Bolalarning ta’lim-tarbiya va bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskan oiladir. Farzandlarimiz, avvalambor, oilada, ota-onadan ibrat olgan holda shakllanadi. Ota-ona bolaga boshidan ta’lim-tarbiya, nutq madaniyati, odamiylik xislatlarini qunt bilan singdirib borsa, kelajakda u barkamol, sog‘lom, mustaqil fikrlovchi, eng asosiysi, odobli shaxs bo‘lib etishadi.

Inson hayotda bilim olishga intilish, Vatanni sevish, ardoqlash, kattalarni hurmat qilish hamda muomala madaniyatini ota-onadan o‘rganadi. Yosh avlodga ma’naviy, axloqiy, madaniy tarbiya berishning usul va vositalari xilma-xil bo‘lib, bular ichida bola nutqi va muomalasi alohida o‘rin tutadi. Farzand – ota-onaning baxti va boyligi. O‘z navbatida u ota-onasini astoydil hurmat qilishi oila ko‘rki sanaladi.

Ota-onaning shaxsiy namunasi bolani tarbiyalashda eng muhim tamoyillardan biridir. Bolalarni yuksak axloqli va odobli qilib tarbiyalash qadim zamonlardan barcha xalqlarning orzusi, istagi bo'lib kelgan. Ota-ona bolasiga mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, o'zidan kichiklarga shafqatli bo'lish va g'amxo'rlik qilish, yovuzlikka nafrat kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga harakat qilgan. Bugungi kunda ham farzandlarining ehtiyoj va intilishlari asosida yuksak darajada ta'lim-tarbiya berayotgan oilalar juda ko'plab topiladi. Bola har qadamda kattalardan ta'sirlanadi, eshitgan-ko'rganlariga taqlid qiladi. Ota-onalaridan muloqot madaniyatini o'rganadi va bu keyinchalik ularning hayot mazmunini begilaydi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limda bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolalarni hayotida o'quvchi bo'lish, maktabda o'quvchi bo'lish hissi shakllanadi, axloqiy sifatlarni, o'qishga qiziqishlari, maktabga muhabbati ortib boradi. Buning uchun esa bolalarni maktabga tayyorlash, ularning faoliyatini maktab ta'limiga moslashtirib borish talab etiladi. SHuning uchun ham har bir maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ishlarini to'g'ri tashkil etish lozim. Bunda ayniqsa bolalarni maktab ta'limiga aqliy va nutqining rivojlanishi jihatdan tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ya'ni, bolalarning o'zaro aloqa nutqini o'stirish, ularning tengdoshlari, ota-onalar bilan so'zlashish, nutqiy muomala odobini egallashiga, o'zaro so'zlashuvda fikrni aniq tuzish, boshqalar nutqini tushunish, gapni aniq va to'g'ri ifodalash, savollarga to'g'ri javob berish, nutq odobiga rioya qilish kabilarga ahamiyat berish lozim.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish ota — ona asosiy vazifasi bo'lib, avvalo, bolalar so'z boyligini oshirib borish, undan faol foydalanishni, eshitganlarni va ko'rgan-kechirganlarini so'zlab berish, rasmlar mazmuni bo'yicha hikoya tuzish, hikoyadagi mazmunni, gapni to'g'ri ifodalashga o'rgatiladi. Ya'ni bolalarda so'z boyligidan to'g'ri foydalanish, eshitganlari va ko'rganlarini so'zlab berish, rasmlar mazmuni bo'yicha hikoya tuzish, nutqini aniq va to'g'ri ifodalashga o'rgatiladi. Bulardan ko'rinib turibdiki, bolalarni maktabga tayyorlashda ularning fikrlash malakalarini rivojlantirish muhimdir. Buning uchun oilada quyidagilar muhim:

1. Oilada bolalarning turli faoliyatlar haqida mazmunli, ijodiy hikoya tuzish, ertak to'qish, uni obrazli hikoya qilishga o'rgatish;

2. Oilada bolalarga 3-4 so'zdan iborat gap tuzish, gapni so'zlarga ajratish, so'zni bo'g'inga ajratish va so'zdagi tovushlarni aniq talaffuz qilish, tovushdan so'z tuzishga doir mashqlarni bajarishga o'rgatish;

3. Oilada badiiy asarlarni ifodali, obrazli hikoya qilishga o'rgatish, asar qahramonlarining faoliyatini baholay olish, ularning ijobiy xususiyatlarini tavsiflash va nutqini ajrata olishga o'rgatib borish.

Maktabgacha ta'limda bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy talablaridan biri Kern Yerasek va L.N. Venger metodlari asosida bolalarni daftardan foydalanish, qo'l harakati mashqlarini bajarish asosida yozuvga tayyorlashdan iboratdir.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash har bir ota-onalarning asosiy vazifasidir. Ushbu vazifalarni bajarishda quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

1. Bolalarning so'zlashishga moyilligini oshirish, savollarga javob berishni o'rgatish, rasm-o'yinchoqlar yordamida hikoya, ertak tuzishni o'rgatish.

2. Narsa, buyum, o'yinchoq rasmini chizish mashqini bajarish. Masalan, dastlab bolalarga narvon, ko'prik rasmini chizishni taklif etish lozim, bunday mashqlar bolalarning daftar chizig'ini bilish, daftarning qayeridan boshlab chizishini bilishga tayyorlash.

Bunday mashqlar bolalarning chapdan o'ngga, pastdan yuqoriga, yuqoridan pastga qarab qo'lni uzmasdan harakat qilishni o'rganishga yordam beradi, bolalarni yozuvga o'rgatishga asos bo'ladi. Chunki bolalarni maktabga tayyorlash bolalarning axloqiy fazilatlarini o'sib borishi, o'zini katta bo'lib borayotganini anglab etishni ta'minlaydi. SHuning uchun ham bu davrda obrazli tinglash, eshitish, kuzatish, umumlashtirish, tafakkurini rivojlantirishga ahamiyat berish lozim. Buning uchun bolalarning o'yin faoliyatini rivojlantirish, kuzatish, ko'rib eslab qolish, eshitib eslab qolishlarini, obrazli nutqini shakllantirish talab etiladi. Ya'ni bolalarni maktabga tayyorlashda ularning tinglash malakalarini rivojlantirish lozim. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish zarur:

A) ko'rib-eslab qolishga doir o'yinlar va turli ishlarni bajarish. Bolalarga bir necha rasmlarni ko'rsatiladi, rasmdagi so'zlar asosida hikoya tuzish talab etiladi. Masalan: lola, kapalak, mushukcha, koptok rasmlarini farqlashga, so'zlash yordamida gap tuzishga o'rgatish mashqi bajariladi. Mevalar nomini bildiruvchi rasmlarni tarbiyachi doskaga terib qo'yadi, bolalarni ular ishtirokida gap tuzishga o'rgatish mashqi bajariladi, birinchi so'zga mos so'zni aytadilar:

- anor, olma, shaftoli, nok, uzum mevalari;
- terak, tol, o'rik, shaftoli daraxtlari;
- qo'y, buzoq, echki, sigir, ot, tuya – hayvonlar.

B) Kern Yerasek metodiga ko'ra bola aytgan so'zga mos so'zni aytadi. Masalan: sigirning bolasi-buzoq, qushning bolasi-qushcha, otning bolasi-toychoq, qarg'a, chumchuq, bulbul, parranda kabi o'yinlarni tashkil etish muhimdir;

V) Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda bolalar bilan "O'xshashini top", "So'zlar juftini ayt", "Qo'g'irchoqni sayrga olib chiqamiz" kabi o'yinlarni tashkil etish muhimdir;

G) SHuningdek, bolalarni maktabga tayyorlashda "Nima yo'qoldi?", "Nima o'zgardi?" kabi mashqlar ham muhimdir. Bunday o'yin-mashqlar bolalar tafakkuri va xotirasini rivojlantirish bilan birga so'z boyligini oshirishga, ayniqsa, bolalarni maktabga tayyorlashga yordam beradi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda bolalarning

qo‘l harakatini yaxshilashga ahamiyat berish muhimdir. Buning uchun quyidagi rasm va shakllarni daftarga chizdirish yaxshi natija beradi:



Ular shakllardan olma, uy, deraza, soyabon, o‘rdakcha, qushcha rasmlarini chizadilar, shu asosda daftarning kataklarini aniqlashni, farqlashni, qo‘l va ko‘z harakatlarini o‘rganadilar. Bunday mashqlar bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash, ularning yozuv malakalarini shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

“So‘zlar juftini toping”, “Rasmlarni tasvirlang”, “Uyda qanday ishlarni bajardingiz?”, “Siz ertak kitoblaridan rasmlarni ko‘rasizmi?”, “Qaysi ertak kitoblarning rasmini ko‘rdingiz?” kabi mavzularda suhbatlar tashkil etish mumkin. Bunday ishlar bolalarning ko‘rganlarini so‘zlab berishga, eslab qolish, uni xotirasini yaxshilaydi, kitobga bo‘lgan muhabbatini, maktabga borishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi

Adabiyotlar:

1. “Ilk qadam dasturi” maktabgacha ta‘lim muassasasining davlat o‘quv dasturi
2. O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari.
3. Ta‘lim samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari(Respublika oliy o‘quv yurtlari uchun ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami)
4. Umumiy psixologiya (F.I.Haydarov,N.Xalilova)

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Erhanova N.A.

Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

E-mail: erhonova@mail.ru

Turdieva M. J.

Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi

E-mail: turdiyeva@gmail.com

Olimov Q.T.

pedagogika fanlari doktori, professor

E-mail: olimov@mail.ru

Annotatsiya

Maktabgacha ta‘lim tizimidagi innovatsion texnologiyalar, avvalo, dolzarb muammolarni hal qilish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, ota-onalarning tobora ortib borayotgan talablarini

qondirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligi uchun ishlatiladi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishining dolzarbligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *O'yin texnologiyasi, didaktik o'yinlar, ta'limiy faoliyatlarda qo'llaniladigan o'yinlar monitoring kartasi.*

Annotatsii

Innovatsionnye texnologii v sisteme doshkolnogo obrazovaniya ispolzuyutsya v pervuyu ochered dlya resheniya nasущных problem, povыsheniya kachestva predostavlyаемых uslug, udovletvoreniya rastущих zaprosov roditeley, a takje povыsheniya konkurentosposobnosti doshkolных organizatsiy. V state analiziruetsya aktualnost ispolzovaniya igrovых texnologiy v doshkolnom obrazovanii.

Klyuchevые slova: *igrovые texnologii, didakticheskie igrы, igrovaya karta monitoringa, ispolzuemaya v obrazovatelnoy deyatelности.*

Annotations

Innovative technologies in the preschool education system are used primarily to solve pressing problems, improve the quality of services provided, meet the growing demands of parents, as well as increase the competitiveness of preschool organizations. The article analyzes the relevance of the use of gaming technologies in preschool education.

Key words: *game technologies, didactic games, game monitoring card used in educational activities.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda, ammo hamma amaliyotchilar ham ta'limiy jarayonda undan to'g'ri foydalana olmaydilar. Bolalarning rivojlanishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, aqliy jarayonlar o'yin holatida boshqa faoliyat turlariga qaraganda samaraliroq rivojlanadi, shuning uchun o'yinga tayanish tarbiyalanuvchilarni ta'limiy ishlarga jalb qilishning eng muhim usuli hisoblanadi.

«O'yinli pedagogik texnologiyalar» tushunchasi pedagogik jarayonni turli xil pedagogik o'yinlar shaklida tashkil etishning metodikasi va uslublarining juda keng guruhini o'z ichiga oladi.[\[1\]](#)

Ya'ni, aniq belgilangan ta'lim maqsadi va tegishli pedagogik natijaga erishish ahamiyatga ega bo'lib, ular o'z navbatida asoslanadi va tavsiflanadi.

MTTdagi guruhlarda o'yin shakli va texnikasi ta'limiy talablar va vaziyatlarga ko'ra tanlanadi. Bunday yondashuv tarbiyalanuvchilarning ta'limiy faoliyatdan olinadigan natijalari oshishiga turtki beradi.

Ta'limiy faoliyatda o'yin texnikasi va vaziyatlarini amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Bolalar uchun didaktik maqsad o'yin vazifasi shaklida beriladi.
2. Ta'limiy maqsad o'yin qoidalariga bo'ysunadi.
3. O'yinda bolalar yangi ma'lumotlarni erkin holda o'zlashtiradilar.

Maktabgacha ta'lim yoshida bola o'yin jarayonida katta imkoniyatga egaligini ta'kidlashimiz joiz. Boshqa faoliyatlardan farqli o'laroq o'yin jarayonida mustaqil bo'lish, tengdoshlari bilan o'z xohishiga ko'ra muloqot qilish, o'yinchoqlar tanlash va turli xil vositalardan foydalanish, o'yin maydonchasi bilan mantiqan bog'liq bo'lgan muayyan qiyinchiliklarni yengish, uning qoidalariga bajonidil amal qilish kabi qoidalarni ob'ektiv qabul qiladilar.

Masalan, «Sehrli qopcha» o'yinida predmetlarning xususiyatlari va sifatlari aniqlanadi, konkretlashtiriladi va boyitiladi. Tarbiyalanuvchilarning sezgi, tasavvur va bilimlari standartlashtiriladi. Bunda «Oltin kuz» mavzusi doirasida bolalar meva va sabzavotlar bilan tanishtirilayotganda ularning mulyajlari qopqaga solinadi va ikki guruhga bo'lingan bolalar navbati bilan ko'zlarini bog'lagan holda ularni olib, nimaligini, mazasi va shakli qandayligini, rangi qanaqaligini, polizda yoki daraxtda o'sishini topishadi. Tarbiyachi jarayonda bolalarga yo'naltiruvchi savollar berib boradi. Jarayon qiziqariligi bilan birga bolalar yangi bilimlarni o'yin tarzida o'zlashtiradilar.

Nutq o'stirish bo'yicha ta'limiy faoliyatlarda esa «Davom ettir» o'yinining ahamiyatini ta'kidlash zarur. O'yin qoidasiga ko'ra tarbiyachi bolalarga ertak yoki hikoyani o'qib beradi va ma'lum bir joyga yetganda to'xtatadi. Har bir bolaning badiiy asarni qanday yakunlashi tinglanadi. Bunda bolalarning nutqi rivojlanadi, yangi so'zlar bilan boyiydi, voqealar ketma-ketligini eslab qolishga harakat qiladi va asar konstruksiyasini tuzishga harakat qiladi. Ayni ta'limiy topshiriqlar tarbiyalanuvchilarning nafaqat nutqini rivojlantiradi, balki diqqati, xotirasi, tasodifiy vaziyatlarda qaror qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'yin asosida o'rganish orqali olingan bilim va ko'nikmalar boshqa o'quv usullaridan olingan ma'lumotlarga qaraganda uzoqroq saqlanib qoladi. Ta'limning samarali jarayoni - bu erishilgan natija bilan dalillanar ekan, buning uchun o'yin asosida va yaxshi ishlab chiqilgan va ta'limiy vazifalar to'liq qamrab olingan metodikalar yaratilishi o'ta dolzarbdir. Bu jarayonda tadqiqotchilarning ilmiy farazlari va amaliy jarayon reallik bilan bir butunlikda olib borilishi muhim.

O'yinlarga asoslangan o'rganish bu shunchaki mavzuga moslab harakat qilishni anglatmaydi. Aksincha, ta'limiy o'yinlarning barcha turlari pedagogik ijodkorlik talab etadi. Bu borada ta'limiy o'yinlarni o'quv jarayoniga kiritish uchun uchta yondashuvni tahlil qilamiz:

1. Birinchi yondashuvga ko'ra tarbiyalanuvchilar ehtiyojiga muvofiq o'yinlar loyihalashtiriladi va yaratiladi.

2. Ikkinchi holatda esa tarbiyachi-pedagog tarbiyalanuvchilarning egallagan bilim, ko'nikma, malakalariga o'yinlarni loyihalashtirish nazarda tutiladi.

3. Uchinchi samarali o'rganish uchun muhit yaratishni ko'zlaydigan moslashuvchan o'yinlarni mashg'ulotlari tarkibiga kiritish.

4. Ushbu uchta holatda ham o'yinlar bolalarni o'ziga ishongan va mustaqil fikrlaydigan bo'lishiga yordam beradigan o'qitishni individualizatsiya qilish uchun moslashtirilishi mumkin.

5. Ijtimoiy hayot va ta'lim jarayoni muhitidagi o'zgarishlar hamda eng asosiysi maktabgacha yoshdagi bolalarning elektron vositalardan foydalanishi pandemiya davrida reallashdi. Ya'ni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ham mobil qurilmalardan ma'lumotlarni o'zlashtirishga qiziqishi yuqoriligi aniqlandi. Shunday ekan, o'yin texnologiyalarini mobil ilovalar shaklida yaratish zaruriyati mavjudligini ta'kidlaymiz. Bunday ilovalardan maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhidagi multimedia resurslarini qo'llagan holda faol qo'llash ko'nikmalari tarbiyachi-pedagoglarda shakllanayotganini ta'kidlash zarur. Ayni jarayonda mobil ilovalarning mazmuni va tuzilishi ta'limiy maqsadlar va bolalar ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqilishi va ular bilan oldindan sinovlarni turli guruhlarda olib borilishi zarur. Amalda, mobil ilovalarning yosh bolalarga ta'sirini tushunish va ularning yoshi va rivojlanish qobiliyatiga mos keladigan dizayndagi mobil ilovalarni yaratish uchun ko'proq tadqiqotlar o'tkazish zarur. Dalillar shuni ko'rsatadiki, ta'limiy mobil ilovalardan bolalarni nafaqat o'yinni samarali o'ynashda, balki o'rganish nuqtai nazaridan undan maksimal darajada foydalanishni qo'llab-quvvatlash muhimligi aniqlangan.

6. Mazkur ehtiyojning mavjudligini inobatga olib, ta'limiy multimedia resurslarini har bir o'rganilishi zarur bo'lgan soha yo'nalishlari bo'yicha yaratilishi zarurligini ta'kidlaymiz. Zero bunday resurslar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ta'limiy jarayonlar samaradorligini ta'minlash bilan birga integratsion ravishda ta'limdagi uzluksizlik muammosiga ham yechim bo'la oladi. Sababi umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida fanlar kesimida multimedia resurslari yaratilganligi fikrimizga isbot bo'ladi.

Shu o'rinda mul'timedial ta'limiy o'yinlarning funksiyalarini tasniflaymiz:

O'yinda bolaning *o'zini anglash funksiyasini* alohida ta'kidlashimiz zarur. O'yin, bir tomondan, bola amaliyotda o'ziga xos hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etish loyihasini qurish va sinovdan o'tkazish, boshqa tomondan, maqsadga erishish yo'llarini aniqlashga imkon beradi.

O'yinning *kommunikativ funksiyasi* esa bolalar o'zaro bog'liq ravishda hamkorlik qiladi, muloqotga kirishadi.

O'yinning *diagnostik funksiyasi* tarbiyachiga bolaning turli xil holatlarini (intellektual, ijodiy, hissiy va hk.) diagnostika qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, o'yin «o'zini namoyon qilish maydoni» bo'lib, unda bola erkin harakatlarda o'zining kuchli va qobiliyatlarini sinab ko'radi, o'zini namoyon qiladi va o'zini tasdiqlaydi.

O'yinning *terapevtik vazifasi* – bu o'yinni bolaning xulq-atvori, muomalasi, o'rganishi natijasida yuzaga keladigan turli xil qiyinchiliklarni bartaraf etish vositasi sifatida ishlatishdir. O'yin terapiyasining samarasi bola rol o'ynash orqali qabul qiladigan yangi ijtimoiy munosabatlar amaliyoti bilan belgilanadi. Aynan yangi haqiqiy munosabatlar amaliyoti, bunda roli o'yin bolani ham kattalar bilan, ham tengdoshlari bilan majburan emas, erkinlik va hamkorlik munosabatlariga kirishtiradi, bu oxir-oqibat terapevtik ta'sirga olib keladi.

Rivojlantirish funksiyasi – bolaning shaxsiy ko'rsatkichlari tarkibiga ijobiy o'zgarishlar, qo'shimchalar kiritish mavjud. O'yinda bu jarayon tabiiy ravishda, qiziqarli tarzda sodir bo'ladi.

O'yinning zavqlantirish funksiyasi,^[2] ehtimol uning asosiy funksiyalaridan biridir. Chunki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ko'ngilochar va xush kayfiyat bag'ishlovchi holatlarda idroki faol rivojlanishi olimlar tadqiqotlarida ko'p bora o'z isbotini topgan.

Quyida mazkur texnologiyalar qo'llangan ta'limiy faoliyat ishlanmasi namunasini havola etamiz.

«To'rtinchisi ortiqcha» didaktik o'yini

Ta'limiy faoliyat maqsadlari:

ta'limiy: tarbiyalanuvchilar tasavvurlarini kengaytirish, so'zlarni umumlashtirishga, so'zlarni to'g'ri qo'llashga o'rgatish, nutqini rivojlantirish;

rivojlantiruvchi: bolalarda so'z boyligini oshirish, fikrlarini og'zaki nutqda ifodalashga o'rgatish va dunyoqarashini rivojlantirish;

tarbiyaviy: bolalar o'rtasida o'zaro bir-birlarini hurmat qilish, bir-birining fikrini tinglashga o'rgatish va jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ta'limiy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: – Bolalar, bugungi ta'limiy faoliyatimizda bir-biridan qiziqarli o'yinlar o'ynaymiz. Buning uchun turli bekatlarda to'xtab, har bir bekatda ta'limiy o'yin bajaramiz. Qani ketdik, birinchi bekatimiz qaysi bekat ekan?

Bolalar: – (Monitorga qaragan holda aytishadi). Kuz fasli.

Tarbiyachi: – Barakalla, kuz faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Bolalar: – Kuzda kunlar soviy boshlaydi, yomg'ir yog'adi, meva va sabzavotlar yig'ib olinadi.

Tarbiyachi: – Juda to'g'ri, kimning tug'ilgan kuni kuzda bo'ladi?

Bolalar javob berishadi.

Tarbiyachi: – Endi sizlarga bu bekatning savollarini berishni boshlayman, diqqat bilan eshiting. Kuzda daraxtlarning bargi qanday rangda bo'ladi?

Tarbiyachi: – Barakalla, endi stolda kartochkalar bor. Ular orqali «To'rtinchisi ortiqcha» o'yinini o'ynaymiz.

Buning uchun monitorga diqqatingizni qarating va undagi rasmlar qatorida qaysi biri ortiqcha bo'lsa, stoldagi o'sha rasmni tanlab topasiz.

Bolalar: – Bu yerda bolalar qorbo'ron o'ynayotgan rasm ortiqcha. Chunki bu ishlar qishda bajariladi.

Tarbiyachi: – Bolajonlarim, sizlar ta'limiy o'ying shartlarini to'g'ri bajarganingiz uchun, keyingi bekatga o'tishimiz uchun yo'l ochildi. Marhamat, keyingi bekatimiz qaysi fasl ekanligini monitorga qarab toping.

Bolalar: – Bahor fasli.

Tarbiyachi: – Haqiqatan biz bahor fasliga tushib qoldik. Aytingchi bu faslda nimalar ro'y beradi?

Bolalar: – Quyosh yerni qizdiradi, daraxtlar ekiladi, yomg'ir yog'adi, kamalak chiqadi, onajonlar bayrami, Navro'z bayrami nishonlanadi, sumalak, ko'k somsalar pishiriladi.

Tarbiyachi: – Judayam to'g'ri, endi bu bekatning ta'limiy o'yin shartini bajaramiz. Bahorda qaysi mevalar pishadi?

Bolalar: – Bahorda qulupnay, gilos pishadi, dovuchchalarni yeyish mumkin.

Tarbiyachi: – Xuddi shunday, endi stolingizdagi kartochkalardan bahor fasliga taalluqli bo'lmagan to'rtinchi rasmni toping.

Sumalak, kamalak, lola, stol.

O'rik guli, maysa, qor, quyosh.

Chana, dovuchcha, daraxt ekish, 8 mart.

(Bolalar ushbu rasmlar qatoridan bahorga taalluqli bo'lmagan rasmlarni topadi).

Tarbiyachi: – Barakalla, bu bekatdan ham muvaffaqiyatli o'tdingiz. Endigi bekatimiz nomini toping.

Bolalar: – Yoz fasli!

Tarbiyachi: – Juda soz, sizlarga yoz bekatidagi savollarni o'qiyman.

1. Yoz fasli haqida she'r ayting.
2. Yozda suv yuzida muz bo'ladimi?
3. Yozda qorbobo yasash mumkinmi?
4. Paxta yozda teriladimi?

Tarbiyachi: – Sizlar judayam zukko ekansizlar, endi bu bekatdagi «To'rtinchisi ortiqcha o'yinini» o'ynaymiz. Buning uchun monitorga qarang va yozga tegishli bo'lmagan to'rtinchi suratni toping.

(Bolalar chana, kamalak, paxta, kompyuter rasmlarini ajratib olishadi).

Tarbiyachi: – Barakalla, endi oxirgi bekatimizga ham yetib keldik. Buning uchun mana bu topishmoqlar javobini topishingiz kerak.

1. Meni so‘raydilar,

Ko‘rinsam qochadilar. (Yomg‘ir).

2. U yoqqa o‘tdim, bildingmi?

Bu yoqqa o‘tdim bildingmi? (Shamol).

3. Uchib kelar g‘oz kabi,

Achchiq bo‘lar tuz kabi. (Sovuq).

Tarbiyachi: – Barakalla, endi qish fasliga tegishli ta‘limiy o‘yin shartini bajaring.

(Bolalar qorbobo yasayotgan, qor yog‘ayotgan, chana uchayotgan rasmlar ichidan anhorda cho‘milayotgan bolalar rasmi ortiqchaligini topishadi va qish fasli haqida suhbat olib boriladi).

Tarbiyachi: – Endi esa «Davom ettir» o‘yinini o‘ynaymiz. Bunda men fasllar nomini aytaman, sizlar esa shu fasllarga xos bo‘lgan xususiyatlarni sanab o‘tasiz.

(Bolalar aytilgan fasllarni ta‘riflaydilar).

Tarbiyachi: – Barakalla bugungi ta‘limiy faoliyatimizda juda faol qatnashdingiz.

Ushbu ta‘limiy faoliyatda o‘yin texnologiyalaridan foydalanilganda an‘anaviy ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlardan farqli ravishda tarbiyalanuvchilarning faollashgani, yangi ma‘lumotlarni oson o‘zlashtirgani, muammoli vaziyatlarga yechim izlashga kirishganini kuzatish mumkin. Shuningdek, bolalar jarayonda fikrladi, vaziyatni tahlil qildi, ongli ravishda materialga nisbatan o‘z shaxsiy fikrini bildirdi.

Ushbulardan xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi zamonaviy ta‘limning oltin qoidasi bo‘lmish – shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmuni o‘yin texnologiyalari negizida boyiydi va rivojlanadi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar idrokning yorqinligi va tezkorligi, tasvirlarga kirish qulayligi bilan ajralib turadi. Tarbiyalanuvchilar har qanday faoliyatga, ayniqsa, o‘ynashga osonlikcha jalb qilinadi.

Shu o‘rinda ta‘limiy jarayonda qo‘llaniladigan o‘yinlarning ahamiyati ta‘lim darajasi ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyo mamlakatlari reytingida yuqori o‘rinlarda turuvchi mamlakatlar(Germaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Daniya)[3] ta‘lim tizimida keng o‘rin egallagan va ularning ahamiyati yuqori baholanadi. Sababi mazkur davlatlar ta‘lim tizimida ta‘lim oluvchiga erkinlik yaratilgan holda o‘qitish metodikalariga alohida urg‘u beriladi. O‘yinlarga asoslangan innovatsiyalar zamonaviy ta‘limning ajralmas qismiga aylandi. Zamonaviy jamiyatning yaxshi integratsiyalashgan a‘zosi bo‘lish uchun o‘qish va yozishning asosiy ko‘nikmalarini egallash kifoya qilmaydi.

Innovatsion ta‘limiy metodlar tarbiyalanuvchilarga interaktiv usulda maqsad va vazifalarga erishish yo‘lida ishlashning yangi usullarini kashf etishlariga imkon beradi.

Ta‘lim jarayonini faollashtirish va zamonaviylashtirishga qaratilgan maqsadlarning markazida o‘yin faoliyati tan olinishi ham bejiz emas.

Sababi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va bolalarga beriladigan erkinliklar bu shunchaki tarbiyalanuvchilarni maqsadsiz vaqtini o'tkazish emas, aksincha ularga ta'lim dasturlaridagi materiallarni bosim va kuchli nazoratdan holi bo'lgan didaktik o'yinlar vositasida berishni anglatadi.

Bunda esa maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi o'yinlarning funksiyalarini va tasnifini to'g'ri tushunishi, texnologiyalarni maqbul tarzda jarayonda qo'llashi katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. R.Ishmuxamedov va b. "Tarbiyada innovatsion texnologiyalar", Toshkent, 2010.
2. Ishmuxamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari (2 kitob).—T.: TDPU, 2010
3. Babaeva T.I., Rimashevskaya L.S. «Kak razvivat vzaimootnosheniya i sotrudnichestvo doshkolnikov v detskom sadu. Igrovye situatsii, igrы, etyudy: uchebn-metodicheskoe posobie - SPb.: OOO «IZDATELSVO «DETSTVO-PRESS», 2012.
4. Yermolaeva M.G. Igra v obrazovatelnom protsesse: Metodicheskoe posobie/ M.G. Yermolaeva. – 2-ye izd., dop. – SPb.: SPb APPO, 2015.
5. United Nations Development Programme. Human Development Index (HDI): Education Index [URL: hdr.undp.org].



MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARGA IQTISODIY BILIM BERISH ZARURATI VA MAQSADI

O'rozaliyeva A.A

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Dunyoda global oqimlarning globallashuvi, fan-texnika rivojlanishi, ma'lumotlarning raqamlashtirilishi, xizmat turlarining ko'payishi, ularni ijro etish turlarining oshib borishi, ota-ona va tarbiyachilar zimmasiga yuksak vazifalar qo'yilayotganda ularni xalqaro yondashuvlar asosida rivojlantirish mazmuni va texnologiyasini takomillashtirish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Аннотации: Глобализация мировых тенденций, развитие науки и техники, оцифровка данных, увеличение спектра услуг, увеличение видов их реализации, необходимость совершенствования содержания и технологии их разработки на основе международных подходы-требуют от воспитателей и от родителей большое внимание уделять экономическому образованию детей дошкольного возраста.

Annotation: Globalization of world trends, development of science and technology, digitization of data, increase in the range of services, increase in the types of their implementation, the need to improve the content and technology of their development based on international approaches.

Kalit so'zlar: iqtisodiy ta'lim, maktabgacha yoshdagi bolalar, moliyaviy savodxonlik, zamonaviy tarbiyachi, raqamli iqtisodiyot, mehnat, daromad, tejamkorlik.

Ключевые слова: Экономическое образование, дошкольники, финансовая грамотность, современный педагог, цифровая экономика, труд, доход, сбережения.

Key words: economic education, preschoolers, financial literacy, modern teacher, digital economy, labor, income, savings.

Zamonamiz talabiga mos va xos farzandlarni tarbiyalash barchamizning oldimizda turgan ulkan vazifalardan biri bo'lib kelmoqda, shu o'rinda dolzarb vazifalardan biri bolalarning iqtisodiy bilimi, moliyaviy savodxonligi ham ahamiyatlidir. Bolalarni ushbu yo'nalishda qanchalik puxta bilimga ega mukammal qilib tarbiyalasak jahonda bo'lib borayotgan iqtisodiy o'zgarishlarga tayyor turgan holda ular o'zgarishlar ruknida ham mamlakatimizga ham o'z oilasiga hissa qo'sha oladigan yetuk mutaxassis bo'lib masalani barqarorlashtira oladigan bo'la oladilar. Xalqni yanada boyitish, mamlakatni yanada rivojlantirish mana shu o'sib kelayotgan bolalarning qo'lidadir.

Iqtisodiy ta'limning asosi iqtisodiy faoliyatdir, bu jamiyatning iqtisodiy hayotida ishtirok etish usuli bo'lib, ishlab chiqarish, tarqatish, almashish, moddiy mahsulotlarni iste'mol qilish jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Hayotiy faoliyatning asosiy sohasi sifatida iqtisodiy hayot butun ta'lim tizimining ishlashiga olib keladi, lekin birinchi navbatda uning elementlari, boshqalarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj to'g'ridan-to'g'ri mehnat va iqtisodiy faoliyat bilan belgilanadi. Shaxsni tarbiyalash-bu hech qanday tomonni, insonning ayrim fazilatlarini boshqalarga ta'sir qilmasdan shakllantirish mumkin emas degan ma'noga olib keladigan yagona jarayon. Bu barcha komponentlar tashkilotning umumiy yakuniy maqsadi, tamoyillari va usullari bilan birlashtirilgan tizimdir. Shuning uchun, muammo boshqa ta'limning bir tomoniga qarshi emas, balki uni murakkab birlikda mohirlik bilan tashkil etishdir.

Iqtisodiy tarbiya, ta'lim tizimining bir qismi sifatida, birinchi navbatda, ta'limning umumiy vazifalarini hal etishga qaratilgan bo'lib, mehnat, axloqiy, siyosiy, huquqiy, aqliy, ekologik va boshqa ta'lim tizimining tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatni rivojlantirish va bozor iqtisodiyotini shakllantirishning zamonaviy sharoitida har bir insonning muvaffaqiyati, shuningdek butun jamiyatning gullab-yashnashi faqatgina odamlar ongli ravishda, an'analar va shaxsiy tajribaga asoslangan holda harakat qilishgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. O'sib kelayotgan avlodlarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirish yangi bozor sharoitida ularning kelajagini ta'minlash uchun kelajak avlodni ishlab chiqarishda ishtirok etishga tayyorlash va

iqtisodiy aloqalarning zamonaviy shakllariga qo‘shilishini nazarda tutgan mutlaqo yangi talablar qo‘yilmoqda. Zamonaviy hayotda turli xil iqtisodiy amaliyotlar amalga oshirilmoqda. Turli xil kasblar internet orqali oldi sotdi ishlari oyna jahon orqali reklamalar ota-onalarning iqtisodiy masalalardagi suhbatlari bularning barchasi bilan bolalar kunlik hayotda duch kelishadi. Ularning iqtisodiy ta’lim olishining asosiy manbasi bu ularning ota-onasi hisoblanadi. Shuning uchun ham iqtisodiy jarayonlar bolalarni juda qiziqtiradi ammo ushbu ko‘nikmalarni bolalar o‘z hayot yo‘lida anglamagan holda yig‘ib boradi.

Iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish bo‘yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda ko‘plab jiddiy qiyinchiliklar turli toifadagi ishchilarning kasbiy layoqatsizligi, ularning bozor ma‘muriyatidagi iqtisodiy bilimlari va tajribasining yetishmasligi oqibati degan tezis shubhasizdir. Bularning barchasi nafaqat iqtisodiy ta’lim mazmunida, balki o‘quv jarayonini jiddiy tashkiliy va uslubiy qayta qo‘rishni ham tub o‘zgarishlarini talab qiladi. Jamiyat fuqaroning o‘z mamlakatining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotidagi ishtirokini, inson mustaqil, tashabbuskor, intellektual jihatdan rivojlangan, kommunikativ aloqalarni o‘rnatishga qodir, boshqa odamlarga nisbatan bag‘rikeng, doimiy o‘zgarishlarni sezadigan va tegishli qarorlar qabul qilish xislatlariga ega bo‘lgan shaxslarga muhtoj bo‘lib kelmoqda. Bu fazilatlarning barchasi maktabgacha yoshdagi davrda yaratilsagina o‘sib kelayotgan yosh avlod quyidagilarga qodir bo‘la oladi.

1) odamlarning umumiy jihatlari (oziq-ovqat, suv, uy-joy, dam olish, pul va hokazolarga bo‘lgan ehtiyoj) va farqlar (jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy mavqe, tashqi qiyofasi, urf-odatlar, qadriyatlar va boshqalar) ni tushunish;

2) dunyodagi hamma narsa asta-sekin o‘zgarib borishiga tayyor bo‘lish va ushbu o‘zgarishlarning zaruriyati va muqarrarligini tushunib olish;

3) bir nechta imkoniyatlar mavjud bo‘lgan vaziyatlarni aniqlay olish
qaror qabul qilish va eng maqbulini tanlash;

4) maktabgacha tarbiya tashkiloti, oila, qo‘shnilar, do‘stlar jamoasida yashash;

5) ishlab chiqarish, mehnat qurollari va mahsulotlari, materiallar, resurslar va ularning kelib chiqishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

6) tirik mavjudotlarning, tabiiy boyliklarning o‘zaro bog‘liqligi va odamlar ulardan jamoaviy foydalanishini tushunish.

Iqtisodiy ta’lim, tarbiya fikrlash sohasidagi tadqiqotlarning kengligi va xilma-xilligi asosan boshlang‘ich, o‘rta, yuqori darajadagi ongga ta’sir qiladi va maktabgacha yoshdagi bolalarga yuzaki qaraladi va o‘qitiladi.

Adabiyotlar:

1. SH.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. Darslik. Toshkent 2013. 154-bet

2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N. Qayumova, M. A‘zamova “Maktabgacha

pedagogika” Darslik. Toshkent 2018.

3. Петрова В.Ф., Габдрахманова А.А. О формировании экономических компетенций детей старшего дошкольного возраста.//Одаренность и ее развитие.// Сборник статей и методических материалов Пятой международной научно-практической конференции. 26 сентября 2014г./Под ред. проф, В.Ф. Габдулхакова. – Казань: Казанский (Приволжский) федеральный университет, институт психологии и образования. 2014. 94 б.

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTIDA QO’G’IRCHOQ TEATRLARI TURLARI

O’tamurodova Sh.M.

*O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika institut “Maktabgacha ta’lim” kafedrasida
katta o‘qituvchisi*

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘rt turdagi qo‘g‘irchoq teatri namoyish etiladi.

1. Stol teatri:

Stol teatrida tomoshaning barcha personajlari va deklaratsiyalari stol ustiga joylashtiriladi. Stol teatri o‘yinchoqlari va deklaratsiya jihozlari nima materialdan yasalganligiga ko‘ra turlarga ajratiladi.

Yumshoq o‘yinchoqlar orqali stol teatri tashkil etish eng qulay hisoblanadi. Yumshoq o‘yinchoqlar bunda korxonalar tomonidan tayyorlangan, bozorlar, do‘konlarda sotiladigan o‘yinchoqlar yordamida tashkil etilishi tushuniladi. Bu o‘yinchoqlarni do‘konlardan xarid qilish yoki tikib tayyorlab olish mumkin.



Tabiiy materiallar: qarag‘ay buddalaridan, yog‘ochdan, paxtadan, chig‘anoqlardan urug‘-mevalardan va shu kabi tabiatda bor bo‘lgan materiyadan foydalanib qo‘g‘irchoqlar yasaladi. Bundan tashqari kerakli jihozlarni ham yasash mumkin. Yasalgan o‘yinchoqlar orqali qo‘g‘irchoq teatri tomoshalari ishlanadi.

Uy-ro‘zg‘or buyumlaridan: turli qoshiqlar, tayoqchalar, choynak-piyolalar, kir qistirgichlar, stakanlar, likopchalar, bankalar, bokallar, bir martalik ishlatiladigan idishlardan qo‘g‘irchoq teatri personajlarini yasab foydalaniladi.



Yassi shakldagi o‘yinchoqlar: plastilin, loydan, xamirdan yassi(pachiq) shaklda tayyorlanadi. Bundan tashqari karton qog‘oz, yupqa yog‘och fanerlardan yasaladi. Bu o‘yinchoqlar stolda tik turishi uchun pastiga moslama-taglik tayyorlanadi.

Geometrik figuralar: konus, silindr shaklida tayyorlangan o‘yinchoqlar yordamida stol teatrini tashkil etish juda qulay. Stol teatri maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida eng ko‘p foydalaniladi va o‘yinchoqlarni yasash osonligi bilan ham ajralib turadi.



Origami: Origami (qog‘ozni buklab yasash) usulida yasalgan o‘yinchoqlar hisoblanadi. Origami yaponcha so‘z bo‘lib, bu qog‘ozni buklab yasash san‘ati hisoblanadi. Bu san‘at Yaponiyada paydo bo‘lgan. Origaming oddiy va murakkab yasash usullaridan foydalanib o‘yinchoqlar va sahna deklaratsiyalarini tayyorlab olib, stolda bolalar uchun tomoshalar tashkil etish, ularni quvontiradi, zavqlantiradi, o‘ylantiradi, fikr-mulohaza yuritishga undaydi. Qo‘g‘irchoq tomoshalari bolalardagi turli salbiy ruhiy holatlarni bartaraf etadi va davolaydi.



Tashlandiq materiallardan yasalgan o‘yinchoqlar yordamida stol teatri tashkil etish juda kamchiqim bo‘ladi, lekin bunda tozalikka - gigiyenaga qat‘iy e‘tibor beriladi. Idishlarning yuza va ichki qismlari xlorli eritmada yuviladi. Masalan: tashlandiq diskalar, korobkalar, bakalashkalar, idishlar va b.

2. Qo‘l teatrlari.

Qo‘l teatri qo‘g‘irchoqlar qo‘lda yoki qo‘lga kiyib o‘ynatiladi. Qo‘l teatri qo‘lining tirsakdan barmoqlar uchigacha bo‘lgan qismi sahnaga chiqadi. Qo‘lda namoyish etiladigan qo‘g‘irchoq teatr turlari stolda va shirmada namoyish etiladi.



Bir barmoqli qo‘lqoplardan tayyorlangan o‘yinchoqlarni qo‘lga kiyib yoki stolga tik turadigan qilib tayyorlab olib, o‘ynatish mumkin. Bir barmoqli qo‘lqoplardan o‘yinchoqlarni rasmda ko‘ringanidek tayyorlash tarbiyachilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Qo‘g‘irchoq teatri o‘yinchoqlarini tayyorlash kishiga zavq bag‘ishlaydi. Bu o‘yinchoqlarni maktabgacha ta‘lim tarbiyachilari, chevarlar va mohir qo‘g‘irchoqbozlar tayyorlashadi.

Besh barmoqli qo‘lqop o‘yinchoqlar ham bir barmoqli o‘yinchoqlar singari tayyorlanadi. Besh barmoqli qo‘lqop o‘yinchoqlar kichik yosh guruh bolalariga va katta yoshli kam sonli bolalarni ham to‘plab tomosha-teatr tashkil etsa bo‘ladi. Chunki, 3-4 yoshli bolalarning jussasi hali kichik bo‘lganligi sababli 25-30 nafar bolani teatrga yaqin kelib tomosha qilishini ta‘minlash mumkin.





Bundan tashqari, ikki: *bosh va kichik barmoqni* kiygizib o'ynatadigan *qo'lqopli o'yinchoqlar* eng ko'p ishlatiladigan qo'g'irchoq teatri turi hisoblanadi. Bu turdagi o'yinchoq obrazlar shirmada yoki stolda boshqariladi. Bu turda qo'g'irchoqboz qo'l harakati va so'z-nutqini bir xil paytda harakatga tushishini ko'p mashqlar natijasida paydo qiladi.

Paypoqli o'yinchoqlar: paypoqlardan tayyorlangan o'yinchoqlar qo'lga kiyiladi. Paypoqli o'yinchoqlar teatrini shirma ortida yoki shirmasiz ham namoyish qilsa bo'ladi. Paypoqlardan stol teatri uchun yumshoq o'yinchoqlar tikib tayyorlasa bo'ladi. Paypoqli teatr uchun yangi, kiyilmagan paypoqlar ishlatiladi.



Kaft va barmoqlarda bajariladigan tomoshalar: qo'l soyasi, kaft tekisligi orqali tomosha tashkil etish maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda, yirik, sensamotorikasini rivojlantiradi. Soya devorga, matoga tushiriladi. Yoz oylarida kechki uyqu oldidan shunday tomoshalarni tashkil etish foydalidir.

Bi-ba-bo o'yinchoqlar ingalaydigan, chiyillaydigan, chinqiradigan, bi-ba-bo deb ovoz chiqaradigan o'yinchoqlardir. Ular ovoz chiqaradigan o'yinchoqlar orqali tomosha tashkil etiladi. Bu o'yinchoqlarning bosh qismi rezinadan yasilib, ovoz chiqaradigan moslama o'rnatilgan bo'ladi.



Trostli o'yinchoqlar: pishiq arqonli yoki elastik simli harakatlantiriladigan o'yinchoqlar orqali teatr namoyish etiladi. Bu o'yinchoqlarni bir yoki murakkabligiga qarab ikki kishi boshqaradi.

Barmoq teatri: bu qo'lqopsiz, barmoq uchiga qog'ozdan, iplardan to'qib yoki matodan tikib yasalgan o'yinchoqlarni kiyib o'ynatish orqali tashkil etiladi. albatta, barmoq teatri tashkil etish uchun tanlangan asar mos tushishi zarur. Bu teatr kichik yoshli bolalarga juda qo'l keladi.

Qadam tashlovchi o'yinchoqlarni yupqa, pishiq kartondan yasash



maqsadga muvofiq, sababi yupqa qog'ozdan yasaladigan bo'lsa, shalpayib yotib qoladi. Qalin qog'oz kartondan yasalsa, uni harakatlantirishda noqulay bo'ladi. Ba'zida bitta barmoqli qilib tayyorlash mumkin.



3. Devoriy teatrlar.

Devoriy teatrning devoriy teatr deb nom olishiga sabab devorda tomoshalar namoyish etilishidir.

Flanelegraf -bu o'quv ko'rgazmali qurol flanel bilan qoplangan taxta yoki karton, unga kesilgan figuralar yopishtirilib tomoshalar va o'quv materiallarini o'zlashtirish uchun foydalaniladi. Bu bolalarni bilim, ko'nikmalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Devoriy teatrning *matoli* turida jun yoki boshqa paxmoq matodan tayyorlangan personajlar yordamida tashkil etiladi. Fitr materialidan tikib tayyorlangan personajlar va maxsus sahna jihozi bo'lib xizmat qiladi. Personajlarning ort tarafiga g'ijirlab yopishib turishi uchun lipuchka tikiladi.



Soyali teatr: devorga obrazlarning soyasi tushiriladi. Ya'ni hayvonlar, qushlar, o'simliklar, tog'lar va insonlarning shakli pishiq yupqa kartonga chizilib qirqib olinadi. Keyin yorug'lik lampa orqali devorga yoki to'rtburchak ramkaga tortilgan mato yo bannerga soyasi tushiriladi. Sahnani yoritish katta ahamiyatga egadir.



Ularni shunday joylashtirish kerakki, ular sahnani yoritsin-u nuri tomoshabinlarga tushmasin.



Magnitli devoriy teatr: o'yinchoqlar magnitli yoki magnit orqali devorga yopishtiriladi. Bu teatrda asar qahramonlari va sahna dekaratsiyalari magnit yordamida yopishtiriladi va harakatlantiriladi.

Kitob teatri: devorga kitob joylashtiriladi.

Unda bitta yoki bir nechta kitob ertak mujassam bo'lishi mumkin. Kitob teatrini devorga mahkamlash yoki qo'lga olib tashkil etish mumkin. Kitob teatrini qog'ozdan, kartondan, fitrdan, fanerdan tayyorlasa bo'ladi.



4. Jonli qo'g'irchoqlar teatri.

*Jonli qo'g'irchoqlar teatri*da insonlar(bolalar) to'liq holatda sahnaga chiqib rol ijro etadi. O'zlari jonli qo'g'irchoqlar rovida sahnaga obrazlarni gavdalantirgani chiqishadi. Katta yoshdagi inson yoki bolalar asar qahramonlarini liboslarini kiygan holda rol bajarishadi. Sahnada liboslar kiygan holatda odam qiyofasi, hayvonlarni gavdalantirishi, bundan tashqari, gullar, daraxtlar ya'ni dekotasiya bo'lib ham chiqishlari mumkin bo'ladi.

Maskali teatr – bu kattalar va bolalar yuz qismiga maska taqib sahnaga chiqishadi. Maskani ko'z qismi ko'rish uchun o'yilgan bo'ladi. Ko'picha yangi yil bayramlarida katta-yu kichik maskalar taqishib sahnaga va kechki sayllarga chiqishadi.

Shapkali teatr – bu teatrda sahnaga shapka kiyib chiqishadi. Shapkalarni to'qish iplaridan to'qish, matodan, qog'ozdan obrazlarni tasvirlab qirqib yasab olinadi. Sahnaning ko'rinishi kichik ekrandan yoki sahna planshetidan iborat bo'lishi mumkin.

Sahnaga odam qo'g'irchoq shaklida chiqishi tushuniladi. Bu turdagi qo'g'irchoqlar kichik yoshdagi boladan katta insonlar shaklida ham sahnaga chiqib rol ijro etishadi. Juda katta gigant qo'g'irchoqlar ham uchraydi. Bunday qo'g'irchoqlarni ichiga ikki-uch kishi kirib boshqaradi. Sahnaga insonlar sahna dekoratsiyasi sifatida ham chiqishadi. Masalan: gul, o'simlik, daraxt obrazlarini tasvirlab sahnaga chiqishadi.



Ro'molli teatrda personajlar tasviri ro'molga joylashtiriladi. Ro'mol o'rtasidan uchburchak shaklida buklanib, teng ikkiga bo'lingan qismidan rezin tikilib, bo'yinga ildirish uchun moslashtiriladi. ro'molni ikki uchidan ikki qo'l bilan ushlanadi. Ro'moldan tayyorlangan sahna libosini taqib rol ijro etishadi. Rasmdagi ko'rinishda sahnaga chiqish qilishadi. Boshqa matolardan ham ro'mol ko'rinishida buklab, obrazlarni joylashtirib, asar personajlarini tayyorlab olish mumkin.



Fartukli teatr – bu teatrda sahnaga rol ijro etish uchun fartuk taqib chiqishadi. Fartukda asar qahramonlari joylashtirilgan bo'ladi. Fartuklar turli ko'rinishda va turli o'lchovlarda tayyorlanadi.



Tantamareska teatrida bolalar va kattalar sahnada yuz qismi o'yib ishlangan rasmlarga yuzini qo'yib olib chiqish qilishadi. Sahnaga asari qahramonlaridan tashqari sahna dekoratsiyalari ham shunday shaklda ishlanishi mumkin. Bu teatrdan bolalar juda katta tasavvurga ega bo'ladi.



Marionetka teatrida qo'g'irchoqlar ip yordamida tepadan turib boshqariladi. Marionetka teatri stol ustida yoki tekis yerda sahna tashkil etilib namoyish qilinadi. Marionetka qo'g'irchoqlarini ip bilan boshqarish uchun juda ko'p mashq qilishi zarur. Marionetka qo'g'irchoqlarini harakatga keltirish uzoq vaqt davomidagi mashqlar natijasida erishilgan ko'nikma, malakalar bu teatrning nufuzini oshiradi.



Dramatik qo'g'irchoqlar teatrida bolalar va kattalar sahnaga chiqishadi. Dramatik qo'g'irchoq teatrida asar voqealarining harakatini boshidan oxirigacha o'z rollarini-obrazlarini harakatlar, mimika, emotsiya, so'z, qo'shiq, raqslari orqali gavdalantiriladi.



Musiqali teatrda sahna asari namoyishi, sahnaga chiqqanidan to asar tugagunicha musiqa davom etadi. Musiqa tugashi bilan sahna asari ham yakunlanadi. Masalan: daraxtlar raqsi, o'rmondagi o'simlik va hayvonlar suhbatini ko'rinishini ifodalab berish mumkin.



*Pantomima teatri*da sahnaga kattalar va bolalar ham chiqishi mumkin. Bu teatr soʻzsiz imo-ishoralar, harakatlar, emotsiyalar, mimika, jestlar²² yordamida tashkil qilinadi. Pantomima teatrining oʻziga xos muhim tomoni soʻz ishlatilmasligidadir.



Oliy taʼlimda tayyorlanayotgan tarbiyachilarni tayyorlashda qoʻgʻirchoq teatri turlari va ular uchun qoʻgʻirchoqlar, oʻyinchoqlar, liboslar, sahna dekaratsiyalari tayyorlashni oʻrgatish taʼlim maqsadlarini amalga oshirishning muhim bir omilidir.

Adabiyotlar:

1. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustahonada amaliy mashgʻulot. “Musiqqa” T.:2010-y.
2. N.Mirsaidova, R. Oʻtaganov “Qoʻgʻirchoq boshqarish asoslari”(qoʻlqopli qoʻgʻirchoq) nomli oʻquv-uslubiy qoʻllanma Toshkent-2015
3. Утамуродова Ш.М. Взгляд на историю театрального искусства.// Colloquium-journal.
4. Чаброва Т.Л. Обучение Театрилизованной и творческой деятельности.Ташкент, 2021.
5. <https://uz.wiktionary.org/>

METHODS AND GAMES USED IN TEACHING ENGLISH TO OLDER PRESCHOOL CHILDREN

Qarshiyeva M.T.

Termez State University 1st year student

The 21st century is the age of information technology, how fast technology is entering our lives, English, which is recognized as a world language and has been accepted as a working language for many international organizations, is also spreading around the world with the same consistency.

The main task of learning English in kindergarten is to involve the child in the most interesting process of getting to know another language and culture of the country of the language being studied. Bright and positive impressions associated with the process of learning English in kindergarten form a child's positive motivation for his successful study at school.

The study of English is carried out through game activities: songs, poems, the use of audio and video materials, drawing. Early learning of foreign languages is such learning, which is carried out on the basis of an intuitive - practical approach in the period from 3 years before entering school. Preschool age is especially favorable for starting to learn a foreign language: children of this age are particularly sensitive to linguistic phenomena, they develop an interest in comprehending their speech

²² <https://uz.wiktionary.org/wiki/jest>

experience, the "secrets" of the language. They easily and firmly memorize a small amount of language material and reproduce it well.

The desire to learn how words familiar from childhood sound in an unfamiliar language contributes to the development of the child's curiosity, the comprehensive development of the child and his horizons.

In the classroom, the children get acquainted with vocabulary, elementary grammar, learn English poems and songs, put on skits. Systematic classes allow you to consolidate the material being studied, the importance of the development of the child through the game allows you to make classes exciting and not boring.

Play is a child's natural and humane form of learning. Teaching through play, we teach children not in the way that it is convenient for us, elder, to give educational material, but as it is natural and convenient for children to accept it.

The use of a variety of useful and interesting methods is important in developing their interest in the English language.

1. Watching cartoons in English.

Learning happens when we do something interesting: listen to music, watch a movie, cartoon, and communicate with an interesting person. Krashen believes that acquisition is more effective than learning. He advises devoting more time to natural perception, rather than mechanical learning²³ That is why audiovisual authentic materials need to be used in teaching children as a means of promoting interactive learning methods: in order to study the language in a natural way, it is recommended to use interesting materials. No acquisition will occur if the child learns from boring textbooks. Children are easily interested in the plot of cartoons, so they watch them with pleasure. For example, while watching, the perception of natural English speech by ear is trained, the correct pronunciation is formed. The child quickly memorizes new words and phrases if they are associated with a scene from a cartoon. Besides, a large selection of cartoons in English allows you to choose a story on any subject. It is also easy to choose materials for different ages. They can be used at any time during the teaching or training as long as they are relevant to the point or have been designed with a specific purpose.

2. Learning English together with child's family.

Family members and caregivers are key to a child's behavior. The little ones learn how to behave by observing the world around them, and by imitating what they see. Therefore, in order for children to want to learn English, people around them also have to demonstrate a certain eagerness to learn the language (they may already speak it). Just like how parents should provide a good example to motivate kids to learn how to read, they should also provide a good example to motivate them to learn

²³Poštič, S. (2015) Influence of cartoon network on the acquisition of American English during childhood, *Verbum*, 6, 188-195.

English. If there's an English-speaking environment at home created by parents or caregivers, a child will easily get used to using it as a second language and will learn it naturally. There is no better way to motivate a child than to show them the impact of what they are learning. If they think it is useless, they will not show any interest. Finding a way to show the practicality of English is crucial if we want children to be excited about learning. This can be done in many ways: by traveling, or communicating with other children who do not speak their own language.

3. Learning poem and songs in English

Their use in the teaching of English is undoubtedly very natural. We cannot deny that, as human beings, we have a special ear for music. If we try teaching alphabets to a child, for example, we will realize that the child picks them up faster and hence will memorize them better if we sing them out for them. Songs are a form of language that use tones and rhythm and they are also the media of universal language for everybody. Another important reason is that songs make up a powerful means of teaching English at all ages. We can use songs as a classroom activity in order to enrich our students' vocabulary or to improve their grammar and the different English accents. Singing songs not only helps children remember important information but it also makes the classroom learning more lively, as it was stated by Linda Campbell and Bruce Campbell ²⁴

4. Playing games with a child to in learning English.

Play is a very significant part of what life means to children at this stage of their development. Teachers should therefore promote learning through play as much as possible. Games with flashcards, competitions, races, and so on, are among the most exciting ways in which children learn. As well as encouraging active learning, they help develop social skills. While games are well documented as being beneficial for learning at any age, their presence is non-negotiable for learning in young people. Cognitive psychologists, doctors and educators agree that games are key to healthy development in childhood, starting as early as 1896 with the work of Karl Groos who argued that, through play, kids practise the skills necessary for survival in adulthood. After all, play lets children demonstrate and practise not only what they know but also what they don't know. It helps them to:

- find solutions to problems as they arise through trial and error
- negotiate meaning
- investigate social interactions
- work out the best timing, movement and strategy
- build new skills and confidence.

²⁴Campbell, L. and Campbell, B. (1996). Teaching and Learning through Multiple Intelligence. Needham Heights, MA: Allyn & Bacon.

Referances:

1. Holden, S. (1980). Teaching Children. London: Modern English Publication
2. Postic, S. (2015) Influence of cartoon network on the acquisition of American English during childhood, Verbum, 6, 188-195.
3. Campbell, L. and Campbell, B. (1996). Teaching and Learning through Multiple Intelligence. NeedhamHeights, MA: Allyn&Bacon.
4. KappasA.Zh. "New generation- new methods of foreign language teaching.
5. M.Alizadeh. International Journal of Research in English Education journal. The impact of motivation on English language learning. 2016.18.11. 14-page.



MAKTABGACHA TA'LIMNING YURTIMIZDA TUTGAN O'RNI

Qaxxorova S.M.

*Toshkent shahridagi YODJU texnika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamalakatimizda maktabgacha ta'limga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ularda maktabgacha ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihatlari belgilab berildi [1]. Xususan, yangi tuzilgan Maktabgacha ta'lim vazirligi oldiga shu soha bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviyestetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari - O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni,

nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim – maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, individual ruxiy holati, va ehtiyojlarini hisobga olgan holda bolalarga ta'limtarbiya berishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon bolalarda ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashiga qaratilgan jarayon hisoblanadi [2]. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan yurtimizning jahon hamjamiyatida qay darajada o'rin egallashi, o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq bo'ladi. Shuningdek yosh avlodning qanchalar bilimli, etuk, komil, erkin fikrlaydigan va o'z menini yarata oladigan, qisqa qilib aytganda yurt uchun o'z hissasini qo'sha oladigan bo'lib etishishi ta'lim tizimiga qo'ygan ilk qadami bilan boshlanadi. Bola maktabgacha ta'lim tashkiloti ostonasiga qo'ygan qadami, uning ilk qadami hisoblanadi. Bu dargoh murg'ak qalblarga ilm eshiklarini ochuvchi, uni yuqori marralar tomon etaklovchi nurli maskan hisoblanadi. Nima sababdan hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tizimin itakomillashtirish davr talabiga aylanmoqda, degan savol tug'iladi, albatta. Chunki bola tug'ilgandan so'ng etti yoshgacha bo'lgan davr uning uchun eng muhim davrdan biri hisoblanadi. Bola bu davrda o'z hayoti uchun kerakli bo'lgan barcha ta'lim- tarbiyani olishi va u olgan ta'lim- tarbiyasi umr yo'llarida hamrox bo'lishi hammamizga ma'lum albatta. Bu ta'lim- tarbiyani biz kelajak poydevori deya atasak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bolalarning bu yoshlarida ularga ota-onalari tomonidan qaratilgan e'tibor ham ularning hayotlarida kata o'rin egallaydi. Agar bolaning oila a'zolari uni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bersalar, bu bolaning ta'lim tarbiyasiga juda katta ta'sir o'tkazadi [3]. Xususan, bu tashkilotlarda ta'lim va tarbiya pedagog tarbiyachilar tomonidan mahoratli ravishda berib boriladi. Bola o'z do'stlari bilan, atrofdegilar bilan, tarbiyachisi bilan bo'ladigan munosabatlarda o'z fikrini va qarashlarini bildiradigan bo'lib voyaga etadi. Bu jarayonlarda, ya'ni bolaga ta'lim -tarbiya berish jarayonlarida pedagoglarda juda kata mas'uliyat, sabr toqat, ishga o'zgacha yondashuv talab qilinadi. Bolaning kelajakda qanday faoliyat bilan shug'ullanishini bevosita tarbiyachilar belgilaydi. Bolalarga ta'lim-tarbiya, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar ko'rinishida, o'yin faoliyatida va bir necha usullardan foydalangan holda berib boriladi. Kerakli tarbiyaning ko'p qismi avvalo pedagog orqali amalga oshiriladi. Agar pedagog qanchalar tarbiyalangan va malakali bo'lsa u tarbiyalagan bolalar ham shunchalar tarbiyali bo'ladi. Tarbiyachilar bolalarga u yosh davrlarida o'tkan mashg'uloti yoki o'yin faoliyatida bergan bilimlari uning odatiga ham aylanib qoladi va hayotining keyingi bosqichiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi [4].

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'in i hisoblanadi. U bolani sog'lom, rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ehtiyojini uyg'otib, tizimli ta'limning keying bosqichiga tayyorlab beradi. Hozirgi kunda o'z o'rnida hamma ham maktabgacha ta'lim tashkilotlariga farzandlarini olib bormaydilar. Bilmaydilarki, bu jarayon o'ta murakkab jarayon. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan va bormagan bolaning o'rtasida juda kata farq

bo'ladi. Masalan, bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga borar ekan bola erkin fikrlashni, o'zgaralar bilan tez muloqotga kirishishni, o'zida ta'lim - tarbiyaga oid bilimlarni, atrof muhitni, uni o'rab turgan zaminning turfa xil ne'matlarini atrofda predmetlar haqidagi to'liq malumotlarni, mashg'ulotlar orqali kerakli bilimlarni oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan bolaning ko'zi yonib turadi. U hamma narsani yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'rganishga, u narsa haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadi. Bolaning bu yosh davri shijoatga to'la, doimo harakatta bo'ladigan davri hisoblanadi. Mana shu davrni tarbiyachilar va ota-onalar hamkorlikda bilim olishga yo'naltirsalar, bu albatta bola uchun ham, ota-onalar va jamiyatimiz uchun ham, eng katta rivojlanish bo'ladi. Chunki har bir bolaning ijobiy tomonga o'zgarishi bu jamiyatning o'zgarishiga olib kelsa ajab emas albatta. Endi biz maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormagan bolaning qanday bo'lishi haqida aytib o'tadigan bo'lsak, bunday bolalar uzluksiz ta'limning keying bosqichi bo'lgan maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, ularda kuchli hayajon va o'z navbatida qo'rquv ham paydo bo'ladi. Ular atrofda o'zaro ijobiy munosabatlar o'rnatolmay, dars jarayonida qiynalishi oqibatida odamovi, fikr bildirolmaydigan, borliqni to'laqonli his qila olmaydigan bo'lib voyaga etishi mumkin. Qolaversa tengdoshlaridan orqada qolayotganidan ruhiy zarba eyishi ham mumkin[5]. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borgan bola ta'limning keyingi bosqichi bo'lmish maktab ostonasiga qadam qo'yadi. Maktabda bo'lsa bola hech qachon qiynalmaydi. Zukko, zehni va barkamol bo'lib voyaga etadi. Hatto o'z tengdoshlaridan ajralib turishi ham hech ajablanarli holat emas. Muhimi ular o'zining g'oyalari, dunyoqarashlari bilan yutimizga o'z hissasini qo'shadigan komil inson bo'lib voyaga etadi. Bizning yurtimizga mana shunday shijoatli, ilg'or, teran fikrli, doimo oldinga qarab qadam qo'yadigan, yangi g'oyalar ishlab chiqaradigan har tomonlama rivojlangan farzandlarini etishtirish lozim. Chunki ular bizning vatanimizni, O'zbekistonimizni yuksak marralar tomon etaklaydilar. Shuning uchun ham hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, bizning asosiy vazifamiz va hozirgi davr talabi bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondler faol ishtirok etadi. Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o'qitish darajasi hamda sifatini o'rganishga, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni rivojlanishi, uning etuk komil inson bo'lib voyaga etishida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni benihoya kattadir.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to’g’risida”gi qarori. 2018-yil 29-sentyabr.
2. Абдурахимова Д.А. Ёш авлод таълим-тарбиясида халқ мақолларининг тарбиявий аҳамияти // Замонавий узлуксиз таълим муаммолари:инновatsия ва истиқболлар. Халқаро конференция материаллари.Тошкент, 2018. – Б. 49-51.
3. Джўраев Р.Х., Шокирова А.А. Мактабгача педагогика модули бўйича ўқув-услугий мажмуа. – Т.: А.Авлоний номидаги ХТТРМХҚТМОИ, 2018. -44-45-б.
4. ”Ilk qadam”davlat o’quv dasturi.
5. Qodirova F., SH.Toshpo’latova, M. A’zamova. Maktabgacha pedagogika T:Ilmziyo.2019-y

XALQ CHOLG’U ASBOBLARINING SHAKLLANISHI HAMDA IJROCHILIK SAN’ATINING TAKOMILLASHUV JARAYONI

Qosimov A.B.

*Nizomiy nomidagi TDPU “Musiqqa ta’limi va san’at”
magistratura mutaxassisligi I-kurs magistranti
azizjonqosimov@gmail.com*

Xalq cholg’ulari uzoq o’tmishda paydo bo’lgan. Ma’lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg’ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqa cholg’ulari oilasi tarixida dastlab urma zarbli cholg’ular paydo bo’lgan. Buning asosiy sababi eng qadimgi ibtidoiy odamlar mehnatining ijodiyot mahsulidir. Ilk ibtidoiy odamlar hayvonlarni qorin to’yg’azish g’amida ov usullaridan foydalangan holda qo’lga kiritishga harakat qilgan. Hayvonlarning terisini qurigan daraxtning kundasi ustida qoldirib ketgan. Jazirama issiqda teri qotib qolgan. Keyingi safar odamlar kelib, terini olishga har qancha ham urinsa-da, biroq, ololmagan va keyin terini ustiga qo’li yoki biror tayoq bilan ursa u o’zidan baland, yoqimli sado chiqargan, uni keyinchalik dovul deb ataganlar. Undan keyin shovqinli cholg’ular paydo bo’ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta’kidlagan, shovqinli cholg’ular ta’sirini ko’paytirganlar [3; 41-b].

Ijrochi ayollarning chapak zarblari o’ziga xos, takrorlanmas go’zal holatni vujudga keltirgan. Shunday mehnat jarayonlarida odamlarning ongi tabiiyki kuy, ohang, qo’shiq bilan band bo’lgan. Samarali mehnat natijasida qo’shiqlar paydo bo’la boshlagan va ular sekin-asta og’izdan-og’izga, otadan-o’g’ilga, onadan-qizga o’tib shakllangan va odamlar qalbidan bir umrga joy oldi [1; 23-b].

Qadimgi sharq madaniyati bag’rida, o’zbek xalq cholg’ulari shakllandi. Ular ko’p asrlik taraqqiyot davomida o’ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. Shu tariqa chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g’ijjak, qo’bizlar an’anaviy shakllarda bizgacha etib keldi.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal'a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog'ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg'ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi [2; 65-b].

O'zbek xalq cholg'ulari ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. 1933 yilda olib borilgan arxeologik qazilmalarda topilgan materiallar qadimiy adabiy manbalar o'zidan ilgari turli musiqa asboblari bo'lganlikdan dalolat beradi. Eramiz boshlarida xalq cholg'ularidan kundalik turmushda, ovda, saroy hayotida madaniy bayram marosimlarida, xalq sayllarida keng foydalanilganligi yozma manbalarda o'z aksini topgan. Xalq cholg'ulari asrlar davomida insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib tadrijiy ravishda rivojlandi va takomillashdi. Moddiy madaniyat yodgorliklari, tasviriy san'at rasmlari, jumladan, devordagi rasmlar sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning XII asrdayoq ikki turdagi xalq cholg'ulari ansambllari mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot beradi.

- damli va urma zarbli cholg'ular bo'lsa, ikkinchisi
- torli va mizrobli (chertma) cholg'ulardan iborat bo'ldi.



1-rasm

Xalq ijrochiligi xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy aloqada rivojlangan. O'rta asrlarda xalq musiqa ijodining og'zaki an'analari keng tarqalgan bo'lib, ular cholg'u musiqasining har xil janrlarini qamrab olgan edi. To'y-tomosha (navro'z, hosil bayrami) xalq og'zaki ijodining an'anaviy intonatsion (talaffuz) tuzilishi bilan bog'liq maqom turkumlari singari rang-barang musiqa san'ati turlari ulkan madaniy meros sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Chunonchi, yurish hamda taqlidga asoslangan uyg'un, "Harbiy musiqa" shakllanadi. U harbiy yurishlarda, turli marosim va tantanalarda, shuningdek, saroy a'yonlari huzurida ijro etilgan.

Musiqa cholg'ularida har bir xalqning milliy o'ziga xos xususiyatlari, an'anasi, urf-odat va qadriyatlarini o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiy cholg'ularda ijrochilik san'ati insoniyat ma'naviyatini tarannum etuvchi vosita sifatida xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, rivojlanib kelmoqda [4; 5-b]. Milliy cholg'ular mohir soz ustalari tomonidan tobora mukammallashtirilib, jarangliligi, musiqaviyligi va ohangdorligi bilan ajralib turibdi. Musiqiy cholg'ular tarixiy rivojlanish davomida ularga nisbatan talab va ehtiyojning oshib borishi bilan ularning ta'limiy va tarbiyaviy tomonlariga ham e'tibor shu qadar kuchayib bormoqda.

Oʻrta asrlarda musiqa ijrochiligi bir-biridan farqli oʻlaroq uch xil mustaqil uslub kasb etdi. Ularning birinchisi Fargʻona-Toshkent ijrochilik yoʻnalishi, ikkinchisi Xorazm ijrochilik yoʻnalishi va nihoyat, uchinchisi Buxoro-Samarqand ijrochilik uslubi. Tuzilishiga koʻra, oddiygina kuy qoʻshiqlar bilan bir qatorda lad tonalligiga koʻra murakkab vokal cholgʻu musiqa shakllari bilan maqom turkumlari mavjud boʻlgan [5; 62-b].

Xorazm viloyati va Turkmaniston musiqasida dostonlarga asoslangan turkumlar: “Goʻroʻgʻli”, “Alpomish”, “Oshiq gʻarib va Shohsanam”, “Bahrom va Dilorom” kabilar, Fargʻona viloyatida esa yakka cholgʻu musiqasi (katta ashula, yakparda va boshqalar) shakllandi. Anʻanaviy ijrochilik sanʻati improvizatsiyaga asoslangan boʻlib, cholgʻuchidan aynan ijodiy munosabatda boʻlishni talab etardi. Bunda musiqa ijro etilayotganda har gal yangicha, qayd etilmaydigan ijro usullari qoʻllanilgandi Bu omillar ijrochining oʻziga xos ijodiy tafakkurini va betakror talqin yoʻsinini namoyon etishga imkon bergan. Anʻanaviy ijrochilik sanʻati bugungi kunda hali ham tinglovchilarning eʼtiborini qozonmoqda. Shu bois musiqa madaniyatining ijtimoiy hayot bilan bevosita aloqadorligini nazarda tutgan holda uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: [3.,4.].

- musiqa sanʻati ibtidoiy jamiyatda xalq turmushi va mehnat jarayoni bilan uzviy bogʻlangan; bunda cholgʻular keng qoʻllanilgan. Masalan, “Navroʻz” tantanalarida cholgʻuchilar tanbur, dutor, nay, chang, rubob, doira (daf, childirma) singari cholgʻularida ajoyib kuy va qoʻshiqlar ijro etishgani;

- eng qadimgi xalq ogʻzaki musiqiy sheʼriy ijodiyotning shakllanishi ham xalq cholgʻulari taraqqiyoti bilan uzviy bogʻliq boʻlgani;

- oʻrta asrlarda xalq cholgʻulari, turlarining paydo boʻlishi va qoʻllanilishi — jamiyat taraqqiyoti yuksalishining samarasi boʻlganligi;

- XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi xalq cholgʻularida ijrochilik sanʻatining rivojlanishi yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit hamda Yevropa madaniyati taʼsiri bilan bogʻliqligi;

Shunday qilib, oʻzbek xalq cholgʻularining paydo boʻlishi va takomillashishining boy tarixi bilan bogʻliq bilimlar yosh ijrochilarga yakka navoz, ansambl ijrochiligida ifoda va ijrochilik sanʻati taraqqiyoti qonuniyatlarini ochishga yordam beradi. Shuningdek, xalq orasidan yetishib chiqqan bastakorlarning oʻzbek xalq cholgʻulari uchun yaratgan musiqiy asarlari yillar oʻtgan sayin xalq orasida takomillashdi, rivojlandi va gurkirab yashnadi.

Adabiyotlar:

1. Abdukarimov M. Cholgʻushunoslik. Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2005. 176 b.
2. Ikromov I. Doyra darsligi. Toshkent, Gʻ.Gʻulom, 1997. 195 b.
3. Lutfullaev A. Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi Toshkent, Musiqa. 2003. 192 b.
4. Nurmatov X. Qashqar rubobi. Toshkent, Navroʻz, 2003. 218 b.
5. Odilov A., Lutfullaev A. Musiqa asboblari – Chang. Toshkent, Musiqa, 2002. 205 b.

**“MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI ERKIN KASB
TANLASHGA YO'NALTIRISH BO'YICHA “AQLLI BOG'CHA” INNOVATSION
MODELINI YARATISH” ZARURIYATI**

Qosimov I.

Toshkent arxitektura-qurilish instituti, texnika.f.d. professor

E-mail: qosimov-erkin@mail.ru

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. [1].

Shularni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida”gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-son Farmoni hamda “Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-son Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2019 yil 13 maydagi 391-son qaroriga muvofiq, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish lozimligi belgilab berilgan. [2].

Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion va AKT keng joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalarida STEAM ta'lim elementlarini tatbiq etish, shuningdek, bolalarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan, shaxsga yo'naltirilgan, erkin ijodiy muhitni yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. [3].

“Ilk qadam”dasturida MTT ta'lim jarayonining tamoyillari belgilab berilgan ular quyidagilardan iboratdir: bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari va salohiyatlarini hisobga olish; ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi; bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish; bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash; o'yin orqali ta'lim berish

va rivojlantirish; bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish; bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash. [4].

“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni erkin kasb tanlashga yo‘naltirish bo‘yicha “Aqlli bog‘cha” innovatsion modelini yaratishdan ko‘zlangan asosiy maqsad “Aqlli bog‘cha” innovatsion modeliga asoslangan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida texnika, tibbiyot, san’at, AKT va qishloq xo‘jaligi sohasiga yo‘naltirilgan kasb xonalarini tashkil etish, mazkur xonalardagi bolalarning faoliyatini kuzatish, ularning kasbiy qiziqishlarini yosh va individual-psixologik hamda kognitiv darajalarda o‘zgarib borishi monitoringini yo‘lga qo‘yishning dasturiy platformasini ishlab chiqish, shuningdek, monitoring va elektron ma’lumotlar bazasi asosida bolalarni kasbiy qiziqishlarini rivojlanish kartasini yaratishdan iborat.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalari rejaviy echimida asosiy va ustuvor bo‘lgan muammolarni hal qilish borasidagi ilmiy vazifalar quyidagicha:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston va yetakchi xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish, umumlashtirish;

- “Aqlli bog‘cha” innovatsion modeliga asoslangan maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi maxsus kasb xonalarida bolalarni kasbga yo‘naltirish faoliyatini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish;

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbiy qiziqishlarni yosh va individual-psixologik hamda kognitiv darajalarda o‘zgarib borishi monitoringini yo‘lga qo‘yishning dasturiy platformasini ishlab chiqish;

- bolalarni kasbiy qiziqishlarini rivojlanish kartasini yaratish.

- tipologik innovatsion bog‘cha loyihasini mamlakatimizning turli hududlariga targ‘ib qilish;

- maktabgacha ta’lim muassasalari hududiga mos kichik me’moriy shakllarni to‘g‘ri tanlash;

- ota-onalar uchun farzandining istiqbolini belgilash, kasbga yo‘naltirish, jamiyatning eng muhim strategik vazifasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning poydevori bo‘lgan intellektual va har tomonlama garmonik rivojlangan shaxslarni tarbiyalash;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning innovatsion faoliyatida yaxlit tizimni yaratishning tashkiliy metodik takomilni takomillashtirish o‘quv dasturlarni ishlab chiqish ularni didaktik pedagogik ta’minotini takomillashtirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni “Aqlli bog‘cha” innovatsion modeliga asosida kasbga yo‘naltirishda quyidagilarga ishlar amalga oshiriladi.

– Kasb xonalardagi bolalar e’tiborini tortuvchi muhitda ularni yoshlariga ko‘ra anglash, tasavvur qilish va qiziqishlarini kompyuterdagi ma’lumotlar asosida ta’lim, tarbiya va psixologik o‘zgarishni ilmiy-amaliy asoslarini yaratish.

– Bolalarni kasbga qiziqishiga oid muhitni oilada joriy etishni amalda tadqiq etish va ular ongini shakllanishi samaradorligini ilmiy tomondan asoslash.

– Bolalar yoshidagi tafovutni inobatga olgan holda, ilg‘or fikrlovchi, yoshi katta bolalar bilan birga bo‘lishi va istalgan xonalarida birgalikda tahsil olishning samaradorligini tadqiqot etish.

– Maktabgacha 3-7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni to‘rt yilda tanlagan kasb yo‘nalishidan tashqari ikkinchi kasbga qiziqishida bola ongining shakllanish samaradorligini tahlil qilish.

– Bola ongini shakllanish jarayonini ilmiy-amaliy ishlar asosida tahlil qilinib, olingan xulosalar asosida milliy qadriyatlarimizni ulug‘lovchi maxsus dasturlar ishlab 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalari uchun mobil telefon ilovalarini yaratishga doir dastur yaratish.

“Aqlli bog‘cha” — loyihadagi bolalarni kasb tanlashini amaldagi ijrosini ta‘minlaydigan ixtisoslashgan tarbiyachi va murrabiylar uchun, pedagogika kollejlari, oliy o‘quv yurt talabalariga mo‘ljallangan uslubiy ko‘rsatmaning ilmiy-amaliy asosini yaratish

“Aqlli bog‘cha” innovatsion modelini yaratishda asosan xorij tajribasini o‘rganish, mavjud zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini solishtirilishi sababli taqqoslash metodidan, ularni tahlil etish uchun tahliliy metod va statistik metodidan, chet el tajribalaridan foydalangan holda tatbiq qilish metodidan foydalaniladi.

Adabiyotlar:

1. «Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3955-son Xalq so‘zi 30 sentyabr ,2018 y

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2019 yil 13 maydagi 391-son qarori

3. O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini. 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son

4 . “Ilk qadam” davlat dasturi.T.: 2018 y

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI KASBIY KOMPETENTLIGINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIKLARI

Qosimova D.B.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Maktabgacha pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning muvaffaqiyatga erishishi eng avvalo odamlarning o‘z ishlariga mas‘uliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamlakat taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog‘liq. Jamiyatda

pedagog shaxsi (o'qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va mas'uliyatli vazifalarni bajaradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. S.N.Litvinovanning yozishicha, pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi talab etiladi[4]. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatlilik, g'oyaviy e'tiqodlilik o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat tufayli o'qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi.

G.Sh.Raxmonovanning ta'kidlashicha, pedagog – tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasi chuqur bilishi bolalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Shu bilan bir qatorda pedagog – tarbiyachining obro'sini oshiradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan yana biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo'la oladi. Bolaga befarq uning kelajagi va qiziqmaydigan tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog – tarbiyachi bo'la olmaydi[6].

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'liqdir. V.A.Noviskaya pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik qobiliyatlarning rolga alohida e'tibor qaratadi. Muallifga ko'ra, pedagogik qobiliyatlar — pedagogik mahoratiga erishishning asosiy sharti bo'lib, pedagogik qobiliyatlar tarkibiga:

- pedagogik kuzatuvchanlik;
- pedagogik tasavvur;
- diqqatni taqsimlash;
- tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi[5].

Shuningdek, N.V.Kuzminaning fikricha, pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik qobiliyatlar – bu yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi, o'ziga xos pedagogik va psixologik xususiyat sanaladi[3].

Tadqiqotchi I.N.Asaevaga ko'ra, tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllanishi ba'zi kasbiy o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladi: Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga

madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo'ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnati natijalarini asrab- avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Xalq san'ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san'atni bilish, san'atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi[2].

Sh.Sodiqovanning qarashlariga ko'ra, pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan kishi bo'lishi kerak.

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi kerak.

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun faollashtirib savollardan foydalanishi kerak.

4. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi kerak.

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi kerak.

6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila olishi zarur.

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim.

8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi kerak.

9. Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoxlik munosabatida bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo'lsa ovuntira olishi kerak.

10. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak[1].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari

uchun imkoniyat yaratishi kerak. Shu boisdan zamonaviy tarbiyachi, birinchi navbatda, mustaqil, ijodiy va o‘ziga ishongan shaxs bo‘lishi, o‘z kasbini chindan sevishi, kasbiga bilim va ko‘nikmalarni muntazam ravishda rivojlantirib borishi talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 268 bet.
2. Асаева И. Н. Развитие профессиональных компетенций воспитателей дошкольных учреждений разных видов //Известия Российского государственного педагогического университета им. АИ Герцена. – 2009. – №. 112. – С. 79-87.
3. Кузмина Н. В. Педагогическое мастерство учителя как фактор развития способностей учащихся //Вопросы психологии. – 1984. – Т. 184. – С. 20-26.
4. Литвинова С. Н. Трансформация компетенций педагога дошкольного образования: от аналогового к цифровому педагогу, от прошлого к будущему //Компетенции воспитателя-условие развития навыков будущего у дошкольника. – 2020. – С. 22-26.
5. Новиская В. А. Методическое сопровождение воспитателя в условиях современного дошкольного образовательного учреждения //автореф. дис.... канд. пед. наук. – 2007.
6. Рахмонова Г. Ш. Компетенция воспитателя дошкольного образовательного учреждения //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).



BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIVLIGINI OSHIRISH

G‘afforova D.A.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
gafforovadilshoda@mail.ru*

Bizga ma‘lumki hozirgi zamon talablariga asosan yuqori malakali pedagog kadrlarga ehtiyoj katta. Buning uchun pedagoglarning kreativligini oshirish muhim masalalardan hisoblanadi. Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tatbiq etish pedagogdan nafaqat yuqori malakani va kasbiy rivojlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Pedagogning kreativligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqish va yaxshilash barchaga ma‘lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Kreativlik (lot., ing. “create ” – [yaratish](#), “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma‘nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit

holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

Kreativlikni:

Ijodga intilish,

Hayotga ijodiy yondashish,

O'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin.

Hozirgi kunda pedagoglarning kreativligi uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotidagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Pedagogning kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi va xorijlik tengqurlari bilan raqobatbardosh bo'lib ulg'ayishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish borasida qilinayotgan ishlar izchil va keng ko'lamda davom etmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni texnologiyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan. Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni texnologiyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan.

Muhtaram Prezidentimiz ham har bir anjuman va yig'ilishlarida ham yosh avlod tarbiyasi haqida fikr yuritadilar. „Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" deya ta'kidlaydi Prezidentimiz.

Farzandlarimizning zamonaviy bilimlarni egallashlari bo'lajak pedagoglarning mehnatlari sa'y harakatlari natijasida bo'ladi. Zamonaviy pedagoglar har sohada ilg'or va yetakchi bo'lishlari bugungi davr talabi hisoblanadi. P. Torrens fikricha, kreativlik: muammoga yoki [ilmiy farazlarni ilgari surish](#);

farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlarga e'tibor qaratish lozim:

- bo'lajak pedagoglarni qiziqtirgan va ularni ikkilantirgan savollarga doimo javob berish, ularning savol berishlarini rag'batlantirish:

- bo'lajak pedagoglarning mustaqil faoliyatlarini qo'llab quvvatlash va mustaqillikka undash:

- mustaqil faoliyatni tashkil etish uchun shart sharoit yaratish

- bo'lajak pedagoglarning qiziqishlariga e'tibor qaratish:

- tajriba va sinov ishlarini o'tkazishlariga imkon berish:

- qiziqishlarga oid izlanishlarni to'g'ri yo'naltirish:

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

- tavakkal qilishdan qo'rqish

- fikrlash va hatti harakatlardagi qo'polliklar

- fantaziya va tasavvurning haddan tashqari bo'rttirilish

- boshqalarga tobe bo'lish

- o'z fikrini bayon etishdan qo'rqish ikkilanish

- dangasalik yangilikka intilmaslik va yangiliklarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar

- yosh bolalarning yangi o'yinchoqni o'ynayotgan vaqtida uning qo'liga urish(bu kabi holatlar ko'pincha bolalik va o'smirlik davrida bo'ladi va bolalarning ijodkorlik qobiliyatlari so'nadi)

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent - „O'zbekiston"-2016.

2. Xo'jaev N., Xoshimova M., Hakimova M. va boshqalar. Pedagogika.(darslik)-T.:TDIU,2007.

3. 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

4. Muslimov N.A., Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish''/Monografiya.- T.:Fan, 2004

5. Muslimov N.A. „Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi''/Monografiya.- T.:Fan va texnologiya nashriyoti, 2013.



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING MUSTAQILLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MEHNAT FAOLIYATINING TA'SIRI

Hamdamova M.T.

Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta'lim fakulteti dekani, PhD, dotsent v.b.

Temirova B.K.

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti 1- kurs talabasi

O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarni har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy amalga oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish"[\[1\]](#) kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish va ilmiy-metodik ta'minotini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo'llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish doimiy va maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. Shu nuqtai nazardan amaldagi o'quv-tarbiya jarayonining tadqiqi va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan metodikalarni takomillashtirish zamonaviy talablarga mos mutaxassislarni yetishtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning ijtimoiy foydali ishlarda to'g'ri ishtirok etishi erta, hayotning ikkinchi yili atrofida boshlanadi. Hatto jismonan va ma'naviy jihatdan cheklangan kichkina bola ham ish topshiriqlarini bajarishda, xonada, saytdagi narsalarni tartibga solish, idishlarni tozalash, qo'g'irchoq uchun kiyim yuvish va hokazolarni almashtirish bilan bog'liq holda mustaqillik, hayotdagi faolligini namoyish etish imkoniyatiga ega. ma'lum siklik. Bu jarayonda nafaqat mehnat operatsiyalari takrorlanadi, balki odatdagi hayotiy vaziyatlar ham paydo bo'ladi. Shu bilan birga, ish topshiriqlarini bajarishda bolalardan muvofiqlashtirish, to'g'ri ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatish qobiliyati, tashkilotchilik va hamma uchun ishlash istagi talab qilinadi. Bunday ishlarni doimiy ravishda amalga

oshirish, maxsus hissiy munosabat (ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga tayyorlik, do'stiga, tarbiyachiga, enaga, onaga yordam berishdan mamnunlik) mehnat, qat'iyat, qat'iyatlilik, mehnat faoliyati motivlari va shu bilan birga maktabgacha yoshdagi shaxsning jamoaviylik tamoyillari boshqalarga nisbatan xayrixoh munosabat kabi ijtimoiy axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Ammo bu ijtimoiy foydali mehnatning yagona ta'siri emas. Bu bolalarga mehnat madaniyatining boshlang'ich ko'nikmalarini singdirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi: individual va jamoaviy ishlarni oqilona tashkil etish (masalan, guruh xonasida narsalarni tartibga solishda ishtirok etish), uni oldindan rejalashtirish, topshiriqni bajarish uchun kerakli materiallarni tanlash qobiliyati, ularga hurmat, qilish istagi yaxshi va o'z vaqtida ishlash. Bu, o'z navbatida, ushbu turdagi ishlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Uy ishlari jarayonida bolalarda narsalarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, eng kichik tartibsizlikni sezish qobiliyati va o'z tashabbusi bilan uni yo'q qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Ushbu ish maktabgacha ta'lim tashkilotida va uyda doimiy ravishda paydo bo'lib, u bolalarning har qanday faoliyatiga hamroh bo'ladi. Masalan, bir necha kun davomida bolalar katta qurilish materiallaridan qurilgan bino bilan o'ynashadi. Undan changni artib tashlash kerak. Yoki bola bo'yashni xohlaydi; u qalamni tanlab, singanlarini topadi, ularni buzishni boshlaydi. Shundan so'ng, bola axlat yig'ishi kerak, uni ma'lum joyga olib borishi kerak. Kundalik hayotda har doim qattiq ishlashga ehtiyoj bor: kimdir tasodifan o'yinchoqni, tarqoq erni, to'kilgan suvni bo'yab tashlagan. Yuvish, yig'ish yoki o'chirish kerak. Shunday qilib, bolalarni mehnatga, mehnat odatlariga tayyor bo'lishga o'rgatish uchun imkoniyat yaratiladi [2].

Ijtimoiy foydali mehnatning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, uning natijalari, boshqa mehnat turlarida bo'lgani kabi, ba'zan ko'rinmas bo'ladi. Bu ingl. Faqatgina qisqa vaqt ichida seziladi: ular changni artirdi, ertaga u yana paydo bo'ldi; kechki ovqat uchun stol qo'ying, ovqatlaning va hamma narsani olib tashlang. Va hech narsa bolalarga sarf qilingan kuchni, boshlangan ishni oxirigacha tugatishni eslatmaydi. Shu bilan birga, bir xil narsani kundun-kunga takrorlash ularga qiziqishni kamaytiradi. Bolalar ko'pincha tomosha qilishdan bosh tortishadi, ish olib borishmaydi yoki juda ehtiyotkorliksiz ishlashadi.

Kundalik hayotda har doim qattiq ishlashga ehtiyoj bor: kimdir tasodifan o'yinchoqni, tarqoq erni, to'kilgan suvni bo'yab tashlagan. Yuvish, artish yoki olish kerak. Shunday qilib, bolalarni mehnatga, mehnatga odatlarga tayyor bo'lishga o'rgatish uchun imkoniyat yaratiladi.

Mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirganda, bolalar harakatlarni bajarishda mustaqillikka ega bo'ladilar, tez, to'g'ri, aniq ishlashni o'rganadilar. Uy mehnatiga oid ko'nikma va ko'nikmalarni o'zlashtirish kundalik hayotda ko'proq faollik, harakatlarning tashabbuskorligini, turli xil mehnat jarayonlarini qo'shilishini ta'minlaydi [3].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, uy va maishiy ishlarda qatnashish, katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar uning kundan-kunga takrorlanuvchanligini, takrorlanishini his qilishadi. Bu ish yigitlardan katta sabr-toqatni, doimiy mehnat harakatlarini va kundalik o'zini o'zi nazorat qilishni talab qiladi. Tabiiyki, ular maktabgacha ta'lim tashkilotida tartibni o'rnatish va saqlash uchun kundalik ish vazifalarini bajarishdan ko'ra, epizodik xarakterdagi ishlarda ishtirok etishni ancha osonroq va xohlashadi. O'yinchoqlarni o'zlaridan keyin qo'yish; bo'yoqlar bilan bo'yashdan keyin bezaklarni yuvish, yopiq o'simliklarni yuvish va bolalar bu ishning zarurligiga aminlar.

O'qituvchining vazifasi bolalarda xo'jalik-uy ishlariga ijobiy va hissiy munosabatni tarbiyalash va saqlashdir. Buning uchun axloqsizlik, beparvolik, atrof-muhitga nisbatan hissiy — estetik sezgirlik uchun sabr-toqatni shakllantirishni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratish kerak. Agar bolalarni uy ishlariga jalb qilish orqali ularga har kim o'z ishiga ehtiyoj sezsa, bu vazifa muvaffaqiyatli hal etiladi. Jamiyat ishlarida qatnashish orqali keksa maktabgacha yoshdagi bolalar maktabda o'qiyotganda hayotda o'zlariga foydali bo'ladigan bir qator foydali amaliy ko'nikmalarni egallaydilar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil., 6-son, 70-modda.
3. Галигузова, Л.Н. Дошкольная педагогика: Учебник и практикум для академического бакалавриата / Л.Н. Галигузова, С.Ю. Мещерякова-Замогильная. - Люберцы: Юрайт, 2016
4. Ганеева А. С. Организация самостоятельной деятельности детей дошкольного возраста в соответствии с ФГОС // Вопросы дошкольной педагогики. — 2016 — №1.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY O'YINLAR ORQALI QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Haydarova M.G'.

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish, ularni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyat va an'analarimiz asosida voyaga yetkazishda ijodiy o'yinlarning o'rni haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ijodiy qobiliyat, ifodaviy sifatlar, qoidali-harakatli, kombinatsiyalash, emotsional, ertak personaji, sintez, tavsiflash.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль творческих игр в формировании творческих способностей дошкольников, их воспитании в духе патриотизма, воспитании в соответствии с нашими национальными ценностями и традициями.

Ключевые слова: творческая способность, сила воли, правило-действие, сочетание, эмоциональность, сказочный персонаж, синтез, описание.

Annotation: This article discusses the role of creative games in the formation of creative abilities of preschool children, their upbringing in the spirit of patriotism, upbringing in accordance with our national values and traditions.

Keywords: Creative ability, willpower, rule-action, combination, emotional, fairy-tale character, synthesis, description.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama ham jismonan, ham aqlan, ham ma'nan, ham ruhan tarbiyalab rivojlantirish lozimdir. Maktabgacha yoshidagi bolalarni bilish jarayonlari, hissiy irodaviy sifatlarni, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bugungi kunda har bir ota — ona, va pedagog-tarbiyachilarning birinchi galdagi vazifasidir.

Ijodkorlik qobiliyati insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning obyektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir.

Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko'rish tufayli bola o'yinchoq yasashdan oldin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta — sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin.

Bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin.

Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo'nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o'zing yasa, bir narsa o'yla, qidirib top, o'zgartir kabi) ko'rsatmalari bo'yicha bolalar pedagog-tarbiyachi bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar.

Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da'vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o'zlashtirgan ko'nikmalarni kombinatsiyalash va o'zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi.

Uchinchi bosqich — bolani turli faoliyatda fikrlash bo'yicha mustaqil harakat qilishga, o'z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o'rgatadigan topshiriqlardan

iboratdir. Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi gohida o‘yin elementlaridan, o‘yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular birgalikda tomosha qo‘yishni so‘raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O‘yinchoqlarning harakatlarini ko‘rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo‘ladi. Agar tarbiyachi mashg‘ulotda o‘yin usulini qo‘llayotgan bo‘lsa, u mashg‘ulot davomida o‘yinda qatnashadigan personaj to‘g‘risida oldindan o‘ylab qo‘yadi. Masalan, qo‘g‘irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotganligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko‘rishi mumkin. Keyin u bolalarning xatti-harakatlarini ma’qullaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish, ularni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyat va an’analarimiz ruhida voyaga yetkazishda ijodiy o‘yinlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Ijodiy o‘yinlar ta’limiy o‘yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar sirasiga kiradi. Ijodiy o‘yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O‘yinda o‘yin niyati, o‘yin qoidalari, o‘yin harakatlari o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. O‘yin niyati o‘yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O‘yin qoidasi esa, o‘yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o‘yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Ijodiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi.

Ijodiy o‘yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ijodiy o‘yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o‘yinlar mashg‘ulot jarayonida va o‘yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o‘tkaziladi. Bunda o‘yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Ijodiy o‘yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta’sir etish.
2. So‘ralganda javob berish.
3. O‘rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O‘yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O‘yin qoidasini bajarish.
6. O‘z xatosini tan olish.

Ijodiy o‘yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O‘yinda o‘yin tempi va ritmi katta rol o‘ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko‘p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o‘yin ishtirokchilarini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Ijodiy o'yinlarning quyidagi turlari mavjud: a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan; b) stol-bosma; d) og'zaki-so'z o'yinlari.

Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Stol-bosma o'yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tavsiflash) o'stirish imkonini beruvchi o'yin usulidir. Bu o'yin turiga a) loto; b) juft rasmlar; d) domino; e) labirint kiradi.

Og'zaki so'zli o'yinlari katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi. Ular bolaning eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o'rgatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yin turlarida ijodiy maqsad va o'yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoidali-harakatli o'yinlar asosini bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatlar tizimi egallaydi. Bunda asosan yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chiqish, uloqtirish, emaklash kabi harakatlar o'yin mazmunini belgilaydi. Qoidali-harakatli o'yinlar kelib chiqishiga ko'ra: a) xalq milliy o'yinlari; b) mualliflik o'yin turlariga bo'linadi.

Har ikkala o'yin turida ham asosiy mezon o'yin qoidasi bo'lib hisoblanadi. Harakatli o'yinlar harakatlarning aniqligi, ifodaliligi, bolalarda tezkorlik, epchillik, qo'rqmaslik, mardlik kabi oliyjanob fazilatlarni tarbiyalab boradi. Ko'pchilik harakatli o'yinlar jamoa bo'lib o'ynashga mos bo'lib, bu jamoada uyushgan holatda harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Qoidali harakatli o'yinlarni o'tkazishda bolalarga rolni to'g'ri taqsimlash o'yin jarayonini kuzatib borish, unga rahbarlik qilish, o'z vaqtida yaxshi harakatlarni rag'batlantirish o'yin nufuzini oshiradi. O'yin jarayonida quvnoq kayfiyat, ijobiy his-tuyg'ular yuzaga keladi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin ijodiy ochiq xarakterga ega bo'ladi. Masalan, "To'pni quvla!", "To'pni ushlab ol!". Katta yoshdagi bolalar uchun o'yin maqsadi, qoidasi va o'yinni tashkil etish murakkablashadi. Qoidali-harakatli o'yinlar avval jismoniy tarbiya mashg'ulotida o'rganiladi. So'ngra boshqa jarayonlarda takroran o'ynatilishi lozim. Milliy xalq o'yinlari ikki guruhga bo'linadi: 1. Milliy harakatli o'yinlar. 2. Milliy xalq o'yinlari.

Milliy harakatli o'yinlar sport turlari bilan hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U

bolalarning jismonan baquvvat, sog'lom, jasur, qat'iyatli, chaqqon, uddaburon bo'lib o'sishlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Xalq milliy o'yinlarida millatning o'tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analari jamlangandir. Xalq milliy o'yinlari orqali bolalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolalarda o'z vatanini sevish, uning boyliklari qadriga etish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo'shiqlardan zavqlanish tuyg'ulari, shuningdek o'sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlilik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi. Milliy harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o'yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi. O'zbek xalqining ermak va ovutmachiq o'yinlaridan asosan bolaning ilk yosh davridan boshlab shug'ullanib boriladi. Bu o'yinlar asosan kattalarning bevosita rahbarligida harakat va so'zlarning uyg'unlashuvi bilan o'ynatiladi. Masalan, "Barmoqlar", "Sichqon-sichqon" o'yinlari orqali bolalarda xushchaqchaqlik kayfiyatlari hosil qilinib tasavvurlari o'sib boradi.

Shuni aytish lozimki, ota-onalar hamda pedagog-tarbiyachilar ilk yoshlikdan boshlab, bolani nimalarga qiziqishi qaysi o'yinchog'ini sevib o'ynashi, bo'sh vaqtida mashg'ul bo'ladigan faoliyatini aniqlab, uni tug'ma layoqatini aniqlab, uni imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun qulay shart-sharoit, ijtimoiy muhit, qulay psixologik iqlim yaratib bersalar, mustaqil davlatimiz kelajagi bo'lmish, har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli, yuksak ma'naviyatli, takrorlanmas qobiliyatli barkamol avlodni tarbiyalashdek muhim vazifaga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan bo'lar edilar.

Adabiyotlar:

1. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. – T.; 2010. – 90 b.
2. F.R. Qodirova, SH.Q. Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur" -T., 2019
3. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo'llanma.
4. D.T Sabirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda [tasviriy savodxonlik](#) elementlarini shakllantirish. (13.00.01.-Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo'yicha yozilgan dissertatsiyaning avtoreferati). T.2007
5. "Bola shaxsini rivojlanishining dolzarb muammolari". Xalqaro ilmiy- amaliy anjumanining tezis va maqolalar to'plami. 2008 yil.
6. Djalalova D.X. Osnovnie tendentsii razvitiya sovremennoy yaponskoy shkoli. Avtoreferat dis.k.p.n. 2004.

TURLI YOSH GURUHLARDA BOLALARNI O‘YINCHOQLARGA QARAB HIKOYA TUZISHGA O‘RGATISH USULLARI

Babayeva D.R.

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrası

Professori

Meliyeva A.M., Maxamadaliyeva F.A., Ne’matullayeva O.S.

talabalar

O‘yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan ko‘p o‘yinchoqlar (shaqildoqlar, rezina ko‘ptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada ko‘rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlar harakatlari va buyumli harakatlarni o‘stirishga yordam beradi. O‘yinchoqlarni turlari va ko‘rinishlari bo‘yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

- syujetli-obrazli;
- texnika o‘yinchoqlari;
- qurish–yasash, qurilish materiallari o‘yinchoqlari;
- didaktik o‘yinchoq va o‘yinlar;
- sport va harakatli o‘yinlar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar;
- yig‘ma–bo‘linma o‘yinchoqlar;
- teatr va dekorativ o‘yinchoqlar (soya va qo‘g‘irchoq teatrlarining personajlari, dramalashtirilgan o‘yinlar uchun kiyimlar, archa o‘yinchoqlari);
 - o‘yinchoq-ermaklar;
 - ohang chiqaruvchi musiqaviy o‘yinchoqlar;
 - qo‘lbola o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari, turli-tuman o‘yin jihozlari.
- **Syujetli-obrazli o‘yinchoqlardan** syujetli-rolli o‘yin uchun foydalaniladi. U bolalarda ijobiy xarakter qirralarini, muloyimlik, g‘amxo‘rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek, kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o‘ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.
 - **Texnika o‘yinchoqlari** bolalarda texnikaga va texnika asboblari bo‘lgan qiziqish uyg‘otib, ularni o‘z o‘yinlarida qo‘llay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko‘rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o‘yinchoqlar yaqin turadi.
 - **Qurish-yasash o‘yinchoqlari** sodda, boshqarish va foydalanish jihatdan qulay va osondir. Bu o‘yinchoqlarni o‘ynash buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim.

(avtomobilda g'ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinchoqlarning asosiy 2 turi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, silindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to'plami.

b) turli blok — devor, fronton, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura- qurilish materiallari. Mayda (stol o'yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o'ynashga mo'ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xil bo'lishi mumkin.

- **Didaktik o'yinchoqlarning** asosini xalq o'yinchoqlari tashkil qiladi. Ularni o'ynashda bola o'z-o'zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaikalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o'yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

- **Harakatli o'yinlarga** mo'ljallangan o'yinchoqlar: suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, koptoklar, arg'amchilar, chambaraklar va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

- **Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoqlar** bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

- **O'yinchoq-ovutmacholqlar** harakatchan, ko'pincha ovoz chiqaradigan bo'ladi. Ular bolalarni o'zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradilar, syujetlari esa vaqtichog'lik bag'ishlaydi.

- **Qo'lbola o'yinchoqlarni** kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiradilar.

- O'yinchoqlarni materialiga ko'ra: hunarmandchilik, qo'lbola usulida, fabrikada tayyorlanadi.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko o'yinchoqlarning 3 turini ajratib ko'rsatgan edi: **tayyor o'yinchoqlar, yarim tayyor o'yinchoqlar va o'yin materiallari**. Birinchi turi bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o'stiradi. Ikkinchi turi boladan faol faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o'sishga yordam beradi. Uchinchi turi bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning aqliy tafakkurini shakllantirish turli xil vositalar orqali amalga oshiriladi. Avvalo tarbiyalanuvchilarning aqliy tafakkuri har xil faoliyatlar vositasida katta kishilarning mehnati bilan tanishtirish jarayonida (masalan, qo'g'irchoq yasash ishi), har xil mashg'ulotlar va mashg'ulotlardan tashqari, ta'lim berish asosida, mustaqil topshiriqlarni bajarish bilan rivojlantirib boriladi. Bundan tashqari, har xil bayramlar, turli xil tadbirlar, shoir va yozuvchilarning tavallud topgan kunlarini nishonlash jarayonlari, san'at vositalari, bolalar badiiy adabiyoti, tasviriy va amaliy san'at, o'yinchoq va o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari, kino va turli xil multfilmlar, xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan ertaklar, rivoyat va topishmoqlar, maqollar tarbiyalanuvchilarning aqliy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu hamma vositalardan keng ravishda, izchillik va tizimlilik asosida foydalanib borsagina bolalar aqliy tafakkurining

rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar tafakkur va bilimlarini faqat o'yin-mashg'ulotlarda yaxshi o'zlashtirib oladilar. Tarbiyalanuvchilar tomonidan o'zlashtirib olingan aqliy tafakkur jarayoni tasavvur va tushunchalarni ongli ravishda tushunib yetishlari, fikrlashlari dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat, ayrim topshiriqlarni mustaqil bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Ana shunday vositalardan biri maktabgacha yoshdagi (3-5 yoshli) bolalar aqliy tafakkurini shakllantiruvchi asos qo'g'irchoqlardir.

Adabiyotlar:

1. Mirjalilova S., To'laganova R. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. –T.: 2008.

2. Nurkeldiyeva D.A. va boshqalar. Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar. –T.: 2007.

3. Fayzullaeva M., Z. Raximova, M. Rustamova “Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish”. (Tayyorlov guruhi uchun mashg'ulotlar ishlanmasi). -T.: 2010.



BOLA TARBIYASIDA O'YINCHOQNING AHAMIYATI

Babayeva D.R.

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi professori

To'shpo'latova D.M., Azatova L.M., Atabayeva R.A.
talabalar

O'yinchoq — bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo'ldosh, quvonch manbaidir. O'yinchoq bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

Pedagog A.S.Makarenko, “O'yinchoq o'yinning “material asosi”, o'yinchoq o'yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga ta'sir ko'rsatadi”, — deb ta'kidlaydi. Rus pedagoglari o'yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o'rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar ko'lamini ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita deb ta'kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar. Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi,

ularida tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. O‘yinchoq bolalarda – ma’naviy-axloqiy tuyg‘ularni (mehribonlik, avaylash, e’tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg‘otadi. O‘yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondashuv – o‘yinchoq tanlashga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigiyenik, badiiy talab orqali o‘yinchoq tanlanadi.

Pedagogik talab. O‘yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi; jamiyatimiz g‘oyasi nuqtai nazariga mos kelishi, g‘oyaviy jihatdan qimmatli bo‘lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O‘yinchoq bolada olijanob tuyg‘ularni uyg‘otishi, boshqa millat bolalari bilan do‘stona munosabatlarni tarbiyalash, voqelikka nisbatan olijanob tuyg‘ular uyg‘otishi, ijobiy, axloqiy tajriba to‘plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo‘lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg‘otishi kerak. Obrazli o‘yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi. O‘yinchoqning dinamiklik xususiyati undan ko‘p marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o‘yinchoqqa quyidagi talablar qo‘yiladi:

Gigiyenik talablar. O‘yinchoq qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.*Badiiy talablar.* Shakl, bo‘yoq va bezaklarning har tomonlama uyg‘unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to‘ldirib, ta’kidlab, o‘yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. O‘yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to‘la mos kelmog‘i lozim. To‘g‘ri tanlangan o‘yinchoq — bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o‘yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta’sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo‘lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi. O‘yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o‘ynash tuyg‘usini uyg‘otadi va ijobiy his-tuyg‘ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg‘ularni shakllantirishda qo‘g‘irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo‘g‘irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo‘lgan tengdoshlariga bo‘lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San’atni birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo‘lgan o‘yinchoq estetik hislar va kechinmalarni uyg‘otadi, estetik tarbiyani to‘plashga yordam

beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o‘rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo‘lgan xalq o‘yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim.

Qo‘g‘irchoqlar voqea, hodisa va jarayonning obrazli ko‘rinishidir. Qo‘g‘irchoqlar milliy va umuminsoniy xususiyatlarga egaligi bilan insoniyat sivilizatsiyasida yashagan bo‘lib kelmoqda. Uning obrazlilik xususiyati maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tafakkurini, maqsadni shakllantirish imkonini beradi. Bu o‘rinda, ta’kidlash lozimki, aqliy tafakkur tushunchasida bilish, emotsional va anglash tafakkuridan shu jihatlari bilan aqliy tafakkur farq qiladi. Maktabgacha ta’lim sog‘lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zaruriy tashkiliy, uslubiy, psixologik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlash ota-onalar davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Nutq o‘stirish (Bolalar bog‘chalari uchun she‘r va topishmoqlar to‘plami). – T., 2013.
2. D.A.Nurkeldiyeva va boshq. Barmoqlar mashqi va logopedik o‘yinlar. –T., 2007.
3. Jalolova G. «Bolalarni maktabga tayyorlashda noan’anaviy o‘yinlardan foydalanish».- T.:2004.



MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTIDA TABIIY VA TASHLANDIQ MATERIALLAR BILAN ISHLASH TEHNOLOGIYASI

Xasanova Sh.T.

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrasida dotsenti*

Abdiraximova Y.A., Abdullayeva F.Sh.
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari

Tabiiy materiallar tarbiyachi rahbarligida ekskursiyalarda to‘planadi. Ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga bo‘ljak ish namunasi ko‘rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko‘rib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so‘ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya marshrutida alohida e‘tibor beriladigan obyekt (eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi)lar aniqlanadi. Bolalarning e‘tiborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obyektning zarur bo‘lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, to‘planayotgan materialni to‘g‘ri baholashga yo‘llaydigan savollar tuziladi.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko‘tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go‘zalligini, uning ranglarini, to‘kilgan barglar hidi va ular o‘zining elastiklik xususiyatini yo‘qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo‘lib qolganligini ko‘radilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e‘tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o‘simliklarda sodir bo‘layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli shaklda bayon etib beriladi: jumladan, o‘simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko‘ryapti. Barglarni to‘kish bu o‘ziga xos himoya turidir, chunki barglar suvni ko‘p bug‘lantiradi, qishda esa tuproqdan namlik juda kam miqdorda keladi. Shundan keyin bolalarning e‘tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hasharotlar ularning tuzilish shakllari mehnat darslarida hasharotlar applikatsiyasini tayyorlash uchun obraz, to‘plangan barglar material xizmatini o‘tashi kerak.

Bolalar barglarni to‘plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o‘rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o‘stirishga yordam beradi. To‘plangan barglar oldindan tayyorlab qo‘yilgan daftar varaqlari orasiga qo‘yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg‘ulotlarigacha rangini yo‘qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e‘tibori insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etilishi kerak, Ekskursiya oxirida unga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko‘rish, ularning tanasi va qanotlarining shakli, rangi qandayligiga alohida e‘tibor berish topshiriladi.

Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg‘ulotda bolalar applikatsiyalarni zo‘r ishtiyok bilan namoyish qiladilar, agarda applikatsiyani o‘z istaklariga ko‘ra, o‘zlari to‘plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday mashg‘ulot quyidagi sxemaga ega bo‘lishi mumkin:

1. Mashg‘ulot mavzusi va maqsadini aytish.
2. O‘tkazilgan ekskursiya bo‘yicha suhbat quyidagicha bo‘ladi:
 - a) ekskursiyada qayerda bo‘ldik?
 - b) qanday daraxtlarni ko‘rdik, ularning nomi qanday?
 - v) ularning barglarining shakli bir xilmi?
 - g) qanday hasharotlarni ko‘rdik?
3. Namuna tahlili:

- a) kapalak qanday qismlardan tashkil topgan?
- b) uning qismlari qanday joylashgan?
- v) uni tasvirlashda qaysi daraxtlar barglaridan foydalanilgan?

4. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

- a) kapalakning ayrim qismlari (tanasi, qanotlari)ning joylashishini tasvirlash;
- b) kapalakning tanasi va qanotlari uchun shakli hamda o'lchamlari bir xil bo'lgan barglari topish;
- v) ularni qog'ozda joylashtirish;
- g) ishni amaliy bajarish.

5. Tarbiyachining ishni bajarish usullari haqidagi tushuntirishlari.

6. Applikatsiyani bajarish bo'yicha mustaqil ish:

- a) kapalakning ayrim qismlarini qog'ozda to'g'ri tasvirlash;
- b) shakl, o'lcham va bo'yoqlarini to'g'ri tanlash;
- v) yelimlash ishlarini tartibli bajarish;
- g) kapalakning ko'z va mo'ylarini to'g'ri tasvirlash;
- d) ish bajarilgan qog'ozning orqasida barglaridan foydalanilgan daraxtlarning nomlarini yozish;

7. Ishni baholash.

Ijodiy xarakterdagi ishlar. Masalan: "Baliqlardan kompozitsiya tuzish". Tarbiyachi umumiy vazifa beradi, bolalar esa, tarbiyachi namunasi asosida o'z variantlarini izlaydilar.

Tarbiyachi doskaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni osib qo'yib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, baliqning boshi, qanotlari, dumining shakli tahlil qilinadi. Baliq turiga ko'ra uning tanasi, qanot va dumlari har xil bo'lishi mumkinligi aniqlanadi, shuning uchun bu ishda turli tabiiy materiallardan foydalanish mumkin bo'ladi. Shundan so'ng ishni bajarish tartibi aniqlanadi. Avval baliq qismlari uchun material tanlash, uning umumiy tarhini chizish kerak. Shundan keyin qaysi detalning qanday tartibda yelimlanishini, detallarning joylarini aniqlash va so'ngra ishga kirishish lozim. Bunday yumushlar bajarilayotgan ishga ijodiy yondashishni o'stirishga yordam beradi. Mashg'ulotga yakun yasash va bajarilgan ishni baholashda tarbiyachi foydalanilgan materiallar nomini so'raydi.

Adabiyotlar:

1. М.Нурматова, Ш.Хасанова. Д.Азимова. Устахонада амалий машғулот. «Чўлпон». Т., 2010 й.
2. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. Т., 2001.
3. Акулова.О.Театрализованные игры.\\ Дошкольное воспитание, 2005,№4.

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTIDA SAXNALASHTIRISH FAOLIYATI

Xasanova Sh.T.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi dotsenti*

Karimqulova Z.Q., Nasimova G.Sh.
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalari

Teatr katta tarbiyaviy kuchga ega. U bolalarning kechinmalariga kuchli ta’sir qiladi, axir ular teatr qahramonlari bilan birga yashab, ularning xursandchilik va qayg‘usini bo‘lishadi. Sevimli o‘yinchoqlar ishtirokidagi eng oddiy teatr sahna ko‘rinishi bu nafaqat qiziqarli mashg‘ulot, balki ota-ona uchun bola nutqi, xotirasi, ijodiy qobiliyati, axloq-odobi, do‘stona munosabatlar va dunyoqarashini kengaytirish va rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatdir. Bola undagi bezaklarni o‘zi tayyorlab, rassom va dizaynerlik qobiliyatlarini uyg‘otishi, undagi kostyumlarni o‘ylab topishi, ssenariysini yozishi va sahna ko‘rinishida rol o‘ynashi mumkin. Bu uy sharoitidagi oddiy teatr sahnasi bo‘lsa ham uning imkoniyatlari katta ekanligini unutmazlik zarur. Teatr bolaga undagi qo‘rquv va boshqa kamchiliklarni, shuningdek, o‘ziga nisbatan ishonchsizlikni yengishga yordam beradi. Bola sahna ko‘rinishini sahnalashtirish davomida muloqot qilishni o‘rganadi, uning yashirin qobiliyatlari yuzaga chiqadi.

Teatrlashtirilgan tomoshalarining repertuarlarini xalq ertaklari, she’rlar, qo‘shiqlar tashkil qiladi. “Ur to‘qmoq”, “Sholg‘om”, “Teremok”, “Uch og‘ayni botirlar” va shu kabi boshqa ertaklarni zerikmay, ko‘p martalab ko‘rish mumkin; bolalarga ularda ezgulikning g‘alaba qilishi va xayrli tugashi yoqadi. Teatrlashtirilgan tomosha turining tanlanishi bolalarning yoshiga bog‘liqdir. Kichkintoylar yumshoq, obrazli o‘yinchoqlarni juda yoqtiradilar. Ayiqcha, quyoncha, kuchukcha bilan o‘tkaziladigan kichik sahnalar kichkintoylarni doimo quvontiradi va odatda ularda ijobiy emotsiyalar uyg‘otadi. Yaxshi obrazli o‘yinchoqlar bilan kattaroq maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ham teatrlashtirilgan tomoshalar ko‘rsatish mumkin. Stol teatrining sxematik, yassi figuralarini kichkintoylarga ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘lmasa-da, katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bular yordamida ertakni yaxshiroq idrok etadilar va keyinchalik stol teatri

figuralaridan mustaqil teatrlashtirilgan faoliyatlarida foydalana oladilar. “Fonus xayol” qo‘g‘irchoq teatrlari va boshqa teatrlashtirilgan tomoshalar doimo bolalarda qiziqish uyg‘otadi, tasavvurlarini boyitadi. Bolalar uchun konsert, teatrlashtirilgan tomoshalar tashkil qilish doimo katta tayyorgarlikni, har bir nomerning ishlangan bo‘lishini talab qiladi. Faqat shu talablar bajarilgandagina ularni bolalarga ko‘rsatish mumkin. “Sholg‘om”, “Teremok” va shu kabi boshqa ertaklar motividagi qo‘g‘irchoq spektakllarni barcha bolalarga ko‘rsatish mumkin. Kichkintoylar uchun bu spektakllar oddiygina qiziqarli ko‘ngil ochish bo‘lsa, u kattaroqlari, tekstni yaxshi biladiganlarini mustaqil badiiy faoliyatga undaydi. To‘g‘ri, ularning hamma urinishlari ham kattalarniki singari chiqavermaydi, biroq bolalarning ijodiy intilishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozim.

Shunday qilib, tomosha qilinadigan ko‘ngil ochishlarning har xil turlari badiiy idrok, tasavvur, emotsional iltifotlilik, estetik didni o‘stirishda hamda bolalarning qiziqishini shakllantirishda, ijodkorligini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Bolalarning o‘zlari ijrochilar tarzida ishtirok etadigan ko‘ngil ochishlar alohida ahamiyatga egadir. Bular bolalar konsertlari, drammatizatsiyalar, butun teatrlashtirilgan tomoshalar, musiqali va adabiy o‘yinlar, attraksion ko‘ngil ochishlar bo‘lishi mumkin. Bu ko‘ngil ochishlarning hammasi ularda bolalarning qobiliyatlari namoyon bo‘lishi, ularning tortinchoqligiga barham berishi, faolligining o‘sishi, shaxsning ijodiy sifatlari shakllanishi bilan qimmatlidir.

Bunday ko‘ngil ochishlarning asoslarini odatda dastur talablariga javob beruvchi adabiyot va musiqa materialini tashkil etadi, ya‘ni konsert repertuari, drammatizatsiya, bolalar qo‘g‘irchoq teatri spektaklining mazmuni bolalarga tushunarli bo‘lishi kerak. Faqat tashkil qilishdagi qisman sirlilik, favquloddalikkina bolalar faoliyatining bu doirasida alohida muhit yaratadi. Bolalarning chiqishlari — faqat ishtirok etuvchilarning o‘zlari uchungina emas, balki tomoshabinlar — kichik do‘stlari, tengqurlari uchun ham ko‘ngil ochishlardir. Bolalar konsertlarida badiiy faoliyatning har xil turlari (nomerlari) birikib ketadi. Bunda raqslar ham (yakka, jamoaviy), badiiy o‘qish ham, qo‘shiq aytish ham (yakka yoki xorda), musiqa asboblarini chalish ham bor. Bolalar bilganlarini, bajara oladiganlarini ijro etadilar. Tarbiyachi bolalar konsertini ko‘ngil ochish tarzida tayyorlar ekan, har bir bolaning qiziqish va ijrochilik imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Hamma bolalar konsertga qiziqqan bo‘lishlari va faol ishtirok eta olishlari muhimdir.

Bolalar konsertlari, katta kishilar tomonidan ular uchun tayyorlangani ham, bir mavzuga birikkan nomerlardan tashkil topishi mumkin. Ba‘zan bu konsertlar bir necha bolalar tashabbusi bilan to‘satdan paydo bo‘luvchi badiihalardir. Bunday holatda ijrochilik darajasi, albatta doimo ham yuqori darajada bo‘lavermaydi, biroq bu o‘rinda bolalarning mustaqilligi, ular ijodiy faolligining namoyon bo‘lishi qimmatlidir. Bolalar ko‘ngil ochishlarining qulay shakli xilma-xil teatrlashtirilgan tomoshalardir. Ertaklar, she‘rlar, qo‘shiqlar, musiqali-o‘yin kompozitsiyalarning drammatizatsiyasi

mazmuni va harakatiga ko‘ra oddiy bo‘lishi, tarkibiga qisqa monologlarni, asosan, ishtirok etuvchilarni dialoglarini olishi kerak. Bu ko‘pchilik bolalarning faqat diqqat berib tinglovchi tomoshabin emas, balki qiziqqan ishtirokchi-ijrochi ham bo‘lishlariga imkon beradi. Tomoshalarni tayyorlash vaqtida tarbiyachi tinch, ijodiy holatni yaratishi, ortiqcha maslahatlar beravermasligi kerak. Bolalar qo‘g‘irchoq teatrining tomoshalaridan ko‘ngil ochishlar tarzida drammatizatsiyaga qaraganda kamroq foydalaniladi, biroq bu tamoman to‘g‘ri emas. Garchi, albatta bolalar teatrlashgan faoliyatining bu turiga rahbarlik qilish qo‘g‘irchoqlar o‘ynatish texnikasi va maxsus sahna harakatlarini tashkil qilishda maxsus bilimlarni talab qiladi.

Qo‘g‘irchoq teatrining bolalar uchun o‘ng‘ay bo‘lgan turlari orasida o‘yinchoqlar teatri, barmoq va qo‘lqopda o‘ynatiladigan teatrlar mavjud. Bundan tashqari, bolalar yassi va hajmli figuralar bilan flanelegrafda tomoshalar qo‘yishni yoqtiradilar. Personajlarni ishonch bilan boshqarish, tekstlarni ifodali talaffuz qilish va harakatning o‘zi “artist”larga ham, tomoshabinlarga ham huzur baxsh etadi.

Teatrlashtirilgan ko‘ngil ochishlarning xususiyati shundan iboratki, ularning hammasi qo‘shimcha tashqi bezashlarni talab qiladi. Ularning tomoshaboblighi, teatrlashtirilganligi ishtirokchilarni tarbiyachi yordamida yoki to‘la mustaqil ravishda kerak bo‘ladigan kostyumlar, dekoratsiyalar, atributlar, tomosha paytida kerak bo‘ladigan narsalarni tayyorlashga majbur qiladi. Bularning barchasi bolalarni estetik tarbiyalashning muhim vositasi bo‘lib qoladi. Bolalarning xilma-xil ko‘ngil ochishlari orasida ayrim bolalar yoki butun guruhlar o‘rtasidagi musobaqa tipidagi qiziqarli o‘yinlar ma’lum o‘rinni egallaydi. Bunday o‘yinlarni odatda tarbiyachi uyushtiradi va o‘tkazadi, biroq ularning faol ishtirokchilari bolalar hisoblanadi. Bu o‘rinda adabiy, musiqali va badiiy viktorinalar, konkurslar, harakatli va tinch o‘yinlar, xorovodlar, turli xarakterdagi (marsh, raqs, alla) cholg‘u muzika jo‘rligida ritmik harakatlar, attraksionlar bo‘lishi mumkin.

O‘yin va ovutmachoqlar uzoq davom etmaydi, biroq bolalar e’tiborini to‘plash va boshqa tomonga yo‘llashga, odatiy holatni yumshatishga, shod, ko‘tarinki kayfiyat yaratishga yordam beradi. Pedagog ko‘ngil ochishlarni tanlashda bir narsani, ya’ni ularning ko‘pchiligi ssenariyning adabiy ishlanishini (mavzuning izchil ochib berilishi, harakatning bir qismidan ikkinchisiga mantiqiy bog‘langan holda o‘tish va boshqalar) hamda harakat bo‘lib o‘tadigan binoni puxta o‘ylab jihozlash talab qilinishini unutmasligi kerak. MTMda tizimli tarzda o‘tkaziladigan ko‘ngil ochishlar bolalar hayotini boyitadi, ularning to‘laqonli va garmonik rivojlanishlariga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O.Xasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: “Aloqachi”, 2007 y.
2. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T., 2001.

3. М.Нурматова, Ш.Хасанова. Д.Азимова. Устахонада амалий машғулот. «Чўлпон». Т., 2010 й.

4. Акулова.О.Театрализованные игры.\\ Дошкольное воспитание, 2005,№4.



SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOSLIGI

Xasanova Sh.T.

*Nizomiy nomidagi TDPU, “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi dotsenti*

Muxtarova D.A., Alimkulova L.X.

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalari

Bolalar ijodkorligi teatrlashtirilgan faoliyat orqali yuzaga chiqadi va rivojlanadi, u bola shaxsiyatini rivojlantiradi, adabiyot, teatr, musiqaga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, o‘yin jarayonida aniq bir hissiyotni ifoda etish ko‘nikmasini shakllantiradi, fikrlashga, yangi obrazlar yaratishga yo‘naltiradi. Pedagog, psixolog va ota-onalarni o‘ylantirgan bir muammo borki, u ham bo‘lsa ayrim bolalarda ro‘y beradigan qo‘rquv, qo‘zg‘alish, sustkashlik kabi holatlarning paydo bo‘lishi, boshqa bolalarda ro‘y beradigan lanjlik, shoshma shosharlik kabi holatlarning paydo bo‘lishidir. Bolalarda ko‘p hollarda o‘zini tuta bilish ko‘nikmalari shakllanmagan, xotira, diqqat va nutq yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Bolani hissiy chiniqtirish, siqilgan holatni yo‘qotish, badiiy tafakkur va his qilishni tarbiyalashning eng yaxshi yo‘li – o‘yin, fantaziya va to‘qib chiqarish orqali amalga oshiriladi. Buning barchasini teatrlashtirilgan faoliyat bera oladi. Bolalar ijodiyotining eng ko‘p tarqalgan turi sifatida aynan drammatizatsiya badiiy ijodiyotni bolaning ichki kechinmalari bilan bog‘laydi, chunki teatr bolaning hissiy dunyosiga ta’sir qila olishga ega bo‘lgan katta kuchdir.

Shuningdek, teatrlashtirilgan faoliyat bolalarni har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar ijodiy faoliyatining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun tarbiyachi quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim:

- teatrlashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishga sharoit yaratish (ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, sahnadagi ijro jarayonida o‘zini erkin tutish va ijrodan zavqlanish, mimika, intonatsiya, ahamiyatli harakatlar va h.k bilan improvizatsiya qilishga yo‘naltirish va sh.k.);

- bolalarni teatr madaniyati bilan tanishtirish (teatr faoliyati, teatr janrlari, qo‘g‘irchoq teatri ko‘rinishlari va turlari);

- teatrlashtirilgan faoliyatni boshqa faoliyat turlari bilan yaxlit pedagogik jarayon sifatida uygʻunlashtirish;

- kattalar va bolalarning birgalikda teatrlashtirilgan faoliyat olib borishlariga sharoit yaratish.

Mazkur mezonlarni amalga oshirishda bir qator sharoitlarni yaratish lozim. Bu, birinchi navbatda, barcha talablarga javob bera oladigan ish jarayoni. Bizning fikrimizga koʻra, bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini toʻgʻri tashkil etilishi pedagogik jamoaning mazkur ish yuzasidan kadrlar salohiyatini toʻgʻri taqsimlanishiga va yoʻnalish, shakl va ish uslublarini toʻgʻri tanlanishiga yordam beradi. Bu bolalar bilan muloqotning yangi usullarini amalga oshirishga, har bir bolaga individual yondashishiga, oilalar bilan noanʻanaviy tarzda birgalikda ish olib borishga yordam beradi.

Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarni fikrlovchi va his qiluvchi, sevuvchi va faol inson, har qanday holatda ijodiy faoliyatga tayyor qilib tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qoʻyish lozim.

“Art-fantaziya” dasturi

Shunday talablarga E.G.Churilovning teatrlashtirilgan faoliyatga oid “Art-fantaziya” dasturi javob beradi. Bu soʻzma-soʻz ijroni anglatmaydi. U kattalarni (pedagog, ota-onalarni) mazkur dasturdan foydalangan holda bolaning olamni his qilishi va oʻzini tutishida estetik tizimlarni faollashtirib, yangi sharoitlar yaratishga yoʻnaltiradi.

“Art — fantaziya” dasturi besh qismdan iborat boʻlib, maktabgacha taʼlim muassasasining katta va oʻrta guruh tarbiyalanuvchilari bilan dastur asosida ikki yil davomida ish olib borilmoqda.

1. “Teatrlashtirilgan oʻyin” — bolalar tomonidan faqatgina bilim va koʻnikmalarni olishga qaratilgan boʻlmay, balki oʻyin faoliyatini, estetik his, har qanday ishga ijodiy yondashish, oʻz tengdoshlari va kattalar bilan turli holatlarda muloqotga kirisha olishni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Bu boʻlimning barcha oʻyinlari shartli ravishda ikki turga boʻlinadi: umum rivojlantiruvchi oʻyinlar va maxsus teatrlashtirilgan oʻyinlar.

2. “Ritmoplastika” — bolalarning tabiiy psixomotorika qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, atrof-olam va jism oʻrtasidagi uygʻunlikni his qiluvchi, tana harakati erkinligini rivojlantiruvchi ritmik, musiqiy, plastik oʻyin va mashqlar majmuasini oʻz ichiga qamrab oladi.

3. “Nutq texnikasi va madaniyati” — intonatsiya, mantiqiy nutq va orfoepiya, diksiya, toʻgʻri artikulyatsiya qoidalarini bilishi, toʻgʻri nafas olish va erkin nutq koʻnikmalarini shakllantirishga qaratilgan oʻyin va mashqlarni birgalikda olib borish. Aynan shu boʻlimga nutq shakllarini, badiiy fantaziya, kichik ertak va hikoyalar, sodda sherlar tuzish koʻnikmalarini rivojlantiruvchi soʻz oʻyinlari qoʻshilgan.

Shunday qilib, barcha mashqlarni uch turga ajratish mumkin:

- nafas va artikulyatsion mashqlar;
- diksion i intonatsion mashqlar;
- soʻz bilan ijodiy oʻyinlar.

• “Teatrlashtirilgan madaniyat” — bolalarning teatr sanʼatiga oid boshlangʻich kasbiy terminlari haqida maʼlumot va tushunchaga ega boʻlishi. Boʻlimga quyidagi asosiy mavzular kiritilgan: “Teatr sanʼati xususiyatlari”, “Teatr sanʼati turlari”, “Asarning tugʻilishi”, “Teatrning ichki va tashqi dunyosi”, “Tomoshabin madaniyati”.

• “Sahna asarini tayyorlash” — mualliflik asarlarini asoslab, oʻz ichiga quyidagi mavzularni qamrab oladi: “Asar bilan tanishish”, “Kichik koʻrinishlardan sahna asarigacha”.

E.G.Churilova faoliyat turlari boʻyicha umumiy dasturiy vazifalarni quyidagicha shakllantiradi:

- Kognitiv qiziqishni faollashtirish.

• Suhbat olib borishga, sahnadagi hamkorini oʻzi tanlashga, berilgan soʻzlarga taʼriflar tanlashga, asosiy his-tuygʻularni ifodalashda intonatsiyadan foydalanishga oʻrgatadi.

• Teatrda oʻzini tutish madaniyati, tengdoshlariga nisbatan yaxshi munosabatda boʻlish va ular bilan doʻstona aloqalarni oʻrnatish koʻnikmalarini tarbiyalash.

• Koʻrish va eshitish diqqati, xotira, topqirlik, kuzatuvchanlik, fantaziya, tasavvur, tasviriy fikrlash, buyruqlar yoki musiqa signaliga qarab harakatlanish qobiliyati, boshqa bolalar bilan kelishilgan holda harakatlanish, turli vaziyatlarda insonlar bilan aloqa qilish qobiliyati, sahna sanʼatiga qiziqish, har qanday hayoliy vaziyatga chin dildan ishonish (oʻzgarish va oʻzgartirish), tasavvurdagi jismlar bilan harakatlanish koʻnikmasi, ritm va harakatlarni muvofiqlashtirish, plastik taʼsirlilik va musiqiylik, bolaning harakat qobiliyatlari, chaqqonlik va harakatchanlik, boshqa ijrochilar bilan toʻqnashmagan holda sahnada toʻgʻri harakatlanish, turli plastik harakatlar yordamida tirik mavjudotlar obrazini yarata olishni bilish, turli qoʻl harakatlaridan foydalanishni bilish, musiqiy asarlarning xarakter va kayfiyatini, toʻgʻri artikulyatsiya va nutq jarayonida toʻgʻri nafas olish, tez aytish va sherlar orqali diksiyani erkin plastik improvizatsiyalarda yetkazib bera olishni rivojlantirish.

• Bolalarni teatr terminlari, teatr sanʼati turlari, sahna asari yaratuvchilari (teatr sanʼatining bosh ijodkorlari), tomosha zali va sahna bilan tanishtirish.

- Asosiy mushaklar guruhi bilan ishlashni bilish.

- Soʻz lugʻatini boyitish.

- Cheklanganlik va qoʻrslikni olib tashlash.

- Ertaklar asosida etyudlar oʻylab topish.

• Bolalarga maʼlum ertak mavzulari asosida dramatisatsiyalashgan oʻyinlarni improvizatsiya qilish.

“Art-fantaziya” dasturida tavsiya etilgan ko‘nikma va malakalar:

- Kelishilgan holda yakka tartibda yoki ketma-ketlikda harakatlanishiga tayyorlik;
- har bir bolaning tashqi ko‘rinishini eslab qolish va tasvirlab berish;
- 5-8 artikulyatsion mashqlarni bilish;
- to‘liq bir yengillik uchun turli mushak to‘qimalari bilan ishlashni bilish; qisqa nafas olish va uzun nafas chiqarish, nutq o‘rtasida nafas chiqarmaslik; tez aytishlarni turli tezlikda, pichirlab va ovozsiz aytish; bitta jumla yoki tez aytishni turli intonatsiyalarda aytish; dialogik she‘riy matni so‘zlarni to‘g‘ri va aniq qo‘llagan holda kerakli intonatsiyada ifodali tarzda yoddan aytib berish; berilgan so‘zlar asosida gap tuzish; sodda dialoglar tuzish, ertaklar asosida etyudlar o‘ylab topish.

Tarbiyachi-pedagog katta guruh tarbiyalanuvchilari bilan ishlash jarayonida quyidagilarni bilishi lozim:

- fikrlash jarayoni va bilishga qiziqish, assotsiativ va majoziy fikrlashni kuchaytirish;
- sahna san‘atiga ta’sirchanlik, ixtiyoriy diqqat, xotira, kuzatuvchanlik, topqirlik, fantaziya, fikr tezligi, tashabbuskorlik va topqirlik, o‘zini harakatlarini sahnadagi sheriklari bilan kelishish, o‘zaro fikr almasha olish va turli holatlarda kattalar bilan muloqotga kirisha olish, jismlarga, sahnadagi sheriklariga va harakat joyiga nisbatan munosabatini o‘zgartirish; o‘zgarish va o‘zgartirish, o‘zining harakatlarini hayoliy sabablar bilan oqlay olish, bir harakatni turli holatlarda tirli hilda bajara olish, tana harakatlarini boshqara olish, to‘liq bir yengillik uchun turli mushak to‘qimalari bilan ishlashni rivojlantirish;
- bolalarni ijodkorlikka, tengdoshlariga bilan yaxshi munosabatda bo‘lish va ular bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatish ko‘nikmalarini tarbiyalash.
- buyruqlar yoki musiqa signaliga qarab harakatlanish qobiliyatini mustahkamlash;
- muloyim xatti-harakatlar qilish ko‘nikmalarini singdirish;
- boshqa bolalar harakatlarini baholash va ularni o‘zining harakatlari bilan solishtirish;
- bolalarni sahnada tabiiy harakatlanishga o‘rgatish, tarbiyachi tomonidan berilgan yoki o‘ylab topilgan syujetlar asosida mustaqil etyudlar, emotsiyalar, harakatlar o‘ylab topish, sahnadagi hamkorlari harakatlariga yetarlicha e’tibor berishga o‘rgatish;
- bolalarning motorika qobiliyatlari, moslashuvchanlik va chidamlilik, xayoliy narsalar bilan ishlash qobiliyatini oshirish;
- dramatzatsiya o‘yinlarini bolalarga ma’lum ertaklar asosida drama, balet, opera kabi improvizatsiya qilish.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida teatrlashtirilgan faoliyat kunning istalgan vaqtida musiqa, tasviriy san’at va boshqa mashg‘ulotlar davomida, shuningdek ona tili, atrof-olam kabi haftalik mashg‘ulotlarga singdirilgan holda tashkil etilishi mumkin. Har bir tarbiyalanuvchiga individual

yondashish maqsadida teatrlashtirilgan faoliyatning barcha turlarini tashkillashtirishda kichik guruhlar shaklida o‘tkazish maqsadga muvofiq. Mashg‘ulotdan kelib chiqqan holda kichik guruhlar har gal har xil shakllanishi lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O.Xasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: “Aloqachi”, 2007 y.
2. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T., 2001.
3. M.Нурматова, Ш.Хасанова. Д.Азимова. Устахонада амалий машғулот. «Чўлпон». Т., 2010 й.
4. Акулова.О.Театрализованные игры.\\ Дошкольное воспитание, 2005,№4.



UMUMIY TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSADI

Lutfullayev A.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Musiqqa madaniyati” fakulteti dekani, professor*

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy sohalarda tub ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan ma’naviy tiklanish, yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, milliy ma’naviy, madaniy merosimiz durdonalari bilan tanishtirish jarayonlari yuksak darajadagi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni rag‘batlantirish asosiga qo‘rilmog‘da. Milliy ma’naviy, madaniy jumladan musiqiy merosdan foydalanish imkoniyatlari va ulardan foydalanish holatini, ularga yuklatilgan pedagogik, ma’naviy – axloqiy tarbiya vazifalari nuqtai nazaridan o‘rganish muhim ilmiy-pedagogik vazifa bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda ko‘pgina ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda musiqqa ta’limi va tarbiyasida ham keskin islohotlar amalga oshirilmoqda. Musiqqa ta’limidan davlat ta’lim standartlari asosida yangi ta’lim mazmuni o‘qituvchilarning musiqiy va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi. Shu bois, musiqqa ta’limi ta’limining mazmuni yosh avlodning milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilar musiqqa san’atini butun nafasati bilan o‘rganishlari, ommaviy musiqqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilar

musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart – sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyoqlarini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi.

Umumiy ta'lim maktablarida musiqa darsini asosiy maqsadi – o'quvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularda musiqa ta'limini tarkib toptirishdan iborat. *Mazkur maqsad o'qituvchi oldiga o'quvchilarda musiqaviy-badiiy did va axloqiy estetik his-tuyg'ularni tarkib toptirish; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; ularda musiqa san'atiga nisbatan qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy ehtiyojni kuchaytirish; musiqa savodxonligi ta'limini shakllantirish; musiqa-davr, hayot, inson his-tuyg'ulari va orzu-umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalar qo'yadi.*

Musiqa ta'limi darsining mazmuni, ta'sirchanligi tarbiyaviy mohiyati ko'p jihatdan o'qituvchining maxsus va umumiy pedagogik tayyorgarligiga bog'liqdir. Musiqa pedagogikasiga doir adabiyotlar musiqa muallimining turli xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ayrim hollarda eng yaxshi musiqachi, hofiz yoki bastakorning musiqa muallimi sifatidagi faoliyatiga baho berib, undagi pedagogik ma'lumotlarning yetarli bo'lmagani salbiy tomon deb ko'rsatiladi. Aksincha, barcha muallimlarga xos pedagogik bilim va ko'nikmalarga xos pedagogik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, musiqachiligi o'rtamiyona bo'lgan muallimning musiqa muallimi sifatidagi faoliyati afzalroq sanaladi. Musiqiy hayot jarayonida har qanday musiqa ahli bir xil musiqachi nomi bilan atalsada, ularning boshqa-boshqa soz ijrochisi ekanligi barchamizga ayon. Masalan, tanburchi g'ijjani, dutorchi nayni chala olmasligi mumkin. Musiqa muallimining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsiga ssenariy muallifi, uning artisti ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi. Shu bois musiqa darsi, bu o'ziga xos «san'at» darsi desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

